

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ  
ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

*Жиззах давлат педагогика институтининг биринчи ректори, институт ташкилотчиси, таниқли тилшунос олим, ўзбек сўзлашув нутқи мактабининг асосчиси, филология фанлари доктори, профессор Бозорбой Ўринбоев таваллудининг 84 йиллиги муносабати билан олимнинг ёрқин хотирасини эъзозлаш*

**“УМУМФИЛОЛОГИК  
ТАДҚИҚОТЛАР: МУАММО ВА  
ЕЧИМЛАР”**

*Республика илмий-амалий конференция  
материаллари*

**Тошкент – 2019**

Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва Ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда халқ таълими вазирлигига қарашли ўқув юртларида фаолият кўрсатаётган профессор-ўқитувчилар мустақил тадқиқотчилар ва филология факультетлари талабаларининг Абдулла Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институтида Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги миқёсида ўтказиладиган “Умумфилологик тадқиқотлар: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари асосида тайёрланди.

*Тўпланда нашр этилган мақола ва тезислар мазмуни ҳамда савияси учун муаллифлар масъулдир.*

Конференция материаллари тилшунос олимлар, мустақил тадқиқотчилар, ўзбек тили ва адабиёти факультети ўқитувчилари, магистрант ва бакалавр талабаларга мўлжалланган.

### **Масъул муҳаррир**

Абдували Сулаймонович Мусаев  
Ўзбек тили ўқитиш методикаси кафедраси мудири ф.ф.н., доцент

### **Тўпламни нашрга тайёрловчилар**

Жамолиддин Жўраев,  
Филология фанлари номзоди доцент в.б.  
Собир Аҳмедов  
катта ўқитувчи

### **Такризчилар**

Жалолиддин Жўраев, филология фанлари доктори (Doctor of Science);  
Суннатулла Сойипов, филология фанлари номзоди доцент;  
Мардонкул Турсунпўлатов, филология фанлари номзоди, доцент.

### **Таҳрир ҳайати аъзолари**

доц.Т.Алмаматов, доц. С.Сойипов, доц. А.Мусаев, доц. У.Қосимов, доц. Б.Файзуллаев, доц.М.Турсунпўлатов, ф.ф.н. доц.в.б. Ж.Жўраев, ф.ф.н. Ш.Алмаматова, ф.ф.ф.д.(PhD) Т.Кўчқоров, ф.ф.ф.д.(PhD). Д.Салимова, ф.ф.ф.д., (PhD). Ф.Жумаева. катта ўқитувчилар А.Абдувалиев, З.Абдувалиева, С.Аҳмедов, Л.Ибрагимова, С.Дўстова, З.Жумаева ўқитувчилар Д.Файзуллаева, Х.Ибрагимов, А.Усмонов, О.Мамиров

### **Мусахҳихлар**

Ж.Жўраев, С.Аҳмедов, З.Қаршибоева

Ушбу тўплам А.Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти Илмий Кенгашининг 2019 йил 5 апрель ойидаги 5-сонли қарори билан нашрга тавсия этилган.

## СЎЗ БОШИ

Биз яшаётган давр сўнги икки йилда ниҳоятда ўзгариб бормоқда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947 фармони асосида “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига асосан халқимизнинг ҳуқуқий демократик жамият барпо этиш зарурияти дунёқарашни тубдан ўзгартириш, истиқлол мафқурасини шакллантириш, халқ маънавиятини юксалтиришни тақозо этмоқда.

Кўп асрлик тарихимиз шуни кўрсатадики, инсон дунёқарашни шаклланишида маърифатнинг, хусусан, ижтимоий фанларнинг ўрни беқиёс. Миллат озод бўлса, ўз турмуш тарзига мувофиқ фикрласа, тилни, унинг муаммоларини дунёқарашига хос ҳолда идрок эта олса, унинг ўз маънавияти шаклланади. Бундай маънавият халқ манфаатларини ақл-идрок, мафкура йўли билан ҳимоя қилишга, унинг онги, дунёқарашини юксалтиришга хизмат қилади. Бугун таълим-тарбия тизимини тубдан такомиллаштириш мақсадида амалга оширилаётган демократик ислоҳотлар, инсонларнинг онгу тафаккурини ўзгартиришга қаратилган муаммо ва камчиликларни бартараф этиш, таълим-тарбия жараёнининг шаффофлигини таъминлаш, шу билан бирга жаҳон стандартлари асосидаги эзгу ишлар билан форумлар, конференциялар натижаларга эришиш йўлида фидокорона сидқидилдан хизмат қилишга қаратилган.

Жиззах давлат педагогика институти 1974 йил ташкил этилган бўлиб, вилоятдаги тўнғич ташкилотлардан биридир. Ҳозирги кунда таълим-тарбия жараёнида юксак даражада ўз ўрнига эга бўлиш мақсадида ривожланган давлатларнинг олий ўқув юртлари, жумладан, Буюк Британиянинг Норвеги университети, Россия Федерациясининг Москва, Санкт-Петербург давлат педагогика институтлари, Бошқирдистон давлат педагогика университети, Қозоғистон Республикасининг Тарас педагогика университетлари билан ҳамкорлик ўрнатилган.

Ўзбек адабий тили қатъий қонун-қоидаларга, яъни адабий нормага эга. Адабий тил нормасига қатъий амал қилиш она тилига, унинг соҳиби ҳисобланган ўзбек халқига, Ватанимизга ҳурмат-эҳтиром кўрсатиш билан баробардир. Таълим жараёнида тилдан фойдаланиш, ҳозирги ўзбек адабий тил нормаларига риоя этиш давр талабидир. Ўзбек тилшунослигининг таниқли олими, профессор Бозорбой Ўринбоев 19 йил давомида С.Айний номидаги Самарқанд давлат педагогика институти (1972-1974) ректори А.Қодирий номидаги Жиззах давлат педагогика институти (1974-1992) ректор сифатида фаолият кўрсатган. Шу билан бирга олим Б. Ўринбоев “Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория” (Тошкент, 1972), “Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари” (Тошкент, 1974), “Ўзбек сўзлашув нутқи синтактик қурилиши” (Тошкент, 1978), “Ўзбек адабий тили турк-калтатой шевасининг грамматик хусусиятлари” (Тошкент, 1985), “Туркий

филологияга кириш” (Тошкент, 1989), “Ҳозирги ўзбек тили синтаксисидан маърузалар” (Тошкент, 1990, 1991), “Ўзбек адабий тили тарихи” (Тошкент, 1999), “Ҳозирги ўзбек адабий тили (синтаксис)” (Самарқанд, 2006), “Ҳозирги ўзбек адабий тили” (Самарқанд, 2001), “Ўзбек сўзлашув нутқи” (Тошкент, 1982), “Ўзбек адабий тили тарихи” (Тошкент, 1982) каби китоблар муаллифи. Матн, матншунослик ва матннинг филологик таҳлили масалалари ҳам проф.Б.Ўринбоевнинг диққат марказида бўлган. Буларнинг барчаси олимнинг илмий тадқиқ доираси кенг, текшириш объекти хилма-хил эканлигини кўрсатади.

Олим илмий фаолиятининг катта қисмини тилшунослик соҳасидаги илмий кадрларни тайёрлашдек фахрли ишга бағишлади. Унинг илмий раҳбарлигида 1 докторлик, 8 та номзодлик диссертацияси ҳимоя қилинган. У шу кунга қадар тилшунослик назарияси ва тарихи муаммолари бўйича ҳимоя қилинган 12 та докторлик, 14 та номзодлик диссертацияларига расмий оппонент бўлди, 120 дан ортиқ номзодлик ва докторлик диссертациялари авторефератларига ўз тақризларини тақдим этган.

Олим илмий фаолиятини жамоат ишлари билан мустаҳкам боғланган ҳолда олиб борди. У Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг Республика ўқув-методика маркази она тили ва эски ўзбек ёзуви бўйича илмий-методик кенгаши, Ўзбек тили доимий анжумани ҳайъати, Ўзбекистон ФА тилшунослик ва адабиётшунослик бўлими Самарқанд бўлими қошидаги “Миллий тиллар тараққиёти қонуниятларини мувофиқлаштирувчи” илмий муаммо кенгашининг аъзоси, Ўзбекистон ФА Тилшунослик институти хузуридаги тилшунослик бўйича илмий даражаларни бериш илмий кенгашининг аъзоси ҳамда Самарқанд давлат университети қошидаги номзодлик диссертациялари ҳимоя қилишга ихтисослашган кенгаш аъзоси сифатида 1982-2014 йилларда фаолият кўрсатган.

Устоз ва мураббий Бозорбой Ўринбоев бутун ҳаёти давомида республикамизда халқ маорифи равнақиға, етук филолог кадрлар тайёрлаш ишиға, тилшунослик илмининг ривожланишиға салмоқли ҳисса кўшган.

Жиззах давлат педагогика институти  
ректори, профессор А.Ж.Холбеков

## ПРОФЕССОР БОЗОР ЎРИНБОЕВ ВА САМАРҚАНД ТИЛШУНОСЛИК МАКТАБИ

### С.А.Каримов, СамДУ профессори

Биз бугун табаррук номларини чуқур ҳурмат ва эҳтиром билан тилга олаётган филология фанлари доктори, профессор Бозорбой Ўринбоевич Ўринбоев республикамизда илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш ишига жуда катта ҳисса қўшган олим ва мураббий, педагог ва маърифатпарвар инсон, олий таълим ташкилотчиси ва жамоат арбоби эдилар.

Устознинг порлоқ хотираси олдида бош эгиб, алломанинг ҳаёти ва фаолиятига оид баъзи бир фикрларни айтмоққа журъат қилдим.

Б.Ўринбоевнинг ҳаётида таълим-тарбияга оид фаолият зарҳал саҳифаларни ташкил этади. Мактабни тугатиш, педагогика билим юртига ўқишга кириш, педагогика йўналишида олий маълумотга эга бўлиш ва бутун тақдирини таълим-тарбия билан боғлаш. Ўрта мактабда ўқитувчи, илмий бўлим мудир, директор. Олий таълим муассасаларида эса лаборант, ўқитувчи, доцент, профессор, 3 марта кафедра мудир, факультет декани, проректор, 2 институтда 3 марта ректор. Унинг бор-йўғи бир неча сатрларга жо бўлган ташкилотчилик ва педагогик фаолияти замирида бир инсоннинг умри, ҳаётининг мазмуни, кадр-қиммати ётибди. 50 йилдан ортиқ умрни бу вазифаларни адо этишга бағишлаш масъулиятининг нақадар оғирлигини таълим-тарбия жараёни билан шуғулланганлар, айниқса, раҳбарлик лавозимида ишлаганлар яхши тушунишади.

Бу вазифаларда ишлаш учун биргина билим ёки фидойиликнинг ўзи етарли эмас. Раҳбардан, айниқса, педагог раҳбардан бағри кенг, кечиримли бўлишликни, ҳаммага баравар муносабатда бўлишликни, жамоанинг салоҳияти ва укувига таяниб иш кўришликни, талабами ёки ўқитувчими, бундан қатъий назар, уларнинг ҳар бирига эътиборли ва ғамхўр бўлишликни талаб этади. Амалда шундай бўлди. Ана шу хусусиятларнинг барчаси Бозорбой Ўринбоев тимсолида мужассамланди. Бунинг сабаблари нимада? Назаримда, Самарқандда ва СамДУда мавжуд бўлган маънавий-маърифий ва илмий-педагогик муҳит бунинг бош сабаблардан бири деб биламан. 17 йил давомида ректорлик лавозимида ишлаганлигининг ўзиёқ фикримизнинг исботидир.

Б.Ўринбоев раҳбарлик ва педагогик фаолияти билан баб-баравар кенг кўламдаги жамоатчилик ишларини ҳам бажариб борди. Уларни ҳеч бўлмаганда санаб ўтиш жоиздир: факультет партия кўмитаси котиби, институт касаба уюшмаси раиси муовини, институт партия ташкилоти котиби. Самарқанд шаҳри «Билим» жамияти раиси, икки марта халқ депутатлари шаҳар Кенгаши депутати, маданият ва халқ таълими доимий комиссияси район, халқ назорати кўмитаси аъзоси, халқ университети ректори, ижроия кўмита аъзоси ва кузатув комиссияси раиси. Самарқанд вилояти партия кўмитаси пленуми аъзоси, педагогика жамияти раиси, болалар жамғармаси раиси, халқ депутатлари вилоят Кенгаши депутати, ҳушёрлик учун кураш

кўнгиллилар жамияги раиси. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги қошидаги ўқув-методика Кенгаши (УМС) аъзоси, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тил ва адабиёт институти ва СамДУ қошидаги докторлик ва номзодлик диссертациялари ҳимоясига Ихтисослаштирилган кенгашлар аъзоси. Биргина инсоннинг елкасига тушган бу жамоатчилик ишларининг кўлами унинг қанчалик вақтини олганлигини, чидам ва бардошини синовдан ўтказганлигини тасаввур қилиш қийин.

Б.Ўринбоев педагогик, ташкилотчилик ва жамоатчилик фаолиятини илмий фаолият билан биргаликда олиб борди. 1964 йилда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, профессор Улуғ Турсуновнинг илмий раҳбарлигида «Ҳозирги ўзбек адабий тилида вокатив категория» мавзусида номзодлик, 1976 йилда «Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари» мавзусида докторлик диссертацияларини ёқлаб, ўзбек тилшунослигининг долзарб масалаларини ҳал қилишга ва шу билан она тилимиз тараққиётига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшди.

Б.Ўринбоев 800 га яқин турли характердаги ишлар эълон қилган эди. Адабиётшунослик, тилшунослик, педагогика масалаларини қамраб олган, ўзбек, рус ва тожик тилларида чоп этилган ушбу асарлар орасида алоҳида нашрлар сони 100 га яқин бўлиб, улар 7 та монография, 4 та дарслик, 52 та ўқув ва ўқув-методик қўлланма, 16 та рисола, 4 та луғат, 10 та дастурдан иборат ва 7200 varaқни ташкил этади. Бундан ташқари олим 168 та номзодлик ва докторлик диссертациялар ҳамда унинг авторефератларига тақризлар ёзган. Бу тақризларда рус, қирғиз, тожик, озарбайжон, татар ва умуман туркологияга оид тадқиқотларга ўз муносабатини билдирган. 9 та номзодлик диссертациясига илмий раҳбарлик, 10 номзодлик ва 13 докторлик диссертацияларига расмий оппонентлик, 51 та турли характердаги алоҳида нашрларга масъул муҳаррирлик қилган.

Шунинг учун ҳам алоҳида китоблар, мақолалар, тақризлар характеридаги 113 нашрда Б.Ўринбоевнинг илмий-педагогик ва жамоатчилик фаолияти ҳақида махсус сўз боради.

Ушбу фактлар ва рақамларни кўз олдидан ўтказган ҳар бир инсон Б.Ўринбоев бундай улкан ҳажмдаги ишларни амалга оширишга куч ва ғайратни, вақт ва кайфиятни қаердан олган экан, деган савол туғилиши табиий. Менинг ожиз фикримча, бу имкониятлар, авваламбор, Оллоҳ берган иқтидору, ота-оналар ва устозларнинг дуолари билан пайдо бўлган. Иккинчидин, оилада ижодий ва самарали меҳрат учун муҳит шаклланган. Учинчидан, устоз ўзларига умрни беҳуда ўтказмасликни шиор қилиб олган. У кишидаги феъли кенглик, хотиржамлик, чуқур мушоҳада юритиш қобилияти бунга кўмаклашган.

Устоз мақомига етмоқ бир азоб бўлса, унга лойиқ бўлмоқ икки азобдир. Шунга чидаган, бағри кенг инсонларнинггина атрофига одамлар бирлашади, улардан маслаҳат олишади. Б.Ўринбоев ана шундай устоз. У зот билан неча йил бирга ишлаган бўлсак, бирорта талабанинг домладан қониқарсиз баҳо олганлигини ёки нолиганини эшитган эмасман. Аксинча, танаффус

пайтларида ҳам у кишининг атрофи шогирдлари билан гавжум. Кафедрамизда мўътадилликнинг сақланиб туришида, энг катта устозимиз Улуғ Турсунов анъаналарининг давом этишида у зотнинг хизматлари беқиёс эди. Кафедра йиғилишларида ҳам, бирор бир жиддий масала пайдо бўлса, уни ҳал қилишда ҳам домланинг фикрларига қараб иш тутиларди. Бир сўз билан айтганда, устоз кафедрамиз кайвониси, бош маслаҳатчиси эдилар.

Ўзининг онгли фаолияти давомида Б.Ўринбоев ҳамиша фидокорлик намунасини кўрсатиб меҳнат қилган бўлса-да, мустақллик йиллари унинг тақдирида алоҳида аҳамият касб этди. Давр билан ҳамнафас олим таълим тизимидаги ислохотларни қувонч билан қарши олди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг бажарилиши мустақил фикрлай оладиган, малакали кадрларни тарбиялаб вояга етказишда деб билди ва бутун куч ва ғайратини ана шу олийжаноб вазифага сафарбар этди. Бунинг натижаси ўлароқ, кейинги йилларда янги Давлат таълим стандартлари асосида мураббий томонидан ёзилган ва чоп этилган кўплаб асарлари орасида мустақиллик ва миллий истиқлол ғояси руҳи билан йўғрилган, республикамиздаги тожик мактабларининг 2-3-синфлари учун «Ўзбекистон» нашриётида босмадан чиққан «Ўзбек тили» дарсликларини, олий филологик таълим тизимида киритилган янги фанлар ўқув режаси асосида ёзилган «Тилшунослик асослари», «Тилшунослик назарияси», «Илмий тадқиқот асослари», «Махсус фанларни ўқитиш методикаси», «Истиқлол ва лотин алифбоси муаммолари», «Ўзбек тилининг структурал грамматикаси», «Синтактик муносабатлар» каби ўқув қўлланмаларини, «Комиллик истилоҳлари», «Асрлардек барҳаёт номлар» каби луғатларни алоҳида таъкидлашни истар эдим.

Ҳукуматимиз ва университетимиз ҳам, факультетимиз ва кафедрамиз ҳам устознинг ҳурматини жойига қўйди. У сазовор бўлган қатор орден ва медаллар, СамДУда хизмат кўрсатган профессор на «Мустақиллик» эсдалик нишонлари бунинг яққол исботидир. Айни пайтда домла Халқаро Antique World илмий академиясининг академиги ҳам бўлган.

Домланинг қилган яхшиликлари олдида таъзим қилишга Оллоҳ берган имкониятга шукур қиламан. Устознинг охиратлари обод бўлсин!

## **ЎЗБЕК ТОПОНИМИК ЛЕКСИКОГРАФИЯСИ ЕТАКЧИЛАРИДАН БИРИ**

**Улуқов Носиржон, НамДУ ф. ф. д. профессор**

1970-1980 йилларда ўзбек тилшунослигида топонимик луғатшунослик ҳам шаклланди ва ҳозирги кунга қадар С.Қораевнинг “Географик номлар маъносини биласизми?” (Тошкент: – Ўзбекистон, 1970), “Географик номлар маъноси” (Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 203 б.), “Ўзбекистон вилоятлари топонимлари” (Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. – 240), З.Дўсимов, Х.Эгамовларнинг “Жой номларининг қисқача изоҳли луғати” (Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.), Х.Ҳасановнинг “Географик номлар

сири” (Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 120 б.), Т.Нафасовнинг “Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати” (Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.), “Қишлоғингиз нега шундай аталган?” (Тошкент: Фан, 1989. – 100 б.), “Қашқадарё қишлоқномаси” (Тошкент: Мухаррир, 2009.), Н.Охуновнинг “Жой номлари таъбири” (Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 86 б.), Б.Тўйчибоев, Қ.Қашқирлиларнинг “Зоминнинг тил қомуси” (Тошкент: Akademnashr, 2012. – 400 б.) каби топонимик луғатлари нашр этилди.

Ўзбек топонимик лексикографияси ривож ва такомлида филология фанлари доктори, профессор устоз Бозор Ўринбоевнинг алоҳида ўрни ва хизматлари бор. Серқирра ва сермахсул олимнинг “Асрлардек барҳаёт номлар. – Самарқанд: Зарафшон, 2003. – 264 б.), “Жиззах топонимларининг таъбири” – Самарқанд, 2007. – 80 б.), “Мактаб топонимик луғати” (Самарқанд, 2004. – 92 б.) каби топонимик луғатлари фикримиз далилидир.

Профессор Бозорбой Ўринбоев тилшуносликнинг синтаксис, услубият, диалектология, тил тарихи соҳалари билан бир қаторда топонимия масалаларини ҳам изчил тадқиқ этди. Устоз Жиззах шаҳрида ўтказилган “Ўзбекистон ономастикаси” мавзуидаги 1-республика илмий анжумани (1985)нинг ташкилотчиси бўлган. У “О гидрониме Сирдарья” (Ономастика Узбекистана: Тезисы Республиканской конференции. – Ташкент, 1989. – С.79-80), “О топониме “Сагарж” (Ономастика Узбекистана. – Ташкент: Ўқитувчи, 1987. – С.18-19), “Сангзор воҳаси топонимлари” (Ўзбек ономастикаси. III Республика илмий-амалий конференцияси тезислари. – Хива, 1991. – №1.– Б.24-27), “Жомбой” деган сўзнинг маъносини биласизми?” (Жомбой тонги, 1995, 26.VII), “Бадиий матнда жой номлари ва уларнинг типологик таҳлили” (Бадиий таржима ва ўзбек адибларнинг халқаро алоқалари. – Самарқанд, 1996. – Б.48-51), “Авесто”да жой номлари ва уларнинг лисоний таҳлили // “Авесто” ва ўзбек фольклорининг образлар тизими” (Навоий, 2001. – Б.23-24), “Жой номларининг бобуроно талқини” (Зиёкор. – Самарқанд, 2002. – №3. – Б.19-25), “Бобурнома” тилидаги жуғрофий атамалар” (Тилшуносликнинг назарий ва амалий масалалари. – Самарқанд, 2003. – Б.35-39) каби топонимияга доир илмий мақолалар ёзган.

Б.Ўринбоев мамлакатимизда етук топонимист кадрлар тайёрлаш ишига ҳам муносиб ҳисса қўшган. У Н.Мингбоевнинг “Мирзаҷўл топонимикаси” (Боку, 1987) мавзуидаги номзодлик ва каминанинг “Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи” (Тошкент, 2010) мавзуидаги докторлик диссертациясига расмий оппонентлик қилган.

Топонимик луғатларнинг сўзлиги шаҳар, шаҳарча, қишлоқ, маҳалла, гузар номлари (ойконимлар), тоғ, қир, адир, чўққи, қоя, довон номлари (оронимлар), ариқ, булок, кудуқ, канал, сой, дарё номлари (гидронимлар), мазор, қабристон, зиёратгоҳ номлари (некроним ва эkkлeзионимлар)дан иборат бўлади. Бундай луғатларда топонимларга нафақат тилшунослик, балки тарих, география ва бошқа бир қанча фанлар кесимида изоҳлар берилади. Шу боис топонимик луғат тузиш учун муаллиф тилшунослик илмидан ташқари тарих, этнология, этнография, география, ботаника



фанларидан яхши билимга эга бўлиши лозим. Демак, устоз Б.Ўринбоев ана шундай билимлар соҳиби сифатида Самарқанд, Жиззах вилоятлари тарихини, географиясини, ҳайвонот ва ўсимликлар дунёсини, диалектини, халқини яшаш тарзи, урф-одатлари, этник таркибини яхши ўрганган.

Б.Ўринбоев Жиззах шаҳрида ишлаган пайтида шу вилоятдаги топонимларни тўплаб, “Жиззах топонимларининг изоҳли луғати” (1992)ни нашр эттирган. Кейинчалик, бу луғат тўлдирилиб, қайта ишланиб, “Жиззах топонимларининг таъбири” (Самарқанд, 2007. – 80 б.) номи билан нашр этилди. Луғат “Кириш” (3-6-бетлар), “Луғат” (7-77-бетлар), “Адабиётлар” (78-79-бетлар) қисмларидан иборат.

Луғатда қадимий ва кўхна Жиззах вилояти топонимиясига мансуб *Жиззах, Бахмал, Беикуби, Зомин, Нўшкент, Паймар, Пишағар, Сармич, Тағоб, Танги, Увол, Ухум, Уяз //Уяс, Фориш, Чувуллоқ, Юмолоқбош, Қорауйли, Қутчи, Қўшбармоқ, Ғўбир, Ғўроб* каби 500 дан зиёд, аниқроғи 538 та топоним изоҳланган. [1]

Устоз Бозорбой Ўринбоев узоқ йиллар давомида Самарқанд вилояти топонимлари ҳақидаги маълумотларни тўплаб, системалаштириб борди ҳамда шу асосда “Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи” (Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 1997. – 202 б.) номли йирик топонимик луғат яратади. Луғатнинг қайта ишланган, тўлдирилган варианты “Асрлардек барҳаёт номлар” (Самарқанд: “Зарафшон” нашриёти, 2003) номи билан нашр этилди. Луғатнинг ҳажми ҳам салмоқли, 16,5 босма табоқ, 1415 та луғат мақоласини ўз ичига олган. Асар “Муқаддима” (3-11-бетлар) ва “Луғат” (12-280-бетлар) қисмларини ўз ичига олади. “Муқаддима” қисмида вилоят топонимларининг ўзига хос хусусиятлари, унинг тарихий илдизлари ҳақида фикр юритилган ҳамда луғатнинг тузилиши, таркиби ҳақида маълумот берилган.

Луғатда Самарқанд вилояти макро ва микротопонимиясига мансуб *Афросиёб, Булунғур, Даҳбед, Жевачи, Жом, Жуз, Зармитан, Кўҳак, Самарқанд, Сўзонгарон, Ургут* каби 1500 дан зиёд тарихий ва замонавий топонимларнинг изоҳи берилган.

Ҳар икки луғатда топонимларнинг жойлашиш ўрни, географияси, адабий ва диалектал вариантлари, яъни фонетик, лексик, морфологик шакллари, тарқалиш ареаллари, такрорийлиги, номинацион-мотивацион хусусиятлари: номланишида асосга олинган белги-хусусиятлар, сабаб ва омиллар, луғавий асослари, тарихий-этимологик манбалари, этимологияси, тузилишига кўра турлари равон, содда, изчил услубда ёритилган.

Самарқанд вилояти бўйича тузилган луғатнинг ижобий қирраларидан яна бири, луғат мақолаларининг охирида ҳар бир топонимнинг лотин алифбосига асосланган ўзбек ёзувидаги имлоси ҳам берилган. Масалан,

“Бектўп – Булунғур, Пайариқ, Пахтачи, Ургут, Қўшработ туманларидаги қишлоқ. Бек – ўрта Осиёда феодал хонликларидаги мансаб ёки

туман бошлиғи. Бу сўз “аслзода, ҳукмдор, улуғ, катта, жаноб” маъносида қўлланилади. Тўп – кўп, тўда, кишилар гуруҳи.

Бектўп миқдори жиҳатидан кўпчиликни ташкил қилувчи кишилар гуруҳи демакдир. Кўнғирот қабиласининг қанжиғали уруғининг бир шаҳобчаси молтоп деб аталади. Ана шу шаҳобчанинг таркибида бектўп бўлаги бор. Хуллас, бектўп этнонимдир.

Лотин алифбосида: *Bekto 'p.'*[2,27]

“Барлос – Иштихон, Булунғур, Ургут туманларидаги қишлоқ. Барлос “қадимги туркий қабилалардан бири”, “мўғулларнинг барлос қабиласи”, мўғулча “семиз, кучли”, “туркий лашкарбоши, йўлбошчи, ботир жангчи” маъноларида қўлланганлиги таъкидланган. Барлос сўзининг луғавий маъносида ҳам юқоридаги маънолар бор. Этнонимнинг биринчи қисми бар мўғулча йўлбарс, шер, арслон, бургут, ботир лашкарбоши демак. Сўнги қисми -илос, -улас, -лос, -лас, -га, -гут, -кут, -кут, -лаг дир.

Ўзбекларнинг баркут, мўғуллардаги барга, барлаг деган қабилалар номлари ҳам юқоридаги шарҳланган маъно билан боғлиқ. Ҳозирги ёкут тилида бар кул “бургут, йўлбарс” маъносини билдиради.

Барлос тарихан ҳам ясама сўз бўлиб, у ҳам йўлбарс, ҳам бургут маъносини билдирган. Ана шу тотем номидан уруғ, қабила номи юзага келгандир.” [2,23]

Далиллардан кўринадикки, топонимларга тилшунослик, география тарих фанлари мужассамлашувида изоҳлар берилган. Худди шундай талқин, таҳлил ва изоҳлар жуда кўп луғат мақолаларида кузатилади. Тўғри, луғат мақолаларининг барчаси бир хилда мукамал эмас. Айрим топонимларга берилган изоҳлар фақат уларнинг қаерда жойлашганлиги ва этимологияси аниқланмаганлиги ҳақидаги қайддан иборат, бироқ луғатлар тўпланган номларни жамлаб туриши, келажак авлодга етказиши билан аҳамиятли.

Б.Ўринбоевнинг топонимик луғатлари келгусида Самарқанд ва Жиззах вилоятлари топонимияси бўйича тарих, география фанлари аспектида яратиладиган янги-янги тадқиқотларга манба, топонимик луғатларга илмий асос бўлади. Айни кунларда ҳимоя тараддудида турган Шерали Темировнинг “Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи”, Собир Аҳмедовнинг “Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари” мавзусидаги филология фанлари бўйича фалсафа доктори даражаси учун ёзилган диссертациялари фикримизнинг ёрқин далилидир.

Топонимик ўқув луғатлари тузиш анъанасини ўзбек лексикографиясида Б.Ўринбоев бошлаб берган. Олимнинг шогирди О.Холиқов билан ҳаммуаллифликда тузган “Мактаб топонимик луғати” (Самарқанд, 2004. – 92 б.)да умумий ўрта таълим мактабларининг V-IX синфлари она тили ва адабиёт дарсликларида учрайдиган жой номлари алифбо тартибида келтирилган ва маъноси изоҳланган. Мазкур ўқув луғати она тили ва адабиёт дарсларида

топонимларнинг жойлашув ўрни, маъноси, этимологияси, луғавий асоси ва тарихий этимологик манбаси, номланиш асоси, сабаби, омиллари, замонавий ва тарихий, адабий ва лаҳжавий вариантларини ўргатишда муҳим илмий манба вазифасини бажаради.

Устоз ўз тадқиқотлари, луғатлари ва шогирдлари, олима фарзандлари билан мангу яшайди.

### **Адабиётлар:**

1. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар (Самарқанд вилояти топонимларининг изоҳи). – Самарқанд: Зарафшон, 2003. – 264 б.
2. Ўринбоев Б. Жиззах топонимларининг таъбири. – Самарқанд, 2007. – 80 б.

## **МАЗМУНЛИ ҲАЁТ СОҲИБИ**

### **Усмон Санакулов, СамДУ профессори**

**Инсон феномени.** Ҳаётда шундай инсонлар яшайдики, бир асрдан ортиқ умр кўрсалар ҳам уларнинг номи фақат яшаган даврининг охиригидики сонияларида нуроний сифатида ҳурмат-эҳтиром билан тилга олинади. Маълум вақт ўтгандан сўнг уларнинг номи тамоман тилга олинмай қолади. Эслаб, у ҳақда бирор сўз айтгудек бўлганда ҳам, фақат нуронийдек умр кечиргани айтилади, холос. Чунки, бундай инсонларнинг таржимаи ҳолига назар солсангиз уларнинг фаолиятида фахр билан кадрланадиган мазмунли ишлари кўринмайди, умр саҳифасини безайдиган маҳобатли меросидан ҳам ҳеч вақо топмайсиз-да!... Ёки аксинча, шундай инсонлар борки уларнинг ҳаёт йўлини тилга олмоқчи бўлсангиз айтадиган сўзларингиз, фикрларинингиз турна қатор бўлиб, бирин-кетин тўхтовсиз туганмай келаверади.

Инсон шаънини, обрў-эътиборини яшаган улуғ ёши белгилаб бермайди. Балки, ҳар бир кишининг кадр қиймати, иззат-ҳурмати унинг эл-юртига, илм-фан ва жамият тараққиётига қилган хизматлари, кўшган баракали ҳиссаси билан белгиланади. Шу нуқтаи назардан қараганда устоз Бозорбой Ўринбоевнинг яратган сермахсул илмий-тадқиқот ишлари, кўп йиллик намунали педагогик фаолиятининг моҳияти миллатимиз фани ва маданияти тараққиётига салмоқли ҳисса бўлиб қўшилдики, у Оллоҳнинг шарофати билан ана шу олий салоҳиятга – эл-юртининг эъзозига муяссар бўлди. Бундай устозлар ҳамиша фахр билан тилга олиндилар:

Эл ичра номингиз Фидойи устоз,  
Топдингиз ҳурмату обрў ва эъзоз.  
Илмингиз маҳсули бебаҳо мерос,  
Туганмас манбадир улкан, беқиёс  
Бошлаган ишингиз этмоқда давом,  
Номингиз тилларда, дилда эҳтиром

Ҳа, ҳақиқатдан ҳам, устоз Бозорбой Ўринбоевнинг мазмунли ҳаёти, у яратган турна қатор бебаҳо илмий мерослари, давлат арбоби сифатидаги хурматту обрўи эл-юртимизда маълум. Шу боис унинг номи ҳамиша фахр билан тилга олиниб, эъзозлиб келинмоқда. Шунинг ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, олимнинг қанчадан-қанча шогирдлари, айниқса, ота изидан борган ажойиб фарзандлари устоз Бозорбой Ўринбоев бошлаган ишларни давом эттириб келишмоқда. Масалан, олимнинг сеvimли қизларидан бири айни пайтда Самарқанд давлат университети, ўзбек тилшунослиги кафедрасининг етакчи олималаридан бири, филология фанлари доктори Дилбарой Ўринбоева ўзининг ўнлаб қўлланма ва дарсликлари билан устознинг руҳини шод этмоқда

Устоз Бозорбой Ўринбоев республикамизда халқ маорифи, айниқса, олий таълим соҳасида етук филолог кадрлар тайёрлаш ишига, ўзбек тилшунослиги илмининг ривожлантиришда жўшқин меҳнат қилган ва салмоқли ҳисса қўшган замонамизнинг салобатли маърифатпарварларидан бири эди. Камтарин устоз оддий мактаб ўқитувчилигидан олий ўқув юртининг таниқли олими, фахрли илмий даражалардан: фан номзоди, докторликка ва профессор унвонига ҳамда ректорлик, халқ депутати, давлат арбоби вазифаларига хос мавқеига эга бўлди.

Ҳа, ана шундай юксак мавқега эга бўлган устоз 1936 3 июнда Зарафшон воҳасининг Самарқанд шаҳрига яқин гўшаларидан бир бўлаги бўлган Жомбой тумани ҳудудидаги Губдин тоғи этагида жойлашган Ғазира қишлоғида, оддий зиёли Ўринбой ота оиласида дунёга келган эди. Унинг ёшлиги жаҳон урушидан кейинги мамлакатнинг барча соҳаларида, жумладан, таълим тизимидаги қийинчиликларни бартараф этиш-тикланиш даврига тўғри келди. Бу даврларда олий ва ўрта ўқув таълими анча издан чиқиб қолганлиги, бу даргоҳларда ўқитувчиларнинг етишмовчилиги, уларни тайёрлашда ёш кадрларнинг жалб этиш масаласи давлат сиёсатининг кун тартибидаги муаммоларидан бири ҳисобланган.

**Гармоник қобилиятнинг илк намоишлари.** 1950 йилда Самарқанд вилояти бўйича олий ва ўрта махсус ўқув юртиларига талабалар қабул қилишга алоҳида эътибор берилди. Худди шу йилда бўлажак олим Бозорбой Ўринбоев Ғазира қишлоғидаги мактабнинг 7- синфни тугатаётган эди. Шу пайтларда ушбу мактабга Самарқанд эрлар педагогика билим юртининг вакили Ўлмас Ҳамдамов ёшларни билим юртига ўқишга жалб этиш масаласи билан келган эди. Вакил ўзи ишлаётган педагогика билим юртига ёшларни ўқишга таклиф этиб, улардан 5 нафар ўқувчи ёшларнинг аризасини қабул қилди. Ариза ёзганлардан бири Бозорбой Ўринбоев эди. У тўрт йил Самарқанд шаҳридаги эрлар педагогика билим юртида ўқиб, уни имтиёзли диплом билан тугатгач, Самарқанд давлат университети филология факультетида ўқишини давом эттирди. Иқтидорли талабанинг филология соҳасидаги фанларга, хусусан, тилшунослик соҳасига эътиқоди жуда-жуда баланд эди ва ўз даврининг ҳар томонлама етук ва машҳур олимлари ҳисобланган Воҳид Абдуллаев, Мамадали Юнусов, Улуғ Турсунов, Орифжон

Икромов, Хамдам Бердиёров, Худойберди Дониёров, Ботирхон Валихўжаев каби устозларнинг юксак таълимини олишга, педагогик маҳоратини эгалашга муяссар бўлишга интиларди. У талабалик давридаёқ, устозларидан олган билимини ва педагогик маҳоратини аввал мактаб таълимида синовидан ўтказишни орзу қиларди. Шу боис университетни тугатиши биланок, ўзини улғатиб, таълим даргоҳларига йўллаган севимли юрти Жомбой туманига ўқитувчилик касбига йўлланма олди. Ёш педагог 1959-1961 йиллар давомида тумандаги аввал 28-сонли, сўнг 2-сонли мактабларда ўзбек тили ва адабиёти ўқитувчиси вазифаларида фаолият кўрсатди.

Унинг дастлабки иш фаолиятидаги диққатга молик хусусиятлардан бири шундаки, 24 яшарли педагог илмий бўлим мудури ва мактаб директорлиги каби маъсулиятли лавозимга кўтарилиб, ўзига хос раҳбарлик қобилиятни жасорат билан намойиш эта олиши бўлди.

Ана шу жасоратли қалб кундан-кун илмий даражасини янада оширишга ундади ва, ниҳоят, 1961 йилда талабалик давридаги устозларидан янада чуқурроқ билим олишга қайтди, яъни аспирантура таълимини олди. Зеро, бўлажак ёш олим ўз келажагини фақат илм билан боғлиқ деб биларди. Ниҳоятда қобилиятли ва билимга чанқоқ бўлган истаъдодли аспирант қисқа муддатда – 1964 йилнинг 18 сентябрида проф.У.Турсунов раҳбарлигида “Ҳозирги ўзбек адабий тилида вокатив категория” мавзусида номзодлик диссертациясини ёзиб улгурди ва илмий тадқиқотда ўзбек адабий тилида вокатив категория билан боғлиқ анча мураккаб бўлган ва унча-мунча тадқиқотчилар еча олмаган муаммо ечимига ойдинлик киритди. “Вокатив категорияси”га хос тилшуносликдаги сирли оламини янада кенг ёритишга киришди. Зеро, ушбу тадқиқотгача “Вокатив” тушунчаси синтаксисда фақат ундалма доирасида қаралган эди. Балки бу категория таркибидаги сўзлар ўзининг морфологик-семантик хусусиятларига эга бўлган. Уларда шахс маъноси, яъни мазмунан 2-шахсни ифодалаган.Кўплаб фикр-мулоҳазалар асосида, эътирозларга ўрин қолдирмайдиган тарзда ушбу маъсулиятли масалани илмий жиҳатдан ёритишга эришди ва муваффақиятли ҳимоя ҳам қилди. Новбатдаги орзу эса ўз устозлари каби мустақил ҳаётнинг янада юқори университетига йўлланма олиш эди. Бунда таниқли олим, фан арбоби профессор Орифжон Икромовнинг раҳнамолиги катта бўлди. Ёш олимни ҚаршиДПИ (ҳозирги ҚаршиДУ) га ишга таклиф этди (ўша даврларда профессор Орифжон Икромов Қарши давлат педагогика институти ректори лавозимида ишлар эди).

**Олимнинг олий таълим даргоҳидаги фаолияти** ўзига хос таҳсинга лойиқ, фазилатли хусусиятга эга эди. Мен устозни СамДУ филология факультетида талабалик давримдан бошлаб биламан. Қарши ДПИ даргоҳида ҳам бирга ишлашганман. Шунинг учун устознинг ўзига хос фазилатларини жуда яхши биламан. Мен 1963 йилда СамДУни тугатишим билан университет йўлланмаси асосида ҚаршиДПИга ишга жойлашдим. Худди шу масканда устоз билан 1965-1967 йиллар давомида бирга ишладик. Мен 1967 йилдан бошлаб, Қарши ДПИ ректори Орифжон Икромовнинг бевосита

ташаббуси билан ЎзРФА Тил ва адабиёт илмий текшириш институти аспирантураси таълимини олишга муяссар бўлдим. Худди шу пайтларда Самарқандда педагогика институти очилиб, профессор Орифжон Икромов ректор этиб тайинланди ва устоз Бозорбой Ўринбоев ҳам иш фаолиятини янги ташкил этилган институтга кўчирди. Шундан сўнг ҳам бизнинг устоз ва шогирдлик тарзидаги иноқлигимиз, дўстлигимиз давом этди. Қисқаси бизнинг шогирд ва устозлик дўстлигимиз абадий бўлган эди, чунки мен 1971 йилида номзодлик диссертацияси ҳимоясидан сўнг иш фаолиятим яна СамДПИда давом этди....

Бугунги кунда алоҳида таъкилаш лозимки, менда устознинг маъқул келган ўзига хос куйидаги хусусиятлари ҳозиргача эсимда қолган. Бу олий хусусиятларини мен ўзимга сингдиришни ҳавас ҳам қилгандим.

Биринчидан, у ўта маданиятли, нутқи ўткир, яъни таъсирли ва асосли эди. Шунинг учун фикр-мулоҳазасига эътироз билдириш қийин эди. Институт ректори Республикамиздаги таниқли олим, фан арбоби Орифжон Икромовдан сўнг ўқув даргоҳида нутқ маданияти соҳаси бўйича тенги йўқ педагог эди. Унинг нафосатли ва асосли нутқи кўпчиликни ўзига жалб этарди. Нутқи паст, илмий жиҳатдан асоссиз нутққа эга бўлган педагогларни ҳамиша танқид қиларди, уларни педагоглик фаолиятдан кетишини истарди. Педагог ва талабаларнинг барчасида нутқий савиянинг юқори ва асосли бўлишига эътибор берарди. У ким билан мулоқотда бўлмасин, дилида бор гапини дадил, ошқора тушунарли тилда, кесатиқ ва кинояларсиз баён этарди. Натижада, суҳбатдошда унга нисбатан тўла ишонч, айти пайтда ҳурмат ҳис-туйғулари ҳам пайдо бўларди, қисқаси устознинг мулоқотидан унинг қалби, нияти поклиги сезиларди. Устоз инсоннинг элда эътибор топмоғининг биринчи шарт, сўзсиз, унинг самимий муомаласидир деб биларди. Жамоа орасида ўзаро муносабатда фирибгарликни ёд деб билган, ёлғон сўзламайдиган, ўз сўзида тура оладиган, вафосизликни билмайдиган инсон, қайси илмий даражада ёки унвон-мансабда бўлмаси, барибир ҳурматли ҳисобланади, дер эди.

Умуман, инсонни улуғлайдиган, унинг эл орасида ҳурматини оширадиган фазилатларни ардоқларди. Айниқса, қалбан поклик, меру оқибатлилик, хоксорлик-камтаринлик, фаҳму фаросатлиликни зукко одамга хос олийжаноб фазиларлардан деб биларди ва ҳар доим ана шу фазлатларни ақлоқий норма ҳисобларди.

Иккинчидан, кийиниш маданиятига жуда-жуда эътибор берарди, ўша даврлардаёқ ҳозирги талаб асосида педагог ва талабаларни зиёлига хос кийимда, яъни костюм ва дазмолланган шим, оқ кўйлақ, галстукда юришни ва ўзини ўқимишли, зиёлига хос виқорли хусусиятда кўринишини истарди, инсонийлик хусусиятига хос бўлмаган, нодонлик, саводсизлик, боқибегамлик фаҳм-фаросатсизлик оқибатида йўл қўйиладиган ортиқча қилиқ ва одатларни ёмон кўрарди.

Учинчидан, у жамоатчи педагог эди. Институтнинг ижтимоий-сиёсий ишларига ҳам фаол иштирок этарди. Институт партия ташкилотининг аъзоси

сифатида, унинг таркибидаги бир тармоғини бошқарар эди. У вақтларда раҳбарлик у ёқда турсин, оддий партия аъзосининг мавқеи анча юқори турарди, барча улардан ҳайқарди, уларга ҳурмат билан боқарди. Шунинг учун раҳбарлардан бири сифатида уни барча ҳурмат қиларди. Шу хусусиятлари устун келиб, институт проректори ва ректори лавозимларига кўтарилди

Қизик, устоз фикрича, зукко инсонда икки хил хусусият устун бўлиши таъкидланарди. Бу хусусият оқил ва доноликдир. Оқил инсон ҳар қандай муаммони етук ақли билан ҳал қиларкан. Доно инсон эса, ҳеч қандай муаммонинг юзага келишига йўл қўймайди, унинг олдини олишга доим эътибор берар экан

Тўртинчидан, унинг билими анча юқори ва серқирра эди. Олим фаолиятида илмга интилиш ва унга ҳар қандай вазиятда ижод учун вақт топиш оқил ва доноликнинг нишонаси эди. У “фан сўқмоқларини босиб ўтиш ҳамиша олимлик даъвоғари учун шижоатли, дадил ва иродали бўлишни, истиқболга оғишмай интилишни талаб этади. Ана шу хислатга эга бўлган даъвогаргина фаннинг нурафшон чўкишига чиқиши, ундан баҳраманд бўлиши ва бошқаларни ҳам ундан баҳра олиши мумкин”, - деган фикрни биларди ва ўз шогирдларига ҳам буни уқдирарди. Чунки, у амалда бу фикрнинг мевасини тотиган эди. Бу унинг СамДПИ ва ЖиззахДПИ ва СамИСИ. СамДЧТИ, СамДУ даргоҳларидаги фаолиятда кузатилади

**Илм чўққиларининг машаққати.** Зукко олим илм чўққиларига чиқиш жуда ҳам машаққатли эканлигини биларди. Бу эса унинг учун фақат эзгу мақсад ва бебаҳо инъом-ижодий рағбат эди, илмнинг ўзи учун асосий ҳаёт йўли, Оллоҳнинг абадий шарафи – ўлмас ном қолдириш ҳидояти деб биларди. Шу боис, 1964 йилда филология фанлари номзодлиги учун ёзган диссертациясини ҳимоя қилгач, КаршиДПИдаги фаолияти даврида (1965-1967 йй.) доцент унвонига эга бўлди. Бундан руҳланган олим ўзбек сўзлашув нутқига хос бой лисоний қатлам доирасига кирувчи вокатив категория соҳасидаги изланишларига янада чуқурроқ ёндашишга киришди. Натижада, “Вокатив маъноларнинг бошқа формалар билан ифодаланиши”(1964), “Ҳозирги замон ўзбек тилида ундаш гаплар” ва “Ҳозирги замон ўзбек тилидаги мурожаат сўзлари ҳақида” (1967), “Вокатив гапларнинг тарихий тараққиёти ва уларнинг маънолари”(1969), “Ҳозирги ўзбек адабий тилида мурожаат сўзлари”(1971) каби қатор мақолаларини ҳамда “Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория”(1972) номли монографиясини чоп эттирди.

Жасоратли олим вокатив категорияси бўйича амалга оширган ишларини яқунлагач, ўзининг навбатдаги ижодини ўзбек тилшунослигининг қўл урилмаган, ёки махсус тадқиқ этилмаган, тил амалиёти – нутқий фаолият билан боғлиқ бўлган сўзлашув нутқи, стилистик маданияти масалаларини тадқиқ этишга қаратди. У бу масалага доир, аввал, “Ўзбек сўзлашув нутқига умумий характеристика”(1968), “Сўзлашув нутқи ҳақида”, “Диалогик репликанинг коммуникатив йўналиши”(1971), “Сўзлашув нутқи муаммолари”(1973), “Ўзбек нутқининг баъзи масалалари”(1974) каби қатор

мақолаларини нашр эттирди. Шунингдек, сўзлашув нутқи масалалари билан атрофлича шуғулланиши билан бирликда, қисман, уни нутқ маданияти ва нотиклик саъати муаммолари сирлари сари ҳам етаклади. Натижада, “Нотиклик санъати ҳақида”, “Нотиклик ва нутқ”(1972), “Нутқ ва нотиклик санъати”(1973), “Ўзбек нутқининг баъзи масалалари”(1974), “Нотиклик маҳорати”(1984), “Нутқ маданияти малакаси ва уни шакллантиришда мактабнинг роли” (1990) каби чоп этилган мақола ва монографиялари бунинг тимсолидир.

Илмий иқтидорининг нақадар тийранлигини намойиш эта олган устоз 1976 йилда “Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари” мавзусида филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертациясини ёзиб тугатди ва муваффақиятли ҳимоя қилди. Шуниси диққатга моликки, “Ўзбек сўзлашув нутқи масалалари катта муаммо, – деган эди олим, докторлик диссертациясини ҳимоя қилиш жараёнида, – мен ўз тадқиқотимда унинг қирраларини талқин этишга уринганман. Бунинг боиси шундаки, сўзлашув нутқи диалогик, эмоционаллик ва ситуативлик хусусиятига эга. Ана шу уч белги асосида сўзлашув нутқи бирликлар танланади. Бундан ташқари паралингвистик воситалар сўзлашув нутқимизга жўр бўлади. Масалан, сўзловчи тасдиқ, инкор ёки бошқа маъноларни ифодалаш учун бир йўла гапириб ва имо-ишора қилиб, ўз фикрини баён қилиши мумкин. Тасдиқ ва инкор маъносини имо-ишора ва мимик ҳаракатлар билан турлича ифодалай оламиз. Сўзлашув нутқини бу талаблар доирасида кузатиш мураккаб ва келажакнинг иши деб ўйлайман”.

Шу боис, синчков олим ушбу соҳада яратган махсус тарздаги йирик монографик тадқиқоти – докторлик диссертациясини яратиш билан кифояланиб қолмади, балки, ўзбек сўзлашув нутқи масалаларини янада чуқурроқ, мукамал ёритиш ва натижалашни ўз олдига вазифа қилиб олди. Бунинг учун дастлаб “Синтаксический строй узбекской разговорной речи”(1978), “Сўзлашув нутқи”(1982), “Ўзбек сўзлашув нутқи стилистикаси”(1983), “Ўзбек сўзлашув нутқи фонетикаси”(1984), “Ўзбек сўзлашув нутқи – ўзига хос нутқий система”(1984), “Ўзбек сўзлашув нутқида эллипсис” (1989), “Сўзлашув нутқида парцелляция”(1990), “Ўзбек сўзлашув нутқи лексикасида сўзларнинг стилистик бўёғи”(1991), “Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби (1991) каби қатор илмий монография, қўлланма ва мақолаларини чоп эттирди. Бу ишлар нутқ маданияти меъёрини белгилашда муҳим аҳамият касб этди.

Хусусан, устоз умрининг сўнгги йилларида нашр эттирган “Ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи” номли икки қисмдан иборат (2006, 17,50 босма табоқли) монографияси ўзбек сўзлашув нутқи соҳасидаги ниҳоятда муҳим ва якуний натижа ҳисобланди. Монографиянинг биринчи қисмида ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи ва унинг ўзига хос фонетик, интонацион, лексик ва фразеологик хусусиятлари илмий тарзда талқин этилган. Иккинчи қисмида эса ҳозирги ўзбек сўзлашув нутқи ва унинг ўзига хос морфологик ва синтактик хусусиятлари илмий таҳлилланган. Шунини мамнуният билан қайд



этиш лозимки, Бозорбой Ўринбоев бу муаммони ҳал этишга биринчи бўлиб кўл урди, унинг сирли нукталари ҳақида муҳим илмий хулосалар чиқаришга мувафақ бўлди. Бизнингча, олимнинг бу каби тадқиқотлари туфайли ўзбек сўзлашув нутқи бўйича тилшунослигимиздаги асосий муаммолар ҳал этилди.

Серқирра ижод соҳиби Бозорбой Ўринбоев ҳозирги ўзбек адабий тили соҳасидаги баъзи муаммолар бўйича ҳам маълум даражада ўз хиссасини кўшди. Масалан, “Ўзбек тили лексикасида юз берган ўзгаришлар”, “Ўзбек адабий тили морфологиясидаги янгиликлар”(1967), “Бадий текстни лингвистик анализи махсус курсидан методик тавсиялар” (1989), “Бадий текстнинг лингвистик таҳлили” (1990). “Ҳозирги ўзбек тили синтаксисидан лекциялар (1990,1-қ), “Ҳозирги ўзбек тили синтаксисидан маърузалар (1991, 2-қ.), “Ўзбек тилидан давлат имтиҳони дастури”(1991), “Функционал услубият ва унинг моҳияти” (1992), “Ўзбек тили ва адабиётидан дастур” (1994) кабилар шулар жумласидандир. Айниқса, ўзбек тили тарихини тадқиқ этиш билан ҳам жиддий шуғуланди. Масалан, “Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили тарихи (1968), “Бобур – тилшунос олим”(1993), “Ўзбек адабий тили тарихи очерклари”(1969), “Ўзбек адабий тили тарихи” (1982), “Ўзбек адабий тилидан программа”(1984), “Ўзбек адаби тили тарихи (1995) каби ўқув-услубий ва ўқув кўлланмалари ҳамда дарслиги, ўнлаб илмий мақолаларини чоп эттирди. Буларнинг барчаси ҳозирги пайтда таълим жараёнида ўзбек адабий тили тарихи фани учун асосий манба сифатида кўлланиб келинмоқда. Устознинг кўпқиррали ижод маҳсули анча кенг, уларда тилшуносликнинг барча қисмларига оид, жумладан, адабиётшунослик, халқ оғзаки ижоди, тарих, педагогика, публицистика (матбуот тили) каби қатор соҳалар бўйича ҳам ўзига ҳос фикр-мулоҳазалар баён этилган. Устознинг бутун ижодий фаолиятини биргина мақолада батафсил ёритиб бўлмайди, балки бу борада махсус тадқиқот яратиш мумкин.

Мен сўзимнинг сўнгида Олоҳ назари тушган утозимни Тангри таъоло ўз раҳматига олиб, жаннати фирдавдан жой берсин ва ўзининг дийдорига мушарраф қилсин деб дуо қиламан. Мен учун устозим қалбимда абадий яшайди:

Устозим ёди мудом қалбимда,  
Гўё, юрагимга босилган муҳр.  
Сиймоси яшайди ҳамиша бирга,  
Онгимда унинг чун илоҳий меҳр.

## УСТОЗНИ ХОТИРЛАБ

Т.Алмаматов, ЖДПИ доценти

*Кимки бир кўнгли бузуқнинг хотирин шод айлағай,  
Онча борким, Каъба вайрон бўлса обод айлағай  
Алишер Навоий*

Вақт – олий ҳакам дейишади. Вақт бизни у ёки бу объектдан, у ёки шахсдан давр, замон нуқтаи назардан узоқлаштира боради. Бироқ маънан эса уларга бўлган муносабат фарқланишда давом этади. Натижада, уларнинг қайси бирларини эътиборсиз қолдирамиз, қайси бирлари бизнинг қалбимиздан мустаҳкам жой ола боради. Бошқача айтганда сарағи-саракка, пучағи-пучакка ажрала боради.

Ана шундай вақт тарозисидан ўтиб қалбдан мустаҳкам жой олганлардан бири етук тилшунос иқтидорли топонимист, ўзбек тили тарихининг билимдони, ва шижоатли раҳбар, жамоани ўқувчи бошқарувчи профессор Бозорбой Ўринбоевдир.

Домла бизга, чамаси учинчи курсда эдик, Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университетига ҳозирги ўзбек адабий тилидан амалий машғулот ўтганлар. Талаба халқи ҳар бир дарс ўтган янги домлага эҳтиёт бўлиб муомала қилади, айти пайтда ўзларининг ўлчов мезонларига солиб кўради, “экзаменаторлик” “вазифаларини” бажаради. Бу давр 1960 йилларнинг бошларига тўғри келади. Домла биз “шумтака”ларнинг синовидан муваффақиятли ўтганлардан саналади. У киши ўтган курсдан олинган синов-зачетдан группадоларимиз муваффақиятли ўтишган.

Домла у вақтда ёш ўқитувчи эди, биз талабаликнинг ўрталарида эдик. Шундан ажрашиб кетдик. Тақдир тақозоси билан мен Жиззах давлат педагогика институтида ишлаётган пайтимда домла иккинчи марта институт ректори лавозимига ишга келдилар.

Т.С.Горбачевнинг “ошкоралик” сиёсати тақозоси билан ўтган асрнинг саксонинчи йилларининг охирида ҳамма нарсани демократик йўл билан амалга оширамиз деган “ола қарсак” натижаси ўлароқ олий ўқув юртинининг ректорлари сайлов йўли билан танланадиган бўлди. Ана шундай сайлов Жиззах давлат педагогика институтида ҳам ўтказилди. Сайловда иштирок этган бир неча номзодлар орасида Бозорбой Ўринбоев домла ҳам қатнашиб ғолиб чиқди ва институт ректори лавозимига тайинланди. Бу факт ҳам кўрсатадики, мазкур жамоага домланинг қай даражада кадрли эканлигини.

Ана шу даврдан бошлаб мен домлани раҳбар, катта жамоанинг бошлиғи сифатида кашф қилганман. Дарҳақиқат, Жиззахда қарама-қаршилиқларга тўла, маҳаллийчилик учига чиққан жойда, вилоятда ягона бўлган жамоага раҳбарлик қилиш ҳаммининг ҳам кўлидан келавермайди. Доимо ана шундай жамоани қийналмасдан бошқарди.

Мен ҳаётим давомида учта олий ўқув юртида ишлаганман. Ҳар бир олий ўқув юртининг иш юритиш стили, иш юритиш анъаналари бўлади. У

Ўқув юртларида бирор ректорнинг кафедраларни кўриб ҳол-аҳвол сўраб айланиб юрганини кўрмаганман. Улардан фарқли ўлароқ бу институтда домла кафедра ва факультетларни тез-тез айланиб кўриб юрар эди, албатта, домладаги бу фазилат бошқалардан устун эди.

Домланинг раҳбарлик даврларида илмий-назарий конференциялар тантанали равишда ўтказиларди. Бизнинг соҳамиз бўйича ўтказиладиган илмий анжуманларда домла тилшунос сифатида бошидан охиригача катнашар, керакли маслаҳат ва таклифларини берар эди.

Бозорбой Ўринбоев иш фаолияти даврида кимларгадир қаттиқ қўллик қилгандир, вазифаси тақозосига кўра талабчанлик қилгандир. Аммо, аминманки, домладан моддий-маънавий манфаат кўрганлар жуда кўпчиликни ташкил қилади. Бу дунёда ҳеч ким абадий қолиши мумкин эмас, бироқ ўз ҳаёти давомида инсонларнинг қорига яраб, оғирини енгил қилиб, манфаати тегиб яшашдан ортиқ саодат борми? Ҳазрат Навоий таъбири билан айтганда

Бу гулшан ичра йўқдур бақо гулига сабот,  
Ажаб саодат эрур қолса яхшилик била от.

Ана шундай фазилатли кишилардан бири Бозорбой Ўринбоев домла эдилар.

Домла Жиззахдаги иш фаолияти ҳамда бажараётган вазифаси тақозосига кўра қанчадан-қанча илм изланувчиларга ҳомийлик қилди, йўл-йўриқ кўрсатди, ёрдам беради. Бу ишларининг натижаси ўлароқ ҳозирги пайтда Жиззах давлат педагогика институти илмий кадрлар салмоғига кўра Республика олий ўқув юртлари орасида арзирли ўринларда бормоқда. Бу анъана янада катта импульс билан давом эттирилмоқда.

“Яхши яшаган умр йиллар билан эмас, бажарган ишлар билан ўлчанади” (Шеридан), - дейишади донолар. Жиззах музофотида Бозорбой Ўринбоевдан таълим олган, тарбия кўрган, иш билан таъминланиб рўзғор тебратган одамларнинг саноғига етолмайсан. Бунинг ҳаммаси домланинг узоқ умрининг меваси эмас, балки элга, халққа, Ватанга, қалаверса, жиззахликларга қилган хизматлари, таълим-тарбия соҳасидаги фойилигининг ҳосиласидир. Охиратини обод қилгин, Аллоҳим!

## **QODIRIYNING SO‘Z SAN‘ATI VA TASVIRLASH MAHORATI**

**dots.U.Qosimov,**

**Umida Ahmatova, Jizzax DPI**

Yirik tilshunos olim, taniqli jamoat arbobi, ulkan ustoz Bozorboy O‘rinboyev katta ilmiy meros qoldirdi. Ayniqsa, o‘zbek so‘zlashuv nutqiga bag‘ishlangan asarlari beqiydir.

Ushbu maqolada ustoz qarashlariga tayangan holda so‘z san‘ati haqida fikr yuritiladi.

Alisher Navoiy yoki Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor kabi mumtoz adabiyot vakillarining mukammal mazmun yaratish va inson kechinmalarini tabiiy

holatda ifodalash maqsadida asar tilidagi har bir jumla, har bir soʻz va hatto ayrim tovushlarga ham jiddiy eʼtibor berishi ular uchun badiiy ijodning «oltin qonun»laridan biriga aylangan edi. Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor va ularga izdosh boʻlgan yosh talantli adiblarimizning koʻz oldida hamisha ana shu muqaddas haqiqat - oliy mezon turadi. Ularning fikricha, asar tilining soddaligi va tiniqligi shu bilan belgilanadiki, u yozuvchi fikrini kitobxonga toʻla anglatsin va asarda tasvirlanayotgan inson qiyofasini, muayyan holatni, predmet yoki va joy manzarasini oʻquvchi koʻz oldida yaqqol gavdalantira olsin. Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor asarlarining tiliga eʼtibor bersak, ularda oʻquvchi diqqatini chalgʻituvchi yoki susaytiruvchi jumlar yohud nooʻrin qoʻllanilgan birorta ibora, hatto soʻzni uchratmaymiz. Ularning asarlari tili boshdan-oyoq oddiy soʻzlardan iborat, lekin shu oddiylik oʻquvchiga kuchli taʼsir etadi.

Xuddi shunday katta mahorat bilan tasvirlangan va insonning ruhiy kechinmalari bilan tabiat lavhalarining qanchalik mos va rang-barang boʻlishini Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani misolida yaqqol kyzatishimiz mumkin. Ulugʻ adibimizning romanidagi bosh qahramonlari- Otabek va Kumushning psixologik kechinmalarini haqqoniy ifodalashda peyzajning alohida oʻrni va ahamiyatiga taniqli yozuvchi va adabiyotshunos Xurshid Doʻstmuhammad yuqori baho bergan.\* Asarda tabiat ranglari bilan qahramonlar ruhiyati haqqoniy va bir-biriga uygʻun holatda mohirona tasvirlanganligiga tan beramiz. Masalan, Kumush soxta taloq xatini olgan va qutidornikiga sovchilar ketma-ket kelayotgan ogʻir kunlarda Kumushning ruhiy kechinmalarini Qodiriy tabiat tasviri yordamida shunday ifodalaydi: “Kuz kunlarining oyogʻi va qish kunlarining boshi. Yaproqlarini toʻkilishdan saqlab qolgan gilos yogʻochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidolmay, yelning ozgina harakati bilan-da barglarni (soʻnggi umidlarni) shirt-shirt uzib tashlamo qda edilar”. Ammo umid uchqunlari hali soʻnmagan – “havo ochiq boʻlib, quyosh tuzukkina koʻtarilgan”, biroq yana umidsizlik koʻngil tubidagi choʻgʻni bosib oʻchirishga urinadi – ammo uning ham bu kun uncha taʼsiri yoʻq, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi” (209-bet)

Ushbu parchada ham Abdulla Qodiriyning tasvirlash sanʼati yorqin namoyon boʻlgan. Eʼtibor berilsa, taloq xati tungi qora sovuqqa oʻxshatilyapti. Uning zahri shunshalar qattiqki, gilos novda lari yengilgina esgan sovuq yelga ham dosh berolmay, barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda. Havoning ochiqligi, quyoshning tuzukkina koʻkka koʻtarilgani Kumush koʻnglida soʻnmagan, hali miltillab turgan umid uchqunlariga ishora. Asarda Otabekning ham murakkab ruhiy kechinma lari bevosita tabiat tasviri bilan uygʻun va hamohang bir tarzda beriladi. Inson ruhiyati va tabiat tasvirining qanchalik maʼnodor va rang-barang boʻlishini kengroq koʻrsatish uchun romandan yana bir misol keltiramiz. Asar soʻngida shunday lavha beriladi: “Bir yildan soʻng Otabek usta Olim bilan birga Toshkent keldi. Hoji va Oʻzbek oyim ogʻiz ochib undan ranjy olmadilar. U mehmonlar kabi edi. Otasi va onasi bilan ochilib soʻzlashmadi. Usta Olim bilan bir hafta chamasi Toshkentda turib, eng soʻnggi kech yolgiz koʻyi Kumush qabri yonida boʻldi. Kecha oydin. Qabriston tiptinch, uzoqroqdan qurʼon tovushi eshitilar edi. Ikki tup chinor butoqlarida qoʻnib oʻtirgan boyqushlar, qabr yoniga

tizlangan Otabek va yuqori, quyi do‘mpaygan qabrlar bu tilovotga somi’ kabi edilar. Qur‘on oyotlari qabriston ichida o‘ir ohangda oqar edi. Qabr yoniga tiz cho‘kkan yigitning ko‘z yoshlari ham qur‘on oyotlariga qo‘shilishib oqar edi. Biror soatdan keyin tilovat to‘xtaldi. Otabek holsiz lanib oyoq uzra turdi va orqasidagi yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi...” Bunday yorqin tasvirlar chuqur milliyligi va xalqchilligi bilan ham romanning badiiyliги va tarbiyaviy ta‘sir kuchini ham oshirishi ma‘lum.

Buyuk adiblar asarlarida hatto so‘z takrori ham mohirona qo‘llanadi. Adabiyot tarixidan bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Chunonchi, A. Navoiy va Cho‘lpondek daho san‘atkorlarning asarlari tilida ham muayyan so‘z yoki iboraning bir necha bor takrorlanganligi gining guvohi bo‘lamiz. Bunday takrorlar Oybek, Usmon Nosir va Uyg‘un kabi shoirlar ijodida ham muhim bir poetik vosita sifatida qo‘llanganligi adabiyotshunos I.G‘afurov tomonidan qayd etilgan. Yoki atoqli adibimiz Abdulla Qahhor asarlarida ham ba‘zi so‘z va iboralarning takroran qollanganligi ham muayyan g‘oyaviy-badiiy maqsadga xizmat qilganligi adabiyotshunoslarimiz tomonidan tahlil etilgan. Biroq ular aslo mazkur asarlar tilining nuqsoni emas, balki eng avvalo bu ulug‘ san‘atkorlarning beqiyos til mahoratidan, ya‘ni so‘zning yangi ma‘no tovlanishlari va qirralarini kashf etganliklaridan dalolat beradi. Shuning uchun ham takrorlar misralarga bamisoli bir zeb-ziynat bag‘ishlaydi va vadiylikping o‘ziga xos bir nishonasi sifatida diqqatni jalb etadi. Navoiyning mashhur misralarini olaylik:

Xuroson badandur, Hiri y jon anga,

Hiri y jon, badandur Xuroson anga. («Saddi Iskandariy», 140-b)

Badiiy so‘z takrorining boshqa bir namunasini ko‘raylik. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida “Navo kuyi” faslidagi g‘oyat ta‘sirchan so‘z va iboralarga e‘tibor qarataylik: “Kuynig boshlanishi bilanoq uning vujudi zirr etib ketgandek bo‘lib, ixtiyorsiz ravishda dutorning munglik tovshig‘a berildi. Dutor qandaydir o‘zining bir hasratini so‘zlagandek, hikoya qilg‘andek bo‘lib eshitilar edi...Dutor bu fojeiaga o‘zi ham chidab turolmagandek yig‘lay boshladi...Dutor quruqqina yig‘lamas edi, balki butun koinotni zirr etdirib va xasta yuraklarni dirr silkitib yig‘lar edi...” Bu og‘ir va mungli tasvirdagi yig‘lar so‘zining takrorlanib kelishi ma‘no va ohangni kuchaytirishi bilan birga Otabek ruhiyati va dard-sitamlarini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi. Yoki Cho‘lponning satrlarini eslaylik: Kuz chog‘i tuproqlar gezarib qoldilar Gezarib qoldilar kuz chog‘i tuproqlar (“Yana oldim sozimni” 482-b.)

Bulardan ayon bo‘ladiki, san‘at asarining, xususan, uning tilini o‘rganishda unda biror so‘z yoki iboraning avval qo‘llanilgan- qo‘llanilmaganligi, necha bor takrorlanganligi ham asosiy mezon bo‘lolmaydi. Aksincha, asosiy gap yozuvchining til mahoratida, asar tilida ko‘p bor ishlatilgan ko‘hna so‘zlar ham jilolanadi, ularga bamisoli yangi bir hayot bag‘ishlanadi, sehr-kuchi ortadi.

\*Adabiyotlar:A.Qodiriy. O‘tkan kunlar,T.1994, A.Qahhor.Asarlar, 6-t, T.1971.X.Do‘stmuhammad Badiiy psixologizmda peyzajning o‘rni.- Qodiriyshunoslik qirralari. T. 2015,

## МЕХР ВА МАЪСУЛИЯТГА ТЎЛА ИНСОН

Хошим Комилов, ЖДПИ

Ҳаёт ўтар, меҳр қолур деб, бежиз айтмайди халқимиз. Яъни инсонда маърифий, маънавий, ижтимоий комиллик инсоний фазилятларини уйғунлаштириб ватанига, халқига, ўз оиласига, кадрдон дўстларига меҳрни шакллантиради. Бу эса сабр-тоқат, вафо, садоқат ила меҳнатсевар, элсевар бўлишига ва ҳаётда ўз ўрнини топа олишга, танлаган касбидаги фаолияти жараёнида хизмат қилади. Ана шундай комил, фидойи, ўткир таффакурли, жамоасида, оиласида, жамиятда катта ҳурматга сазовар бўлган устоз Бозорбой Ўринбоевни умр йўлларининг тарихи сермазмунлиги билан бугунги ёшлар, қолаверса, раҳбарлар учун ҳам ибратлидир. Зеро, устоз, ўқувчи, талаба, раҳбар, жамоатчи - ташкилотчи вазифаларини мақсади ва натижасини фақат ва фақат меҳр ва маъсулиятда деб билганини таъкидламоқчиман. Жиззах воҳасида 1974 йили янги очилган Жиззах давлат

педагогика институтида ректор вазифасида иш бошлаган устоз Бозорбой Ўринбоевни қабулида бўлганимда мени илиқ кутиб олиб, мен билан дўстона суҳбатлашгани ҳали –ҳали эсимда. Мен у кишига Жиззахлик эканимни, Фарғона давлат педагогика институтини жисмоний тарбия факультетини битириб Фарғона Политехника институтида ўқитувчи бўлиб ишлаётганлигимни айтиб, шу ерга она шаҳрим Жиззахга келиб

ишламоқчи эканлигимни айтганимда, У киши менга яқин одамимдек муомала қилиб, жуда яхши бўлади, бизга сиздек мутахассис ўқитувчи керак деб, шу вақтнинг ўзида менга ариза ёздириб олган эдилар. Мен ноябр ойидан иш бошладим ва шу кундан бошлаб талабалар уйида яшайдиган талабалар ва профессор ўқитувчиларга эрталабки гимнастикани (бадантарбияни) ўтказишни топширдилар. Ва соғлом танда соғ ақл деган иборага амал қилишимиз керак дедилар-да, ўзларини ҳам гимнастикага чиқишларини эслатдилар. Мен ҳар куни эрталаб соат 6-00 да келиб талабалар ва профессор –ўқитувчиларни уйқудан уйғотиб бадантарбия машғулотларини ўтказганимда, ўзлари спорт формасида бош-қош бўлиб турганлар. 1976-йили Бозорбой Ўринбоевни ташаббуси билан институтда “Жисмоний тарбия” факультети очилди. Факультетга 25 нафар талаба қабул қилинди. Талабаларга сабоқ бериш учун, Бозорбой Ўринбоев Самарқанддан Самарқанд Давлат Университетидан спортчи мураббийлардан п.ф.н Р.Абдумаликовни Гимнастика буйича мутахассис, А.Х. Гулямовни, қўл тўпи, Р.Бозоровни волейбол, К.Оқиловни кураш, Х.А.Мелиевни футбол, Т.Холдоровни туризм, Ш.Ҳасановни кураш, Н.Керимовани енгил ва М.Пардакуловни енгил атлетика мутахассисларини ишга таклиф қилиб олиб

келиб уларга шарт-шароитларни яратиб бердилар. Устоз Бозорбой Ўринбоев институтни ҳамма йўналишларини кўпайтириш, ривожлантириш учун ўз куч-қувватини кечаю-кундуз аямасдан астойдил меҳнат қилди. Шу туфайли институтда янги ўқув корпуслари, 450 ўринли студентлар ётоқхонаси, талабалар ва профессор-ўқитувчилар даволанадиган санатория-профлактория, Фориш тумани Учма кишлоғида “Соғломлаштириш” лагерлари барпо қилинди. Институтнинг ҳозирги янги биносига асос солинди. Мен 45 йилдан ортиқроқ илмий-педагогик фаолиятим давомида б та ректорлар билан ишлашган бўлсам-да, бу одамни айрим хислатларини Муҳаммедов Ғофур Исроиловичда кўрдим холос. Бозорбой Ўринбоевдан фақат мен эмас, балки жуда кўп шогирдлари ота-оналари беролмаган таълим –тарбияни, жамоатчилик орасида ўзини тутиш, муомала, кийиниш, уй-жойни саранжом-саришта тутиш, вақт кадрига етиш сингари ҳаёт илмини ўрганган бўлса ажаб эмас. Устоз ўз талабаларига ҳеч қачон бегонанинг боласи, институтга бир келиб кетадиган вақтинчалик одам деб қарамаган, балки уларни ўз фарзандидан (боласидан) яқин олиб келажақда баркамол инсон, яхши мутахассис, бахтли оила бунёдкори бўлиши ҳақида астойдил қайғурган инсон эди. Унинг талабаларга, профессор-ўқитувчиларга ва ходимларга нисбатан бўлган талабчанлиги беғараз ва самимий бўлиб, инсонпарварлик руҳи билан йўғрилган эди. У бирон бир кишини ўринсиз ва ноҳақ ҳафа қилмас, балки, аксинча, шахсини, шаъни ва ҳуқуқини асраб-авайлар ва бутун вужуди билан ҳимоялар эди. Устозга хос яна ёрқин хислатларидан бири институт профессор - ўқитувчиларини ўз шогирдлари ҳисобига бойитишга ва базани мустаҳкамлашга уларнинг касбий малакасини ва илмий салоҳиятини ривожлантиришга, мамлакатнинг етакчи олий ўқув юртлари ва таниқли мутахассис одамлари билан илмий алоқаларни кучайтиришга ўз шогирдларини улар билан боғлашга катта аҳамият берардилар. Бозорбой Ўринбоев ҳар қандай мушкул муаммонинг оқилона ечимини топа оладиган, кўп ҳамкасблари ва шогирдларига беғараз ёрдамини аямайдиган, институтни равнақи ва манфаатлари учун хизмат қиладиган муҳим масалаларда вилоят, шаҳар, республика раҳбариятларини хайрли ишларга қўл уришга кўндира оладиган дипломат инсон эдилар. Мен у инсонни устозим деб биламан, у кишидан кўп нарсаларни ўргандим. Шу 45-йиллик илмий-педагогик ишларим давомида салкам 20 йил кафедра мудири, факультет декани, проректор лавозимларида фаолият кўрсатиб ”Ҳурмат белгиси ” ордени, “Халқ маорифи аълочиси ” нишонига эга бўлдим. Буларга эришишимда устознинг катта ҳиссаси бор. Жойлари жаннатда бўлсин, деб ҳамиша дуо қиламан.

## **ONA TILIDAN MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI**

**M. Abdiyev, SamDU professori**

Hozirgi kunda, barcha o'quv fanlari bo'yicha o'qitish konsepsiyalari, DTS'lari, ta'lim texnologiyalari, interfaol usullar, ishlab chiqilib, muntazam

yangilanib borilmoqda. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish hamda ta‘lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan “Dars – muqaddas” tadbirlari, o‘qituvchilarning bilimi va kasbiy mahoratini rivojlantirish, ularga amaliy, uslubiy yordam berish, o‘zaro tajriba almashish usulidan foydalanishni tashkil etish bo‘yicha “O‘rgan – o‘rgat” tadbirlari majmuasini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ta‘lim muassasalariga yetkazildi.

Ona tili o‘qitishda o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi muhim tamoyillarni ko‘zda tutishlari lozim.

1. O‘quvchilarning mustaqil ishlashlari bevosita ularning aqliy rivojlanishi bilan bog‘liq.
2. Mustaqil ish o‘quvchi oldiga ma‘lum bir topshiriqni ongli ravishda, kuch sarflab bajarilishini talab qiladi.
3. Asta-sekinlik bilan qiyinchiliklarni yengish, ona tili darsida mustaqil ishga o‘rgatishning asoslaridan hisoblanadi.
4. Mustaqil ish bajarishda mashqlarning xilma-xiligi bo‘lishi o‘quvchining markaziy miyasini faol ishlashga imkon yaratadi, shuning uchun ham bajariladigan mashqlar o‘zbek tili darsligidan, diktantlar to‘plamidan, grammatik tahlil shakllaridan ijodiy bajarilish mumkin.
5. Mustaqil o‘qish jarayonining barcha bosqichlarida yangi nazariy materialni tushuntirishda ham, uni mustahkamlashda xilma-xil mashqlar bajarishda o‘tilgan materiallarni takrorlash, sinov topshiriqlarini bajarishda va boshqalar.
6. Ona tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishda badiiy matnlardan o‘z o‘rnida foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.
7. Mustaqil ishni to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchi mustaqil bajarishi maqsadga muvofiqdir.

O‘qituvchining vazifasi – sinfdagi barcha o‘quvchilarning ishi ustidan nazorat qilishi, qiyinalib qolganda amaliy yordam qilishi kerak. Ma‘lumki, hamma o‘quvchilarning bilim saviyasi bir xilda bo‘lmaydi, ba‘zilari o‘qituvchining yordamisiz mustaqil ishni to‘laligicha bajara olmaydi. Shuning uchun bunday o‘quvchilarga yordam o‘qituvchining diqqat-e‘tiborida bo‘lishi lozim

Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi. Bular asosan quyidagilar:

O‘qituvchining rahbarligi roli shunga qaratilgan bo‘lish lozimki, o‘qituvchi dars jarayonida ham o‘qisin, ham yozsin, dam u dam bu masala yuzasidan fikr-mulohazalar yuritsin: o‘ylab ko‘rsin, o‘z fikrini bayon qilsin, xulosalar chiqarsin.

Ayrim o‘qituvchilar ishidagi eng asosiy kamchilklardan biri yodlash bilan ongli faoliyat orasidagi uzviylikka e‘tibor qilmaslikdir. Avvalo, o‘qituvchi birinchi rejada qoidaning mazmunini va mohiyatini tushinish lozim. O‘qituvchi mahoratining muhim belgilaridan biri o‘quvchilarni qiyinchiliklarni mustaqil yenga olishga o‘rgatish, topshiriqning turli-tuman shakllarini o‘z o‘rnida qo‘llash va rejalashtirish, bu topshiriqlarni bajarishga ularni qiziqtirishdan iboratdir.



O'qituvchi darslik materiallarini mustaqil o'qishi, undagi topshiriq va mashqlarni bajarishi, mustaqil ishlarning darslikda bo'lmagan turli-tuman ko'rinishlardan (masalan, grammatik topshiriqli kartochkalar, grammatik topshiriqli rasmi kartochkalar, grafikli karkochkalar, simvolik tasvirli kartochkalardan) foydalanishi mumkin. Ammo bilimlarni puxta o'zlashtirish mustaqil ishlarni soniga emas, ularining sifatli bajarilishiga bog'liq.

V -sinfda ona tilidan "Boshlang'ich sinflarda o'tilganlarni takrorlash", "Sintaksis va punktuatsiya, fonetika, grafika, orfoepiya va orfografiya", "Leksika", "So'z yasash", "Morfologiya va ofroografiya", "Sifat", "Fe'l", kabi mavzular o'qitiladi.

Dasturda o'quv yili oxirida takrorlash va bog'lanishli nutqni o'stirish uchun ham soatlar ajratiladi. Ona tili o'qituvchisi dastur materiallarini o'tishda undan mohirona foydalanishi lozim. Takrorlash uchun berilgan topshiriqlarni bajarish yuzasidan berilgan mustaqil ishlar, birinchidan, o'quvchilarga o'tilgan qoidalarni xotiralariga keltirishga yordam bersa, ikkinchidan o'quvchilarni idrok etishga, mustaqilligini oshirishga ham undaydi. O'qituvchilarni o'quvchilarga bergan topshiriqlarini bajarish jarayonida vaqt taqsimotiga alohida e'tibor berishi zarur. Berilgan har bir mustaqil ishning o'quvchilar tomonidan bajarilishini kuzatish o'qituvchining asosiy vazifasi bo'lmog'i lozim.

Darslikning "Sintaksis va punktuatsiya" bo'limida har bir mavzu uchun qoidalarning berilishini ma'qul deb hisoblaymiz. Chunonchi, sintaksis til haqidagi fanning bir bo'limi ekanligi, uning lug'aviy ma'nosini izohlash, so'z birikmasi, gapning maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklari gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, yig'iq va yoyiq gaplar, sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma gaplarning grammatik ta'rifini o'quvchi yodlab olmasdan turib mustaqil topshiriqlarni bajara olmaydi. Shuning bilan birga, darslarga mos og'zaki va yozma bajarish uchun topshiriqlar ham o'rinli berilgan. Bunda o'quvchining nutqini o'stirishga, estetik zavqni oshirilishga qaratilgan ta'limiy xarakterdagi bog'liq matnlarning berilishi ham o'rinlidir. Chunonchi: "Maktab hovlisi", "Ninachi", "Odobli bola", "Shodlik", "Uch ayiqcha", "Qur-qurlar", "Bizning vatanimiz", "Bizning qishlog'imiz", "Donishmand", "Ovchi", berilgan bo'lib o'quvchilarning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz bilan tanishtiradi. Ular og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Xullas, ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim. Bu ona tili o'qitishning asosiy maqsadidir.

## **ШОГИРДЛАРНИНГ ЮРАГИДА ЯШАЙДИ**

**А.Б.Пардаев, СамДУ ф.ф.д**

Яқинда филология фанлари доктори, доцент Д.Ўринбоевнинг «Яқинларнинг юрагида яшайман» номли рисоласи нашр этилиб, мен ушбу китобга тақриз ёзган эдим. Рисола ўзбек тилшунослигининг йирик вакили,

Самарқанд тилшунослик мактаби устунларидан бири - филология фанлари доктори, СамДУда хизмат кўрсатган профессор Бозор Ўринбоевич Ўринбоев хотирасига бағишланган эди. Дарҳақиқат, улуғ тилшунос олим Б.Ўринбоев кўп йиллик илмий фаолияти давомида ўзбек тилшунослигига салмоқли ҳисса қўшган забардаст олим ҳисобланади. Бугунги кунда ҳам устоз томонидан яратилган «Тилшунослик асослари», «Тилшунослик назарияси», «Илмий тадқиқот асослари», «Махсус фанларни ўқитиш методикаси», «Истиклол ва лотин алифбоси муаммолари», «Ўзбек тилининг структурал грамматикаси», «Синтактик муносабатлар» каби ўқув қўлланмалари, «Комиллик истилоҳлари», «Асрлардек барҳаёт номлар» каби луғатлар талабалар томонидан севиб ўқилмоқда.

Устоз Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, профессор Улуғ Турсуновнинг илмий раҳбарлигида номзодлик ва докторлик диссертацияларини ёқлаган бўлиб, 700 га яқин турли характердаги ишлар эълон қилганлар. Ушбу асарлар орасида алоҳида нашрлар сони 100 га яқин бўлиб, 7 та монография, 4 та дарслик, 52 та ўқув ва ўқув-методик қўлланма, 16 та рисола, 4 та луғатлар мавжуд. Устоз 9 та номзодлик диссертациясига илмий раҳбарлик, 10 номзодлик ва 13 докторлик диссертацияларига расмий оппонентлик, 51 та турли характердаги алоҳида нашрларга масъул муҳаррирлик қилган.

Б.Ўринбоев илмий фаолиятлари давомида 168 та номзодлик ва докторлик диссертацияларига тақризлар ёзган. Бу тақризларда рус, қирғиз, тожик, озарбайжон, татар ва умуман туркологияга оид тадқиқотларга муносабат билдирилган.

Устознинг Ватанимиз ва халқимиз олдидаги фидокорона хизматлари ва сермазмун умр йўли ҳам бугунги ёшларга ибрат бўлишга арзийди. Б.Ўринбоев узоқ йиллар давомида Самарқанд педагогика институтида факультет декани, институт ўқув ва илмий ишлар бўйича проректори ва ректори, ўн йилдан ортиқ вақт мобайнида Жиззах педагогика инситути ректори лавозимларида, Самарқанд кооператив институти ва Самарқанд давлат чет тиллар институтида кафедра мудири, СамДУ ўзбек тилшунослиги кафедраси профессори вазифаларида ишлаган.

Ушбу анжуманда ёдга олинаётган Б.Ўринбоев ҳаёти ва фаолиятига оид хотиралар Устоз ҳақидаги эсталикларнинг бир бўлакчаси деб ҳисоблайман. Чунки таниқли тилшунос олим Б.Ўринбоевнинг меҳридан, яхшилигидан баҳраманд бўлган минглаб инсонлар мавжуд. Агар уларнинг ҳам қалбларидаги илиқ хотиралар жамланса бир неча том китобга жамланади. Фикримни даллалашга биргина мисол келтираман:.. кафедрадаги суҳбатларимиздан бирида устоз кулиб-кулиб бир воқеани айтиб берган эдилар. «Қашқадарёнинг узоқ туманларидан бирига дўстимизнинг тўйга кетаётибмиз. Мошинада гурунг шу даражада қизиб кетибдики, қанча йўл босганимизни билмай қолибмиз. Чўлнинг роса ичкарасига кириб кетдик. Аксига олиб таклифномани ҳам денг, ҳеч ким

олмаган. Қоронғу тушиб келмоқда. Шунда адашиб қолганимизни билдик. Нима бўлса ҳам бўлди, деб йўлда кетавердик. Қоринлар ҳам роса очқаб, сурнай чала бошлади. Шу пайт узоқдан бир қишлоқ кўринди. Яқинлашсак, муסיқа товуши. Демак, бу тўй. Шунда шериклардан таклиф тушди. Индамай шу тўйга кириб қоринни тўқлаб оламиз. Бизни бу ерда ҳеч ким танимайди. У ёғи бир гап бўлар. Нима ҳам деймиз, бундан бошқа қулай вариант йўқ. Ҳаммамиз кўндик. Ва тўйхонага кириб бордик. Тўй авжида. Мезбонлар келинлар меҳмонлар, келинлар, деб ҳадаҳа бизга жой ҳозирлашди. Очиғимиздан дастурхонга ҳужумни бошладик. Бизни ҳеч ким танимаслигидан кўнглимиз тўқ, шекилли ўзимизни эркинроқ, бемалол тутиб ўтирибмиз. Бир пайт денг, микрофондан ўртакашнинг «эндиги табрик сўзини узоқ Самарқанддан ташриф буюрган устозимиз, профессор Бозорбой Ўринбоевга берамиз» деганини эшитиб донг қотдим. Кейин билсам, ўзимиз ўқитган шогирднинг тўйига келиб қолган эканмиз. Шогирднинг ҳам, қариндошларининг ҳам димоғи чоғ. Биз ҳам ўзимизни атай шу тўйга келгандай тутиб, келин-куёвни табриклар, нари-бери ўтирдиг-у, ура қочдик. Чопон кўлтиқлаб олган тўй эгаси орқамиздан ҳангманг бўлиб қолди. Ана шунақа гаплар. Азаматбой, ўқитувчилик ҳалол касб, одамни элга танитади» деб сўзларини яқунлагандилар устоз. Дарҳақиқат Устоз элимизга таниқли инсон эдилар. У кишининг ҳаётидан бундай мисолларни кўплаб келтириш мумкин.

Мен ўзбек тилшунослик илми тараққиётига, республикамизда илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш ишига жуда катта ҳисса қўшган олим ва мураббий, педагог ва маърифатпарвар инсон, олий таълим ташкилотчиси ва жамоат арбоби, филология фанлари доктори, профессор Бозорбой Ўринбоевич Ўринбоев ҳақида баён этилаётган фикрларнинг ёшларимиз тарбияси ижобий таъсир кўрсатишига ишонч билдираман ва Устоз хотираси шогирдлар юрагида абадий яшашига ишонч билдираман.

## **ЛИНГВОСТАТИСТИК ТАҲЛИЛЛАР ЛЕКСИК-СЕМАНТИК, ЛИНГВОСТИЛИСТИК ВА ЛИНГВОПОЭТИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИ СИФАТИДА**

**Д.Ўринбаева, СамГУ ф.ф.д.**

Умумфилологик тадқиқотлар силсиласида лингвостатистик, лексикографик, лингвостилистик ва лингвопоэтик тадқиқотлар муштараклиги кўзланган мақсадга олиб келиши ҳақидаги қараш асос қилиб олинган. Жумладан, одам ва предмет белгиси билан боғлиқ айрим сўзлар таҳлилига ана шу тамойил асосида ёндашилган ҳамда *алвон, гулгун, зангори, кўк, малла, оқ, ол, сариқ, яшил, яшил-кўк, қизил, қирмизи, қора* сифатларининг статистик ва лексикографик таҳлилига лингвостилистик ва лингвопоэтик тадқиқотлар учун пойдевор сифатида қаралади. Ўзбек халқ оғзаки ижоди жанрларидаги ранг билдирувчи сифатлар частотасининг энг юқори

кўрсаткичи халқ кўшиқларига тўғри келади ва бошқа жанрларга нисбатан 4 баробар кўп. Кўшиқ-топишмоқнинг мос келувчи нисбати 2:1, кўшиқ – мақол 2:1, дoston жанрларида 1:3, кўшиқ – эртақ жанрида 4:1. Жумладан, кўк сўзи ЎХОИ асарлари матнида энг кўп қўлланган бирликдир. Унинг қўлланиш частотаси дostonда – 192, мақолда – 21, топишмоқда – 129, эртақда – 43, кўшиқда – 75 ни ташкил этади.

«Алпомиш» матнида кўк сўзи қуйидаги маънолари билан иштирок этган: *ранг* маъносида: *кўк човқар, кўк чодир, кўк кўз, кўк қарға: Ўлжа қилиб миниб кепсан човқар кўк (117)*. Мисолда кўк стилизациялашган, метонимияга учраб, *от* ни англатишни ўз зиммасига олган; *осмон, фалак* маъносида 15 марта қўлланган: *Мени кўкка олиб кетиб боради (144)*; кўчма маънода қўлланиб, аёл кишиларнинг азадорлигини англатиши ўзбек халқи урф-одати ифодаси сифатида тилда қадимдан бор: *Кўк кийибсан, сен бировни йўқлайсан (326)*.

**Мақоллар** матнида ҳам кўк ўзининг асосий мавқеини – ранг билдириш, осмон ва ўсимлик маъносини ифодалаш хусусиятини сақлаб қолган: *Даланинг кўкига ишонгунча, Отаннинг гўрига ишон* каби. Бу сингари мисолларнинг таҳлилида асосий гап юқорида тилга олинган маъноларни ифодалашда эмас, балки мақоллар поэтикасига хос жиҳатларда эканлигида. Масалан, *Гадога оқ халта ҳам бир, кўк халта ҳам. Оқ туя чўкмас, кўк туя турмас* мақолларини олайлик. Балки кўк рангдаги халтани кўргандирмизу, ammo кўк туяни ҳеч ким кўрган эмас. Мақолда эса шу сўз қўлланилган ва унинг қўлланилишини матндаги бошқа сўз – *оқ* тақозо этган. Қиёслаш учун мақол таркибини ўзгартириб кўрамиз: *Оқ туя чўкмас, малла туя турмас*. Шундай деб айтилганда ҳам мазмунга путур етмайди. Ифода меъёри эса битта бўғиннинг орттирилиши ҳисобига бузилиши мумкин.

Кўк сўзи **топишмоқлар** матнида мазмунга яширинган сўзни топишга кўмаклашадиган калит – очқич вазифасини ўтайди: *Кўк кўйлакка қўл етмас. Кўк косани тунтардим. Кўк сандигим очилди Ичидан зар сочилди*. Топишмоқлари таркибидаги *кўйлак, коса, сандиқ* сўзларининг нимага ишора қилаётганини дабдурустдан англаш қийин кечади. Уларнинг тағмаъносини пайқашга *осмон* маъносидаги кўк кўмаклашади. Матндаги *кўйлак, коса, сандиқ* сўзларининг *осмон, само, фазо* маънолари бу сўзсиз рўёбга чиқмайди. Қиёслаймиз: *Кўйлакка қўл етмас. Косани тунтардим. Сандигим очилди* каби. Бинобарин, матндаги *кўйлак, сандиқ, гилам* сўзларидан кутилаётган тағмаъно уларга фақат кўк сўзи метафорик аниқловчи сифатида кўшилгандан кейингина юзага чиқади: *кўк кўйлак, кўк коса, кўк сандиқ* сингари. Гарчи кам бўлса-да, топишмоқлар матнида ушбу сўз сув маъносида ҳам келади: *Кўк устида устунли уй, ўй устида ҳаёт (кўприк)*.

**Эртақлар** матнида ушбу сўзни ранг маъносида қўллаш устунлик қилади: *кўк эшак, кўк денгиз, кўк каптар* сингари. Ранг маъноси баъзан кучайтирилади: *кўм-кўк кўкат, кўм-кўк водий, кўм-кўк майса* каби. Баъзан рангларнинг кетма-кетлиги ифодани кучайтириш, белгини таъкидлаш учун

ишлатилади: *Қора тойни, саман тойни, кўк тойни* асбоблари билан тайёрлаб қўйдим.

**Қўшиқлар** матнида ушбу сўзнинг маъно кўлами *кўк от, бахтнинг кўки, кўк танга, кўк мийиқ, кўкда бўлмоқ, кўк қозоғ, тилла кўк, кўк шоли, кўк қиз, кўкка учмоқ, кўк кўз, кўк қалам, кўк тасма, кўкала майдон* сингари бирикмалар таркибида кенгайиб борган. Матнлар таҳлилида кўзга яққол ташланадиган ҳолат эса унинг *оқ* сўзи билан биргаликда келишидир. *Оқ* ва *кўк* сўзларининг қўшиқларда ёнма-ён қўлланилишига айрим поэтик ҳолатлар сабабчи бўлган деб ўйлаймиз. Биринчидан, уларнинг бир умумий ранг семасида бирлашиши, иккинчидан, ҳамма – каттаю кичикнинг бу рангларни тасаввурига сиғдира олиши, учинчидан, *қ* ва *к* товушларининг портловчи ва жарангсиз эканлиги ва талаффузда тил орқасидан тил олдига ўтишнинг осонлиги. Уларнинг биргаликда қўлланиши микроматнда лексик ва грамматик параллелизмни пайдо қилади ва қўшиқни ёд олишни осонлаштиради: *Оқ тепада оқ каптар, Кўк тепада кўк каптар. Оқ каптарим нон ейди, Кўк каптарим дон ейди* каби. Бу матнларда сўзнинг мазмуни – ранг англатиш хусусияти етакчилик қилмайди, шаклга эътибор берилади. Улар бир ҳолатда гапнинг даромади вазифасини ўтаса, иккинчи бир вазиятда талаффузи осон бўлмаган тил бирликларининг дистрибуцияси ва трансформациясида ёрдамчи бўлади. Бу каби таҳлилларни ўзбек тилидаги ҳар бир лексик-семантик гуруҳ мисолида давом эттириш мумкин. Аммо натижалар умумийлигича қолаверади. Яъни муайян ЎХОИ жанрига хос матн учун хосланган лексик бирликлар мавжуд, бу хосланганлик уларнинг қўлланиш частотасига таъсир кўрсатади ва жанр услубини белгилашда иштирок этади.

Хуллас, ЎХОИ матнлари устида олиб борилган лингвостатистик кузатишлар ва лексикографик ишланмалар фольклор асарлари тили ва услубини ўрганишда янги қадамдир. Бу амалга оширилган ишлар келажақда лингвофольклористика соҳасидаги тадқиқотлар учун маълум маънода ҳам назарий, ҳам амалий таъминот бўла олади.

ЎХОИ жанрлари матни юзасидан олиб борилган лингвостатистик ва лексикографик тадқиқотлар унинг матн лингвистикаси тизимидаги кейинги тадқиқотлар учун мустаҳкам пойдевор бўла олишлигини исботлади.

## РОМАН БАДИЙ МАТНИ СТИЛИСТИКАСИ ТАҲЛИЛИ

### 3.Ж. Пардаева, ЖДПИ профессори

Романнинг жанр аниқловчиларидан энг муҳими бу романий сўздир. Роман тафаккури ғоявий-бадий мазмуни сюжет ва композицияни юзага чиқарар экан, роман баён услуби унинг стилистикасида намоён бўлади. Романнинг бадий матн поэтикаси таҳлили – роман стилистикасига хос бўлган барча бадий компонентлар таҳлилдир.

Адабий-бадий асарни юзага келтирувчи поэтик нутқ стилистикаси (В.Виноградов) роман стилистикаси қурилишининг асосий йўлларида бири бўлиб, Тоғай Муроднинг «Отамдан қолган далалар» романи стилистикасида синкретик услуб намоён бўлар экан, поэтик нутқ романий эканлигини аниқлаш учун роман стилистикасини диакретик йўл билан таҳлилга жалб этиш керак. «Отамдан қолган далалар» романини таҳлил этар эканмиз, ёзувчи Тоғай Муроднинг муайян поэтикаси юзага келганини, бу поэтика ўзига хослиги биринчи навбатда ёзувчи индивидуал услуби орқали намоён бўлишини англаб етамиз. Тоғай Мурод поэтикасининг индивидуал хусусиятини таъминловчи бадий компонентлар роман тафаккурини очиқ беришда, табиийки ёзувчи маҳорати асар стилистикасида намоён бўлади. «Стилист ёзувчи» тушунчаси нафақат Достоевскийга ёки Прустга, Маркесга нисбатан, балки бадий сўз маҳоратини намоён қила олган А.Қодирийга, Ойбекка нисбатан ҳам билдирса бўлади.

«Отамдан қолган далалар» романи стилистикасида лирик проза, эркин проза, насрий сажъ синтезлашуви романий синкретик стилистикасини юзага келтиради, романий синкретик стилистика таҳлили дискретик (ҳар бир услуб алоҳида) йўл билан амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

Роман архитектуроникаси таҳлиliga эътиборимизни қаратсак:

Бобомиз ҳовлиси Фарғонада бўлади.

Даласи Фарғона адоғида бўлади.

Ушбу фасл кўриб турганимиздек бир неча туркумларга бўлинади: 1 туркум 11 ҳижоли, тенг вазнли тенг 2 цезурали, қофияланган сажъ (яъни сажъи мутарраф). Бунда қофия моҳияти Фарғонада - адоғида эвфоник жарангдорликда намоён бўлади. «Бўлади» такрор шаклида бўлсада ушбу ўринда «Фарғонада бўлади», «адоғида бўлади» ибораларида қофиядаги аллитерация «бўлади» такрорларида ассонанс билан алмашинади. Бу услуб орқали эса эстетик манба яъни прозаик матнда эмоционал ҳиссиёт юзага келишига таъсир кўрсатади. Шу билан бирга «бўлади» такрори бадий сўз эстетик ифодадорлигини юзага келтирувчи лексик-морфологик параллелизм вазифасини ҳам ўтайди. Ички қофия ритмик-синтактик параллелизм орқали насрий сажъланишни юзага келтиради.

Кейинги ўринда

Бобомиз даласи олдидан бир ариқ сув оқади

Сув гавҳар зилол - гавҳар зилол сув бўлади.

Сув эгилмиш толлар мажнун - мажнун солланади

Ариқ ўнгида шаҳардан келажак йўл бўлади.

Даласи олдидан «сув оқади», «сув бўлади, йўл бўлади», икки ички сажъланиш «сув бўлади», «йўл бўлади» лексик морфологик параллелизм вазифасини бажаради.

---

1 Синкретик – бир неча услубларнинг уйғунлиги; дискретик –ҳар бир услубни алоҳида таҳлил этиш йўли.

Романда романий стилистикани юзага келтирувчи компонентлар таҳлили сажъ усулини қўллаш орқали поэтик нутқнинг эмоционаллиги, интонационлиги таъминланади, ўзига хос ритмик характерга эга бўлган ритмик прозани юзага келтиради.

«Отамдан қолган далалар» романининг стилистикасида айрим бўлақлар сажланиб, ҳар бир ифода нисбатан бир-бирига тенг ритмик-синтактик бўлақларга бўлиниб кетади. Бундай сажланиш натижасида поэтик нутқ оҳангдош ва изчил ритмга эга бўлади.

Ёзувчи маҳорати шундаки, роман стилистикасида сажъ усулини қўллаш орқали нафақат поэтик нутқ ифодадорлигини оширади. Шу билан бирга қаҳрамон руҳий ҳолатини ифодалайди. Қаҳрамон табиатидан, унинг ҳатто ўз қора меҳнатидан ҳам завқлана билиш хусусиятини очиб бериш ва сажъ услуби оҳангдорлик даражасини ошириш учун хизмат қилувчи сўз санъати бўлиб қолмаслиги учун талқинда лирик прозага мурожаат этади.

«Отамдан қолган далалар» романининг архитектурасининг яна бир бадиий хусусиятларидан бири - лирик проза унсурларининг намоён бўлишидир:

«Чўлпон юлдуз пойида кулоқ қоқади. Чўлпон юлдуз пойида сажда этади» (5).

Лирик кайфият, эмоционал кўтаринкилик, қаҳрамоннинг табиат билан уйғунлиги китобхон қалбида ҳам гўзал туйғуларни уйғотади. Соф лиризм руҳидаги насрий матн ўзидан олдинги ўринларда келган ритмик поэтик матнни моҳиятан тўлдиради.

Роман стилистикасида лирик проза унсурларининг зоҳир бўлиши эмоционалликни ошириш билан бир қаторда лирик кайфият, сўз билан ифодаланмаган ҳолатларни туйғу билан ҳис қилиш имкониятларини яратиш орқали роман талқинига жалб этилган мавзу эпопеяга хос бўлиб, лирик проза ифода теранлиги учун ҳам хизмат қилади.

Эркин проза ёрдамида романда фалсафий мушоҳада, психологик таҳлил, қаҳрамон руҳий изтироблари очиб берилади.

«Отамдан қолган далалар» романи стилистикасида сажли насрнинг қўлланилиши асло асарнинг бадиий қийматини туширмайди ёки уни жанр тамойилига кўра халқ дostonларига яқинлаштирмайди. Сажъ орқали ёзувчи нафақат поэтик нутқ жозибадорлигини, эмоционал ритмиклигини оширишга муваффақ бўлади, балки қаҳрамон поэтик тилининг янада жонли, ифодалади, ўзига хос бўлишини таъминлайди.

Адабиётлар:

1. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. - Т.: Шарқ, 1994. - 272 б.
2. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1983. - 376 б.

## САМАРҚАНД ТУМАНИ ТУРКМАН ҚИШЛОҒИ ЎҒУЗЛАРИ ТАРИХИ ҲАҚИДА

С. Раҳмонов, СамДУ

Тарихдан маълумки, туркий халқлар қипчоқ, қарлук, ва ўғуз тиллар гуруҳида сўзловчи халқларга бўлиниб, дунёнинг турли минтақаларида туркий миллатлар номлари билан истиқомат қилишади. Айни пайтда диёримизда келиб чиқишига кўра бир ёки бир неча уруғдан бўлган ёки бошқа миллат вакили бўлган турли миллат вакиллари ягона Ўзбекистон байроғи остида бирлашиб, меҳнат қилаётганлиги ва яшаётганлиги қувонарли ҳолдир.

Ўзбекистонда яшовчи туркий халқ вакили ҳисобланган ўғуз лаҳжаси вакиллари ҳам шундай фикр билдириш мумкин. Дастлаб уларнинг географик жойлашуви ҳақида гап борганда, улар Республикаимизнинг деярли барча ҳудудларида истиқомат қилишади. Аммо масаланинг яна бир томони шундан иборатки, айнан шу шевада сўзловчи аҳоли билан бирга, бошқа тилда, шевада сўзлашадиган овул ва қишлоқлар (Туркмановул, Туркманқишлоқ, Туркман ва бошқа) номлари билан аталмоқдаки, бизнингча, улар ўғузлар уруғлари номи билан боғлиқдир. Биз айнан эътибор қаратилаётган мазкур ўғузлар вилоятнинг турли ҳудудларда яшовчилар шеваларидан фарқ қилади. Худди шундай ҳолатни Самарқанд тумани Туркман қишлоғида истиқомат қилувчи ўғузлар мисолида кўриш мумкин. Улардан бунинг сабаби сўралганда, уларнинг туби, илдизи тақаладиган туркий халқнинг турли уруғларга, авлодларга бўлиниб кетиши билан алоқадорликда кўринади. Информантлар уларнинг авлодлари Самарқандга кўчиб келгунича ҳозирги Хоразмнинг Урганч ва Гурлан ҳудудларида истиқомат қилишганликларини, кейинроқ ҳозирги Туркменистоннинг Хидирали (бу ерда ўша пайтларда туркман яшаганлар) деган масканига кўчишганлиги боғлаб, шу сабабли туркман номини олганликларини баён қиладилар...

Мазкур шева вакиллари шаҳар типигаги Туркман ва Урганжи қишлоқларда ҳамда Самарқанд шаҳрининг Сўғдиёна массивидан Кимёгарлар кўрғонига йўналган Нарпай кўчасининг икки томонида истиқомат қилади. Аҳоли таҳминан 1820- йиллардан бошлаб Хоразм хонлигида бўлган турли келишмовчиликлар сабабли Самарқанд шаҳри яқинига кўчиб келиб жойлашган. Ўша ерлик нафақадаги полковник Нарзиқулов Илҳом аканинг маълумотига кўра уларнинг авлодлари халқ ичида Хидирели туркманлари ва Урганчли туркманлар деб номланар экан. Шу қишлоқлик ўқитувчи ва шоира Матлуба Ғофурова “Урганжинома” деб номланган очеркидаги маълумотларга кўра аҳолининг кўчиб келиб жойлашуви бир пайт 1828 йилларга бориб тақалади. Аҳоли дастлаб Самарқанд шаҳрининг Девори кўндаланг маҳалласига келиб жойлашади. Кейинчалик Бухора амирига тобе Самарқанд ҳокимининг руҳсати билан Хишров қишлоғини макон қилишади. Ўша вақтларда Хишров қишлоғи дашт жойлар бўлган. Улар Қусам ибн Аббос замонида келиб жойлашган араблар (Ҳозирда маҳаллийлашиб тожик



тилида сўзлашади) ва бошқа маҳаллий халқ билан бирга аралашиб яшай бошлайди.

Улар жой масаласида Самарқанд ҳокимига мурожаат қилишда уларнинг катта уруғлари бўлган қозон бир (Хидирели туркманлари ёшулилари) ва Урганжининг Қўрғонтўп (Бой тўп ҳам деб номланган), Ялонғочбек ва бошқа шу каби уруғларнинг мўйсафидлари мурожаат қилишган. Ундан сўнг жадидчилик замонларида мактаб қуриш ва бошқа шу давидаги ўзига хос тарғибот ва ташвиқот ишларида фаол қатнашган. Бундан ташқари 1928 йилги аёлларнинг паранжи ташлаш воқеалари ҳақида ҳам талай маълумотлар бор. Булар ҳақида манбаада таниқли ўғиз туркманлари ҳақида ҳам аниқ фактлар асосида қайд этилган. Яна бир нарсага алоҳида тўхталишимиз керакки, “Урганжиномада” аниқ бир шахсларнинг ким кимнинг уруғи ва бошланиши кимларга бориб боғланишигача аниқ номлар билан берилган. Масалан, Сакбоз –ит ўйнатувчилар гузари бўлиб, уларнинг ишқибозликлари туфайли шу номни олган. Қулоқлашма (Тегирмонбоши) – Бу ердагилар ўтирганда тегирмоннинг шовқинидан ўзаро бир-бирларининг қулоғига пичирлаб гапирганлар. Бундан келиб чиқиб шу ном тегирмон атрофида яшайдиганларга нисбатан айтилган.

Қўрғон тўпнинг ҳозирги вакиллари, асосан, Ориф ҳожи сулоласига мансуб бўлиб, ҳудуддаги Мамади Асадов ва Ориф Баҳроновлар авлодларигача бориб тақалади.

Йиллар ўтиб улар ҳозирги яшаш ҳудудидан Кимёгарлар қўрғонигача бўлган масофада жойлашиб, ҳозирда уларнинг сони ўн мингга яқин.

Урганжиликларнинг ўзига хос одатларидан бири ҳар бир кишини лақаби билан чақиришдир. Камдан-кам урганжиликнинг лақаби бўлмаса, деярли ҳаммасининг лақаби бор. Ҳатто қишлоғига бегона киши бир-икки марта иш билан борди-келди қилса, аста ўзаро келишиб унга ҳам лақаб топиб қўйишар экан. Масалан, юқорида номи қайд этилган Матлуба Ғофурованинг ўзи билмаган лақаби бор экан. Опа қаттиққўл ўқитувчи бўлганлиги учун олдида айтилмаган лекин кейинчалик суҳбат жараёнида ўғли ая сизнинг ҳам лақабингиз бўлган хафа бўлмасангиз айтаман, сизни Матлуба укаска дейишарди. Матлуба опа дарс жараёнида кўпроқ харита олдида чўп билан давлатлар ҳақида маълумот бериб чин юракдан ўзининг вазифасини бажарган. Тўхта комиссар -асли касби комиссар бўлмаган қишлоқда кўчада ўтган кетганнинг қаердан келаётганини ёки нима иш қилаётганини сўраб турувчи киши бўлганлиги учун унга нисбатан қўйилган лақаб.

Ҳар бир кишининг лақаби билан аташ хоразмликларга хос хусусият бўлиб, мазкур ҳудудда яшовчиларнинг ҳақиқатан Хоразмдан кўчиб келганлигининг бири далили сифатида қараш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Самарқанд туманига қарашли Туркман қишлоғида истиқомат қилувчи ўғузлар тарихини, этнографиясини ҳамда шеванинг тил хусусиятларини ҳар томонлама ўрганиш ва тадқиқ этиш долзарб ҳисобланади. Бу эса кенг қамровли ўзбек шеваларини янада кенгроқ ўрганиш ва тадқиқ этиш зарурлигини кўрсатади.

## YOZMA ISHLARNI TASHKIL ETISHNING METODIK TALABLARI

M.Abdiyev, D.Mansurova, SamDU

Metodikaga oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ijod jarayonida inson aqlining faoliyati uning o'zi tomonidan bevosita kuzatilmaydi. Bu faoliyatning nechog'lik mustaqilligini kuzatish hamda uni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining, maktab va o'qituvchining vazifasi. Buning uchun o'qituvchidan ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilishlari va qiziqishlarini bilish talab qilinadi. Bu jarayonni bevosita adabiy ta'lim, xususan, ijodiy ishlar yozish jarayoni bilan bog'lab shuni aytish mumkinki, o'quvchi ta'limning har bosqichida ijodiy ishlarini o'ziga xos tarzda qabul qiladi. Shu asnoda asnosida ularning shaxsiga, xatti-harakatlariga munosabat bildirishda ham har xillik bo'ladi. Bolaga xos bunday individual xususiyatlarni bilish o'qituvchi ish faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi matn ustida ishlash, asarlar asosida yozma ishlar yozishni tashkil etish metodini aniqlashda, asosan, shu jihatlarga tayanishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar asar tasviri uning qahromonlari xatti-harakatlari bilan tanishish asnosida undagi umumiy axloqiy sifatlarni ilg'ab olishadi. Ularning xulosalari ko'pincha bir taraflama bo'lib, asardagi voqea-hodisalar asosida keskinlik bilan chiqariladi. Bola xayolan asar qahramonlari bilan birgalikda sarguzashtlarda ishtirok etar ekan, qahramonning shaxsiy sifatlari bilan emas, matndagi lavhalar, voqealar rivoji bilan ko'proq qizikadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari asar muallifi ifodalayotgan jarayonga kirishga, yozilganlarni tasavvur qilishga, kulgili epizodlarda maza qilib kulishga, fojiali holatlarda qaygurishga tayyor. Ular muallifga ishonmaslikka, unga munosabat bildirishga, matnning afzallik yoki nuqsonlarini muhokama qilishga qodir emaslar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan taqlidchilik bu davrning o'ziga xos xususiyati sanaladi. Bu holat o'zlashtirilishi lozim bo'lgan sifatlarning tashqi jihatini ko'chirishda namoyon bo'ladi. Ularga xos bo'lgan aytilganni o'zidek takrorlab berish ba'zida haddan oshib ketadi. Ulardan bilganlarini o'z so'zlari bilan gapirib berish so'ralganda, ko'pchiligi buning uddasidan chiqisholmaydi. Bu yoshda xotira kuchliligi bilan birga nutqning rivojlanmaganligi ham ko'zga tashlanadi. Ularning ko'pchiligiga bir marta eshitgan narsasini boshqa so'zlar bilan ifodalab berish qiyinlik qiladi. Bu bosqichda o'zlashtirishga, bilganlarini shuuriga singdirishga moyillikdan unumli foydalanish kerak bo'ladi. O'zlashtirganlarini qogozga tushirish jarayoni esa yanada ko'proq qiyinchilik bilan amalga oshadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida ko'rilgan qo'g'irchoq filmlar, bolalarga xos badiiy filmlar haqida og'zaki savol-javoblar tashkil etish, yuqori bosqichida esa avval suratlar asosida, asta-sekinlik bilan o'qish darslarida o'rganilgan badiiy matnlar asnosida insholar tashkil etish yaxshi samara berishi mumkin.

Maktab o'quvchilarining og'zaki va yozma ishlarini tashkil etishda o'qituvchilar ularga xos bo'lgan quyidagi talablarni bilishlari maqsadga muvofiqdir:

-ta'limning har bosqichida o'quvchilarning yoshiga xos umumiy jihatlarni;

-bu yoshdagi o'quvchilarga xos bo'lgan taqlidchilikni;

-ularga xos bo'lgan aytilganni o'zidek takrorlab berish ba'zida haddan oshib ketishini;

-bilganlarini o'z so'zlari bilan gapirib berish so'ralganda, ko'pchiligi buning uddasidan chiqolmasligini;

-bu yoshda xotira kuchliligi bilan birga nutqning etarli darajada rivojlanmaganligini;

-ko'pchiligiga bir marta eshitgan narsasini boshqa so'zlar bilan ifodalab berish qiyinlik qilishini;

-o'quvchilarning o'zlashtirishga, bilganlarini ongiga singdirishga moyilligini;

-ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, qobiliyati va qiziqishlari ayri-ayri ekanligini;

-asar muallifi ifodalayotgan jarayonga kirishga, yozilganlarni tasavvur qilishga, hazillardan qotib-qotib kulishga, qahramonlar uchun qayg'urishga moyilligini;

-ular muallifga ishonmaslikka, unga munosabat bildirishga, matnning afzallik yoki nuqsonlarini muhokama qilishga hali qodir emasliklarini;

-darslarda o'zlashtirganlarini qog'ozga tushirish jarayoni ko'pchilik bolalarga qiyinchilik tug'dirishini.

Boshlangich sinflarda har xil mavzularda insho yozish ishlarini tashkil etishda bularga alohida e'tibor qaratish mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Bola yosh bosqichlariga ko'ra turlicha qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Turli yoshda turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. Beshinchi, oltinchi sinf o'quvchilari - kichik o'smir yoshidagi bolalarning o'qituvchilar va bir-birlari bilan o'zaro munosabati o'zgara boshlaydi. Bu davrda faollikning xususiy shakllari kuzatiladi, ularning intellekti o'zini namoyish eta boshlaydi. 11-12 yoshli bolalarning ko'pchiligi o'qishga begamlik bilan qaraydilar: o'zlarini oshiqcha qiynamaydilar, uy vazifalarini berilgan topshiriq darajasida bajaradilar, ko'pincha, o'zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar. O'quvchilar shaxsning axloqiy sifatleri, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo'lgan omillar ko'proq qiziqitira boradi. Ammo kichik o'smir ham adabiy qahramonni uning shaxsigaga xos bo'lgan barcha jihatlarni inobatga olgan holda, yaxlit baholashga qodir emas. U ko'pincha qahramonning u yoki bu fazilatiga urg'u bergan holda shaxsini baholaydi. O'rta maktab yoshidagi bolalar fikrlashida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda bolalar darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo'shliqlarni qiynalib o'tkazadilar. Buning uchun ularga murakkab vaziyatlardan chiqish yo'llarini bartaraf etish yo'llari va metodlarini ko'rsatish lozim bo'ladi.

## ТАСВИРИЙ ВОСИТАЛАР-ЎҚУВЧИЛАР НУТҚИНИ РИВОЖЛАНТИРУВЧИ СИФАТИДА

Доц.Т.Алмаматов

Қалбдан чиққан сўз қалбдан-йўл  
олади (Низомий Ганжавий)

Таълим соҳасида олиб борилаётган ислоҳатлар, бўлаётган туб ўзгаришларнинг асосий (бош) мақсади бўлажак ёшларни ўқилишли, билимли, зукко, давр талабига лаббай деб жавоб бера оладиган қилиб тарбиялашдан иборатдир. Бунинг учун ўқувчиларни ижодийликка, мустақил фикрлашга, ижодий фикр маҳсулини нутқ шароитига мос ҳолда тўғри, равон, аниқ ёзма ва оғзаки ҳолда ифодалай олиш кўникма ва малакаларини шакллантириш зарур. Ўқувчи нутқига эътиборлилик зиёлиларнинг доимо диққат марказида бўлиб келган.

Таълим тарихига назар ташласак, ўзбек маърифатпарварлари ҳам ўқувчиларнинг қироатхонлигига, бадиий асарлар (матнлар)ни қайта ҳикоя қилишга эътибор қаратганликларининг гувоҳи бўламиз. Лекин бу масала ўз долзарблигини йўқотгани йўқ. Ўқувчи нутқи такомилида бадиий асарларнинг аҳамияти катта.

Маълумки, ҳар қандай ғоя, фикр нутқ орқали намоён бўлади. Шунинг учун ҳам кўпроқ эътиборни келажагимиз бўлган ўқувчилар нутқига қаратамиз.

Дарҳақиқат, нутқ ўстириш машғулоти, асосан, она тили ва адабиёт дарсларида олиб борилади. Шунинг учун ҳам бу дарсларда, умуман, нутқ ўстириш билан бирга адабий асарда қўлланилган бадиий тасвирларни ўқувчилар онгига сингдириш яхши натижа беради.

Давр ўтиши билан нутқ услублари ўзгара боради. Ҳозирги давр бадиий –адабий услубига назар ташласак, унинг оғзаки сўзлашув нутқига яқинлигини кузатамиз. Тарихий асарлар, хусусан, ўрта асрларда яратилган, ўша давр воқеа-ҳодисалари тасвирлаган асарлар тилига тасвирлаш услубига назар ташласак, уларда тарихий асарлар билан ҳозирги даврда яратилган асарлар ўртасидаги тафовутнинг гувоҳи бўламиз. Ўқувчиларга ана шу тафовут ҳақида, хусусан, тарихий асарлардаги тасвирлаш услублари ҳақида маълумот бериш улар нутқининг бойишига хизмат қилади.

Дарҳақиқат, ўрта асрларда яратилган асарлар ва уларни ўрганиш шу куннинг долзарб муаммоларга айланиб бормоқда. Хусусан, Ҳазрат Алишер Навоий асарларини ўқиб тушуниш ва уларда ифодаланган воқеа-ҳодисаларни англаш ҳаммага ҳам чўт бермайди. Демак, шу даврда яратилган нодир асарлар тили ва услубини ўрганиш ҳамда бадиий тасвир воситаларини ўқувчиларга ўргатиш заруриятга айланмоқда.

Чунончи, XVI асрларда Бухоро хонлигида юз берган воқеа-ҳодисаларга бағишланган Ҳофиз Таниш Ал-Бузорийнинг “Абдуллонома” (Шарофномаи шоҳий) асарида қўлланилган тасвирий воситалардан дарс жараёнида фойдаланиш мумкин.

Бу асар хронологик воқеаларга бойлиги, тасвирлаш (ҳикоя қилиш) услубининг содда, равонлиги билан характерланади. Унда қўлланган ўхшатишлар, муболағалар, қиёслар ўқувчини зериктирмайди, балки кизиқтиради, бир матнни бир неча вариантларда ифодалай олиш имкониятини туғдиради. Халқона ибора ва ифодаларнинг мўллиги билан ҳам характерланади.

Тонг манзарасининг тасвирига эътибор беринг. “Тонгнинг зар қопланган тигини қинидан суғурди, Ҳабаш мулкининг подшоҳи (яъни қоронғу тун) чекинди”<sup>1</sup>. Ўқувчи диққатини бу ўриндаги ўхшатишга тортиш, биринчидан, тафаккур тарзи қаерларга боради, иккинчидан, “ижод бадииятсиз, бадиият муболағасиз бўлмаслиги”<sup>2</sup>га ишонч ҳосил қилади.

Асар Соҳибқирон Абдуллахонинг ҳарбий юришларига бағишланган бўлса-да, унда инсон руҳий ҳолати тасвирининг ажойиб намуналари учрайди: “...бадан мамлакатада сезувчи қувватлар (қувватлар) амалдан тўхтаб, уйқу қаҳрамони тан вилояти устидан ғалаба қилади”<sup>3</sup>. Парча (матн)да тасвирланган ҳолат: уйқунинг таъсир кучи шоирона эҳтирос билан тасвирланмоқда. Бундай матн ўқувчи нутқида ижобий фаолият кўрсатади. чунки парчадаги ўхшатишлар ўқувчи руҳий оламига осонгина кириб боради.

Ёки Хоннинг ҳарбий салоҳияти шундай тасвирланади: “Мазкур амирлар ғоятда ҳашамат ва зийнат билан тўхтовсиз, шамолдан юришни қарз олиб, йўналдилар”<sup>4</sup>. Бу ўринда ҳам халқда ҳозиргача сақланиб келаётган “шамолдай учиб бор”, “шамолдай елиб кетди” иборалари бадиий ифодаланмоқда. Булар орқали қадимги ифода воситаларининг яшовчанлиги тасвирланаётгани ҳолда, ўқувчи нутқи янги ифода воситалари билан бойитди, сўз ўйинларини ўрганади.

Асарда Хон ҳазратларининг эътиқоди ҳам ҳарбий юришлар билан ҳамоҳанг қилиб тасвирланади. “Соҳибқирон хон ҳазрат Тангри лутфиға таваккал қилиб, фалак савлатли сипоҳлари, тоғ шавкатидан зўр, кўпликда юлдуздан кўп, унча-мунча деб тахмин қилишдан ортиқ аскар билан йўлга тушди”<sup>5</sup>. Асардан олинган парча (матн)га эътибор қаратадиган бўлсак, Хоннинг Аллоҳга таваккули, эътиқоди билан бирга бадиият (муболаға)нинг энг юксак намунасини кўрамиз. Сипоҳ (аскар)ларнинг осмондай йирик, тоғдай шавкатлилигини тасвирлаш орқали Соҳибқироннинг ҳарбий қудрати баён қилинса, уларнинг сон-санови йўқлигини-юлдузлардан ҳам кўплиги муболаға қилинмоқда. Булар халқ оғзаки ижодидаги ифодалаш воситаларидир. Бундай матнни таҳлил қилиш ўқувчи нутқи ривожда катта аҳамият касб этади.

Шуни ҳам айтиш керакки, қўшин миқдорининг ифодаланиши, бир томондан, чамалаш, тахмин билан англашилса (аниқланса), иккинчи томондан, аскарлар (қўшин) миқдорининг кўплигига ишорадир. Аммо бундай ифодалаш (аниқлаш) ҳамма ўринларда ҳам қўлланавермайди.

<sup>1</sup> Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома, “Шарафномаи шоҳий”, биринчи китоб. Тошкент, 1999, 146-бет.

<sup>2</sup> Эркин Воҳидов. Сўз латофати., Тошкент, 2014, 23-бет.

<sup>3</sup> Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдуллонома, “Шарафномаи шоҳий”, иккинчи китоб. Тошкент, 2000, 117-бет.

<sup>4</sup> Абдуллонома, 2 китоб, 125-бет.

<sup>5</sup> Юқоридаги асар, 148-бет.

Масалан, Абдуллахоннинг Тошкент ҳокими Дарвешхон билан бўлган жангида душман кўшинининг 30 минг эканлиги қайд қилинади. Демак, душман кўшини миқдорининг кўрсатилиши уларнинг камлигига писанда ҳамда Хон кўшинининг юлдуз мисол кўплиги Соҳибқирон ҳарбий кудратининг қай даражада эканлиги кўрсатилмоқда.

Бундай қиёсий таҳлиллар ўқувчи онгига, ҳиссиётига, тафаккурига кучли ижобий таъсир қилади.

Ўқувчиларда ватанпарварлик, юртга садоқат, ватан, юрт ҳимояси учун доим тайёр туриш руҳиятини шакллантиришда Соҳибқирон шижоатини кўрсатувчи парчада кўришимиз мумкин. “У (Султон) жанг учун бел боғлаган эди. ажал эса унинг хизматида камар боғлаб турарди”<sup>6</sup>. Нутқнинг гўзаллиги, таъсирчанлиги унинг нутқ шароитига мос келишига боғлиқ. Шунинг учун ҳам халқимиз “ўйнаб гапирсанг ҳам ўйлаб гапир” деган мақолни яратган. Юқоридаги парча (матн)да ифодаланган фикр Султондан бошқа шахсга нисбатан айтилганда унинг таъсир кучи бу даражада бўлмас эди. нутқ шароитининг, тасвирланаётган вазиятнинг ўқувчи нутқининг шаклланиши ва ривожига аҳамияти каттадир.

“Шарафномаи шоҳий”да, Халқимиз орасида меъёрдан ортиқчаликни ифодаловчи “одам чумоли бўлиб кетди”, “ер-жаҳонни тутиб кетди” каби ибораларга мос келадиган “жангчиларнинг ўқ, найзаси кўплигидан тоғлар, ўрмонлар бошданоёқ қамишзорга айланиб кетди”<sup>7</sup> каби нутқ парчалари қўлланганки, улардан дарс жараёнида фойдаланиш ижобий натижалар беради.

Ҳофиз Таниш ал-Бухорийнинг бу асарини Абдуллахоннинг жангномаси дейиш мумкин. Унда Соҳибқирон ва жангчиларининг қаҳрамонона юришлари тасвирланган: “Барча амирлар тез юришни сабо елидан қарз олиб, ошиқиш билан ҳаракат қилишни шамол пайкидан (хабарчи, элчи) ўрганиб, душман томонга юз кўйдилар... ўша кечаси бутун кеча бўйи оёқни узангидан узмадилар, жиловни қўлдан бермадилар”<sup>8</sup>.

Амирларнинг жанг томон ҳаракатини бундан бошқача ифодалаганда бундай сиқиклик билан ифодалаб бўлмас эди, ярим бетлик тасвир зарурияти туғилар эди. “Узун сўзни мақсадини тушунтира олмаганлар гапиради” (Румий) Матнда берилган тасвирни ўқувчилар нутқида қўллашга ўргатиш, шубҳасиз, ижобий натижа беради.

Ўрта асрлар халқимизнинг тарихида маънавий-маърифий жиҳатдан бой бўлган саодат асри ҳисобланади. Бу даврда яратилган асарларнинг тил хусусиятларини ўрганиш ва уларда ифодаланган тасвирий воситаларни имкон даражасида ўқувчилар нутқида қўллаш шарафли ва масъулиятли вазифалардан ҳисобланади.

---

<sup>6</sup> Юқоридаги асар, 167-бет.

<sup>7</sup> Юқоридаги асар, 167-бет.

<sup>8</sup> Юқоридаги асар, 198-бет.

## КЎЧИРМА ГАПЛИ ҚЎШМА ГАПЛАРДА ТАРТИБ

доц А.Мусаев, Г.Умрзокова, ЖДПИ.

Маълумки, кўчирма гаплар адабий тил ва сўзлашув нутқи услубида кўп ишлатилади. Кўчирма гап вазифасида айрим ундовлар, диалог таркибдаги қисқа реплика ва монологлар келиши мумкин.

Сўзлашув нутқи диалогик характерга эгадир. Диалогик нутқ жараёнини сўз санъаткорлари ёзма тарзда берганларида кўчирма гаплардан фойдаланадилар. Кўчирма гапдаги маъно нозикликларини ифодалаш мақсадида муаллиф ўз изоҳларини беради. Бу изоҳлар муаллиф гапини ташкил қилади ва улар кўпинча икки таркибли гаплардан иборат бўлади.

Ўзга нутқи таркиби ифода мақсадига кўра дарак, сўроқ, буйруқ ва ундов гаплардан иборат бўлиши мумкин.

Ўзга нутқ таркибида сўроқ гаплар ўз характери билан ажралиб туради. Сўроқ гапларда эга ва кесимни биринчи ўринга, яъни иккинчи даражали бўлақлардан олдинги ўринга ўтказиш ҳолатларини учратамиз. Бунда сўзловчи бош бўлақларнинг маъносини алоҳида таъкидлаб кўрсатишга ва шу билан унга диққатни тортишга ҳаракат қилади:

- Уни қамоққа олдиларми? - сўради у катталарнинг ўртасида пайдо бўлиб /Ш.Р.Ғол.183/.

Сўроқ гапларда эга ва кесимни гапнинг бошига ўтказиш билан ўша белги, ҳаракатни бажарувчиси таъкидланади /1:15/.

Сўроқ гапларда сўзларнинг бошқача жойланиш тартиби мавжуд.

Уларда асосий маъно ташиш юқини кесим бажаради:

- Нима қилиб юрибсан, бемаҳалда? /С.Аҳ,Уфқ.216/.

Демак, ўзга нутқ таркибидаги сўроқ гаплар ўз эмоционаллиги билан ажралиб туради. Эмоционаллик кўпинча эмфатик урғу билан ҳам амалга оширилади.

Кўчирма гапга муаллиф гапи ҳам киритилар экан, у турли ўринда келади. Муаллиф гапи кўчирма гапга нисбатан ҳар хил ўринда бўлади. Шунга кўра муаллиф гапидаги сўз тартиби ҳам фарқланади.

Муаллиф гапи кўчирма гапдан кейин келади. Бунда кўчирма гап муаллиф гапининг кесими ёки бирор бўлагини аниқлаб, тўлдириб келади ва унга тобе бўлиб маъно жиҳатдан муаллиф гапига нисбатан биринчи ўринда туради:

-Ким қидираяпти? - сўради Олимжон совуққонлик билан /Ш.Р. Ғол. 37/.

Бундай кўчирма гапларда муаллиф гапи кесим, эга ва иккинчи даражали бўлақдан иборат тартибда тузилади. Чунки юқорида айтиб ўтганимиздек, сўзловчи фикрини ифодалашда, уни тингловчига етказишда аввал муҳим бўлган бўлақни, сўзни айтади. Кесимнинг биринчи ўринда туриши унинг аҳамиятини, маъносини, таъсирини кучайтиради /2:87/:

Мени камасинлар... турмага... - деди Азамат аста /Ш.Р. 1.186/.

Муаллиф гапи кўчирма гапдан олдин келади, бунда гап бўлаклари ҳар доим тўғри тартибда жойлашади:

- Эшполвон ётган ерида сўкинди.

- Номард, единг-а! /С.Аҳ.Қис ва ҳик.81/.

Лекин сўзлашув нутқида кўчирма гапдан кейин муаллиф гапининг кесими такрорланиб келиши ҳам мумкин:

Мушук ялиниб: - Мени ҳам кўтариб ўт? - деди /Донишманд чўпон. /Ў.Х.Э.66/.

Муаллиф гапи таркиби қўшма кесимдан иборат бўлса, кўчирма гапдан сўнг шу қўшма кесимнинг биринчи қисмида "деб" равишдоши келади:

- Подшо ҳузурига бориб: "Бир камбағал бола оламда йўқ чиройли бир киз олибди", - деб мақтанишибди /Дон.чўп.Ў.Х.Э. 101/.

Сўзлашув ва адабий тилда қўлланувчи "деб" равишдоши кўпчилик лингвистик адабиётларда кўчирма ва муаллиф гапини туташтирувчи боғлама саналиб келинган. Масалан, проф. Ф.Абдуллаев феълнинг равишдош шакли "деб" вазифаси ҳақида шундай ёзади: "Автор гапининг эга ва кесими гап бошида келгудек бўлса, кўчирма гапдан сўнг одатда -деп боғловчиси тиркалиб келади: Мен айттим: "буйин бизгина бар", -деп" /3:185/.

Бизнингча, бунда деб боғлама эмас, балки қўшма кесимнинг таркибидир. Чунки деб шакли алоҳида кам қўлланади, асосан қўшма кесимнинг таркибида келади: деб айтди, деб гапирди, деб сўзлади (4:34). Турли стилистик талабларга кўра кўчирма гап муаллиф гапининг ўртасида келади. Бундай ҳолатда кўчирма гап муаллиф гапининг бир қисми каби келади ва унинг феъл билан ифодаланган кесимини аниқлаш учун хизмат қилади:

- Чўпон: - Туз қандай бўлади, - дебди (Д.чўп.Ў.Х.Э.89/.

Кўчирма гап муаллиф гапининг ўртасида келганда, муаллиф гапининг эга таркиби кўчирма гапдан кейин келади. Сўзлашув нутқида баъзан муаллиф гапининг эгаси кўчирма гапдан олдин ва кейин ҳам келиши мумкин:

Подшо ҳам: "Фалон дарвозасидан сен борасан, пистон дарвозадан сен борасан!" - деб ҳамма бекларга тайинлаб чиқди /Д.чўп. Ў.Х.Э.102/.

Бундай гапларда сўзловчининг нутқи муаллиф гапининг эгасига тааллуқли эканлиги таъкидланган. Бу хилдаги инверсиянинг бўлишига сабаб кўчирма гап муаллиф гапининг кесими билан мазмун жиҳатдан маҳкам боғланганлигидан ва уни бирор жиҳатдан изоҳлаб турганлиги учун, ҳар бир тобе бирлик ўзининг ҳоким бирлиги олдида жойлашганидек, муаллиф гапи кесимининг олдидан ўрин олади ва натижада муаллиф гапининг эгаси кейинга ўтиб қолади. Бу хил эркин тартиб ҳозирги кўпчилик тилларнинг сўзлашув нутқи услубида учрайдиган характерли ҳодисадир /5:41-42/.

Кўчирма гап муаллиф гапининг ҳар икки томонида келганда, муаллиф иккинчи шахсининг гапини кўчираётганлигини ажратиш учун олдин кўчирма гап, сўнг ўз гапини ва яна кўчирма гапни давом эттиради.



Муаллиф гапи кўчирма гапнинг ўртасида келганда ҳам инверсия юз беради. Бунда муаллиф гапи иккинчи даражали бўлак, кесим эга тартибида бўлади:

-Ўзидан сўрайлик, - деди Юсупов. - Қаерда ишлашни хоҳлайсан, бола?  
/С.Аҳ.Қис ва ҳик.113/.

Адабий тилда бу одатдаги тартиб мантиқий грамматик, стилистик талаб билан ўзгаради. Лекин мазмун жиҳатдан биринчи ўринда турган бўлак ўз типик ўрнидан қатъий назар, кесим олдидан келади ва мантиқий урғу олади. Ўзбек тилида мантиқий урғу билан тартиб зич боғлангандир. Чунки интонация ва сўзлар тартиби бўлакларнинг мазмун аҳамиятини кўрсатишда асосий воситадир. Аммо сўзлашув нутқи материалларининг кўрсатишича, уларда тартиб ўзгаришлари ўзига хос хусусиятларига эга. Чунки "...жонли нутқнинг асосий хусусиятларидан бири бу аввал асосий нарсани, тасдиқ ё инкорни билдириб бўлиб, бошқаларни ундан кейин айтади, асосий фикрни баён қилиб бўлгандан кейин эсга келган нарсани ҳар хил изоҳларни ҳам шу билан қўшиб ифодалаб беради" /6:165/.

Лекин сўзлашув нутқи услубида ўзганинг нутқини беришда, хабарнинг манбаини беришда, баъзан киритма бўлак берилади:

- Биров уни, полвон, деди. Биров ерда юрадиган паровоз, деди. Яна бири, темир фил, деди /С.Аҳ.Қис ва ҳик.66/.

Демак, диалогик нутқнинг бир шакли бўлган кўчирма гаплар ёзма ва сўзлашув нутқида сўзлар тартиби бир-бирига ўхшайди. Аммо у сўзлашув нутқида фарқли томонларга ҳам эгадир.

Кўшма гаплардаги қисмлар ўрнини белгилашда алоқа вазифаси ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлсада, уларни боғлаш учун восита бўлган ёрдамчиларнинг характери ҳам муҳим аҳамият касб этади.

#### **Адабиётлар рўйхати:**

1. Закиев М.З. Синтаксический строй татарского языка.- Казань, 1963.
2. Асқарова М. Кўшма гапнинг кўчирма гапли тури ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1961,1.
3. Амиров Р.С. Особенности синтаксиса казахской разговорной речи АДД.-Алма-Ата:1992.
4. Баскаков Н.А. О некоторых типологических изменениях в синтаксисе современных языков // Тюркологический сборник.-М.: Наука,1966.
5. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. -Тошкент: Фан. 1987.

## “RAVZAT USH-SHUHADO” ASARIDA SHE’RIY SAN’ATLARNING QO‘LLANISHI

**f.f.n. S.Soyipov JDPI**

Sobir Sayqaliy o‘zining “Ravzat ush-shuhado” asarida so‘zlarni o‘rinli qo‘llash natijasida mohiyatni teran ifodalashga xizmat qiladigan o‘ziga xos poetik shakl tuzilishini yaratishga erisha olgan. Binobarin, ijodkor til boyliklaridan ustalik bilan istifoda etgan, vazn, qofiya, radif singari she’riy unsurlardan unumli foydalanish orqali asar g‘oyasini o‘quvchi his-tuyg‘ulariga, ruhiyatiga yetkazish usullarini topa olgan. Shoirning asar g‘oyaviy yo‘nalishi va syujetini yorqin ifodalashida ana shu omillarning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Sobir Sayqaliy doston mazmuni va shakl masalasiga til nuqtai nazardan alohida e‘tibor qaratib, asar kirish qismida shunday misralarni bitadi:

Amallar hirqati dildin zovoyid,  
Qilib bar ham forohamg‘a favoyid.  
Ki ayla tol‘iy axtarin firuz,  
Beribon shavqu zavq dard ila so‘z.  
Ma‘oni mohina dil hola ayla,  
Xayolim gardishin purgola ayla.  
Zamirimsof qil, chun aftobi,  
Bir oti ber ki, nazm aylay ktobi<sup>1</sup>.

Keltirilgan iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, Sobir Sayqaliy bu asar o‘quvchi ko‘nglida zavq uyg‘otib, unda ifodalangan so‘zlar va ularning mazmunan boy ma‘nolari dilni yoritishda xizmat qilishini istaydi. Shuningdek, muallif bu asar o‘quvchi qalbida muhabbat uchqunlari uyg‘otishini tilaydi.

Sayqaliy asar yozishdan ko‘zlagan maqsadlaridan yana biri islom tarixiga oid manbalardan haqiqatga yaqin rivoyatlarni saralab, ularni o‘zbek adabiy tilida xalq tiliga yaqin holatda bayon etishdan iborat bo‘lgan. Shu bilan birgalikda shoir har qanday ijodkorning qalami haqiqatgo‘y, samimiy va xalq xizmati uchun qaratilgan bo‘lishi kerakligini o‘z asari tilida til boyliklaridan unumli foydalanib, quyidagi alohida misralar orqali ifodalaydi:

Bu so‘zlar axtarin ko‘rgil qissasdin,  
Ki g‘ofil bo‘lma o‘tgan har nafasdin.  
Kamina xusha chinlig‘ birla aknun,  
Turib tori xayola durri maknun.  
Olib qissalardin bob bobu,  
Ki turka nazm qilsam bir kitobi.  
Oxirida Husayinni hasbi holin,  
Bayon etsamu o‘tgan mohu solin.  
Uqug‘on bandalar dil rish bo‘lg‘oy,  
Ki to so‘zu kudozi besh bo‘lg‘ay<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Собир Сайқалий. Равзат уш-шухадо. Нашрга таёрловчи: Сайфиддин Сайфуллох, Довуд хунзкер. Т., Мовароуннахр. 2004. –Б., 6. Ушбу китобдан бундан кейин берилган иқтибослар ўша асар тарзида берилади.

Demak, Sobir sayqaliy qarashicha asar mazmuni shakl bilan mutanosib bo‘lmog‘i, shakl asosan, mazmunga xizmat qilishi va unda qo‘llanilgan so‘zlar o‘quvchi dilida muhabbat uchqunlarini uyg‘ota olishi zarur. Shunday ekan, shoir o‘zining ushbu dostonida ana shu omillarga qat’iy rioya qilgan holda chuqur mazmunli, rang-barang, so‘zga boy, go‘zal badiiy shaklda ifodalangan, sodda va ravon tilga ega bo‘lgan mukammal asarni yaratishga muvofiq bo‘ldi.

Shoirning mahorati uning xalq tilidan unumli foydalanib, undagi so‘zlarni mohirona qo‘llashi va she’riy san’atlar vositasida voqelikni haqqoniy ifodalab berishidir. Sayqaliy asaridan bunday iqtiboslarni misol tariqasida ko‘plab keltirishimiz mumkin. Masalan, asarning hazrati Nuh alayhissalom tarixiga bag‘ishlangan bobi kirish qismida uning qavmini haq yo‘lga da’vat qilgan vaqtdagi ichki kechinmalarini talmeh, tazod, tashxis, tanosub singari she’riy san’atlarni mohirona qo‘llagan holda ta’sirchan ifodalaydi. Natijada, o‘quvchining estetik zavqini uyg‘otishga xizmat qila oladigan yuksak badiiy darajadagi so‘zga boy nazmiy misralar vijudga keladi:

Kel emdi, Sayqaliy ayla rivoyat,  
Payambardin istab iste’onat.  
Nechuk o‘tti jahondin anbiyolar,  
Xudo soldi, alarg‘a ko‘p balolar.  
Eshiting emdi so‘z Nuhi nabiyydin,  
Na kunlar ko‘rdi ul piru sabiyydin.  
Ki to‘qqiz yuz ellik yil u sarur,  
Baloni qavmidin ko‘p ko‘rdi yak sar.  
Derlar toki uch qarn o‘tti ul qavm,  
Ki davat aylar edi Nuh har yavm.  
Der erdiki, xudoni bir bilinglar,  
Bu botil butlaringdin ayrilinglar.  
Alar gush aylamas erdi, bu davat.  
Anga bo‘lmas erdilar hargez ummat.  
Tutardilar kelib ul pirni toshqa,  
Bo‘lurdi ustixonlar boshqa-boshqa.  
Kelib anda Jabrayil par urardi,  
Yana Nuh ul joydinke to‘rardi.  
Tutar erdi, yana amri xudodin,  
Qilurdi qavmig‘a har kun nidoni.  
Alar isloma enmas erdi, hargez,  
Qilurdilar chunon uyig‘a sangrez<sup>1</sup>.

Bu she’riy lavhada shoir, eng avvalo, bu jahonda ko‘p payg‘ambarlar o‘tganligi va ular insonlarni haq yo‘l bo‘lgan islom diniga da’vat qilganliklarini bayon qiladi va payg‘ambarlar xudoning ko‘p sinovlariga duch qilingani haqidagi fikr ta’sirchanligini kuchaytirish maqsadida ayrim shu ma’noni tashuvchi so‘zlarni

---

<sup>2</sup> Ўша асар. –Б. 16.

<sup>1</sup> Ўша асар. –Б., 12.

qayta-qayta takrorlab iltizom san'atini qo'llaydi. Mazkur misralarda "balo" so'zini takror qo'llanishi ushbu san'atga misol bo'la oladi.

Yana ushbu iqtibosda shoir bir so'zni takror ishlatishdan cheklanib "payg'ambarlar" so'ziga sinonim sifatida "nabiylar" so'zini qo'llaydi va natijada asar tilini rang-barangligini ta'minlaydi. Shoir payg'ambarlar, xususan, Nuh alayhissalom ismini keltirish orqali talmeh san'ati qo'llangan bo'lsa, "pir" (keksa), "sabiy" (yosh) so'zlarini qo'llash misolida tazoddan istifoda etadi.

Keyingi misralar Nuh payg'ambar da'vatlariga javoban unga tosh otib, vujudini jarohatlagani haqida boradi. Bu o'rinda ham to'rt bor "tosh" so'zi qaytarilib iltizom va "tosh" so'ziga ma'nodosh bo'lgan "sang" sinonimini qo'llab, odamlarni haq yo'lga da'vat etish asnosida Nuh payg'ambar boshidan kechirgan jabru jafolarni ta'sirchan ifodalagan. Natijada shoir sinonim hamda ma'nodosh so'zlarni o'z asari tilida qo'llab asar tilini shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlagan. Shuningdek, ijodkorning xalq tilidagi rang-barang she'riy san'atlardan mahorat bilan foydalangani natijasida asar rivoyatlarini mazmunan teran, shaklan jozibador, o'quvchi ruhiyatiga, shuuriga ta'sir eta oladigan darajada bayoni amalga oshiriladi.

Sobir Sayqaliy doston tili va poetikasining mukammal bo'lishini ta'minlashda ilmi bade' imkoniyatlaridan samarali foydalangan. U ayniqsa, tashbeh, iyhom, tajnis, tanosub, irsolul masal, tashxis, husni ta'lil, tardi aks, istiora va boshqa san'atlarni mahorat bilan qo'llagan.

"Ravzat ush-shuhado"da muallif ba'zan rivoyat va afsonalar hamda xalq maqollariga murojaat etadi va ulardan unumli foydalanib, o'quvchi shuuriga doston mazmunini chuqurroq singdirishga intiladi. Bu hol o'z navbatida, doston tilining xalqchilligini, ifodaning badiiy jozibasini ifodalaydi. Natijada asardagi ijobiy va salbiy obrazlar o'quvchi ko'z o'ngida yorqin gavdalanadi.

Shuningdek, shoir dostonidagi rivoyatlarga turli-tuman qahramonlarni kiritadi. Ular orasida shayton, hayvonlar, parrandalar, o'simliklar, samoviy jismlar ham obrazli uchraydi. Sayqaliy bunday qahramonlar bilan bog'liq tili rang-barang bo'lgan, so'zga boy teran mazmunli, ta'sirchan hikoyat va rivoyatlarni xalq kitoblariga murojaat qilgan holda keltiradi. Va ularni insonlar singari gapirtiradi. Odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni tilimizdagi so'z boyliklaridan unumli foydalangan holda ularga ustalik bilan ko'chiradi. Sayqaliy bunday o'rinlarda intoq yoki tashxis deb nomlanuvchi san'atdan unumli foydalanadi.

Asardagi Muhammad payg'ambarning tavalludi munosabati bilan shaytonning motam tutishi voqeasi tasviri bunga misoldir:

Ki ultunda yiqildi, toqi Kisra,  
Ki shom o'rtasida Kisraning qasri.  
Ki mug'lar o'tti, so'ndi o'shal tun,  
Tamom yer yuzidagi butlar ul tun.  
O'shal tun yuzi birla tushti yerga,  
Basi ta'zm ila ul yaxshi erga.  
Bor erdi, ka'bada but uch yuz oltmish,  
O'shal tun barcha yuzdin yerga solmish.

Yig‘ilib birgala jam‘iyi Shayton,  
Ki iblis oldig‘a bordilar ul hin.  
Dedilar ey ato it bu qoloyi hol,  
Alarg‘a so‘zladi, Iblis bu minvol.

Mazkur iqtibosning avvalidayoq Sobir Sayqaliy talmeh san‘atini qo‘llaydi va natijada asar mazmunini boyitadi. Shoir dostonidan keltirilgan parchada “ki” bog‘lovchisini besh joyda qo‘llab, takrir san‘ati vositasida asosiy mazmunga alohida e‘tibor qaratadi. “tun” so‘zining olti marta takrori natijasida iltizom san‘ati qo‘llanilgan.

Shunday qilib, Sayqaliy bu keltirilgan iqtibosda she‘riy san‘atlar asarning badiiy jozibasini oshirish bilan bir qatorda, uning tili rang-barangligini ta‘minlaydi.

Sobir Sayqaliy o‘zining “Ravzat ush-shuhado” asari tilini boyitish va uni rang-barangligini taminlash maqsadida “bilimlar uchligi” – ilmi bade‘, ilmi aruz va ilmi qofiyadan unumli va o‘rinli foydalandi va til hamda suyujet jihatdan mukammal bo‘lgan ushbu asarni yaratdi.

“Ravzat ush-shuhado”da shoir talmeh, tazod, tashxis, tanosub, iltizom, tasbi‘, iyhom, irsol ul-masal, husni ta‘lil, tardi aks, istiora singari she‘riy san‘atlarni tilimizdagi so‘z va iboralar vositasida mahorat bilan qo‘llagan. Natijada ushbu badiiy san‘atlar asarda chuqur mazmun va poetik joziba uyg‘unligiga erishishini va asar tilini xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta‘minlagan.

## **ЖИЗЗАХЛИК ШОИР ТЎРАХОН МАХДУМ-АФСУС**

**Жалолиддин Жўраев, ф.ф.д., ЎзРФА, Жамолиддин Жўраев, ф.ф.н ЖДПИ,**

Бир мамлакат аҳолисининг бир шаҳридан илм олиш, савдо, давлат ишлари ва бошқа турли хил сабабларга кўра иккинчи шаҳрига бориб ўша ерда яшаб қолиши табиий ҳол ҳисобланади. Жумладан, XIX аср Жиззах шаҳри аҳолиси ҳаётида ҳам шундай жиҳатларни кўплаб кузатишимиз мумкин. Мазкур даврда кўпгина жаззахликлар Бухоро амирлиги ва Қўқон хонлиги шаҳарларида фаолият олиб борганлар. Асли жаззахлик бўлиб, кейинчалик Қўқон хонлигининг бошқа шаҳарларига бориб, яшаб қолганлардан бири Тўраҳон маҳдумдир. Тўраҳон маҳдум фикҳ илмининг билимдони сифатида хонликнинг Тўрақўрғон мавзуининг қозиси бўлган. Шунингдек, у яхшигина шеър таъбига ҳам эга бўлиб, Афсус таҳаллуси билан шеърлар ҳам ёзган.

Тўраҳон маҳдум тўғрисидаги илк маълумотлар Фазлий Намангонийнинг “Мажмуъат уш-шуаро” асарида қайд қилган. Хусусан, Фазлий бир ўринда:

Эрур Тўраҳон хожаи номдор,  
Таҳаллусда Афсус - олийтабор.  
Эрур мулки Диззах диёри анинг,

Бу кишварда эрди қарори анинг<sup>2</sup>.  
деб ёзса, бошқа ўринда:

Зи Диззах як хожаи комрон,  
Сутуда ҳасб, куняташ Тўрахон.  
Гузида табораст, олийнасаб,  
Буд пири Диззах зи рўйи ҳасабз.

Мазмуни:

Диззахлик бир бахтли хожа,  
Келиб чиқиши мақтовга лойиқ, куняси Тўрахон.  
Энг сайланган авлоддан, олийнасаб,  
Авлоди туфайли Диззахнинг пири эди.

дейди.

Шунингдек, Тўрахон маҳдум ҳақидаги маълумотларга Пўлотжон домулла Қайюмийнинг “Тазкираи Қайюмий”сида дуч келамиз. Қайюмийнинг ёзишича, “Афсус. Бу шоир Жиззах шаҳридан бўлуб, Хўқандга 19 нчи аср I ярмида келмишдур. Номи Тўрахон маҳдум бўлуб, хурматга сазовор аристократлардандир. Хоннинг аъёнларидандур. Нимагадурки, шунчалик хурматга эга бўлуб, хон атрофини ўрагани ҳолда Тўрақўрғонга қози бўлуб тургани ила шеърда тахаллус этиб Афсус ихтиёр этмишдур”.

Қуйроқда унинг авлодлари-XIX аср охири - XX аср бошларида яшаб ижод қилган шоир ҳамда тарихчи Ибрат ва унинг биродари тўғрисида гапириб: “Тўрақўрғонли Исҳоқхон қози ва тахаллуси Ибрат ҳам шоир Васфий Тўрақўрғоний, булар Афсусга набирадурлар. Авлодлари ҳозирда ҳам шундадурлар”, дейди<sup>4</sup>

Тазкиранинг Ибрат ва Васфийга бағишланган ўрнида яна бир бор Ибратнинг исми Исҳоқхон, отасининг исми Жунайдуллохон тўра, Васфийнинг исми Жалолхон бўлиб, улар шоир Афсуснинг набиралари ва бир-бирига амакивачча эканлиги айтилади. Булар Ибратнинг “Фарғона тарихи” номли тарихий асари, хат ёзиш усуллари, хуснихатга оид “Мажмуот ул-хутут”, арабча-тожикча-русча-ўзбекча тўрт тилли “Лисон ул-арбаа” номли луғат тузганлиги, шунингдек, ота-боболарининг ҳаёти тўғрисида ёзган асари ҳам борлиги, Тўрақўрғонда узоқ вақт қозилик қилганлиги, фарзандлари, ижодий фаолияти тўғрисидаги маълумотлар билан тўлдирилган. Васфийнинг эса илмли киши бўлиб, муфти ва аълам лавозимларида хизмат қилганлиги, оиласи, ижодиёти тўғрисида гапириб ўтилиб, шоирнинг “Биёбони тахаюрда қолибман волаи шайдо” мисраси билан бошланадиган саккиз байтли шеъри келтирилган<sup>5</sup>.

---

<sup>2</sup> Фазлий Намангоний. Мажмуъат уш-шуаро. ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. 3-рақамли босма асар. –Б. 467.

<sup>3</sup> Яна шу асар. –Б. 384.

<sup>4</sup> Пўлотжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. II жилд. -Т., 1998. –Б. 283-285.

<sup>5</sup> Кўрсатилган асар. –Б. 420-422.

Шоир ўз даври анъаналарига биноан ўзбек ва тожик тилларида ижод қилган. Жумладан, “Мажмуъат уш-шуаро”да Афсуснинг ўзбек тилидаги 4 та ғазла ҳамда тожик тилидаги 5 та ғазал ва 1 та қасидаси берилган<sup>6</sup>. Илк кузатишларимизга кўра, ижодкор асарларидан намуналар Қўқон адабий доираларида тартиб берилган баёзларда ҳам учрайди. Бизнингча, шоир томонидан мукамал девон ҳам тартиб берилган бўлиши мумкин.

Тўраҳон маҳдум шеърларида кўпроқ анъанавий бўлган инсоний комиллик, ишқ-муҳаббат, висол онлари, ҳижрон азоби мавзуларини қаламга олинган. Булар билан бирга шоир ижодида ўз юртини қўмсаш, ватан соғинчини изҳор этувчи мисралар ҳам учрайди. Масалан, бир ғазали мана бундай мақтаъ билан ниҳояланган:

Ўз диёридин адашган бир ғариб Афсусдур,  
Чуғзи бевайрона янглиғ Тўрақўрғон устина<sup>7</sup>.

Бошқа ғазалларида эса қуйидагича мисраларни ўқиймиз:

Амиринг даврида Афсус, афсус этма, тут соғар,  
Фалак даври санга гар созу, гар носозкор ўлсун<sup>8</sup>.

Кўрсатилган байтлардан гарчи у саройнинг нуфузли амалдорларидан бири, хоннинг яқин кишиси бўлса-да, она шахрига қайтиш истаги, қайсидир маънода ўзга шаҳарларда юрганлигидан афсусланиш ҳисларини зоҳир қилаётганлигини англаймиз.

Хулоса қилиб айтганда Тўраҳон маҳдум-Афсус ҳамда унинг авлодлари ҳаёти ва ижодини ўрганиш, ўша давр Қўқон хонлиги шаҳарлари ўртасидаги илмий, ижтимоий, маданий, адабий алоқалар, Жиззах шаҳри ва унинг атрофидаги туманларнинг хонлик сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маданий ҳаётида тутган ўрни ва ролини белгилашда аҳамиятлидир.

## ОЛМОШЛАРДА ИЖОБИЙ БАҲО ОТТЕНКАСИ

О. Юсупова, СамДУ

Инсон дунёга келибдики, у ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маиший, таълим-тарбиявий каби ўнлаб омиллар таъсирида ижобий, бошқаси эса салбий феъл-атвор эгаси бўлиши турган гап. Бир инсон характерида вазият талаби билан турли ҳолатлар рўй беради. Инсон ўз инсонийлигини намоён эта бошлашидан турли-туман хулқ ва ахлоқ борасида одат тусига кириб қоладиган ўзига хос муҳим руҳий ҳолатларни эгаллаб боради ва улар

<sup>6</sup>“Тазкираи Қайюмий”да “Мажмуъат уш-шуаро”дан олинган “устина” ва “ўлсун” радифли ғазаллар берилган.

<sup>7</sup> Фазлий Намангоний. Мажмуъат уш-шуаро. ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. 3-рақамли босма асар. –Б. 384.

<sup>8</sup> Кўрсатилган асар. –Б. 367.

кейинчалик қатъийлашиб қолади. Тилимизда инсоннинг бундай хусусиятларини ифодалаш мақсадида юзлаб сўзлардан фойдаланилади. Шундай сўзлар от, сифат, феъл, сўз туркумлари каби олмош сўз туркумида ҳам учрайди. Олмошлардаги бундай хусусият алоҳида услубий аҳамиятга молик бўлиб, асосан кишилик, қисман ўзлик ва кўрсатиш олмошларида учрайди. Жумладан, олмошларнинг услубий хусусиятларининг ифодаланишида ижобий баҳо оттенкаси кўзга ташланади.

Ўзбек тилида ижобий сўзи “маъқул, маъқул деб топилганлигини ифодаловчи, маъқулловчи, ёқловчи, мақтовли”<sup>9</sup> маъносини ифодалайди. У нарса-предметларнинг ҳам, шахсларнинг ҳам шундай хусусиятларини ифодалаш учун ишлатилади. Бундай ижобий хусусиятлар олмошларнинг куйидаги семаларида ўз ифодасини топган.

1. **“Хурмат” семаси.** Кишининг қадр-қимматга эга эканлигини, эъзозга, эҳтиромга лойиқлигини ифодалашда асосан сиз олмошидан фойдаланилади. *Сиз шу қадар мўътабар, шу қадар муқаддас бир зотсизки, меҳрингиз тафтидан олам яшаради, яшнайти. Зеро, дунёнинг тинчлиги, ҳаётнинг гўзаллиги, фарзандларнинг баркамоллиги фақат Сиз туфайлидир, азиз оналар!* Поэтик нутқда сиз олмоши нарса-предметга нисбатан ҳам мажозий кўлланади. *Юлдузлар, юлдузлар, сиз менинг учун/ Софлик ва маъсумлик бўлиб ёндингиз.* (А. Орипов)

Сиз олмошининг сизлар шакли ҳам китобий услубда “хурмат” маъносини ифодалаб келади. *Азиз Ватандошлар! Сизларга мурожаат қиламан. Сизлар ҳақиқий қаҳрамонлик намуналарини кўрсатдингиз. Раҳмат сизларга!* (“Халқ сўзи”) “Хурмат” маъносини ифодалашда сен олмошидан ҳам “сиз” олмошига нисбатан нофаолроқ бўлса-да, (бирок бу олмошдан ўзаро суҳбатда мазкур маънони ифодалаш мақсадида ишлатилмайди) фойдаланишади. Асосан поэтик нутқда сен олмошининг “хурмат” маъносини ифодалаб келганини кўрамыз. *Менинг Ўзбекистон – дилбар Ватаним. / Фақат сен қалбимга чўктирмай малол / Чарчаган руҳимга илҳом солурсан.* (А. Орипов). *Дардимни эшитгил, қодир Аллоҳим / Ишиқ сенсан, ошиқ ҳам сен, мен қулингман.* (Р. Парфи)

Аммо поэзияда кўзда тутилган шахсга ўта хурмат билдирилганда ҳам кўпинча шу шаклга (“сен”) га мурожаат қилинади.<sup>10</sup> *Балки сенинг қабринг узра/ Кўкарганда гул, чечак,/ Остонага қадам кўяр / Сен истаган келинчак.* (А.Орипов)

Сен олмошининг сан диалектал варианты ҳам шу маънони ифодалаш мумкин. *Сан – ўғлимсан – Йўлчига меҳр билан тикилди чол* (Ойбек).

У олмоши сўзлашув нутқида киши сўзи билан биргаликда хурмат муносабатини акс эттиради. *У киши келди. У киши айтди.* Нутқий вазият хурмат даражасининг юқори бўлишини тақозо қилса, ул зот (ҳазрат, жаноб) каби бирикма ишлатилади. *Ул ҳазрат шундай башорат қилганлар.* Хурмат

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: 1 том, 1981. 315 бет.

<sup>10</sup> Кўнғуров Р. Олмош стилистикасига доир айрим мулоҳазалар. (Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар) - Самарқанд. 1981. 6-бет.



даражасининг янада юқори бўлиши талаб қилинса бирикма луғавий восита билан кенгайди. *Ул зоти шариф Бухорода таваллуд топганлар.*<sup>11</sup> Мана сўзи -лар аффиксини олганда, хурмат маъноси англашилади.<sup>12</sup> - *Бригадир акам қанилар? - Маналар, - деди звено бошлиги қорачадан келган бир йигитни кўрсатиб. Кеча келган меҳмонни кўрмоқчи эдим. У кетиб қолдимми? Маналар ўша меҳмон* (“Кўнгил кўчалари”, № 70 (212)) Бу олмошга “хурмат маъноси ифодаловчи морфологик восита”<sup>13</sup> қўшилиб, хурмат маъносини ифодалаш мумкин. *Ҳозир тўрт навкарни юбораман, Насриддин Афандимга қўшинг-да, буларнинг кўнгилларидек ишни ҳал этинг (З.Аълам).* Бу ерда Насриддин Афандига “булар” кўрсатиш олмоши ёрдамида хурмат билан ишора қилиняпти. Хурмат семасининг рўёбга чиқарилишида ўзлик олмошидан ҳам фойдаланилади. Чунки мазкур олмош ҳам аслий маъносида номинативлик вазифасини бажариши билан бир қаторда услубий аҳамият касб этади. Асосан сўзлашув услуби ва бадий услубда қўлланадиган бирлик ва кўплик шаклларидаги ўз сўзи ана шундай хусусиятга эгадир.

**“Камтарлик” семаси.** Мақтанишни ўзидан йироқ тутадиган, манманликка берилмайдиган, мағрурланмайдиган кишиларнинг хислатларини реаллаштиришда от ва сифат туркумларига доир сўзлардан кенг фойдаланиши билан бир қаторда мазкур маънони рўёбга чиқаришда олмошларнинг ҳам “камтарона” ҳиссаси борлигини таъкидлаш лозим. Чунки айнан шундай маъно, асосан, мен ва биз олмошларининг ўзаро ботиний муносабатида воқеланади. Мен олмоши сўзловчи шахснинг ўзини билдиради, сўзловчи шахсни кўрсатади. Нутқ жараёнида айти шу маънони ифодалаш мақсадида биз олмошидан ҳам фойдаланилади. Бундай ҳолларда камтарлик, ҳокисорлик маънолари ҳам англашилади. *Ҳамма артистлар телпак кийган, биз дўппида (М. Дўст). Биз бир далада юрган дехқон бўлсак (Т. Мурод) Чанг кўрсанг чимирилиб чатнайвермагин / Керилиб кошонанг мақтайвермагин. / Бизнинг кулбада ҳам одам яшайди. / Қадринг йўқ қасрга қатнайвермагин. (М. Тоир)*

Мен ўрнида камина, фақир, банда сўзларининг қўлланилиш тарихан камтарлик маъносини ифодалаш билан боғлиқ бўлган. Гарчи бу сўзлар ҳозирги ўзбек тилида фаол қўлланилмас-да, тарихий асарларда қаҳрамон нутқида айнан шу маъноларни ифодалаш учун қўлланилади. *Каминадан тагин не тилайсиз, устод? (О. Ёқубов)*

**“Ғурурлик” семаси.** Ҳар қандай киши ўзининг меҳнатидан, бироқ ишни қойиллатиб бажарганлигидан кимларгадир нафи текканидан ва бошқа ижобий хатти-ҳаракатларидан ўзининг қадр-қимматини эъзозлаш мақсадида “ғурурона” сўзлардан фойдаланиши турган гап. Шундай мақсадда нутқ жараёнида кишилик олмошларининг айрим турларидан ҳам фойдаланадики,

<sup>11</sup> Ҳожиёва Х. Кишилик олмоши ва хурмат маъноси. -“ЎТА” 2000, 4-сон, 37-38 бетлар.

<sup>12</sup> Ўзбек тили стилистикаси. А. Шомақсудов, И. Расулов, Р. Қўнғуров, Ҳ. Рустамов.- Т.: Ўқитувчи, 1983. 115-128 бетлар.

<sup>13</sup> Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Расулов И., Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 1980. 244-бет.

бу уларнинг ўзига хос услубий қийматини белгилаш имконини беради. Мен олмоши ғурурлик, мағрурлик семалари билан ҳам ўзига хос услубий аҳамиятга эгадир. Масалан: А. Мухторнинг “Чинор” романидан олинган парча ушбу фикрларимизга далил бўла олади. – *Хужжатим йўқ, киргизишармикан? – деди Бектемир. – Мен бор-ку! – деб қичқирди Акбарали кулиб, Эшитмади деб ўйлаб, кўкрагига уриб кўрсатди: - Мен, Мен! (А. Мухтор).* Мен олмоши ғурурликни ифодалаш мақсадида, айниқса, назмда кўп ишлатилиб келинмоқда. *Ўзимни мозийнинг бағрига урдим. / Ва шу он шукрона айтдим қайтдим мен. / Кимдир кўрмай кетган бахтни мен кўрдим. / Кимдир айтмай кетган сўзни айтдим мен. (А. Орипов)*

Хуллас, олмошлар нутқда, асосан, сўзлашув ва бадиий нутқда, ҳурмат, камтарлик, ғурурлик каби ижобий маънолари билан намоён бўлади ва шахсларнинг характер хусусиятларини ифодалашга хизмат қилади.

#### **Адабиётлар:**

1. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Расулов И., Ҳожиёв А., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т.: “Ўқитувчи”, 1980.
2. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Т.: “Ўқитувчи”, 1983.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: 1 том, 1981.
4. Қўнғуров Р. Олмош стилистикасига доир айрим мулоҳазалар. (Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар) –Самарқанд: СамДУ нашри, 1981.
5. Ҳожиёва Ҳ. Кишилиқ олмоши ва ҳурмат маъноси. “Ўзбек тили ва адабиёти”. -2000, 4-сон.
6. Ҳамроев М. Ҳозирги ўзбек тилидаги кўрсатиш олмошларининг функционал-семантик хусусиятлари. -Т.: “Фан”. 2009.

## **СЎЗ ЯСАЛИШИГА ХИЗМАТ ҚИЛУВЧИ ҲОДИСА**

**Б.Холмухамедов, СамДУ**

Лексикализация тилда сўз ясашига хизмат қилувчи ҳодиса сифатида мавжуд экан, унинг моҳиятини очишга қаратилган бир қатор саволларга жавоб топиш лозим бўлади. Бу қандай ҳодиса ва тилшуносликда қай даражада ўрганилган, у тил ҳодисасими ёки нутқ ҳодисасими, лексикализациялашиш қандай ҳолатларда юз беради ва унинг сўз ясашига муносабати қандай, бу ҳодисани тилшуносликнинг қайси соҳасида ўрганиш мақсадга мувофиқ ва бу жараёни билиш ўзбек тили тараққиётида қандай аҳамиятга эга, деган масалалар шулар жумласидандир.

**Лексикализация** – тилда бирон бир сўзнинг эквиваленти сифатида амал қиладиган эркин сўз бирикмасининг турғун сўз бирикмасига айланишидир. Мас.: *темир йўл, иш ҳақи* каби. Шундан келиб чиқиб тилшуносликда **лексикализация** *бирикма* атамаси ҳам ишлатилади. Ана шу бирикма **лексема** деб номланадиган бир сўзнинг эквиваленти вазифасини бажаради ([http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo\\_termin/1.htm](http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo_termin/1.htm)).

Бу ҳодиса рӯй беришининг маълум сабаблари бор, албатта. Табиат ва жамиятдаги нарса ва ҳодисаларни бир-биридан фарқлаш, умумий номдан хусусий номлар келтириб чиқариш, унинг бир турини ифодалаш, янги пайдо бўлган тушунчалар, нарса-ҳодисаларни номлаш, номлаганда ҳам баъзан бироз бошқачароқ тарзда, маънони экспрессивроқ қилиб ифодалаш эҳтиёжи ана шу сабаблар бўлиб ҳисобланади. Мана шу сабаблар икки элементнинг ўзаро бирлашишига асос бўлиб хизмат қилади. Бунда нарса-ҳодисалар ўртасидаги ўхшашлик, сўзлардаги маъно кўчиши жуда ҳам кўл келади.

Лексикализациялашишдан маълум муддат вақт ўтиши билан тилда акс жараён ҳам юз беради, яъни нутқ ҳодисаси тил ҳодисасига айланиб, лексикализациялашиш туфайли пайдо бўлган сўз ва иборалар миллий тил доирасида турғунлашади ва меъёрлашади: *тентакқуш, тепакал, тоголча, тоққайчи, туяқуш* каби.

Демак, лексикализация туфайли тил материалининг нутқда янги имкониятлари очилаверади. Дастлаб лингвистик ва экстралингвистик тамойилларга мувофиқ келадиган синтактик тузилмалар, унинг негизида эса янги лексемалар пайдо бўлаверади. Бу эса тилнинг бойишида узлуксиз жараён сифатида эътироф этилади ва лексикализация ҳодисасини фақатгина диахрон йўналишда ўрганиш лозим, деган қарашнинг етарли асосларга эга эмаслигини кўрсатади.

Материалларни таҳлил этиш тилнинг амалда бўлиш жараёнида лексикализациялашишнинг ижтимоий вазифа бажариш кўлами кенг эканлигидан далолат беради. Келтирилган мисолларда унинг қисқалик ва ихчамликка хизмат қилганини кўрган бўлсак, бошқа бир ҳолатда у тил маданияти учун хизмат қилишини кузатамиз.

Бундан яна шундай хулоса келиб чиқадики, нутқ жараёни, нутқ вазияти ва бошқа турли экстралингвистик омилларнинг лексикализация жараёнига бевосита таъсири бўлади. Биз буни турли нутқий вазиятдан келиб чиқиб, сўзловчи ўзи маълумот бермоқчи бўлган фикрни ифодалашда турлича воситалардан фойдаланишида кўрамиз. Айтайлик, нутқий стратегияда хушмуомалалик асосий мақсад бўлсин. Бунда *беринг ўрнида бериб тура олмайсизми, узатиб юбора олмайсизми, фалон нарса ҳозирча сизга керак эмасми, фалон нарсангиздан фойдаланиб турсам майлими, фалон нарсангизни ишлатиб турмоқчи эдим; сўраш маъносида сиздан бир нарсани сўрамоқчи эдим, сиздан бир нарсани сўрасам майлими, сизга бир саволим бор эди, сизга бир савол бермоқчи эдим; мумкинми ўрнида агар мумкин бўлса; қийналмасангиз ўрнида малол келмаса, бемалол бўлса, сизга оғирлик қилмаса* каби бирликларни қўллашга тўғри келади. Мабодо нутқий стратегияда қарғаш, сўкиш ёки яширин тажовуз (имплицитив агрессия) назарда тутилган бўлса, унда *ўлим тилаш* маъносида *жувонмарг бўл, оғзингдан қонинг келсин, калта қайтгин, сочинг тахтада қирқилсин, отинг ўчсин, кўзинг тупроққа тўлсин, гўр тортсин; гапирма* ўрнида *оғзингни очиб кўр-чи, гапириб кўр-чи, келма ўрнида келиб кўр-чи, қадамингни босиб кўр-чи* сингари гапларни қўллаш мумкин бўлади.

Демак, тилда лексикализация жараёнининг пайдо бўлиши тарихий зарурият бўлиб, унинг юз бериши тилнинг амалдаги қонуниятларига тўла мос келади. Бу мос келиш деганда биз фикрни янгича тарзда ифода этиш усулларини ҳамда нутқ жараёнидаги ихчамлик ва қисқаликка интилишни назарда тутамиз.

Адабиётлар:

1. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002, 56-бет.
2. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ.- Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 8-бет.
3. Лексикология и лексикография. Сборник. – М.: Наука, 1972, 23-47 стр.

## **БАДИИЙ УСЛУБ ТУШУНЧАСИ**

**М.Турсунпўлатов, ЖДПИ доценти  
Ф.Қўшназаров. Ёшлар билан ишлаш бўлим бошлиғи.**

Сўзлашув нутқининг оғзакилик тушунчаси ушбу нутқ намуналарининг лингвистик нутқий материал, яъни сақланиб қолишига имкон бермайди. Шу туфайли кундалик турмушда, турли шароит ва ҳолатларда, турли хил мавзуларда, қишиларнинг ўзаро нутқий фаолиятларида, маълум ҳаётий эҳтиёж туфайли амалга ошади ва ўша заҳотиёқ унутилиб юборилади. Шундай сабабларга кўра авлодларимиз ўзаро қандай сўзлашганларини уларда кундалик сўзлашув нутқи, бадий тил қандай бўлганлигини тўлиқ билмаймиз.

Сўзлашув нутқи нормаларини ифода этувчи манбалар турли-туман бўлса-да, улар орасида бадий адабиёт алоҳида ўрин тутатди.

Сўзлашув нутқи билан бадий услуб тили ўртасидаги муносабат уч хил ҳолат нуқтаи назардан муҳимдир:

1) Адабий сўзлашув тилининг бадий услуб тилига муносабати нуқтаи назаридан;

2) Сўзлашув нутқи материалларининг бадий адабиёт тилида қайси даражада этиши нуқтаи назаридан;

3) Бадий адабиёт тилини сўзлашув нутқининг намунаси сифатида ўрганиш мумкинлиги ёки йўқлиги нутқи назаридан.

Бадий услуб лексикаси туркционал услубнинг бошқа турларидан фарқ қилади. Бу фарқ бу услубда китобий сўзларнинг архаик сўзларнинг, тарихий сўзларнинг кўп қўлланишидир. Бадий нутқнинг яна бир хусусиятларидан бири нутқнинг эмоционал эспрессивлигидадир.

Бадий нутқ образли нутқдир. Бунда қаҳрамонлар фикрлашадилар. Шунинг учун ҳам бу нутқда ҳам лингвистик ҳам стилистик факторлар мавжуд.

Ҳар қандай адабиётда, жумладан, ўзбек бадий адабиёти тилида ҳам уч муҳим элемент кўзга ташланади;

1. Бадиий асар тилининг адабий тил намуналарига мос келувчи лексик ва грамматик элементлар. Бу кўпроқ ёзувчи-адибнинг тилида, шунингдек мавжуд.

2. Оғзаки-сўзлашув тили элементлари. Оғзаки сўзлашув тилига хос лексик, морфологик, синтактик, фонетик хусусиятлар образларнинг диалогик, монологик шаклидаги сўзлашув нутқи учун хосдир.

3. Диалектизмлар ва маҳаллий шеванинг бошқа хил хусусиятлари. Ушбу элементлар асар қаҳрамонларининг монологик ва диалогик характердаги нутқи учун ҳор бўлиб, улар образ нутқининг табиатлигини, ўзига хослигини таъминлайди. Масалан:

-невиллой, -деди. – Ҳужрасида китоб ўқиётганликни деб кирсам, у ерда ҳам йўқ;

-отларга беда солгани чиққандир-да бўлмаса;

-невлай. (М.Исмонлий).

Бадиий асар тилда диалектизмлар бадиий асар қаҳрамонларининг қаерга ва қайси даврга мансублигини, воқеа-ҳодиса қайси даврда юз берганлигини кўрсатиб туради.

...Меҳринисо чинни косадаги овқатни хонтахтага қўя туриб сўради:

-эт-бетингиз оғривоттими, ёстиғдан бош кўтармадингиз?

Маҳкам ака нон бурдалаётган хотининига маъноли қаради.

-дилим оғривотти.

-дилим?!

-ҳа.

-дил оғриғи қайдан чиқди...?

Хуллас адабий тил билан бадиий услуб тили бир ҳил тушунчалар бўлмаганидек, оғзаки сўзлашув нутқи билан сўзлашув нутқининг бадиий адабиётдаги ифодаси ҳам ўзар тенг эмас хусусиятга кўра ҳам фарқланади. Масалан:

I-схема. Драмматик асарларда сўзлашув нутқи намуналарининг ўрни ва даражаси: I-драма тили, II-сўзлашув нутқи; III-драма тилида сўзлашув нутқи элементлари.

II-схема. Бадиий прозада сўзлашув нутқи элементларининг ўрни. I-бадиий проза тили; II-сўзлашув нутқи; III-прозада сўзлашув нутқининг ўрни.

III-шеърят тилида сўзлашув нутқи намуналарининг ўрни. I-бадиий проза тили; II-сўзлашув нутқи; III-прозада сўзлашув нутқи элементлари.

Ушбу схемалардан кўринадикки ёзувчилар билан ёзувчилар тили жанрлар билан жанрлар бўлган асарлар ҳам ўзлари фарқланади.

Шундай қилиб сўзлашув нутқи ва сўзлашув нутқининг бадиий адабиётдаги намуналари нормаланган адабий сўзлашув нутқидан оддий сўзлашув нутқи, диалекти сўзлашув нутқи каби кўринишларга эга бўлиши мумкинлиги жиҳатидан ҳам фарқланади.

Илмий манбаларга эътибор берадиган бўлсак, бадиий услуб лексикаси функционал услубларини бошқа турларидан фарқли равишда кўпроқ китобийликка асосланганлиги кўзга ташланади. Булар:

1.Китобий сўзлар: Баркамол (баркамол авлод кўрик танлови), бардошли (биз танлаган спортчиларни бари бардошли, беғубор (беғубор ёшлик), эътиқод биз ёшларни ватанга эътиқодли қилиб тарбиялаймиз), эзгу, мангу, мусаффо, мумтоз собит, саодат, садоқат, шафқитчараға борлиқ, башарти каби.

2. Архаик сўзлар: гардуқ кишвир, тобар тобикой, алалхусуд забун алам, афтода, ялов, алмасоқ, ғаддор, магар ғаним каби.

3. Тарихий сўзлар: амир, рубоб, жиловдор, ясовул, оруға миршаб, жаллод, аққол, баззоз ўқондор, мадраса магит, ботмон дубулға совут, чороқ, танаб (ўлчов бирлиги) тот, тахт, юз каби.

Бадиий нутқ услубини бошқа нутқ услубларидан фарқловчи ҳодисалардан бири эмоционал-экспрессив сўзлардир.

Бадиий нутқ услуби бошқа нутқ услубларидан учун хос бўлган лексик воситаларни қамраб олганлиги билан ҳам фарқланади. Масалан, илмий услубга хос бўлган атамалар бу услубда қўлланилиб, нутқнинг аниқлигини таъминлаш учун хизмат қилади. Масалан, Фозо лингвистлари дарров қабул қилинган сигналарни мантриқа формасида ёзиб олиб, аниқлашига киришдилар.

Бадиий услубнинг кенг қамровлилиги ҳам шундаки, унда кўпгина маъноли сўзлар (датор бўйин, камон қошли), расмий иш услубига хос сўзлар (ариза, билдиришнома, қарор, баённома) бадиий нутқ услубидан ташқари лексик воситалар ҳам бадиий нутқда ўзига хос функцияни бажаради.

Бадиий нутқ услубининг ўзига хос томонларидан янга бири-бу услубнинг образли нутқ эканлигидир. Бадиий нутқнинг образлилиги сўзлардан, грамматик формалардан ўз ва кўчма маъноларида мақсадга мос равишда фойдаланиш, нутқда образли воситаларни, стилистик усулларни ўринли қўллаш натижасида юзага келади.

Солижоннинг ҳеч қолмади икки юзи,

Маош олса доим кетар икки юзи...

Хуллас, бадиий нутқ ифодасига кўра бир-биридан фарқланувчи жанрларни ҳам ўз ичига қамраб олади. ўз ўзидан кўринадики булар проза, поэзия, драматургиядир. Ушбу кўринишлар ҳам сўзлашув нутқи услуби билан бадиий нутқ услубларининг фарқли томонлари мавжудлиги.

## **ТЕРМИНОЛОГИЯСИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ**

**Д.Ҳайдаров, Ф.Камолова, СамДУ**

XX асрнинг 90- йилларида тилимизда термин яратишга бўлган қизиқишнинг кучайишининг гувоҳи бўламиз. Бунда кўпгина эскирган сўзлардан фойдаланиш тенденцияси кўзга ташланади. Бироқ жамият тараққиёти, республикамизнинг халқаро миқёсдаги мавқеининг ошиб бориши, сиёсий-иқтисодий, савдо-сотиқ, маданий ва спорт алоқаларнинг кучайиши байналминал терминларнинг ўзбек тилига кўплаб кириб келишига туртки бўлди. Бунда Европа тиллари, жумладан, инглиз тили лексикасига

мансуб терминларнинг ўрни кучайиб борди. Бугунги кунда тилимиздан аллақачон ўрин олган инглизча *клуб, митинг, лидер, матч, рефери, баскетбол, спорт, финиш, ҳоккей, чемпион* каби сўзлар қаторига янги-янги спортга оид сўз ва терминлар кириб келмоқдаки, уларнинг кўпчилиги аллақачон кундалик ҳаётимизнинг бир қисми бўлиб қолган.

Ҳ.Жамолхонов ҳам ишлатилиш доираси чегараланган лексемаларга диалектга, касб-хунар лексикасига ва жаргон-арголарга хос сўзларни киритган ҳолда “арготизм” ва “жаргонизм” терминларини қўллайди ва уларга қуйидагича таъриф беради: ”Арготизм ва жаргонизмлар – бирор арго ёки жаргонга хос лексемалар. Арго ва жаргонлар бирор ижтимоий гуруҳ ёки тоифаларнинг, масалан, спортчилар, ўғрилар, олибсотарлар, порахўрлар ва бошқаларнинг “ясама тили” дир. (Жамолхонов 2005: 202)

Ўзбек тили истиқлол даврига қадар рус тили орқали кириб келар эди, ҳозир тўғридан тўғри инглиз тилида сўзлар ўзлашмоқда. Чунончи, *яхта, траулер, мичман, танкер, катер* каби денгизчиликка оид сўзлар; спорт терминологиясига доир *футбол, волейбол, баскетбол, хоккей, теннис, ринг. аут, боксёр, допинг, матч, рефери, старт, финиш, чемпион, рекорд, нокаут, раун, тайм, спорт, спортсмен* каби сўзлар кенг қўлланилди.

Аммо уларнинг айримларини қўлланишида ҳар хилликлар, нотўғри изоҳлашлар кузатилмоқда. Ана шу камчиликларни бартараф этишда спорт соҳасига оид луғатлар, қўлланмаларда спорт терминологиясининг изоҳи, маъно жиловлари берилиши лозим. Шу нуқтаи назардан, спорт терминларнинг маъно силжишини “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”га таянган ҳолда айримларига тўхталиб ўтамиз:

**Рекорд** – (ингл. record – мисли қўрилмаган муваффақият < фр. Record – эслаш, хотирага келтириш). Иш фаолиятининг бирор соҳасида, спорт мусобақаларида эришилган энг катта муваффақият, энг яхши натижа, энг юқори кўрсаткич.

**Нокаут** – (ингл. knock-out < knock - урмоқ; зарба+ out - четда, ташқарида; четлатиш). Боксчининг каттиқ зарбдан гандираклаб, йиқилиб, баъзан хушини йўқотиб, ўн секунд давомида ўрнидан туролмайдиган ва ютқизиқ деб ҳисобланадиган ҳолати.

**Раун** – (ингл. тугарак, давра, доира). 1. Боксда бир кур жангнинг ўзи учун ажратилган ва уч дақиқа давом этадиган муддат. 2. Халқаро муносабатларда музокаралар жараёнидаги алоҳида, мустақил босқич.

**Тайм**- (ингл. time - вақт). Спорт ўйинида, мас., футболда ўйин учун ажратилган вақтнинг 45 минутлик икки қисмидан ҳар бири.

Айрим спорт терминларида сўз охирида–*инг* морфемасининг учраши ҳам инглизча лексика учун характерлидир: *митинг, демпинг, пудинг, браунинг, смокинг, допинг* каби. (Фроне Г. Об английских заимствованиях в русском языке. – «Русский язык в школе», 1968, № 3.)

Сўз охирида учрайдиган –*ман* ва –*мен* морфемалари немис, голланд, инглиз тилларига хос умумий хусусиятдир: *мичман, лоцман, спортсмен* каби.

Ҳозирги давр глобаллашув жараёнида ўзбек тили спорт терминологиясининг муайян тараққиёти ва такомиллашувига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Спорт терминологиясидаги ўзгаришлар, табиийки, узлуксиз таълим тизимида қўлланиладиган дарслик ва қўлланмаларда ҳам ўз аксини топмоқда.

Хуллас, терминларнинг бир қисми тегишли русча-байналмилал муқобилларининг ўзбек тилидаги калькаси сифатида юзага келган. Ўзбек спортга оид терминология мустақилликдан сўнг янги босқичга кўтарилди ва ҳар лаҳзада янги-янги терминлар юзага келмоқда. Бу ўз навбатида тилимизга бошқа тиллардан, биринчи навбатда, инглиз тилидан янги-янги сўзларнинг кириб келишига сабаб бўлди. Айниқса, терминологик сатҳда бу ҳолат кўзга яққол ташланади. Мазкур ҳолат ўзбек тилига янгидан кириб келаётган тил бирликларининг фонетик, лексик семантик ва грамматик хусусиятларини ўрганиш, уларни тадқиқ қилиш масалаларини ҳам лингвистлар зиммасига юкламоқдаки, бу уларнинг лексик сатҳдаги мавқени, тилдаги ўрни, вазифалари кабиларни белгилаб бериш кераклигини кўрсатмоқда.

## **GLOBALLASHUV DAVRIDA FONEMA**

**Dots. A.N.Usmonov**

Biz ajoyib- g'aroyib tovushlar olamida yashaymiz. Xo'sh tovush o'zi nima! Fizika fanidan ma'lumki, tovush g'azsimon, suyuq, yoki qattiq muqiy zarralarning to'liqsimon aylanma harakatidir. Tovush to'liqini deganda atom yoki molekulalarning tebranishi tushiniladi. Muzikadagi tovush esa muzikaning ifoda kuchiga ega bo'lgan eng kichik tarkibiy elementidir. Ular muayyan balandlikka, uzun-qisqalikka, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Til vositasida fikr almashish uchun nutq organlari yordamida hosil qilinadigan tovushlar tilshunoslikda fonema deb yuritiladi. Fonema yunoncha so'z bo'lib, fone -tovush degani. Demak, fonema biz eshitadigan har qanday tovush emas, balki kishilar talaffuz qiladigan nutq tovushlaridir. Biroq nutq tovushlarining barchasi ham mustaqil fonema bo'lavermaydi.

Xosh, fonemalarning aniq bir ta'rifi bormi? Ko'pchilik tomonidan tan olingan va keng tarqalgan qoidaga ko'ra, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushlari fonemadir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan "Ravshan" dostonidagi quyidagi misralar xarakterlidir:

Qolingdan kelganda chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilikni qil bolam, yomonlikni ot,  
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,  
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

Bu parchada ot so'zi uch xil ma'noni anglatayapti: 1) nom, shuhrat; 2) tashlamoq, uloqtirmoq; 3) ish-ulov hayvoni-ot. Bundan qariyb 1500 yil muqaddam toshlarga bitilgan qadimiy tarixiy yozma yodgorliklarga ham ot so'zi xuddi shu ma'nolarda qo'llangan. Umuman fe'l va ot so'z turkumlariga taalluqli ot so'zi o'zbek tilida 30 dan ortiq ma'nolarga ega. Ko'rinib turibdiki, ot so'zidagi O va T



fonemlari aslida hech qanday ma'no farqlayotgani yo'q, balki ma'lum tartibdagi tovush qobig'iga o'ralib, o'z qo'shnilari bo'lgan boshqa so'zlar yordamida xilma-xil ma'nolarni bildirayapti.

So'zlarning tashqi va ichki tomonlari ham bor. Tashqi tomoni- bu uning tovush qobig'idir, o'ziga xos qiyofasidir. Yozuvda esa o'sha tovushni ifodalash uchun qabul qilingan, alifbo sirasiga kiritilgan belgi-harfdir. So'zning ichki tomoni esa uning ma'nosi, mazmunidir. Agar so'zning tashqi tomoni- qiyofasi bo'lmasa, uni eshitib bo'lmaydi, yozuvda esa harflar betartib keladi. So'zning ichki tomoni bo'lmasa, umuman uni tushunish mumkin emas. Darhaqiqat, faylasuf shoir Nosir Xisrav atyanidek:

So'z ichra mudom aql yashirindir,

So'z chimildig'u aql kelindir.

Afsuski, Nosir Xisravning bundan o'n asr aytgan fikri ayrim tilshunoslarning keyingi yillaridagi tadqiqotlaridagina o'z ifodasini topdi va ular "So'zning tovush qobig'ini farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar fonemadir"- degan xulosaga keldilar.

Xo'sh, yer yuzidagi xalqlar nutqida nechta fonema bor? Bu savolga aniq va tog'ri javob berish qiyin. Ko'pchilik tilshunoslar olamda 3500 dan ortiq (ayrimlar hatto 6000 ga yaqin) til bor deb hisoblashadi. Afrikadagi Kongo davlatining o'zida -500, Indoneziyada-250, Sudanda-117, Dog'istonda- 30 ga yaqin mahalliy til mavjud.

Dunyodagi tillarning barchasida unli va undosh harflar bor, lekin ularning miqdori bir xil emas. Xorijiy tilshunoslardan biri dunyodagi ko'pchilik tillarni tadqiq etib, eng dastlabki, ibtidoiy odamlar tilida bittagina unli va o'n bir(p, t, ch, k, kv, x, m, n, ng, v, y) undosh tovush bo'lgan, degan fikrni aytgan. Darhaqiqat, ayni zamonda faqat bittagina unli tovushga ega abaza (Shimoliy Kavkaz), aranta, vishram (Hindiston) singari tillar bor. Jahon tillarida atigi bittagina unli tuzilgan so'zlar ham mavjud. Masalan, Norvegiyada-A, Fransiyada -I degan qishloq bor; Fransiyada- O(O') degan familya uchraydi. Rossiyadagi kichik bir daryo- ы deb ataladi.

Polineziya tillarida gavay tiliga 5 unli, 7 undosh; tayti tilida esa 4 ta unli, 8 ta undosh( jami 12 ta fonema) mavjud. Ubix (Turkiya) tilida uch unli, 78 undosh; kxmer (Kamnuchiya) tilida esa o'ttizta unli tovush bor, o'zbek shevalarining aksariyatida 9 unli, iqon kabi o'g'uz shevalarida esa 17 unli fonema uchraydi.

Ma'lumki, qo'shiq so'zlardan, so'zlar fonemalardan, musiqa sistemasining tovushlari yoki asosiy pog'onalari esa do, re, mi, fa, sol, lya, si unqatorlarining jozibador yig'indisidan iborat.

Shunisi qiziqki, ba'zan yosh bolalar, iqtidorli shoir va kompozitorlar tovushlar sehriga mahliyo bo'lib, o'sha so'zlar mazmunidan, jarangdorligidan boshqa kishilar e'tibor bermaydigan ma'nolarni, shu so'zlardagi tovushlarga xos o'zgacha xususiyatlarni izlaydilar. So'zlar, so'zlardagi tovushlar jozibasini ularning tasavvurida xilma-xil belgilarga boydek, so'zlardagi unli tovushlar yohud ba'zi iboralar turli xil ranglarda tovlanib turgandek tuyularkan. Hatto ba'zi iste'dodli kishilar tasavvurida ayrim kompozitorlarning ijodi yoki ularning musiqa asarlari

ma'lum bir rangda jilvalangandek bo'larkan. Darhaqiqat, polk kompozitori Friderik Shopenning muzikasi yashil, polk kompozitori Wolfgang Motsart muzikasi esa ko'kimtir, mashhur italiyan kompozitori Juzeppe Verdining "Aida" operasi ko'k ranglarda tasavvur etilar ekan. To'g'ri tabiatda tovush va rang o'zaro bir- biri bilan o'zaro aloqador emas. Biroq tovushlar ham, ranglar ham hamisha biz bilan birga. Qayerga bormaylik, o'sha yerda tovush ham, ranglar ham mavjud. Xilma-xil tovushlar, xususan ajoyib klassik muzika asarlari inson kayfiyatini o'zgartirishi, bardamlik, quvnoqlik baxsh etishi, xayratga solishi, kuldirishi yoki aksincha, qayg'u, g'am –g'ussaga botirishi, nafrat uyg'otishi, yig'latishi mumkin. Bunday xususiyat ranglarga ham taalluqli: qizil, sariq, pushtirang, to'qsariq ranglar harorat va quyoshni eslatgani uchun iliq rang deb; yashil, ko'k, cjigarrang, ko'kish, kulranglar suv va sovuqni eslatgani uchun sovuq ranglar deb yuritiladi. Sovuq ranglar , odatda, kishilarda xotirjamlik hissini, issiq ranglar esa ko'tarinki ruh, xushchaqchaqlik kayfiyatni uyg'otadi.

#### **Adabiyotlar:**

- 1.Ferdinand de Sossyor. Umumiy tilshunoslik kursi. -Toshkent, 2019 yil.
- 2.Devoni lug'otit turk. –Toshkent: "Fan" nashriyoti 1967-yil.
3. O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1981-yil.
4. V.V.Reshetov, SH.Shoabdurahmonov. O'zbek dialektologiyasi. –Toshket, 1978 yil.
5. O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya. –Toshkent, 1975 yil.

### **СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗГОВОРНОЙ РЕЧИ ПЕРЕВОДА РОМАНА НИККОЛО АММАНИТИ «Я НЕ БОЮСЬ»**

#### **Садикова Бахора. СамДЧТИ**

Стилистическая окраска романа итальянского писателя Н.Амманити очень высокая здесь можно увидеть очень большое количество тропов и стилистических оборотов. Так как этот роман рассказывается от языка 11 летнего мальчика встречаются большое количество метафор и олицетворения.

Давайте на примерах рассмотрим их: *Mi sono girato e l'ho vista sparire inghiottita dal grano* (Io non ho paura,5). ...как её проглотила пшеница. Мен бурилиб қарадим ва уни қирни қоплаган бугдой ютиб юборганлигини кўрдим. Здесь можно увидеть олицетворение так как, слово *inghiottire* используется для людей и животных. *Vedevo le loro scie nel grano* (Io non ho paura,5). Я видел их следы в пшенице- Мен уларнинг бугдой орасидаги изларини кўрдим. В этом предложении слово *scie* идёт как метафора. Потому что, это слово обозначает след от лыжи...*si susseguivano come onde di un oceano dorato*. (Io non ho paura,6) - ...переливалась она золоченными океанскими волнами. – Худди олтин рангдаги океан тўлқинларидек товланарди. Это предложение относится к сравнению. В итальянском языке существует 3 вида сравнений это метафоры, сравнение и аналогия. Сравнение определяется словом *come*. Здесь пшеница сравнивается с волнами океана.

*Quella maledetta estate del 1978...* (Io non ho paura,6). *Проклятое лето 1978 года.-1978 йилнинг ер ютгир ёзи.* Это предложение показывает явную неновость, негативное эмоциональное отношение говорящего. *E si arrampicava su per quella collina come una dannata ruspa* (Io non ho paura,7). – *Она перла в гору на четверенках, словно свирепая свинья.* - *У худди кутурган тўнгиздек, тўрт оёқлаб олганча кўтарилаётган эди.* Это предложение также относится к сравнению. *Non potevo dargliela vinta così`.* (Io non ho paura,8) - *Я не мог дать ей победить меня таким образом.* – *Мен унга мени бу йўсинда ютишиг қўйиб беролмас эдим.* *Quando mi ha visto, ha storto la bocca e gonfiata come un tacchino* (Io non ho paura,8). – *Увидев меня, она сжала губы и надулась, как индюк.* *Мени кўргани заҳоти лабларини чўччайтириб куркадай лунжини ишириб олди.* В этом предложении сестра главного персонажа, вернее её гримаса сравнивается с индюком. *Te l'avevo detto di non venire, tappaggia te.* (Io non ho paura,8) – *Я же просил тебя не ходить, чёрт тебя побери.* *Жин урсин сени, сенга келма дегандимку.* В этом предложении *tappaggia te* это вульгаризм но оно не имеет большую негативную окраску. Можно сказать что иногда и в этом контексте оно является словом связкой. *Lo vedevo male il ritorno a casa* (Io non ho paura,10) – *Ничего хорошего от возвращения домой я не ждал.* – *Уйга қайтишдан яхшилик кутмаётгандим.* Здесь в предложении использован эпитет, двухкратное повторение одного и того же слова в двух частей речи. *Ve lo giuro sul cuore della Madonna* (Io non ho paura,11) *Клянусь вам сердцем Мадонны.* – *Мадоннинг юраги хаққи васам ичаман.* В этом предложении использована лакуна или же можно сказать реалия которую трудно перевести на другой язык он не имеет эквивалентна. Если в узбекском языке передать это предложение как худо то но потеряет свою окраску которое она должна нести. *Se se tu finisci la dentro, cicciona come sei, ti spolpano fino alle ossa* (Io non ho paura,11) - *И если тебя бросить к ним, такую толстуху, они и тебя обглодают до косточек.* – *Агар сен ҳам уни ичига кириб қолсанг, сендай бақалоқ, сеням суюгингача гажиб таишлашди.* В это предложение одновременно используются две фигуры речи это эпитет и гипербола. *Ci mettiamo un sacco-ha brontolato Salvatore* (Io non ho paura,11) *Долго ехать-буркнул Салваторе.* – *Боришига бир дунё вақтимиз кетади –мингиллади Салваторе.* Вкражение *un sacco* в итальянском языке используется для выражения большого количества чего либо. А слово *brontolato* имеет негативный оттенок в сравнении со словом говорить. *Melichetti sembrava una mummia* (Io non ho paura,13) – *Меликетти казался мумией.* – *Меликетти мумияга ўхшарди.* 3 тип сравнения, то есть аналогия в итальянском языке определяется со словом *sembrare* или *parere*. Тут у нас встречается именно аналогия. В переводе также эти риторические фигуры сохранены. *Sembrava un panettone* (Io non ho paura,16).- *Был похож на панеттоне* – *У катта панеттонегга ўхшарди.* *Un brivido mi si e` arrampicato sulla schiena* (Io non ho paura, 20) - *Людская дрожь пошла у меня по спине.* *Елкамдан совуқ тер қрмалади.* Здесь мы встречаем метафору. Метафора это краткое сравнение. *E tapetti d'edera verde* (Io non ho paura, 21). И ковёр

зелёной травы. Майсадан тўшалган гилам. В этом предложении также метафора. *In quei giorni era Barbara Mura, la ciccione, era lei l'agnello che toglie i peccati* (Io non ho paura,23). –Среди нас это была Барбара Мура, толстуха, жертвенный агнец. Шу кунларда қўрбонликка аталган қўзичоқ бу бақалоқ Барбара Мура эди. Здесь можно увидеть вульгаризм. *Un brivido mi ha morso la nuda* (Io non ho paura,33) – Ужас обжог мне спину.-Қўрқувдан баданим қизиб кетди. В этом предложении можно увидеть олицетворение, но также и метафору.

Повтором или репризой, называется фигура речи, которая состоит в повторении звуков, слов, морфем, синонимов или синтаксических конструкций в условиях достаточной тесноты ряда, то есть достаточно близко друг от друга, чтобы их можно *Tu scherza, scherza* (Io non ho paura, 39). Повторы передают значительную дополнительную информацию эмоциональности, экспрессивности и стилизации и, кроме того, часто служат важным средством связи между предложениями.

Среди вопросов частной теории перевода особое место занимают особенности передачи при переводе функций синтаксических конструкций. Поскольку выбор варианта перевода напрямую зависит от функциональных особенностей, то, чтобы решить переводческую задачу, надо сперва решить задачу промежуточную – описать функции этой конструкции, что в свою очередь позволит существенно продвинуться в рассмотрении способов достижения переводческой эквивалентности. Синтаксис, то есть организация коммуникативных единиц, в значительной мере служит передаче языкового опыта другим членам общества. Именно поэтому при переводе с одного языка на другой мы исходим из эквивалентности смысла коммуникативных единиц, для которого подбираем морфологические средства, способствующие организации этих единиц в данных языках.

## О СИНОНИМИЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ГНЕЗДАХ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Д.Ходжиметова, доцент ДжГПИ

Фразеология русского и узбекского языков включает самые разнообразные речевые средства как и по грамматической структуре, так и по семантике. Наиболее полное освещение вопроса о фразеологических оборотах с подробным изложением основных понятий русской фразеологии даны в трудах В.В. Виноградова и исследователя вопросов узбекской фразеологии Ш.Рахматуллаева 1.

Данные фразеологические обороты вступают в самые широкие и разнообразные омонимические, антонимические и синонимические отношения. Рассмотрим более подробно синонимические отношения между однозначными и многозначными фразеологическими оборотами русского и узбекского языков.

В рассмотренных нами фразеологических оборотах большинство однозначных фразеологизмов находятся в синонимических отношениях обычно с одним из значений многозначного фразеологизма. Например, являются синонимичными однозначные фразеологические обороты «дохнуть негде». «плюнуть негде» и многозначные обороты «иголку негде воткнуть», «шагу негде ступить», «яблоку негде упасть», «пушкой не прошибешь» только в первом значении – «очень много, в огромном количестве». а фразеологизмы «иголку негде воткнуть», «шагу негде ступить», «яблоку негде упасть» во вторых значениях образует другой синонимический ряд со значением «очень тесно»

Двузначный фразеологизм «до последнего дыхания» в своем первом значении вступает в синонимический ряд с однозначными фразеологизмами «по гроб жизни», «до гробовой доски», «до могилы», «до конца дней

Такие отношения среди фразеологизмов узбекского языка, хотя редки, но имеются. Например, многозначный фразеологизм «зур бериб» в своем втором значении образует синонимический ряд из следующих однозначных фразеологизмов: «жонини жабборга бериб», «жонининг борича», «кули кулига тегмай». И, наконец, количество фразеологизмов, входящих в синонимические гнезда, в русском и узбекском языках является разным. Наши наблюдения над фразеологическими синонимами в рамках приведенных тематических групп показали, что фразеологические гнезда могут состоять:

1) из двух синонимичных фразеологизмов: брать себя в руки = овладеть собой, голова идет кругом = голова кружится, минута в минуту = секунда в секунду, со временем = с годами, вешать голову = вешать нос, как снег на голову = откуда ни возьмись и т.п. Бир овоздан = бир огиздан, димоги шишди = бурни кутарилди, ич-этини емок = уз ёгига узи ковурилмок, эси огди = хуши кетди, икки огиз = икки чимгил и т.п.

2) из трех синонимичных фразеологизмов: бок о бок = плечом к плечу = рука об руку; от всего сердца = от чистого сердца = от всей души ; в поте лица = засучив рукава = не покладая рук; во веки веков = испокон веков = веки вечные ; аклдан озмок = эсидан огмок = эси огди; баланд келмок = устун келмок = голиб келмок; кунгли гаш = ичи гаш = кунгли хира; ипидан игнасигача = миридан сиригача = килидан куйругигача; эси чикиб кетди = жон-пони чикиб кетди = жони халкумига келди; узига келмок = хушига келмок = хуши узига келди; «хаш-паш» дегунча = куз очиб юмгунча = «ха-ху» дегунча.

3) из четырех синонимичных фразеологизмов: сходить с ума = терять рассудок = мешаться в уме = лишиться ума ( 2 – значение); до корней волос = до кончиков пальцев = до мозга костей ( 1-зн.) = до конца ногтей; под боком = в двух шагах = под рукой ( 1-зн.) = под самым носом; хушидан кетмок = узидан кетмок = хушини йукотмок = кунгли озди ( 1-зн.); узини каерга куйишни билмаслик ( 1-зн.) = узини куйгани жой тополмаслик = утиргани жой тополмаслик = узини каёкка уришни билмаслик.

4) из пяти синонимичных фразеологизмов: кот наплакал = по пальцам можно сосчитать = капля в море = раз-два и обчелся = раз-другой и обчелся. В

узбекском языке имеются синонимические гнезда, которые состоят из пяти фразеологизмов, но в таких случаях один (или несколько) фразеологизмов относятся к разным стилям речи, вследствие чего количество фразеологизмов в синонимическом ряде может сокращаться. Например, боши кукка етди = огзи кулогигача етди = огзининг таноби кочди = терисига сигмай кетмок = куйи мингга етди. Из данных фразеологизмов третий оборот употребляется в художественной речи.

5) из шести синонимичных фразеологизмов: в узбекском языке синонимичных фразеологизмов, состоящих из шести и более оборотов, отсутствует, а в русском языке таких фразеологизмов встречается довольно часто, особенно среди наречных фразеологизмов, выражающих быстроту, скорость, стремительность движения: в два счета = в одну секунду = в один присест = одним махом = в мгновение ока = с одного маху; Сопоставительный анализ фразеологической синонимии обоих языков дает повод говорить о межъязыковой синонимии фразеологических оборотов, изучение которых имеет большое практическое значение для тех, кто интересуется вопросами лексики и фразеологии русского и родного языков.

а) В.В.Виноградов. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. В сб.: «Труды юбилейной научной сессии ЛГУ», Л., 1946.

б) Ш.Рахматуллаев. Некоторые вопросы узбекской фразеологии. АДД, Т., 1966 .

в) «Фразеологический словарь русского языка» под ред. А.И.Молоткова, изд. третье.

г) Ш.Рахматуллаев. «Толковый фразеологический словарь узбекского языка». Т., Укитувчи, 1978.

## ҚЎШМА СЎЗЛАР КИЧИК СИНТАКСИС ОБЪЕКТИ СИФАТИДА

А.Туробов, Сам ДЧТИ.

Қўшма сўзлар ҳам сўз ясалишининг алоҳида бир кўринишини тақозо этади. Анънанага кўра мазкур сўз ясалиш усули композиция ёхуд синтактик усул деб аталиб келинмоқда. Айни пайтда шуни ҳам айтиш керакки, қўшма сўзлар семантик жиҳатдан сўз бирикмаларига яқин туради. Шу боис кўп пайтларда муайян бир қўшма сўзни олганимизда иккиланиб қоламиз. Бу ҳақда тилшунослик адабиётларида ҳам айтилиб келинмоқда А.И.Смирницкийнинг қуйидаги сўзларига эътибор қаратайлик: «Қўшма сўзларни сўз бирикмаларидан фарқлаш масаласи аксарият ҳолларда кийинчилик туғдиради. ... Масалан, *blackboard* сўзида (унинг ички структурасида – А.Т.) “қора” ва “тахта” (доска) сўзларининг мазмуний ифодалари йўқотилмаган. Бироқ у қўшма сўз бўлгани учун айни пайтда “*синф доскаси*” мазмуний ифодасини бермоқда ва алоҳида семантик яхлитликни ташкил қилмоқда. *Blackboard* қора рангли тахта ифодасини бераётгани йўқ. Уни “*синф доскаси*” деб тушунамиз. *Синф доскаси* қора

эмас, балки кўк, малла ва ҳ.к рангда бўлганда ҳам мазкур сўз айнан шу маънода, яъни синф доски маъносида қўлланаверади. Бироқ айна пайтда *black board* тарзидаги сўз бирикмасини шакллантириш ҳам мумкин эди. Аммо бундай вазиятда *blackboard* қўшма сўзининг мазмуний салмоғига путур етказилган бўларди (1.114).

Берилган қўшма сўз нафақат компонентларнинг қўшилиб ёзилишига кўра балки ўзига хос грамматик яхлитлик ташкил этишига кўра ҳам “*black board*” сўз бирикмасидан фарқланади. Берилган қўшма сўз ўзининг икки жиҳатига кўра алоҳида аҳамият касб этмоқда. Биринчи жиҳатини у ифодалаётган идиоматик маънода, иккинчи жиҳатини эса алоҳида бир бутунлик ташкил этаётганлигида кўрамиз (2.114).

Шуни ҳам айтиш керакки, қўшма сўзлар ҳар доим ҳам идиоматик маъно ифодаламайди. Масалан, *blue – eyes* (кўк кўз) қўшма сўзида идиоматик маъно кузатилмайди. Айна пайтда қўшма сўз таркибий қисмлари *blue* (кўк), *eyes* (кўз) сўзлари ўз маъноларида келмоқда. Улар идиоматик маъно ифодалаётгани йўқ.

Тилларда, албатта, қўшма сўзлар шаклланиши бир хил эмас. Масалан, ҳозирги инглиз тилида қўшма сўз компонентлари бирор морфологик воситанинг ёрдамисиз тўғридан-тўғри бирикиши ҳам, муайян восита ёрдамида бирикиши ҳам мумкин: *angl-o-saxon* (англосаксон), *state-s-man* (давлат арбоби), *trade-s-people* (савдогарлар) (1.118).

Е.С.Кубрякованинг таъкидлашига кўра, мустақил маъноли икки ва ундан ортик сўзларнинг бирикувидан янги маъноли сўз ҳосил бўлади. Айна пайтда бундай қўшма сўзлар компонентлари ўртасида кўпроқ атрибутив муносабат шаклланади. Бундан ташқари, қўшма феълларда яна бошқача маънодаги муносабатлар ҳам вужудга келади. Бу ўринда Е.С.Кубрякова қўшма сўзларда баъзи ҳолларда бутун бир гапнинг мазмуний ифодасини кўриш ҳам мумкинлигини қайд этади. Масала тавсифига шу нуқтаи назардан ёндашилганда қўшма сўзлар семантик компрессия маҳсули эканлиги маълум бўлади. Зотан, қўшма сўз мазмуний эътиборига кўра универбацион жараён билан узвий боғлиқдир (2.282).

Е.С.Кубрякова суффикс воситасида шаклланган ясама сўзда суффикс базис (асосий) мавқега эга бўлишини, префикс воситасида шаклланган ясама сўзларда эса ясалиш асоси базис мақомида келишини эслатиб ўтади. Қўшма сўзларда эса базис мақомида уларнинг иккинчи компоненти (ёхуд охирги компоненти) эканлигини ҳам олима тўғри қайд этади (2.287).

Шуни ҳам айтиш керакки, қўшма сўзларда уларнинг иккинчи компоненти базис мақомида эканлигини тўғри тушунмоғимиз керак. Айна пайтда қўшма сўз компонентларининг ҳар бири ўзича мустақил деган маъно келиб чиқмайди. Чунки қўшма сўз бир бутун ҳолда идрок этилади. Бу хусусида А. Н. Гвоздевнинг қуйидаги фикри ибратлидир: “Сложное слова – это единое слова, а не сочетание слов, что получает и фонетическое выражение в наличии одного ударения” (3.218).

Қўшма сўз компонентлари ўртасидаги синтактик муносабат ҳам, семантик муносабат ҳам кичик синтаксис масалалари тавсифи нуктаи назаридан шартли равишда ўрганилади. Айнан шу мақсадда қўшма сўзлар сўз бирикмаларининг, баъзан эса гапнинг семантик компрессияси хусусида ҳам мулоҳаза юрита оламиз.

Қўшма сўз компонентларининг синтактик муносабати гарчи, у аксарият ҳолларда сўз бирикмасининг семантик компрессияси бўлса ҳам, сўз бирикмалари компонентларининг синтактик муносабатидан фарқ қилади. Фикр далили учун А.Н.Гвоздев берган қуйидаги мисолларга мурожаат этамиз: *рыболовства–рыболов, сталеварение–сталевар*. Бу ўринда берилган қўшма отларда объект ва ҳаракат муносабатлари ўз аксини топганини кўрамиз (3.218). Бироқ шуни ҳам айтиш керакки, объект билан ҳаракат ўз-ўзича муносабатга кириша олмайди. Бунда яширин ҳолда келаётган субъект ҳам қатнашади ва натижада объект–ҳаракат–ижрочи тўғрисида синтактик боғланиш тасаввур этилади.

1989 йилда В. А. Белошапкина таҳрири остида чоп этилган “ Ҳозирги рус тили” дарслигида қўшма сўзларнинг аффиксиз шаклланивчи ҳодиса сифатидаги тавсифи берилди. Мазкур ишда аффиксиз шаклланивчи ясама сўзлар тўртга бўлиб ўрганилади:

1. Сўзларнинг соф қўшилиши. 2. Чатишма. 3. Аббревиация. 4. Қисқартма (усечения) (3.219).

Мазкур аффиксиз шаклланивчи ясама воситалардан биз, асосан, соф қўшилиш ва чатишмага эътибор қаратамиз, зотан , улар қўшма сўзларни тақозо этади.

Бу ўринда шу нарса ҳарактерлики, айни пайтда кичик синтаксисда ўрганилиши лозим бўлган аниқловчи-аниқланиш, тўлдирувчи – кесим, ҳол – кесим, кесим – ундалма тарзида синтактик муносабатларга жиддий аҳамият берилган. Бу жуда муҳимдир, зотан, сўз сатҳида бу сингари синтактик муносабатлар, ҳатто эга билан кесим ўртасидаги муносабат мавжудлиги бугунги кунда сўз синтаксисининг илмий асосланиши учун имконият яратмоқда.

#### **Адабиётлар:**

1. Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. – М. 1956. – С. 117.
2. Кубрякова Е. С. Теория номинации и слово образования // Языковая номинация – М., 1977. – С. 283.
3. Гвоздев А. Н. Современный русский литературный язык. – М. 1973.-С. 218.

### **БАДИЙ АСАРЛАРДА ТУБ СЎЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ**

**.А.Мусаев, ЖДПИ доценти Д.Ражабова ЖДПИ магистрант**

Ўзбек тили генетик жиҳатдан туркий тиллар оиласига киради ва бу тил учун туркий тилларнинг негиз лексикаси қадимий асос ҳисобланади. Шу



сабабли ҳам ўзбек тили лексикасининг қадимий ўз негизини аслида туркий тилларнинг ўзиники бўлган туб туркий сўзлар ташкил қилади.

Тил тараққиёти жараёнида адабий тил нормаси ҳам ўзгаради. Масалан, Навоий давридан бери ўзбек тили, унинг луғат состави ва грамматика қурилишида катта ўзгаришлар юз берди. Бу ўзгаришлар, албатта, адабий нормасига таъсир этмасдан қолмайди. Тарихий тараққиёт жараёнида юз берган ўзгаришлар тилда ўз аксини топади<sup>1</sup>.

Туб сўз – бу тилнинг ўзиники бўлган сўзлардир. Шу сабабли ҳам туб туркий сўзлар туркумига кирувчи лексемалар генетик манбаига кўра ўша тилнинг ўзиникидир. Туб сўзлар, одатда, жуда қадимий бўлади.

“Навоий” романида қўлланилган туб туркий сўзларни қуйидаги тематик гуруҳларга бўлинади.

1. Асарда учрайдиган қариндошлик, яқинлик тушунчаларини ифода қиладиган сўзлар қуйидагилар: ота, ўғил, бола, она, қиз, обоға (қариндош), тоғойи (тоға), ини, оғо каби сўзлар. Масалан, “Бола отаға, ота болага, тоға жиянга қарши исён кўтариши бу мамлакатда бир одат бўлиб қолган” (10-бет).

2. Инсон тушунчаси билан алоқадор баъзи тасаввурлар номи ҳам асарда учрайди: киши, ўртоқ, ўғил каби сўзлар. Масалан, “Бу йигит Шаҳрисабздаги машҳур сангтарош устанинг ўғли эди” (8-бет).

3. Асарда одам ва ҳайвон организми, унинг мучаларини билдирувчи сўзлар ҳам келтирилган: кўз, тизза, бош, соқол, юз, қош, тил, қорин, бурун, қўл, эгин, қулоқ, юрак, қон, бел, оёқ, кўкс, орқа, оғиз, бағир каби сўзлар. Масалан, “Бу ерда мавлоно Муҳаммад каби бош яланг, оёқ яланг тентировчилар ҳамбор” (191-бет).

4. Ҳайвон ва қуш номлари: қўй, эшак, сигир, бузоқ, эчки, от, кундуз, қуш каби сўзлар. Масалан, “Атрофдаги дарахтларда бир неча сигир, бузоқ, қўй боғланган эди” (56-бет).

5. Асарда табиий ҳодисалар, нарсалар, табиий географик объектларнинг номлари ҳам келтирилган: кўк (осмон), кеча, ёмғир, кундуз, ой, тоғ, қор, тупроқ, сув, ёруғ, юлдуз, булут, ел, каун (куёш), тош, тун, тутун, денгиз, ариқ, булоқ, яйлов, йўл, олтин, кумуш, темир, кўмир, жез каби сўзлар. Масалан, “Кеча шовдираб ўтган ёмғир кўзга илинар-илинмас буғ бўлиб ҳавога кўтарилар эди” (5-бет), “Мадорини қиш узгандай сузилиб оқаётган ариқ бўйида Дилдор чўққайиб, апир-шапир ювинди” (226-бет), “Бекларнинг кумуш сопли қиличлари, қиличларнинг қинларидаги олтин, фериуза ва забаржад тошлар кўз камаштириб ёнади” (57-бет).

6. Асарда вақт, фасл, муддат тушунчаларини ифодаловчи сўзлар ҳам учрайди: букун, кеча, йил, тун, кечки, бурун, ой, қиш, сўнг каби сўзлар. Масалан, “Узун қиш тун қора пардасини энди қуюқлаштирган бўлса ҳам...” (367-бет).

7. Сон, миқдор ва ўлчов бирликлари номлари: бир, уч, тўрт, бутун, икки, ярим, қирқ, ўн, беш, кўп, барча, озгина каби сўзлар. Масалан,

---

<sup>1</sup> У.Турсунов., Б.Ўринбоев. Ўзбек адабий тили тарихи. Тошкент, 1982. 8-бет.

“Подшоҳнинг ўн тўрт ўғли учун ўн тўрт ерда кўшк қуриб берилган” (323-бет).

8. Ўсимлик, дарахт, улар билан боғлиқ баъзи тушунчалар номлари: арпа, буғдой, чечак, ўт, тикан, олма, тол, терак, узум, экин, оғоч, ёғоч каби сўзлар. Масалан, “Тўғонбек узокда ўт чимтиб юрган ориқ эчкини кўрсатди” (51-бет).

9. Асардаги ўрин, жой, томон, йўналиш тушунчаларини билдирувчи сўзлар қуйидагилар: йўл, ост, уст, тўри, кишлок, ўрта каби сўзлар. Масалан, “Қоронғида бир аёл эшикни очиб, даричасидан шам нури сизиб турган бир хонага киришни таклиф эди” (291-бет).

10. Қурилиш, бошпана тушунчаларини ифодаловчи сўзлар: эшик, ин, ўчоқ, том, уй, кўрғон каби сўзлар. Масалан, “Қоронғида бир аёл эшикни очиб, даричасидан шам нури сизиб турган бир хонага киришни таклиф этди” (238-бет).

11. Асарда хусусият, белги, хосса тушунчаларини англатадиган анчагина сўзлар учрайди. Бундай сўзларнинг қуйидаги типларини келтириш мумкин:

А) Инсон, нарса, ҳодисаларнинг хусусият ва белгисини англатадиган сўзлар: оч, очик, буюк, ботир, бўш, эски, иссиқ, ёлғон, ёлғиз, янги, яқин, яхши, ёш, ёвуз, кенг, катта, кичик, қисқа, семиз, тўғри, тор, йўғон, қоқ, инжиқ каби сўзлар. Масалан, “Кўшнининг қаршидаги катта, эски айвонида бу хонадоннинг бижилдоқ бекаси ва унинг икки дўндиққина қизини кўрди” (221-бет).

Б) Ранг, тус билдирувчи сўзлар: яшил, оқ, қора, ола, қизил, қизғиш каби сўзлар. Масалан, “Унинг оппоқ тўлагина юзи, чаккаларига жингалакланиб тушган тим қора сочлари чиндан ҳам жозибадор эди” (221-бет).

В) Ёш тушунчаси билан боғлиқ сўзлар: йигит, қари, йигитлик, кичиклик, қарилик, етук каби сўзлар. Масалан, “Йигит айвон четига ўтирди” (220-бет).

“Навоий” романида туб туркий сўзлардан ташқари ўзбек тилининг ички қонуниятлари асосида пайдо бўлган ўзбекча сўзлар ҳам асосий лексик қатламни ташкил этади.

Ўзбек тилининг ўзида ясалган бу тил лексикасининг ўзигагина хос бўлган сўзлар ҳам мавжуд. Аниқ тил лексикасининг ўзига хос сўзлари ҳар қандай тилда ҳам мавжуд бўлиб, ҳар бир туркий тилнинг ўз ижодидир. Шунинг учун бундай сўзларни адабиётларда ўзбекча сўзлар, қозоқча сўзлар ёки уйғурча сўзлар деб юритилади.

Ўзбекча сўзлар бу тилнинг ўзиники эканлиги жиҳатдан ўзлашган сўзлардан фарқланади. Ўзбекча сўз ўзга тиллардан олинган эмас, ўз ресурс материали ва маҳсулидир. Ўзбекча сўзлар билан умумтуркий сўзлар орасида фарқлар мавжуд бўлиш билан биргаликда сўзларнинг бу гуруҳлари ўзаро алоқадор ҳамдир. Бунга сабаб ўзбекча сўзлар учун материал, негиз бўлиб туб туркий сўз ва ўзлашган сўзлар хизмат қилади.

Ўзбек тилининг луғавий материали сифатида ўзбекча сўзлар, умуман олганда, моҳият эътибори билан туб туркий сўзлар ва умумтуркий сўзларга қарама-қарши турмайди. Маълумки, туб туркий сўзлар ва умумтуркий сўзлар туркий тилларнинг мулки – туркий сўзлар лексикадир. Ўзбек тили туркий тиллар оиласига мансуб бўлгани, яъни туркий тил бўлгани учун унинг асл лексемалари – ўзбекча сўзлар ҳам туркий тил маҳсули ҳисобланади. Бу жиҳатдан ўзбекча сўзлар туркий тил сўзидир.

## **ВИЛЬЯМ РАШБРУКНИНГ “ЎН ОЛТИНЧИ АСР БУНЁДКОРИ” АСАРИДА БОБУР ШАХСИЯТИ ТАСВИРИ**

**Сулаймонов И, СамДУ доценти**

Шарқ ва Ғарб олимлари, адиблари томонидан Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахсияти, ижоди ва у яшаган давр ижтимоий-сиёсий, маданий, адабий ҳаётига оид қатор асарлар яратилди. Айниқса, «Бобурнома»да келтирилган тарихий фактлар, воқеаларни бадиий талқинда тасвирлашга оид кўплаб бадиий, публицистик асарлар ҳам яратилдики, уларда буюк ватандошимиз Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сиймоси турли ракурсда, ҳар бир адибнинг ўз дунёқараши, услуби орқали тасвирланганини кўриш мумкин. Уларда Бобур шахсиятига муносабат, албатта унинг тарихдаги ўрни, шоирлик истеъдоди, туркий насрнинг янгича услубида яратилган «Бобурнома»нинг жаҳоншумул аҳамияти ҳақида ҳар бир ижодкор ўз имкониятидан келиб чиққан ҳолда фикр юритганини кўрамиз. Биз мазкур ишимизда Бобур шахсияти ва ҳаётининг фаолияти ҳақида қисқача маълумот берувчи шундай асарлардан бири бўлган британиялик шарқшунос ва тарихчи Вильям Рашбрукнинг (1890-1978) “Ўн олтинчи аср бунёдкори” асарини таҳлил этишга ҳаракат қилганмиз<sup>14</sup>.

“Бобурнома”да Бобур учун нисбатан мағлублик даври икки хон додалари, Фарғона давлатидаги ғанимлари Аҳмад Танбал ва тоғаларининг ёш, давлатдорликда тажрибаси кам бўлган Бобурнинг бу вазиятидан фойдаланиб унинг укаси Жаҳонгир мирзони Аҳси давлатига шоҳ этиб тайинлаш пайтларини “Бобурнома”да муаллиф қуйидагича тасвирлайди: “...Али Дўст ва Қанбар Али саллоҳ тавобий ва лавоҳи била бўлғайлар, яраш сўзини ораға сола кириштилар. Менинг ва менинг давлатхоналаримизнинг бу ярашдин асло илм ва хабарлари йўқ эди ва бизлар бу суратқа асло ризо бермас эрдук. ...агар буларнинг сўзига қулоқ солмай сулҳ бўлмаса, ўзга эҳтимоллари ҳам бор эди. Зарурат бўлди, бу йўсунлуқ сулҳ бўлдуким, Хўжанд сувининг Аҳси тарафи вилоятлар Жаҳонгир мирзоға тааллуқ бўлғай, Андижон тарафи вилоятлар манга тааллуқ бўлғай”<sup>15</sup>.

<sup>14</sup>Вильям Рашбрук, “Ўн олтинчи аср бунёдкори”, инглизчадан Ғофуржон Сотимов ва Холида Сўфиева ўзбек тилига ўгирган. “Шарқ” нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент 2011 йил. Бундан кейин бу асардан олинган парчага асар бети кўрсатилади.

<sup>15</sup>Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 74. Кейинги ўринларда ушбу манбадан олинган мисолларга китоб саҳифаси кўйилади.

Бобур учун мағлубиятни англатувчи ушбу мураккаб сиёсий ҳолатни, Бобур тақдирида Вильям Рашбрук тарихчи, бадий асар муаллифи сифатида куйидагича шарҳлайди: “...Бироқ ёш ҳукмдорнинг мулкига кўз олайтирган ёвуз кучлар ҳали тўлалигича бартараф қилинмаган эди. Муғулларнинг улуғ хони бўлмиш тоғаси Маҳмудхон аллақачон Сирдарёнинг шимолий соҳилига етиб келиб, Султон Аҳмад мирзо билан аввал келишилган битимга кўра Ахсини бутунлай камал қилди... Ёш Жаҳонгир мирзонинг бу ерда бўлиши унга содиқ кишиларни садоқат билан хизмат қилишга ундарди”<sup>16</sup>.

Вильям Рашбрук Бобур яшаган ва давлатчилигини тузган Ҳиндистон тарихига оид кўпгина тарихий асарларни, манбаларни жиддий ўрганган ҳамда асарида улардан бадий тасвирлар яратиш, айниқса Бобур бадий образини такомилга етказиб тасвирлашда унумли фойдаланган. “Ўн олтинчи аср бунёдкори” асарининг кириш қисмида унинг бу хислати ҳақида куйидагиларни билдиради: “В.Рашбрук бу асарида Бобур ҳаёти ва фаолияти билан боғлиқ бўлган “Ҳабиб ус-сияр”, “Ҳумоюннома”, “Тарихи Рашидий”, “Табақоти Акбарий” ва бошқа тарихий манбалардан фойдаланиб, Бобуршоҳ ҳақида анчагина илмий далилларни келтиради”<sup>17</sup>.

“Бобурнома”да Бобурнинг ўша пайтда стратегик шаҳар бўлган Қандаҳор шаҳрини забт этиши борасидаги кўплаб тасвирлар келтирилади. Масалан, Бобурнинг ўз ғанимлари устидан ғалабаси, Бобурга хос услуб ва фактларни келтириши: жанг майдонининг қисқа ва аниқ тасвири, курашда кимлар иштирок этгани, хужум, мудофаага ким масъуллиги, оддий лашқардан тортиб таниқли бекларнинг исми, жанг майдонидаги жасорати батафсил баён этилади. Масалан, Қандаҳордаги кураш майдонидаги мана бу тасвирга эътибор берайлик: “Нақора унини эшитиб, бизнинг мутаважжих бўлғонимизни билиб, қарор тариқин унутуб, фирор йўлин тутти. Тенгри рост келтуруб, ёғийни қочуруб, Қандаҳор сори юруб, Фаррухзодбекнинг чаҳорбоғиғаким, бу тарихта андин асари қолмайдур, келиб тушдик... элнинг бошсизлиғини мулоҳаза қилиб, ўзга дарвозалар очилмади...Ўзим бир неча ичкилар била кириб, бошсиз элни отқулаб, сиёсат учун бир-икки кишини ҳам буюрдимким, ўлтурдилар”<sup>18</sup>.

В.Рашбрук шу ва шунга ўхшаш Қандаҳорга доир тасвирларни “Бобурнома” ва унга оид тарихий манбалардан ўқиб, бу тарихий ҳақиқатга том маънодаги бадий тўқимани илова қилиб, ўз асарида Бобур ва унинг яқин сафдошларининг бадий образини яратадики, бадий ижодга нисбатан анча қобилияти бўлганлигини кўраимиз. Масалан, Бобурнинг ҳарбий маҳоратига хос мана бу тасвирлар В.Рашбрукнинг ўша давр тарихий манбаларини пухта ўрганганлиги ва бадий асарида улардан унумли фойдаланганлигидан дарак беради: “У Қандаҳор адирларини ёқалаб борар экан, вақти-вақти билан одамларига дам берар эди. Икки минг кишилик аскарининг ярми мамлакат бўйлаб озик-овқат топиш учун тарқалиб кетган бир пайтда арғунлар олти-етти минг кишилик лашқари билан улар турган

<sup>16</sup>Юқоридаги асар, 36-б.

<sup>17</sup>Юқоридаги асар, 5-б.

<sup>18</sup> Бобурнома, 158-б.

қароргоҳ олдиға қўқисдан ҳужум қилишди. Бу тенгсиз жангда Бобур мирзони икки нарса сақлаб қолди: уларнинг бири қўшин таркибидаги навкарлар орасида ўрнатилган темир интизом бўлса, иккинчиси, Бобур мирзо қўшинининг чап қаноти бўлди. Бу тараф устиға шох-шабба ташланган чуқур зовур билан ўралган бўлиб, душман кучлари анча катта бўлса ҳам бу ҳимоя тўсиғидан ўта олмади. Бобур мирзо одамларининг ҳар бири ўз бошлиғи ёниға ҳеч қандай саросимасиз бориб қўшилди. Ҳар бир бошлиқ ўзининг ҳужумкор қисм, марказий қисм, ўнг қанот ва чап қанотдаги эгаллаши лозим бўлган жойини аниқ билар эди. Ўнг қанот ва марказ уларға қаршилиқ қиладиган кучни орқаға қайтарар эди. Сўнгра чап қанотдаги қийин вазиятда қолган аскарларға ёрдамға ўтдилар. Душманға қарши ялпи ҳужум эълон қилинганда, рақиблар лашкари тумтарақай қочиб қолган эди”<sup>19</sup>.

Бунда Вильям Рашбрукнинг бадий маҳорати шундаки, у гўё Бобур лашкари иштирокчиси сингари жанг майдонини яққол тасвирлайди. Бунда ғолиб Бобур лашкарларининг руҳий-психологик ҳолати ҳам, уларнинг шиддатли тўқнашув иштирокчиси бўлса ҳам вазиятни хотиржам ва сергаклик билан қабул қилишлари ҳам, ҳарбий интизомни тўла рисоладагидек назорат қилишлари ҳам табиий, бадий тарзда ўз ифодасини топган. Бунда гарчи бош қаҳрамон Бобур сиймоси тилға олинмаган бўлса ҳам, ўқувчи уни зимдан тасаввур қилади, ундаги ғолиблик кайфиятини яқиндан ҳис қиладики, бу ҳам асар муаллифининг бадий маҳоратидан дарак беради.

В. Рашбрук “Бобурнома”да тасвири берилмаган, икки йиллик воқеалар тасвирини ҳам берар экан, Абдураззоқ мирзо тасвиридаги Бобурға қарши исёнға тарафдорларни ва Бобур томонидан бу хиёнаткорға нисбатан кескин чора қўрганини келтириб унга бадий тус беради.

Ўша дамдаги тарихий воқеаларда Абдураззоқ мирзо ҳақида Бобур унинг исёнда иштироки борлиғи ҳақида маълумот бермайди, аниқроғи бунга «Бобурнома»даги бу маълумотлар икки йил аввал содир бўлган ва Бобур уни олиндан тасвирлаши мумкин эмасди. Икки йил кейин содир бўлган ушбу исёнға оид маълумотларни В.Рашбрук бошқа бир тарихий асардан олиб, ўз китобига киритган, унга бадий тус берган кўринади. “Бобурнома”да ўқиймиз: “Қандаҳор фатҳидин сўнг Қалот ва Тарнук вилоятини Абдураззоқ мирзоға иноят қилиб, Абдураззоқ мирзони Қалотға қўюлиб эди. Ўзбак (Шайбонийхон лашкарлари – С.И.) Қандаҳорни келиб қабағоч, Абдураззоқ мирзо Қалотға тура олмай Қалотни солиб чиқти”<sup>20</sup>.

Бу ўринда мазкур воқеа тасвирини Рашбрук қайси манбадан фойдаланган ҳолда киритгани муҳим эмас, муҳими унинг тадқиқотимиз учун дахлдорлиғида. Сабаби шундаки, адиб ўша давр воқеаларини бадий тасвирлашда Бобур образи орқали унда содир бўлган мураккаб руҳий-психологик вазиятни бадий тарзда очиб бергани билан аҳамиятлидир. Асар муаллифи Бобур шахсиятиға нисбатан кўп хиёнатлар қилинганини, бу ҳолатлар “Бобурнома”да ҳам кўп тасвирланганини инобатға олган ҳолда

<sup>19</sup> Юқоридаги асар, 106-107-б.

<sup>20</sup> Бобурнома, 159-б.

худди шундай тасвирларни ўша даврдаги тарихий манбалардан топишга ҳаракат қилган, уларни асарига илова тарзида киритган. Яна В.Рашбрук асарида ўқиймиз: “Аммо ўша даврда ёзилган тарихий манбаларга, айниқса Ҳайдар мирзо дўғлатнинг “Тарихи Рашидий” ва Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сияр” асарларида шу пайтда қандай воқеалар содир бўлгани ҳақида аниқ фикр ва мулоҳазалар баён этилган”.

“Уларда қайд этилишича, фитначиларнинг хатти-ҳаракатлари беклар ўртасида муҳокама қилинди ва ниҳоят, шахсан подшоҳ истагига биноан исёнчиларнинг таъзирини бериб қўйишга қарор қилинди. Исёнчилардан нақд бештасини Бобур мирзо бирма-бир ўз қиличидан ўтказди. Бундай жасоратни кўрмаган рақиблар ўз-ўзидан тумтарақай қочдилар. Подшоҳ жангда рақиблар устидин мутлақ ғолиб бўлди (Бунда В. Рашбрук ҳам Бобурнинг гарчи бир лаҳзалик бўлса ҳам рақиблари устидан мутлақ ғолиблиги ҳақида алоҳида эътибор бериб таъкидлайдики, ўша пайтда ҳам ғолиб ва мағлуб психологияси, руҳий ҳолатини тарихий ва бадий асарларда талқин этиш ҳолларини кўришимиз мумкин – С.И. ). У ношукур Абдураззоқни қўлга олиб, жанг тантанасини шу билан якунлади... Абдураззоқ кейинчалик яна исён кўтарган, лекин бу сафар унинг гуноҳи кечирилмаган ва қатл этилган”<sup>21</sup>.

В.Рашбрукнинг тарихий фактлар асосида ўзининг илмий-бадий асарни яратишдаги маҳорати, энг аввало шунда кўринадики, у тарихчи олим сифатида ҳам, Бобур ва унинг даврига тааллуқли тарихий, ижтимоий, сиёсий ҳаётда Бобурнинг тутган ўрни, Хуросон, Мовароуннаҳр ва Ҳиндистон тарихида давлатчиликни ташкил этиш, ривожлантириш, Амир Темур эгаллаган ерларда мустаҳкам империя тузишдаги истагини амалга оширишга қаратилган ниятини илмий-бадий тарзда ифодалаб беради, уларни кўпчилик ҳолда жиддий таҳлил этади. Бу маълумотларнинг кўпчилиги “Бобурнома” ва юқорида тилга олинган тарихий асарларда ҳам мавжуд. Аммо В.Рашбрук улардан Бобур ҳаёти ва таржимаи ҳоли билан боғлиқ ҳолатларни чуқур таҳлил этади, Бобурнинг бадий образини ўз дунёқараши воситасида баён этадики, бу масала Ғарб олимнинг Шарқ тарихи, маданияти, давлатчилиги ҳамда архитектурасига Мовароуннаҳр маданияти қай даражада таъсир кўрсатганини ифодалаб беради.

В.Рашбрукнинг бу асаридан яна бир мисол келтириб, юқоридаги фикримизни қувватлаш зарур деб биламиз. “Бобурнома”даги тарихий фактларни, айниқса Ҳиндистондаги турли султонлар, рожалар ва бу мамлакатнинг турли музофотида жанг олиб борганлиги ҳақида ўқувчи ундаги маълумотлар кўплигидан чарчаб, тарихий шахсларнинг исм шарифи, жой номларининг кўплиги боис гоҳида гап қайси вилоят, қишлоқ ҳақида бораётганини илғамай қолади. Унга ёрдам тариқасида В. Рашбрукнинг тарихий таҳлиллари, бу тарихий фактларни муаллиф томонидан бадий тарзда ифодаланиши анча қўл келади. Масалан, Ҳиндистон воқеаларига оид тарихий фактларни умумлаштириб В. Рашбрук қуйидагиларни ёзади: “1520

---

<sup>21</sup>Юқоридаги асар, 112-б.

йили Бобур мирзо Ҳиндистонга учинчи маротаба юриш қилди. У Кобулдан чиқиб, ўз ишончли кишилари бошқараётган Бажур вилояти ҳудуди оралаб юрди, тоғлар оша Ҳинд дарёсидан кечиб ўтиб, тўғри Бҳирага етиб келди. Бу ерда илгари унга бўйсуниб, подшоҳ кетгандан кейин яна ўзбошимчалик қилаётган исёнчиларнинг таъзирини берди, қишлоқларда талончилик қилаётган бир неча афғонларни ҳам чегарадан қувғин қилди. Сўнгра Бобур подшоҳнинг сиёсатидан беҳабар бўлган вилоятларда ҳам бўлиб, ниҳоят Силкотга етиб келди. Шаҳар дарҳол таслим бўлди ва Бобуршоҳ уларга ҳеч қандай озор бермади”<sup>22</sup>.

Умуман айтганда, британиялик шарқшунос ва тарихчи Вильям Рашбрукнинг “Ўн олтинчи аср бунёдкори” асарида Бобур шахсияти ва ижоди, ҳукмдорлик фаолияти, ҳарбий юришлари каби масалалар ўта маҳорат билан тасвирланган, биз ушбу ишимизда унинг айрим жиҳатларини таҳлил қилдик холос.

#### **Адабиётлар:**

1. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ. 2002. – 335.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. - Тошкент: Шарқ. 2014. – 744 бет.
3. Вильям Рашбрук. Ўн олтинчи аср бунёдкори. Инглизчадан Ғофуржон Сотимов ва Холида Сўфиева ўзбек тилига ўгирган. “Шарқ” нашриёт матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент 2011 йил.

### **ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИ ИЖОДИЙ-СЕМАНТИК ЎЗГАРТИРИШ УСУЛЛАРИГА ДОИР**

**У.Рашидова, СамДУ катта ўқитувчиси, Г.Ҳотамова, СамМИ**

Фразеологизмларнинг одатдаги, умумтил қўлланишида унинг шакли ҳам, мазмуни ҳам ўзгармайди. Лекин таниқли ёзувчилар, публицистлар, чинакам сўз усталари фразеологик бирликларни (ФБ)ларни ижодий қўллаб, уни «ёшартирадилар», шу асосда ФБнинг услубий самарадорлигини, таъсирчанлик даражасини оширадилар. Ана шундай ҳолларда ФБларнинг услубий имкониятлари бир неча баравар ортади. Акад.Г.Абдурахмонов таъкидлаганидек, «маълум сўз ёки иборани у ёки бу ўринда ишлатишнинг мувофиқлигини амалда, матнда улуғ ёзувчининг юксак диди пайқай олади».<sup>23</sup>

Сўзлар сингари ФБларнинг ҳам семантик-прагматик имкониятлари матнда аниқланади, чунки уларнинг луғатларда бериладиган барқарор таснифи билан уларнинг нутқ таркибидаги «жонли фаолияти» ўртасида айнан тенглик йўқ. Матнда кўп марта қўлланиш натижасида ўз янгилик бўёғини йўқотиб қўйган ФБни янгилаш мақсадида ёзувчи ёки шоирлар унга муайян матний шарт-

<sup>22</sup>Юқоридаги асар, 133-б.

<sup>23</sup> Абдурахмонов Г. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий услуби ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992. № 5-6. –Б. 29.

шароит яратадилар. Натижада ФБ матнда ўз маъно доирасини кенгайтиради, полисемантик иборага айланади ёки ФБнинг компонент таркибида ва маъносида силжиш, ўзгариш содир бўлади. Бундай ҳодиса фразеологизмлар трансформацияси деб юритилади.

Тилдаги ФБларнинг тараққий этиши ва бойиши, тилнинг бошқа бирликларида бўлганидек фақат фразеологик неологизмларнинг пайдо бўлиши билан эмас, балки мавжуд ибораларнинг семантик, грамматик ва функционал жиҳатдан янгиланиши асосида ҳам содир бўлади. Шунинг учун ФБларнинг ўзгариши, трансформацияси ва шу билан боғлиқ масалалар назарий фразеологияда ҳамда прагматик, стилистик тадқиқотларда муҳим аҳамият касб этади. Проф. Б.Йўлдошев ФБларда юз берадиган барча ўзгаришларни қуйидагича иккига ажратиб ўрганиш мақсадга мувофиқ деб билади: а) ФБларнинг ижодий структур-семантик ўзгаришлари; б) ФБларнинг ижодий-семантик ўзгаришлари<sup>24</sup>.

Қуйида биз ФБларнинг ижодий структур-семантик ўзгаришларига қисқача тўхталамиз.

ФБ компонент таркибидаги ўзгариш маълум даражада унинг маъносига ҳам таъсир кўрсатади: бундай ҳолатда ФБ ўз маъносини ўзгартиради ёки қўшимча маъно жилоларига эга бўлади. Бундай ўзгаришлар қаторига ФБ компонентини алмаштириш, ФБни оддий қўлланишдаги сўз билан кенгайтириш, эркин қўлланишдаги сўзни ФБнинг қисми билан бириктириш, ФБнинг образли асосидан фойдаланиш каби бир қатор усуллар киради. Бундай усуллардан ўринли ва мақсадга мувофиқ ҳолда фойдаланиш ФБларнинг матн таркибидаги прагматик имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилади.

Масалан, ФБ таркибини алмаштириш маълум нутқий вазият талаби билан рўй беради. Айниқса, турли тарихий даврларга хос сўз-компонентларнинг ибора таркибида ўрин алмашинуви тарихий давр руҳини бериш, персонажлар нутқини индивидуаллаштириш учун муҳим восита бўлиб хизмат қилади. Масалан, эски ўзбек адабий тилида *илик|| илки|| илги* сўзи *қўл* маъносини ифодалаган<sup>25</sup>. Шу билан боғлиқ ҳолда тарихий асарларда *қўлидан иш келмайди, қўлга тушиб қолмоқ, қўлига бориб тегмоқ* сингари ФБлар персонажлар нутқида қўлланганда *қўл* лексемаси ўзининг тарихий маънодоши *илик|| илки|| илги* сўзи билан алмашинуви ўзини ҳар жиҳатдан оқлайди: - *Хонқулибек, - деб товушини пасайтириб гапира бошлади, беклар бўлмаса подшоҳларнинг илкидан ҳеч иш келмайдир. Сизга менинг маслаҳатим – Андижонда кўп турманг. Иликка тушиб қолурсиз (П.Қодиров, Юлдузли тунлар); Худодин илтижо қилурменким, бу хат сизнинг илкинлизга бориб етсун. Биз борғунча пойтахт иликдан чиқмаслиги лозим эди (П.Қодиров, Авлодлар довони).*

<sup>24</sup> Йўлдошев Б., Рашидова У. Ўзбек тилининг фразеологик стилистикаси. –Тошкент: Наврўз, 2016. –Б.125.

<sup>25</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. Т. I. –Тошкент: Фан, 1983. –Б.26 б.



Маълумки, иборалар таркибида ўзлашма сўзлар, ўзбекча сўзларнинг бошқа тиллардаги маънодошлари ҳам қўлланади. Ёзувчи Н.Норқобилов қўли узун ибораси таркибидаги қўл сўзини унинг форс-тожикча маънодоши *даст* сўзи билан алмаштириб, *дасти узун* иборасини шакллантиради ва уни «Тоғдаги ёлғиз одам» қиссасида бош қаҳрамонлардан бири Ҳамидкул оқсоқолнинг характер-хусусиятини очиб беришда қўллайди: ...*Ё ўша кезлари дасти узунлигидан* ҳаволаниб, *унча мунча одамни менсимай, босар-тусарини билмай қолгани сабабли, худди эркак зоти қуриб қолгандай, қандайдир бир оғизнинг олдида тили қисик, боши эгик ҳолда юришини хоҳладимикан?* (Н.Норқобилов, *Тоғдаги ёлғиз одам*).

*Кўз остига олмоқ* ибораси тилимизда бирор мақсад билан кўзлаб қўймоқ маъносини англатади. Мазкур ибора Т.Муроднинг “От кишнаган оқшом” қиссасида кўз *остига босиб юрмоқ*, Л.Бўрихоннинг “Жазирамадаги одамлар” романида эса кўз *остига бостирган* ҳолда қўлланилган: *Эмишки, мулла мирза ҳам эрта индин ихчамгина салласини пўрим иляпага алмаштириб, сийрақкина соқолини қиртишлаб, ҳазрати Лангар ёққа – кўз остига бостирган бир аёлни излаб, ҳаййу ҳайт деб жўнаб кетаймиш* (Л.Бўрихон, *Жазирамадаги одамлар*); *Охири, Одина чавандоздан садо чиқди! Одинаси қурғур, бизнинг қайнсинглимизни кўз остига босиб юрибди экан!* (Т.Мурод, *От кишнаган оқшом*).

Тўпланган мисоллар таҳлилига эътибор қаратсак, ибора таркибидаги кўпинча, феъл компонентлар ўзаро ўрин алмашади: *кўз остига олмоқ* - *кўз остига босиб юрмоқ*, *юрагига ўт бермоқ* - *юрагига ўт солмоқ*. Лекин ибора таркибидаги от ва сифат компонентлар ҳам ўрин алмашиши кузатилади: *кўзига гам чўкмоқ* - *кўзига қайғу чўкмоқ*, *панжа орасидан қарамоқ* - *бармоқ орасидан қарамоқ*, *кўзига ёмон кўринмоқ* - *кўзига хунук кўринмоқ* - *кўзига совуқ кўринмоқ*, *кўз солмоқ* - *назар солмоқ каби*.

Масалан, *беш қўл баравар эмас* ибораси таркибидаги қўл сўзи *панжа* сўзи билан ўрин алмашса, ибора семантикасида оғзаки сўзлашув услуби томон силжиш юзага келади. *Панжа* сўзи форсча сўз бўлиб, унинг ёрдамида тилимизда қуйидаги иборалар шаклланиб: *панжа орасидан қарамоқ*, *беш панжадай билмоқ*, *беш панжадай аён*, *беш панжасини оғзига тиқмоқ каби*. *Беш панжа баравар эмас* ибораси қўлланилиш жиҳатдан *беш қўл баравар эмасга* қараганда анча нофаол. Э.Аъзамнинг “Жаннат ўзи қайдадир” драматик достонида бу ибора Жийдалиий образи нутқида унинг тожик миллатига мансублигини кўрсатиш мақсадида келтирилган: - *Домулло, сиз ҳали янгамулломизга ҳамма тенг бўлмоғи лозим, дегандай гап қилдингиз-а? Қандоқасига тенг бўлсин, ахир? Мана, беш панжа баробар эмас-ку!* (Э.Аъзам. *Жаннат ўзи қайдадир*).

Ёки шоира Ойдин Ҳожиева қўли *боғлиқ* ибораси таркибидаги *боғлиқ* сўзини унинг форс-тожикча синоними *баста* сўзи билан алмаштириб қўли *баста* иборасини шакллантиради:

*Торгина гузарлар, пастқам расталар*  
*Ғала-говур бозор, кетмас хаёлдан:*

## *Қорин ташвишида қўли басталар*

*Чиқиб келаверар ҳар бир саволдан. (О.Ҳожиева)*

ФБни оддий қўлланишдаги сўз билан кенгайтиришда ибора таркибига у билан семантик ва грамматик муносабатга киришадиган компонент қўшилади. Бунда, албатта, иборанинг анъанавий структураси кенгайди, иборанинг ўзида семантик силжиш рўй беради ҳамда унинг матндаги экспрессив бўёғи ортади. Масалан, адабий тилдаги *қўли очиқ* ибораси сахий кишиларга нисбатан ишлатилиб, ижобий баҳо оттенкасини билдиради: - *Албатта, бошиқа одамнинг ерини ҳам экаверасиз-ку, аммо домладай очиқ қўлли одамни ё топамиз, ё йўқ (А. Қахҳор. Сароб)*

Муҳаммад Али томонидан мазкур фразема таркиби “шу қадар” сўзи ҳисобига кенгайтирилади, натижада фразема маъносида салбий баҳо томон силжиш рўй берганини кўриш мумкин:

*Амирим!- дебдида тўннинг ичидан*

*Ялангоч кўкрагини кўрсатибди у. -*

***Қўлимнинг шу қадар очиқлигидан***

*Сиз кўрган аҳволга тушиб қолдим-ку!*

*(М. Али, Қадимги қўшиқлар)*

Тилимизда кўз компонентли кўзлари ола-кула бўлмоқ, кўзлари хонасидан чиқиб кетмоқ, кўзлари қинидан чиқиб кетмоқ, кўзлари чизаногидан чиқиб кета ёзди, кўзлари косасидан чиқиб кетди каби ҳайрат семасини ифодаловчи иборалар мавжуд: Бу ибораларда *ҳайрат* инсоннинг кўзида акс этиб, натижада кўзларнинг катталашиши, чақчайиши, қотиб қолиши, олайиши сингари ҳаракатлар юзага келади. П.Қодиров *кўзлари косасидан чиқмоқ* иборасини таркибини *ўйноқлаб* сўзи ҳисобига, А.Қахҳор *шоҳсоққадай* ўхшатиш эталонини қўшиб иборанинг структур жихатдан кенгайтириб, кўзда акс этган *ҳайрат* семасини ёрқинроқ тасаввур қилиш имконини яратган: *Исломишоҳнинг бирдан кўзлари косасидан ўйноқлаб чиқди (П.Қодиров. Она лочин видоси); Сўфининг кўзлари шоҳсоққадай ирғиб чиқди (А.Қахҳор).*

Нутқий вазиятларда, яъни диалогда, икки реплика уйғунлигида ибора таркибидаги бир сўзни икки суҳбатдош ўзича тушунади. Бу усул эркин қўлланишдаги сўзни иборанинг қисми билан бириктириш усули ҳисобланади. Бунда ибора компоненти билан омоним бўлган эркин қўлланишдаги сўз ўз маъноларининг бири билан ФБнинг қисми бўлиб келади. Масалан, С.Аҳмаднинг “Уфқ” трилогиясида Учкўрғон сўзи дастлаб ибора таркибида, кейин эса жой номи (топоним) сифатида қўлланган: - ***Кўзинглиз Учкўрғонни кўрар экан-да. Бу ўн кунликда ҳам сизни Учкўрғондан кўрадиган бўлсак... (С.Аҳмад. Уфқ)***

ФБларнинг услубий жихатдан қўлланишига оид фикр-мулоҳазалар шундан далолат берадики, ўзбек тилида ФБларнинг ўзгаришга учраш имкониятлари жихатдан бир хил мавқега эга эмас. ФБнинг янгиланиш, сўз ўйини учун асос бўлиш имконияти билан семантик типи ўртасида муайян боғланиш бор. Бу жихатдан қараганда ички шаклининг жозибадорлиги

билан ажралиб турувчи ФБларнинг имконияти бир мунча кенгроқ. Бундай ФБлар эркин бирикмаларни қайта тушуниш асосида ҳосил бўлгани учун ижодий семантик ёки структур-семантик ўзгаришларга анча мойилроқ бўлади. Ўзбек тилида ФБларнинг ана шундай прагматик имкониятларини тадқиқ этиш матн фразеологияси соҳасини янгидан янги илмий-назарий хулосалар билан бойитади.

#### **Адабиётлар:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, беш жилдлик. Биринчи жилд. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006, 384-бет.
2. Йўлдошев Б.Фразеологик услубият масалалари. – Самарқанд: СамДУ наشري, 2007.
3. Маматов А. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг шаклланиш масалалари, ДДА. –Тошкент, 2000. -56 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 49-50.
5. Бўрихон Лукмон (Лукмон Бўрихон). Жазирамадаги одамлар. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2012. -323 б.

#### **ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ И СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗЫ В ОНОМАСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ**

**Пирназаров У.П. – доц. ДжГПИ, Каримова Г.Х. – магистрант ДжГПИ.**

Этимологизирование в ономастике — это прием, который часто применяют, не имея для него достаточных оснований, достаточного материала и не подозревая о тех ограничениях, которые здесь имеются. Каждый исследователь, собрав хотя бы минимальный материал, спешит узнать, от какого апеллятива образовано то или иное имя, не углубляясь в этимологию соответствующего апеллятива. Однако между именем и апеллятивом обычно бывает много промежуточных этапов, проходя через которые меняются имена, меняются их модели и формы, теряется связь с исходным апеллятивом, а вместо нее обретается связь со словами, к которым имя в действительности никакого отношения не имеет.

Оптимальные результаты получает тот исследователь, который привлекает для анализа ономастический и только ономастический материал, при этом чтобы это были по возможности не одиночные слова, а параллельные ряды соответствий. Например, старому русскому имени Бас сопутствовали следующие формы: Басиха. Басенок, Баско, Басун; имени Бат—Батак, Батаван, Батан, Баташ, Батошка, Батуй, Батура, Батюш, имени Баш — Башина, Башук, имени Беда — Бедарь, Бедей, Бедиха, Бедырь, имени Каша — Кашай, Кашеня, Кашка, Кашута, имени Кила — Киленя. Килеша, Килка, имени Левак — Леваш, Левуха, Левуша, Левша, имени Мат — Матар, Матас, Матур, Матюк, Матюня и т. д. Наличие форм Баташ, Леваш должно насторожить исследователя и предупредить против соотне сепия имени Беляш с нарицательным беляш открытый пирог с мясом', формы

Пен(ь)ко/Пен(ь)ка, Белко/Белка — послужить сигналом, что Турко и Турка не обязательно связаны с турками, Пенько с пнём, а Пенька — с пенькой. Словообразовательно-парадигматические связи подобных имен свидетельствуют об их древнейшем употреблении в ономастике и о том, что, очевидно, до древнейшего значения исходных основ каждого из них едва ли возможно добраться вообще, имея в виду многозначность слов, и наличие у них омонимов, и территориальную дифференциацию значений отдельных лексем.

Этимологический анализ в ономастике отличается от этимологизирования в апеллятивной лексике тем, что для онима достаточно выявления апеллиатива или первичного имени собственного, лежащего в основе этимон логизируемого имени. К формальным способам этимологизирования можно отнести поиски сходного по форме апеллиатива, а также «выявление распределения элементов онимической лексики в пространстве» (Юркенас, МОК II). Однако следует обратить внимание на то, что достоверные ономастические этимологии могут быть получены только при сопоставлении с этимологизируемым именем ономастического же материала. Например, только массовый анализ словообразования топонимов и антропонимов, как будто бы принадлежащих к определенным моделям, позволяет произвести их верное членение на морфемы, выделить их основы и форманты. Этимологизированию могут подлежать не только «затемненные», но и «прозрачные» онимы. В последнем случае легче просматривается словообразовательная модель, если это только не вторичное сближение с известным словом, поскольку анализ нередко обнаруживает, что хорошо освоенное, ассимилированное данным языком имя оказывается иноязычным по своему происхождению, например, русские фамилии Тургенев. Куракин (см. Баскаков 1980).

Словообразовательный анализ. Изучая ономастическую систему, мы имеем в виду прежде всего территорию, а не язык, поскольку любая ономастическая система имеет субстрат и включает разноязычные имена. Когда же мы говорим об ономастическом словообразовании, мы исходим не из территориальной, а из языковой принадлежности имен. В каждый период на определенной территории обычно преобладает один язык (реже — два конкурирующих). Ономастическое словообразование составляет подсистему в словообразовательной системе преобладающего языка, при этом заимствованные имена, как правило, адаптируются им.

Если в общем языкознании словообразование может рассматриваться и как часть грамматики, и как самостоятельный раздел, то в ономастике это особое самостоятельное направление, самостоятельный предмет исследования. Могут быть выделены факты современного и исторического словообразования, в связи с чем проблема разграничения морфемного и словообразовательного анализа в ономастике стоит значительно острее, чем в апеллятивной лексике.

Словообразовательный анализ в ономастике тесно связан с ономастическим этимологизированием. Однако, поскольку имена собственные — образования индивидуальные и нерегулярные, мы не можем с полной достоверностью утверждать, что промежуточные, не засвидетельствованные источниками формы их, действительно, были. Мы можем только предположительно высказаться в пользу того, что они могли быть.

Например, в восточнославянских топонимах Суболица. Суглица, Супорница при словообразовательном анализе выделяют префикс -су и суф. -иц-а. В топониме Суболица оказывается усеченная основа -бол- (ср. полную -болот-), в топонимике Суглица — -гл- (при полной -глин-, ср. суглинок). Такое сокращение основ, очевидно, свидетельствует о значительной древности анализируемых слов и об их очень давнем переходе в ономастический ряд. Аналогичное сокращение основ встречается в топонимах Сумер (ср. сумрак/сумерк) и Сукра (вместо сукрасн-). Основа -пор- (Супорница) встречается также в топониме Супорна и, очевидно, восходит к глаголу переть (пру) — Фасмер III, 328, ср. за-пор, на-пор, от-пор. у-пор.

#### Литература:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М., 1966.
2. Баскаков Н.А. Русские фамилии тюркского происхождения. -М., 1980.
3. Бондалетов В.Д. Русская ономастика. -М., 1983.
4. Веселовский С.Б. Ономастикон. -М., 1974.

## СОЦИОЛИНГВИСТИКАДА ШАХС ТУШУНЧАЛАРИ

Д.Хасанова Қўқон ДПИ, докторант

Социоллингвистика объектига дахлдор тушунчалардан: бири «тил жамоаси»дир. «Тил жамоаси» деганда маълум: бир тилда сўзлашувчи, унга эгаллик қилувчи омма тушунилади.

Бу атама кенг ва тор маъноларда ишлатилади. У тор маънода муайян бир давлат ёхуд миллатни ўз ичига олади.. Тил жамоаси»ни бу тарзда тушуниш хорижий, аниқроғи, ғарб социоллингвистлари учун хос. «Тил жамоаси» атамаси кенг маънода турли хил худудий гуруҳларни, аниқроғи, лаҳжа ва шевада гаплашувчиларни, касб-ҳунар эгаларини, арго ва жаргонда мулоқот қилувчилар гуруҳини, илм-фан соҳаси соҳибларини ҳам англатади.

Шахс серқирралигининг бошқа мавжудотларга нисбатан устунлиги унинг ўзини англаш ва ифодалаш имконияти билан белгиланади. Серқирраликнинг устунлиги натижасида *одам, инсон, киши, зот, кимса, кас* каби қатор тил ифодалари ҳам шаклланганки, бу ушбу ҳолат билан изоҳланади.

Шахс – зотан ижтимоий-ахлоқий мавжудлик сифатидаги индивид (алоҳидалик). У ўзида инсоннинг моҳиятини, мавжудот сифатидаги умумий хусусиятларини жузъийлаштирган ҳолда намоён этади. Шахс, асосан, ижтимоий-гуманитар фанларнинг умумий тадқиқ объекти ҳисобланади. У

яхлит система бўлган бу фанларнинг ҳар бир йўналишида тадқиқот предмети ва мақсади нуқтаи назаридан турли жиҳатдан ўрганилади. Юқорида айтилганидек, бошқа тирик мавжудотлардан онглилиги билан ажралиб турганлиги сабабли объектив равишда, ўзини-ўзи баҳолай олиши билан субъектив равишда ўта мураккаб, зиддиятли, ўзини ўзи танқид ва инкор этадиган даражада мавжуд. Бу мураккаблик унинг ижтимоий, рухий (маънавий, ахлоқий, эстетик, ...) ақл-идрок (тафаккур) хусусиятларига эгаллигидадир, шу жиҳатдан фалсафий, ҳуқуқий, мантикий аспектларда ҳам ўрганиш манбаи сифатида намоён бўлади.

Шахснинг шаклланиш омиллари чексиз ва ранг-баранг. Масалан, генетик (наслий), биологик, маданий, ижтимоий омиллар, ҳаёт тажрибаси, ўз қавми билан муносабатлари мажмуи ва ҳ. Шахснинг шаклланишидаги генетик омил унинг наслий асосида, аجدодларидан мерос бўлган физиономия, феъл-атворда, биофизиологик омиллар эса яшаш учун қувват олиш, овқатланиш, жинсий муносабат ва насл қолдириш сингари индивидуал эҳтиёжларда кўринади. Биофизиологик омиллар онг ва ижтимоий омиллар таъсирида ўзгариб, бошқа мавжудотларникидан тарбияланганлик ва ишлов берилган хусусияти билан ажралиб туради. Бошқача айтганда, биофизиологик хусусият аслида социобиофизиологик даражададир. Зеро, шахс зотан онглилик, моҳиятан маданийлашган, айрича сифатлари (онг, ақл, тафаккур) орқали фаолиятини бошқариш имконига эга бўлган, ижтимоий-тарихий анъана, турмуш тарзи ва тажрибага асосланган такомиллашувга эга<sup>26</sup>. Такومиллашув ва унинг онг асосида содир бўлиши – шахс моҳиятининг бош сифатларидан.

Нутқнинг ижтимоий хосланиши, яъни дифференциялашуви масаласи ҳам социолингвистиканинг ўрганиш объектига киради. Нутқнинг ижтимоий хосланиши (дифференцияциси) деганда, адресант (сўзловчи) ва адресат(тингловчи)ларнинг касби, лавозими, ёши, жинси билан боғлиқ нутқ амали, уларнинг ўзига хос лисоний ва нолисоний хусусиятлари тушунилади. Шулар асосида нутқнинг ижтимоий вазифаси дастлаб икки гуруҳга ажралади:

- а) доимий ижтимоий вазифа (лавозим, касб-ҳунар, ёши, жинсига кўра нутқ кўриниши);
- б) ўзгарувчан (яъни вақтинчалик) ижтимоий вазифа харидорларнинг, беморларнинг, йўловчиларнинг нутқи).

Булардан ташқари, нутқнинг ижтимоий хосланишига қуйидагиларни киритиш мумкин:

### **1. Ёш жиҳатига кўра:**

- 1) ёшлар билан ёшлар ўртасидаги нутқий муносабат;
- 2) ёшлар билан кексалар ўртасидаги нутқий муносабат;
- 3) ёш йигитлар билан ёш қизлар ўртасидаги нутқий муносабат.

### **2. Жинс жиҳатига кўра:**

- 1) аёллар билан аёллар ўртасидаги нутқий муносабат;
  - 2) аёллар билан эркеклар ўртасидаги нутқий муносабат.
- 3. Бажарадиган вазифаси (лавозими)га кўра:**
- 1) раҳбар билан унга тобе ишчи ўртасидаги нутқий муносабат;
  - 2) ўқитувчи билан ўқувчилар ўртасидаги нутқий муносабат;
- 3)врач билан бемор ўртасидаги нутқий муносабат;
- 4)суд, прокуратура ишчилари билан жинойтчилар ўртасидаги нутқий муносабат ва бошқалар.

#### **Адабиётлар:**

1. Бердалиев А. “Ўзбек синхрон социолингвистикаси” дарслик-қўлланма - Хўжанд-2015 29-31 бетлар
2. Васин Е.А, Краснов В.М. Социальный символизм // ВФ, 1971, №10.
3. Жирмунский В.М. Проблемы социальной дифференциации языка. – В кн.: Язык и общество. – М., 1968.
4. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одадиниинг мулоқот шакллари: филол. фан. номзоди ... дис. автореф. – Самарқанд, 1993.

### **MODERN METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

**Alibekova Z., Khushiyeva N. JDPI**

With the spread and development of English around the world, English is used as a second language and for some people the 1st language. It enjoys a high prestige in the country. At present the role and status of English in Uzbekistan is higher than ever as evidenced by its position as a key subject of medium of instruction, curriculum. As the number of English learners is increasing different teaching methods have been implemented to test the effectiveness of the teaching process. Use of authentic materials in the form of films, radio, TV has been there for a long time. It is true that these technologies have proved successful in replacing the traditional teaching.

The English language teaching tradition has been subject to tremendous change, especially throughout the twentieth century. Perhaps more than any other discipline, this tradition has been practiced, in various adaptations, in language classrooms all around the world for centuries. While the teaching of Maths or Physics, that is, the methodology of teaching Maths or Physics, has, to a greater or lesser extent, remained the same, this is hardly the case with English or language teaching in general. As will become evident in this short paper, there are some milestones in the development of this tradition. In an attempt to reveal the importance of research in the selection and implementation of the optimal methods and techniques for language teaching and learning.

The Classical Method – in the Western world back in the 17th, 18th and 19th centuries, foreign language learning was associated with the learning of Latin and Greek, both supposed to promote their speakers' intellectuality. At the time, it was of vital importance to focus on grammatical rules, syntactic structures, along with

rote memorization of vocabulary and translation of literary texts. There was no provision for the oral use of the languages under study; after all, both Latin and Greek were not being taught for oral communication but for the sake of their speakers' becoming "scholarly?" or creating an illusion of "erudition." Late in the nineteenth century, the Classical Method came to be known as the Grammar Translation Method, which offered very little beyond an insight into the grammatical rules attending the process of translating from the second to the native language<sup>27</sup>.

1. It is widely recognized that the Grammar Translation Method is still one of the most popular and favorite models of language teaching, which has been rather stalwart and impervious to educational reforms, remaining a standard and sine qua non methodology. With hindsight, we could say that its contribution to language learning has been lamentably limited, since it has shifted the focus from the real language to a "dissected body" of nouns, adjectives, and prepositions, doing nothing to enhance a student's communicative ability in the foreign language.

The Direct Method – the last two decades of the nineteenth century ushered in a new age. In his *The Art of Learning and Studying Foreign Languages* (1880), Francois Gouin described his "harrowing" experiences of learning German, which helped him gain insights into the intricacies of language teaching and learning. Living in Hamburg for one year, he attempted to master the German language by dint of memorizing a German grammar book and a list of the 248 irregular German verbs, instead of conversing with the natives. Exulting in the security that the grounding in German grammar offered him, he hastened to go to the University to test his knowledge. To no avail. He could not understand a word! After his failure, he decided to memorize the German roots, but with no success. He went so far as to memorize books, translate Goethe and Schiller, and learn by heart 30,000 words in a dictionary, only to meet with failure.

Upon returning to France, Gouin discovered that his three-year-old nephew had managed to become a chatterbox of French - a fact that made him think that the child held the secret to learning a language. Thus, he began observing his nephew and came to the conclusion (arrived at by another researcher a century before him!) that language learning is a matter of transforming perceptions into conceptions and then using language to represent these conceptions. Equipped with this knowledge, he devised a teaching method premised upon these insights. It was against this background that the Series Method was created, which taught learners directly a "series" of connected sentences that are easy to understand. For instance, I stretch out my arm. I take hold of the handle. I turn the handle. I open the door. I pull the door.

2. Nevertheless, this approach to language learning was short-lived and, only a generation later, gave place to the Direct Method, posited by Charles Berlitz. The basic tenet of Berlitz's method was that second language learning is similar to first language learning. In this light, there should be lots of oral interaction, spontaneous

---

<sup>27</sup> Rogova G.V. *Methods of teaching English*, 1975. -p.178-180.



use of the language, no translation, and little if any analysis of grammatical rules and syntactic structures. In short, the principles of the Direct Method were as follows:

- Classroom instruction was conducted in the target language
  - There was an inductive approach to grammar
  - Only every day vocabulary was taught
  - Concrete vocabulary was taught through pictures and objects, while abstract vocabulary was taught by association of ideas
3. The Direct Method enjoyed great popularity at the end of the nineteenth century and the beginning of the twentieth but it was difficult to use, mainly because of the constraints of budget, time, and classroom size. Yet, after a period of decline, this method has been revived, leading to the emergence of the Audiolingual Method.

*The Audiolingual Method* – the outbreak of World War II heightened the need for Americans to become orally proficient in the languages of their allies and enemies alike. To this end, bits and pieces of the Direct Method were appropriated in order to form and support this new method, the "Army Method<sup>28</sup>" which came to be known in the 1950s as the Audiolingual Method.

**4. The Audiolingual Method** was based on linguistic and psychological theory and one of its main premises was the scientific descriptive analysis of a wide assortment of languages. On the other hand, conditioning and habit-formation models of learning put forward by behaviouristic psychologists were married with the pattern practices of the Audiolingual Method. The following points sum up the characteristics of the method:

- Dependence on mimicry and memorisation of set phrases
- Teaching structural patterns by means of repetitive drills
- No grammatical explanation
- Learning vocabulary in context
- Use of tapes and visual aids
- Focus on pronunciation
- Immediate reinforcement of correct responses

5. But its popularity waned after 1964, partly because of Wilga Rivers's exposure of its shortcomings. It fell short of promoting communicative ability as it paid undue attention to memorisation and drilling, while downgrading the role of context and world knowledge in language learning. After all, it was discovered that language was not acquired through a process of habit formation and errors were not necessarily bad or pernicious.

Technology has backed up in many different ways the teaching and learning of foreign languages. The technological and pedagogical advances that have been taking place in the Society of Information first, and the Society of Knowledge later, have reshaped in a progressive and constant way the current panorama in which research in English Language Teaching is confined. Many authors have underlined important changes in the methodological approaches of

---

<sup>28</sup> French F.G. *The Teaching of English Abroad*. - Oxford University Press: London, 1961.-p. 58

teaching foreign languages in Europe during the last twenty years basically due to the integration of HT into teaching and learning processes and as a consequence of the changes and advances in teaching and learning theories.

#### **THE LIST OF USED LITERATURE**

1. Richard J. C. and Theodore S. Rodgers. Approaches and Methods in Language Teaching: Cambridge University Press, 1997.P. 9-12
2. Rogova G.V. Technique in teaching of English language: Education, 1988. - p.177-178
3. Rogova G.V. Methods of teaching English, 1975. P.178-180.  
Internet resources

### **XURSHID DO‘STMUHAMMAD PUBLISITIKASIDA IBORALARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI**

**Qo‘shmonova Yu. (SamDU)**

Ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda asosiy o‘rinni egallaydi. Umuman olganda, publitsistika xalq hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, barcha jabhalarini turli usullarda o‘rganadi va matbuotda e’lon qiladi. Bu holat publitsistikaning nomidan ham aks etib turadi, ya’ni publitsistika – lotincha «ijtimoiy» degan ma’noni anglatadi. Jurnalist – qalamkash ijod ahli sanaladi. Ijod ayniqsa jurnalist va jurnalistik ijod doimo davr siyosati, ijtimoiy hayotini yoritish, davr bilan hamnafas bo‘lib, davr bilan birga qadam tashlab kelajakni oldindan ko‘ra bilishni talab qiladi. Shu jihatlari bilan u doimo jamiyatda asosiy o‘rinni egallaydi. Uning bir qancha umumiy belgilari mavjud. Jumladan, publitsistikaga xos umumiy belgilarga muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalanishi boshqa usullardan farq qiladi. Muallif hayot va voqelikka faol munosabatda bo‘ladi. Muallifning voqelikka bo‘lgan munosabati faktlarni tanlashida, ularni o‘z dunyoqarashi va estetik tamoyili asosida mantiqiy tahlil qilishida va nihoyat, tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanishida o‘z ifodasini topadi. Publitsist katta hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi bilan birga, o‘quvchi yoki tinglovchini bunga ishontirishi, uning iroda va his-tuyg‘ulariga ta’sir etishi lozim. Shuning uchun publitsistik uslub o‘zida yozuv nutqi stillariga xos xususiyatlarini ham (masalan, maxsus ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohaga oid terminologiyaning ishlatilishi), badiiy uslubga xos xususiyatlarni ham (masalan, obrazli ifodalarni ishlatish, emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lishi) birlashtiradi.

Publitsistik uslubda nutqning obrazlilik barqaror xarakterga ega bo‘ladi. Istiora, epitet, o‘xshatish, mubolag‘a, kesatiq, ibora kabi his-tuyg‘uga ta’sir etuvchi vositalarni ifodalovchi leksema, ibora, maqollar umumxalq tilidan olinadi.

Unda mavzuning ta’sirchanligini ta’minlash uchun boy lisoniy imkoniyatlardan unumli foydalanish talab etiladi. Ushbu jihatni Xurshid Do‘stmuhammad publitsistikasida muhim ko‘rinishda namoyon bo‘lishida ko‘rish mumkin. X.Do‘stmuhammad o‘z maqolalarida qaysi mavzuda so‘z yuritmasin,

matni milliy tilimizga xos nozik qochirimlar, iboralar, hikmatli soʻzlar va terminlar bilan boyitishga alohida ahamiyat qaratib, taʼsirchan yozma nutqni vujudga keltirgan. Bilamizki, til va maʼnaviyat mushratakligi iboralarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Ular xalq turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati, eʼtiqodi, maishiy hayoti, dunyoqarashini, ayrim kishilarning hatti-harakatini va feʼl-atvorini boshqa birliklarga nisbatan toʻla va yorqin, turfa boʻyoqlarda aks ettirishi bilan xarakterlanadi. Shu bois ularning boshqa tillardan muqobilini qidirish koʻpincha samarasiz yakunlanadi. Publisistik uslubda soʻzlashuv, ilimiy, badiiy uslubga xos iboralar ham erkin qoʻllanishini koʻrishimiz mumkin. Soʻzlashuv uslubiga xos frazeologik birliklarni keng qamrovda B.Oʻrinboyev<sup>29</sup>, uslubiy xususiyatlarini B.Yoʻldoshev<sup>30</sup> tomonidan qilingan tadqiqotlarda keng uchraydi.

Xurshid Doʻstmuhammad yetuk soʻz sanʼatkori sifatida soʻzlashuv, ilmiy va badiiy uslub frazeologizmlaridan unumli foydalanib, voqelikni real ifodalash va oʻquvchiga estetik taʼsir etish vazifalarini uygʻun tarzda amalga oshirishga erishgan. Xususan, ijodkor publisistik nutqida qoʻllangan iboralar ijobiy yoki salbiy boʻyogʻi bilan ajralib turadi. Adib bunda yo oʻz munosabatini yoxud tilga olinayotgan shaxs munosabatini ifodalash maqsadida iboralardan foydalanadi. Bunda oʻzganing munosabatini ifodalashda ham oʻzining ushbu “oʻzga”ga munosabati namoyon boʻladi. Masalan, “*Otabek shuurining oniy surati*” nomli maqolasida Otabekning holatini ifodalashda foydalangan: “*U qutidorning eshigiga yana **bosh urib** borishga ahdlanadi. Favqulodda bir shiddat bilan “bevosita oʻzi (Kumush) bilan anglashaymi, deb jasoratlanadi”. Shu payt qutidorning darvozasidan ikki kishi chiqadi. Otabek “bir gap eshitmak havasi”da chiquvchilar ortidan tushadi. Shunda u Kumushning erga berilayotgani, hatto toʻy kuni belgilanganidan xabar topadi*”. Bu yerda *bosh urmoq* iborasini adib Otabekning salbiy holatini ifodalashda qoʻllagan. Shu bilan X.Doʻstmuhammadga xos yana bir xususiyatni ham keltirib oʻtishimiz mumkin. Bu – jurnalist tahlil qilayotgan asarning kerakli jumllarini oʻz maqsadiga mos ravishda xizmat qildirishi: “*Otabek “**bir gap eshitmak havasi**”da chiquvchilar ortidan tushadi*”. “*Saksondan oshgan noskash Qora buvi toʻrt yetimchani bagʻriga olib kir sholcha ustida yotibdi. Uyqu qayoqda! “**tiriklik toshdan qattiq, tuyaning koʻziday non anqoga shapig**” bir zamonda koʻzga uyqu kelarmidi! Olti oy oʻtibdiki, kampir **mijja qoqmaydi**. Toʻrt yetimning ertasini **oʻylab oʻyiga yetolmaydi**” kabi. Bu parchada asardan keltirilgan parchada ham, adibning munosabatida ham iboralarni qoʻllanganini koʻramiz. Quyidagi jumladagi *umidini uzmoq* iborasi yana shunday Otabek ruhiy holati ifodasi uchun qoʻllangan: “*Otabekning soʻnggi **umudlari uzila boshlaydi**; “yel kuchaygandan kuchayib borar” – gʻarazgoʻylar tahdidi **avjga mindi**; Otabekning metin bardoshi ustma-ust bosib kelgan yel boʻkirigʻiga **dosh berolmaslik** xavfi tugʻildi – “Shox-shabbalar qars-qurs sinar”di; nahotki, Otabekning mustahkam irodasi ham – “keksa yogʻochlar gʻiyq-gʻiyq etib yolborish tovushi chiqargandek” zaiflashayozdi; ....” Ushbu parchada yana *avjga***

29 Oʻrinboyev B. Soʻzlashuv nutqi. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 16-18. Oʻrinboyev B. Oʻzbek soʻzlashuv nutqi. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 42-45.

30 Yoʻldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999. – B. 88-96.

*minmoq, dosh bermoq* kabi iboralar ham qo‘llanilib, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan. X. Do‘stmuhammad o‘z maqolalarida iboralarni qo‘llar ekan ularning shaklini o‘zgartgan holda keltirganini ko‘ramiz: “*Otabekning so‘nggi umudlari uzila boshlaydi;*”. Yana boshqa misol “... *Kumushning taqdiri chirkin niyatli kishlar qo‘lida o‘yinchoq qilinayapti:...*” gapida taqdirini o‘yin qilmoq iborasi yuqoridagi holatda keltirilgan.

Adib o‘z publisistikasida achinish, befarqlik, g‘azab, nafrat, hayrat kabi munosabatlarni ifodalashda ham iboralarning nozik ma’no ottenkalaridan mohirona foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “*Najot mahabbatdami yo ... nafratda?*” nomli maqolasidagi parchada yuqorida keltirilgan munosabatlarni quyidagi iboralar bilan ifodalagan. “*O‘zini o‘tga, cho‘qqa uradi*”, “*Eng tuban jinoyatga qo‘l urgan kimsalar ham o‘zlarini oqlovchi dallilar, vajlar topadilar*”, “*Turmush izdan chiqdi*”, “*Ko‘zlari aldamayotgan edi uni:..*” kabilar.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Do‘stmuhammad qalamiga mansub publisistik asarlarda iboralar badiiylikni kuchaytirishdan tashqari, fikrni alohida takidlash uchun ham xizmat qiladi. Uning tahliliy maqolalarida qo‘llangan iboralar kitobxonni asarni yanada chuqurroq tushunib olishda, ularda ifodalangan leksema va iboralarning nozik ma’nolarni tushunishiga yaqindan yordam berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbulardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilshunosligida zamondosh jurnalistlar, jumladan, Xurshid Do‘stmuhammad singari ijodkorlarning publisistik asarlarni tadqiq etish bugungi kundqa dolzarb masalalardan biri hisoblanadi

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘rinboyev B. So‘zlashuv nutqi. – Toshkent: Fan, 1979.
2. O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi. – Toshkent: Fan, 1982.
3. Yo‘ldoshev B. Frazеologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### **ЎЗБЕК ТИЛИ КАСБ-ҲУНАР НОМЛАРИНИНГ ЯСАЛИШИДА ФОРС-ТОЖИК ТИЛИНИНГ ТАЪСИРИ**

**Мухаммадалиева Мадина, НамДУ тадқиқотчиси**

Ўзбек ва форс-тожик тили алоқалари қадимий тарихга эга. Форс-тожик тили тарихда *ижод тили* сифатида ўзбек тили лексикаси, хусусан, поэтик лексикаси тараққиётида муҳим ўрин тутган. Форс-тожик тилидан нафақат сўзлар, балки изофали бирикмалар ва сўз ясовчи аффикслар ҳам ўзлашган ҳамда ўзбек тилида фаол истеъмолда бўлган.

Ўзбек тили касб-ҳунар номлари мавзуй гуруҳи тараққиёти ва лисоний такомилида ҳам бу ёрқин сезилади. Ўзбек адабий тили тарихий тараққиёт босқичларида касб-ҳунар номларининг ясалишини кузатар эканмиз, форс-тожик тилидан ўзлашган *-кор, -гар, -соз, -дўз (дўзи), -каш, -шунос, -бон, -фуруш* каби аффикслар воситасида касб-ҳунар номлари ясалиши фаол бўлганлигини кузатамиз.

*-шунос* аффикси вазифаси жиҳатидан *-чи* аффиксига тўғри келади. Бу

аффикси орқали 30 дан ортиқ касб-ҳунар номлари ясалган: *тилушунос*, *ўсимликушунос*, *тупроқшунос*, *ҳуқуқшунос*, *табиатушунос*, *уруғшунос*, *сиёсатушунос*, *адабиётушунос*, *достонушунос*, *матншунос* каби.

Бу аффикс аслида тожик тилида кўшма сўз ясовчи “*шинос*” бўлиб, ўзбек тилига сўз ясовчи аффикс сифатида ўзлашган эмас, балки тожик тилидан ўзлашган, *жавоҳирушунос*, *шеършунос* каби сўзлар таркибида бўлган. У (“*шинос*”) тожикча *шинхотан* (“*билмоқ*”) феълнинг асоси бўлиб, “*билувчи*”, “*ўрганувчи*” луғавий маъносига эга бўлган[1;66].

Демак, тожик тилидан ўзлашган сўзлар таркибидаги *-шинос* ўзи бириккан сўз билдирган нарсани “*билувчи*, *ўрганувчи*, *у билан шуғулланувчи шахс*” маъносига эга. А.Ҳожиев қайд этганидек, тожик тилидан ўзлашган сўзлардан баъзиларининг *-шинос* кўшилган қисми ўзбек тилида ҳам қўлланади. Бу ҳол уларни ўзбек тилининг ҳам ясама сўзларидек қилиб кўрсатади, яъни, *заришунос*, *шеършунос* сўзлари *шеър* ва *зар* сўзларига *-шинос* ни кўшиш билан ҳосил қилинган ясама шахс оти тасаввурини беради. Шу тариқа ўзбек тилида *-шунос* морфемаси, шахс оти ясовчи *-шунос* аффикси пайдо бўлди. [1;67].

Ҳозирда *-шинос* воситасида касб-ҳунар, мутахассислик, машғуллик отлари ясалади: *тилушунос*, *товаришунос*, *тупроқшунос*, *шарқшунос*, *ҳуқуқшунос* каби.

Ҳозирда *-шунос* кўшимчаси ёрдамида ясалган сўзларнинг баъзилари илгари ясалган *-чи* кўшимчаси ёрдамида ясалган. Масалан, *тарихчи* (*тарихшунос*), *тилчи* (*тилушунос*) каби. Лекин *-чи* кўшимчаси *-шунос* аффиксига хос маънони тўлалигича, аниқ қайд этолмайди. Қиёсланг: *тилчи* (тилдан дарс берувчи ёки тил илми билан шуғулланувчи) – *тилушунос* (тил илми билан шуғулланувчи шахс, олим).

Ҳозирги кунда илм-фаннинг янги-янги соҳалари юзага келиши муносабати билан шу соҳаларга оид шахсни (илм кишиси, олимни) билдирувчи отларни ҳосил қилишда *-шунос* аффикси кенг қўллана бошлади: *санъатушунос*, *матншунос*, *манбашунос*, *хитойшунос* каби.

*-кор* ҳам форс-тожик тилидан ўзлашган кўшимча бўлиб, асосан форс-тожикча, ўзбекча сўзларга кўшилиб, ўзбекча сўзлар ҳосил қилади. Бу кўшимчанинг туб туркий сўзларга кўшилиши ва ўзбекча сўз ясаши унчалик маҳсулдор эмас: *бинокор*, *кандакор*, *бастакор*, *ижодкор*, *санъаткор* каби.

*-кор* аффикси қишлоқ хўжалигида етиштириладиган асосий маҳсулотларни, яъни қишлоқ хўжалигининг тармоғи, соҳасини кўрсатувчи маҳсулотларни билдирадиган сўзларга кўшилиб, асосдан англашилган маҳсулотни етиштирувчи шахс маъноли касб-ҳунар номларини ясайди: *бедакор*, *зигиркор*, *картошкакор*, *полизкор*, *шоликор* каби.

*-соз* аффикси ҳам асли тожик тилидан ўзлашган ясама сўзлар таркибида бўлган. У тожик тилида “*қурмоқ*” маъноли *сохтан* феълнинг ҳозирги замон сифатдош шакли бўлиб, “*қурувчи*”, “*тайёрловчи*”, “*ясовчи*” маъносини билдирувчи касб-ҳунар номларини ясайди: *уйсоз*, *муқовасоз*, *соатсоз*, *тункасоз*, *милтиқсоз*, *кемасоз*, *йўлсоз*, *ёғочсоз*, *ойнасоз* каби.

-*фуруш* аффикси ҳам тожик тилидан ўзлашган бўлиб, сўз ясашиш асосидан англашилган нарсани сотувчи, шу нарса билан савдо қилувчи маъноли касб-хунар номларини ясайди.

Ўзбек тилида “*сотувчи*” деган маънони аниқ ифодаладиган шахс оти ясовчи қўшимча йўқ эди. Бу ҳол -*фуруш* қўшимчасининг ўзбек тилига ўзлаштиришга йўл очган. [1;74]. Бу қўшимча ёрдамида ўзбек тилида 30 дан ортиқ касб-хунар номлари ясалган: *чопонфуруш, кўкатфуруш, эскифуруш, сабзифуруш, картошкафуруш* каби.

-*паз* аффикси ҳам нофаол касб-хунар номини ясовчи қўшимча бўлиб, фақат таом пишириш билан машғул бўлувчи касб отларини яшашдагина қўлланилади: *ошпаз, лагмонпаз, мантипаз, кабобпаз, новвотпаз, ҳалвопаз, сомсапаз* каби.

-*дўз* аффиксининг қўлланиш доираси ҳам чегараланган. Бу аффикс бирор нарсани тикиш билан шуғулланувчи шахс отларини ясайди. *Зардўз, гиламдўз, дўппидўз, мўйнадўз* каби касб отларини яшашда иштирок этган.

-*каш* аффикси касб-кор, машғулот эгаси бўлган шахс номини яшашга хизмат қилади. Мазкур қўшимча, асосан, форс-тожикча ўзлашма сўзлар таркибида учрайди, баъзи ҳоллардагина унинг туб туркий сўзларга қўшилиши кузатилади: *туякаш, чирмандакаш, чизмакаш, термакаш, яловкаш* каби.

-*дор* аффикси тожикча ўзлашма сўзлар таркибида ўзбек тилига кириб, предмет ва белгига эга бўлишлик тушунчасини ифодаловчи қуйидаги маънолардаги отлар яшашда иштирок этган:

а) эгалик ва машғулот маъноси: *чорвадор, боғдор, дўкандор* каби;

б) эгалик ва сақловчилик маъноси: *муҳрдор, мансабдор, жигадор* каби.

-*бон (-вон)* аффикси асос сўздан англашилган предмет ёки объектга эга шахс номини ясайди: *дарвозабон, тарозибон, қўйчивон, боғбон* каби.

-*гар* аффикси яшаш асосида ифодаланган нарса бўйича шахснинг касб-хунарини билдирадиган от ясайди: *заргар, савдогар, мискара, кимёгар* каби. [2; 165].

Таҳлиллардан кўринадик, адабий тилнинг меъёрлашуви ва сайқалланиши унинг барча сатҳларида юз беради. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими, жумладан, касб-хунар номлари ясашиши ҳам шундай жараёнларни кечирган. Ўзбек ва форс-тожик тиллари контакти асосида ўзбек тилига сўз ясовчи қўшимчалар қаторида шахс оти, жумладан, касб-хунар номлари ясовчи қўшимчалар ҳам ўзлашган, бир муддат фаол истеъмолда бўлган, ҳозирга келиб истеъмол доираси чегараланган, нофаол қўшимчаларга айланган. Бу, албатта, тилнинг тараққиёти эскириш, сайқалланиш, янгиланиш асосида кечишини яна бир бора исботлайди.

#### **Адабиётлар:**

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.
2. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Бухоро, 2001.

## FRAZEOLOGIZMLAR MATBUOT TILIDA MUHIM VOSITA

Raximova M, SVXTXQT va MO

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning turli xususiyatlari atroflicha o'rganilgan. Bu sohada taniqli tilshunos olim Sh.Rahmatullayevning xizmatlari nihoyatda katta. Olimning bir qator monografiyalari, darslik va qo'llanmalari, lug'atlari beqiyos manba hisoblanadi<sup>31</sup>. Frazeologizmlarning qator xususiyatlarini o'rganishda H.Berdiyev, I.Qo'chqortoyev, A.Mamatov, R.Rasulov, B.Yo'ldoshev va boshqa olimlarning xizmatlarini ham alohida qayd etish mumkin.

Frazeologizmlarning funksional - uslubiy xususiyatlarini o'rganish sohasida B.Yo'ldoshevning "Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasi muhim ahamiyatga ega<sup>32</sup>. A.Mamatovning doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning adabiy me'yor bilan bog'liq xususiyatlari atroflicha o'rganildi.

B.Yo'ldoshev, D.O'rinboevaning "O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati"<sup>33</sup> o'zbek tilshunosligida yaratilgan folklor asarlari tilining, xususan, frazeologik lug'atining dastlabki tajribadagi ilk namunasi deyish mumkin. Lug'atni yaratishda mualliflar Fozil shoirning "Alpomish", "Rustam" va Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Ravshan dostonlari matnini (jami: 28499 ta so'zshaklni) asos qilib olgan. Har bir dostonning umumiy matn hajmi xilma-xil: "Alpomish"da – 14029, ya'ni 49,2% ni; "Ravshan" dostoni – 7059, ya'ni 24,7% ni; "Rustam" dostoni – 7411 so'z shakli 26,2 % ni tashkil etadi. Matnlarni qayta tekshirish jarayonida mualliflar mazkur matnlarda jami 1041ta frazeologik birliklar qo'llanganligini, ular xalq dostonlari matnida 1641 marta qaytarilganligini aniqlaganlar. Mualliflardan birining axborot berishicha, "Alpomish" dostonida qaytalanish chastotasi 2007 so'zshaklida bo'lib, umumiy tanlama hajmining 14% ni, "Ravshan" dostonida 534 so'zshakli umumiy tanlama hajmining 7,5% ni, "Rustam" dostonida 647 so'z shakli umumiy tanlama hajmining 8,7% ni tashkil etadi<sup>34</sup>.

Lug'at mualliflarning yutug'i shundaki, tanlangan dostonlardagi frazeologik birliklarning natijalarini SH.Rahmatullayevning lug'ati<sup>35</sup> bilan solishtiradi, faqat uchta doston matnida qo'llanilgan 189 ta iboralarning ta'kidlangan lug'atda uchramaganligini aniqlaydi. Tuzilishiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'lgan bu lug'atning dastlabki qismida o'zbek xalq dostonlari matnida frazeologizmlarning qo'llanish chastotasi qiyosiy yo'nalishda alifbo tartibida berilgan bo'lsa, keyingi qismida dostonlar matnida qo'llanilgan frazeologizmlarning qisqacha izohli lug'ati o'rin olgan. Tabiiyki, frazeologik birliklarning lingvostatistik aspektida tadqiq

31 Qarang: Raхmatullaev Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 408-б. Шу муаллиф. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. - Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992, 380-б.

32 Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-усlubий хусусиятлари: Филол.фан.докт. ...дис. автореф. - Тошкент, 1993, 49-б.

33 Yo'ldoshev B., O'rinboeva D.. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. - T.:O'zME, 2008. - 100 b.

34 Ўринбоева Д. Дostonлар тилида фразеологик birlikлар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Т.: 2007, №6. - 87-90-б.

35 Рахmatullaev Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Т.:Ўқитувчи, 1978. - 408 б.

etilishi folklor tili bilan bogʻliq boʻlgan barcha nazariy va amaliy masalalarni hal etishda bu lugʻatning ahamiyati juda katta.

Frazeologizmlar matbuot tilida ham muhim vosita ekanligi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Masalan, oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlarning jurnal tilida ishlatilishi birinchi bor A.Abdunazarov tomonidan maxsus oʻrganilgan. Frazeologizmlarning gazeta tilida qoʻllanishi A.Abdusaidov tomonidan tadqiq etilib, qoʻllanmalari yaratildi. B.Yoʻldoshev va B.Mirzayevning «Oʻzbek tilida frazeologizm sarlavhalarining stilistik xususiyatlari haqida (Matbuot materiallari asosida)» nomli maqolasi gazeta sarlavhalarining xususiyatlarini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega boʻldi<sup>36</sup>.

“*Koʻngil obidasiga yoʻl*” (OʻzAS, 2011, 6 may, Shodmonqul Salom), “*Oqila ayol sharofati*” (OʻzAS, 2013, 1 mart, Alinazar Egamnazarov) kabi sarlavhalar bunga misol boʻla oladi. Keltirilgan misollarning eʼtiborni tortishi ularning sarlavhabopligida, yaʼni ixcham, mazmunli va taʼsirchanligida koʻrinadi. Bunday sarlavhalar, koʻpincha, lavha, maqola, tanqidiy maqola janrlarida ishlatilgan boʻlib, ularning matn bilan uygʻunligi ham diqqatga sazovordir.

Tadqiqotchilar qayd etganidek, kam qoʻllanuvchan iboralarni sarlavha sifatida ishlatish gazetxon diqqatini tortishga, materialga eʼtiborni qaratishga sabab boʻladi. Yuqoridagilar kabi sermazmun, ixcham frazeologizmlar sarlavha vazifasida koʻplab ishlatilgan.

Gazetalarda qoʻllangan frazeologizmlarning deyarli hammasi oʻrinli tanlanganligi, sarlavhabopligi bilan ortiqcha mulohazalarga oʻrin qoldirmaydi. Sarlavha sifatida ixcham, mazmunli iboralarni tanlash aynan ishlatish frazeologizmning taʼsir kuchini oshiradi, gazetxon nutq madaniyatini oshirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Gazeta sarlavhalari orasida frazeologizmga ifodalangan maʼnoni yanada aniqlashtirish maqsadida ayrim soʻzlar qoʻshib ishlatilganlari ham uchraydi. Frazeologizmlar ifodalagan yaxlit maʼno nisbiy boʻlib, u, albatta, biror holat, xususiyat haqida toʻliq tushuncha bermaydi. Baʼzan konkretlashtiruvchi soʻz qoʻllash lozimligi sezilib qoladi. Gazetalarning sahifalarida ibora ifodalagan maʼnoni toʻldirish, konkretlashtirish maqsadida sarlavha sifatida ishlatilgan frazeologizmlarga mos soʻzlar qoʻllanilgan. Bu bilan frazeologizmning taʼsirchanligi oshirilgan, maʼno aniqligi taʼminlangan. Frazeologizmdan sarlavha sifatida va matnda taʼsirchan vosita sifatida foydalanish materialning oʻqimishlilikini taʼminlagan.

Frazeologizm - sarlavhada ifodalangan maʼnoning matnda uni aynan takrorlash yoki qisman maʼnosini berish orqali singdirilishi, yo boyitilishi materialning taʼsirchanligi, oʻqimishlilikiga xizmat qiladi. Frazeologizmlar sarlavha vazifasida mazmunni yaxlit, nisbatan toʻla ifodalashi, ixchamligi bilan diqqatni tortadi.

---

<sup>36</sup> Ёўлдошев Б., Мирзаев Б. Ўзбек тилида фразеологизм сарлавҳаларнинг стилстик хусусиятлари ҳақида (Матбуот материаллари асосида) // Ўзбек тили стилстикаси ва нутқ маданияти масалалари. - Самарқанд: СамДУ, 1982, 109-114-б.



Frazeologizm va maqol-sarlavhalar o'z emotsional-ekspressiv xususiyatlari bilan ta'sirchanlikni ta'minlashga, gazeta materialining mazmunli yozilishiga, axborotni dastlab yorqin aks ettirish bilan gazetxonni jalb qilishda muhim vosita rolini bajarmoqda. Maqol-sarlavhalarning jurnalist mahorati tufayli turli shakllarda berilishi gazetaning xalq jonli tiliga yaqinligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Esse janri bo'yicha dastlabki tahlillarimizdan ma'lum bo'ldiki, tadqiqotchi olimlar ham qayd etganidek, e'tiborni ko'p tortmaydigan, ko'p qo'llanuvchan ayrim til birliklari sarlavha sifatida ishlatilmoqda. Ba'zi sarlavhalar imlosida xatolar bor (masalan, undalmani vergul bilan ajratmaslik, frazeologizm yoki maqolni sarlavhada qo'shtirnoqqa olish kabilar).

Gazeta sarlavhalarining qo'llanishini o'rganish jurnalist mahoratini tadqiq etishning ajralmas qismidir. So'z, so'z birikmasi, gap, maqol va frazeologizm – sarlavhalarning ekspressiv-stilistik maqsadda o'rinli yoki noo'rin qo'llanishini baholash, imlo qoidalariga rioya etilishini yoritish jurnalistlarning mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, gazeta materialining o'qimishliligi, mazmunliligi, ta'sirchanligi ta'minlanadi.

## МЕХРЖОН ГЕОРТОНИМИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Солихўжаева Ҳавасхон, НамДУ докторанти

Ономастикада ҳар қандай байрам, фестиваль, хотира кунлари ва маросимлар, тадбирларга берилган атоқли номлар **геортоним** (юн. *georto* – байрам + *opoma* – ном)лар деб аталади [1, 24]. *Мехржон* ҳам Шарқ, жумладан, туркий халқларга хос мавсумий байрамлардан бирининг атоқли номи сифатида геортонимдир.

*Мехржон* геортоними тарихий-этимологик манбасига кўра форсча бўлиб, унга “*қуёш, офтоб*” маъноларини англатувчи *мехр* ва *жон* birlikлари луғавий асос бўлган. Шу боис ҳам Абу Райҳон Беруний “Қадимий халқлардан қолган ёдгорликлар” номи асарида “*Мехржон*” сўзини “*қуёш*” ва “*жон севгиси*” деган маънолар билан боғлаб талқин қилган. Бу бежиз эмас, албатта, чунки энг қадимги даврларда кўпгина ибтидоий халқлар қатори ўрта осиеликлар ҳам қуёшга сиғинишган. Бу ҳақда “тарих отаси” номи билан танилган юнон олими Геродот: “Ўрта осиеликлар “худолардан фақат қуёшни эъзозлайдилар, унга отларни қурбонлик қиладилар”, – деган.[2, 55]

Қуёш номини кишилар ва муқаддас жойларга қўйганлар. Масалан, қадимий хоразм тилида қуёшни “Хвара” деб атаганлар. Аждодларимиз бу ўлкага “Хворазем” (кейинчалик “Хоразм”) номини беришган. Кўплаб байрамлар номига ҳам “хвара” сўзини қўшишиб, уларни “*Бобохвара*”, “*Амехвара*” деб атаганлар. Тарихий манбаларда қуёшга бағишлаб махсус байрамлар ўтказилгани ҳам қайд қилинади. Чунончи, шимолда яшайдиган таймирликлар ҳозир ҳам “Қуёш байрами” ўтказадилар. Бу байрам уларнинг энг катта тантанали байрами ҳисобланади.

Куз мавсумида нишонланадиган байрамлардан бири *Меҳржон* бўлган. *Меҳржон* Хоразмда – *Чири-руж*, суғдийларда – *Ним-сарда* деб аталган.

Геортоним манбаларда *Меҳржон*, *Меҳргон* вариантларида учрайди. Бу байрам ҳақида Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асарининг изоҳлар қисмида куйидагилар ёзилган: “Меҳргон эронликларнинг кузги байрами, меҳр ойининг 16-куни, кузги кеча-кундуз тенглигида келади”[3,721].

“Меҳржон” ўша замонларда энг йирик байрам бўлиши баробарида, у бошқа байрамлар билан ҳам бевосита боғлиқ бўлган. Хусусан, “Наврўз” ва “Меҳржон” зардуштийлар йилномасида бир-бирига файз бериб, икки дурдек чакнаб турган. Шунинг боис Абу Райҳон Беруний икки байрамни ўзаро таққослаб, “Қуёш ва Ой фалакнинг худди икки кўзи бўлганидек, *Наврўз* ва *Меҳржон* замоннинг икки кўзидир”, – деб ёзади.

Маълумки, барча муҳим ҳодисаларнинг яхши ниятлар билан бошланиб, муваффақиятли яқунланиши кишиларга байрам кайфиятини бағишлайди. Кишилар табиат уйғониши, далаларда иш бошланишини “Наврўз” сифатида тантана қилганлар. Шу боис *Наврўз* геортоними айрим манбаларда “*Йилбоши*” деб аталади.

Ўсимликлар дунёсининг ўсишдан тўхтаб, “уйқуга кетиши” ва меҳнат мавсуми яқунланишини “Меҳржон”, яъни “Йил ярми” деб нишонлаганлар. Бу байрамлар кимлардир томонидан шунчаки ўйлаб топилмаган. Улар коинот, табиат қонуниятлари, Қуёш ва Ер ўртасидаги муносабатлар асосида вужудга келган. “Наврўз” геортоними баҳорги кун-тун тенглиги, “Меҳржон” куздаги ўша ҳолат мотивациясига асосланган.

Баҳорда кичик ва катта Наврўз бўлганидек, Умри (Меҳрмоҳ) ойининг 16-кунида *Кичик Меҳржон* ҳамда 21-кунида *Катта Меҳржон* байрами ўтказилган.

“Меҳржон” байрами, бир томондан, коинот ва ерга жон ато этиб турган қуёшни қадрлашга даъват қилган, иккинчидан барчани қиш ғамини ейишга ундаган. Бу, албатта, геортонимнинг ижтимоий-лисоний моҳиятидан далолат беради.

Ўрта асрларда Меҳргон муҳим байрамлардан бири сифатида нишонланиб келинган. Баъзи мамлакатларда Меҳргон давлатнинг расмий байрами сифатида ўтказилган [4,638].

Меҳржон қадимги деҳқончилик маданияти билан боғлиқ байрамдир. Мусулмон уламолари бу байрамни зардуштийликка дахлдор удумлар деб, ўтказилишига қаршилик кўрсатишган. Шу боисдан бўлса керак, Меҳржон байрамини ўтказилишига қаршилик кўрсатишган. Шу боисдан бўлса керак, Меҳржон байрамини нишонлаш аста-секин тўхтаган.

Аждодларимизнинг асосий байрамларидан бири бўлиб келган – “Меҳржон” кейинги минг йил ичида алоҳида байрам сифатида кенг нишонланмай қўйилган бўлса-да, у бутунлай йўқолиб кетмади.

“Меҳржон” куз ва ҳосил байрамларига бўлиниб кетди. Ҳосил байрами – кеч кузда қишлоқ хўжалик экинлари ҳосили йиғим-терими тугагандан ўтказиладиган байрам.

Ўзбекистонда *Ҳосил байрами* 1972 йилга қадар *Пахта байрами* деб аталган [5, 377].

Бугунги кунга келиб қадимий байрамлар каби “Меҳржон”ни ҳам тикланди. XX асрнинг 90-йилларидан Меҳржон дастлаб Тожикистонда, сўнг Ўзбекистонда қайта нишонлана бошланди. [4, 638]. “Меҳржон” Тошкент шаҳри Марказий болалар истироҳат боғида ҳар йили куз фаслида ўтказилмоқда.

Ўзбек тилида куз фаслининг ўртасида туғилган болага “меҳрли, мурувватли, ҳимматли” бўлсин дея *Меҳржон* исмини бериш анъанага айланган [6,231]. Масалан, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг Моҳим Бегим (айрим манбаларда Меҳрбегим)дан кўрган кизи *Меҳрижаҳон // Меҳржон Бегим* деб аталган. [7, 337].

Меҳржон исми “*Меҳржонда туғилган “меҳрли, мурувватли, ҳимматли қиз”* антропонимик маъносига эга.

*Наврўз, Меҳржон* геортонимлари инсонларнинг она табиатга, она заминга, ватанга бўлган муҳаббати ифодаси сифатида юзага келган миллий-маданий байрамларнинг атоқли номи сифатида лингвокультуремалар сирасига мансуб бўлиб, байрамлар билан боғлиқ инсоний эзгуликлар бардавомлигини таъминлайди, ёш авлодда ана шундай эзгу хислатларни тарбиялашга хизмат қилади. Бу геортонимлар ҳам тилнинг лингвомаданий бирлиги сифатида байрамларни аташ, бошқасидан фарқлаш, у ҳақидаги билимлар, маълумотларни асрлардан-асрларга, авлодлардан-авлодларга етказиш каби номинатив, коммуникатив, кумулятив лисоний вазифаларни бажаришидан далолат беради.

#### **Адабиётлар:**

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. История Узбекистана в источниках. – Ташкент: Фан, 1984.
3. Фирдавсий. Шоҳнома. Тошкент, 1975.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 5-ж.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 11-ж.
6. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1998.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Sharq, 2014.

## **O‘ZBEK TILI VA O‘ZLASHMALAR**

### **Xojamuratova Gulimxan, 1- sonli Toshkent akademik litseyi**

Dunyoda bironta ham sof til yo‘q. U tildan bu tilga so‘z o‘zlashtirish bu qonuniy hodisa sanaladi. O‘zbek xalqi asrlar davomida yonida yashagan boshqa xalqlar bilan ijtimoiy va siyosiy, madaniy aloqalar olib borgan. Xalqaro aloqalarning

kengaya borishi, millatlar muvaffaqiyat va yutuqlarining samimiy umumlashuvi, ayniqsa, fan, madaniyat, sanoat, siyosat va xalq xo'jaligi sohalaridagi ilg'or tajriba almashuvlar, dunyoning turli burchaklaridan kelgan xabar va ma'lumotlarni har kim o'z ona tilida qayta ishlab chiqishi kabi obyektiv va zaruriy omillar tillar rivojiga, ular lug'at tarkibining tashqi manbalar hisobiga boyib borishiga barakali ta'sir qilgan.

Fan-texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. SHu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko'proq kirib kelgan bo'lsa, shu soha terminologiyasi to'xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Shu yo'llar bilan xorijiy tillardan so'z o'zlashtirish hozirda ham davom etmoqda. Oldinlari o'zbek tili faqat rus tilidan va u vositasida boshqa tillardan so'z o'zlashtirgan bo'lsa, hozirga kelib bu jarayon to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirilmoqda.

Globalashuv jarayonida so'zlarning o'zlashuvi o'zbek tiliga chet tillari bilan rus tilisiz kontaktga kirishmoqda. Masalan, *lisey, kollej diller, menejer, birja, konsept, kompetensiya* kabi so'zlar buning isbotidir. *Damas, tiko, neksiya, matiz, kompyuter, video, aerobus, Internet, WiFi* kabi so'zlar esa butungi hayotimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlarni, yangiliklarni ifodalamoqda.

*Makroiqtisodiyot, mikroiktisodiyot, injenering, marketing, monitoring* kabi so'zlar iqtisodiyot atamaları sifatida allaqachon tilimizga singib bo'ldi. *Bakalavr, magistr, raqobatbardosh, kadr, akademik lisey, kasb-hunar kolleji* kabi atamalar esa ilm-fanga tegishli sanaladi.

Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tilgan: - terminlarning ko'p ma'noliligi; - terminlar sinonimiyasi; - ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligi; - terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylik; - terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlanishi; - termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning etishmasligi; - termin talaffuzining noqulayligi. Bu ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy termini yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari yetarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy termini o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondashilmaydi.

Har doim boshqa tillardan termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim.

Lug'atlar, jurnal va gazetalar sahifalaridan to'plangan misollardan ma'lumki, o'zbek tilida ingliz tiliga mansub bo'lgan so'zlardan hozirgi kunda foydalanilmoqda. Ulardan ayrimlari kundalik hayotimizda tez-tez uchrab tursa,

ba'zilar ayrim soha terminlari sifatida onda-sonda qo'llanadi. Masalan, **ijtimoiy-siyosiy sohaga oid so'zlar**: *trek, trest, tunnel, banknot, demping, import, klub*.

**Seyf** - [r-ingl]. Pul, hujjat va boshqa qimmatbaho narsalar saqlanadigan mustahkam shkaf, quti; po'lat sandiq.

**Teletayp** - [r-grek-ingl]. Yozuv mashinkasiga o'xshash klaviaturali telegraf apparati.

**Fanga va uning turli sohalariga oid**: *aysberg, albatros, kenguru, alfavit, fonetika, morfologiya*.

**Blok** - [r-ingl]. 1. G'altak va uning ariqchasidan o'tkazilgan arqon yoki zanjirdan iborat eng sodda yuk ko'taradigan mashina. 2. Ayrim davlatlar, partiyalar, tashkilotlar yoki kishilarning biror umumiy maqsadda birgalikda harakat qilish uchun tuzilgan ittifoq.

**Vatman** -[r-ingl]. Chizma chizish va rasm solish uchun ishlatiladigan yuqori navli qalin oq qog'oz.

**Texnika va transportga oid**: *traktor, tramvay, tranzistor, buldozer, bunker, bufer, ballast, babbitt, kater, kombayn*.

**Chizel** - [r-ingl]. Yer yumshatadigan, bir necha tishlari bo'lgan dehqonchilik quroli.

**Eskalator** - [r-ingl]. Metro, katta magazin va sh.k.da odamlarni yuqoriga chiqarish va pastga tushirish uchun xizmat qiladigan o'ziyurar zina.

**Spidometr** - [r-ingl]. Avtomobil, motoksikl harakat tezligini va bosib o'tilgan yo'lini ko'rsatuvchi asbob.

**Sport sohasiga oid**: *boks, bosketbol, vaterpolo, gol, futbol, gandbol*.

**Futbol** - [r-ingl]. Ikkita komandaning qarshi tomon darvozasiga oyoq yoki bosh zarbi bilan ko'proq to'p kiritish maqsadida o'tkaziladigan sport o'yini.

**Xokkey** - [r-ingl]. Muz maydonida yoki maysa ustida raqib tomon darvozasiga to'p yoki shayba kiritishdan iborat sport o'yini.

**Chempion** - [r-ingl]. Sport musobaqalarida, o'yinlarda g'olib chiqqan, birinchi o'rinni egallagan kishiga beriladigan unvon va shu unvonga ega bo'lgan kishi.

**Snayper** - [r-ingl]. Maxsus ta'lim olgan mergan, mohir otuvchi.

**Sport** - [r-ingl]. Sog'likni mustahkamlashga va jismoniy jihatdan har tomonlama o'sishga qaratilgan badan tarbiya mashqlari, o'yinlari, kurash, turizm va sh.k. majmui.

**Harbiy sohaga oid**: *tank, blakada kabi*.

**Tank** - [r-ingl]. Zerhlangan, to'p va pulemyotlar bilan qurollangan, har qanday og'ir yo'lda ham yura oladigan gusenisali harbiy mashina.

**Blokada** - [r-ingl]. 1. *harb*. Dushman shahri, qal'asi, ayrim qismi yoki butun territoriyasini qurshab olish, qamal qilish; qamal holati, muhosara. 2. *siyos*. biror davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan yakalab qo'yishga, uning boshqa davlatlar bilan aloqasini uzishga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy tadbirlar sistemasi.

**Pazandachilikka oid so'zlar**: *bifshteks, xot-dog*.

**Bifshteks** - [r-ingl]. Qovurilgan mol go'shti va qayladan iborat quyuc ovqat.

Xulosa qilib aytganimizda, tilimizda ayni bir termini birdan ortiq tushuncha uchun qo'llash, bir tushunchani turli terminlar bilan atash, variantlilikning mavjudligi, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan terminlarning tushuncha mohiyatini to'g'ri aks ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi terminlarning noqulayligiga sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi, xorijiy terminlarning keragidan ortiq darajada qo'llanishi, ayrim terminlarning yozilishidagi har xillik kabi terminologiyaning yetakchi tendensiyasiga zid keluvchi holatlar ko'plab uchraydi. O'zbek terminologiyasidagi bunday salbiy holatlarning mavjudligi sohaviy terminologiyalarni tartibga solish borasida hali ko'p ishlar qilinishi lozimligidan dalolat beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdiev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili.DDA., -T, 2004
2. Ne'matov H. R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T, 1995.
3. Dadaboev H. Voennaya leksika starouzbekskogo yazыka.-T., 1992.

### **UMUMIY TILSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKDA MODELLASHTIRISH METODIDAN FOYDALANISH**

#### **Joongbu universiteti Koreys tili fakulteti talabasi Raxmatullaeva Laziza**

**Umumiy tilshunoslik** – tilshunoslikning, xususiy tilshunosliklardan farqli ravishda, tilni umuman insonga xos hodisa, insonning ajralmas qismi sifatida o'rganuvchi bo'limidir. Umumiy tilshunoslikning asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi – xususiyatlarni aniqlash va yoritishdir. Bu vazifa ayrim tillar va til guruhlari yuzasidan kuzatishlarni umumlashtirish; til qurilishining, tabiiy va mashina tillari semantikasi va sintaksisining, shuningdek, fonetikaning faqat tabiiy usullaridan foydalanish demakdir.<sup>37</sup> Umumiy tilshunoslik fani doirasida tilning tabiati va mohiyati, til va tafakkur, til va nutq, tilning tarkibiy tuzilishi, til tizimini anglash, tilning paydo bo'lishi, tillarning morfologik (tipologik) va genealogik tasnifi, tillarni ilmiy o'rganish metodi, tilda shakl va mazmun kabi muammolar o'rganiladi. Bulardan til va nutq, tilni tekshirish metodi, tilda shakl va mazmun muammolari *“Umumiy tilshunoslik”* fani nomi bilan kelgan muammolar esa *“Tilshunoslikka kirish”* fani nomi bilan bog'liq. Umumiy tilshunoslikning tarkibiy qismi hisoblangan tilshunoslikka kirishda til haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi, tilshunoslikda qo'llanadigan asosiy ilmiy termin va tushunchalar bilan tanishtiriladi, tilshunoslikning asosiy qismlarini va xususiy tilshunoslikda o'rganiladigan masalalarni o'zlashtirish uchun nazariy asos beriladi. Yuqoridagilarga ko'ra *“Umumiy tilshunoslik”* termini keng va tor ma'nolarda tushunish to'g'riroq bo'ladi. Umumiy tilshunoslik tilshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar hamda tabiiy fanlar, xususan, biologiya va matematika bilan aloqasini ham o'rganadi. Bunda aynan modellashtirish metodidan foydalanishimiz o'rindir. Model tushunchasi lotincha *“modelus”* so'zidan olingan bo'lib, tabiiy

---

<sup>37</sup> Umumiy tilshunoslik/ maruza 2017 yil

fanlar yoki umumiy fanda shunday moddiy qurilma sifatida tushuniladiki, unga muayyan obyekt haqida ma'lumotlar kiritilganda hosila sifatida yana shu obyekt mukammal yuzaga keladi. Soddaroq qilib aytganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir ya'ni u o'zbek tilidagi qolip va andoza so'zlariga mos keladi. U hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o'taydi va aniq yoki mavhum obyektlar kichraytirilgan obyektlar va sxemalarda tadqiq etiladi. Model quyidagi asoslarga ko'ra muhim hisoblanadi:

1. O'rganish obyektini soddalashtiradi;
2. Uni boshqa obyektlar ta'siridan ajratadi;
3. Model obyektini ta'riflashni osonlashtiradi.

Modellashtirish har bir fan obyektini soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o'rtasida munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun juda katta ahamiyatga ega. Modellashtirish barcha fanlar uchun xos bo'lgan umumilmiy metod hisoblanadi va quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- Deduktivlik - mantiqiy hulosani chiqarishga asoslangan bo'ladi, xususiylikdan umumiylikka tamoyili asosida bo'ladi;
- Tafakkur eksperimentdan foydalanish;
- Modelni ideallashtirilgan obyekt sifatida talqin qilish.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, modellashtirish obyektini umumlashtirish darajasiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

1. Lingvistika faktini tavsiflashga qaratilgan analitik model.
2. Oraliq model yoki to'ldiruvchi model.
3. Maksimal umumlashtirishga asoslangan sintezlovchi model<sup>38</sup>.

Lingvistik model tushunchasi struktur tilshunoslikning E. Sepir, L. Blumfeld, Harris, Hokket kabi namoyondalar tomonidan kirib kelgan. Uning taraqqiyoti esa XX asrning 60-70 yillariga kibernetik lingvistika rivojlanayotgan yillarga to'g'ri keladi. Lingvistik modelni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Inson nutqiy faoliyati modellari. Bu modellar konkret nutq jarayonini va hodisalarni aks ettiradi. Masalan, aniq bir tovushning talaffuz modeli yoki nutqning yuzaga chiqish modeli.
- Lingvistik tadqiqot modellari. Bunda muayyan til hodisalari asosida olib borilgan tadqiqot jarayonini aks ettiradi.
- Metamodellar – bunda lingvistik modellar saralanadi, u gipotetik – deduktiv xarakterga asoslangan bo'ladi, o'ta abstraktlashgan va ratsionallashgan bo'ladi.

Modellashtirish metodi ayrim tillarda, jumladan ingliz tilida faol tatbiq qilingan. O'zbek tilida soda gap qurilishi: **S+O+V** ya'ni **Men kitob o'qidim**.

---

<sup>38</sup> Shemakin.YU.I, Kompyuter lingvistikasi -1992 yil

*S= ega, O=to'ldiruvchi, V=kesim.*

Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilida qo'shma gapning eng kichik modeli quyidagicha bo'ladi; **S1+V1 S2+V2: Bahor keldi, ishlar qizib ketdi.**

Ingliz tilida soda gap qurilishi quyidagicha belgilangan:

**S+V+O: I am writing a research work.**

Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikda faol tatbiq qilina boshlandi. Bugungi kunda aynan tilshunoslik elektronik qurilmalar bilan uzviy bog'liq bo'lib bormoqda bunda aynan quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin;

**Avtomatik tarjima** – berilgan matnni bir tildan boshqa tilga qisqa vaqt ichida tezkor tarjima qilish tizimi.

**Til o'qitishni avtomatlashtirish** – xorijiy tillarni kompyuter yordamida o'qitilish tizimini ta'minlovchi amaliy dasturlar hamda bilimlarni avtomatik baholash mexanizmlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi kunda har bir fan yuzasidan bilimlarni mustahkamlash va jadallashtirishga erishish imkoniyati yuqori suratlarda o'sib bormoqda. Xususan, tilshunoslik sohasiga nazar soladigan bo'lsak, yuqorida keltirib o'tilgan modellashtirish tizimi qisqa vaqt ichida juda ko'p ma'lumotlarni olishni va tilni yanada mukammal o'rganishning eng yaxshi va samarali usullaridan biridir. O'z ona tilimiz boyligi birgina so'zning turli xil ma'nolari borligi bu boshqa tillardan ajralib turadigan eng katta farqlaridan biridir. Birgina **osmon** so'zining **falak, samo, gardun, charx, fazo, ko'k, arsh** kabi ma'nolari mavjud. Tilshunoslik fani taraqqiyoti sifatida metodlarni oqilona foydalanishimiz va o'z hissamizni qo'shishimiz lozimdir.

**Adabiyotlar:**

1. Shemakin.YU.I Kompyuter lingvistikasi /1992 yil.
2. Umumiy tilshunoslik maruza /2017 yil.
3. Ziyonet.com internet sayti.

## **“БОБУРНОМА” АСАРИ ТИЛИДА ФОРСЧА КЕЛИШИК ВАЗИФАСИНИ БАЖАРУВЧИ СЎЗЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ**

**Сунатулла СОЙИПОВ, ЖДПИ доценти Г.Имомова ЖДПИ магистри**

XV аср охири ва XVI аср бошларига келиб, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ўзининг мемуар асари бўлмиш “Бобурнома”ни ўзбек адабий тилида яратди. Биз уни ўқир эканмиз, асар тилида ўша давр ўзбек адабий тилида истеъмолда бўлган форсча ўзлашма сўзлар ва луғавий бирликлар ҳам кўплаб учрайди.

Шу билан биргаликда Бобур мазкур асари тилида форсча келишик маъносини ифодаловчи “аз”, “бар”, “дар” каби кўмакчилардан ҳам керакли жойда ўзбек тили келишик кўшимчалари ўрнида ўларга эквивалент ёки сеноним тарзида қўллаганки, улар асар тилининг жозибадорлигини, халқчиллигини, синонимик жиҳатдан ранг-баранг бўлишини таъминлаган.



Масалан:

“Дағи Ҳисорнинг баҳор ёгинлари жиҳатидин ҳам черик ҳоли аз ташвиш эмас эрди”.

“Бу икки ой, икки ярми ойдан ғайраз сиёсат ва нақб солмоқ, саркуб кўпормоқ ва тош отмоқдин ўзга яхши уруш солмади”<sup>1</sup>.

“Бобурнома”дан мисол тариқасида келтирилган ушбу иқтибосларнинг биринчисида форсча “аз” олд кўмакчиси –дан келишик, кўшимчаси ўрнида қўлланилган.

Одатда бундай кўмакчилар гапларда форсча сўзлар билан бирга келиши керак эди, лекин ушбу гапда муаллиф мазкур кўмакчини ўзбекча бўлган “ташвиш” сўзи олдидан қўллаб, ўша даврдаёқ форсча кўмакчилардан ўзбек адабий тилида фойдаланиш бўйича ўзига хос янги бир усул яратган ва уларни ўз ўрнида қўлаш ҳисобига асар тилининг ифодалилиги ва таъсирчанлигини кучайтирган. Буни биз асардан намуна сифатида келтирилган гапларнинг табдили мазмуни мисолида ҳам кўришимиз мумкин.

Иқтибос:

“Доғи Ҳисорнинг баҳор ёгинлари жиҳатидан ҳам черик ҳоли аз ташқиш эмас эрди”.

Мазмуни:

“Ҳисорнинг яна ёққан баҳор ёмғирлари туфайли кўшиннинг аҳволи бу ташвишдан ёмон эмас эди”.

Навбатдаги гапда эса форсча “аз” олд кўмакчиси “ғайр” сўзи ортидан кўшилган ҳолда “ғайраз” шаклида қўлланилган. “Ғайраз” сўзи форс тилида мураккаб кўмакчи ҳисобланади<sup>2</sup>. Ушбу сўз таркибидаги форсча “ғайр” ўзбек тилида “бошқа” каби маънони ифодаловчи сўз бўлиб, “ғайраз” шаклида эса “-дан бошқа” каби мазмунга эга бўлган сўз ҳисобланади.

Демак, “ғайраз” кўмакчиси форс тилида қандай маънони ифодаласа, Бобур ҳам ушбу сўзни худди шундай маънода қўллаганлигини гапнинг мазмунидан ҳам англаб олишимиз мумкин.

Иқтибос:

“Бу икки ой, икки ярим ойдан ғайраз сиёсат ва нақб солмоқ, саркуб кўпармоқ ва тош отмоқдин ўзга яхши уруш солмади”.

Мазмуни:

“Бу икки, икки ярим ойда тош отмоқ, тош-кўпормоқ, ер кавламоқ ва кўрқтимокдан бошқа тузукроқ бир уруш бўлмади”.

Шунингдек, мутафаккир яна ўз асари тилида форсча “дар” олд кўмакчисини ўзбек тилидага айрим келишик кўшимчаларига эквивалент сифатида қўллаган, натижада ушбу кўшимча ҳам асар тилининг ўша давр халқ тилига яқинлигини таъминлашда хизмат қилган. Масалан: “Бу кунларда Маҳди Хожанинг кишиси пай-дарпай” кела бошладиким, Роно Сангонинг

<sup>1</sup> Ўша асар. –Б., 35, 34, 28.

<sup>2</sup> Абдусаматов М. Форс тили. Шарқ,тошкент, 2007. –Б., 212.

келури таҳқиқ бўлди”. “Ушбу даранинг ичида ҳар ердаким, сув кенгрок бўлиб эди, буюрдимким, тошларини тарош қилиб, даҳи – дардах қилғайлар”<sup>3</sup>.

“Бобурнома”дан келтирилган мазкур иқтибосларнинг ҳар иккаласида ҳам форсча “дар” олд кўмакчиси жуфт сўз таркибида қўлланилган бўлиб, биринчи гапда “пай-дарпай” шаклида келган. Ушбу пай-дарпай сўзи асли форсча бўлиб, жуфт равиш ҳисобланади ва “дар” олд кўмакчиси иккала бир хил сўзни, яъни “пай” сўзини бир-бири билан боғлаб жуфт сўзни ташкил этган. “Пай-дарпай” сўзининг лексик маъносига эътибор қаратадиган бўлсак, “пай” форсча “пой” сўзининг морфологик жиҳатдан бироз ўзгарган шакли бўлиб, ўзбек тилига “оёқ, из” сўзлари маъносида таржима қилинади. Шундай экан, “пай-дарпай” сўзи “изга-из” каби маънони ифодаловчи жуфт сўз ҳисобланади. Лекин муаллиф ушбу сўзни мазкур иқтибосда ўз маъносида эмас, балки кўчма маъносида “кетма-кет, дамба-дам” каби жуфт сўзлар ўрнида қўллаган. Буни биринчи гапнинг мазмунидан ҳам англаб олишимиз мумкин.

Иқтибос: “Бу кунларда маҳди Хожанинг кишиси пай-дарпай кела бошладиким, Роно Сангонинг келури таҳқиқ бўлди”.

Мазмуни: “Бу кунларда Маҳди Хожанинг вакили кетма-кет кела бошлаганлиги учун, Роно Сангонинг келиши тақиқланди”.

Иқтибоснинг мазмунидан муаллиф форсча “дар” олд кўмакчисини ўзбек тилидаги ўрин-пайт келишиги маъносидан ташқари иккита бир хил маънодаги сўзни бир-бири билан боғлаб, жуфт сўз яшашда қўлланувчи қўшимча –ма ўрнида ҳам ишлатганлигининг гувоҳи бўламиз. Бу эса Бобурнинг форсча олд кўмакчили сўзларни ўзбек тилида қўллаб, уларни шу тариқа ўзбек адабий тили лексиконига олиб кириб, тилимизнинг лексик қатламини бойитиш йўлида қилган ижобий ишларидан бири саналади.

Иқтибоснинг иккинчиси таркибида “даҳи-дардах” форсча жуфт сўзи қўлланилган бўлиб, “даҳи-дардах” сўзи таркибидаги компонентлар мазмунига эътибор қаратадиган бўлсак, “даҳ” сўзи форсча саноксон бўлиб, ўзбек тилидаги “ўн” сони маъносига мос келади. Жуфт сўз таркибидаги иккита ўн сонини ифодаловчи “даҳ” сўзи “дар” олд кўмакчиси воситасида бир-бири билан боғланиб, “даҳи-дардах” шаклида “ўнга-ўн” каби ўзбекча жуфт сўзи лексик маъносини ифодалайди. Бу сўз асар тилида ҳам айнан, шундай маънода қўлланилган. Биз “дар” олд кўмакчисини муаллиф ўзбек тилидаги жўналиш маъносини ифодаловчи –га қўшимчаси ўрнида қўллаганлигини кўрамиз.

Иқтибос: “Ушбу даранинг ичида ҳар ердаким, сув кенгрок бўлиб эди, буюрдимким, тошларни тарош қилиб, даҳи-дардах қилғайлар”.

Мазмуни: “Ушбу даранинг ҳар-ҳар жойида сув тўпланиб қолган эди, шунинг учун уларга бу ердан ўн (метр)га –ўн шаклида тарошланган тошдан ҳовуз қуришни буюрдим”.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, “Бобурнома” асари тилида муаллиф жўналиш келишиги қўшимчаси –га ўрнида айрим ҳолларда форсча жўналиш

<sup>3</sup> Ўша асар. –Б., 280, 300

келишиги маъносини ифодалаб келувчи бар кўмакчисини қўллаганлигини ва ундан маъно ифодалашда ўз ўрнида унумли фойдаланганлигини кўрамиз. Масалан:

“Ушбу ситезаларидин ва рустоиликларидин эдиким, хонумонларини ва ўттиз-қирқ йил қозонғонларини барбод бердилар”.

“Андин кўч бар кўч юруб, душманба куни ойнинг йигирма секкизида Канор гузарида тушулди”<sup>39</sup>.

Асардан келтирилган гапларнинг биринчисида форсча “бар” олд кўмакчиси “бод” сўзига қўшилган ҳолда “барбод” шаклида қўлланилган. Ҳозирги ўзбек адабий тилида “бод” форсча сўзи алоҳида ҳолда қўлланилмайди, чунки мазкур сўз “бод” шаклида ўзбек тилига ўзлашмаган. Лекин “бар” олд кўмакчиси қўшилган ҳолда яъни, “барбод” шаклида ўзлашган ва ҳозирги кунда мустақ сўз сифатида ўзбек адабий тилида муомалада кўшма феълнинг етакчи қисми сифатида қўлланиб келинмоқда. “Барбод” сўзининг этимологик маъносига эътибор қаратадиган бўлсак, “бар” форсча олд кўмакчи бўлиб, асосан, гапларда –га жўналиш келишиги маъносини ифодалаб келади. “Бод” сўзи эса “шамол” сўзи маъносида ўзбек тилига таржима қилинади. Кўмакчи ва мустақил маънони ифодаловчи сўз бир-бирига қўшилиб, “барбод” шаклида “шамолга” каби лексик маънони ифодаловчи сўзга айланади. Ҳозирги кунда ўзбек адабий тилида қўлланиб келаётган “барбод” ўзлашма сўзи ўз лексик маъносини бутунлай йўқотиб, “йўқ бўлмоқ, бузулмоқ, йўққа чиқмоқ” каби маъноларни ифодалашда ишлатилмоқда. Масалан: режа барбод бўлди; қилган ҳаракатларимиз барбод бўлди; ҳамма томонни барбод қилди ва ҳоказо.

Шундай экан, форс тилидаги “барбод” сўзи ўзбек тилида лексик жиҳатдан “шамолга учирмоқ; шамолга бериб юбормоқ” каби маъноларни ифодалайди ва форс тилида худди шундай маънода қўлланилади.

Бобур ўзининг “Бобурнома” асари тилида “барбод” сўзини форс тилидаги маъносида қўллаган. Буни биз иқтибоснинг табдили мазмунидан ҳам англаб олишимиз мумкин.

Иқтибос: “Ушбу ситезаларидин ва рустоиликларидин эдиким, хонимонларини ва ўттиз – қирқ йил қозонғонларини барбод бердилар”.

Мазмуни: “Ушбу душманликлари ва маданиятсизликларидан ўттиз-қирқ йил давомида топган-тутганларини елга (шамолга) учирдилар”.

Навбатдаги иқтибосда “бар” олд кўмакчиси иккита бир хил маънони ифодаловчи, бир хил шаклга эга бўлган феълларнинг ўртасида келиб, уларни бир-бирга боғлаб, жуфт равишини ҳосил қилган ва худди шундай ҳолатда қўлланилган. Мазкур иқтибосдаги “кўч” сўзи ўзбек тилидаги “кўчмоқ” феълининг ўзаги ҳисобланади.

Биз гапда қўлланилган “кўч баркўч” сўзининг ясалишидан форсча “бар” олд кўмакчиси ўзбекча сўзларга қўшилиб, улардан янги сўз ҳосил қилганлигини ва ўша ясалган сўз “Бобурнома” асари тилида муаллиф

---

<sup>39</sup> Ўша асар. –Б., 188, 305.

томонидан қўлланилиб, бирор-бир воқеликни тасвирлашда фойдаланилганлигини кўрамыз.

“Кўч бар кўч” сўзи лексик жиҳатидан кўчга-кўч каби маънони ифодалайди, лекин бу жуфт сўзни Бобур ўзбек адабий тилидаги “кўчма-кўч” жуфт сўзи ўрнида қўллаган ва бу билан у сўз яшаш ҳамда сўз қўллаш борасида янги бир усулни яратган.

Ушбу сўз қўлланилган гапнинг мазмуни ҳам бизнинг фикримизга тўлиқ далил бўла олади.

Иқтибос: “Андин кўч бар кўч юриб, душанба куни ойнинг йигирма саккизида Канор гузарига тушулди”.

Мазмуни: “У ёқдан бу ёққа кўчма-кўч юриб, душанба куни ойнинг йигирма саккизида Канор гузарига етиб келинди”.

Хулоса қилиб, шуни айтишимиз мумкинки, Алишер Навоидан сўнг Бобур ўзининг қомусий асари бўлмиш “Бобурнома” тили мисолида ўзбек адабий тилини ўша давр форс ва араб тиллари эгаллаб турган мавқе даражасига кўтарди.

Бобур мазкур асари тилида форсча келишиклик вазифасини ифодалаб келувчи кўмакчиларни қўллаб, улардан асар тили ифода имкониятини кенгайтиришда, шунингдек, унинг халқ тилига яқин бўлишини таъминлашда ҳамда келишикликни ифодалаш бўйича сенонимик хилма-хилликка эришишда фойдаланган.

Шу билан биргаликда “Бобурнома” асари муаллифи ўз асари тилида форсча сўз ва келишикликни ифодаловчи қўшимчалардан ўз ўрнида унумли фойдаланган ва улардан ўша давр ўзбек адабий тилининг маълум даражада сенонимик имкониятларини кенгайтиришда, шунингдек, улар ҳисобига ўзбек адабий тили лексиконини бойитишда истифода этган.

## BOG‘LOVCHILARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI DOIR

Usmonov A, JDPI

Tilshunoslik sohasida XX asrning oxirlariga kelib o‘rganilayotgan obyektning mazmuniy tomoniga e’tibor berish tobora orta boshladi. Chunki, kuzatishdagi ma’lum bir bosqich (empirik) o‘z nihoyasiga yetib, bevosita kuzatishda berilmagan abstraksiyalash-umumlashtirish bosqichiga ehtiyoj sezila boshladi.

Tilshunoslik empirik tahlilni bilishning boshqa g‘oyalari va amallari bilan boyitishga uzoq tayyorgarlik ko‘rdi. XX asr davrda empirizm, fenomenologiya, konstruktivizm kabi falsafiy g‘oyalarni o‘zida jamlagan metodologiyaga asoslangan lisoniy tahlil yo‘nalishlari yuzaga keldi. Ana shunday yo‘nalishlardan biri, albatta, pragmalingsvistikadir.<sup>40</sup>

Pragmatika nisbatan yangi soha hisoblanib, unda tilning undan foydalanuvchilariga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi.

<sup>40</sup>Safarov Sh. Pragmalingsvistika. -Toshkent. 2008-yil, 10-b.

Pochepsov 1985-yilda semantika va pragmatika farqini shunday izohlagan edi: «semantika – til tizimi birliklarining doimiy «mulkidir». Pragmatik xususiyatlar ko‘plab, qator qo‘llanishlar mahsuli sifatida yuzaga keladi va mavjud bo‘ladi».

Demak, lisoniy birliklarning aniq va voqeyiy muloqot sharoitida qo‘llanishi pragmatik tahlil obyektidir. So‘zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi, nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot kontekstida mazmunga ega bo‘ladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit bo‘lishi darkor. Muhit, o‘z navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Muloqotda axborot uzatish «yuki», so‘zsiz, lisoniy (Lison-tilining kishi miyasida til xotirasi markazida mavjud birliklardan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boyl<sup>41</sup>) birliklar «yelkasi»ga tushadi, ammo shaxslararo munosabat normasini, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, to‘laqonli muloqotga kirishishning imkoni yo‘q. Milliy-madaniy qadriyatlar tizimida Xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan maqollar ham muloqot jarayonida keng qo‘llaniladi. “O‘zbek xalq maqollari” (To‘ra Mirzayev va boshqalar) kitobida keltirilgan maqollarda bog‘lovchilarning ifodalanishiga doir ba‘zi tahlillar keltiramiz. Kitobda o‘n mingdan ortiq maqol keltirilgan, keltirilgan maqollarda bog‘lovchilarning qo‘llanishi quyidagicha:

-va, bog‘lovchisi ikki o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, ikkita mustaqil so‘zni teng munosabatda bog‘lab kelgan. *Mehnat va o‘qish — og‘a-ini. Nodon va yalqov — dushman uchun katta ov.* Bundan tashqari bu bog‘lovchi kitobda maqollarning mavzularida qo‘llangan biz ularni tahlilga tortmadik.

-yoki bog‘lovchisi bir o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, sodda gaplarni bog‘lash uchun xizmat qilgan. Eshakni yukka olib kel

Yoki yukni — eshakka.

-ammo bog‘lovchisi kitobda keltirilgan maqollarda to‘rt o‘rinda qo‘llangan.

Gulning to‘ni — qirq yamoq, *ammo* xushbo‘y.

Pardoz qilgan chiroyli

*Ammo* husni bir oyli.

Siylamasang siylama, *ammo* xo‘rlama.

Savlat desang, menda bor,

*Ammo* jahon menga tor.

Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilardan qo‘yidagi bog‘lovchilarlar maqollarda umuman qo‘llanilmagan: *yoxud, biroq, goho, chunki, zeroki* kabilar... Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu bog‘lovchilar maqollarda ifodalanadigan lo‘ndalik, ixchamlik, donolik kabi teran mazmunlarni yuzaga keltirishda doim ham ishlatilmas ekan.

Gaplarda va maqollarda qo‘llangan bog‘lovchilarni pragmatik tahlil qilishda bog‘lovchilarning ba‘zi xususiyatlariga e‘tibor qaratish kerak.

Bog‘lovchi ham ko‘makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog‘lovchi gap bo‘laklari, qo‘shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqani, grammatik munosabatni ko‘rsatadi. Bog‘lovchining

---

<sup>41</sup> Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. Toshkent. 2012- yil, 8-b.

mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchining turi, bu turga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtayi nazar bor, ya'ni bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchiga oid so'zning aniq belgilanmasligi sababi ular lison-nutq jihatidan o'rganilmaganligida bo'lsa kerak<sup>42</sup>.

Bog'lovchini shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi) ga ajratib o'rganish lozim<sup>43</sup>. Sof bog'lovchi guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan *va, hamda, yo, yoxud, yoki, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, ya'ni* kabi yordamchi so'z xos.

Aynan nutq vaziyati bilan bog'liq ma'no ottenkalari matnda pragmatik funktsiya bajarish uchun xizmat qiladi.<sup>44</sup>

Bog'lovchilarning pragmatik xususiyati maqollarga qaraganda badiiy asar matnida ko'proq namoyon bo'ladi. Tohir Malikning 75 bet xajmga ega "Falak" qissada bog'lovchilarning qo'llanishi va ma'nolari ancha keng. Jumladan va bog'lovchisi qissada sakson bir marta turli ma'no munosabatni yuzaga keltirish uchun ishlatilgan. Masalan: Bu ko'p mushkul ish emas. Kichik operatsiya va miyaga ikki juft jajji elektrod o'rnatish kifoya. (Tohir Malik. Falak qissasi, 4-bet.)

Yoxud(0), biroq (13 marta), goho(0), chunki (6 marta), zero(0) kabi bog'lovchilarning badiiy matnda qo'llanilishiga qaraganda farqli va turli xil manolarni ifodalagan.

### **Adabiyotlar:**

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. - Toshkent. 2008 yil.
2. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent. 2012- yil.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R va boshqalar... Hozirgi o'zbek adabiy tili - Toshkent. 2010- yil.
- 4.

## **UNDOVLARNING SOTSIAL TIPLARGA XOSLANISHI**

**L.Ibragimova, JDPI**

Ma'lumki, undovlar – his-hayajon, buyruq-xitob, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni bildiruvchi, gap bo'laklari bilan grammatik bog'lanmaydigan so'z turkumi bo'lib, u har qanday tilning lingvomadaniy va sotsiopragmatik jihatidan alohida ajralib turadi.

Undovlarda tilning ontologik tabiati o'zining yorqin ifodasini topgan bo'lib, ularning qiyosi, leksikografik talqini masalasi muhim ahamiyatga ega. Undovlar deyarli his-hayojonsiz ishlatilmaydi. Ma'lum bir vaziyat, holat, o'rinda nutqiy voqelanadi. Bu uning milliy, ijtimoiy va pragmatik xoslanganligini ko'rsatadi. Mavjud adabiyotlarda, lug'atlarda undovlarning mana shu eng muhim tomoni aks etmaydi. Masalan, eng so'nggi yutuqlarni hisobga olib tuzilgan 5 tomli izohli lug'atda undovlar faqat semantik tomondan yondoshilib izohlanadi: **IYE** –

<sup>42</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R va boshqalar... Hozirgi o'zbek adabiy tili -Toshkent. 2010- yil, 204-b.

<sup>43</sup> Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R va boshqalar... Hozirgi o'zbek adabiy tili -Toshkent. 2010- yil, 204-b.

<sup>44</sup> Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent. 2008-yil, 15-b.

*und.s*Ajablanishni, hayronlikni yoki norozilikni bildiradi; iyi, iye, iyya. *Iye, nima deganing u?He, hali xabaring yo'qmi? Xotining azonda jo'nabdi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari; **MARHABO** –[xo'sh kelibsiz] 1 *und.s, kt.*Hurmat, iltifot bilan qarshilashni bildiradi; xush kelibsiz, marhamat. *Marhabo, marhabo, - dedi domla, chuqur samimiyat bilan so'rashib.* A.Qahhor, Sarob. 2. Marhabo (xotin-qizlar ismi).<sup>45</sup>

*Iye* va *marhabo* undovlari qanday nutqiy muloqot vaziyatida ro'yobga chiqadi, ayol yoki erkak kishi tomonidan aytiladimi, ijtimoiy xoslik nuqtai nazaridan xoslanganmi yoki neytral, kimga nisbatan ishlatiladi, har qanday o'rinda qo'llasa bo'ladimi, izohlanmaydi. Vaholanki, *ie* undovi, gender jihatdan neytral, rasmiy o'rinlarda ishlatilmaydi, marhabo undovi esa erkaklar nutqiga xos, rasmiy joylarda iltifotlilik bilan ishlatiladi.

Undovlarni sotsial, milliy tahlilida boshqa til bilan qiyoslash ham masalani ochishga yordam beradi. Quyida ayrim undovlarning o'zbek va rus tillaridagi qiyosi bo'yicha kuzatishlarimizni bayon etamiz.

*Voy* undovi o'zbek tilida ko'plab o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi va pragmatik jihatdan o'ta "to'yingan"ligini ko'rsatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uning 2 ta umumlashgan ma'nosi qayd qilingan:

- 1) qattiq og'riq, alam tuyg'usini ifodalaydi;
- 2) hayajon, qo'rquv va, aksincha, sevinch, hayrat, taajjub kabi his-tuyg'ularni ifodalaydi.

So'zning boshqa tipga mansub tildagi muqobillariga qiyosi uning lisoniy qiymatini ochish imkonini beradi. Birgina *voy* undovi rus tilidagi *oy, ay, nu i, smotrite, podumayte, oy, chto takoye, oy, pogibel moya, ax, ox, ex, uvo', ox-ox* kabi bir qator so'z va birikmalar beradigan ma'nolarni ifodalay olishi bilan xarakterlidir. Shu bilan birgalikda, ayrim o'rinlarda ushbu birlikning ayrim ma'nolari o'zga tilda birikmalar bilan ifodalanib, leksik lakunalarni vujudga keltiradi. Yuqorida keltirilgan "*nu i, smotrite*", "*nu i, podumayte*", "*oy, chto takoye*" kabilar lakunalarni to'ldiruvchi vositalardir.

"Узбекско-русский словарь"da *voy* undov leksemasining 4 ta mustaqil ma'nosi ajratilgan:<sup>46</sup>

- 1) *krik, ston pri boli;*
- 2) *vo'rajayet silnoye udivleniye, ispug;*
- 3) *peredayot silnoye negodovaniye, vozmuheniye, jalost;*
- 4) *peredayot skorb, otchayaniye, gore.*

O'zbek tilining izohli lug'atidagi birinchi ma'no tarjima lug'atda ikkiga (1-, 4-) ma'nolarga ajratilgan holda berilgan va, nazarimizda, so'zning semantik mohiyati talqini "tiniqlik" kasb etgan. 2- ma'no ham tarjima lug'atda ikkiga "parchalangan" holda berilgan bo'lib, bu parchalar orasida jiddiy farq kuzatilmaydi.

<sup>45</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. , 2007.

<sup>46</sup> Узбекско-русский словарь. – Т.: 1988. – С.97.

Ko‘rinadiki, “og‘riq”, “alam”, “quvonch”, “ajablanish” ruhiy holatini ifodalash *voy* leksemasining lisoniy qiymati bo‘lib, boshqa tilda lakuna xususiyatiga ega bo‘lgan ma'nolar bu leksemaning milliy-madaniy xarakterini ko‘rsatadi.

*Voy* undovini ayollar ishlatganda ko‘pincha ajablanish, zavqlanish, sevinch ma'nolarini ifodalaydi. Erkaklar nutqida esa qattiq og‘riq, alam ifodalanadi. *Voy* undovi yosh jihatdan ham ishlatilishda farqlarga ega.

Undovlarni gender nuqtai nazaridan, avvalo, uch turga ajratsak bo‘ladi:

- 1) erkaklar nutqidagina ishladigan undovlar;
- 2) ayollar nutqida ishlatiladigan undovlar;
- 3) gender nuqtai nazaridan neytral undovlar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем – структур талқини. –Т.: Фан, 2006.
2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.
3. Сайфуллаева ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2010.
- 4.

### АССОЦИАТИВ ТАЖРИБА МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА АССОЦИАТИВ МУНОСАБАТНИ АНИҚЛАШ

Феруза Жумаева, ф.ф. ф д (PhD) Барно Жумаева, ЖДПИ

Ассоциатив тажриба материаллари асосида инсон тафаккурини, ташқи оламга муносабатини ўрганиш мумкин бўлади. Тафаккур кўлами инсоннинг ёши, билими, ҳаётий тажрибаларига асосан кенгайиб боради. Ассоциатив тажриба жараёнида инсоннинг эслаш қобилияти ва нутқ бойлигига ҳам эътибор қаратилади. Шунингдек, ассоциатив муносабатни текшириш имкони мавжуд бўлади. “Ассоциатив муносабат тил бирликларининг инсон психологик тасаввурига асосланган муносабати бўлиб, “бир-бирини ёдга солиш” механизмини акс эттиради”<sup>47</sup>. Қуйида тўртта тажриба материаллари асосида, инсоннинг тафаккури ва ассоциатив муносабатини текширишдаги ўзига хос жиҳатларни баён қиламиз. Ушбу тажриба педагогика институти талабаларига мўлжалланган.

1. *Ой* сўзини келтириб, унга маъно жиҳатдан яқин бўлган сўзларни ёзиш кераклиги айтилади. Ушбу тажриба асосида инсоннинг сўз бойлиги, ёдда сақлаш ва эслаш қобилияти текширилади. Иштирокчилар *қуёш, маош, йил, май* каби ассоциатларни келтириши мумкин. Сўзларнинг маъноси ва сонига эътибор қаратилади.

2. Иккинчи тажриба бироз мураккаблашади, энди *ёр* сўзига талаффуз жиҳатдан яқин бўлган сўзларни ёзиш сўралади. Бундай сўзларни ёзишда маъно муҳим эмаслиги айтилади. Бу тажриба асосида инсоннинг нутқий

<sup>47</sup> Д.Э. Лутфуллаева Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, MERIYUS. 2007. 7-б



кобилияти текширилади. М: *тор, ор, зор, ночор, мадор, қарор, дийдор* каби ассоциатларни келтириши мумкин. Сўзларнинг сонига эътибор қаратилади.

3. Учинчи тажрибада инсоннинг ассоциатив муносабати ўрганилади. Масалан, *қайнана* сўзи келтирилиб, унинг сифатларини санаш сўралади. М: *меҳрибон, қаттиққўл, ширинсўз* каби ассоциатлар келтирилади. Бу тажрибада инсон руҳиятидаги жараёнлар билан кўнглида кечаётган туйғулар аниқланади, иштирокчилар ўз истак-хоҳишларига кўра баҳо билдиришади. Шунинг учун келтирилаётган ассоциатларнинг кўпчилиги ижобий ва салбий бўёқдор сўзларни ташкил этади.

4. Тўртинчи тажриба нисбатан мураккаблашади. Қарама-қарши, зид ҳолатдаги муносабатлар ҳосил бўлади. Ўқитувчи шахсига хос бўлган ассоциатларни тўрт босқичда белгилаш кераклиги айтилади. Саволлар олдиндан маълум бўлмайди. Дастлаб биринчи савол ўқилади. Иштирокчилар умумий сифатларга кўра муносабат билдиради. Биринчи саволга жавоблар белгилангач, иккинчи савол ўқилади. Иштирокчи айрим ўринларда фикрини ўзгартиради. Бу ҳолатда уларнинг истак-хоҳишлари ифодаланади. Учинчи саволга келтирилган жавобларда эса орзу-ниятлари акс этади. Тўртинчи катакни тўлдириш тажриба олиб борувчининг таъсири остида бўлади. Бунда орзу-ниятлар бошқа-ю иш ва масъулият бошқа эканлиги, ўқувчиларга эътибор қаратиш, тўғри тарбиялаш кераклиги, барча ўқувчиларнинг кўнглига йўл топиш зарурлиги, шунинг учун ўқитувчи касби ўта машаққатли ва масъулиятли касб эканлиги уқтирилади. Саволлар:

1. Ўқитувчи қанақа бўлиши керак?
2. Мен ўзим учун қандай ўқитувчилар дарс ўтишини хоҳлайман?
3. Ўзим қанақа ўқитувчи бўламан?
4. Тажриба олиб борувчининг таъсири.

+	-				
меҳрибон	меҳрсиз				
тартибли	тартибсиз				
қаттиққўл	бўшанг				
меҳнаткаш	дангаса				
талабчан	бефарқ				
иболи	беҳаё				
билимли	билимсиз				
хушёр	ғофил				
ширинсўз	заҳарханда				
адолатли	адолатсиз				
Ростгўй	ёлғончи				
Мавзуни баён қилувчи (нотик)	ёздирувчи				
Маош учун ишлайдиган	Билим беришни хоҳлайдиган				

Ўқувчининг билимига эмас, хоҳиш-истакларига кўра иш тутадиган	Ўқувчининг истак-хоҳишларига эмас билимига кўра иш тутувчи				
самимий	носамимий				
ботир	кўрқоқ				
эркак	аёл				
Давоматга талабчан	Давоматга бефарқ				
Янгиликка интилувчан	Эски билимлар беради				
ёш	қари				
чиройли	Ўртача ёки хунук				
бўйчан	Ўртача ёки калта				
камтарин	манман				
Ўзига оро беради	Ўртача ёки (ўзига оро бермайди)				
ҳилмли	бақироқ				
бой	камбағал				
Ўқувчига яқин муносабатда	Масофа сақлайди				
Ҳар-хил кийинади	Бир хил кийинади				
Расмий кийинади	Уйбоп, кўчабоп кийимлар кияди				
Кулиб гапиради	жиддий				
Оғир касб	Енгил касб				
Ўқитувчи ўқувчиларнинг ҳаммасига бирдай ёқиши шарт	Шарт эмас				
Менга шу касб ёқади	ёқмайди				
Жами.					

Тўртинчи босқичда тажриба олиб борувчининг таъсири асосида фикрларнинг ўзгаришига эришилади. Ҳар бир банддаги сифатларга тўхталиб ўтади ва иштирокчиларнинг фикрини ўзгартиришга эришади. М., ўта талабчанлик қилиш ҳам ижобий натижа бермаслиги мумкин. Тарбия жараёнида ёки илм олишга қизиқтириш мақсадида баъзан ёлғон гапиришга тўғри келиб қолади каби фикрларни келтиради. Мақсад ҳаётда кимнингдир таъсири асосида инсоний хусусиятларнинг салбий ёки ижобий томонга ўзгариши мумкинлигини уқтириш бўлади.

Тажриба охирида муносабатлардаги ўзгаришлар текшириб чиқилади. Ҳар бир инсон ҳаётда кўпроқ ўз истакларига кўра иш юритиши маълум бўлади. Аслида бошқаларнинг ҳам истак-хоҳишларига эътибор қаратиш, уларнинг туйғуларини, характер-хусусиятларни ўрганиш, тарбиялаш, инсонларни, қандай ёшда бўлишидан қатъий назар, ҳурмат қилиш зарурлиги уқтирилади.

## ОЙБЕК ШЕЪРИЯТИДА ЁХШАТИШЛАР

Р. Сувонова, СамДУ, ф.ф.н.

Инсоннинг дунёни билишида ёхшатиш-қиёслаш бениҳоя катта ёрин тутади. Икки ёки ундан ортиқ предмет ёки тушунчани ёхшаш ёки фарқли жиҳатларини аниқлаш мақсадида қиёслаш, таққослаш ташқи дунёни билишнинг энг кенг тарқалган мантиқий усулларидан бири сифатида инсон фаолиятининг деярли барча соҳаларида кузатилади.

Аввало, таъкидлаш лозимки, ёхшатишлар ўзига хос образли тафаккур тарзининг маҳсули сифатида юзага келади. Шунинг учун ҳам улар нутқда ҳамиша бадий-эстетик қимматга молик бўлади, нутқнинг эмоционал-экспрессивлиги, ифодалилиги, таъсирчанлигини таъминлашга хизмат қилади. Ёхшатишларнинг икки тури, яъни: 1) индивидуал-муаллиф ёхшатишлари ёки эркин ёхшатишлар ва 2) умумхалқ ёки турғун (доимий) ёхшатишлар фарқланади.

Турғун ёхшатишларнинг моҳияти шундан иборатки, уларда ёхшатиш эталонида ифодаланган образ барқарорлашган бўлади, бундай ёхшатишлар, гарчи муайян шахс ёки ижодкор томонидан қўлланган бўлса-да, вақтлар ўтиши билан тил жамоасида урфга кириб, доимий ифодалар сифатида турғунлашган, умумхалқ тили лексиконидан жой олиб улгурган бўлади. Бундай ёхшатишлар худди тилдаги тайёр бирликлар каби нутққа олиб кирилади.

Ўзбек тилидаги турғун ёхшатишлар халқнинг ўзига хос кўриш ва идрок йўсини, образли тафаккур интизомини ҳам акс эттиради. Шунинг учун ҳам тадқиқотчилар қайд этадиларки, ижодкорлар объектив оламдаги нарса-ҳодисалар ўртасидаги компаратив алоқаларни образли қиёслаш асосида сон-саноксиз ва хилма-хил ёхшатишлар яратсалар-да, уларнинг жуда ҳам оз қисми тилда турғунлашади, чунки бундай ёхшатишлар тилда халқнинг тажрибалари, урф-одатлари, маданияти ва тарихининг ўзига хосликларига мувофиқ сараланади, ана шунга кўра ҳам турғун ёхшатишлар дейилади.

Ёркин ва комил бадий истеъдоднинг асосида ҳамиша теран ва мунтазам кузатувчанлик, турфа оламнинг камалак рангларини закийлик билан кўра олиш ва уларнинг «тирик»лигига, табиийлигига путур етказмаган ҳолда кўрсата олиш ётади. Зеро, кузатувчанлик ва мукамал ҳис қилиш, аслида, беҳад нозик ва нодир бир санъат бўлиб, у ҳар қандай бадий истеъдод такомилининг ибтидосидир.<sup>48</sup> Буларнинг ҳаммаси услубиятда содир бўлади.

Услуб бир вақтнинг ўзида ҳам мазмун, ҳам шакл, ҳам мотивдир. Буларнинг барчаси бирлашганда асар бус-бутунлигини услуб таъминлайди.

<sup>48</sup> Маҳмудов Н. Ёхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёт журнали. –Тошкент, 2011, 3-сон, 19-20 бетлар.

Шунга кўра ёзувчи услубини сўзга, тилга – улардан фойдаланишдаги ўзига хосликка боғлаб қўйиш ноўриндир.

Ҳаёт ёзувчинининг тажрибасини бойитганидек, унинг услубини ҳам тобора сайқаллаштиришга сабаб бўлади. Услуб ижодкор дунёсидир, унинг хаёлотини, тасаввури, ақли, билими, сўзшунослиги, таланти, инсонийлиги бутун борлигини намоён этувчи бадиий ҳодиса, воситадир. Шундай бадиий тасвир воситаларидан бири ўхшатишдир.

Ойбек шеърлятидаги хилма-хил ўхшатишлар услубда алоҳида ўрин тутлади. Таъкидлаш лозимки, бу ўхшатишларнинг ҳар бири ҳаётсевар, табиат ошиғи бўлган Ойбекнинг кузатувчанлигига, табиат ва инсоннинг мураккаб ҳаётини ипидан игнасиғача, бутун икир-чикирларигача кўра ва кўрсата олишига, борлиқни ўзига хос йўсинда, «ойбеккона» идрок қилишига ҳолис ва характерли далилдир. Чунки ўхшатишлар шеърлятда хилма-хил мақсадлар билан қўлланса-да, уларнинг сифати, айна мақсадларга қай даражада бўйсундирилиши, қисқаси, уларнинг поэтик мазмун даражаси шоирнинг кузатувчанлигига, поэтик идрокига боғлиқ.

Ойбек шеърляти беҳад ибратли бўлиб, унинг ҳар бир шеъри нафис ва расо кузатишлар, мукамал мушоҳадалар натижаси эканлиги равшан кўриниб туради. Ҳар қандай ўхшатиш муносабати тилда акс этар экан, у албатта, тўрт элементни назарда тутлади, яъни: 1) ўхшатиш субъекти, 2) ўхшатиш эталони, 3) ўхшатиш асоси ва 4) ўхшатишнинг формал кўрсаткичидир. Бошқача қилиб айтганда, ўхшатиш муносабати ифодаланган содда гапларнинг мазмун сиғими ҳаминша катта бўлади, яъни кичик форма катта мазмун ифодаси учун хизмат қилади. Бу эса шеър поэтикаси учун ҳам алоҳида аҳамиятлидир, чунки айна ҳолат шоирга турли нарса-ҳодиса, мураккаб ҳолатлар ва шу кабиларнинг беҳад ихчам тасвирларини, ёрқин образларини яратиш имконини беради.

Айтиш лозимки, ҳар қандай ўхшатишнинг лингвопоэтик асосини ўхшатиш эталони ташкил қилади. Ўхшатишнинг поэтик қимматини ҳам ана шу ўхшатиш эталони белгилайди. Ойбекнинг шеърларини ўқиганда, шу нарсага тўлиқ ишонч ҳосил қилиш мумкинки, Ойбек бу ҳолатни тўлиқ ва аниқ тасаввур қилган, шунинг учун ҳам у ўхшатишга мурожаат қилар экан, зукко кузатувчи сифатида беҳад мувофиқ ва янги ўхшатиш эталонларини қўллайди.

Ойбек ўзининг «Ҳамза» номли достонида Шохимардон қишлоғининг ўтмишдаги манзарасини тасвирлар экан, шундай ёрқин мисралар тузади:

***Пастда қишлоқ, тошларга қапишибди зич —***

***Фақир уйлар қалдирғоч инлари каби.***

Кузатувчан шоир ***фақир уйларни қалдирғоч инларига*** ўхшатади, айна ўхшатишда қалдирғоч инларининг ўхшатиш эталони сифатида қўлланиши Ойбекнинг теран ва фавқулудда нигоҳи маҳсулидир.

Мана бу парчалардаги ўхшатишларда ҳам Ойбекнинг ўткир нигоҳини аниқ сезиш мумкин:

***Бехосдан узилган шода дур каби***

*Тўқилди умиднинг рангли барглари.  
Муҳтожликнинг изгиринида  
Куз баргидек тушади ўйин.  
Сўнгсиз уфқларда қишнинг хаёли,  
Абадий сукутдек узалмиш жимжит.*

Ойбек ўз шеърларида *қуёш, офтоб, қиз, чечак, гул, баҳор, қуш, денгиз, дарё, шафақ* каби сўзларни ўхшатиш эталони сифатида фаол равишда қўллайди. Бу шоирнинг инсонга ва табиатга бўлган адоқсиз муҳаббатини, бу муҳаббатни юксак оҳангларда куйлаганлигини, инсон ва табиат тасвири учун табиатнинг ўзидан бетиним ранг ва оҳанг излаганлигини кўрсатади.

*Яна: Зарбдор бўлган чол отанг  
Қирчиллама йигитдек.  
Филдир теримда онанг,  
Ўзи кичик чигитдек*

Хуллас, Ойбек шеърлятида ўхшатишларнинг услубий хусусиятлари жуда фарқли бўлмаса-да, мазмун жиҳатидан ўзига хос ва бетакрордир. Ойбек шеърлятидаги ҳар бир ўхшатиш кузатувчан шоирнинг ўткир нигоҳи, нафис ва вазмин мушоҳадасининг маҳсулидир.

#### **Адабиётлар:**

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. 8-бет.
2. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 2011, 3-сон, 19-20 бетлар.
3. Маҳмудов Н. Ойбек шеърлятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси. – Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 985, 6-сон, 48-50 бетлар.
4. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2002.
5. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Тошкент: Фан нашриёти, 1977, 41-43 бетлар.

### **ПОЭТИК ИНДИВИДУАЛЛИК ВА АЛЛИТЕРАЦИЯ** **Умирова Светлана, САМДУ**

Стилистик фигуралар сирасига кирадиган такрор ва унинг бир кўриниши сифатида қараладиган аллитерация поэтик матн таркибида ғоят муҳим бадиий-эстетик вазифани адо этадики, уни фоника соҳасининг етакчи унсури сифатида таҳлил этиш муайян ижодкор услубига хос бўлган жиҳатларни белгилашда қимматли хулосаларни бериши мумкин. Чунки нутқ жараёнида товушлар талаффуздан ҳосил бўладиган экспрессив оттенкаларни ўрганувчи соҳа – фоника товушлар уйғунлиги қонуниятларини ўрганиш баробарида миллий поэтиканинг бир қатор қонуниятларини очишга кўмаклашади. Фоника – нутқнинг товуш томондан ташкил этилишини ўргангани учун ҳам поэтик нутқнинг сатҳларидан бири сифатида қаралади ва қатор стилистик фигураларни ўз ичига олади.

Шеърӣ асарлар мазмунидаги жарангдорлик ёки маҳзунлик, кўтаринкилик ёки тушқунлик, жўшқинлик ёки майинлик, бирон бир жиҳатни ажратиб кўрсатиш ёки тасвирнинг умумий фониди қараш сингари ҳолатлар матнда айрим товушларнинг қўлланишига ва уларнинг баъзан турли оҳангда айтилишига боғлиқ бўлиб қолади. Бу эса шеър ўқилишининг ритмо-мелодик ҳолатлари билан боғлиқ бўлган просодикани келтириб чиқаради. Поэтикада маънони кучайтириш ва тасвирдаги айрим эпизодларни алоҳида ажратиб кўрсатишнинг махсус усули товушлар такрори бўлиб ҳисобланар экан бу ерда ҳам шаклнинг мазмун реаллашувиға хизмат қилиш тамойили амал қилади.

Фонетик воситалар поэтик нутқда мазмуни ва бадий имкониятиға кўра муҳим бўлган сўзни, образни ёки мавзунни алоҳида таъкидлаш вазифасини бажариши мумкин. Жумладан, аллитерация ҳам шундай вазифа бажаради. Бадий ижоднинг хусусиятлари ҳақида гапирган В.Маяковский «Шеър қандай ёзилади» мақоласида «Мен ўзим учун муҳим бўлган сўзнинг янада ажралиб туриши, унинг бир рамкада сақланиши учун аллитерацияға мурожаат қиламан», деб ёзган эди. Дарҳақиқат, шундай товушлар борки, улар чиндан ҳам муайян мақсадларға хизмат қилади. Масалан, рус тилида *з*, *с* товушлари сокинлик ва хотиржамликка, *ч* чорасизлик ва кескинликка, *л* товуши назокат ва гўзалликка, *р* қатъиятға ишора қилиб туради.

Хўш, стилистик фигуралар тизимда қараладиган аллитерация қандай ҳодиса? Илмий манбаларда бу саволға жавоблар анчагина ва улар кўпчилик ҳолатларда бири иккинчисини такрорлайди ёки тўлдиради ҳамда «матндаги ундош товушлар такрори» тушунчаси остида бир махражға бирлашади. «Мисралар, ундаги сўзлар бошида бир хил ундош товушларнинг такрор қўлланиши» сифатида баҳоланадиган аллитерация поэзиянинг асосий талабларидан бири сифатида қадимдан, балки шеърят пайдо бўлган дастлабки пайтлардан буён бадий матнда оммалашган ва стилистик усул сифатида қўлланилиб келади. Шунинг учун ҳам аллитерация товуш такрорининг энг кўп тарқалган кўриниши сифатида эътироф этилади. Бу туркий, жумладан, ўзбек шеърятни учун ҳам хос хусусият саналади. Товушлар такроридаги бу фаоллик, биринчидан, ўзбек тили товушлар тизимида ундошларнинг етакчилик мавқеға эғалиги, иккинчидан, маънолар ҳам, асосан, ана шу товушлар туфайли фарқланиши билан изоҳланади.

Матн маъносини кучайтиришға хизмат қилиши аллитерациянинг асосий вазифаси бўлса, ифоданинг таъсирчанлигини ошириш навбатдаги вазифасидир. Агар аллитерациянинг нутқда бажарадиган асосий вазифасидан келиб чиқадиган бўлсак, у фақат шеърятға хос бўлган стилистик фигура ва ўзининг поэтик қимматини айнан ана шу матнда топади. Деярли барча шоирларнинг унға мурожаат қилишининг сабаби ҳам ана шунда. Айни пайтда, унинг қўлланиши ҳар бир шоир ижодида индивидуалдир. Масалан, туркологик адабиётларда *к*, *ғ* товушлари туркий тилларнинг ўзаро фарқланишидаги асосий омиллардан бири сифатида қаралганлиги бу товушларнинг она тилимиз фонологик тизимида муҳим ўрин тутишидан

далолат беради. Бу ҳолатни эса фоника учун ҳам аҳамиятли деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқ. Чунки Усмон Азим шеърятини матнини кўздан кечириш бу товушнинг шоир услубида алоҳида ўрин тутганлигини кўрсатади.

Талаффузида ҳаво оқимининг портлаб чиқиши натижасида ҳосил бўладиган қ товушининг маъносида кескинлик ва қатъият ифодасининг мавжудлигига ишора қилади. Демак, бадииятда унинг ана шу имкониятлари рўёбга чиқади ва ижодкор руҳий оламидаги алоҳида ҳолатларнинг поэтик ифодаси сифатида намоён бўлади. *Тахтли кўнгил – фақир бўлгин, / Бахтли кўнгил – ҳақир бўлгин, / Баҳордан кеч – тақир бўлгин – / Ўзинг сўнг бир чечак ўстир.* Эзгуликка даъват этувчи ушбу мисралар таркибидаги *фақир, ҳақир, тақир* сўзлари таркибидаги қ фақатгина оҳангни бир маромда ушлаб турувчигина эмас, айти пайтда, у қатъиятга ундовчи ҳамдир. Мана бу «*Қайт*» *дедингиз, «қалб» дедик, / «Айт» дедингиз, «ҳақ» дедик. / Бошимиз дорда туриб / «Жон» демадик, «халқ» дедик* мисраларида эса *халқ* сўзига лирик қаҳрамон томонидан алоҳида урғу берилишига ва унга ишонтиришга шоир жиддий тайёргарлик кўрган ва бундан аввал *қалб* ва *ҳаққа* имон келтириб, ўқувчини энг муҳим сўзни қабул қилишга тайёрлаган.

Усмон Азим кўллаган аллитерациялар унинг поэтик услубида халқона руҳ ҳукмронлигининг далили сифатида намоён бўлади. Баъзи шеърлар матнидаги *қалдирғоч қанот, қанотни қайирмоқ* сингари турғун бирикмалар таркибидаги қ, биринчидан, бирикманинг ғоятда табиийлигини далилловчи, иккинчидан эса, талаффуздаги уйғунлик ва жозибани таъминловчи фонетик воситадир: *Эй, қалдирғоч қанотим, / Сен менинг маст руҳимсан; Мен қайтаман қуёш йўлидан, / Қанотимни тузоқ қайиргай; Лочин эдим, армонларинг / Қайирди қанотимни... Тирик кетган ҳар кишига / Шоир очади аза. / Ҳар бекатда биров зойиб – / Қанотларим қайирди...*

Шоирнинг бошқа бир шеърда эса бу уйғунлик кенгроқ ва изчилроқ кўламда намоён бўлади: *Инсонни тушуниш керак! / Май ҳиди анқиган гариб қаҳвахона... / Одамлар, қадаҳлар, сигарет дуди, / Кимдир ориқ, қалтироқ қўллари билан / Чўнтагин ағдариб (тамаки қолдиги тўкилар) / Ягона сўмини сарфлар ароққа – манзил – қаҳвахона, ундаги нарсалар – қадаҳ, ароқ, ичувчининг аҳволи – қалтирамоқ.* Буларнинг барчаси яхлит ҳолида салбий муносабат уйғотувчи нохуш бир манзарани шакллантирган бўлса, қ нинг такрори бу нохушликни оҳангда яна ҳам кучли тарзда беришга кўмаклашади.

«Бўлиниб бораяпман...» номли шеърда қ ундоши ўзи билан ёнма-ён келган унли товушлар билан биргаликда лирик қаҳрамоннинг руҳий изтиробини, айти пайтда, воқеликка бўлган муносабатдаги қатъиятини ўзида мужассам қилган поэтик восита сифатида иштирок этади: *Бўлиниб бораяпман минг бир бўлакка, / Она, оқибатим адашиб кетди. / Болам, қаерларда қолди шафқатим? / Севгилим, лабимни йўқотиб қўйдим. / Бўлиниб бораяпман минг бир бўлакка, / Душманам бахтиёр – қаҳрим қаерда? / Нега бунча пастман – қаерда бўйим? / Оёғимдан қачон ажралиб қолдим? Бўлиниб бораяпман минг бир бўлакка, / Хотирам йўқликка қоришиб кетди. / Селдай оқиб кетди кўксимдан юрак, / Фақат хаёл тошдай қотди бошимда. Чиноринг тагида*

*бўлиниб ётибман – / Шунда бир сўз баргдай лабимга кўнар: / «Ватан» дейман, такрор айтаман: «Ватан».../ Бирлаша бошлайди юрак, ақл, тан... Бу товушли бирикмаларнинг кетма-кет жойлашувида муайян уйғунлик бор ва улар сўзларнинг мазмуний ва оҳанг жиҳатдан боғлиқлигини таъминлайди. Мана бу мисраларда ҳам тарихан алоқадор бўлган қ ва к тасвирда чиройли аллитерацияни ташкил қилган: *Кичкинаман – руҳим, қалбим қаршингда қарахт, / Бир озгина бўйинг калта бўлса-чи, дарахт!**

Демак, Усмон Азим шеъриятида ижодкор услубини яққол кўрсатиб берадиган, унинг баён усулидаги халқчиллик ва мардонаворлик, жасорат ва катъият сингари жиҳатларни намоён этувчи муҳим лингвистик ва экстралингвистик омил сифатидаги ўрни очиқ берилган.

## **АХМАД ЯССАВИЙ ШЕЪРИЯТИДА МАЖОЗИЙ ТАСВИРЛАРНИНГ ИСЛОМИЙ ТАЛҚИНИ**

**Л.Мирзохидова, СВХТХҚТМОМ, ф.ф.д. (PhD)**

Маълумки, комил инсон концепцияси шарқда тасаввуф таълимоти асосида чуқур ёритилган. Бунга кўра, тасаввуф адабиётининг тасвир мавзуи тариқат йўли билан покланаётган ва тинмай комиллик сари тараққий этаётган Инсон бўлгани учун ана шу солиқ - йўловчи Инсоннинг дунёқараши, эстетикаси, кечинмалар олами муҳим аҳамият касб этиб келган. Тасаввуф адабиётида солиқ инсоннинг туйғулари, тушунчаси тасвирга олинади, уни тарбиялаш, унга Ҳақни ва ўзлигини тушунтириш, турли ривоят ва ҳикоятлар келтириш, ўғит-насихатлар қилиш билан унинг онги ва қалбига йўл топиш бош мақсад қилиб олинган.

Рамзийлик, сўфиёна тил билан ёзиш адабиётни бир қадар мураккаблаштиради натижада, «хос кишилар» англайдиган шеърлар, ғазаллар яратилди. Аммо тасаввуфий шеърият орасида жуда содда тилда ижод қилганлар ҳам бўлди. Аҳмад Яссавий, Сулаймон Боқирғоний, Сўфи Оллоёрлар ижодини бунга намуна қилиб кўрсатиш мумкин. Бу шоирлар диний-сўфиёна ғояларни халқчил бир усулда баён этадиларки, уларнинг ўғит насихатлари, рамзий-мажозий тасвирлари ҳам содда ва тушунарлидир. Бундан мақсад комил инсон ҳақидаги қарашларни оддий саводсиз халққа осон ва тез етказишлиқдир.

«Хожа Аҳмад Яссавий равон ва содда тилда айтган ҳикматларида солиқларни тариқат одобларига риоя қилишга, нафсни тийиб доимо унинг ҳавойи истакларига қарши курашишга, маънавий-ахлоқий жиҳатдан комил бўлишга, Ҳақ ишқи йўлида риёзат чекишга ундайди», - дейди Нодирхон Ҳасан [78.147].

Дарҳақиқат, Аҳмад Яссавий ҳикматларида қаттиқ танқид қилинадиган нарсалардан бири бу - нафсдир. Инсон тан ва руҳдан ташкил топади. Нафс таннинг ўз ҳузур ва эҳтиёжини ақл назоратисиз қондириш истагидир. Шунинг учун, халқда: "Менинг нафсим балодур, ёнган ўтга солодур", - деган гап бор. Нафс кишини инсонликдан чиқариб, ҳайвонликка бошлайдиган



иллатдир. Сўфийликнинг энг муҳим одобларидан бири нафсни жиловлашдир. Шу сабабли, ҳикматларда бу мавзуга катта ўрин берилади:

*Нафсим* мани йўлдин уриб хор айлади,  
Термултуриб халойикқа зор айлади,  
Зикр айттурмай, шайтон бирла ёр айлади,  
Ҳозирсан деб нафс бошини янчдим мано[192.47].

*Нафс* - инсоннинг энг катта душмани. Уни енгмагунча, инсонликни таъмин этиб бўлмайди. Ушбу тўртликда нафс – золим, яхши инсонларни ёмонликка бошловчи душман сифатида поэтиклашган. Шоир уни шундай талқин қилади. Таннинг ўз хузур-ҳаловати йўлидаги интилиши эгасининг руҳиятига жабрдир, албатта. Шундай пайтда: "Аллоҳ! дегил", - дейди муаллиф. Агар сен нафсингга итоат этмасдан, Аллоҳга бўйсунсанг у, албатта, мадаккор бўлади, чунки у ҳамма нарсага қодир:

Золим агар жафо қилса, Аллоҳ дегил,  
Илкин очиб, зоре қилиб, бўйинсунғил,  
Ҳақ додингга етмас бўлса, гина қилғил,  
Ҳақдин эшитиб бу сўзларни айдим мано.

Ушбу мисраларда фақат Аллоҳ зикри билан юрган одам нафсини енгиб ҳақни танигани куйидагича тасвирланган:

Ўшал вақтда минг бир зикрин қилдим тамом,  
*Нафсим ўлиб* ломаконга ошдим маъно (АЯҲ.45).  
Ҳақпарастлар макониға маҳрам бўлдим,  
*Тиғи ботин* бирла *нафсни янчдим* мано (АЯҲ.47).

Бунда нафсининг ўлиши – нафсни енгиш, *Тиғи ботин* бирла *нафсни янчдим* – ҳақиқат тиғи билан нафсни янчмоқ. Бунда ботин – ҳақиқат, тиғ – кесувчи буюм. Яъни, ҳақни таниш орқали нафсни енгиш «*Тиғи ботин* бирла *нафсни янчдим*» шаклида поэтиклашган.

Ҳикматлар орасида кўп учрайдиган тимсоллардан бири «туфроғдир». У ҳам рамз даражасига кўтарилган. Қадим шарқ фалсафасига кўра дунёнинг асосида тўрт нарса (унсур): тупроқ, сув, шамол, олов ётади, деган тушунча бор. Буни араблар "аносири арбаа", форслар "чор унсур" дейдилар. Тупроқ ҳақидаги гаплар шунга бориб тақалади. Шулар асосида инсоннинг пайдо бўлиши ҳақидаги ривоят дунёга келган. Худо фаришталарга дебди: тупроқдан одам ясаб, жон киритиб, ўзимга халифа қилиб қўяман. Фаришталар дод солибдилар: зинҳор ундай қилманг, улар нафсларига банда бўладилар. Худо парво қилмабди. Азроилга тупроқ келтиртириб, сувга қўшиб, лойдан одам ясабди. Олов билан қуритиб, шамол билан йўлга солибди. Шунга кўра, инсон вужуди юқоридаги тўрт нарсдан таркиб топган. Бинобарин, инсоннинг деярли бутун моҳияти мана шу тўрт нарса билан чамбарчас боғлиқ бўлармиш, яъни *тупроқ*-сабр-тоқат, камтарликка, *сув*-қувонч, ғайрат-у шиддатга, *ҳаво*-беқарорлик, бесабрликка, *олов* - нафс, кибр, ҳасад, қизиққонликка моя эмиш. Инсоннинг инсонлигини таъмин этмоқ учун бош мезон мўътадилликдир. Мўътадиллик эса *тупроқдандир*. Бу фалсафа

исломдан ҳам ўрин олди, хусусан, тасаввуфда кенг ёритилди. Қуйидаги тўртликда бу фикр яққол ифодасини топган:

Бошим *туфроқ*, ўзим *туфроқ*, жисмим *туфроқ*,  
Ҳақ васлига етарман деб руҳим муштоқ.  
Куйдим, ёндим, бўлолмадим ҳаргиз офоқ,  
Шабнам бўлиб ер остига кирдим мано (АЯҲ.78).

Яссавий "*Бошим туфроқ, ўзум туфроқ, жисмим туфроқ*" деганида шу эътиқоддан келиб чиқади. Бунда тупроқ сабр-тоқатлилиқ, эзгу хулқ ва мурувват тарзида поэтиклашган.

Ошиқлик шундай бир мазҳабки, унда бировга озор бериш қатағондир. Бу пайғамбаримиздан қолган:

Ғариб, фақир етимларни кўнглин овлаб,  
*Кўнгли қаттиқ* халойиқдин қочдим маъно (АЯҲ.41).  
Суннат эрмиш, кофир бўлса, берма озор,  
*Кўнгли қаттиқ* дилозордан худо безор (АЯҲ.47).

юқоридагилардан кўринадики, «Девони ҳикмат» асосан ислом дини ғоялари, шариат ҳукмлари, пайғамбаримиз суннатлари ва яссавия тариқати билан боғлиқ мавзуларни қамраб олган ва уларни кенг халқ қатламлари орасига олиб киришни бош мақсад қилиб қўйган. Бунда фикрни бадиий ва таъсирчанлигини оширишда бадиий тасвир воситаларидан унумли фойдаланилган. Юқоридаги сатримизда «*кўнгли қаттиқ*» бирикмаси орқали жоҳил инсон тимсоли ифодаланган.

Қуйидаги мисраларимизда эса «*кўнгли қаттиқ*» бирикмасига зид ҳолатда «*кўнгли синиқ*» бирикмаси поэтиклашган. Яъни, бу бирикма орқали иложсиз, хафа, қийинчилик кўрган инсоннинг тимсоли поэтиклашган:

Қайда кўрсанг *кўнгли синиқ* марҳам бўлғил,  
Андоқ мазлум йўлда қолса маҳрам бўлғил,  
Рўзи машҳар даргоҳиға маҳрам бўлғил,  
Моуманлик халойиқдин қочдим маъно (АЯҲ.41).

Яссавий ижодида рамзий тасвирлар орқали диний фикр-ғоялар ўзига хос тарзда ифодаланганлигини кўрамиз. Аҳмад Яссавий ҳикматларида нафс, уни тийиш, ҳалол-пок ҳаёт кечириш, Оллоҳни таниш каби фикрлар ўзига хос содда ва равон усул билан ифодаланганлигини кўрамиз. Бунда ижодкор сўз ва сўз бирикмалари ёрдамида ифодалаган мажозий тасвирлар таъкидламоқчи бўлган фикрни осон ва аниқ тушуниб олишга хизмат қилган.

## “ЁДГОР” – ИШҚИЙ ҚАҲРАМОНЛИК ДОСТОНИ

А.Турсункулов, ЖДПИ ф.ф.н.

“Ёдгор”-достонини атоқли халқ шоири Фозил Йўлдош ўғлидан фольклоршунос олим Ҳоди Зариф ёзиб олган ва нашрга тайёрланган. Достон ўтган асрда бир неча марта қайта-қайта нашр этирилган. Достон Алпомишнинг ўғли Ёдгорнинг вояга етиб ўзига унаштирилган. Ойгулойни

олиб келишда кўрсатган ботирлик ва қаҳрамонликларига бағишланган. Ҳанузгача фольклоршунос олимлар орасида “Алпомиш” ва “Ёдгор” дostonлари бир туркумдан иборатми ёки йўқми деган масалада бир тўхтамга келишмаган. Фанда туркумлик бўлиш учун эпик юрт, эпик қаҳрамон ва эпик жанговар от бўлиши лозим, деган қараш шаклланган. Масалан, “Тўрўғли” туркумига кирувчи дostonларда Тўрўғли Чамбил Ғирот қатнашиши шарт. Уларнинг биронтаси тушиб қолиши мумкин эмас. Демак, “Алпомиш” туркумига кирувчи дostonда ҳам Алпомиш, Бойсун-Қўнғирот, Бойчибор қатнашиши зарур. Албатта, бу учликни туркумликнинг зарурий белгиси, деб қараш тўғри. Лекин шу билан бирга туркумликда мантиқий давомлиликни ҳам унутмаслик лозим.

Туркумлик масаласида фольклоршунос Ж.Эшонкул шундай фикр билдиради: “Маълум бир эпик қаҳрамон, унинг авлодлар ва сафдошлари ҳаётидан ҳикоя қилувчи дostonлар силсиласи. Туркумликка кирувчи дostonлар бир-бирининг изчил давом бўлмай, ҳар бири алоҳида-алоҳида воқеалар асосига қурилиши ҳам мумкин. Бу ўринда эпик қаҳрамонлар, эпик макон ва замон умумийлигига амал қилинади... Эпосдаги туркумлик ўз абиатида кўра икки хил бўлади. 1. Генеологик ёки наслий туркумлик. Бундай туркумлик таркибига кирувчи асарларда бир авлод ва наслнинг пайдо бўлиши, насл-насабидан тортиб кейинги авлодларнинг қисматида қадар барчаси мустақил асарларда акс этади. 2. Биографик туркумлик. Одатда генеологик туркумликлар ўзидан кичикроқ туркумликлардан ташкил топади. Бундай туркумликлар қаҳрамонлардан бири атрофида юзага келади”<sup>1</sup>. Демак, олимнинг фикрига таянсақ, “Ёдгор” дostonини “Алпомиш” дostonи туркумига мансуб бўлиб моҳияти ва табиатида кўра инсонлик ёки наслий туркумга киради.

Дoston Алпомишнинг Барчинойни олиб келиб Қўнғиротда беклик даврини сураётганлиги, дўсти Шомирот билан туғилажак фарзандлари ўғил бўлса дўст бўлишини, бири ўғил, бири қиз бўлса қуда бўлишга вадалашиши, шу орда Алпомишнинг қайнатаси Бойсарини кўчириб олиб келиш учун Қалмоқ юртича кетиб, бедарак йўқ бўлиб кетиши, Ултонтознинг ўзини ўзи бек деб эълон қилиб халққа аёвсиз зулм ўтказиши, Барчиной ўғил кўриб исмини Ёдгор, Шомиротнинг хотини Ойжамол қиз туғиб отини Ойгулой кўйиши, Шомиротнинг Ултонтоз зулмидан бешиб Аймоққа кўчиб кетиши воқеалари билан бошланади<sup>2</sup>. Дoston бошланишидаги воқеалар “Алпомиш” дostonига ўхшаш. Фақат Қўнғиротдан кўчиб кетиш сабаблари икки дostonда икки хил изоҳланган. “Алпомиш” дostonида бунга сабаб Бойбўри билан Бойсари ўртасидаги закот бўлса, “Ёдгор” дostonида Ултонтознинг ўз ҳаддидан ошиб, эл-юртга зулм ўтказиши билан бошланади. Шу ўрикда айтиб ўтиш лозимки, бу мотив “Алпомиш” дostonида атрофлича кўламда, бетакрор гўзал бадий лавҳаларда ўз ифодасини топган.

<sup>1</sup> Ж.Эшонкул, “Рустамхон” туркумлиги ҳақида, Ўзбек фольклоршунослигининг долзарб муоммолари. Тошкент, 2018, 15-бет.

<sup>2</sup> Ёдгор дoston. Ўзбек халқ дostonлари 2 томлик, Тошкент, 1957 й. 7-10-бетлар.

Достонда Ёдгорнинг Аймоқ паҳлавонларига қарши ўзи якка чиқиб ғолиб чиқиши қаҳрамонлик эпосларига хос хусусият. Жанр талабига кўра қаҳрамонда ёшлик давридаёқ алплик нишонлари куртак отмоғи лозим. “Ёдгор” достонида бу ҳол гўё “унутиб” қолдирилгандек. Яъни, Ёдгор Ойгулни олиб келиш учун сафарга чиққанча кўрсатмаган. Аслида достонда бунга эҳтиёж ҳам йўқ. Чунки Ёдгорнинг алплик куртаклари “Алпомиш” достонидаёқ намоён бўлган эди. Алпомишнинг бобоси Алпинбийдан қолган ўн тўрт ботмон биричдан бўлган ёйни Арпали чўлида ҳеч ким жойидан кўзгатолмаганда етти яшар Ёдгор кўтариб олади ва ота ўғли эканлигини, Алпомишга муносиб фарзандлигини исботлайди. Бу ҳол достонда Алпомишни пирлари кўмагида амалга ошганлиги гўзал лавҳаларда куйланади.

Кўп зулм Ёдгорга айлади қуллар,  
Фарзанд-да “Қултой” жуда интизор,  
Аввал обло, дуном каби бўлди ёр,  
Имом, чилтон келиб бўлди мадакор.  
Шоҳимардон пири назар солдилар,  
Комил пирлар бунга қувват бердилар.  
Ҳамиллашди келиб ўн икки Аҳмад,  
Ёдгорга худо берди кўп қувват  
Пирлардек етишди шундай каромат.  
Ёдгор шу камонди қаддин ростлади  
Қариб турган мўмин кўнглин хушлади.  
Пирим, деди Ёдгор тортди чирпиниб,  
Ўн тўрт ботмон ёйи бунда кўзгалди<sup>3</sup>

Ёдгор Аймоққа борганида Ойгулни оламан деб юрган аймоқлик полвонлар билан жанга кирганда Алпомишдай ғайрат кўрсатади ва ғолиб чиқади:

Ёдгор эрдай-ширдай бўлиб,  
Ҳар яғрини қирдай бўлиб,  
Урушли кун хўп савашди,  
Кўп душманмак бирдай бўлиб  
Урушли кун мардлар тошар,  
Майдонда мардин ярашар,  
Ёдгор қилич силтаганда,  
Аймоқ полвонлари қочар<sup>4</sup>

Ёдгорнинг аймоқлик полвонлар билан олиб борган савашлари Алпомишнинг Қаллоқларга қарши якка ўзининг олиб борган мардонавор курашларини эслатади.

Хуллас, “Ёдгор” достони “Алпомиш” туркумига мансуб бўлиб, достондаги айрим мотивлар, қаҳрамонларнинг кўрсатган мардлик ва жасоратлари ўртасида яқинликни кузатишимиз мумкин.

<sup>3</sup> Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Тошкент, 2015 й., 430-431-бетлар.

<sup>4</sup> Ёдгор, достон. 64-бет.

## ХУРШИД ДЎСТМУҲАММАД ПУБЛИЦИСТИКАСИНИНГ АЙРИМ ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ Ю.Қўшмонова, СамДУ

Публицистика фақат ахборот бериш эмас, балки муаммолар таҳлили, ҳаёт таклиф этаётган далилларни ўрганиш хусусиятлари ҳам демакдир. Шу билан бирга публицистик асарларда замонавий ҳаётнинг энг долзарб масалалари: сиёсий, иқтисодий, ахлоқий, фалсафий каби жамият учун энг кизиқиш уйғотадиган масалалар, маданият, кундалик ҳаёт ва тарбия муаммолари кўтарилади. Публицистиканинг газета-журнал кўринишлари кенг тарқалгандир. “Публицистик асарда ҳаётда учраган муҳим ҳодисаларни қайд этиш, уларга чуқур муносабат билдириш кўзга ташланади. У ана шу жиҳатдан кенг омма билан фикрий муносабатга киришишда ўзига хос воситадир. Бунинг учун биринчи навбатда, журналист кишиларни муаммога кизиқтира олиши, диққат-эътиборини жалб этиш учун асосий далилларни мақолага жойлаштира олиши лозим. Бунга эришишда ундан далилларни муҳимидан номуҳимини ажрата олиш фазилати талаб қилинади”. [1.,23] Шу билан бирга ҳаёт ҳодисаларининг ичига кириш, теран таҳлил қилиш, муҳим фикрларни ўртага ташлаш орқали ўқувчида кўтарилган масалага нисбатан муносабат уйғотиш лозим.

Умуман олганда, газета ва журнал публицистикасида муаллифнинг ҳозирги замон даражасида ўз нуқтаи назарини ифода эта олиши биринчи ўринда туради. Жамиятдаги ижтимоий муаммоларни очиқ ошкора таҳлил этиш публицистиканинг олд вазифаси ҳисобланади. Бундай хусусиятлар таниқли публицист ва ёзувчи Хуршид Дўстмуҳаммад ижодида яққол кўринади.

Публицистикада мавзу танлай билиш ва уни маҳорат билан тасвирлай олиш жуда муҳим. Бунда мавзунинг таъсирчанлигини таъминлаш учун бой лисоний имкониятлардан унумли фойдаланиш талаб этилади. Ушбу жиҳат Хуршид Дўстмуҳаммад публицистикасида муҳим кўринишда акс этган. Х.Дўстмуҳаммад ўз мақолаларида қайси мавзуда сўз юритмасин, матнни миллий тилимизга хос нозик қочиримлар, иборалар, ҳикматли сўзлар ва термин билан бойитишга алоҳида аҳамият қаратиб, таъсирчан ёзма нутқни вужудга келтирган.

Х. Дўстмуҳаммаднинг маънавий-ахлоқий масалалар бўйича ёзган қатор мақолалари бу борада, айниқса, эътиборга молик. Масалан, “Каттақўрғон тонги”: Жанжалнинг шоме борми?!” [2.] мақоласи сарлавҳаларининг ўзиёқ публицистнинг маҳорат билан сўз танлагани кўриниб турибди. Мақолада тилга олинган “Каттақўрғон тонги” газетаси таҳририятида юз берган ходимларнинг арзимаган баҳона сабаб тўхтовсиз шикоятбозлик ва жанжалкашликлари ўткир истехзо билан танқид қилинади. “Билмадим, улар мен мисол тариқасида келтирган кишига ўхшаб бекорчимми ёки “Каттақўрғон тонги”га ишга қайтиб тикланишдан кўра уларнинг камроқ ва буюкроқ маслак-мақсади қолмаганми ёки бўлмаса Ғ. Шукуровни “курашда” енгиб

чиқиш улар учун ҳаётларининг мазмун моҳиятига айланиб қолганми... яна қандай таҳминларга бориш мумкин?...” Х. Дўстмуҳаммад “уларнинг улканроқ ва буюкроқ мақсад-маслаги”, “кураш”да энгиб чиқиш улар учун ҳаётларининг мазмун-моҳиятига айланиб қолганми...” жумлалари орқали шикоятчиларнинг қиёфасини очиб беради. Мақолада ўзларининг майда икир-чикирлари билан ўралашиб юрганини улуғвор сифатлар билан қопловчи кимсаларга муносиб жавоб қайтарилган, дейиш мумкин. Бу публицистнинг ўз вазифасини теран англаб етганликни кўрсатувчи жиҳатлардан биридир.

“Ёзувчининг бахти” мақоласида эса Х. Дўстмуҳаммаднинг адабий баҳсда далиллаш усулидан самарали ва ўз ўрнида фойдаланганлигига гувоҳ бўламиз. У таниқли олим Ғайбулла ас-Салом ва З. Исомиддиновлар фикрини келтириб, оламда ёзувчилар ҳақида бошқача фикрлар ҳам борлигини машҳур санъаткорлар фикридан далил келтириб, ўқувчи дунёқарашининг ривожланишига туртки беради.

Ахлоқи бузилган ўсмир қизлар ҳаётидан ҳикоя қилувчи “Йўл бошида адашганлар” [3., 37] мақоласида касбий терминлардан таъкид ўрнида, масаланинг долзарблигига урғу бериш мақсадида фойдаланган: “Билим юртида тарбияланувчилар орасида Қизил Ўрданинг ҳарбий хизматчининг, тошкентлик фан доктори район ижроком раиси, олий ўқув юртининг катта ўқитувчиси ва “Халқ маорифи аълочиси”нинг вояга етмаган қизлари тарбия топган ва топаётганлигини қандай баҳолаш мумкин?! ” (“Ёш куч” журнали 1987 йил, 4-сон). Парчадаги касб даражаларини кўрсатувчи жумлалар ўқувчи эътибори беихтиёр мақолага тортишга, уни бошдан оёқ синчиклаб ўқиб чиқиш ва унга ўз муносабатини шакллантиришга ундайди. Х.Дўстмуҳаммад муайян соҳаларга хос терминлар қўллашда ҳам катта маҳоратга эришган. Жумладан, “Орзулар мавсуми” [4.] очеркида ана шу хусусиятни кўрамиз: “Сукунат. Бирлашма ходимларининг доимо кириб-чиқиб туриши, ҳар бир масаланинг тез ва ишчанлик билан ҳал қилинишидан ва бу хонани улкан коллективнинг энг замонавий электрон ҳисоблаш машинаси ўрнашган марказига қиёслаш мумкин. Ҳозир эса сукунат. Хонада бирлашма дарғасининг ҳаёли ҳукмрон”. Муаллиф бу ерда ўта маҳорат билан услубий топилма яратган. Мақола қаҳрамонларининг фаолияти, табияти ва фазилатларидан келиб чиққан ҳолда уларни умумлаштириб “улкан коллективнинг энг замонавий электрон ҳисоблаш машинаси” билан қиёслайди. Бинобарин, гап “Кибернетика” илмий ишлаб чиқариш бирлашмаси бош директори, улкан олим Восил Қобулов ҳаёт йўли ва фаолияти ҳақида бормоқда.

Яна бир йўл очерки “Хурлик ва хавфсизлик: мувозанат истаги” деб номланган. Публицист очеркида Америкада бўлиб ўтган “Миллий хавфсизлик ва матбуот эркинлиги: мувозанат излаб...” мавзуидаги тадбир ва АҚШдан нималарни кўриб, ўрганиб қайтишганлиги ҳақида сўзлайди. Очеркни қисмларга бўлиб, мазмунидан келиб чиқиб номлайди. “Ҳақиқат нисбий” деб номланган қисмида АҚШ журналистикаси ва бу борада Оммавий ахборот воситалари ва ижтимоий муносабатлар кафедраси

профессори Жанет Стил хонимнинг “...олима журналистларнинг ахлоқий қонунлари ҳақида тўхталиб, профессионал маҳоратни ошириш, сўз эркинлиги ва маъсулиятини ҳис этиш касбий ахлоқ тушунчаларидан бошланишини таъкидлади. “Давлат журналистларнинг ахлоқий қонунларига аралашмаслиги керак. Журналистларимиз “қўриқчи ит”лик вазифасини ўзларининг муқаддас вазифаси деб биладилар” [5., 83] деган фикрларини келтириб ўтади. Ва бу қарашларга менталитетимиздан келиб чиққан ҳолда ўзининг фикрлари билан бойитиб боради. “Бундай мулоҳазалар нечоғли яхшилиги маълум, аммо-лекин мутлақо ички маънавий ҳодиса, зеро, ташқаридан белгиланган ва назорат қилинган ахлоқдан кўра ички маданият даражасига кўтарилган ахлоқ ишончлироқдир.” [5., 85] “Пентагонда... Чуст пичоқчаси”деб номланган қисмида эса, АҚШ Мудофаа вазирлигига ўзбек журналистларининг саёҳатлари давомида пичоқ билан боғлиқ воқеани ҳикоя қилинади. “Титаникдан қолган мерос”, “Оқ нуқта устида”, “Жефферсон ва Линкольн жасорати”, “Лизахонимга ҳавасим келди”, “Қонун ва яна қонун” деб номланган бўлимларда ҳам саёҳат давомида кўрган ва ўрганган воқеа ва ҳодисалар ҳақида шунчаки сўзлаб бермайди. Ҳар бир воқеага ўзининг фикр ва қарашларини сингдириб боради. Ҳар бир масканнинг тарихи билан таништиради. “Одамларга эркинлик, ҳурлик беришдан кўра улуғроқ, савоблироқ хизмат йўқ. Буни қаранг, Америка президентларидан бири А. Линкольн қора танлиларга жисмоний озодлик берган бўлса, Т. Жеффирсон тафаккурлар ҳурлиги учун курашни муқаддас бурчи деб ҳисоблаган. Ўз измига солиш бошқа, халқни ўз измига қўйиш бошқа.” [5., 90] Х. Дўстмуҳаммад ижодий ишларининг барчасида куйинчаклик билан ёзиши унинг фактлардан кенг фойдаланишида кўринади. “Мақсадга садоқат йўлдош бўлгач” ҳар қандай иши маҳорат билан ёзилади. Очеркни ўқиш давомида Америка ҳақида жуда кўплаб маълумотларга эга бўлиш билан бирга, уни қисмларга бўлиб ёзганлиги ва ҳар бир бўлимни қизиқарли воқеалар билан бойитгани, ёзувчининг холис баҳоси, журналистик кузатувчанлигига юқори баҳога лойиқ. Бундан ташқари, бирор бир гапга эътиборимизни қаратиш учун қавс ичида қўшимча маълумот бериб, таъкидлаб ўтиши Х.Дўстмуҳаммадга хос услублардан биридир. Очеркнинг “Қонун ва яна қонун!” деб номланган туркумида Америкада ҳамма қонун мустаҳкам ўрнатилганини мисоллар билан таъкидлайди. Инсон учун барча имкониятларни қонун яратиб беришини айтади. Охирида бизда қонунларнинг ишламаслиги, оддий халқ эса талаб қилгани билан фақатгина овора бўлиб қолиши, демократик жамият қуриш учун қонунларга сўзсиз бўйсунуш лозимлиги, халқ жамият учун эмас, жамият халқ учун ишлаши кераклигини таъкидлайди. Шунинг билан бирга аслида кимлар қонунбузар эканлигини очиқдан очиқ фош этади ва танқид остига олади. “Хаёлан кўз ўнгимизга келтиришга уриниб кўрайлик: мамлакатимиз миқёсида жойдан-жойга кезиб юрган шикоят хатлар, арзномалар, илтимосномалар оқимини тасаввур қилайлик. Ҳам расмий, ҳам норасмий, ҳам ўринли, ҳам ўринсиз, битадиганидан битмайдигани кўп. Нега, нега шундай? Ким уларни сарсону саргардон қилиб қўйди? Кимга керак

бировни юкинтириш? Кимга зарил одамларни (ўз ватандошларимизни) илтимосчиларга, бечораларга айлантириш?

Ақл бовар қилмайди... бундай ҳолатнинг жамики моддий ва маънавий зиён-заҳматини кўя турайлик-да, у шахс камоли йўлидаги энг баҳайбат тўсик эканини мулоҳаза қилайлик. Одамни қарам қилиб кўяётган, мавжуд имкониятини тўғри ва фойдалироқ йўсинларга йўналтира олишга имкон бермаётган иллат шу эмасми? Қайси идорага ёки якка шахснинг хизмат дунёсига бош суқсангиз кимдандир шикоят қила бошлайди. Иши юришмаганининг минг битта баҳонасини дастурхон қилади. Айтганларининг қарийб барчаси қонунга хилофликдан келиб чиққан бўлади. Қонуннинг бузилишига йўл қўймасликка қурби етмайди оддий одамларнинг.

Чунки қонунни оддий фуқаролардан кўра гоҳида мансабдор кишилар каттиқроқ, шафқатсизроқ бузадилар, оддий фуқаронинг ғайриқонуний хатти-ҳаракатига тегишли баҳо бериш қийин кечмайди, амалдор ёки бойвачча ёмғир остидан қуруқ чиқиш имконини топади.” [5., 94].

Ёки бошқа улуғ аллома қисмати ҳақидаги “Ҳиёнат қурбони” [6.] мақоласида илмий атамалардан унумли фойдаланади: “...Саъди Сирожиддинов Стеклов номидаги Математика институтида Марков занжири ҳамда эҳтимоллар назарияси соҳасидаги ютуқларни математика статистикасига татбиқ этиш борасида изланишлар олиб бориб, фан доктори даражасига эришди”. Марков занжирлари, эҳтимоллар назарияси, математика статистикаси атамалари олимнинг фаолияти ҳақида аниқ тасаввур уйғотишга хизмат қилган.

Хуллас, Х. Дўстмуҳаммад ижтимоий публицистикада тил хусусиятларидан муваффақиятли фойдаланиши ҳам унинг ижодий мақсадга эришишда яхши замин ҳозирлаган. Жамият ҳаётидаги ижтимоий иллатларни фош этишда муаллифнинг мақол ва ибораларни теран мазмунда ишлатиши, танқидий руҳни кучайтиришда фойдаланиши матн тилини юқори даражага кўтарган. Шу боис унинг қаламига мансуб публицистик асарларининг тил хусусиятларини ўрганиш тилшунослигимиз олдидаги муҳим ва долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

#### **Адабиётлар:**

1. Тоғаев О. Публицистик тадқиқот санъати. -Т.: Ўзбекистон. 1986.
2. Дўстмуҳаммад Х. Хуррият газетаси. - 1999, 26 май.
3. Дўстмуҳаммад Х. Ёш куч журнали.- 1987, 4-сон
4. Дўстмуҳаммад Х. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси.-1981, 25 сентябр.
5. Дўстмуҳаммад Х. Озод изтироб қувончлари. -Т.: Маънавият. 2000, 83-бет.
6. Дўстмуҳаммад Х. Хуррият газетаси.- 1997, 26 май



## ҚИССАНИНГ ИФОДА УСЛУБИ ВА БАДИИЙ МАҲОРАТ С.Юлдашева, СВХТХҚТ ва МО, доцент

Бадиий асарнинг жозибадорлиги, сермазмунлиги, равон ва пухталиги биринчи галда ёзувчининг нутқи орқали билинади. “Маълумки, насрий асарларда муаллиф нутқи улкан бадиий вазифани бажаради. Биринчи навбатда муаллиф нутқи бевосита таништирув ва ахборот берувчи характерда бўлиб, асар асосидаги ғояни очишга қаратилади. Ёзувчи ўзининг бевосита нутқи билан асардаги барча воқеалар тасвирида қатнашади. Китобхон қаҳрамон қиёфаси, характери ва рухий дунёси билан ана шу нутқ орқали танишади<sup>49</sup>”. Муаллиф нутқ воситасида ахборот бериш ва таништиришда тасвири образли жумлалар билан бойитади ва таъсирчанлигини оширади. Бу билан ўзига хосликни юзага келтиради ҳамда ўз индивидуал услубини намойиш қилади.

Қиссанавислар қаҳрамонларни яратар эканлар, уларга муносабатини даставвал нутқи орқали билдирганлар. Қиссалар ровий тилидан ҳикоя қилиш усули билан яратилган. Қиссаларда халқ оғзаки ижоди ва ёзма адабиётига хос хусусиятлар ўзаро уйғунлашиб, бири иккинчисини тўлдириб, ўзига хос ифода услубини вужудга келтирган. “Қиссаи Машраб” эса кейинги даврлар маҳсули бўлгани боис қисса тили анча пухта, силлиқ жумлаларга бой. “Қиссаи Машраб”да жами 3217 мисра шеърий матн мавжуд бўлиб, шундан 146 та ғазал (1848 мисра), 6 та мустаҳзод (152 мисра), 4та мураббаъ (44 мисра), 27 та мухаммас (1085 мисра), 1 та мусаддас (36 мисра) ҳамда 52 мисра ғазал шаклидаги байтлардан иборатдир. Унда қаҳрамонларнинг фаолияти, ҳаракатлари насрий усулда баён этилса, уларнинг рухий ҳолатлари, хис-туйғуларини ифодалашда бадиий ижоднинг энг нозик усуллари билан бири – ғазаллардан фойдаланишга алоҳида эътибор берилган. Шеърий усулда қаҳрамон руҳиятини очиб бериш ҳолати ҳам учрайди.

Қиссада муаллиф нутқи билан бирга персонажлар нутқи ҳам қоришиқ ҳолда келганки, бу баён қилиш услубининг ишонарли бўлишини таъминлаган. Насрда персонажларнинг савол-жавоби кўчирма гаплар тарзида берилиб, “айди”, “деди” каби муаллиф сўзлари билан ифодаланган. Шеърий намуналар асосан бош қаҳрамонларнинг руҳияти, қувончи, қайғули ҳолатини, ахлоқий ва фалсафий қарашларини ифодалаш учун қўлланган.

Машраб ижодкорлар аҳлидан бўлганлигига қиссада ишора қилинган ҳамда унинг тилидан ғазаллар, мухаммаслар, мустаҳзодлар келтирилган. Бошқа персонажлар диалоги ва сўзлари оддий насрий йўл билан ифодаланган. Шунингдек, “Қиссаи Машраб”даги аксарият эпизодларда Машраб феъли-сажиясига хос киноя билан гапириш хусусияти мавжуд. Пичинг, кесатик маъносида фикр ифодалаш, тингловчининг ақл-фаросатда зийраклигини текшириш каби белгилар қаҳрамонда тез-тез учраб туради: “... *шоҳ Машраб мавлоно Шарифда “Мушкоти шариф” ибтидо қилдилар. Ҳар кунда “Мушкот”дин бир варақ ўқуб, хужрага кириб, миқроз бирла ул варақни*

49 Тўраев Д. Ёзувчининг нутқий маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004. 4-сон, 86-87-б.

қирқиб, пора-пора қилиб, чилимга солиб, тортар эрдилар. Дудини ютуб юборур эрдилар. Бу воқеани муллолар кўруб, мавлонога арз қилдилар. Мавлоно айдилар: "Эй Машираб, ўқуғон дарсингизни такрор қилмай, нега чилимга солиб тортарсиз". Машираб айдилар: "Баъзиси кўнглумга ўлтурмади хат ва қоғоз мусофир бўлмасун, деб, ҳамасини кўнглумга тортиб олдим", – дедилар ва айдиларки: "Манга рухсат берсангиз Қуръонни назм қилсам". Мавлоно айдилар: "Қуръонни то бул вақт ҳеч ким назм қилган йўқдур, агар бу ишни қилсангиз Қуръон хор бўлса керак, наинки бу иш сиздин ҳосил бўладур". Шоҳ Машираб айдилар: "ман сизни аҳли фаҳм десам, бир зоҳиди хушк экансиз" [151, 137]. Лавҳада Машраб мавлоно Шариф хузурида "Мушқоти шариф", яъни "Ҳадиси шариф"дан сабоқ олади. Сабоқ жараёнида кўнглига ўтирмаган (ёлғон аралашган) ҳадислар ёзилган қоғозларни йиртиб, чилимга солиб ёкиб юборарди. Бу билан ўз муносабатини ифодалар эди ва пичинг қилиб, Қуръонни назм қилиши кераклигини айтганда, мавлоно унинг устидан кулади. Машраб: "ман сизни аҳли фаҳм десам, бир зоҳиди хушк экансиз", – деган сўзи билан мот қилади, яъни бундан сиз "ёлғон аралашган ҳадислар"дан сабоқ берганингизда, нега энди мен Қуръонни назм қилмай, деган хулоса келиб чиқади.

Машрабнинг тил ифодасида ҳам ирония анча кучли. Яна бир лавҳада Машраб Бозор охунддан изн сўраб: "Бир маъшуқим бор эрди, манга ваъда қилиб эрдик, эримни саҳрога юборурман, келгил икковимиз айшу ишират қилурмиз, деб эрди, сиздин жавоб олғони келдим. борайму бормайму?" – деб, рухсат олиб идғоҳга келади. У ердаги катта кўлга шўнғиб анча муддат кўринмай қолади. Халойиқ уни чўккан деб билиб, оналарига хабарни етказдилар. Онаси зор-зор йиғлаб турганида, у сувдан чиқиб келади. Бозор охунднинг "Қаерда эрдинг?" – деган саволига жавобан: "Маъшуқим бирла ҳазл мутоиба қилиб ўтуруб эрдим, баногоҳ эри саҳродин ўтун кўтариб келиб қолди ва мани тутуб олиб таёқладилар. Шарманда бўлаёздим, лозимимни кўлтуглаб қочтим", – дедилар. [151, 19-21]. Машраб бу "ёлғон" сўзлари билан кундалик турмушдаги фаҳшни, фиску фужурни фош этади, кишилардаги иллатли қусурларни ўз хатти-ҳаракатлари орқали намоиш этиб, бунга чек қўйиш кераклигига ундайди. Қадимда ғарб давлат арбоблари саройида хизмат қилган қизиқчиларнинг танқидий мазмундаги сахна ўйин-томошаси кўчма маънода таҳлил қилинган ва бу билан саройида, аркони давлатда бўлаётган қинғир ишлар ҳукмдорга ишора қилинган. Бу билан донишманд қизиқчилар ҳам маълум жиҳатдан давлатбошчисига ақлан таъсир эта олганлар. Айни шу тадбир билан кишилик жамиятига таъсирини ўтказиш хусусияти Машраб шахсиятида ҳам мавжуддир. Машраб учун ҳар қандай давра "сахна" ролини ўтаган, у ўз "нағма-ўйинлари"ни эмин-эркин намоиш этган. Халқ унинг томошабини бўлган ва унинг ҳар бир "ижроси"дан тегишли хулосалар чиқарган. Машрабни ўз даврида тўғри тушунганлар ҳам, унинг қилиқларининг асл моҳиятини тушунмаганлар ҳам бўлган.

Мозийдан давом этиб келаётган анъана – ҳаёт материали заминиди бадий образ яратиш, яъни прототипдан адабий тип яратиш ғоятда мушкул

иш бўлган. “Қиссаи Машраб”да муаллиф Машрабнинг ҳақиқатпарвар ва чўрткесар феъли ёрдамида ўша давр ижтимоий-сиёсий муҳити ҳақида ҳам ахборот беради. Машрабнинг саёҳатлари орқали ҳар бир худуддаги халқнинг аҳволи билан таништиради, замонадаги айрим дин пешволарию мулло мударрисларнинг, уларнинг йўриғига тушиб қолган баъзи давлат арбобларининг ҳақиқий қиёфасини очиб беришга интилади. Шу орқали икки мақсадни амалга оширади, ҳам тарихий шахснинг бадий сиймосини яратади, ҳам мавжуд тузумга муносабатини билдиради.

Умуман олганда, қиссаларда киритма ғазалларнинг аҳамияти шундаки, улар қаҳрамонларнинг ўз-ўзини сўзлатиш орқали характерини очишдек вазифани ўтаган бўлиб, асар образларининг нутқлари сифатида ифодаланган. Бугунги кунда образларнинг нутқи орқали уларнинг характерини яратиш маҳорати алоҳида эътироф этилаётган бир пайтда, бу мумтоз адабиётдан ҳозирги замон адабиётига кириб келган ўзига хос анъана, усул эканлиги намоён бўлади.

## **ОИЛА МАЪНАВИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ ТАРБИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ**

**Ф.Маматқулов, ЖДПИ доцент.**

Миллий тарбия тизимида оила маънавияти, ундаги ота-онанинг ўрнига аждодларимиз алоҳида эътибор қаратганлар. Бу борада Амир Темур ўзига хос алоҳида мислсиз ўрин эгаллайди. Амир Темур ҳукмронлик йилларида Самарқанд, Ҳирот шаҳарларида маданият, илм-фан ривожланди. Соҳибқирон одоб-ахлоқ, имон, эътиқод, таълим-тарбия соҳасида юксакликка эришган сиймолардан ҳисобланади. Бунинг исботи Амир Темур яратган одоб-ахлоққа оид дастурлари, ўғитлари, панд-насихатлари, ҳамда, соҳибқирон ҳақидаги ёзилган тарихий манбаларни, асарларни ўқиб чиқиш етарли. Жаҳонга машҳур “Темур тузуклари” асарида Амир Темурнинг ибратли, ҳаётий тажрибалари, қимматбаҳо насихатлари, фикрларининг аниқ, теранлиги, таъсирчанлиги яққол кўзга ташланади ва инсонни хушёрликка чақиради.

Биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъкидлаганидек “Халқнинг маънавий ва маданияти, унинг ҳақиқий тарихи ва ўзига хослиги қайта тикланаётганлиги жамиятимизни янглашиши ва тараққий эттириш йўлидан муваффақиятли олға силжишида ҳал қилувчи, таъбид жоиз бўлса белгиловчи аҳамиятга эгадир”<sup>1</sup>

Ватанга, эл-юртга ҳурмат каби одамийлик белгилари дастлаб оилада юзага келади. Баркамол авлод, янги давр кишисини тарбиялаб етиштиришда оиланинг аҳамияти беқиёсдир. Оилада болалиқдан бошлаб шахс шакллана боради. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг шахсий иборати жуда муҳимдир.

Миллий тарбия соҳасида, оилада болаларни юксак фазилатли инсонлар қилиб тарбиялашни ота-она ва кенг жамоатчиликнинг намунаси, ибрати

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Тошкент, Ўзбекистон, 1999, 299-300-бет.

миллий қадриятларимиз ва халқ оғзаки ижоди манбалари, миллий удумларимиздан тарбия воситаси сифатида фойдаланиш, ёшларни маънавий бой, ахлоқан пок, эътиқоди бутун, тафаккури теран, дунёқараши кенг инсонларни тарбиялашда муҳим самара беради.

Биринчи Президентимиз Ислам Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида оила тўғрисида шундай фикрларни илгари суради: “Бугунги кунда бизнинг қилаётган барча ишларимиз фарзандларимизнинг бахту саодати, уларнинг ёруғ келажаги учун амалга оширилмоқда. Лекин бахту саодат фақат бойлик, молу мулк билан белгиланмайди. Одоби, билимдон ва ақлли, меҳнатсевар, иймон-эътиқодли фарзанд нафақат ота-онанинг, балки бутун жамиятнинг катта бойлигидир”<sup>2</sup>.

Оиладаги юз берадиган айрим воқеа-ҳодисалар ўрнига қараб бола шахсининг ривожланиши ва шаклланишига ижобий маънода ёки салбий маънода таъсир кўрсатиши мумкин. Бола бир кунлик ҳаёти давомида уйда, таълим муассасаида, жамоатчилик орасида, бозорда кўплаб воқеаларни гувоҳи бўлади. Шунинг учун болага авваломбор оилада катталарнинг эътибори лозим бўлади.

Миллий урф-одатларимиз, анъаналаримиз ичида бола одоби, хулқи, ахлоқи, тарбиясига доир урф-одатлар айниқса муҳим ўринга эга. Шу нарса маълумки, халқнинг соф ҳолда кўриниши болаларда намоён бўлади. Қачонки болаларда миллийлик ўлар экан, бу миллат ўлимининг бошланишини билдиради. Тарбияда миллийлик қанча кўп сақланиб қолган, шу миллат шунча кучли маданиятга эга, маънавий бой ҳисобланади<sup>3</sup>.

Оилавий тарбия – бу, аввало ота-онанинг ўзини тарбиялаш демакдир. Ота билан она оиланинг, муқаддас қўрғоннинг устунларидир. Ота ва она қанчалик тарбия кўрган бўлса, бу қўрғон ҳам шунчалик мустаҳкамланиб бораверади. Шу боис фарзандни дунёга келтириш билан бир қаторда унинг тўғри тарбияси, иймон-эътиқодли бўлиб тарбияланиши ота-онанинг юксак масъулиятни ҳис қилишига боғлиқ.

“Тарбиянинг мазмуни энг яхши ўзбек оилаларида амал қилган ва амал қилаётган тарбиянинг мазмуни ҳамда мустақиллик шароитида давлат ва жамият томонидан оила – мактаб тарбиясидан келиб чиқади. Муайян фазилатларнинг изчил турли вазиятларда, турли воситалар ёрдамида сингдирилиб, такомиллаштирилиб борилиши пировард натижада давлат ва жамият, оила, маҳалла, мактаб учун намунавий ўқувчи, ўғил-қиз ахлоқини ҳосил қилиш мумкин”<sup>4</sup>.

Бизнинг ворисларимиз бўлган ёшлар биринчи Президентимиз И.А.Каримов таъбирлари билан айтганда, “Биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлишлари шарт”.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият-кенгилмас куч. Тошкент, Маънавият. 2008 й., 56-бет.

<sup>3</sup> Волков Г.Н., Баубекова Г.Д.Этнопедагогика. Тошкент., Фан, 2000. 38-бет.

<sup>4</sup> Қуронов М. Мафқуравий таҳдид ва ёшлар тарбияси. Тошкент, 2008. 17-бет.

## ШАРҚ ВА ҒАРБ ХАЛҚ ҚАҲРАМОНЛИК ЭПОСЛАРИГА БИР НАЗАР

З.Р.Эшмуродова, СамДУ

Она табиат нақадар ранг-баранг ва хилма-хил бўлса, ер юзида яшовчи аҳолининг этник қиёфаси ҳам шу қадар ранг-баранг, турли-тумандир. Статистик маълумотларга кўра, ўтган аср охирларида жаҳонда икки мингдан ортиқ халқлар ва элатлар яшаган. Баъзи манбаларда эса ер юзида яшовчи катта-кичик этносларнинг сони уч-тўрт мингга яқин, деб кўрсатилади. Шуларнинг 260 таси бир миллиондан ортиқ кишига эга халқлардан иборат бўлиб, жаҳон аҳолисининг 96 фоизини, дунёда энг кам сонли аҳолига эга бир ярим мингга яқин элатлар эса бир фоизини ташкил қилади. Тили жиҳатидан бир-биридан ажралиб турадиган этник бирликларнинг сони уч мингдан ортиқ.

Мамлакатимиз ўз мустақиллигини қўлга киритганидан сўнг кўплаб соҳаларга, хусусан, маданият ва адабиётга бўлган эътибор ортди. Шу жумладан, хорижий мамлакатлар тили ва адабиётига ҳам муносабат ўзгарди. Чунки жаҳон халқлари маданий ва маънавий бойликлари билан танишиш ўз миллий меросимизни муносиб баҳолаш имконини беради. Бу борада жаҳон адабиётини ўрганиш, айниқса муҳим аҳамият касб этади. Жаҳон адабиётига мансуб асарлар инсоният тараққиётининг энг асил дурдонаси ҳисобланади. Антик дунёдан то бугунги кунимизгача яратилган асарлар мукамал тарихий воқеаларни кўз олдимизда намоён этиб келаётгани сир эмас. Бу асарларни нашр эттириш юзасидан мамлакатимизда кенг қамровли ишлар давом этмоқда.

Қадимги юнон ёзма адабиётининг бизгача етиб келган яккаю-ягона ёзма намунаси “Илиада” ва “Одиссея” дostonларидир. Гомернинг номи билан боғлиқ бўлган ҳар иккала поэманинг мавзуси Троя афсоналаридан, яъни юнонлар билан трояликлар ўртасида бўлиб ўтган уруш ривоятларидан олинган. Илм аҳллариининг айтишларича, юнонларнинг трояликлар устига бостириб келишлари тарихий воқеа бўлиб, эрамиздан тахминан XIII-XII аср илгари юз бергандир. Ана шу уруш ҳақидаги ривоятлар йиғиндисидан юнон мифологиясининг “Троя уруши афсоналари” деб аталувчи туркуми юзага келган. “Илиада”да урушнинг ўнинчи йилида бўлиб ўтган муҳим бир ҳодиса тасвир этилган. Троянинг улуғ паҳлавони Гекторнинг ўлими билан асар воқеалари ниҳоясига етади.

Гомер асарларининг бош қаҳрамонлари фақатгина беқиёс паҳлавонлар эмас, шунингдек, маъбудлар наслига мансуб баркамол шахслар ҳам бўлганлар. Олимп тоғининг ҳукмронлари ҳар доим паҳлавонларга ҳатто мангу ҳаёт ҳам бағишлайдилар. Дostonларда бир қанча маъбудлар иштироки асар воқеаларини янада жонлантириб юборади. “Одиссея” дostonида Посейдон маъбудининг ҳаракатлари ўринли қўлланган ва асарга жуда катта шухрат келтирилишида мифларнинг роли ҳам беқиёс юнон кишилари табиатдаги ҳамма жонли нарсага маъбудлар таъсири натижасидаги ҳодиса деб қараши асарда кўрсатиб ўтилган. Юқорида қайд этиб ўтганимиздек,

бадий воситаларнинг ҳаммаси Гомер поемаларига ажойиб ҳаётийлик бағишлайди, киши асарларни ўқир экан, тасвир этилган ҳодисаларни ва қаҳрамонларнинг қиёфасини ўз кўзи билан кўргандек бўлади. Мана шу хусусият Ўрта Осиё халқларининг мардлик, баҳодирлик ҳақидаги ажойиб дostonларидан бири «Алпомиш» мисолида ҳам кўришимиз мумкин.

Алпомиш дostonида ҳам Гомер поемаларида бўлганидек, ўхшатишлар жуда муҳим ўрин тутади. Ўхшатишлар баҳодирларнинг куч-қувватига, жасоратига, қурол-аслаҳаларига, аёлларнинг ҳусн-жамолига нисбатан ишлатилади. Гомер поемалари билан «Алпомиш» дostonи ўртасида фақат бадий воситаларнинг яқинлиги жиҳатдангина эмас, ҳатто мазмуннинг ўхшашлиги жиҳатдан ҳам муштараклик бор. Ўзбек халқи дostonининг қаҳрамони Алпомиш ҳам худди Одиссей сингари душманлардан қасос олиш ниятида узоқ сафарга кетади. Бу асарлар ўртасидаги яқинликларни фақатгина Юнон ва Ўрта Осиёдаги ижтимоий ҳаётнинг маълум тарихий шароитларида бир-бирига яқин бўлганлиги билан изоҳлаш мумкин.

1. «Алпомиш» дostonида бир оила тақдири тасвири мисолида, тақдир тақозоси билан бўлиниб кетган қадимий бир ўзбек уруғининг қайта бирлашишини бадий акс этириш орқали миллат бирлиги ғоялари, унинг қаҳрамонона шон-шуҳрати, эл-юрт фаровонлиги ва оила бахти, ватан равнақи учун кураш баралла куйланган. Шу маънода ушбу дoston халқимизнинг уйғоқ хотирасидир. Шунинг учун ҳам бугун биз уни мустақил ривожланиш даврида миллат бирлиги ва маънавий уйғониши, миллий ғурур ва ўз-ўзини англаш рамзида айланган дoston сифатида баҳоламоқдамиз.

2. Аслида, халқимизнинг қадимий ва шонли тарихи туганмас бир дoston бўлса, «Алпомиш» ана шу дostonнинг шоҳбайтидир. Бу мумтоз асарда тарих тўфонларидан, ҳаёт-мамот синовларидан омон чиқиб, ўзлигини йўқотмаган халқимизнинг бағрикенглик, матонат, олижаноблик каби эзгу фазилатлари ўз ифодасини топган»

3. «Алпомиш» дostonи халқимиз орасида жуда кенг тарқалган ва асрлар давомида бахшилар томонидан куйлаб келинган. Шу билан бирга у туркий халқларнинг муштарак дostonи ҳамдир. Унинг намуналари ўзбек, қорақалпоқ, қозоқ, олтой халқлари эпик анъаналарида дoston ҳолида, татар, бошқа халқлари орасида эса эртак ва ривоятлар тарзида, яна аниқроғи, оралиқ шаклда сақланиб қолган ҳамда бу халқларнинг тил хусусиятларига кўра «Алпомиш», «Алпамис», «Алпамис ботир», «Алип-Манаш», «Алпамша», «Алпамиша ва Барсин ҳилув» каби номлар билан юритилади. Шунингдек, Панжикент атрофлари, Қашқадарё вилоятининг Варгонза, Жейнов қишлоқларидан ўзбек дostonчилиқ анъаналари таъсирида юзага келган ҳамда жиддий трансформатсияга учраган тожикча ва арабча вариантлари ҳам ёзиб олинган. Ёзма манбалар орқали бизгача етиб келган ўрта аср ўғуз эпоси «Дада Қўрқут китоби»нинг «Бамси Байрак» ўзининг сюжет воқеалари жиҳатидан «Алпомиш»га анча яқин туради.

Ҳар бир халқ ва миллатнинг ўз қаҳрамонлик эпоси бўлганидек, француз халқининг ҳам фахр туйғусини берувчи ўз эпослари мавжуддир.

Қадимги француз поэзиясининг илк намуналари меҳнат, жанговар юриш, маиший ҳаёт, диний урф-одат ва никоҳ масалаалрига бағишланган кўшиқлар шаклида бунёдга келган. Халқ ҳаётидаги алоҳида воқеаларни гавдалантирган бундай кўшиқлардан эпик дostonлар таркиб топган. Жамоа ижоднинг самараси бўлган ва севги саргузаштлари, қаҳрамонона курашларни акс эттирган бундай дostonларда халқнинг ҳаёти, орзу-умидлари ўз ифодасини топган.

Алалхусус, биз юқорида иккита халқнинг қаҳрамонлик эпоси ҳақида қисқача тўхталиб ўтдик. Бу эпосларга тўхталишимиздан мақсад қаҳрамонлик эпослари тушунчаси, унинг моҳияти ва қисқача тарихи, асосий қаҳрамонлари, уларнинг мардлик ва ватанпарлик руҳида қилган ишлари, Ватанга муҳаббат, севган ёрга нисбатан бўлган муҳаббатнинг куйланиши, уларга бўлган муҳаббат йўлида нималарга қодир эканлигини ҳар бир ёш авлод, хоҳ у мактаб ўқувчиси, хоҳ у коллеж - лицей ўқувчиси, хоҳ олий таълим талабаси бўлишидан қатъий назар албатта ўқиб ундан ўзига тегишли ижобий хулосаларни чиқариши лозим, деб ҳисоблаймиз.

#### **Адабиётлар:**

1. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. (XVIII-XX асрлар). - Т., Ўқитувчи, 1987.
2. Бақоева М. Байроннинг "Кўнглим қоп-қоронғу" шеъри таржималари ҳақида. (Мақолалар тўплами. "Таржима назарияси масалалари". №540. - Тошкент, 1977).
3. Бақоева М. Байрон ижодига Шарқ адабиётининг таъсири ва таржима масаласи. Таржима назарияси масалалари. Илмий ишлар тўплами, №606. - Тошкент, 1979.
4. Маҳмудов М. Ҳайрат ва тафаккур. - Тошкент, 1990.
5. Пўлатов Ю. Ўзбекистонда чет эл адабиётини ўрганишга доир. - Тошкент, 1975.
6. Пўлатов Ю. Асрларга туташ ҳамкорлик. - Тошкент, 1974.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. - Тошкент, 1997.

### **СИЗ ЭДИНГИЗ ОЙГУЛГИНАМ, МЕН БАХТИЁР...**

**Дилором Атамуротова, ТермизДУ**

Ўзбек адабиёти ўзининг улуғ сиймолари ижоди билан асрлар давомида миллатимиз қалбини энг нафис, энг олийжаноб туйғулар ила зийнатлаб келган. Ана шундай халқ қалбида ўчмас из қолдирган сиймолардан бири Ҳамид Олимжон ва Зулфия эди. Тақдир йўллари бу икки қалам соҳибларини бирлаштириб, биргаликда ҳаёт ва ижод қилишдек бахтни инъом этди. Назм гулшанида муҳаббат оламининг бахтли ошиқлари каби икковлон жўшқин ижод қилар эди. Лекин кўкқисидан пайдо бўлган бешафқат ўлим уларни бири-биридан бир умр айирди. Зулфиянинг ёш бошига оғир мусибат ва кулфат тушди. Ҳамид Олимжондай умр йўлдоши – тоғдай таянчи, тенгсиз устозидан

жудо бўлди. Тақдирдан шод шоиранинг қувончи энди айриликқа, бахти эса хижронга, висоли эса армонга айланди.

Бахтиёр севгини куйларди созим,  
Ўлим ханжарига тегди-ю, синди  
Хижрон фарёдидай совуқ овозим  
Нахот, лириканинг ёлқини тинди?

Оғир ғам—ғусса Зулфия кўзига ёруғ жахонни тўсиб қўймади. Зулфия ўз қалбига бу ёруғ дунёни тарк этган ёрининг ёрқин хотирасини мухрлаб яшади ва ижод қилди.

Ҳижронинг қалбимда, созинг қўлимда  
Ҳаётни куйлайман, чекинар алам  
Тунлар тушимдасан, кундуз ёдимда  
Мен тирик эканман, тириксан сен ҳам.

Шоиранинг ўзи эътироф этишича, бу қисмат унинг дилига икки забардаст қалам – Ҳамид Олимжон ва Зулфия қалами учун меҳнат қилишга улкан мажбурият юқини юклади ва не бахтки, Зулфия ижоди ўзбек адабиётининг чинакам нузли саҳифасига, бахтига айланди.

Баҳорга бурканган сен севган элда  
Овозинг янграйди жўшқин, забардаст  
Ўлмаган экансан, жоним, сен ҳаёт,  
Мен ҳам ҳали сенсиз олмадим нафас

Шоир қайси юртда, қайси замонда яшамасин, биринчи галда ўз қалбининг ҳолатини аён этади, агар бу ҳолат мингларнинг, миллионларнинг қалбига йўл топса, шоир нидоси, умумхалқ, умумбашарий нидога айланади. Зулфияхоним манна шундай, оташин меҳрли қалби билан миллионлар юрагини забт этди.

Мухтарам биринчи Президентимиз И.А.Каримов, “Сиз замонамизнинг забардаст шоири ва жамоат арбоби сифатида Ўзбекистоннинг жарангдор овози бўлдингиз, деб айтсак, асло муболаға бўлмайди. Жаҳон минбарларида янграган шеърларингиз Шарқ аёлининг ақли-зақоси, камолидан ноёб нишонадир... Сиз латиф ижодингиз билан минг-минглаб кишиларга эзгулик, муҳаббат ва садоқатдан сабоқ бердингиз”–дея шоирага юксак баҳо берган эди.

Зулфия умр бўйи юрагидаги буюк муҳаббатининг ушалган ва ушалмаган армонлари билан элнинг қувончига – қувонч улашиб, шоир, Она, Аёл номини улуғлаб яшади. Шоирани дунёга келтирган буюк изтироб ўз аксияти бўлган буюк бахтни ҳам яратди.

Шоира ўз асарининг буюк аёллари қаторидан муносиб ўрин эгаллаб, умум жаҳон эътирофига сазовор бўлди.

Ҳар йилнинг илк баҳор куни – 1-мартда Ўзбекистон халқ шоираси, халқаро Неру ва “Нилуфар” мукофотлари совриндори Зулфияхонимнинг таваллуд кунлари юртимизда кенг нишонланади.

Ҳамиша эл ардоғидаги ва эъзозидаги мўътабар аёлнинг сиймоси, бар ҳаёт руҳи Она халқи юрагида мангу яшайди. Мен, аёл, она сифатида бу



матонатли, сабр-бардошли, аёл тимсолининг бутун фазилатларини ўзида жо қилган мўътабар сиймосига таъзим бажо айлаб, суюкли ёри турмуш ўртоғи, Ҳамид Олимжон номидан табрик йўлламоққа азм қилдим.

**Сиз эдингиз Ойгулгинам, мен Бахтиёр...**

Иккимизга тақдир кулиб боққан эди,  
Юлдузимиз бир-бирига ёққан эди,  
Сиз эдингиз Ойгулгинам, мен Бахтиёр.  
Сиз эдингиз мен излаган вафоли ёр.

Жудо қилди, бизни ногоҳ аччиқ қисмат  
Борса келмас бўлиб кетдим олисларга  
Бир оғиз сўз айтолмадим, босди ғафлат  
Видолашиб, кузатдингиз сўнгги йўлга.

Э воҳ, бизга оғир бўлди бу айрилик  
Кўз ёшингиз артолмадим юзингиздан,  
Мендан қолди сизга атаб шу ёдгорлик  
Жажжигина фарзандларим, ҳамда қалам.

Ҳаётингиз варағини унсиз очиб,  
Ушладингиз қаламимни, кўзингиз нам,  
Шу қаламда сизни суйдим, эркаладим,  
Шу қаламда сизга умр, бахт тиладим.

Сизни мендек ардоқлади, севди шу халқ,  
Дардингизга шу эл бўлди, сизга малҳам  
Баҳор билан бугун келдим сизни қутлаб,  
Қабул айланг Олимжоннинг табригин ҳам!

**Jumabozor qishloq shevasining assimilatsiya hodisasi**

*Raxmatova Mohinur (Talaba)*

*Ilmiy rahbar: Prof. M Abdiyev*

Ма'lumki, sheva - tilning fonetik, grammatik lug`aviy jihatidan o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan eng kichik hududiy ko`rinishi bo`lib, u sezilarli lisoniy tafovutlari bo`lmagan bir yoki bir nechta aholi maskani (odatda qishloq) da yashovchilarning so`zlashuv vositasi sifatida qo`llanadi. Boshqacha qilib aytganda, sheva ma'lum bir hududda yashovchi aholigagina xos va shu aholi uchun tushinarli bo`lgan so`zlashuv uslubining bir ko`rinishi sheva hisoblanadi. Shevalarning bir-biridan farq qilishiga turli ichki va tashqi omillar sabab bo`ladi. Ichki omillarga bu sheva qaysi urug`ga mansubligi kirsa, tashqi omilni esa chegaradosh hududlarning so`zlashuv uslubi va hudud shevasiga ta'sirida ko`rishimiz mumkin.

Adabiy tildan o`ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadigan shevalardan biri Samarqand viloyati Toyloq tumani Jumabozor qishloq shevasidir. Qishloqning tub aholisi o`zbeklarning 92 urug`idan biri bo`lgan “Yuz” urug`iga mansubdir. Yondosh hududlarida esa bahrin, kenagas, ming va boshqa urug`larga mansub qabilalar istiqomat qilishadi. Qishloqning bunday nom bilan atalishi qadimda qishloq hududida Juma kunlari katta bozor bo`lganligidir. Vaqtlar o`tib haftaning shu kunida bo`ladigan bozor qishloqning atoqli otiga aylanadi va qishloq Jumabozor deb atala boshlanadi. Qachondan boshlab bunday nom bilan atalganini ko`rsatib beruvchi manbalar saqlanib qolmagan, hatto qishloqning eng keksa nuroniylari ham qishloq qachon bunday nom bilan atalgani haqida ma`lumotga ega emas ekanlar. Juma kuni bo`ladigan bozor qishloqning moddiy hayotini rivojlantirish bilan birgalikda uning til xususiyatiga ham ta`sir ko`rsatmay qolmadi. Ko`plab hududlardan savdogarlar va xaridorlar kelishi sababli aholi qipchoq lahjasiga xos bo`lgan “j” lashish xususiyatini yo`qotib boradi. Bozorga keluvchilar orasida qarluq lahjasida so`zlashuvchilar hamda tojik millatiga mansub insonlarning ko`p kelishi esa hudud shevasining qarluq lahjasiga yaqinlashib qolishi va ularning leksikasida tojikcha so`zlarning o`rnashib qolishiga sabab bo`lgan.

Jumabozor qishloq shevasi adabiy tildan va boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatdan farq qiladi. Qishloq shevasida fonetik hodisalar, ayniqsa, assimilatsiya hodisasi faolligini kuzatish mumkin. Shuningdek kelishik qo`shimchalarining adabiy tilda ancha farq qilgan holda so`zlashuv uslubida turli shakllarda qo`llaniladi.

Biz ushbu jajji tadqiqotimizda sheva vakillarining so`zlashuv nutqida faol bo`lgan fonetik hodisalardan biri bo`lgan assimilatsiya hodisasining ro`y berish jarayoni haqida imkon darajasida fikr –mulohazalar bildirishga harakat qilamiz.

Nutq tovushi qator kelganda ba`zan bir-biriga ta`sir qilib, biri ikkinchisini o`ziga moslashtiradi. Bunday hodisa assimilatsiya deyiladi [1., 66]. Og`zaki nutqda (xilma –xil ko`rinishga ega bo`lgan o`zbek shevalarida) unli tovushlar, ayniqsa, undosh tovushlar assimilatsiyasi juda ko`p uchraydi [2., 122].

Shevada gul so`ziga qo`shilgan o`rin-payt kelishigini asos tarkibidagi sirg`aluvchi “l” tovushi portlovchi “d” undoshini o`ziga moslashtiradi (Gyllæn - gylgæ qæn`b çig`bd`. By bæg`gæ gyllæn bəshqæ næssæ ek`lmaydi ) shaklida.

Adabiy tilda ishlatiladigan oldin, erta payt ravishlari tarkibidagi portlovchi l va portlovchi t undoshlari o`zidan keyin va oldin kelgan undoshlarni aynan moslashtirib, portlovchi yoki sirg`aluvchi tovushga aylantiradi va ɔll`n, ettə shaklida ishlatiladi. (ɔllin q`şlɔg`m`z bøy`çə kəttə q`lib n`şonlaym`z. Fərzənmən deb əyt`shdən ɔll`n sən ɣlægə x`zmət q`l`b qøy. Ettə hɣdɔy` degən kɣn` xɔlvætar p`ş`r`ləd`. Ettəgə q`shlɔqqə tøy bərəkən ).

Mehmon so`zi esa tarkibidagi jalangli undosh “m” undoshi jarangsiz “h” undoshini talaffuzda o`ziga moslashtirib “y” tovushiga aylantiradi va bu so`z m`ymən ( Öygə m`ymən keləykən. M`ymən –m`ymən o`ynəshəd`) tarzida aytiladi,

Undan ko`rsatish olmoshi tarkibidagi “n” undoshi esa qo`shimcha tarkibidagi “d” undoshini o`ziga aynan moslashtirib, qo`shimcha

tarkibidagi “d” tovushini “n” ga ( Unnən yəxş’ b’ləd’gən ɔdəm yөг’. Sennən bəshqə bələm yөг’, mən’ kəp q’ynəmə ) aylantiradi. Solardik so’zi tarkibidagi “r” undoshi “d” undoshi ta’sirida “s” ga aylanadi va og’zaki nutqda aynan shunday tallaffuz qilinadi (Syv qəynəgəç yst’dən tyxym soləsd’k. Öygə m’ymən kesə hər dɔy’m yəngng’ kərpəçə soləst’k ).

Chiqarib fe’li tarkibidagi jarangli “r” undoshi ta’sirida jarangsiz “q” undoshi jarangli “g” ga o’zgaradi va Ç’g’or’b tarzida (Ç’ mild’qdən ç’g’or’b yuz’dəg’ rəmɔlçəs’n’ ɔld’rəd’) tallaffuz qilinadi .

Vaqt so’ziga -i egalik qo’shimchasini qo’shsak, asos tarkibidagi “q” undoshi “x” aylanadi va vəxt’ ( Əşə vəxt’ by jöyləgə ɔdam yəşəmaykan. By bəyrəm bəhər vəxt’ ətəkəz’ləd’) tarzida aytiladi.

Assimilatsiya nutq tovushlarini o’xshatish darajasiga ko’ra, to’liq va to’liqsiz bo’lishi mumkin. Agar ikki har xil tovush assimilatsiya natijasida bir xil bo’lib, bir-biriga o’xshasa to’liq assimilatsiya , agar ikkala tovush bir-biriga qismangina, jarangli yoki jarangsizligiga ko’ra, portlovchi-sirg’aluvchiligiga ko’ra o’xshasa, unga ko’ra qisman assimilatsiya bo’ladi. Yuqoridagi misollardan gyllən < guldən, ɔll’n < oldin, ettə < erta, unnən < undan so’zlaridagi assimilatsiya hodisasi to’liq milatsiyaga misol bo’la oladi. M’ymən < mehmon, ç’g’or’b < chiqarib, vəxt’ < vaqti so’zlari tarkibidagi o’zgarish esa to’liqsiz assimilatsiyaga misol bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, sheva bu har bir xalqning bitmas tunganmas boyligidir. Uning materiallaridan unumli va samarali foydalanish zarur. Shevalardan faqatgini lug’at boyligini boyitish uchun emas balki, uning fonetik, morfologik, jihatlariga ham e’tibor berib o’rganish juda yaxshi natija beradi. Shu bois shevalarning nafaqat leksik, balki fonetik tomanlarini ham o’rganish tilshunosligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sayfullayeva R, Mengliyev B va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. “Fan va texnologiya” nashriyoti –Toshkent, 2009
2. Reshetov V, Shoabdurahmonov Sh. O’zbek dialektologiyasi. “O’qituvchi” nashriyoti –Toshkent, 1978

### ОЙБЕК ШЕЪРИЯТДА ЎХШАТИШЛАР

ф.ф.н. Р. Сувонова (СамДУ)

Инсоннинг дунёни билишида ўхшатиш-қиёслаш бениҳоя катта ўрин тутди. Икки ёки ундан ортиқ предмет ёки тушунчани ўхшаш ёки фарқли жиҳатларини аниқлаш мақсадида қиёслаш, таққослаш ташқи дунёни билишнинг энг кенг тарқалган мантиқий усулларидан бири сифатида инсон фаолиятининг деярли барча соҳаларида кузатилади.

Аввало, таъкидлаш лозимки, ўхшатишлар ўзига хос образли тафаккур тарзининг маҳсули сифатида юзага келади. Шунинг учун ҳам улар нутқда ҳамиша бадий-эстетик қимматга молик бўлади, нутқнинг эмоционал-экспрессивлиги, ифодалилиги, таъсирчанлигини таъминлашга хизмат қилади. Ўхшатишларнинг икки тури, яъни: 1) индивидуал-муаллиф ўхшатишлари ёки

эркин ўхшатишлар ва 2) умумхалқ ёки турғун (доимий) ўхшатишлар фарқланади.

Турғун ўхшатишларнинг моҳияти шундан иборатки, уларда ўхшатиш эталонида ифодаланган образ барқарорлашган бўлади, бундай ўхшатишлар, гарчи муайян шахс ёки ижодкор томонидан қўлланган бўлса-да, вақтлар ўтиши билан тил жамоасида урфга кириб, доимий ифодалар сифатида турғунлашган, умумхалқ тили лексиконидан жой олиб улгурган бўлади. Бундай ўхшатишлар худди тилдаги тайёр бирликлар каби нутққа олиб кирилади.

Ўзбек тилидаги турғун ўхшатишлар халқнинг ўзига хос кўриш ва идрок йўсини, образли тафаккур интизомини ҳам акс эттиради. Шунинг учун ҳам тадқиқотчилар қайд этадиларки, ижодкорлар объектив оламдаги нарса-ҳодисалар ўртасидаги компаратив алоқаларни образли қиёслаш асосида сон-саноксиз ва хилма-хил ўхшатишлар яратсалар-да, уларнинг жуда ҳам оз қисми тилда турғунлашади, чунки бундай ўхшатишлар тилда халқнинг тажрибалари, урф-одатлари, маданияти ва тарихининг ўзига хосликларига мувофиқ сараланади, ана шунга кўра ҳам турғун ўхшатишлар дейилади.

Ёрқин ва комил бадиий истеъдоднинг асосида ҳамиша теран ва мунтазам кузатувчанлик, турфа оламнинг камалак рангларини закийлик билан кўра олиш ва уларнинг «тирик»лигига, табиийлигига путур етказмаган ҳолда кўрсата олиш ётади. Зеро, кузатувчанлик ва мукамал ҳис қилиш, аслида, беҳад нозик ва нодир бир санъат бўлиб, у ҳар қандай бадиий истеъдод такомилининг ибтидосидир.<sup>50</sup> Буларнинг ҳаммаси услубиятда содир бўлади.

Услуб бир вақтнинг ўзида ҳам мазмун, ҳам шакл, ҳам мотивдир. Буларнинг барчаси бирлашганда асар бус-бутунлигини услуб таъминлайди. Шунга кўра ёзувчи услубини сўзга, тилга – улардан фойдаланишдаги ўзига хосликка боғлаб қўйиш ноўриндир.

Ҳаёт ёзувчинининг тажрибасини бойитганидек, унинг услубини ҳам тобора сайқаллаштиришга сабаб бўлади. Услуб ижодкор дунёсидир, унинг ҳаёлотли, тасавури, ақли, билими, сўзшунослиги, таланти, инсонийлиги бутун борлигини намоён этувчи бадиий ҳодиса, воситадир. Шундай бадиий тасвир воситаларидан бири ўхшатишдир.

Ойбек шеъриятидаги хилма-хил ўхшатишлар услубда алоҳида ўрин тутади. Таъкидлаш лозимки, бу ўхшатишларнинг ҳар бири ҳаётсевар, табиат ошиғи бўлган Ойбекнинг кузатувчанлигига, табиат ва инсоннинг мураккаб ҳаётини ипидан игнасиғача, бутун икир-чикирларигача кўра ва кўрсата олишига, борлиқни ўзига хос йўсинда, «ойбеккона» идрок қилишига холис ва характерли далилдир. Чунки ўхшатишлар шеърятда хилма-хил мақсадлар билан қўлланса-да, уларнинг сифати, айти мақсадларга қай даражада бўйсундирилиши, қисқаси, уларнинг поэтик мазмун даражаси шоирнинг кузатувчанлигига, поэтик идрокига боғлиқ.

---

<sup>50</sup> Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёт журнали. –Тошкент, 2011, 3-сон, 19-20 бетлар.

Ойбек шеърляти беҳад ибратли бўлиб, унинг ҳар бир шеъри нафис ва расо кузатишлар, мукаммал мушоҳадалар натижаси эканлиги равшан кўриниб туради. Ҳар қандай ўхшатиш муносабати тилда акс этар экан, у албатта, тўрт элементни назарда тутуди, яъни: 1) ўхшатиш субъекти, 2) ўхшатиш эталони, 3) ўхшатиш асоси ва 4) ўхшатишнинг формал кўрсаткичидир. Бошқача қилиб айтганда, ўхшатиш муносабати ифодаланган содда гапларнинг мазмун сиғими ҳамиша катта бўлади, яъни кичик форма катта мазмун ифодаси учун хизмат қилади. Бу эса шеър поэтикаси учун ҳам алоҳида аҳамиятлидир, чунки айтиш ҳолат шоирга турли нарса-ҳодиса, мураккаб ҳолатлар ва шу кабиларнинг беҳад ихчам тасвирларини, ёрқин образларини яратиш имконини беради.

Айтиш лозимки, ҳар қандай ўхшатишнинг лингвопоэтик асосини ўхшатиш эталони ташкил қилади. Ўхшатишнинг поэтик қимматини ҳам ана шу ўхшатиш эталони белгилайди. Ойбекнинг шеърларини ўқиганда, шу нарсага тўлиқ ишонч ҳосил қилиш мумкинки, Ойбек бу ҳолатни тўлиқ ва аниқ тасаввур қилган, шунинг учун ҳам у ўхшатишга мурожаат қилар экан, зукко кузатувчи сифатида беҳад мувофиқ ва янги ўхшатиш эталонларини кўллайди.

Ойбек ўзининг «Ҳамза» номли достонида Шоҳимардон қишлоғининг ўтмишдаги манзарасини тасвирлар экан, шундай ёрқин мисралар тузади:

*Пастда қишлоқ, тошларга қапишибди зич —*

*Фақир уйлар қалдирғоч инлари каби.*

Кузатувчан шоир *фақир уйларни қалдирғоч инларига* ўхшатади, айтиш ўхшатишда қалдирғоч инларининг ўхшатиш эталони сифатида кўлланиши Ойбекнинг теран ва фавқуллодда нигоҳи маҳсулидир.

Мана бу парчалардаги ўхшатишларда ҳам Ойбекнинг ўткир нигоҳини аниқ сезиш мумкин:

*Бехосдан узилган шода дур каби*

*Тўкилди умиднинг рангли барглари.*

*Муҳтожликнинг изгиринида*

*Куз баргидек тушади ўйин.*

*Сўнгсиз уфқларда қишнинг хаёли,*

*Абадий сукутдек узалмиш жимжит.*

Ойбек ўз шеърларида *қуёш, офтоб, қиз, чечак, гул, баҳор, қуш, денгиз, дарё, шафақ* каби сўзларни ўхшатиш эталони сифатида фаёл равишда кўллайди. Бу шоирнинг инсонга ва табиатга бўлган адоқсиз муҳаббатини, бу муҳаббатни юксак оҳангларда куйлаганлигини, инсон ва табиат тасвири учун табиатнинг ўзидан бетиним ранг ва оҳанг излаганлигини кўрсатади.

Яна: *Зарбдор бўлган чол отанг*

*Қирчиллама йигитдек.*

*Филдир теримда онанг,*

*Ўзи кичик чигитдек*

Хуллас, Ойбек шеърлятида ўхшатишларнинг услубий хусусиятлари жуда фарқли бўлмаса-да, мазмун жиҳатидан ўзига хос ва бетакрордир. Ойбек

шеъриятидаги ҳар бир ўхшатиш кузатувчан шоирнинг ўткир нигоҳи, нафис ва вазмин мушоҳадасининг маҳсулидир.

### **Адабиётлар:**

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. 8-бет.
- Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 2011, 3-сон, 19-20 бетлар.
- Маҳмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси. – Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – Тошкент, 1985, 6-сон, 48-50 бетлар.
- Умутов Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ нашриёти, 2002.
- Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. - Тошкент: Фан нашриёти, 1977, 41-43 бетлар.

## **КОРПУС МЕНЕЖЕРИ ҚИДИРУВ ТИЗИМИ СИФАТИДА**

### **Ш. Хамроева БухДУ (PhD), Л. Бозорова ВХТХМОИ ўқитувчиси**

Лингвистик корпуснинг ажралмас, энг асосий қисми унинг қидирув тизими – корпус менежери, у матн, лисоний бирликларни бошқарувчи система. Корпус менежери – корпус маълумотлари устида ишлаш учун мўлжалланган махсус қидирув тизими, у статистик маълумот, қидирув натижасини фойдаланувчига қулай кўринишда кўрсатиб берувчи дастурий таъминот ҳисобланади. Е.В. Недошивина корпус менежерига қўйиладиган талабларни санар экан, уларнинг энг асосийси сифатида матннинг калит сўзлари рўйхати, тўлиқ конкорданс рўйхатни ярата олиш; фақат сўзни эмас, балки сўз бирикма ҳолидаги сўровга ҳам жавоб бера олиш; шаблон асосида (мураккаб сўров) қидирувни амалга ошириш; олинган натижа (чиқарилган рўйхат)ни бир неча мезон асосида саралай олиш; сўзшаклга берилган сўровни чекланмаган миқдордаги контекстда акс эттириш; корпуснинг алоҳида элементлари бўйича статистик маълумот бера олиш; корпус разметкасида келиб чиққан ҳолда лемма, сўзшаклнинг морфологик хусусияти ҳамда метаахборот (библиографик, типологик)ни тўлиқ ифодалай олиш; натижаларни сақлаш, чоп этиш; файл, корпуснинг чекланмаган ҳажми билан ишлай олиш; қидирувни тез амалга ошириш, натижаларни чиқариш; турли матн форматларини (txt, doc, rtf, html, xml ва б.) ўқий олиш ҳамда шу формат билан ишлаш; малакали ҳамда янги фойдаланувчи учун бирдек қулай бўлиш кабиларга тўхталади [1].

SARA, XAIRA (BNC), Manatee/Bonito, SQR, DDC каби корпус менежерлари нисбатан универсал саналиб, корпус тузиш тажрибасида шу менежерлардан кўпроқ фойдаланилади. Корпус маълумотини қайта ишлаш учун маълумотлар базасини бошқариш ёки қидирувнинг янги тизимини ишлаб чиқиш мумкин. Информацион сўров [1] – маълум ахборотга бўлган эҳтиёжни сўз орқали ифодалаш усули. Сўров ўзининг предметлик белгиси, шаклий мундарижаси асосида таҳлил этилади, корпусда ишловчи дастурнинг сўров тили терминлари луғати асосида изоҳланади.

Қидирув амалиёти корпусдаги ҳар бир элемент билан навбатма-навбат киёслаш, уларнинг мослик даражасини аниқлаш билан яқунланади. Умуман олганда, сўров тили модели, асосан, қидирув элементи (информацион эҳтиёжни ифодаловчи атама), матн қидирув элементини нормаллаштирувчи восита, оператор йўналтирувчиси (конъюнкция, дизъюнкция, инкор), чизиқли грамматика воситаси (оралиқ масофа оператори, позиция оператори) каби таркибий қисмларни ўз ичига олади. Е.В.Недошивина қидирувнинг кўшимча шартлари сирасига корпуснинг алоҳида майдонларидаги қидируви (масалан, теглар ичида), қидирув майдонининг чегараланиши (аниқ бир муаллиф асари, ҳужжатни яратиш санаси ва ҳ. бўйича), топилган натижаларни саралашга қўйиладиган талаб, қидирув натижасини ифодалаш шаклига қўйилган талаб, топилган натижаларнинг кўриниши, топилган ҳужжат миқдори каби омилларни киритиш мумкин. Қуйида нисбатан самарали, яхши ишлайдиган корпус менежери Bonito/Manatee 1 нинг қидирув тилининг ўзига хосликларига тўхталамиз. Лингвистик корпус билан ишлаш жараёнида кўп ишлатиладиган қидирув тили элементи ҳамда қидирув бўйича мисолларни изоҳлашни мақсад қилдик. Bonito – менежер номи, Manatee – корпус тағтизимини бошқарувчи дастурий таъминот. Bonito корпус менежери корпус матни билан ишлашни тўлиқ камраб олган дастурлар йиғиндиси бўлиб, бу тизим икки қисмдан: сервер, график фойдаланиш интерфейси (GUI – graphical user interface)дан иборат. Ушбу интерфейс Чехиянинг Масарика университети информатика факультетида П.Рыхли ва NLPlab (Natural Language Processing Laboratory) гуруҳи томонидан тузилган. Тизим иши билан таништириш учун инглиз матнларининг SUSANNE (Surface and Underlying Structural Analysis of Natural English) корпусидан фойдаланилади [2]. Ушбу корпус Буюк Британиянинг Сассекс университетида яратилган, инглиз тилининг америка вариантыни ифодаловчи Браун корпусининг 130.000 сўзини ўзида мужассамлаштирган, SUSANNE схемасига мувофиқ разметкаланган. Bonito тизимининг асосий хусусияти сўров тилининг алоҳида атрибутлар қидирувига (сўзшакл, лемма, тег) эгаллиги, одатий ифодаларнинг қўлланиши, мантикий оператори, структурани ишлаб чиқиш воситасининг (гап чегараси ва б.) мавжудлиги, мураккаб сўровни тезлик билан ишлаб чиқа олиши билан характерланади. Конкорданс рўйхати ўзида фойдаланувчи сўрови тарихи, сўзшаклнинг морфологик хусусиятини кўриб чиқиш, леммани акс эттириш каби имконияти билан ажралиб туради. Конкорданс устида ишлаш жараёнида рўйхатни файлда сақлаб қолиш, рўйхатни босма шаклда чоп этиш, контекстдаги калит сўз асосида саралаш, контекстни чегараланмаган даражада кенгайтириш, филтрлаш (конкорданснинг кераксиз қисмини ўчириш), “такрор”ни ўчириш каби амалларни бажариш мумкин. Частотали таксимот нуқтаи назаридан корпус ёки контекстдаги сўз ёхуд бошқа атрибутлар частотаси, чегараланмаган даражада гуруҳлашни ҳам амалга ошира олади. Бундан ташқари, кодлаштириш танлови ҳам мавжуд, фойдаланувчи хусусий корпусини яратиши мумкин. Шунингдек, тегларни

ихтиёрий танлай олиш, бошқа тилни қўшиш имконияти мавжудлиги каби хусусиятга ҳам эга. Корпус менежерининг асосий вазифаси фойдаланувчи сўровига жавоб беришдан иборат экан, сўров, уни амалга оширувчи буйруқ ҳам аҳамиятли. Юқорида тилга олинган корпус менежерига фойдаланувчи қидирув тизими тилига мос равишда қидирув ойнасига ўзининг шахсий саволини киритиши ёки шаблон сўровдан фойдаланиши мумкин. Унинг таркибида бир нечта ойна, уларнинг вазифаси қуйидагилардан иборат:

1) тасдиқловчи фильтр (P-filter) – сўров билан мос келувчи сатр конкорданс рўйхатида берилади;

2) инкор қилувчи фильтр (N-filter) – сўров билан мос келувчи сатр конкорданс рўйхатидан ўчирилади;

3) сўз бирикма (Collocations) – сўровни қаноатлантирувчи бирикма (конкрет сўзшакл) конкордансда алоҳида рангда белгиланади.

Конкордансда шунга мос келувчи позицияни топа олишига имкон яратиш учун тасдиқловчи, инкор қилувчи фильтр ҳамда сўз бирикмаси учун махсус интервал белгилаш керак. Фойдаланувчи интервал чегарасини белгилайди (“From:” ва “To:” киритиш ойналари). Мазмун тасдиқловчи бўлса, қидирув чиқиш нуқтасидан ўнг томонда қараб амалга оширилади, агар инкор қилувчи бўлса, бунинг акси амалга оширилади. Бошланғич нуқта сифатида сўзшаклнинг бошланиши, сўзшаклнинг тугалланиши олиниши мумкин. Муҳими шуки, киритилган барча саволлар сўровлар тарихида (Query History) сақланади, сўров айнан бир хил бўлганда, сўровлар тарихида сақланмайди. Сўров тарихини очиш учун сўров ойнасидаги “пастга” тугмасини босиш етарли. Керак бўлганда, аввалги сўровга қайтиш мумкин. Хулоса ўрнида шуни айтиш муҳимки, корпус менежери, яъни унинг қидирув тизими корпуснинг муҳим таркибий қисмидир.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Недошивина Е.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. работа с системой DDC.// Языковая инженерия: в поиске смыслов. (электрон ресурс: <https://docplayer.ru>).

2. <http://www.grsampson.net>.

## **BOLALARNING RAVON NUTQINI TARBIYALASHDA TARBIYACHINING VAZIFALARI**

**B.Soatov, JDPI f.f.n., dotsent**

Bolalar kattalardan nafaqat tovushlar va soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni, balki ertaklar, hikoyalar mazmunini aytib berish, atrof-olam haqidagi oʻz kuzatishlarini bayon qilish, oʻz fikrlarini izchil bayon qilish va xulosalar chiqarishni ham oʻrganadilar. Bolalarga nutqda u yoki bu mazmunni ravon, qiziqarli va imkonli shaklda yetkaza olish pedagog nutqining zarur sifatlaridan biri hisoblanadi.



Tarbiyachi o'z fikrlarini izchil bayon qilar ekan, u o'z nutqini tushunarsiz so'zlar, murakkab oborotlar, uzoq iboralar bilan qiyinlashtirib yubormasligi lozim.

Bolalar nutqni agarda, u qisqa iboralardan iborat bo'lsagina yaxshi qabul qiladilar. Chunki uzun, buning ustiga grammatik jihatdan juda murakkab tuzilgan iboralarni qo'llashda bolalarga uning qismlari o'rtasida aloqa bog'lash, uning mazmunini mulohaza qilish va tushunish qiyin kechadi. Faqat oddiy gaplarni qo'llash bilan cheklanmaslik lozim. Ayniqsa, bog'langan qo'shma gap va ergashgan qo'shma gaplarni keng qo'llash juda muhimdir. Bolalarga hikoya qilib berishda (o'tkazilgan ekskursiya, tabiat haqida va h.k.) faqat asosiy narsani, ya'ni barcha ikkinchi darajali va ahamiyatsiz narsalarni tashlab yuborgan holda faqat ushbu mavzuga aloqador narsalarni ajratib olish va bolalarga yetkazish zarur. Ko'p so'zlash, ortiqcha iboralarni qo'llash tarbiyachining nutqini og'ir, tushunish uchun qiyin qilib qo'yadi. Murakkab oborotlar bilan boyitilgan hikoyani tinglashda maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogning fikrini kuzatib borishlari, hikoya mazmunini esda saqlab qolishlari qiyin bo'ladi va bunday hikoya foyda keltirmaydi. Pedagog nutqining imkonliligi va tushunarligiga eng avvalo, so'zlardan to'g'ri va aniq foydalanish orqali erishiladi. Ona tilining lug'at zahirasi boy, u doimo yangi so'zlar bilan boyib boradi; muomaladan chiqqan so'zlar yo'qolib ketadi. Bolalar bilan muloqotda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ona tilining leksik boyligini keng qo'llashi: tushunish mumkin va o'zlashtirish oson bo'lgan so'zlarni tanlashi va ulardan o'z nutqida foydalanishi lozim. Bolalar bilan suhbat chog'ida adabiy tilga oid so'zlarni qo'llash, qo'pol so'zlarga yo'l qo'ymaslik, oddiy so'zlashuv tili va shevalardan, shuningdek muomaladan chiqqan so'zlardan qochish lozim. Tarbiyachining lug'ati qanchalik boy va turli-tuman bo'lsa, uning nutqi qanchalik yorqin bo'lsa, bolalar shunchalik ko'p so'zlarni o'zlashtirib olishlari mumkin.

Tarbiyachining lug'atidagi kamchiliklar sifatida so'zlarni kichraytirilgan-erkalash suffikslari bilan qo'llash (Sevaraxon, qo'lchalarini yuv; Samatjon, stakanchalarni yig'ishtirib qo'y va h.k.), nutqni ortiqcha so'zlar bilan to'ldirib yuborish (Xo'sh, aytish mumkinki, demak), nisbatan katta bolalar bilan muloqot qilishda ularga xuddi go'daklarga kabi muomala qilish (Vov-vov qani?) kabi holatlarini keltirish mumkin.

So'zlar va so'zli iboralarni to'g'ri tanlash tarbiyachi nutqining aniqligi, tushunarligi va ifodaliligini ta'minlaydi. Yangi so'zlardan foydalanishda juda ehtiyot bo'lish zarur. Bir tomondan, bolalarning yoshini hisobga olish va ular tushuna oladigan so'zlarni tanlash, ikkinchi tomondan – doimiy ravishda yangi so'zlarni muomalaga kiritish, mavjud so'zlardan foydalanishni kengaytirish va ularning ma'nosini tushuntirib berish lozim.

Pedagogning hikoyasi to'liq, chiroyli, so'zlari aniq tanlab olingan, grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgan va ifodali bo'lishi, uning alohida qismlari o'rtasida mantiqiy aloqa o'rnatilgan bo'lishi lozim. Hikoya qilishda nutqni ifodali, turli-tuman, mazmunga boy qiladigan sinonimlar, metaforalar, tashbehlardan, xalq og'zaki ijodiyotidan (maqollar, matallar), frazeologik iboralardan kengroq va mohirona foydalanish lozim.

Bundan tashqari, tarbiyachining nutqi nafaqat bolalarga nisbatan, balki bolalar bog'chasining xodimlariga nisbatan ham osuda, doimo bosiq, xushmuomala bo'lishi shart.

Shunday qilib, bolalar bilan ishlash orqali pedagog quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- ona tilining barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;
- aniq, tushunarli nutqqa, ya'ni yaxshi diktsiyaga ega bo'lish;
- o'z nutqida adabiy talaffuzlardan foydalanish, ya'ni orfoepik qoidalarga rioya qilish;
- ifodalilikning intonatsion vositalaridan bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda to'g'ri foydalanishga intilish;
- bolalar bilan muloqotda biroz sekinlashtirilgan sur'atda, ovozni sal pasaytirgan holda nutq so'zlash;
- matnlar mazmunini so'zlar va grammatik tuzilmalardan foydalangan holda ravon hamda imkonli shaklda hikoya qilish va bolalarga yetkazish;
- bolalar va xodimlar bilan suhbatda ovozni balandlatish va qo'pol muomalaga yo'l qo'ymaslik.

Bolalar bog'chasi tarbiyachisi uchun namunali nutqqa ega bo'lish – bu uning kasbiy tayyorligi ko'rsatkichidir. Shuning uchun o'z nutqini takomillashtirish haqida qayg'urish – bo'lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchidir. U o'zida keyinchalik bolalarga beradigan nutqiy ko'nikmalarni mukammal rivojlantirishi shart. Maktabgacha ta'lim umuman olganda, uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning maqsadi maktabda o'qish uchun tayyor bo'lgan, sog'lom va to'laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashdan iboratdir.

## **MUSIQA DARSLARINING JISMONIY TARBIYA DARSLARI BILAN ALOQADORLIGI**

**Maxammatov A., Jonzoqova R.**

Yangi dastur mazmunida mashg'ulot o'tish uchun, musiqa rahbari o'zining musiqiy-nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Chunki, mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim tarkibiy qismi nafosat tarbiyasi masalalarini, insonni ma'naviy, ma'rifatli qilib tarbiyalash masalalarini hal qilishda jamiyat va davlat tomonidan qo'yilgan katta ma'suliyatni musiqa o'qituvchisi oldiga vazifa qilib qo'yimoqda.

Hozirgi kunda yangi dasturlarni o'ziga xos yana xususiyatli tomoni shundan iboratki, musiqa madaniyati fanini asosi bo'lgan musiqa savodxonligini tarkib toptirish lozim bo'lgan, qator musiqiy, qonuniyatlar, jumladan, musiqa nutqi, musiqa ifoda vositalari, musiqa shakllari, raqssona harakatlarning turlari, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi, musiqaning zamonaviyligi kabilar chuqur, mukammal o'rgatilish kerak.

Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Shunday ekan, musiqqa rahbari ta'lim samaradorligini ta'minlashda, bolalarning musiqqa mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishini o'stirishda etakchi omil bo'lib hisoblanadi.

Yosh avlodni ritmik - raqsona harakat vositasida tarbiyalash g'oyasini avalga oshirishda qo'shiq, musiqqa tinglash tarbiyalanuvchi ongida estetik zavqning paydo bo'lishi, olamni go'zalroq idrok etishi, hamisha go'zallik oshuftasiga aylanishiga yordam berish bilan birga uni yovuzlik va qabohatidan nafratlanishga o'rgatgan. Ayni damda yoshlar kamolatida musiqiy tarbiya yuqorida zikr etilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun majburiy ta'lim dasturidan o'rin olgan. O'quvchilar bilan musiqqa orqali ritmik harakatlar bajarishni o'rganish jarayonida bolalarga bu harakatlarning foydali tomonlarini o'rganib chiqdik. Shu bilan birgalikda endi o'quvchilar bilan tayoqchalar bilan harakatlar bajarishni ham o'rganamiz. Tayoqchalar bilan bajarilgan harakatlar ham musiqqa orqali bajariladi.

Ritmik harakatlar amaliy bajariladi. Tayoqchalar bilan harakat bajarishda bolalar ikki narsaga e'tibor berishlari kerak. Birinchidan, musiqani tinglash, musiqqa tinglaganda uning usuliga, tempiga, dinamikasiga e'tibor berilishi lozim, musiqqa orqali tayoqchalarni harakatga keltirishda bolaning eslab qolish qobiliyati yordam bersa, harakat uning tanasini rivojlanishiga foydalidir. Balki tayoqchalar o'rniga bayroqchalar sharlar yoki gullar ham bo'lishi mumkin.

Bugungi darsimizda M.Muhammadjonov musiqasi Sh.Sa'dullo she'ri bilan " Ertalab" qo'shig'iga tayoqchalar bilan harakatlar bajarishni o'rganamiz. Har bir o'quvchi tayoqchalar bilan bajariladigan harakatli o'yinlarni o'ylab topib yozish va mavzuga oid didaktik vositalardan foydalanish yo'llarini o'rganish. Mashg'ulot jarayonida har bir bolaning qo'lida bo'lishi lozim. Ushbu tayoqchalar orqali bolalar har xil raqssona mashqlar bajaradilar.

Raqs-san'atning bir turi. U o'z ohangi bilan sho'zchan va jozibador bo'ladi. Raqs kuyini tinglagan odam bexosdan harakatga tushadi. Ayniqsa, bolalar har bir kuy va qo'shiqni tinglaganda, uning musiqiy ohanggi kuychan ya'ni raqssona harakterda bo'lsa tinglovchilarni raqsga chorlaydi.

Raqslar o'rgatishda mashqlar juda katta yordam beradi. Bu raqsni maktabda tayyorlov guruhlarida to'liq holda ham o'tkazishimiz mumkin. Bu raqsni yakka holda kichik guruh shaklida o'rganish mumkin. Harakatlarni oldin mashq sifatida o'rganib keyin ulardan raqs elementlari tuziladi.

Raqslar o'rgatishda yana musiqqa asboblaridan unumli foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Emosional jonkuyarlikni tarbiyalash yo'llari turlicha. Mashg'ulotlar olib borish jarayonida mohir metodik usullar orqali avvalgi tajriba bilan chambarchas bo'lliq holda bolalarni musiqqa asarlarining bajarilishiga jalb qilish mumkin.

Masalan: ashula aytish, raqsga tushish, bolajonlarimizga xos milliy urf odatlarimizdan ko'rinishlar saxnalashtirish va namoish etish mashg'ulot samaradorligini yanada oshiradi.

Bolalar qanchalik tanish musiqa asarini tinglasalar, shunchalik ularning musiqaviy faoliyati mustahkamlanadi. Suhbat musiqaga yanada ongliroq munosabatda bo'lishga yordam beradi. Uyinchoqlar, rasmlar, she'riy va obrazli so'zlar qullanishi musiqa orqali ko'zatilgan kuy ogohlikni chuqurlashtiradi va shu asosda musiqani yanada nozik tinglash qobiliyati ortadi. O'z navbatida qo'shiq aytish va harakatlarini bajarish bolaning faolligini mustahkamlaydi. Musiqiy idrokini tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa orqali va musiqasiz ham bajarish mumkin bo'lgan harakatlar. Har ikkalasi ham sog'ligiga katta foydalidir. Asosiy ritmik harakatlarga eng avvalo qo'l, oyoqqa ko'proq mashqlar beriladi. Bugungi darsimizda asosan ritmik harakatlarni tananing asosiy a'zolari orqali bajarishni davom ettiramiz. M.Oqilova she'ri. I.Akbarov musiqasi bilan "Ayiqcha" ashulasiga harakatlar bajarishni o'rganamiz. O'quvchi musiqa rahbari bajargan asosiy ritmik harakatlarini takrorlashi kerak.

Har bir millat va xalqning o'zi sevgan raqs, kuy va qo'shiqlari mavjud.

Bizda: "Buxoro-Samarqand", "Xorazm", "Farg'ona-Toshkent", "Surxon va Qashqadaryo" kabi xalq raqs holatlari, kuy va qo'shiqlari ayniqsa mashhurdir.

**Ayriqcha raqslarini olaxida ko'rib chiqaviz:**

**Buxoro raqslarining asosiy harakatlari.**

**Bosh holati:**

**1-holat.** Bosh to'g'ri turish.

**2-holat.** Yonga burilish

**3-holat.** Yon-yonga yoni bilan egilish.

**4-holat.** Oldinga, orqaga sal egilish.

**Gavda holati:**

**1-holat.** Bir nuqtaga yig'ishtirilgan, yelka rasmiy holatda.

**2-holat.** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilgan, yelkalar rasmiy holatda.

**3-holat.** Gavdaning umurtqa suyaklari tortilib, sal belga o'tkazilgan.

**Oyoq holatlari:** Rasmiy holat. Rasmiy holatdan tashqari asosan yettita. Oyoq tovonlari bir-biriga yaqin, uchlari yonga ochilganroq.

**1-holat.** Rasmiy holatdan tovonlar sal ko'tarilib, yon-yonga ochiladi, tovonlar orasi yarim tovonga, so'ng tushadi.

**2-holat.** Hap oyoq tovonni ko'tarilib, o'ng oyoq o'rtalig'iga ro'baro' burilib, so'ng tovon tushadi. Gavda og'irligi ikkala oyoqqa bo'ladi.

**3-holat.** Chap oyoq tovonni ko'tarilib ham orqaga buriladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda.

**4-holat.** Chap oyoq uchida oldinga sal sirpanib keladi. Gavda og'irligi o'ng oyoqda.

**5-holat.** Chap oyoq tovonni tushib, gavda og'irligi ikkala oyoqda bo'ladi

**6-holat.** O'ng oyoq tovonni ko'tariladi.

**7-holat.** O'ng oyoq tovonni tushadi, chap oyoq tovonni bosilib, uchi ko'tariladi.

**Gavda og'irligi o'ng oyoqda bo'ladi, so'ng chap oyoq to'liq bosilib, sirpanib, rasmiy holatga keladi.**

**II. Salomlarning xillari.** Buxorocha keng ko'ylakdagi salomlar:

1. **Qo'llar** birinchi holatdan kafti o'ziga qaratilib, ko'ksiga ro'baro' keladi, so'ng chap qo'l o'ng eng uchiga, kafti o'ziga qaraganicha qo'yiladi.

**Chap qo'l** engni bir oz o'ziga tortadi. O'ng qo'l oldinroq cho'ziladi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

2. **Qo'llar** birinchi holatdan chap kafti ko'ksiga qo'yiladi, o'ng qo'l kafti chap qo'l tersagiga qo'yiladi. Gavda va bosh bir oz oldinga egiladi.

3. **Qo'llar** 2-holatday turadi, lekin oldinga ko'proq egiladi.

4. **Qo'llar** birinchi holatdan kaftlar yuqoriga qarab keladi.

So'ng o'ng qo'l ko'ksidan sal yuqoriga, chap qo'l sal pastroqqa qo'yiladi.

### **Rasmiy kiyimda yigitlar va qizlar salomi:**

1. **Chap qo'l rasmiy holatda.** O'ng qo'l birinchi holat orqali kafti o'ziga qaratilib, ko'ksiga qo'yiladi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

2. **Yigit salomida esa ikkala qo'l birinchi holatdan** o'ng qo'l kafti ko'ksiga qo'yiladi, chap qo'l belning oldini quchadi, bosh va gavda bir oz oldinga egiladi.

**Bosh harakatlari:** Buxoro raqslarida to'rt xil bosh harakatlari ijro etiladi.

1. Qiyg'ir bo'yin. Bu harakatai ijro etishda elkalar harakatsiz bo'lyush kerak. Bosh go'g'ri turgan bo'lib, bir oz bo'iinga o'tkazilgan.

Bo'yin yon-yonga jilganda qizlar harakatvda muloyim va mayda ijro etiladi.

Qiyjr bo'yin harakatlari yigitlar ijrosida yirik bo'lib, qo'proq hajviy raqslarda qo'llaniladi.

2. Bosh burilishi. Bosh salgana yon-yonga mavda buriladi.

3. Bosh to'g'ri turishda yon-yonga egiladi.

4. Elka qimirlamaydi. Bosh yonga yoki oldinga kichik urg'u bilan, salga-na oldinga jiladi, so'ng muloyim qaytadi.

Iyak harakati. Iyak harakati qiyg'ir bo'yin bilan omuxta bo'lib, bir qiyg'ir bo'yin, bir iyak harakati-ni ijro etish mumkin. (Buxorocha raqs holatlari ilova qilindi).

### **RAQSLARDAGI ASOSIY HOLATLAR**



1-rasm. Dastlabki holat.




2-rasm. 1-holat



3-rasm. 2-holat

4-ra:



7-rasm. 6-holat. 8-rasm. 7-holat 9-rasm. 1-holat 10-rasm. 2-holat



1-rasm. 3-holat, 12-rasm. 4-holat, 13-rasm. 5-holat, 14-rasm. 6-holat, 15-ras.7-holat



3-holat

n.

#### Aadabiyotlar:

1. Baubyekova G.D., Xalikova G.T. Innovatsionnye tyexnologki optimizatsii uchyebnogo protsyessa. - V kn.: Obrazovaniye: opnt, problemy, pyerspektivn. Uchyebnoye posobiye. -T.: "YaNGI ASR AVLODI" , 2001. - S. 67-99.
2. Hoshimov K., Ochil S. O'zbyek pyedagogikasi antologiyasi.- T.: «O'qituvchi», 1999 yil.

### MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH USULLA

Feruza Qo'shoqova, JPI litsey o'qituvchisi

Biz talabalarga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida filologik darslarga mos keluvchi turli interfaol dars usullaridan foydalanishga harakat qilamiz. Ma'ruza darslaridan olingan nazariy bilimlar amaliy mashg'ulot darslarida mustahkamlanib, talabalarda nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash lingvistik ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantiradi. Bugungi kun o'quv modullarimizda mustaqil ta'limni tashkil etish ham o'zining muhim vazifasiga ega. Shunday ekan, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda interfaol usullarning joriy etilishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Chunki mustaqil ta'lim topshiriqlari har bir talabaning bilim darajasi va o'zlashtirishining turlicha ekanligini inobatga olib individual yondashuvni talab qiladi.

**Sparring-sheriklik metodi** ikki talabaning juftlikda ishlashi bo'lib, talabaning har biri ushbu metod orqali topshiriqni bajarishi natijasida o'z bilim darajasini o'zi baholay olishiga erishadi. Shuningdek, topshiriqni bajarish tempi va sarf bo'lgan kuchini sinab ko'rish imkonini beradi. Mazkur metod mustaqil ish topshiriqlarini bajartirishda qo'l keladi. Masalan, sintaksis bo'limi mavzulari leksikologiya hodisalari bilan o'zaro bog'lagan holda bajarilishi maqsad qilib

olinishi mumkin. Obyekt uchun lingvistik tahlil metodlaridan biri tanlanadi. Komponent tahlil metodi (KT) – leksik bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilsa, leksik-semantik guruhlariga mansub birliklar ishtirokida matn yaratish va matndagi biriktiruvchi vositalarni aniqlash lingvistik tahlil qilishga manba bo‘ladi. Dastlab tayanch tushunchaga to‘xtalamiz:

**Komponent tahlil metodi (KT)** differensial tahlilning leksik tizimga tadbiiq etilishi natijasida yuzaga keladigan gap tahlili usulidir. Lug‘aviy birliklar, xuddi boshqa sathlardagidek, til tizimida ma’lum tartibdagi guruhlarini tashkil qiladilar va ma’nolari jihatidan o‘zaro paradigmatic munosabatlarda bo‘ladilar. Bunday paradigmatic dasturlarni “mavzuli guruhlar” yoki “leksik-semantik guruhlar” (LSG) deb ataladi. Masalan:

<b>Leksik-semantik guruh</b>		
Javon, divan, stol, kursi,	Dovul, shamol, yomg‘ir	Bobo, tog‘a, ona, xola
Uy jihozlari	Meteorologiya hodisalari	Qon-qarindoshlik so‘zlari

Bugungi kunda tilshunoslik sohasining lingvistikaning lingvopsixologiya, sotsiolingvistika, antropologiya, kognitiv tilshunoslik, ontolingvistika, sinergetika va germenektika kabi ko‘plab yo‘nalishlari talabalarda ilmiy qiziqish uyg‘otishi tabiiy. Mustaqil mashg‘ulotlarda ularga ushbu fanlar bilan tanishish imkonini beruvchi sparringdan foydalanish ijobiy samara beradi. Shu maqsadda lingvistik komponent tahlilini amalga oshirish uchun sparring-sheriklarga quyidagicha mustaqil ish topshirig‘ini berish mumkin.

**I-Topshiriq.** O‘zbek tilining izohli lug‘atidan leksik-semantik guruhlariga mansub quyidagi mazmundagi so‘zlarni izlab toping va ushbu so‘zlar ishtirokida matn tuzing.

1. His-tuyg‘uning paydo bo‘lishi xarakteriga ko‘ra so‘zlar (g‘azab, alam, anduh)
2. His-tuyg‘uning kechish holatiga nisbatan so‘zlar.

**II-topshiriq.** Siz o‘zingizni modern olamida deb his qiling. Shu bo‘yicha matn tuzing. Tuzgan matningizda modernlikka xos bo‘lgan so‘zlardan qo‘llang.

Mazkur topshiriqlarning birinchisi talabani mustaqil izlanishga undasa, ikkinchi topshiriqda ijodiy yondashuv asosida zamonaviy so‘zlarning aynan qaysi guruhga mansub so‘z va tushunchalarni anglashga majbur qiladi. Har ikkisi ham lingvistik tahlilning noan‘anaviy usulida ishlash lozimligini bildiradi.

#### BAHOLASH

1. Lug‘atdan foydalanish ko‘nikmasiga qarab belgilanadi.
2. To‘plangan so‘zlar leksik-semantik guruhga mos tushganligi aniqlanadi.
3. Matn tuzilganligiga
4. Matnning sintaktik tahliliga.

Talabalarga ta‘lim va tarbiya berishning samarasini oshirishda allomalarimizning g‘oya va qarashlaridan foydalangan holda innovatsion va

axborot texnologiyalarni qo'llash zarur. Zero, ma'rifatparvar shoir M.Behbudiy: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lursi", degan ibratli e'tirofi fikrimizni asoslaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Юсупова Ш. Она тили ўқитишда интерфаол усуллар ва компьютер дастури (ўқув-услубий кўлланма). – Т., 2013.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –Т.: Nihol, 2013. –Б.17.

## **GO'ZAL XOTIRALAR JILVASI**

### **A.Xamroyeva. JDPI**

Taniqli adib, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, davlat mukofoti sovrindori Omon Muxtorning "Uzun yo'lakdagi ikki kishi" kitobiga kirgan bitiklarni aksariyat qismi respublikamizning qator gazeta, jurnallarida ilk bor o'quvchisi bilan yuzlashgan. Biroq adib hayotiy kuzatuv, uy-suhbat, xotira va adabiy manzara-tasvirlarining bir jild ostida jamlanishi, yaxlit holda e'lon qilinishi adabiy hayotimizda muhim voqea bo'ldi. Zotan, muallif butun bir davr dabiyoti namoyondalari qiyofasi bilan bog'liq, g'aroyib - antiqa voqealarni nozik chizgilar orqali aks ettiradi. Shuningdek, F.Xo'jayev, Y.Oxunboboyev singari davlat arboblari qismatiga ham jonli chizgilar berilgan. M.Qo'shjonov, Q.Yo'ldoshev kabi adabiyotshunos olimlar, B.Zokirov, B.Ixtiyorovga o'xshagan san'at ahllari qiyofasiga xos go'zal kuzatishlar o'rin olgan.

Kitobning nomi S.Ahmad va S.Zunnunova bilan ko'p yillar oldin bo'lib o'tgan voqeani aks ettiruvchi mo'jazgina xotiradan olingan. Unda inson ruhiyati va holi teran his etiladi, qalbida tug'yon urgan go'zalligu nafosat tuyiladi. Bir so'z bilan aytganda, shogird va ukalik maqomida turib, yozuvchi-shoir ijodi bilan bir qatorda uning odamiylik hislatlari, insoniy qiyofasi ham ulug'lanadi. Qisqa va azob-uqubatli yo'lni mardona bosib o'tgan S.Zunnunova shaxsiyatiga ehtirom va e'tibor bizda ayni shunday munosabat uyg'ota olish barobarida O.Muxtor ijod laboratoriyasiga chuqurroq kirib borish imkonini ham beradi. Chunki, adib o'z ko'nglining ichki tuyg'u-kechinmalarini ochishda g'oyat samimiy, munosabat bildirishda esa o'ta xolis, beg'araz pozitsiyada turadi. Nazarimda, ayni shu hol uning badiiy nasri-hikoya, qissa va romanlariga munosabat bildirishda muhim kalit vazifasini o'tay oladi.

O. Muxtor akademik shoir, faylasuf va mutafakkir G'.G'ulom turmush tarzi qizg'in hayot quchog'ida kechganini qayd etadi. Bu "kayfiyat odami " tabiatiga xos beg'ubor soddalik, samimiyat, iqtidorida kuzatiluvchi badihago'ylik "kosa tagida nim kosa" qo'yib so'zlash salohiyati singari muhim qirralarga diqqat qaratadi. O.Muxtor nafaqat G'.G'ulom, balki Oybekni ham o'z davridan ajratib

---

51 Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –Т.: Nihol, 2013. – Б.17.



tahlilga tortmaydi. Shunga qaramasdan, Oybek inson va ijodkor sifatida tengqurlaridan ancha yuksak turishini e'tirof etadi. O.Muxtor tarixiy haqiqatga sadoqat tamoyiliga sodiq qolarkan, G'G'ulomga nisbatan Oybek o'z imkoniyatlarini to'la namoyon eta olgan edi, degan xulosaga keladi. A.Qahhorni esa "o'lik so'z va ezmalik" ni hushlamaydigan, "tilga oro" bergan, shaxs sifatida esa: "qahri bor" adib va inson sifatida eslaydi. A.Qahhor ijodiy prinsplariga to'xtalar ekan; "Uning yuragida hayotiy qusur-illatlarga qarshi nafrat tug'ilib, bu nafrat kuydiruvchi qahr o'tiga aylandi", deb yozadi.

Ko'rinadiki, O.Muxtorni badiiy nasrga yetaklagan omillar sirasiga G'G'ulom, Oybek, A.Qahhorga o'xshagan katta avlod faylasuf ijodkorlariga bo'lgan ayricha mehr, ular ijodining muhibi bo'lishini ham kiritish lozim. Bu o'rinda ham O.Muxtor kamtarin va hokisor shogird maqomida turar ekan: "Oybek bir tog' bo'lsa, biz shu tog' etagidagi bir tosh", deyishdan zarracha iymanmaydi. Binobarin, adib nasrini G'G'ulom, Oybek, A.Qahhor uslubiy mahoratlari ijodiy o'zlashtirilishi fonida ham kuzatish mumkin.

O.Muxtor olisdan ko'rgan manzaralardan INSON va IJODKOR degan ikkita sifatni ajratib olib, shunga ko'ra tasvir palitrasini kengaytiradi. Uning bir qarashda jo'n, ammo tarix sinovlaridan o'tgan falsafasigako'ra: "Dunyo karvonsaroy, biz barchamiz sayyohlarmiz." Anglashiladiki, olis va yaqin tariximizni baholash asnosida O.Muxtor pozitsiyasi har bir insonni o'z qismatiga ko'ra idrok etishga asoslanadi. Bu hol adib romanlarida kuzatiluvchi: Amir Temur, Husayn Boyqaro, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Nodira, Fayzulla Xo'ja, Bayron, Mirzo G'olib, Shermuhammadbek va ularni kurashgan o'nlab boshqa tarixiy shaxslar obrazini qismat yetovidagi bandalar sifatida anglash konseptual jihatdan o'zini to'la oqlashni ko'rsatadi.

Xullas, O.Muxtorning "Uzun yo'lakdagi ikki kishi" kitobi biz uchun adib ijodiy laboratoriyasini ochishda o'ziga hos kalit vazifasini o'tovchi tadqiqot, badiiy-estetik kuzatuvlar yig'indisi vazifasini o'taydi. Kezi kelganda, ta'kidlash o'rinliki, adabiyotshunosligimizning keyingi bosqichida yozuvchui va shoirlarimizning ayni tildagi, inja kuzatuvlarga boy asarlari ancha kamayib ketmoqda. Shuni unutmasligimiz kerakki, qalam ahliga xos samimiy e'tiroflar ular ijod laboratoriyasiga kirib borishning eng optimal yo'llaridan biridir. Qolaversa, bunday asarlar ijod lazzatidan to'yilgan oniy lahzalar tarovatiga xos go'zallikni kitobxonga yuqtirish jihatdan ham qadrlidir.

## **KITOB MUTOLAASI – BUGUNNING MASALASI**

**Ergasheva Salima, Isroilova Farida JDPI**

Ma'naviyatini shakllantirish, boyitishning eng muhim omillaridan biri, shubhasiz, kitob mutolaa qilishdir. Zero, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "kitob o'qigan odamdan hech qachon yomonlik chiqmaydi". Biroq kitobni shunchaki o'qish emas, uning asl mazmunini, unda ilgari surilgan g'oyani ilg'ash ya'ni uqmoq lozim. Kitoblar bilan oshno

bo'lgan insonda mehr-muhabbat, sevgi-sadoqat, or-nomus, odamiylik, oilaga muhabbat, Vatanga hurmat tuyg'ulari ildiz otadi. Haqiqatan ham, kitob katta-yu kichikning dunyoqarashini, odob-axloqini va ma'naviyatini yuksaltirishda beqiyos kuchga egadir.

Kitob o'qish, kitobga oshno bo'lish – ma'naviy komillik asoslaridan hisoblanadi va u xalqimizning o'zi qadar qadimiy tarixga ega. Buyuk mutaffakirlardan biri aytganidek, kitob- sehrigar. Kitob dunyoni qayta qurdi. Unda odamzotning aqli mujassam, u kishilik tafakkurining ustuni. Qadim-qadimdan otabobolarimiz kitobni ana shunday deya ko'z qorachig'idek asrashgan. Kitob saqlanadigan xoh u kutubxona bo'lsin, xoh u uy bo'lsin- muqaddas sanalgan. Har qanday kitob eng pok, eng yuqori joy- tokchalarga qo'yilgan.

Darhaqiqat, kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq ko'rinishidir. Unda kechmish, zamonlarning aql-idroki yashaydi. Insoniyat yaratgan, qayta-qayta o'ylab ko'rgan va u erishgan narsalarning beri – xuddi sehrli sandiqdek kitoblar sahifalarida saqlanib qolgan. Ushbu sehrli sandiqlarni ochish va undan foydalanish bugun ko'ngildagidek emasligi, sir emas. Albatta, ayrim yoshlar kitobsiz hayotini tasavvur qilolmaydi. Shu tufayli ham ular yuksak natijalarga erishib, yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanmoqda. Ammo ayrim yoshlar borki, ular vaqtning qadrini bilmaydi. Oltindek fursatlarni qandaydir keraksiz suhbatlarga va nojo'ya amallarga sarflaydi. Kitoblarda qanchadan – qancha katta ilm xazinasi yashiringanligini xayollariga ham keltirishmaydi.

Ba'zan, ko'cha- ko'yda ota-onalarning “Farzandim kitobga qiziqmaydi, kuni telefonu kompyuter o'yinlaridan bo'shamaydi” degan nolishlari qulog'imizga chalinadi. Xo'sh, ota-onalarning o'zlari-chi, kitobga qanday qaraydi? Albatta, bolaning kelajakda qanday inson bo'lishi-yu nimalarga qiziqishi yashayotgan muhitga bog'liq. Agar ota-ona kitobxon bo'lsa, farzand ham beixtiyor kitobga mehr qo'yadi. Afsuski, ba'zi ota-onalar farzandlarini faqat moddiy jihatdan ta'minlab qo'ysam bo'ldi, deb hisoblashadi. Ammo ko'p hollarda bolaning kelajagi uchun eng muhim bo'lgan ma'naviy dunyosini boyitish haqida o'ylab ham ko'rishmaydi.

Hech bo'lmaganda bir oyda bir marta bolani kutubxonaga olib borish, tanlagan kitobini og'rinmay xarid qilib berish, o'qigan kitoblari yuzasidan fikrini muntazam so'rab borish, iloji bo'lsa har kuni uxlashdan oldin kitob o'qib berish asosida kitob bolaning hayotida ajralmas qismiga aylanishiga erishish mumkin.

Bugungi kunda respublikamizda aholini kitob o'qishga jalb qilish maqsadida juda ko'plab chora – tadbirlar olib borilyapti. Ommaviy axborot vositalari, radio, televideniylarda ham aholi kitobxonlikka jalb etilayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Xususan, Respublikamiz bo'ylab “Kitob challenge” loyihasi bo'lib o'tdi. Bu loyihaga asosan o'z istedodi va mehnati bilan tanilgan turli xil kasb egalari o'zlari o'qigan maktabga o'zlari uchun sevimli bo'lgan adiblarning asarlaridan rang-barang mavzular yoritilgan turli xil kitoblardan sovg'a qilishdi. Bundan maqsad yoshlarni kitob o'qishga jalb etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularning ma'naviy bo'shlig'ini to'ldirish va yuksaltirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, keng dunyoqarashga, har bir sohada o'zining shaxsiy

fikriga ega va kelajakda barkamol shaxs etib tarbiyalashdan iboratdir. Bolalar kitobni shunchaki qo‘lga olishlari emas, undan hayotni, insoniylikni, odob-axloqni, sabr- toqatni, sadoqatni, jasurlikni, kamtarlikni o‘rganishlari lozim.

Ilm- sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli damlarda madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. Zero, shu ilmni biz kitoblar orqali o‘qiymiz, o‘rganamiz, ma’naviyatimizni yuksaltiramiz. “Ilmdan yaxshiroq xazina bo‘lmas, qo‘lingdan kelgancha tera olsang bas ” deb o‘z satrlarida buyuk mutaffakir Rudakiy ham ilmni zebu zardan ham qimmatli xazina ekanligini aytib o‘tgan. Biz ham so‘zimiz yakunida bunday satrlar har bir o‘zbek farzandining diliga muhrlanishini niyat qilib qolamiz.

## АНТРОПОНИМЛАРНИНГ СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

(Жиззах вилояти топонимлари мисолида)

### Аҳмедов Собир ЖДПИ катта ўқитувчи

Маълум бир тилда мавжуд бўлган барча киши атоқли отлари мажмуи, фонди *антропонимия* деб юритилади. Маълумки, *антропоним* (юнонча: *antropos* - *антропос* + *опота-атоқли от*) – киши атоқли оти (исм, фамилия, лақаб, тахаллус, патроним ва бошқалар). Атоқли от типларидан бири<sup>52</sup>. Антропонимика ёки исмшунослик эса ономастика (номшунослик)нинг киши атоқли отлари (антропонимлар)нинг пайдо бўлиши, ривож ва вазифавий хусусиятларини ўрганувчи бўлидир. Бундай топонимлар шахсинг жой (Объект) билан алоқадорлиги, боғлиқлиги асосида вужудга келади<sup>53</sup>. Антропонимлар ўз ўрнида беш гуруҳга бўлинади. 1) Антопооиконимлар 2) Антропогидронимлар, 3) Антропооронимлар, 4) Антопонекронимлар, 5) Антропоогронимлар.

Антопооиконимлар-шахс отлари билан аталувчи жой номлари. Буларга қуйидагилар киради: 1) Туман номлари, 2) Шаҳар номлари, 3) Қишлоқ номлари, 4) Маҳалла номлари, 5) Гузар номлари, 6) Овул номлари, 7) Кўрғон ва кўрғонча номлари, 8) Кўча номлари.

(Бахмал тумани) қишлоқ номлари. Йўлдошбой, Дўснат, Дувлат, Беккелди, Бувайша, Умарбий кўрғони, кўча номлари. Ҳ.Олимжон, Т.Сулайманов, Зебунисо, А.Худайбахтов, Мирзо Улуғбек, Амир Темур, А.Беруний, Ш.Рашидов, Ибн Сино, Ал Фаробий, Фитрат, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик, Ойбек, Тўра Сулаймон, Мухаммад Юсуф, Ал Фарғоний, Ал Бухорий, Саъдий Шерозий, Хумоюнмирзо, Нодирабегим, Увайсий, Умар Хайём, Бобур Мирзо, Аз Замаҳшарий, Усмон Носир, Алпомиш, (Зомин тумани) маҳалла номи. "Беруний", "Ҳамза" , "Улуғбек" ,

<sup>52</sup> **Бегматов Э., Улуков Н.** Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 13.

<sup>53</sup> Охунов Н. Фарғона водийси антропоиконимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2 сон 29-бет.

"Ҳ.Олимжон", "Ғафур Ғулом", "Шароф Рашидов", "А.Навоий", "Ширин" , Эшматовул, кўча номлари. Ибн Сино, А.Навоий шох кўчаси, Жумахур аз-Зоминий, Аҳмад аз-Зоминий, М.Бехбудий, Фузулий, Абдулҳамид Чўлпон, А.Авлоний, Амир Темур, Ат-Термизий, Нодирабегим, А.Яссавий, Анбар Отин, А.Фирдавсий, (Янгиобод тумани) кишлок номи. Хўжамушкент, Мелобод, Искандар, Тўкбой, Феруз. Кўча номлари. Пучуғой шох кўчаси, Алишер Навоий, М.Бехбудий, Ҳ. Олимжон, Темур Малик, Амир Темур, Нодирабегим, Ғ. Ғулом, А. Қаҳҳор, Ибн Сино, Усмон Носир, Феруз.

Антропогидронимлар-киши атоқли отидан ясалган сув иншоатларининг номлари. Буларга қуйидагилар киради: 1) Канал номлари, 2) Ариқ номлари, 3) Соё номлари, 4) Булоқ номлари, 5) Кудуқ номлари, 6) Ҳовуз номлари, 7) Кўл номлари, 8) жилға номлари, 9) тўғон номлари, 10) кориз номлари, 11) кечув номлари, 12) орол номлари, 13) зовур номлари, 14) сардобо номлари, 15) қоқ номлари 16) арна, ёп, солма номлари.

(Бахмал тумани) Хўжасой, Турғунсой, Шайбексой, Бойкўнғирсой, Боғмозорсой, Бўстонсой, Тоғайсой, Эшматсой, мирза ариқ, Зулфон ариқ, Раҳмат булоқ, Авлиё булоқ, (Зомин тумани) Усмонлисой, Шодибойқашқасой, Алмаматсой, Ҳатчасой, Болтасой, Жўлбексой, Тоғаймуротжилға, Ҳайитбойкудуқ, Ҳасанбулоқ, Тўғанбулоқ, Ғайбарбулоқ, Эрманбулоқ, Мансурбулоқ, Хайдарбулоқ. (Янгиобод тумани) Хўжамушкентсой, Олмурутсой, Саидонсой, Муродбулоқ, Аширбулоқ.

Антропооронимлар-киши исмилари асосида шаклланган ер сатҳидан баландда турувчи жой номлари. Буларга қуйидагилар киради: 1) Давон номлари, 2) тоғ номлари, 3) тепа номлари, 4) чўққи номлари, 5) ғор номлари, 6) дара, қоя, қир, ўр номлари.

(Бахмал тумани) Исмаат тоғ, Ражабқайқи, Босимтоғ, Абулқосимтепа, Давронтепа, Хайитгултепа, Муродтепа, Искандартепалиги, Мирзатепа. (Зомин тумани) Мўминтепа, Эшонкултепа, Хўжайисаробота, Парпи она (Парпи оғим, Кўрғонтепа), Абдухалилота тепа, Саид Бурҳониддин авлиё, Қилич Бурҳониддин авлиё, Эшберди тепа, Хўжатепа, "Қоплон ота" (Авлиётепа), Маматтўла, Муродмомо, Шойзоқжар, Жумабекқўниш, Анорбойжар (Янгиобод тумани) Ҳайитқир тепа, Олмирзоқир тепа, Хўжамушкент қоровултепаси, Мўминтепа, Қорабек жарни.

Антропонекронимлар-шахс номларига алоқадор ҳолда вужудга келган мазорлар, қабристонлар, хонақаҳлар, зиёратгоҳлар, мақбаралар каби муқаддас кадамжойларнинг атоқли отларидир. Антропонекронимларнинг кўпчилиги киши исмиларига "бува", "ота", "пир", "мазор", "хўжа" сингари сўзлардан бирининг қўшилиши асосида яратилади.

(Бахмал тумани) Хўжа кўндаланг, Шайбек, Олдошмон, Вадиган ота, Жўм-жўм ота, Йўлдошбой, Шодмон, Дўсмаат, Қиличли ота, Қурбоназар, Саид Мирҳалиллоҳ хонақаси, "Новқа ота" зиёратгоҳи, "Теракли ота" зиёратгоҳи, "Малик Аждар" зиёратгоҳи, Ўсмаат ота зиёратгоҳи, Боғимозор ота зиёратгоҳи, (мақбара, масжидлар) Жаббор ўғли Жумакул,

Мулла Умар, Новқа ота, Раҳматуллоҳ ота, Ар-Роҳман, Саидҳошимхон, Сулаймонхон ҳожи, Мулла Ҳасан, Алам ота, Исмаи от, Боболҳожи, Абулқосим Хўжақулов, Абу Ҳанифа, Абдусаттор ҳожи.(Зомин тумани) “Исоҳон ота” қабристон, “Ўрол” қабристон, “Хўжа нимсар” қабристон, “Хўжа саид” қабристон, “Пишағорий” қабристон, “Ҳайитгултепа” қабристон, “Ғолиб” қабристон, Хўжа Қаҳҳор Вали зиёратгоҳи, “Кўк тўнли ота” зиёратгоҳи, “Ғойиб ота” зиёратгоҳи, “Хожа Шохимардон Шердор” қадамжоси, “Қум ота” зиёратгоҳи, «Тошкесган ота» зиёратгоҳи. Саид Бурҳониддин авлиё, Қилич Бурҳониддин авлиё, “Қоплон ота” (Авлиёттепа), Холид ибн Валид, Исоҳон ота, Пирмухаммад ота, Хўжа Рушноий, Саид Қилич Бурҳон, Қурбонбой ота, Ғойиб ота, Абдуқодир ота, Амир Хамза, Мулла Алиқул, Умар ибн Хаттоб, Расулберди бобо, Аздархон, Хўжаи сероб, Ибн Аббос, Усман ибн Аффон.(Янгиобод тумани) Нимсар ота, Хўжамушкент, Феруз, Искандар, Хўжамушкент ота зиёратгоҳи, Чўқмозорбобо қадамжоси, “Бўтатошвали” қадамжоси, Тешиктошбобо қадамжоси, Ғойиб ота қадамжоси, Рустам ота қадамжоси, Эрсулаймон ота қадамжоси, Саид Исоҳўжа қадамжоси, Кўктўнли ота зиёратгоҳи, Абдурахмон ибн АВФ жоме масжиди, Зайнил Обидин жоме масжиди, Хазрату Абу Зар жоме масжиди, Муллақўзи жоме масжиди.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, Жой номларининг таркибига назар ташласак, уларнинг маълум бир қисми азиз-авлиёлар, пирлар, ислом дининг тарғиботчилари каби мўътабар зотларнинг исимлари билан аталганлигига гувоҳ бўламиз. Жиззах вилояти топонимларига берилган номлар шу ҳудудда яшовчи халқнинг турмуш шароити дунёқараши ва шевасидан келиб чиқиб яшаб турган жойларига ўзларига хос ва мос номларни беришган деб ҳисоблаймиз.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 13.
2. Охунов Н. Фарғона водийси антропонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2 сон 29-бет.
3. Э. Бегматов “Номлар тарих садоси” Туркистон, 1992 йил

## LIRIKADA SHE`RIY SAN`ATLARNING O`RNI

### Jo`rayev Murodulla JDPI katta o`qituvchisi

She`riy san`atlarni qo`llash muayyan tamoyillarga asoslanadi. Bulardan eng muhimi she`riy san`atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog`liqligi sanaladi.

She`riy san`atlarni qo`llashda me`yor masalasi ham muhimdir. Ya`ni she`rdashe`riy san`atlarni haddan tashqari ko`p qo`llash maqbul bo`lmaganidek, ularga e`tiborsizlik bilan qarab, asardagi g`oyalarni, fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she`rning ma`no va husniga salbiy ta`sir ko`rsatishi shubhasiz. Shuning uchun ham buyuk sohibi kalomlar o`z asarlaridashe`riy san`atlarni o`rni va me`yorida qo`llaganlar. Mavlono Atoiy va Lutfiy, Alisher Navoiy va Zahiriddin

Muhammad Bobur, Mashrab va Ogahiy, Nodira va Uvaysiy, Furqat va Muqimiy kabi yetuk shoirlarning g‘oyaviy-badiiy barkamol asarlari fikrimiz dalilidir. Hassos shoir Erkin Vohidov ham yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz buyuk so‘z daholarining boshlab bergan go‘zal an‘analarini mahorat bilan o‘ziga xos tarzda qayta ishlab, davom ettirgan.

Kecha oydin, mavjli dengiz,  
Kuy to‘qir bedor sarv,  
Oy kelib sarv uzra qo‘ndi,  
Bo‘ldi oyruksor sarv.  
Ikki sarvning o‘rtasida  
Men turibman lolu gung,  
Bir tomon sarv qadli dildor,  
Bir tomon dildor sarv.  
Lolu gungman, boisi sarv,  
U seni ko‘rgan kecha  
Yerga kirmabdur taajjub,  
Bu qadar beor sarv.<sup>54</sup>

Shoirimiz ushbu she‘rida ham epitetdan unumli foydalanib, tilimizdagi so‘zlardan yangicha birikmalar yaratib, tilimiz nihoyatda so‘zga boy ekanligini ko‘rsatish barobarida, har bir so‘zning o‘z o‘rnida nurlanishiga ham erisha olgan. Keltirgan misolimizda esa “mavjli”, “bedor”, “oyruksor”, “sarv qadli”, “dildor”, “beor” so‘zlari, “dengiz”, “sarv” “dildor” so‘zlariga nisbatan sifatlash vazifasini bajarib kelgan.

Aylanur charxi falakning  
Davridek mangu zamon,  
Gohi “kajraftor” u gohi  
“Zolim” u “badxu” zamon.  
Ne uchun ahli zamon der  
O‘z zamonin bevafo,  
Tutmasa Xayomga may deb  
Kosada og‘u zamon.

Bu misolda “zamon” va “u” so‘zlariga “mangu”, “zolim”, “badxu”, “og‘u” so‘zlari epitet bo‘lib kelmoqda va satrga poetik ruh bag‘ishlamoqda. Erkin Vohidov she‘rlaridagi epitetlar faqat asar poetik tilining bezagigina bo‘lib qolmasdan, asar g‘oyasini aniq ifodalashning realistik vositasi, turli personajlarga, predmetlarga muallif munosabatini ko‘rsatuvchi vosita vazifasini ham o‘taydi. Shoir har bir timsolni o‘quvchi yoki tinglovchining ko‘zi oldida o‘ziga xos individual xususiyatlari bilan gavdalantirishga intilib, ularning xarakteridagi, tashqi, ichki ko‘rinishdagi ayrim xususiyatlariga, ichki va tashqi qiyofalariga mos epitetlarni qo‘llay olgan. U ayniqsa, yakka hamda uyushiq epitetlardan juda mahorat bilan foydalangan. Odatda, yakka epitet shaxs yoki predmetning,

---

<sup>54</sup> Воҳидов Э. Ишқ савдоси. Сайланма. Биринчи жилд. –Тошкент: Шарқ, 2000. –Б. 127.

timsolning birgina o'ziga xos belgisini ko'rsatsa, uyushiq epitelar esa birgina timsol shaxs yoki predmetning qator uyushgan belgisini ko'rsatadi.

Hamon yodimdadir u g'amli ko'zlar,

Shu oqshom aytilgan alamli so'zlar:

“Ota...”, “boylik...”, “taqdir...”, “nikoh...”, “qari chol...”

Va “Xayr, xush qol!...”

Uzoq o'tirdilar shu tun ikki yor,

Ayriliq shomida vafoli nigor

Yigitga qoldirdi ishqidan timsol–

Shohi dastro'mol....

Shoirning ushbu she'rida ham “g'amli”, “alamli”, “qari”, “vafoli”, shohi so'zlari “ko'zlar”, “so'zlar”, “chol”, “nigor”, “dastro'mol” so'zlariga nisbatan epitet, ya'ni sifatlash vazifasini bajarib kelmoqda. Albatta, bu kabi jozibador, o'ziga xosshe'riy san'atlarni yaratishda, qo'llashda har bir shoirga Alloh tomonidan berilgan iste'dod bo'lmog'i lozim. Darhaqiqat, iste'dod haqida shoir Erkin Vohidovning ushbu fikrlari ham e'tiborga loyiq, deb o'ylaymiz:

“Iste'dod inson qalbi va ongining juda noyob xususiyati bo'lgani uchun, juda rang-barang bo'lgani uchun ta'rifga sig'ishi qiyin. Shoirona iste'dod – bir qaraganda olamga hayrat ko'zi bilan boqish san'ati va o'zgalarni hayratga solish san'ati bo'lib ko'rinadi, yana bir qaraganda el dardiga oshno bo'lish qobiliyati bo'lib tuyuladi. Iste'dod – bu, avvalo, did, yaxshi did egasi bo'lish qobiliyati, deguvchilar ham bor. U ta'rifga siqqanda edi, uni ma'lum xususiyatlar doirasida chegaralash mumkin bo'lganda edi, odamlar yo'q iste'dodni tarbiyalab bor qilgan bo'lardilar. Gorkiy, iste'dodning 99 foyizi mehnat deganini tug'ma iste'dodi bo'lmagan odam mehnat bilan chinakam shoir yoki bastakor bo'lishi mumkin, deb tushunmaslik kerak. Har qalay 99 degani yuz emas. Suv normal gradusda yuz gradusda qaynaydi. 99 gradus isigan suv – qaynagan suv emas. Fors tilida qaynashni “jo'shidan” deydi. Ya'ni “jo'shmoq”. She'riyat ham jo'shmoqdir. Jo'shmoq uchun esa 99 foyizdan tashqari o'sha kamtarin bir foyiz – ya'ni tug'ma iste'dod kerak ”

Shoir Erkin Vohidov xalq hayotini uning jonli so'zlashuv tili hamda tilning she'riy san'atlardan yuksak mahorat bilan foydalana olishi va xalq og'zaki ijodini juda yaxshi bilishi tufayli shunday bir poetik til uslubini yaratdiki, bu til hozirgi zamon o'zbek adabiy tilimiz rivojiga munosib bir hissa bo'lib qo'shilmoqda.

## **ABDULLA ORIPOV IJODIDA IBN SINO OBRAZI**

### **Tulishova Gulzina, Jizzax shahar “Temuriylar izdoshi” NTM**

“Hakim va ajal” dostoni buyuk mutafakkir, tibbiyot fanining atoqli namoyandasi Abu Ali Ibn Sino hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlardan biri hisoblanadi. Asar Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlab yaratilgan.

”Hakimva ajal” dostonida hikoya qilinishicha, Abu Ali Ibn Sino uzoq yillar davomida tibbiyot sohasida haddan ziyod aziyat chekib, mehnat qiladi. Ko'p

izlanishlar natijasida buyuk kashfiyot yaratadi – o‘lmaslikning davosini topadi. Biroq g‘arazgo‘y va shuhratparast shogird Mirzo o‘z ustozining olamshumul kashfiyotiga hasad bilan qaraydi. U Abu Ali Ibn Sinoga qarab behayolik bilan:

Men – iblisman, odamlarning o‘zidan chiqqan,  
Sen – zakosan, yo‘qdir seni ko‘rarga ko‘zim,-

deydi. Bu nokas shogird ustози Ibn Sino kashf etgan noyob, hayotbaxsh dorini qasddan yo‘qotadi. Abdulla Oripov ”Hakim va ajal” dostonida ana shu dramatik voqeani afsus va nadomatlar bilan tasvirlab, hasadgo‘ylik va baxillikni, yovuzlik va ichqoraliknifosh etadi. Shu asosda insoniylikni, ilm va zakovatni ulug‘lab, insonlar bir-biriga beminnat va beta`ma yaxshilik qilishi lozim degan falsafiy fikrni obrazli ravishda izhor etadi.

Dostonning hech bir o‘rnida Ibn Sino nomi tilga olinmasada, lekin asarda aynan Ibn Sino hayoti aks ettirilganligini anglash qiyin emas.

Chorva bilan mashg‘ul edi ota-onasi,  
Tiriklikdan kamtargina kom olgan edi.

Lekin shundoq oilaning o‘sha bolasi  
Yosh boshidan Hakim degan nom olgan edi.<sup>55</sup>

Yuqoridagi satrlar bilan doston boshlanadi. Ilk satrlardanoq xushyor kitobxon gap kim haqida ketayotganligini anglashi qiyin emas. Mazkur misralarda ”Buxoroning shundoqqina Afshonasida” deyish orqali Ibn Sinoning tug‘ilgan zaminiga ishora berilsa, ”Yosh boshidan Hakim degan nom olgan edi” misralari orqali esa Ibn Sino hazratlarining mashhur tabib ekanligiga urg‘u beriladi. To‘g‘ri dostonda aniq tarixiy faktlar, ma`lumotlar berilmaydi, lekin shunday bo‘lsada buyuk tarixiy shaxs Ibn Sino obrazi yaqqol asarda o‘z aksini topgan. Chunki Abu Ali Ibn Sino haqidagi juda aniq va ishonarli tarixiy manbalarning kamligi ham muallifning xuddi shunday yo‘ldan borishiga izn beradi.

Abdulla Oripov dostonida ko‘proq Ibn Sinoning insoniy fazilatlariga alohida e`tibor qaratishga harakat qilganligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki dostonida Ibn Sino o‘ziga juda katta dushmanlik qilgan, uning o‘z vatanidan quvilishiga sabab bo‘lgan Mirzoni kechiradi va o‘z xizmatiga oladi. Sababi Hakim Mirzo siymosida o‘z vatanini ko‘radi, vatan sog‘inchi Hakimning Mirzoni kechirishiga asos qilib tasvir etiladi:

Hakim dili allanechuk guvrandi shu dam,  
Bamisoli eshitganday bir so‘z – jon fizo.  
Eshik tomon yo‘naldi u shoshib, bechidam,  
Ostonada turar edi bosh egib Mirzo.<sup>56</sup>

Muallif mazkur dostonida tarixiy haqiqatdan chekinmagan holda ko‘proq badiiy to‘qimadan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Doston xuddi xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan ertaklar kabi o‘qiladi. Chunki asarda tarixiy muhim sanalar, murakkab ismlar, joy nomlari, aniq tarixiy voqealarga e`tibor qaratilmasdan asosan Ibn Sinoning insoniy, ezgu orzu-niyatlariga alohida e`tibor beriladi. Xuddi shu jihat asarning ommabopligini, badiiy yuksakligini ta`minlashda muhim rol

<sup>55</sup> Abdulla Oripov Jannatga yo‘l. –T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil 49-bet

<sup>56</sup> Abdulla Oripov Jannatga yo‘l. –T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil 63-bet



o‘ynagan. Dostonni o‘qish davomida uzoq tarixga sayohat qilish barobarida inson, umr mohiyati, inson ruhiyatidagi umrboqiylikka bo‘lgan intilish va havas, yahshashdan maqsad, tubanlik va yaxshilik, sevgi va rashk kabi falsafiy, insoniy tuyg‘ular haqida mushohada yuritamiz. Albatta, asardagi yuqori badiiy tasvir kitobxonni o‘ziga jalb etmasdan qolmaydi.

Dostonda oddiy yosh Hakimning malikaning dardiga davo topishga harakat qilishi va bu jarayonda shohning e’tirofiga sazovor bo‘lib, butun saroy kutubxonasidan to‘liq foydalanish baxtiga musharraf bo‘lishi jarayoni Hakimning ruhiy kechinmalari bilan bir butunlikda aks ettiriladi:

Bunda asriy qo‘lyozmalar, devonlar noyob,  
Ilmi nujum, ilmi she`ru ilmi tib bari.  
Qancha – qancha hikmatlarda jam bo‘lgan kitob,  
Bunda edi inson aqlin javohirlari.<sup>57</sup>

Hakim necha yillik armonlarining ijobat bo‘lishi orqali biz bosh qahramonning nechog‘lik ilmga, ziyo va tafakkurga tashna zot ekanligiga amin bo‘lamiz. Bu bilan muallif tarixiy haqiqatga sodiqligini ko‘rsatadi. Chunki tarixiy manbalarda haqiqatan ham Abu Ali ibn Sino o‘z kasbiga sadoqati va bilimdonligi tufayli juda ko‘plab shoh va amirlarning e’tirofi hamda e‘zoziga musharraf bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

Hakim Mirzoning riyokorligi, tuhmatlari tufayli saroy kutubxonasini yoqib yuborganlikda ayblanib bir umrga o‘z ona Vatani bo‘lmish Buxorodan quvg‘in qilinadi. Ammo yillar, oylar o‘tsada Hakim o‘z onasi va tug‘ilib o‘sgan Afshonasini bir daqiqa bo‘lsada xayolidan chiqarmaydi. Uni Vatan va ona sog‘inchi qiynaydi. To‘g‘ri Hakim o‘z kasbi va chuqur bilimga egaligi bilan borgan har bir manzilida davo istagan bemorlar dardiga davo topadi, umrlariga umr qo‘shadi va uzoq o‘lkada xalifaning e’tirofiga sazovor bo‘lib, vazir darjasiga erishadi. Lekin shunday bo‘lsada Hakim baxtiyor emas edi. Chunki uni har daqiqa ona diydori, Vatan sog‘inchi, ishq tinch qo‘ymas edi.

## **O‘ZBEK TILINING SOFLIGINI SAQLASHDA PURIZM SO‘ZLAR**

**A.Musayev, JDPI Dotsent. D.Akramova JDPI talaba**

Dono xalqimizning “Oz so‘yla, ko‘p o‘yla” degan hikmatli so‘zi bor. Odam aytmoqchi bo‘lgan gapini qanchalik puxta o‘ylab olsa, tili ham shunchalik yaxshi chiqadi. Madaniylik, madaniyat odamcha yashash, odamcha so‘zlashishdadir. Shunda A. Navoiyning quyidagi fikriga amal qilgan bo‘lamiz.<sup>58</sup>

Kam so‘z ila elga olimdan najot,  
Ham so‘z ila topib o‘liktan najot.

Madaniy nutq so‘zlaganda sharoitni va undagi suhbatlarni hisobga olish, bir so‘zni ishlatishdan qochish, o‘zlashma va o‘zlashmagan so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan saqlanish kerak. Albatta, bu masala har birimiz uchun birdek daxldor.

---

<sup>57</sup> Abdulla Oripov Jannatga yo‘l. –T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018 yil 53-bet  
<sup>58</sup>B. O‘rinboev, A.Musayev “O‘zbek nutqi madaniyati asoslari”(o‘quv qo‘llanma), Jizzax 2005.21-bet

Navoiy ushbu satri orqali soʻzning qudratini ochib bermoqda. Hatto oʻlikdan ham najot topib keta oladigan mana shu soʻzning mohiyati milliy til atamasi bilan uzviy bogʻliq. Dunyoda hamma millat va elatlar oʻz milliy tillariga ega boʻlganidek, bizning ham milliy tilimiz oʻzbek tili hisoblanadi. Hozirgi zamonaviy jamiyatimizda milliy tilimiz bilan isteʼmoldagi soʻzlashuv tilimiz oʻrtasida baʼzi farqlar koʻzga tashlanmoqda. Tilshunoslikda mana shu fikrlarimizni dalillaydigan bir termin bor.<sup>59</sup> “Purizm” lotincha “sof”, “toza” degan maʼnoni anglatadi. Bu esa tildagi soflikni bildiradi. Umuman olganda boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirmagan tilni topish qiyin. Ammo bu yangi soʻz faqat eng joiz holatda va maqbul variantda olinsa nur ustiga aʼlo nur boʻlardi. Tilimizning sofligini saqlash masalasi nafaqat hozirgi vaqtda, balki oʻtgan zamonlarda ham juda dolzarb muammo boʻlib kelgan.<sup>60</sup> XI asrda M. Qoshgʻariy, XV asrda A. Navoiy, XX asrda Fitrat kabi tilshunos olimlarimiz ham koʻplab sayi harakatlar olib borgan. Xususan, Fitrat yozganidek “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi? Bilasizmi? Turkcha...Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin bitmamishdir. Bitmas yashamishdir, yashar. Tilimiz haqiqatda boy. Ammo unda hali yechilmagan muammolar, javobsiz savollar ham talaygina. Purizm mana shu masalalardan biri. Tilning sofligini saqlash ishiga oʻta konservativ yodashish ham, yoki uni befarq qoldirish ham yaramaydi. Toʻgʻri tilga nooʻrin kirishi mumkin boʻlgan chet soʻzlardan saqlash kerak, ammo har qanday oʻzlashmaga keskin qarshi chiqib boʻlmaydi. Masalan, fan, texnika, iqtisod, siyosat sohasidagi chetdan kirib kelgan soʻzlarni nooʻrin deb aytolmaymiz. Chunki ular internatsional soʻzlar sanaladi. Barcha davlatlar uchun ular oʻzgarmas tushuncha hisoblanadi. Tilning sofligini saqlash masalasida esa asosan jonli soʻzlashuv nutqiga murojaat qilamiz. Bizning tilimizda asosan ingliz va fransuz tillaridan oʻzlashgan soʻzlar koʻp. Ularni quyidagicha guruhlariga ajratishimiz mumkin.<sup>61</sup> Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, maʼdaniy-maʼrifiy, sport sohalariga. Ular ham oʻz ichida bir qancha kichik-kichik guruhlariga boʻlinib ketadi. Chetdan kirib kelayotgan soʻzlarni notoʻgʻri oʻzlashtirish ayniqsa oʻsmirlar orasida koʻp uchramoqda. Bunday holat ular uchun oddiy hodisaga aylanib ulgurganligi juda achinarli. Masalan, oʻsmirlar oʻzaro muloqotda va (wow), o yiss (o yess), bay (bye), ok (all correct) kabi soʻzlarga beixtiyor duch kelamiz. Har bir soʻzning oʻzbek tilida oʻz muqobalasi boʻla turib, yoshlarning bunday chet varvarizmlarni qoʻllashiga sabab nimada ekan? Oʻsmirlar doirasidagina faol ishlatiladigan bu kabi misollar koʻplab topiladi. Ok soʻzini ishlaring qalay deb savol bergan har qanday kishiga ota-ona, doʻstlar, qarindoshlar orasida javob tarzida ishlatayotgan yoshlar hali oʻzlari ham bu soʻzlarning nooʻrin qoʻllanilayotganligini anglab yetishmagan. Ok soʻzi oʻrniga oʻz tilimizdagi uning muqobilini, yaʼni ishlar yaxshi, ishlar besh birikmalarini ishlatish mumkin. Bundan tashqari talabalik hayotida uchraydigan baʼzi soʻzlar borki, ular ham taftishga muhtoj. Masalan, semestr-chorak, sessiya-imtihon, zam-oʻrinbosar, geroy-qahramon dokument-hujjat, spravka-maʼlumotnoma, davay-qani, qani

<sup>59</sup> Hojiyev A. “Oʻzbek tilining lingvistik lugʻati” Toshkent 1985. 162-bet

<sup>60</sup> M. Qoshgʻariyning “Devoni lugʻoti- turk” asari, A. Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari, A. Fitratning “Tilimiz” maqolasi

<sup>61</sup> Ziyonet.uz “Neologizmlar qatori”. Toshkent 2013, 3-bet.

boshla, krasavchik-chiroyli kabi. Bunday soʻzlar tilimizda minglab uchraydi. Bizning vazifamiz tildagi bu kamchiliklarni bartaraf etishdir. Yuqoridagi hamma soʻzlarning oʻz muqobillarini aytish tilimiz sofligini saqlash yoʻlidagi oldinga siljish boʻlardi. Tilimizning sofligini saqlash har birimizning masuliyatli burchimizdir. Zero, tilga xiyonat oʻzlikka, oʻtmishga va kelajakka xiyonatdir.

## **СИНТАКТИК ДИАЛЕКТИЗМЛАР ВА УЛАРНИНГ БАДИИЙ МАТНДАГИ ЎРНИ**

**Б.Файзуллаев, ЖДПИ Доцент. Мамасова Ф.Ўқитувчи**

Ўзбек тилшунослигида ўзга гаплар, уларнинг ўзига хос хусусиятлари, кўшма гаплардан фарқи, синтаксис тизимида тугган ўрни каби масалалар ҳозирга қадар мунозарали бўлиб келмоқда. Чунки улар яқин кунларга қадар кўшма гапнинг бир кўриниши сифатида унинг таркибида ўрганиб келинган. Ўтган асрнинг 60-70 йилларидан бошлаб ўзга гап ва унинг хусусиятлари, тузилиши, таркибий қисмлари, шаклланиш хусусиятлари юзасидан, бошқа гапларга бўлган муносабатлари борасида махсус илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш йўлга қўйилди.

Ўзга гапли қурилмалар масаласи ўзбек тилшунос олимларининг эътиборини тортиб келган ва бу соҳада улар дастлабки фикрларни билдирганлар. Жумладан, Ғ.Абдурахмонов, А.Ғуломов, М.Асқарова, Ш.Шоабдурахмонов, А.Исроилов, М.Шарипов ва бошқалар(1) дастлабки ишларга раҳномалик қилган бўлсалар, кейинги авлод тилшунослари ушбу мавзунинг турли характерли томонларини монографик ўрганишга эътиборларини қаратишди. Жумладан, С.Аширбоев, Х.Назарова, А.Абдуллаев, Б.Йўлдошов ва бошқалар(2). Бу борада қатаор ишлар амалга оширилаётганига қарамасдан, ушбу тил ҳодисасининг аталиши ва таснифида ҳам турлича қарашлар мавжудлиги сезилади. Айримлар уни ҳамон кўшма гапнинг бир кўриниши ҳисоблашса(3) айримлар эса уларни алоҳида синтактик қурилма ҳисоблашади. Ушбу бирликларнинг номланишида ҳам ҳар хиллик мавжуд. Масалан: ўзга гап, кўчирма гапли кўшма гаплар, ўзга гапли конструкциялар, ўзга гапли қурилмалар каби.

Тилшунос А.Абдуллаев бундай қурилмаларни “ўзга гапли конструкциялар” номи билан айтади ва ўзбек адабий тилида уларнинг қуйидаги турлари мавжудлигини кўрсатади: 1) кўчирма ўзга гапли конструкциялар; 2) ўзлаштирма ўзга гапли конструкциялар; 3) тематик ўзга гапли конструкциялар; 4) чоғиштирма ўзга гапли конструкциялар; 5) билатерал ўзга гапли конструкциялар; 6) аралаш ўзга гапли конструкциялар. Бу конструкциялар ўзга гапни ифода этиш характери ва синтактик функциясига кўра бир-биридан фарқланади ва биргаликда ўзга гапли конструкция системасининг структура қисмини ташкил этишини айтади (ўша асар, 9 бет).

Биз ушбу ишимизда кўчирма ўзга гапли конструкциялар юзасидан айрим мулоҳазаларни билдирмоқчимиз. Кўчирма гапли қурилмаларнинг

характерли томонлари юзасидан ўзбек тилшунослигида бир қанча таърифлар мавжудлигини кўрамиз. М.Шарипов “Автор иккинчи шахс гапини ўз гапи ичига кўчирма гап формасида киритганда унинг барча лексик, синтактик, интонацион ва шу каби хусусиятларини сақлайди ва эгаси томондан қандай айтилган бўлса, худди ўша хилда ўзгаришсиз айнан кўчиради” (ўша асар, 3 бет) деган таърифни беради. Профессор М.асқарова кўчирма гапли қурилмаларни қуйидагича таърифлайди: “Бошқаларнинг (ўзгаларнинг) фикри ёки гапдаги семантик, лексик, грамматик ва синтактик хусусиятлари сақланиб, мустақил гап шаклида, автор гапи билан биргаликда ифодаланса, кўчирма гап дейилади” (ўша асар, 114-бет). М.Мирзаев ва бошқалар томонидан чиқарилган “Ўзбек тили” дарслигида кўчирма гапларга “Ўзгаларнинг ҳеч ўзгаришсиз айнан берилган гапи кўчирма гап дейилади”, деган таъриф берилади.

Демак, юқоридагилардан кўриниб турибдики, ўзгага тегишли нутқнинг ҳеч ўзгаришсиз барча унсурларининг автор гапи таркибида берилиши кўчирма гапли қурилмаларни ҳосил қилади. Кўчирма гаплар асосан сўзлашув нутқи ва бадий адабиёт тилига хос синтактик birlikлардир. Шундай экан, кўчирма гаплар ҳеч қачон ёлғиз ҳолда қўлланмайди. Улар кўчирма гап, автор гапи-ремарка бирлигидан ҳосил қилинади. Бундай гапларда ремаркалар кўчирма гапнинг кимга қарашли эканлигини, қандай шароитда айтилаётганини билдириш учун хизмат қилади.

Тузилиши жиҳатидан кўчирма гаплар бир сўз, бир ёки бир неча гап, бир составли ва икки составли гаплардан ташкил топиши мумкин. Автор гапи эса асосан икки составли биргина содда гаплардан тузилиши мумкин. у қўшма гап шаклида ёки бир составли содда гап шаклида деярли қўлланиламайди: Ўғил эшакнинг жиловини тутди. – *Ота, минасизми?* – А? – деди ҳожи телбанома кулимсираб, - *Эшакка миниб нима қиламан, болам?* (25-бет).

*Сулаймон беихтиёр хитоб қилади:*

- *Воҳ, воҳ! Валлоҳи аъзам! Бир ҳаз этдим, бир ҳаз этдим, етмиш икки бўгиним юмшади, пирим!*

-*Шайх қовоқ солди: - Ҳали – ҳануз кўчирмадиларми?*

-*Кўчиражакман, пирим. Аввал мана бу ерима кўчирдим – у кўкрагига нуқиди, - энди қозоғга кўчиражакмиз (110-бет) .*

Келтирилган мисолларда кўчирма гаплар турли структурал тузилмалардан ташкил топганлигини кўрамиз, яъни бир товуш орқали (А?), бир сўз орқали (минасизми?) ва содда гап орқали. Албатта, кўчирма гапларнинг шаклланишида айрим ўзга хосликлар мавжуд. Кўчирма гаплар кесими феъл, от ёки бошқа сўз туркумлари орқали ифодаланса ҳам, лекин автор гапининг кесими доимо соф феъл орқали ифодаланади. Қуйидаги феъллар кўпгина ҳолатларда автор гапи кесим бўлиб келади: гапириш, сўзлаш маъносини ифодаловчи сўзлар; сўзлаш ҳаракати билан боғлиқ бўлган турли ҳолатни кўрсатувчи феъллар (қичқирди, буюрди, пичирлади ва бошқалар); олдинги фикр билан боғлиқликни ифодаловчи феъллар (гапни

бўлди, жавоб берди, давом эттирди ва бошқалар); сўроқ мазмунини ифодаловчи феъллар (қалай? Қаерда? А? Нима? ва ҳакоза).

Кўчирма гаплар доим баён қилинган фикрни эмас балки баён қилинмаган, ўйланган фикрни ҳам ифодаланиши мумкин. Бундай ҳолларда уларнинг кесими ўйлади, деди ўзига – ўзи, деди ичида, хаёл қилди, фикрлади каби феъллар орқали ифодаланади. Масалан: - Чўпоной бизнинг розилигимизсиз эрга тегиб, балки яхши иш қилгандир? – ўй суриб кетди (С.А.).

Юқоридагилардан ҳам кўриниб турибдики, кўчирма гапли қурилмалар ўзига хос бўлган хусусиятлари билан кўшма гаплардан фарқланади. Бу фарқланиш унинг таркибий тузилишида, бир неча фикрларнинг ифодаланишида, кўчирма гапларни шакллантирувчи воситаларда яққол сезилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм. – Тошкент, 1966; Шарипов М. Ўзбек тилида кўчирма ва ўзлаштира гаплар. – Тошкент, 1955; Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўшма гаплар. – Тошкент, 1960; Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1987; Шарипов. Ўзбек тили кўчирма ва ўзлаштира гап. – Тошкент, 1955.

2. Абдуллаев А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида кўчирма гапли конструкциялар. – Тошкент, Фан, 1978; Йўлдошов Б. Ўзиники бўлмаган кўчирма гапнинг грамматик-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд, 1992; Мирзаев ва бошқалар. Ўзбек тили. Тошкент, 1969.

3. Саъдулла Сиёев. Аҳмад Яссавий. Тошкент, Ўзбекистон, 2012. мисоллар шу асардан олинди.

## **MUHAMMAD YUSUFNING STILISTIK FIGURALARDAN FOYDALANISH MAHORATI**

**A.Musayev, JDPI dotsent D.Shukurova, talaba**

Har qanday til o'z lug'at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo'ladi. Adabiy til strukturasi bo'lgan o'zgarishlar xalqlar o'rtasidagi uzoq tarixiy davrlar davomida shakllanadigan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar xalqlarning tillariga ham, shubhasiz, ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tilga xos fonetik, leksik elementlar tillardan tillarga o'tib sayqallanib, kengayib til taraqqiyotiga ta'siri kuchayib boradi. Bu hol Navoiy zamonidan to hozirgi kunga qadar o'tgan davr ichida adabiy tilning lug'at tarkibida, fonetik qurilishida, so'z yasash sistemasida va grammatik qurilishida ko'zga tashlanadi(1-8-bet). Shuningdek, badiiy nutqni emotsionalligini oshirishda foydalaniladigan stilistik figuralarni o'zni ham ahamiyatlidir. Xususan, ijodkorlar foydalangan so'zlar poetik leksikani shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Muhammad Yusuf she'rlarini tahlil qilish davomida nutqning emotsionalligini oshirishga yordam beruvchi quyidagi stilistik figuralar mavjudligiga guvoh bo'lish mumkin:

1. Takror va uning turlari.

2. Anafora
3. Gradasiya.
4. Antiteza.

Takror stilistik figuraning bir ko‘rinishi bo‘lib, misrada asosiy ma‘noni ifodalovchi so‘zlarning takrorlanib kelishiga asoslanadi. Muhammad Yusuf she‘riyatida ham takrorlardan foydalanish orqali ifodalanayotgan ma‘no yetakchiligiga erishilgan.

Momom o‘rib o‘tgan soch,  
 O‘tib tovon o‘pgan soch.  
 O‘tib tovon o‘pganda,  
 Yig‘lab-yig‘lab ketgan soch...  
 Kokiling kim kesdi, yor ?

Bu satrlarda takrorlangan soch so‘zi ohangdorlikni ta‘minlash bilan birga alohida ta‘kid vazifasini ham bajargan. Satrlarda takrorlangan soch ijodkorni tasvir obyektini yaratishda qo‘l kelgan. Sababi sochga berilgan birinchi misradagi ta‘rifda uni o‘rimliligi ta‘riflangan bo‘lsa, ikkinchi satrda sochning uzunligiga o‘tib tovon o‘pgan o‘xshatishi bilan izoh berilgan. To‘rtinchi misrasidagi takror esa sochning tasviriy ifodasini emas, balki holatini namoyon etishda qo‘llangan.

Kokiling kim kesdi, yor,  
 Sevgim yo‘lin to‘sdi, yor.  
 Mening ko‘nglim cho‘ktirib,  
 Kimning ko‘ngli o‘sdi, yor ?!  
 Kokiling kim kesdi, yor!

(2016 –yil “O‘zbekiston” nashri Bevafo ko‘p ekan...17-bet)

Anafora ishlatilish o‘rni va mazmuniga ko‘ra, turlicha uslubiy vazifalarni bajarib keladi. Yuqoridagi misralarda takrorlangan yor so‘zi orqali shoir bu takrorlarning har biriga mantiqiy urg‘u yuklagan.

Senda til yo‘q,  
 Senda nigoh bor, xolos.  
 Senda dil yo‘q,  
 Senda gunoh bor, xolos. (23 bet)

Takrorning misralar boshida keladigan ko‘rinishiga anafora deyiladi. Anaforada takrorlanib kelayotgan so‘zlar mantiqiy jihatdan ham, intonatsiya jihatdan ham ajralib turishga xizmat qiladi.

Yondi,  
 Yonaverdi  
 Kokillari, so‘ng,  
 Charsillab yuragi  
 Yondi bearmon.  
 Yarmi yonib bo‘lgan  
 Ko‘ylagi bir yeng  
 Ishqning bayrog‘iga  
 Aylandi alvon!... (“Surat”she‘ri 130-bet)

Ba`zan so`z va iboralar shunday tartibda joylashtiriladiki, go`yo birining ma`nosini keyingisi tomonidan kuchaytirib, rivojlantirib borilgandek bo`ladi. Bu gradasiya hosidasini vujudga keltiradi. Misralarda berilgan ushbu birliklar ham boshqa figuralar kabi hayajonni oshirishga hizmat qilish bilan birga , ifodalanayotgan fikrlarni o`sib borishga va ular o`rtasidagi uyg`unlikni yuzaga keltirishga hizmat qilgan.

Bir kechaning izohi-  
Yarmi quvonch, yarmi g`am  
Eh, qaniydi shu kunni  
Ko`rganida kampir ham.

(“Uch o`g`il bir qiz qissasi” 121-bet)

Ijodkor satrlarida qo`llagan antitezalar zidlikni ifodalash bilan birga o`zaro aloqador holda tasvirlangan voqea hodisalarni ham qarama-qarshi qo`yish, o`z o`rnida ana shu jarayondan zidlikni yuzaga keltirish mahoratidan foydalanganligini ko`rishimiz mumkin. Muhammad Yusuf o`zbek adabiyoti uchun o`ziga xos ijod maktabini yaratdiki, bu maktab xalqimiz tomonidan qizg`in qarshi olindi. Xalqchil ohanglarga yo`g`rilgan bu maktab davr muhitini yorib o`tib, xalqimiz qalbiga yetib bordi va elimizning eng ardoqli ma`naviy xazinasiga gavhar bo`lib qo`shildi. Shoir vatan madhini kuylagan, xalq dardini o`zining dardi deb bilgan va o`z ijodida takrorlanmas satrlarni ifoda eta olgan shoir sifatida yuksak cho`qqilarni zabt etdi.

#### **Adabiyotlar:**

1. B.O`riboev. G`ulom asarlarining lingvopoetikasi.- Samarqand, 2008.8-b.
2. Muhammad Yusuf . Biz baxtli bo`lamiz. – Toshkent, 2009.
3. Muhammad Yusuf. Bevafo ko`p ekan – Toshkent, 2012.

## **БАДИЙ МАТНДА АЖРАЛМАЙДИГАН ГАПЛАР**

**Б.Файзуллаев, ЖДПИ доценти, Абдуғаниева Махлиё, талаба**

Гапнинг таркибий қисмини ўрганиш гапдаги эга ва кесим состави, унинг таркибига кирган бўлақлар иштирокига қараб таҳлил қилинади. Лекин нутқимизда бундай составларга ажралмайдиган синтактик birlikлар, яъни гапга тенг birlikлар ҳам mavjud. Бундай синтактик birlikлар ўзбек тилшунослигида бўлақларга ажралмайдиган гаплар номи билан юритилади. Бундай синтактик категория юзасидан А.Ғуломов, М.Асқарова, Ғ.Абдурахмонов, Н.Маҳмудов, Б.Ўринбоевлар ўз илмий тадқиқотларида қатор фикрлар билдириб ўтганлар. (1).

Бўлақларга ажралмайдиган гаплар юқорида таъкидлаганимиздек, ўзларининг структура асосига кўра сўз ёки бир неча сўз бирикмаларидан ташкил топиши мумкин. Улар англатаётган мазмун муносабати эса турлича бўлади. Бундай гапларда ифодаланган ҳис-ҳаяжон, тасдиқ, инкор, сўроқ, ундаш, вокативлик каби муносабатлар эса бўлақларга ажралмайдиган гапларни ўзига хос хусусиятларга эга бўлган алоҳида синтактик категория эканлигидан далолат беради. Ҳозирги кунда бу борада қатор тадқиқотлар

вужудга келмоқда. Жумладан, бўлақларга ажралмайдиган гапларнинг синтактик хусусиятлари билан бир қаторда уларнинг бадий матндаги ўрнини ўрганишга ҳам эътибор кучаймоқда. Шунингдек, уларнинг диалогик нутқ жараёнидаги роли ҳам бир қатор тадқиқотчилар томонидан ўрганилмоқда. Чунки бу синтактик бирликлар асосан диалогик нутқда ўз хусусиятларини намоён қилади. Биз шуларни инобатга олган ҳолда бўлақларга ажралмайдиган гапларнинг бадий матнда тутган ўрни ҳақида айрим мулоҳазаларни айтишни лозим топдик. Ўрганиш объекти сифатида ёзувчи Ш.Холмирзаевнинг асарларини асос қилиб олдик. (2).

Юқорида таъкидлаганимиздек, бўлақларга ажралмайдиган гаплар бир сўз билан ёки бўлақларга ажралмайдиган ҳамда бошқа сўз билан кенгаймайдиган синтактик бирликлар билан ифодаланади. Бу турдаги гаплар ҳамма вақт контекст билан боғлиқ бўлиб, ўзи иштирок этган диалог ва монологдаги мустақил гаплар билан синтактик муносабатга киришади. Бўлақларга ажралмайдиган гаплар турли мазмунни ифодалашга хизмат қилади. Қуйида биз Ш.Холмирзаев асарларидан олинган мисоллар орқали фикрларимизни баён қилмоқчимиз.

1. Тасдиқ ёки инкорни ифодалайди. Бу вазифада ҳам, дуруст, шукур, шундай, тўғри, яхши, майли, рост, хўп, йўқ, асло, ҳечда каби сўзлар қўлланилганини кўраимиз.

-Овдан келдингизми, ўртоқ муаллим? – Ҳа. – Унинг ҳаммаси қанчаликми? – Ҳа. – Шунча кўп отдингизми? – Ҳа. – Ўртоқ муаллим, мен ҳам овни яхши кўраман. – Яхши. (I том, 19-бет).

- Сиз, иним, салим мўйловнинг жиянимасми?

- Йўқ.

- Аттанг, аттанг (I том, 22-бет).

- Айтмоқчи, тайёргарлигингни кўриб қўй, келгуси ҳафта овга борамиз. – Майли, - дедим секин (I том, 30-бет).

2. Сўроқни ифодалайди. Булар сўроқ интонациясига эга бўлади. Бу вазифада ростданми, наҳотки, ростми, шундайми, бўлибдими, рост билан-а каби сўзлар қўлланган.

- Дўстим қачон келдиларинг? Ҳозирми?

- Ҳа. Ҳозир поезддан тушдигу, тўғри бу ёққа келавердик (I том, 42-бет).

Юқоридаги мисолда “Ҳозирми?” сўзи сўроқ ифодалаб, бўлақларга ажралмайди.

3. Расм – одат ва табрикни ифодаловчи бўлақларга ажралмайдиган гаплар. Бундай вазифада салом, хайр, марҳамат, балли, баракалла, офарин, тахсин, раҳмат, ташаккур, тассано, қуллук, қойил каби сўзлари келади.

Масалан: - Ўртоқ муаллим... Мен ҳам овни яхши кўраман. – Яхши. Овнинг ўзи яхши-да. – Мен ҳам сиз билан чиқсам-чи? – Марҳамат (I том, 19-бет). – Ўртоқ муаллим, отга мининг. – Раҳмат! (I том, 19-бет). – Марҳамат, ўтиринг, деди Исмоил Юсупович қаршисидаги стулга ишора қилиб. – Ташаккур (I том, 151-бет). Бу мисолларда ҳам айнан битта сўз гап бўлиб келяпти ва унга бошқа бўлақлар қўшилмаса ҳам сўзловчининг фикри тўлиқ



ифода қилинган. Расм – одатни билдирган сўзларга саломлашиш ҳам кириб, юқоридаги учта гапда сўз гап бўлиб келган. Кейинги гапларда худди шу вазифани “рахмат”, “ташаккур” сўзлари бажариб келган.

4. Ҳис-ҳаёжон ифодалайди. Бу вазифада эмотсионал ундовлар келади. Масалан: Сўнг ўйлаб-ўйлаб Голибнинг ўзига буздирмоқчи бўлди. – Бузмайман! – дедди Голиб. (I том, 99-бет). – Агар бормасам-чи? – жилмайди эсан. – Борасиз! – сўзида туриб олди Шоберди Муродов. (I том, 106-бет).

Ғулом тушиб. Унга рўпара бўлди.

-Ўчир аравангнинг овозини ўчир, ўчир, гапни кўпайтирма!

-Уфф! (I том, 108-бет).

Эр-хотин зимдан бир-бирларига қарашди.

-Шу – шу, -дейди чайналиб Норбуви.

-Бор бисотинг шуми?

-Ҳа, шу! – деди Афруза. – Бўлди-да!

-Уфф!...

Юқоридаги ҳар иккала диалогда ҳам ҳис-ҳаёжон ифодаланган сўз-гап катнашмоқда. “Уфф”... сўзи иккала ўринда ҳам кўнгли бўлмаганлик, норозилик аломатларини ифодалаётгани сезилиб турибди ва улар бу фикрни битта “уфф” орқали китобхонга етказилмоқда.

5. Буйруқ ифодалайди. Бундай вазифада, асосан, буйруқ-хитоб ифода қилувчи сўзлар келади. Масалан:

-Бўлди! – Худоёр эснаб, тўнғиллади. – Ресторанда овқатландик-ку.

-Йўқ-йўқ! Деди, -сизлар меҳмон. Ўтира турунглари. Дарвоқе, меҳмоннинг ихтиёри мезбонда (I том, 90-бет).

Келтирилган мисолларнинг ҳар иккисидан ҳам буйруқ-хитобни ифодаловчи сўз-гаплар матн бошида қўлланмоқда. Худди шу маънодаги сўз гаплар матн охирида ҳам қўлланилганини кўриш мумкин. Масалан:

-Яхши! Сизга сўнгги савол, - деди Аҳад Мирзо. – Демак сиз қабрда ким ётганини умуман билмайсиз? – А? (I том, 98-бет).

Бу ўринда “А” гап ўрнида келиб, “биласиз, гапиринг” деган мазмунни ифодалашга хизмат қилмоқда.

-Бу ерда қолсак, сезиб турибман, жанжал чиқади. Анови эсон айнади!  
Юринг!

Бу мисолда ҳам охириги “юринг” сўз гапи буйруқ ифодалашга хизмат қилмоқда.

6. Ундалма шаклида бўлиб, чақиритиш, ачиниш, таъна, гина, ғазаб каби мазмун ифодалайдиган бўлақларга ажралмайдиган гаплар. Масалан: - Пиёда қайтамиз. Чарчагандирсиз, манави эшакнинг устига минасиз. – А? Эсон! Ёмон экансан-ку. Хайрият-э! (I том, 120-бет). Ушбу мисолда битта сўз (Эсон) ундалма шаклидаги сўз гапни ҳосил қилмоқда. Бундай сўз-гаплар кўпинча чақиритиш, хитоб маъноларини ифодалашга хизмат қилади. Қуйидаги мисолга эътибор қаратинг:

-У яна йўлига равона бўлди-ю, ингичка аёл овозини эшитди!

-Аҳаджон!

-А? – Аҳад Мирзо кескин бурилди (I том, 101-бет). Демак, мисоллардан ҳам кўриниб турибдики, ундалма шаклидаги сўз-гаплар ифодалаш мазмунига кўра ундалмалардан тубдан фарқ қилади. Уларнинг бири фикр ифодаласа, иккинчиси маълум бир тушунча ифодалашга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, ёзувчи Шукур Холмирзаев ҳикояларида бўлақларга ажралмайдиган гапларнинг барча турларини учратиш мумкин экан. Уларни тўплаш, ўрганиш бу мавзудаги айрим кемтикларни тўлдиришга хизмат қилиши шубҳасиз.

#### Адабиётлар:

1. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, Фан, 1987; Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996; Маҳмудов Н., нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995; Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Самарқанд, 2006.

2. Холмирзаев Ш. Сайланма. Ҳикоялар тўплами. 3 томлик, Тошкент, 2003, 2005, 2006.

### “BOBURNOMA”DA HOZIRGI ZAMON FE’LINING QO’LLANILISHI VA MA’NOLARI

Z.Abdualiyeva, JDPI. G.Luqmonova talaba

Hozirgi o‘zbek tilida hozirgi zamon fe’lining affikslar va ko‘makchi fe’llar yordamida yasaluvchi bir necha shakli qo‘llanadi. Hozirgi zamon fe’lining sintaktik shakli quyidagi affikslar yordamida yasaladi: -yap, -yotib, -yotir, -moqda: o‘qiyapti, o‘qiyotibdi, o‘qiyotir, o‘qimoqda va boshqalar. Tasviriy formasi esa, yot, tur, yur, o‘tir ko‘makchi fe’llari yordamida yasaladi: o‘qib yotibdi, o‘qib turibdi, o‘qib yuribdi, o‘qib o‘tiribdi kabilar. Masalan: Ikki-uch bo‘lak og‘il tolon-toroshg‘a *boryapti*, o‘zgalari uy va ro‘zg‘orni solib, o‘g‘lon-ushog‘in olib, toqqa *tortayaptilar*. Ilgaridin xabar qildikim, bir necha hazora cherek elini olini to‘sib, o‘qlashib kishini o‘lgali qo‘ymeydurlar. (“Boburnoma”, 176-bet).

Ushbu “Boburnoma”dan keltirilgan misolda “boryapti”, “tortayaptilar” fe’llari affikslar yordamida hozirgi zamon fe’li yasalgan.

Bularg‘a ruxsat bergandin so‘ng Boron va Choshtuba va Gulbahor domanasi sayrig‘a *bormoqda edik*. Bahorlar Boron yozisi va Choshtuba dashti va Gulbahor domanasi bisyor ho‘b bo‘lur. Sabzasi Kobul viloyatining o‘zga yerlarig‘a boqa, heyli yaxshi bo‘lur, turlik-turlik lolalar ochilur. (“Boburnoma”, 181-bet). Ushbu misolda e’tiborimizni *bormoqda edik* hozirgi zamon fe’liga qaratamiz. Bunda bormoq fe’li – ga kelishik affiksi va edi fe’l shakli bilan kelib, hozirgi zamon fe’li yasalgan.

Hozirgi zamon fe’l shakllari harakatning jarayonidan oldin boshlanganligi va nutq momentida ham tugamaganligini ham bildiradi. Bu shakl bildirgan harakat nutq momentida bajarilayotgan (bajarilib turgan) yoki nutq momentida bajarilmayotgan bo‘lishi mumkin. Bunday asosiy narsa harakatning huddi nutq momentida bajarilayotgan bo‘lishi emas, balki harakatning nutq momentidan avval

boshlanganligi va hozir ham tugamaganligi, davom etayotganligini anglatadi. Masalan: 1. Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzo va Muhammad Burundiq barlos va Zunun arg'un bori Boboxoki navohisida cherek bila ulturib edilar, ne urushmoqqa ozim edilar, ne qo'rg'on berkitmakka jozim, hech ishni muashaxxas qilmey, hech ishning qilurin muhaqqaq, bilmey *sarosimavor o'lturayoturlar*. ("Boburnoma", 184-bet). 2. O'tgan yilning oyog'ida Shayboqxon Samarqanddin Xuroson doiyasi bila cherek otlandi. Shoh Mansur baxshi namak haromkim, Andxud anda edi, Shayboqxon g'a kishilar yuborib tur, etimod qilib, yasanib, boshig'a o'tag'a sanchib, peshkash tortiq olib chiqorda boshsiz o'zbek tush-tushidin rez qilib, bu gandani va tortiq va peshkash va kishi- korasini *tirt-shirt qilayotubdir*. ("Boburnoma", 184-bet). Yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi gapda "*o'lturayoturlar*" hamda "*qilayotubdir*" fe'llarida harakat nutq momentida bajarilayotganligini va harakat nutq momentida avval boshlanganligi va hozir ham davom etayotganini anglatadi.

Harakatning davomligi (tugamaganligi) ma'nosi hozirgi zamon shakllarining hammasiga xos. Shuning uchun tarkibida hozirgi zamon ko'rsatkichi bo'lgan o'tgan zamon fe'l shakllari ham davomlilik ma'nosiga ega bo'ladi: ishlayotgan edi, ishlamoqda edi. Ma'no jihatidan – yotib affiksi bilan –yap affiksi bir-biridab farqlanmeydi, ularning biri o'rnida ikkinchisini ishlatish ham mumkin. Ammo hozirgi o'zbek adabiy tilida – yotib affiksi bilan hosil qilingan fe'l formalari –yotir affiksi bilan hosil qilingan fe'l shakllariga nisbatan kam qo'llanadi. Fe'ning –moqda affiksi bilan yasalgan shakli subektning fe'ldan anglashilgan harakat yoki holat jarayoni ekanini bildiradi. Masalan: olti-yetti kundan so'ng Nosir Mirzoning navkarlaridan bir kishi Shayboqxon kelib Qandahorning qabag'onining xabarini *keltirmoqda*. ("Boburnoma", 192-bet). Misolda keltirilgan keltirmoqda fe'l shakli "-moqda" affiksi bilan yasalgan subektning fe'ldan anglashilgan harakat yoki holat jarayonida ekanligini bildiradi. Ushbu affiksi bilan yasalgan fe'l formasi ham harakatning davomiyligini ko'rsatadi.

Hozirgi zamon fe'lining –moqda affiksi bilan yasaluvchi shakli kitobiy uslubga xos. Bu forma obrazli ifodalarda, tantanali, ko'tarinki nutqlarda qo'llanadi. Masalan: Kech kuz. Oltindek sap-sariq barglar daraxt shoxlaridan chirt-chirt uzilib, yerga tushmoqda. Qushlar shoxdan shoxga sakrashib quvnoq sayrashmoqda. Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi g'ir-g'ir esmoqda. Ushbu misollardagi – moqda affiksi bilan yasalgan fe'l formasi, - yap affiksi yordamida yasaluvchi shakl bilan almashtirilsa, voqea oddiy bayon tusini oladi. –moqda affiksi bilan yasalgan fe'l shaklining birinchi va ikkinchi shaxsga nisbatan uchinchi shaxsda, birinchi va ikkinchi shaxsning birligiga nisbatan ko'pligida ko'p qo'llanilishining sababi ham uning yuqorida aytilgan xususiyatidan kelib chiqadi. Uning yana bir xususiyatlaridan biri bo'lishsizlik (inkor) shakliga ega emasligidadir.

To'rt holat fe'lining –yot, - tur, -yur, - o'tir fe'llarining hozirgi zamon shakli – (i)b affiksi bilan yasalgan ravishdoshga shaxs-son qo'shimchalarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan: Namozni peshin kemadin chiqib, Gulkin bilan

tog'ning orasidagi bog'ni sayr qilib, namozi digar Bog'i Binafshaga ichildi. Namoz shom Gulkin tarafidin faslidin chiqib, *kelibman*. ("Boburnoma", 213-bet). To'rt holat fe'lining bu hozirgi zamon shakli bo'lishsiz formada qo'llanmaydi. Agar bo'lishsizlik ko'rsatkichini olsa, o'tgan zamon ifodalanadi: yotmabdi, turmabdi, o'tirmabdi, yurmabdi va boshqalar.

Yot, tur, yur, o'tir fe'llarining harakat yoki holat ifodalashini farqlash lozim. Harakat bildirganda, ularning hozirgi zamon formasi –yap,-yotir,- yotib affiksillari yordamida yasaladi. Qiyoslang: o'rniga yotyapti- o'rnida yotibdi, o'rnidan turyapti – o'rnida turibdi.

Tasviriy formaning yot, tur,yur, o'tir ko'makchi fe'llari yordamida yasaluvchi har bir turi o'ziga xos qo'shimcha ma'nolari va o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Masalan, **yot** ko'makchi fe'li yordamida yasaluvchi shakl harakat va holatni kuchaytirib ifodalaydi. Yozib yotibdi, ishlab yotipdi, yog'ib yotibdi kabilar; **yur** ko'makchi fe'li yasaluvchi shakl harakatning uzoq davomiyligini bildiradi: ishlab yuribdi va boshqalar. Bu farqli xususiyatlar ham har bir ko'makchi fe'lga xos farqli xususiyatlar hisoblanadi.

O'zbek tilida butunlay ko'makchi fe'lga aylangan birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanadi. Ular turli – tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Jumladan, boshla, yot, tur,yur,o'tir, bo'l, ol, ber, qol, qo'y, chiq, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o't, ko'r, qara, boq va boshqalar. Bu ko'makchi fe'llarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan birga ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlari ham bor.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lga asosan – (i)b, -a,-y ravishdosh yasovchilar orqali birikadi. Yozib oldi, yoza boshladi, ishlab tur va boshqa shu kabilar. Bor ko'makchi fe'li harakatning davomlilikini ifodalash bilan birga bu harakatning biror tomonga qarab yo'naltiruvchi harakat ekanligini bildiradi. Kel ko'makchi fe'li ravishdoshning –ib affiksi bilan yasalib, davomlilik ma'nosini anglatadi.

Ko'rinadiki, kel ko'makchi fe'li ham, bor ko'makchi fe'li kabi davomlilikni ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barcha tillarda bo'lgani kabi hozirgi zamon fe'li xususiyatlari, ayniqsa, mumtoz asarlar tilini o'rganilganda unda qo'llangan hozirgi zamon fe'li, uning ma'nolarini inobatga olishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, "Boburnoma"da uchraydigan hozirgi zamon fe'l shakllari harakat jarayonida oldin boshlanganligi va nutq momentida ham tugallanmaganligini tahlil ostiga olindi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma".
2. Abdurahmonov G'. va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.-T.1975.II tom O'TIL besh jildlik.- T.2008 yil.

### **ДИАЛЕКТАЛИЗМЛАРНИНГ ЛУҒАТ ТАРКИБИДАГИ ЎРНИ**

**Файзуллаев Баходир, ЖДПИ, Доцент Исломова Дилором, талаба**

Мазкур мақолада ўзбек тили таркибида истеъмоладойраси чегараланган лексиканинг бир тури ҳисобланмиш диалектизмлар (асосан, диалектал лексика) ва унинг адабий тилга муносабати юзасидан баъзи фикр-мулоҳазаларимизни билдиришни мақсад қилдик.

Диалектизм нима? Диалектал лексика нима? Аввало, ушбу саволларга жавоб қидирмоқ ўринлидир. Адабиётларда ушбу тил қатлами юзасидан турли фикрлар мавжуд.(1). Бир қарашда бу масала унчалик қийин кўринмайди. Бу борада ўзбек, рус ва бошқа тиллар тилшунослигида ҳам мунозарали ҳолатлар кўзга ташланади. Диалектизм атамаси ўз номидан маълумки, у маҳаллий шеваларга, маълум территорияларда яшайдиган кишилар нутқиғагина хос тил ҳодисасидир.(2) Диалектизмлар маълум услубий мақсадларда қўлланилинган шеваларга оид тил ҳодисаларидир. Айрим манбаларда таъкидланганидек, диалектизмлар адабий тилга маҳаллий шевалардан қабул қилинган тил бирликлари эмас. Чунки улар адабий тилга ўзлашса, ўз-ўзидан истеъмоладойраси чегараланган қатлам доирасидан чиқиб, чегараланмаган қатлам доирасига ўтади. Бунда эса диалектизм атамаси ўз моҳиятини йўқотади. Шундай экан, турли жанрлардаги бадиий асарлар тилида бадиий, услубий мақсадларни кўзлаб асар тилига киритилган шеваларга оид тил кўринишлари диалектизм ҳисобланади. (3).

Диалектизмлар тилнинг барча сатҳлари учун хос ҳодиса эканлигини кўрамиз. Шунга кўра уларнинг қуйидаги турлари мавжуд:

1. Фонетик диалектизмлар.
2. Грамматик диалектизмлар.
3. Лексик диалектизмлар.
4. Фразеологик диалектизмлар.

Нутқда қўлланидиган диалектизмларнинг салмоқли қисмини лексик диалектизмлар ташкил этади. Чунки маълум ҳудуддаги воқеа-ҳодисалар тасвирланар экан шу ҳудуд маҳаллий аҳолиси касб-кори, улар яшаётган жой, ижтимоий ҳаётига боғлиқ бўлган сўзларни қўллагандан воқеаликни ҳаққоний тасвирлаш қийин. Шундай экан юқоридаги сабабларга кўра бадиий матнга киритилган сўз ёки лисоний бирликлар лексик диалектизмлар дейилади. Лексик диалектизмлар йиғиндиси эса адабий тил таркибида диалектал лексикани ташкил қилади.

Демак, лексик диалектизмлар маҳаллий шевалардан олинган сўзлардир. Лексик диалектизмлар характери жиҳатидан қуйидаги турларга бўлинади:

1. Диалектизм –сўз (соф лексик диалектизм).
2. Диалектизм – маъно (омоним ёки семантик диалектизм).
3. Этнографик диалектизмлар.
4. Фразеологик диалектизмлар.

Маълумки, ўзбек миллий тили лексикасининг бойишида маҳаллий лаҳжалар катта ўрин туттади ва ҳозирги кунда ҳам бу жараён давом этмоқда. Айниқса, миллий тил лексикасидаги ўзгаришлар ўткан аср ўрталарида, яъни миллий тилимиз шаклланиш жараёнида анча сезиларли даражада бўлган.

Ҳозирги кунда ҳам бу ҳолат тил тараққиётининг ички манбаи сифатида алоҳида ўрин тутмоқда. Албатта, адабий тил билан диалектал лексиканинг ўзаро таъсири масаласи жуда мураккаб жараён дидир. Чунки бунда сўзларнинг ўзига хос характери, яъни бетараф предмет ифодаланиши, этнографиклиги, маълум ҳудудгагина хослиги ва асосан, нутқ талаби муҳим аҳамиятга эга дидир.

Ўзбек адабий тили лексикасининг маҳаллий шеваларга таъсири диалектал лексикани маълум даражада камайтирса-да, бу таъсир адабий тилга маҳаллий шевалардан кириб келаётган керакли сўзларни ўзлаштириш жараёнинг асло тўхтатаолмайди. Адабий тил таркибида қўлланаётган диалектал лексика ҳам икки хил кўринишга эга дидир:

1. Прогрессив диалектизмлар.
2. Регрессив диалектизмлар.

Прогрессив диалектизмларнинг адабий тилда эквиваленти бўлмайди. Шева вакиллари тилда қўлланувчи бундай сўзлар маълум предмет ва ҳодисаларнинг номидир. Бундай қатлам сўзлар аста-секин адабий тилга қабул қилиниб, унинг лексикасини бойитувчи манбага айланади. Бунинг исботи сифатида Пиримқул Қодировнинг “Қора кўзлар”(4) романи тилидан олинган бир парчага эътиборингизни қаратмоқчимиз. “Бу ерда четан билан ўралган мол кўраси бор эди. Кўрага иккита соғин сигир, эчки кўканлаб кўйилган эди” (17-бет).

Ушбу парчадаги кўканламоқ сўзи диалектизм дидир. Шу сабабли ҳам ёзувчи ҳаволада унга изоҳ беради: “Кўкан – ушоқ молларни бир қатор қилиб боғлашга мослашган махсус арқон”. Мавжуд луғатларга эътибор қаратадиган бўлсак, ушбу сўзга қуйидагича изоҳлар берилганини кўраимиз.

Кўкан – (Жўш, Найман) кўй ва эчкиларни боғлашга мослашган илмоқли арқон (Ўзбек халқ шевалари луғати, 148).

Кўкан – кўй, эчки ва шунингдек, отларни соғишда боғланадиган мослама (Девони луғатит турк, 393).

Кўклади – боғлади (Девони луғатит турк, 393).

Кўган – кўй-кўзиларни боғлашда ишлатиладиган махсус арқон (ўзбек диалектологиясидан материаллар, 340).

Кўриниб турибдики, юқоридаги изоҳлардан кўкан сўзи уй хайвонларини боғлашда қўлланадиган махсус илмоқли арқон экан. Кўканламоқ сўзи эса шу сўзнинг ўзагига – ла аффиксини кўшиш (кўкан+ла=кўканла) орқали ҳосил бўлгандидир. Демак, адабий тилда худди шу ҳолатни ифодаловчи лексема мавжуд эмас. Шундай экан бундай сўзларни адабий тилга киритиш ўринлидир. Шунингдек, бу асарда қўлланилган куликламоқ-мол ва кўйларни сўйишда тўрт оёғини бир жойга тўплаб боғлаш, кабеда-майдаланган сомон ва беда аралашмаси, бароз – тоғдан тушадиган тик йўл каби сўзларга ҳам алоҳида эътибор қаратиш ўринлидир.

Регрессив диалектизмлар адабий тилда муқобил вариантга эга дидир. Лекин улар фонетик ва грамматик томондан бироз бошқача кўринишда бўлади. Булар бадий асар тилида персонаж ва қаҳрамонларнинг ўзига хос нутқини яратишда бадий восита сифатида кўпроқ қўлланади. Масалан:

“Замонали Сабоҳат билан қувониб кўришди. Сабоҳат ундан ҳол-аҳвол сўраган эди, Замонали ҳазиллашиб тожикча талаффуз билан:

-Ёмон йўқ, -деди.

Сабоҳатхон ўзининг ўтган йилги машҳур бўлган бу иборасини эслаб хандон ташлаб кулди-да, ҳазилга ҳазил билан жавоб бергиси келди. Машина ёруғида Замоналининг соқоли ўсиб қолганини кўриб:

-Соқолингиз баланд бўлипти, -деди (Қ.к.-284).

Унинг онаси пастаккина кампир жуссасига мос бўлмаган кучли товуш билан Фарғона шевасидан гапиради.

-Таладан келганимда шатта турган эди-я! (Қ.к.55)”.

Юқоридаги тагига чизилган сўзлар регрессив диалектизмлар ҳисобланиб, маълум бир стилистик вазифани бажариш мақсадида қўлланилгандир. Улар адабий қатламга қабул қилинмайди.

Демак, адабий тилда муқобил варианти бўлмаган прогрессив лексик диалектизмлар адабий тилни бойитувчи манба сифатида муҳим аҳамиятга эгадир.

### Адабиётлар:

1. Прохорова В.Н. Диалектизмы в языке художественной литературы. М., 1957, с.7; Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. М., 1972, с.120.

2. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек тили. Т., 1978, 160-б; Йўлдошов М. Бадий матн лингво поэтикаси. Т., 2008 24 б.

3. Файзуллаев Б. Диалектизмы в языке художественной литературы. АКД. Тошкент, 1979.

4. Қодиров П. Қора кўзлар. Тошкент, 1970.

## CHO‘LPON SHE‘RIYATIDA KO‘CHIMLAR

### A.Musayev, dots Abdullayeva Noila talaba

Leksik figura hisoblangan ko‘chimlar asar badiiy qiymatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma'noda ishlatilishi nazarda tutiladi. So‘z ma'nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda yuzaga keladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalarning turlari o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ancha batafsil o‘rganilgan (Qurbonova M. va Yo‘ldoshev M. „Matn tilshunosligi“ Toshkent . 2014.67- bet).

Kuzatishimizcha, ko‘chimlar “**troplar**” atamasi ostida qo‘llaniladi. Ularni badiiy matn bilan bog‘liq holda o‘rganish badiiy matn uchun tutgan ahamiyatini belgilash hamda tasviriylilikni ochib berish imkonini beradi.

O‘zbek xalqining buyuk shoiri Cho‘lpon asarlarining janr jihatdan xilma-xilligi, tili va uslubining xalqchilligi hamda o‘z navbatida obrazlilikning kuchliligi bilan ajralib turadi.

Fikrimizni uning she'riyatida qo'llangan ko'chimlar misolida asoslashimiz mumkin. Ko'chimlardan metaforalarga diqqatimizni qaratamiz:

Aytalar dalada yer beti tamom

Ko'm-ko'k duxobadan ko'ylaklar kiymish (Cho'lpon „Yana oldim sozimni " Toshkent.1991.378- bet).

Ushbu misrada metaforaning lingvistik metafora turi orqali ma'no ko'chgan.

Keng dalada kiyik o'ynar,

Kiyik ko'zin yigit o'ylar

Kiyik ko'zi ko'ngil tortar,

Oshiq ko'rsa dardi ortar (433- bet)

Ushbu parchada esa „kiyik ko'zi" yorga o'xshatiladi. Metafora orqali ma'no ko'chishida shunday hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari „ko'chma ma'noda ham juda keng qo'llaniladi. Metaforaning bu turi xususiy- muallif metaforasi deb ataladi va hozirgi ko'rib chiqqan misolimiz metaforaning aynan shu turiga kiradi.

Ayrim manbalarda metaforaning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalardir. Yuqoridagi misollarda odatiy metaforani ko'rib chiqdik. „O'zbek tili stilistikasi" da „kishilarning harakati „his tuyg'ulari „so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirishi" ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Jonlantirishning bir turi bo'lgan „apastrofada jonsiz predmetlar harakat qilmaydi, balki jonsiz narsaga jonli narsadek murojaat qilinadi" (O'rinboyev B. „G'afur G'ulom asarlarining lingvopoetikasi". Samarqand. 2008.40- bet)

Cho'lponning ham apastrofa orqali ma'no ko'chishi vositasida yozilgan she'rlar ko'pchilikni tashkil qiladi:

Go'zal yulduz, nurli yulduz, tez so'zla

Otalarning tarixdagi xatosin

Shul xatodan osuflanib tovlarning

El ko'ksida surgan ishrat safosin (396- bet)

Ushbu parchada shoir yulduzni jonliday tasavvur qiladi. U hech kimga aytolmagan dardlarini, sirlarini yulduzga murojaati vositasida oshkor qiladi.

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o'xshatiladi va shu asosda ma'no ko'chiriladi:

U go'zal Sharq, shirin tuproq so'ng zamon

Bo'ldi chetlari panjasida ko'z yoshli... (378- bet)

Bunda „shirin tuproq" so'z birikmasi sinestetik metaforani hosil qiladi. Aslida shirinlik belgisi ta'm bilish a'zosi vositasida anglashiladi, biroq bu o'rinda Sharq tuprog'ining unumdorligi „shirin tuproq" sifatlashi orqali ochib beriladi. Ma'lumki, ko'z yoshi sho'r bo'ladi, shu tufayli mazkur sifatlashda Sharqda ko'z yoshlarning ko'p to'kilishi natijasida unumdor tuproqni ham sho'rlantirib yubordi - demoqchi shoir. Bu o'rinda ham Cho'lponning ko'chimlarni qo'llashdagi mahorati va unga zalvorli ma'no yuklay olish iste'dodini ko'rib turibmiz.



Ko'chimlar masalasini ilmiy tadqiq qilishda davom etish matnni lingvopoetik o'rganish imkonini beradi. Nafaqat Cho'lpon she'riyatidagi ko'chimlar masalasi, shuningdek boshqa ijodkorlar ijodi misolida ushbu masalaga batafsil to'xtalish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biridir.

#### **Adabiyotlar:**

1. Qurbonova M. Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi . -Toshkent.2005. 67- bet
- 2 O'rinboyev B. G'afur G'ulom asarlarining lingvopoetikasi -Samarqand. 2008.40- bet
- 3.Cho'lpon. Yana oldim sozimni -Toshkent .1991.

## **UYUSHIQ BO'LAKLAR VA ULARNING O'RGANILISHI**

### **Sh.Almamatova, f.f.n. Abdurahmonova Nilufar talaba**

Gapda bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi orqali birikkan gap bo'laklari gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Masalan: Tobora ko'tarilayotgan quyosh o'rik, olma, shaftoli va giloslarning shoxlariga o'zining ertalabki sel-sel yog'dusini sepmoqda. Bu gapda o'rik, olma, shaftoli va gilolar uyushib kelgan. Bu so'zlar bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib kelayotir. Ular o'zaro sanash intonatsiyasi orqali va teng bog'lovchi yordamida birikkan. Har bir gap bo'lagi uyushib kelishi mumkin.

1. Egalarning uyushib kelishi: Smirnov, Oyoqiz va Olimjon Ko'ktoy tomon yo'l oldilar. Kalonshoh Mirzo va mulla Abdurahmonlar nomozga chiqib kelar edilar.

2. Kesimlarning uyushib kelishi.

A) fe'l kesim: haqiqat bukilar, lekin sinmas.

B) ot kesim: sen kuychi, paxtakor, olim, yulduzlar ilmini bilgan munajjim.

3. To'ldiruvchilarning uyushib kelishi:

A) vositasiz to'ldiruvchi: Botir filasofiyani, fan ahllarining va siyosiy arboblarning obrazlari tasvirlangan badiiy asarlarni sevadi.

B) vositasiz to'ldiruvchi: Navoiy tarixda mashhur shaxslarning hayotlari, fikrlari, maslaklari va ularga doir afsonalar haqida asar yozishni Jomiyga taklif etadi.

4. Aniqlovchilarning uyushib kelishi:

A) sifatlovchi: bizning bog'imizda qizil, oq, sariq gullar ochilgan.

B) qaratuvchi. Oq o'rik, shotut, shaftoli, gilosning sap-sariq yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi.

5. Hollarning uyushib kelishi. Ariq suvi bir xilda, jimgina, sharpasiz va shabodasiz oqmoqda.

Uyushiq bo'laklarning har biri boshqa bo'laklar bilan kelib, yoyiq holda bo'lishi ham mumkin. Masalan: daraxtlar orasidan kolxozchilarning bir tipda qurilgan shinam uylari, kichik-kichik bog'chalari ko'rinib turibdi. Hali yozib boshlagan qog'ozni nima uchundir yirtib tashladi, ayvondagilarning o'zaro

soʻzlashib turganlaridan foydalanib, javob yozishga shoshildi. Uyushiq boʻlaklarda, son, egalik, kelishik affikslari va koʻmakchilari, odatda uyushuvchi soʻzlarning oxiriga qoʻshilib, hammasi uchun umumiy boʻladi. Masalan: ariqcha boʻyidagi atirgul, qizil gul, napormon gullar ochilib yotibdi.

Son, egalik, kelishik affikslari va koʻmakchilar baʼzan uyushuvchi soʻzlarning har biriga qoʻshilib kelishi ham mumkin. Bunda har biri taʼkidlanadi. Masalan: paxta dalalarida kim koʻp, kim oldin, kim toza terishga musobaqa oʻynaydi. Bu gapda terishga soʻzi uyushib boʻlak oxirida kelayapti.

Uyushgan va uyushmagan sifatlovchilar. Uyushgan sifatlovchilar, sifatlovchi predmetni bir tomondan aniqlasa va oʻzaro teng holatda boʻlsa, uyushib keladi. Bunda ularning har biri toʻgʻridan-toʻgʻri sifatlanmishga bogʻlanadi. Masalan: bahorda koʻm-koʻk libos kiyib olgan bogʻlar endi sariq, qizgʻish va koʻkimtir barglar ichida tovlanadi. Bu misolimizdagi sariq, qizgʻish, koʻkimtir soʻzlari oʻzaro teng holatda predmet (barg)ni bir tomondan, yaʼni rang jihatdan aniqlab kelgan.

Sariq, qizil va koʻkimtir barglar. Uyushgan sifatlovchilar bir predmetning turli belgilarini hamda bir turdagi belgilarini bildiradi. Har ikkisida ham predmet bir tomondan aniqlanadi. Bu yer kichkina, toza, serdaraxt, shiringina manzil edi.

Uyushmagan sifatlovchilar. Baʼzan bir qancha sifatlovchilar bir predmetni aniqlab kelsa ham, uyushgan sanalmaydi. Bogʻda katta bir tup yongʻoq va har xil meva daraxtlari bor edi. Bu misolda katta va bir tup soʻzlari yongʻoq soʻziga nisbatan aniqlovchidir. Lekin ular uyushgan emas. Chunki katta aniqlovchisi yongʻoqning hajmini, bir tup esa miqdorini aniqlab kelayotir.

Uyushmagan sifatlovchilar predmetni turli tomondan, yaʼni rang, shakl, material, vaqt, hajmi, tus kabi belgi – hususiyatlar tomonidan aniqlab keladi. Shuning uchun ham ular oʻzaro teng holatda boʻlmaydi.

Katta bir tup yongʻoq

A) uyushiq boʻlaklarda bogʻlovchilarning vazifasi.

Uyushiq boʻlakli gaplarda umumlashtiruvchi soʻzlar.

Uyushiq boʻlakli gaplarda umumlashtiruvchi soʻzlar ham kelishi mumkin. (Umumlashtiruvchi soʻzlar ham kelishi mumkin). Umumlashtiruvchi soʻzlar uyushiq boʻlaklarning vositasi bilan izohlangan boʻlakning mazmuniga mos holda shakllanadi. Masalan: gap yana hamma biladigan oddiy narsalardan temir yoʻl, masteravoyalar, bozor, mirshablar, qovoqxona singarilardan boshlanadi.

Umumlashtiruvchi soʻzlar maʼnosi va gapdagi oʻrniga koʻra ikki xil boʻladi. Umumlashtiruvchi soʻz uyushiq boʻlaklardan oldin keladi. Bu holda u doimo izohni talab qiladi, yaʼni umumlashtiruvchi soʻz sinaluvchi boʻlaklar tomonidan izohlanadi. Masalan: xolmurodning doʻstlari: ergash, joʻra va Omontoy ham birin-кетин otpuskadan qaytishdi. Umumlashtiruvchi soʻzlar birgalik va boʻlishsizlik olmoshlaridan ifodalanganda, umumlashtiruvchi soʻz va uyushiq boʻlaklar jips toʻda va tur-qism tushunchasi ifodalanmaydi. Masalan: demak, bechoralarni muruvvatsizlik bilan kirib kelgan kambagʻallik hamma yerda qishloqlarda, shaharlarda, oʻlkalarda, davlatlarda hamisha izgʻib yurgani uchun Motqovul oʻz dunyosidan bir tasodif boʻlmay, dengizdan bir qatra edi. Umumlashtiruvchi soʻz

uyushiq bo‘laklardan oldin (izohni talab qilgan paytda) ham, shuningdek ulardan keyin ham (uyushiq bo‘laklarning ma’no va vazifalari jamlab, yakunlangan paytda) keladi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1 Anarboyeva A, Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2011 yil.
2. Mingliyev B, Xoliyrov O‘, Qodirova X. Ona tili. Qomus. Toshkent, yangi asr avlodi. 2010 yil.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, universitet. 2006 yil.
4. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent, 2009 yil.

### **УЧРАШУВ ОЛҚИШЛАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ**

**А.Турсункулов, ЖДПИ ф.ф.н.Туғулова Сурайё, талаба**

Жамиятимизда бугунги кунда жадал кечаётган глобаллашув жараёнида миллат қиёфамизни сақлаб қолиш ва шу билан бир қаторда бус-бутунлигича келгуси авлодга етказиш масъулияти муҳим аҳамиятга эга. Шу жиҳатдан халқ оғзаки ижоди намуналарини ёзиб олиш, нашр этиш ҳамда илмий тадқиқ этишга алоҳида эътибор бериш зарур. Фольклоршунослигимизда бу йўналишларда бир қатор ишлар амалга оширилган. Шу билан бирга фольклор асарларининг бироз эътибордан четда қолиб кетаётган, лекин халқимизнинг маиший ҳаётида, турмуш тарзида муҳим ўрин тутадиган жанрларини, хусусан, олқишларни кенгроқ кўламда ўрганиш давр талабидир.

Олқишлар сўз санъати сифатида инсониятнинг энг қадимги-ибтидий даврига бориб тақалади. Зеро, инсоннинг турмуш тарзи, яшаш жараёни кундалик ҳаёти олқиш билан боғлиқ. Улар бир-бири билан кўришганда, хайрлашганда, бирор юмушни бошлаганда, тўй-маракаларда, дастурхон атрофига ўтирганда ёки тураётганда, ҳашарлар ўтказилаётганда, сафарга кузатаётганда бир-бирини улуғлаб, ҳол-аҳвол сўраб, дуолар қилиб олқишлар айтишган. Шу жиҳатдан улар мавзу жиҳатдан ғоятда ранг-баранглик касб этади. Шу ўринда кундалик ҳаётимизда учраб турадиган, халқимиз орасида барқарор анъанавийлик касб этган кундалик олқишларимиз ҳақида айрим мулоҳазаларимизни айтиб ўтсак.

Икки киши бир-бирлари билан учрашганда дастлаб “Ассалому алайкум”, “Ва алайкум ассалом” деб саломлашадилар. Ана шу саломлашувнинг ўзи ҳам бир-бирига соғлиқ-саломатлик тилаш маъносини англатади. Инсоннинг яшаши учун соғлиқ биринчи ўринда туради. Инсон соғ-саломат бўлса қолган барча ишлар бажарилиши мумкин, деб билишади. Шундан кейин ҳамсуҳбатининг оила аъзолари, яқин қондош жигарларининг соғлигини, ҳол-аҳволини сўраб кўнгил хотиржам бўлган оллоҳга шукрона айтилади. Саломлашиш олқишларининг илдизи инсониятнинг пайдо бўлиш даврига бориб тақалади. Аввалига бир-бирини билган, таниган инсонлар учрашиб қолганда бир-бирининг ҳол-аҳволини, соғлигини, яшаш тарзини сўраш эҳтиёждан келиб чиққан бу одат нотаниш кишилар билан учрашувда

хам давом этган. Бу ҳолнинг қадимийлигини халқ эртаклари, дostonлари қаҳрамонларининг ўзаро саломлашувида, танишувларида ҳам кўришимиз мумкин. Улар энди оддий мулоқот доирасидан чиқиб соф бадий асар намуналарига айлансада, лекин олқишнинг асосий моҳияти сақлаб қолади.

Учрашув олқишлари кўришиб қолганларнинг таниш-нотанишлигига, ёшига, жинсига қараб турлича айтилиши мумкин. Лекин улардаги умумий моҳият сақланиб қолиш билан бир қаторда муайян бир эпик қолипга ҳам айланган. Бу ҳолатда анъанавий сўрашув қуйидагича рўй бериши мумкин: “Ассалому алайкум. Соғлиқларингиз, кайфиятингиз яхшими, уй ичи, жамоа, қариндош-уруғ саломатми. “Биздан сўрасангиз, оллоҳга шукур барчамиз соғ-саломат, тинч хотиржамиз”. Биз бу ўринда учрашув олқишларининг энг қисқасини келтирдик. Ўрни билан учрашувчиларнинг ёши, жинси, сўзамоллиги ёки камгаплигига қараб, улар узундан-узоқ ёки қисқарок бўлиши мумкин. Лекин уларнинг барчасида учрашувчиларнинг бир-бирини соғ-омон кўрганлигидан мамнунлиги, хурсандлиги англашилиб туради. Бу олқишлар асрла давомида авлоддан-авлодга жонли оғзаки барқарор анъаналарда давом этиб келаётган эпик қолипчанган оғзаки жараёнدير”.

Кўришганда айтиладиган бундай олқишлар ҳаётнинг бадий инъикоси бўлган бадий ижодга ҳам кўчкан. Халқ эртаклари, дostonлари қаҳрамонлари ҳам учрашув олқишларини айтар экан, уни поэтий ифода бўлган саъжда, шеърий шаклларда ифодалайди. Машхур “Алпомиш” дostonида Алпомиш Барчинойни олиб келиш учун Қалмоқ юртига излаб борганда Бойсарининг қўйини боқиб юрган Кайқубод кални учратиш шундай сўрашди.

Ассалом алайкум чўлда чўпонлар,  
Устига кийгани эски чопонлар,  
Қағанокқа тўйиб ётган гуппонлар,  
Шул орага бир элибой келдими?<sup>1</sup>

Халқ дostonларида қаҳрамонлар саломлашиб сўрашар экан, ўзи билган ёки эшитганлари ҳақида ҳам уларнинг ҳаёти билан боғлиқ биографик маълумотлар келтириб ҳол-аҳволини сўрайдилар. Маълумки, “Гўрўғли” туркум дostonлари қирқдан ортиқ. Улардаги учрашув олқишларида Гўрўғли, Авазхон, Ҳасанхон, Юнус пари, Мисқол пари ва қирқ йигит ҳақида уларнинг ҳар бирининг таъриф-тавсифи келтирилиб номма-ном сўралади. Одатда бу сўрашувларнинг ҳар бири халқ дostonларидаги шеърий шаклларнинг асоси бўлган анъанавий эпик кишиларда, чиройли параллелизм, гўзал ташбеҳларда акс этади. Масалан, “Равшан” дostonида Равшанга дуч келган Мастон кампир шундай сўрашади:

Тоғ бошини чалган қора жуманми?  
Юрт эгаси Гўрўғлибек омонми?<sup>2</sup>

Қаҳрамонга хос бундай сифатлашлар билан бошқа қаҳрамонларни сўраш дostonларга хос анъанавий йўл ҳисобланади. Халқ эртакларида ҳам

<sup>1</sup> Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари, 100-йиллик, 1-жилд,- Т., 2015 й., 252 -бет.

<sup>2</sup> Равшан дostonи. -Тошкент., 2008 йил, 68-бет.

учрашув олқишлари ўзига хос тарзда, бадиий услубда бадиий тасвирланади. Икки эртақ қаҳрамонлари учрашиб қолганда албатта саломлашиш олқишлари ўзига хос бадиий анъанага айланганлигини кўришимиз мумкин. Бу ҳол шундай барқарор анъанага айланиб қолганки, ҳатто айрим фантастик эртақларда ялмоғиз кампирнинг қаҳрамоннинг саломига алик олиб; “Агар саломинг бўлмаганида икки ямлаб бир ютардим”, деган жавобида ҳам намоён бўлади.

Хуллас, учрашув олқишлари миллий қадриятларимизнинг ажралмас қисми бўлиб, ёш авлодни маънавий юксак шахс қилиб тарбиялашда муҳим ахлоқий-эстетик манба бўлиб хизмат қилади.

## ALISHER NAVOIYNING “FARXOD VA SHIRIN” DOSTONIDA SO‘Z BIRIKMALARINING QO‘LLANILISHI.

Z.Abdualiyeva JDPI Z.Ussonova talaba

Til tuzilishida so‘zlar turli-tuman aloqaga kirishadi. So‘z birikmasini tashkil qilgan komponentlar mustaqil ma’noli so‘zlar bo‘lib, o‘z ma’nolarini saqlagan holda boshqa bir birikmani hosil qilishda ishtirok etadilar. Bir-birlari bilan tobelanish munosabatiga kirishgan birdan ortiq leksik birliklarning qo‘shilmasi so‘z birikmasidir. So‘z birikmasi gap tuzishda zarur material vazifasini o‘taganligi uchun ham ayrim bo‘laklarning o‘zaro aloqasini, tabiatini ochish talabi shaxsli bog‘lanishning turli shakllarini so‘z birikmasi bo‘limida o‘rganiladi. So‘z birikmasi mazmun jihatidan birlikni tashkil qilgan va til qoidalariga ko‘ra ajratilgan so‘zlar guruhidir. Ammo, har qanday bog‘lanishlar, qo‘shilmalar ham so‘z birikmasini tashkil etavermaydi. Masalan, fe‘lli buirikmaga aloqador bo‘lgan so‘z birikmalari shular jumlasidandir. Ular:

Ki bo‘lg‘ay anda yuz ming **durri raxshon**,

**Duri raxshon** kibi la‘li Badaxshon. (“Farxod va Shirin”,15-bet).

Kim o‘lsa himmat ilgidin kushodi,

Ne topsunkim, **topilg‘ondur murodi**. (“Farxod va Shirin”,19-bet).

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asaridan keltirilgan ikki baytda fe‘lli birikmalar hosil qilingan. Birinchi misradagi **durri raxshon** birikmasidagi raxshon so‘zi yorituvchi, nur beruvchi ma’nolarga ega. “-on” affiksi orqali yasalgan. Keyingi misrada keltirilgan **topilg‘ondur murodi** so‘z birikmasida topilmoq fe‘li orqali so‘z birikmasi hosil qilingan. Bunda fe‘lga –g‘on sifatdosh qo‘shimchasi qo‘shilib, sifatdoshli so‘z birikmasi tashkil etilgan.

So‘z birikmalarini xilma-xil konstruktiv ko‘rinishlarini quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Sof so‘z birikmalari , ya’ni predikativ deb atalgan barcha bog‘lanishlar.
2. Predikativ bog‘lanish bilan so‘z birikmalari o‘rtasidagi ikki tomonga ham moyil bo‘lgan konstruksiyalar. Turli tipdagi oborotlar- fe‘lning funksional formalari ishtirokida tuzilgan konstruksiyalar ham so‘z birikmalarining murakkab turlari sifatida o‘rganilishi lozim.

3. Predikativlikni hosil qiluvchi bog‘lanishlar. Bunday konstruksiyalar so‘z birikmasi bobida o‘rganilmaydi, chunki, u so‘z birikmasidan farqlidir. So‘z leksek hodisa, so‘z birikmasi esa grammatik hodisadir. So‘z birikmasi so‘zga o‘xshab nominative (nomlash, atash) xarakteriga ega bo‘lib, predmet, harakat – holatni bildiradi. Ammo u predmet yoki holatni yakka holda atash emas, balki, ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi. So‘z esa muayyan ma’noga ega, boshqa so‘zlar bilan o‘z holicha munosabatga kirishmaydi, so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirishuvi faqat so‘z birikmasiga xos: Kitob - bir predmetning oti bo‘lib, yolg‘iz tushunchani ifodalaydi. Masalan: Akbarning kitobi - birikmasida esa kitob tushunchasi bilan birga boshqa bir predmet (kishi oti) ham ifodalangan. Bu ikki so‘zning qo‘shilmasi kitob “Akbarga tegishli” ma’nosini ifodalaydi. Bu jihatdan so‘z birikmasi yakka so‘zdan keskin farqlidir.

So‘z tovushlar negizida yuzaga keladi, so‘z birikmasi esa birdan ortiq so‘zlar negizida yaratiladi. So‘z mavhum ma’noli bo‘ladi, unda umumlashtirish xususiyati mavjud. So‘z biror birikmani hosil qilishda ishtirok etadi. Shunda uning mavhumligi zaiflashib, ma’nosi konkretlashadi: O‘qimoq- **kitob o‘qimoq**; gapirmoq- **kulib gapirmoq** va boshqalar.

So‘z birikmasida so‘zga xos bo‘lgan bir qator xususiyatlar yo‘qoladi. Ular: ko‘p ma’nolilik, omonimlik, majozilik va shu kabilar. Ko‘z-odamning ko‘zi, uzukning ko‘zi, yog‘ochning ko‘zi; yoz- yoz fasli, xat yoz, dasturxn yoz va shu kabilar.

So‘z – tarixiy kategoriya, u til tarixining ma’lum davrida yaratilgan, ma’lum ma’noga ega bo‘lgan. Insonlar kundalik hayotlarida foydalanganlar. So‘z birikmasi esa ayni paytda ifoda etilayotgan fikr oqimi bilan bevosita bog‘liq, so‘zlovchi tomonidan yuzaga keltiriladi. Shu bilan uning faoliyati tugaydi. Masalan: Qadimgi tilda uchraydigan **topg‘och buduni** birikmasi “Xitoy xalqi” ma’nosidagi birikmani tashkil qilgan. Ikkala so‘z ham hozirgi kunda ishlatilmaydi.

So‘z birikmasi kamida ikkita mustaqil so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladi, ularning birini tushirib qoldirsak, yakka so‘z qoladi va so‘z birikmasi bo‘lmaydi. Masalan: O‘zbekiston yoshlari, O‘zbekiston yoshlarining yutuqlari, O‘zbekiston yoshlarining yuksak yutuqlari va boshqa shu kabilar. Misollar:

1. Unin oning eshitkach **xasta Farhod**,  
Bo‘lub oshiq, chekib afg‘onu faryod. (“Farhod va Shirin”, 23 -bet).
2. Chu Xisrav surdi bu **rangin fasona**,  
Dedi: so‘z avvalidin ham nishoni. (“Farhod va Shirin”, 24 -bet).
3. Boshida bo‘lmasa **zarrin livoyi**,  
Shabistonga netib solg‘ay ziyoyi. (“Farhod va Shirin”, 25 -bet).
4. Aningdek fard etib **charxi kuhangard**,  
Ki bir farzanddin ham aylabon fard. (“Farhod va Shirin”, 26 -bet).
5. Tuzib bir jashikim charxi **ko‘han sayr**,  
Aning davrida bu toqi **ko‘han dayr**. (“Farhod va Shirin”, 29 -bet).

Ushbu misollarda keltirilgan **xasta Farhod** birikmasi charchagan, horigan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan Farhod ma'nosida qo'llanilgan. Ikkinchi baytda keltirilgan **rangin fasona** birikmasi esa, bu dunyo afsona kabi ranglidir. Bunda rang so'ziga – in qo'shimchasi qo'shib, sifat turkumiga mansub bo'lmoqda. Natijada sifatli birikma hosil bo'lgan. Uchinchi misolda ko'rsatilgan **zarrin livoyi** birikmasi zarli kiyim ma'nosida sifatli so'z birikmasini tashkil etgan. To'rtinchi misolda **charxi kuhangard** birikmasi qadimdan aylanadigan dunyo ma'nosini bildirib, sifatli so'z birikmasi tashkil etilgan. Beshinchi misolda **ko'han sayr, ko'han dayr** birikmalari sinonim ma'nosidagi so'z birikmalaridir. Bunda dunyoni aylanuvchi, sayr qiluvchi ma'nolari aks etgan.

Xullas, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida uchraydigan so'z birikmalari haqida, ularning asarda tutgan o'rni va ahamiyati haqida to'xtaldik.

## “ХЕВОҚ АФСОНАСИ”ДА ТАНГРИ ТАРАХХУМИ

Юлдуз Каримова, ЖДПИ доценти, Ситора Раҳимзода талаба

Туғилиб ўсган воҳаси ҳақидаги афсона ҳар бир киши учун яқин ва кадрдондир. Айниқса, воҳанинг номланиши билан боғлиқ бўлса, янада кизиқарлидир. Масалан, Жиззах номи “Кичик қалъа”дан келиб чиққанлиги, Наманган (“Намак-кон”) туз кони яқинида қурилганлиги учун шундай аталганлиги, Қўқон “Ҳавоқанд” деб аталиб “тўзал”, “хушманзара”, “шамол шаҳри” деган маъноларни англатиши, Андижоннинг “адоқ” каби уруғ атамалари (айрим манбаларда) билан боғлиқлиги, Тошкент (Шошкент, Чочкент) “шаҳар” сўзидан олинганлиги ва шу каби бошқа олис ва яқин ҳам афсона ҳам ҳақиқатлар барчамизнинг эътиборимизни беихтиёр ўзига тортади. Мен ушбу маълумотлар юзасидан сўлим шаҳарларимиздан бири бўлмиш Хивага эътиборимни қаратмоқчиман.

Албатта, ҳар бир тарихий ҳодисанинг ўз ҳақиқати билан бирга ўз афсонаси ҳам бўлади. Ҳақиқат тарих билан, афсона эса кўпроқ адабиёт билан боғлиқ эканлиги учун айнан Хива номининг келиб чиқишида унинг афсонасига юзланмоқчиман. Бунинг учун Омон Матчоннинг “Ҳаққуш кичқириғи” асаридаги иккинчи “Ҳевоқ афсонаси”га тўхталамиз.

Афсонада Нух пайғамбар замонида ер юзини сув босиши, дунёдаги бор мавжудотларнинг Унинг (Пайғамбарнинг) қанотида жон сақлаши ва сўнггида заминни кўриш бахтига муяссар бўлганликлари ҳикоя қилинади.

Ҳикоят қиладиларки, Нух алайҳиссалом машриқдан мағрибгача барча халойиққа пайғамбар эди. Бир қари (қўл учидан тирсақкача бўлган ўлчов бирлиги) ер одамлардан ҳоли эмас эди. Бир кексанинг ўрнича ердан уч юз ботмон буғдой эса бир йиллик озуқа бўларди. Яна машриқдан мағрибга қадар уйларнинг томлдари бир-бирига туташ эдики, томма-том юрса бўларди. Ер юзида зироат қиладиган ер қолмагач, йилқиларга тупроқ ортиб, баланд тоғлар устига ёйиб деҳқончилик қилардилар <sup>62</sup>.

<sup>62</sup> "Қиссаси Рабғузий", Носируддин Рабғузий. - 1990

Шу тарқа тўфон бўлишини олдиндан билган Нух пайғамбар кема ясаттиради; Аллоҳ қудрати билан учадиган, чопқир жониворлардан ва умуман, ер юзидаги барча мавжудотлардан бир жуфт, бир жуфт олиб кемага чиқаради. Тўфон машаққатлари охирлаётган бир пайтда Нух пайғамбар шундай савол беради:

Ер юзида қанча миқдорда сув қолди? Ернинг қанча миқдори очилди? Бунинг хабарини менга ким келтиради?

Ушбу саволга биринчи бўлиб мен бораин, деб қорақарға пешвоз чиқади, аммо у ишончни оқламагани учун Нух алайҳиссалом кабутарни жўнатади. Кабутар йўлга тушади. Бориб кўрса, ер кўринади. Кабутар қайтишда зайтун дарахтининг япроғини тумшуғига олиб келиб, Нухга кўрғазгач, пайғамбар уни эзгу дуо қилади: "Одамлар сенга меҳрибон бўлиб, уйларида жой берсинлар!".

Мана шу ерда "Ҳевоқ афсонаси" бошланади. Яъниким, тўфон тиниб, Нух пайғамбар даставвал Ҳевоқ(Хива)қа оёқ қўйган экан. Тўғри, баъзи маълумотларга кўра Уни сувдан учи чиқиб турган тоққа чиққан, деб таъкидлашади. Чиндан ҳам юқоридаги ҳикоятнинг давомида тўфон чоғида пайғамбар ва мавжудотларга ёрдам учун ер юзидаги барча тоғлар бош кўтаришади, токи кема уларнинг бирида турсин. Бунда Коф, Жудий сингари тоғларнинг номи алоҳида зикр этилган. Аммо, буни шоир ўз афсонасида тоғ учида жонга нажот бўлурми, дея инкор этади ва уни қуйидагича давом эттиради:

Йўқ, албатта! Энди тингланг,  
Айтиб берай ростини!  
Тўфон тўхтаб, денгиз бир кун  
Кўрсатганда остини –  
Кемадаги жонларга Нух:  
“Ҳей, Боқ!” дебди, “Ана ер!  
Ўша ердан бошланажак  
Ҳамма учун она ер!

Шу билан бирга афсонада Нух пайғамбарнинг бўлажак шаҳар ҳақидаги башоратлари тилга олинади. Унда шаҳарнинг обод бўлиши, гуллаб-яшнаши, буюклар туғилиб, унинг шонини мангуга муҳрлашлари айтиб ўтилади. Кун келиб Хиванинг “Минг гумбаз шаҳри” номи билан машҳур бўлиши, унда дунё таниган буюк сиймолар етишиб чиққанлиги ўша башоратнинг ижобатидир, гўё.

Мана, Хиванинг нима учун шундай аталганлигини афсонада билиб олдик. Энди Нух набий алайҳиссалом қиссасига юзлансак, бу қиссада юқорида таъкидлангандек, кабутар учиб келиб ерни кўрганлигини айтади. Нух пайғамбар барчани у ерга бошлаб боради. Шунда (Оят) “Эй Нух, биз томондан бўлган саломатлик ила туш!” деган фармон бўлди. Пайғамбар қирқ эр ва қирқ хотин билан кемадан тушди ва Шом вилоятида денгиз бўйида бир қишлоқ қурдилар...”.



Кўряпмизки, манбалар турфа маълумотларни етказиб беражак. Энг асосийси, тўфондан сўнг Нух пайғамбар Коф, Жудий тоғларигами, Шом юртигами ва ё Хивага оёқ кўйишидан қатъий назар Тангри тарахҳуми билан она заминга пой кўйган.

Ўша заминнинг бир юраги бўлиб, жавлон ураётган воҳалардан бири биз номини тилга олган қадим ва бетакрор Хива бўлса, не ажаб?!

#### **Адабиётлар:**

1. “Ҳаққуш қичкириғи”, О.Матчон. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1979;
2. “Қиссаси Рабғузий”, Носируддин Рабғузий. -“Ёзувчи” нашриёти, 1

### **RANG-TUS, MAZA-TA’M VA HID BILDIRUVCHI SIFATLARNI O‘TISH**

**Sh.Almamatova, f.f.n. Samadova M., talaba**

Til ta’limi sohasida asosiy natija o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fikrni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasi bilan baholanadi.

Ona tili mashg‘ulotlarida nutqning asosiy materialini so‘z ustida ishlash, o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, so‘zdan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish malakalarini shakllantirish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>63</sup>

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda rang-tus, maza-ta’ m va hid bilish sifatlarining o‘rni cheksiz. O‘quvchilarning bu sifatlar haqidagi tasavvurlarini boyitish uchun darslikda berilgan topshiriq bajariladi.

O‘quvchilar topshiriqni bajarish uchun qanday rang-tus, maza-ta’ m va hid bildiruvchi so‘zlarni bilish va ularni sifatlar bilan bog‘lab birikmalar tuzish kerak bo‘ladi.

Topshiriqni bajarish uchun, o‘quvchilarni uch guruhga ajratamiz

1-guruh rang-tusni bildiruvchi sifatlarini

2-guruh maza-ta’ m bildiruvchi sifatlarini

3-guruh hid bildiruvchi sifatlarini topadilar. Bunda har bir guruhdan bittadan vakil chiqib (vakilni o‘quvchilar o‘zlari tanlaydi) topshiriqni bajaradi. To‘g‘ri va tez bajargan guruh rag‘batlantiriladi va g‘olib sanaladi. Bu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar rang-tus, maza-ta’ m va hid bildiruvchi sifatlar haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladilar.

Yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil etish qadimgi sharqona tarbiya tamoyillaridan butunlay voz kechish degan gap emas, yangi pedagogik texnologiya g‘arb ta’lim jarayonining eng ilg‘or tamoyillari bo‘lsada, sharqona an’analar, pandnoma-didaktik ruhida tarbiyani kuchaytirishi hamma vaqt milliy tarbiyamizning asosini tashkil etadi.

Didaktika- pandnoma:

1. Odamlarning yaxshiligini, o‘z yaxshiliging bilan aralashirma.
2. Boyliging miqdorini do‘stu dushmanga bildirma.

---

<sup>63</sup>B.To‘xliyev Til o‘qi tish metodikasi Toshkent 2010

3. Qarindoshni qarindoshdan ayirma.
4. Yaxshi odamni g'iybat bilan yod qilma.
5. Faqat o'zingni o'ylama.

Dars jarayonida qisqa daqiqa to'xtalish (pauza) saqlab, shu xildagi pandnomalarni izohlab o'tish ham katta ahamiyatga egadir.<sup>64</sup>

Sifat haqidagi bilimlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash maqsadida o'qituvchi darslikdagi nazariy ma'lumotni tushuntiradi.

Narsalarning rang-tusini bildigan sifatlar rang-tus sifatleri, maza-ta'mini bildirgan sifatlar maza-ta'm sifatleri, hidini bildirgan sifatlar hid sifatleri deyiladi.

O'quvchilardan nazariy ma'lumotni qay darajada o'zlashtirganini so'rab, bilimlari tekshirib ko'riladi. Ularning bilimlarini mustahkamlash uchun 382-mashq bajaririladi.

382-mashq. Matnni o'qing. Maza-ta'm va hid bildiruvchi sifatleri o'zi bog'langan so'z bilan ko'chirib yozing.

Mashqni bajarishda o'quvchilardan ixtiyoriy besh kishi navbat bilan mashqni bajarishadi.

1. Qaymoq bozoriga kirib, u kosadan yalab ko'rib, "achchiq" deb bu kosadan yalab ko'rib, "suyuq" deb yursam, bir burchakda Ubay o'tiribdi. (G'.G'ulom)

2. Elmurod chaynaganini yutib, nonga tikilib qoldi. Juda shirin. Bu qanday non o'zi? (Parda Tursun).

3. Lobarxon oyoqlarida zo'rg'a tursa ham, nur ko'rganidanmi yo dimog'ini qitiqlaysifatgan yoqimli hiddanmi, har qalay tinmay jilmayar edi. (Mirzakalon Ismoilij)

4. Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak (S. Mardiyev)

5. Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar. (Qodir Dehqon)

O'quvchilar mashqni to'g'ri bajarishdi. Javoblar quyidagicha:

- 1) "achchiq" deb "suyuq" deb
- 2) juda shirin
- 3) yoqimli hiddanmi
- 4) nima shirin, nima achchiqligini
- 5) sizdan muattar

Mashqlar bajarilib bo'lingach olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida

Har bir o'quvchidan berilgan savol yuzasidan javob olinadi va o'qituvchi tomonidan mavzu xulosalanadi.

Uyga vazifa 384-mashq. Oppoq, qora, tuzsiz, taxir, badbo'y sifatleri ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna:

1. Havo bulut. Osmonda oppoq bulutlar qat-qat bo'lib turibdi.

---

<sup>64</sup>A. Nurmonov, I. Ikromov, F. Boynazarov "Yangi pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent 2007 yil.

2. Azamat qora kastyum tiktiribdi.

3. Bugun ovqat qandaydir tuzsiz bo'libdi.

Bu mavzuni o'tish orqali o'quvchilarning sifat haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Darhaqiqat, o'quvchilar predmetning belgisini bildiruvchi juda ko'p so'zlarni bilishadi. Ammo, ularni anglatgan ma'nolariga ko'ra guruhlashda qiynalishadi. Bu mavzu orqali o'quvchilar o'zlarining sifat haqidagi bilimlariga ishonch hosil qilishadi va nutqda o'rinli qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## **ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ КАК ЭЛЕМЕНТЫ ЗАНИМАТЕЛЬНОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА**

**Адилова С.А – Доцент САМГУ Маматова М.О – Студентка**

Воспитывая самостоятельность и ответственность студентов за результаты учёбы мы должны помнить, что активность студента, его инициатива во многом определяются тем, насколько интересно студенту на занятиях, что является побуждающим мотивом его участия в учебном процессе.

Пробудив интерес студентов к занятиям русского языка, научив их самостоятельно пополнять знания и делиться ими с товарищами, мы будем способствовать тем самым развитию творческих способностей будущих специалистов, формированию социально активной личности.

Включению элементов занимательности в учебный процесс необходимое условие его успешной работы, особенно на первых порах. Интересной для студентов должна быть не только тематика но и все формы работы в аудитории.

Используя занимательность, мы привлечем к занятиям студентов, еще не научившихся находить удовольствие самостоятельных поисках знаний. Включение в учебный процесс занимательных игр (грамматических загадок, ребусов и т.д.) организация соревнования и здорового соперничества между малыми группами радостный, эмоциональный настрой работы будут способствовать росту привлекательности урока в глазах студентов, его популярности.

Внесение элементов занимательности повышает уровень познавательной и научной ценности его деятельности.

Например, занятие посвященное изучению фразеологизмов русского языка, может содержать такие элементы, как самостоятельный подбор эквивалентов русским фразеологизмам в родном языке; соревнование на быстрое выполнение задания по замене устойчивого сочетания одним словом (надуть губы – рассердиться, обидеться; клевать носом – дремать, бить баклуши – бездельничать; молоть языком – болтать); игру в которой победителем считается подобравший наибольшее число синонимов – фразеологизмов, имеющих общее смысловое значение ( попасть в принятое

положение – попасть впросак, сесть в калошу, сесть в лужу, попасть в переплет и т. д).

Возможностей для использования различных видов увлекательных упражнений, например: выяснить значение слов, подобрать синонимы-объяснения, синонимы-фразеологизмы, антонимы, составить предложения, написать рассказы из жизни студентов с употреблением устойчивых сочетаний, найти эквиваленты данным фразеологизмам в родном языке, рассказать в происхождении того или иного фразеологического сочетания и т.д.

Студенты должны знать, что не всегда фразеологизмы можно перевести на другой язык (не искажая их основного значения), что нельзя вставлять в них новые компоненты, заменять какое-либо слово устойчивого сочетания другим, пусть даже близким по значению. Тот факт, что фразеологические обороты пришли в литературный язык из разнообразных источников и смысл многих слов, входящих в них, сегодня для нас совершенно непонятен, подсказывает, что объяснение значения фразеологизмов следует давать самому преподавателю, особенно где отсутствует русская языковая среда. Например, в фразеологизме попасть впросак не понятен смысл слова впросак, а в фразеологизме в этом деле собаку съел хотя и понятны все слова, но в целом без объяснения он не понятен.

После выяснения значения фразеологизмов студенты записывают и разбирают продиктованные предложения, находят в них фразеологизмы, заменяют их синонимами и, наоборот, отдельные слова и словосочетания заменяют фразеологизмами, данными в виде таблицы для справок (будь внимателен – держи ухо востро, главный помощник правая рука, работать без отдыха – работать не покладая рук, стремглав – сломя голову ). Затем студенты составляют предложения со следующими фразеологизмами ( предварительно объясняет их смысл) : в поте лица – с большим усердием, напряжением, прилагая все силы; набирать силу – крепнуть усиливаться, небо коптить – жить без пользы, без цельно. Студента записывают новые фразеологизмы, объясняя их значения, а дома находят их эквиваленты среди фразеологизмов родного языка и составляют предложения с некоторыми из них, например: ломать голову – масалани ечмок , бош котирмок прос), намылить голову- буралаб ташламок, быть на седьмом небе – узини еттинчи осмонда курмок, лясы точить – бекорга валдирамок.

При выполнении задания студенты могут пользоваться фразеологическим словарем родного языка, при необходимости обращаются за помощью к товарищам или преподавателю.

На следующем уроке выполняются более сложные упражнения , например: к фразеологическим оборотам, данным в левом столбике таблицы, студенты должны подобрать антонимы из правого столбика.

Держать ухо востро.

Дать волю языку.

Держать язык за зубами.

Ворон считать.

Студенты выясняют, откуда вошли в речь обороты через час по чайной ложке, больное место (из медицины), играть роль, играть первую скрипку, петь с чужого голоса (из жизни актеров), мерить на свой аршин (из торговли).

Для того что закрепить умение употреблять эти фразеологизмы в речи, с ними устно составляются предложения. В конце урока студенты записывают в словари новые устойчивые сочетания, объясняя их: ломать голову – усиленно думать, стараясь понять что ни будь трудное; вбить в голову – внушить ; браться за ум – серьезно браться за дело; быть баклуши – бездельничать и др. Дома студенты пишут эссе под названием «Пора взяться за ум!» ( о недостатках в учёбе), включающее в себя записанные на уроке фразеологизмы.

Общими усилиями условиями они находили фразеологизмы и коллективно раскрывали смысл найденных выражений и выясняли, в каких случаях употребляется в речи то или иное выражение. Эти выражения также пополняют словарь студентов.

Записи в словарях носили такой характер:

Бить баклуши – бездельничать.

Синонимы: гонять лодыря, сидеть сложа руки.

Антоним: работать засучив рукава.

Используя естественный интерес к указанным темам, привлекая разнообразный дидактический материал, включая игровые моменты мы будем способствовать достижению конечной цели всей учебной работы. Обогащению сновного запаса студентов, выработке навыков исследовательской работы, привитию любви к самостоятельной работе с книгой, расширению кругозора студентов, т.е. формированию тех качеств, которые необходимы каждому высококвалифицированному специалисту.

## **BIR NECHA ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING BIRGALIK ERGASHISH USULI**

**Almatova Shahnoza, f.f.n. Sattorov Shohruh talaba**

Bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplarda ikki yoki undan ortiq ergash gap bir bosh gapga bog‘lanib, bog‘lovchi vositalar, bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida bog‘lanib bosh gapdan ifodalangan manmuning ma’nosini ifodalab keladi. Ergash gaplarning bosh gapga turli bog‘lovchi vositalar va bog‘lanish usuliga ko‘ra turlarga bo‘linishini ko‘rib o‘tamiz.

Bu bog‘lanishlardan biri birgalik ergash usulidir. Birgalik ergashish usulini Asqad Muxtorning “Chinor” romanida bir necha misollarini ko‘rib o‘tamiz.

**Masalan:** *Son –sanoqsiz panja barglari betinim qimirlab, nurli havodan rizqini terib olayotganday, yuksaklikka intilgani – intilgan* (“Chinor” 4- bet)

Bu murakkab qo‘shma gapda ikki ergash gap bir bosh gapga tobelanib, ergashib kelgan. Bunda ergash gaplar bosh gapga birgalik ergash usuli yordamida bog‘langan. Ko‘ramizki, murakkab qo‘shma gapning bosh gapli qismi- *yuksaklikka intilgani – intilgan*. Ergash gaplar esa birinchisi: *Son –sanoqsiz panja barglari*

*betinim qimirlab*- sodda gapi, ikkinchisi: *nurli havodan rizqini terib olayotganday* gaplari ergash gap sanaladi.

Bu ergash gaplarning o'rnini bemalol almashtirib birining o'rnida ikkinchisini qo'llab bosh gapga bog'laganimizda ham hech qanday ma'no o'zgarmagan bo'lar edi. Ikkala ergash gap ham bosh gapga alohida alohida bog'lanib murakkab ergash gapning birgalik ergash usulini yuzaga keltirgan .

Misoldagi bir necha ergash gaplar bosh gapdan ifodalangan mazmunning holatini ifodalab, gapda tarz, holat holi bo'lib kelmoqda va murakkab qo'shma gapni hosil qilmoqda. Bu murakkab qo'shma gapning so'rog'ini shunday berishimiz mumkin. **Masalan:** *Qay tarzda ? yuksaklikka intilgani – intilgan.*

Qay tarzda so'rog'iga shunday javob berishimiz mumkin.

**Masalan :** *Son–sanoqsiz panja barglari betinim qimirlab, yuksaklikka intilgani – intilgan.*

*Nurli havodan rizqini terib olayotganday, yuksaklikka intilgani – intilgan.*

Yuqoridagi bir necha ergash gapli murakkab qo'sh gapni birgalik ergash usulining bir jinsli uyushgan ergash gaplar deya olsak bo'ladi. Chunki bir jinsli tarz hollari bosh gapga tobelanib kelgan .

Ergash gaplar bosh gapga turli ergash gaplar, turli jinsli uyushishni hosil qilishi mumkin. **Masalan:** *Mana hozir ham oppoq tongda, navquron gurkirab , butun vujudidan sarin yoshlik barq urib turibdi.* (“Chinor” 4-bet.)

Bu murakkab qo'shma gapdagi birinchi ergash gap bosh gapdan ifodalangan mazmunning paytini, ikkinchi ergash gap esa bosh gapdan ifodalangan mazmunning holatini ifodalab bosh gap bilan turli jinsli uyushishni yuzaga keltirgan. Ergash gaplarga bosh gapga bog'lagan holda shunday so'roq berish mumkin.

**Masalan:** *Qachon? butun vujudidan sarin yoshlik barq urib turibdi.* Qachon so'rog'iga javob bo'lib keluvchi ergash gap *Mana hozir ham oppoq tongda* ergash gapi hisoblanadi. Yana bir necha misollarda ko'rishimiz mumkin.

**Masalan:** *Shunday bo'lsa ham, uning g'adir po'stlog'ida pichoq yarasi u yoqda tursin, bironta tirnoq izi ham yo'q.* ( “Chinor” 5- bet) *Yuqorida aytganimdek, chinor haqida gapirmay turib, Ochil buvaning ta'rifiga kirishish ham qiyin.* ( “Chinor” 6- bet)

Shu singari misollar ham *payt ergash gap + holat ergash gap va bosh gap* qolipida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Masalan:** *Bir yili, u vaqtlarda Ochil buva endi yetmishlardan oshgan ekan, qishloqning qariyalari chinorning yoshini hisoblab, uning mingga kiradigan faslini taxminlab, qariyalar xalqqa e'lon qilishgan ekan.* ( “Chinor” 5- bet)

Bu murakkab qo'shma gapda bosh gap : *qariyalar xalqqa e'lon qilishgan ekan.* Bosh gapga bo'lanib kelgan gaplar esa ergash gaplar hisoblanadi. Murakkab qo'shma gapdagi ergash gaplar bosh gapdan ifodalangan mazmunning holatini ifodalab bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gapni yuzaga keltirgan.

Birinchi ergash gap tarkibida sodda gapni murakkablashtiruvchi vosita-*kiritma gap* qatnashgan va o'zi murakkab qo'shma gap bo'lgan matnni yanada murakkablashtirishga xizmat qilgan. Bu ergash gap va uning tarkibidagi kiritma

gapni keltirib o‘tamiz. **Masalan:** *Bir yili, u vaqtlarda Ochil buva endi yetmishlardan oshgan ekan, qishloqning qariyalari chinorning yoshini hisoblab, uning mingga kiradigan faslini taxminlab-* singari ergash gapdagi vergul bilan ajratib ifodalangan (*u vaqtlarda Ochil buva endi yetmishlardan oshgan ekan*) gapi kiritma gap hisoblanadi va bu bilan murakkab qo‘shma gapdan ifodalangan mazmunga yozuvchining fikri ham kiritilib, gapga o‘zining munosabatini ham ifodalagan.

Turli jinsli uyushishga misollar.

**Masalan:** *Chingizxon zamonida chor - atrof tutun, dalalar qishloqlar lovullab yonganda ham, shu chinorning ulkan yashil bargi xuddi hozirgiday gurkirab, “ Hayot mangudir, hayot tugamaydi” deganday asta shovullab turavergan ekan.* (“Chinor” 5- bet)

Bu murakkab qo‘shma gapdagi bosh gap- “ *Hayot mangudir, hayot tugamaydi” deganday asta shovullab turavergan ekan-* gapi sanaladi va unga bog‘lanib kelgan yuqoridagi gaplar esa - *Chingizxon zamonida chor- atrof tutun, dalalar qishloqlar lovullab yonganda ham, shu chinorning ulkan yashil bargi xuddi hozirgiday gurkirab-* ergash gap sanaladi. Murakkab qo‘shma gap birinchi va uchinchi gap bosh gapda ifodalangan mazmunning holatini ya’ni tarzini ifodalab kelgan bo‘lsa, ikkinchi gap esa bosh gapda ifodalangan mazmunning paytini ifodalab kelgan va bosh gapga quyidagi usulda bog‘langan.

*Holat ergash gap + payt ergash gap + holat ergash gap + bosh gap* qolipida shakllangan. Yozuvchi bu bilan o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Bu murakkab qo‘shma gapni *holat ergash gap + holat ergash gap + payt ergash gap va bosh gap* qolipida ham joylashtirsa bo‘lardi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gap bosh gapga bir jinsli va turli jinsli turlar bilan bog‘lanib, bosh gapni bir tomonlama va turli tomonlama izohlab kelishini yuqoridagi misollarda ko‘rib o‘tdik, bu esa bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gapning ovziga xosligidir.

## ҒАҒУР ҒУЛОМ ШЕЪРИЯТИДА ТАСВИРИЙ ВОСИТАЛАР

### Шербоева Нодира, ЖДПИ Розимова Динара, ЖДПИ талабаси

Ғафур Ғуломнинг поэтик услуби асарлари тилининг тасвирий воситаларга ғоятда бойлиги ва ранг–баранглиги билан ажралиб туради. Ҳақиқий сўз санъаткори Ғ.Ғулом табиат манзарасини чизишда ўзини ғоятда нафис лирик шоир сифатида намоён қила олди. У табиат ҳамда унда яшаётган мавжудотнинг сирларини ва номларини шу қадар яхши билиши, уларнинг ҳаракатларини тасвирлашда инсон руҳияти билан уйғунлаш–тиришга интилиши ўзбек адабиётида бетакроп ва ўлмас образларнинг яратилишига сабаб бўлди. Шоирнинг табиатан мужмалликни ёқтирмаслиги, воқеаҳодисаларни, қалб кечинмалари ва ҳис–туйғуларини берилиб, бор овоз билан таърифлашга ҳаракат қилиши, ўзи тасвир этаётган объектга самимий ва ростгўй, шу билан бирга холисона муносабат билдириши унинг

хақиқатгўй санъаткор эканлигидан далолат беради. Ғафур Ғуломни улуғ ўзбек сўз санъаткорларидан деймиз. Бу унга қандай қилиб эришди? Албатта, тинимсиз меҳнат ва изланишлар натижасида. Бадиий асардаги соддалик ва гўзаллик қаердан пайдо бўлади?

Албатта, тилни мукаммал билишдан. Танқидчи қуйидагиларни ёзади: “Ижодий меҳнат туфайли шоир ўз асарларини етилтирган, мукаммаллаштирган, уларга сайқал бериб борган ва шу процесда ўз талантини вояга етказган, маҳоратини камол топтирган. Ана шу етук талантнинг, юксак маҳоратнинг меваси бўлган шеърларнинг тилидаги образлилик китобхонни мафтун қиладиган даражада гўзал, ёқимли ва дилрабодир”<sup>65</sup>.

Асарда ифодалар образли бўлиши учун мана шу воситаларнинг бўлиши шартми? Йўқ, албатта. Гап тил воситаларини ўз ўрнида ишлата билишда. Ғафур Ғулом тилдаги барча тасвирий воситалардан, жумладан **омонимлар ва синонимлардан** ҳам ўрни билан фойдаланган. Масалан: от – жонивор, ном:

Атомми? Яхши гап, балки колхознинг  
Тегирмон чархига от бўлиб қолур.  
Сўнгги жанг талабли олий жаноблар,  
Тарихда зоти йўқ от бўлиб қолар (Ўттиз ёш).

Ёки: қизи эмас қизимас:

Темур қурган “Оқ сарой”да  
“Ишрат хона” **қизимас**,  
Бу ҳиссадан алҳазар,  
Киприкдаги сурмача ҳам  
Соф кўкраги кир эмас  
Археолог Мўътабар:  
– Бир кулолнинг **қизиман!** – деб  
Қилолади ифтихор. (Биринчи шеър)

Шоир “Дўстим, менга инонма!..” шеърида синонимик қаторни ташкил қилувчи сўнг, охир, кейин сўзларининг бирини хотима, яқун сўзлари билан синоним сифатида қўллайди ва уларнинг қўлланиш доирасини кенгайтиради:

Тинглангиз!  
Севгимиз достонин **сўнглари** ўқилур:  
Ойдин кечаларда самимий бўсалар,  
Узлуксиз арзи ишқ, умидли ваъдалар  
Шам каби эрийдир, хаёлдай йўқ бўлур.

Саҳифа, сатр сўзлари билан синонимик қаторни ташкил қилувчи бет бирлигини қўллаб, мисраларнинг табиийлиги ва соддалигини таъмин этади:

Беш минг йил илгари,  
чорак аср олдин,

---

<sup>65</sup> Шукуров Н. Ғафур Ғуломнинг лирик поэзиядаги маҳорати.–Тошкент.: Фан, 1966, 68– 6



Тарих бетларида  
жавраб келгувчи,  
Ўзи соқов  
қалъаи Бобил сингари,  
Айтиб келганман:  
Мен ҳам одамман!

Ғ.Ғулом “Алишер” шеърисида айтмасдан–айтиш – ишора усулидан фойдаланади ва бунда шоирга синонимлар кўмаклашади. Алишер Навоий ҳақида гапирилаётганда турли тиллардаги бағир, сийна, адр сўзлари санаб ўтилиб, улар орасидан айнан туркийча кўкрак сўзини танлаш билан унинг ўзбеклигига ишора қилинади:

Она сутидан ҳам азиз нарса йўқ,  
Бағир: форсий – сийна, арабчада– адр.  
Кўкрак сути билан боққан ўғилни  
Она юрт халқлари қилмоқдадир қадр.

Мана шу ўринда ҳар қандай ижодкорнинг синонимларни танлаш маҳоратидан кўз юммаслик керак. **Мунаққид сўзлари билан айтганда**, “Ғафур Ғулом образларида предметлар дунёсидаги бўёқлар ва кўринишларни зўр диққат билан чизишга интилиши сезилиб туради. Унинг асарларида кишиларнинг маълум моментдаги ҳолати ва ҳаракатини, ташқи қиёфаси ва кўринишини, баҳор, ёз, куз, қиш манзарасини аниқ, реал тасвирлаб берувчи сон–саноксиз образларни топиш мумкин”<sup>66</sup>.

Демак, ўзининг бор куч ва иқтидорини халққа хизмат қилиш, унинг юрагидаги гапларни топиб айтиш, қийин бўлган пайтларда оғирини енгил қилишга, яхши кунларида бирга бўлишга интилиш Ғафур Ғуломни эл ардоғида бўлган санъаткорга айлантди. Шундай қилиб, Ғафур Ғулом тилдан фойдаланишдаги бетакроп услуби билан ўзбек бадий тафаккури тараққиётига беқиёс хизмат қилди – мавжуд анъаналарни давом эттирди, кейинги авлодга намуна бўларлик даражада мерос қолдирди.

## SO‘ZLARNING KO‘P MA’NOLILIK VA BIR MA’NOLILIKKA XOS TABIATI

**D.Salimova f.f.f.d.(PhD) N.Teshayeva talaba**

Tilshunoslikning semasiologiya masalalarini yoritishga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda leksemalarning polisemantik tabiati aynan nutq paytiga xos hodisa sifatida talqin etiladi. Chunki leksemalar aniq bir nutq vaziyatidagina shu nutqiy jarayonga xos bo‘lgan ma’noni ifodalaydi, shuningdek, har bir leksema o‘z ma’nosi taraqqiyotida genetik sema va hosila semaning kengayishidan hosil bo‘lgan polisemantik va monosemantik xarakterga ega. Bu haqda rus tilshunosi V.Solnsev: “Semantika (ma’no) – tilning

<sup>66</sup> Шукуров Н. Ғафур Ғуломнинг лирик поэзиядаги маҳорати.—Т.: Фан,1966,73-б

qalbi”dir, deya o‘rinli fikrlaydi. Darhaqiqat, so‘z ma‘nosi asosida so‘zlovchi o‘z fikrini bayon qiladi.

So‘z kommunikatsiyaga kirishishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Nutqning ta‘sirchan bo‘lishi so‘zlovchining lug‘at boyligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda nutq ravonligi masalasini xal etishda aynan lisoniy bilimlarning o‘rni muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘z ma‘ruzalarida nutq boyligi va ta‘sirchanligini oshirish masalasiga to‘xtalarkan, “Yoshlar jamiyatimizning kelajagi hisoblanadi. Ularga yetarlicha e‘tibor berish esa bizning asosiy vazifamiz sanalishi kerak. Ularning xulq-atvoridagi har qanday o‘zgarishlarga befarq qaramasligimiz lozim va shartdir. Bunda biz birinchi navbatda ularning nutqini o‘stirishga harakat qilishimiz lozim. Chunki chiroyli va aniq so‘zlash, ya‘ni notiqlik san‘ati insonning barkomolligidan dalolat beradi. Men jamiyatimizning faol pedagoglariga o‘quvchi yoshlarga sidqidildan bilim va tarbiya berishlarida kuch va g‘ayrat tilab qolaman”, leb ta‘kidlaydi.<sup>67</sup>

Tilshunoslik ilmida bir ma‘noli so‘zlar monosemiya (yunoncha: monos- “bir”+ semia-“belgi”) va ko‘p ma‘noli so‘zlar polisemiya (yunoncha: poli-“ko‘p” + semia- “belgi”) deb yuritiladi.<sup>68</sup>Tilda mavjud barcha so‘zlar bir ma‘noli yoxud ko‘p ma‘noli bo‘ladi. Bir ma‘noli so‘zlar monosemantik so‘zlar hisoblanib, ular faqat bitta ma‘noga ega bo‘ladi. Masalan: *odam, chumoli, tuya, guruch* kabi so‘zlar bir ma‘noli so‘zlardir. H. Jamolxonovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ta‘kidlanishicha, ”Bir ma‘nolilik ko‘proq terminlarga, yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o‘zlashtirilgan leksemalarning boshlang‘ich ishlatilish davriga xosdir: *to‘rtburchak* ( matem. termin ), *go‘mmaxona* ( yangi yaratilgan leksema ), *supermarket* (yangi o‘zlashtirilgan so‘z ) va boshqalar. Yangi yaratilgan yoki boshqa tildan yangi o‘zlashtirilgan leksemalar vaqt o‘tishi bilan turli lisoniy va nolisoniy omillar ta‘sirida ko‘p ma‘noli so‘zga aylanib qolishi mumkin”. Bundan kelib chiqadiki, tilning tarixiy taraqqiyotida har qanday bir ma‘noli so‘z ham keyinchalik so‘z ma‘nosining kengayishi hisobiga (xoh u o‘zlashma so‘z bo‘lsin), ko‘p ma‘noli so‘zga aylanadi. Atoqli otlar bundan mustasno. “Atoqli otlar shartli ravishda monosemantik leksemalar qatoriga qo‘shiladi”<sup>69</sup> Masalan: *asal* so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, lisoniy ma‘nosi - o‘simliklar gulidagi shira (nektar) ning ishchi asalarilar organizmida qayta ishlanishidan hosil bo‘ladigan shirin, suyuq oziq mahsulotni anglatadi. *Mehnat qilib topganing - qandu asal totganing*. Asal (xotin-qizlar ismi) - atoqli ot; *zafar* - arabcha g‘alaba, muvaffaqiyat. *Hamid Olimjonning ovozi, qudratli nidosi zafarlarga chorlaydi*. N.Safarov, “Olovli izlar”<sup>70</sup>. Bundan ko‘rinadiki, so‘z ma‘nosining torayishi hisobiga turdosh otlardan atoqli otlar hosil bo‘ladi.

Ko‘p ma‘noli so‘zlar polisemantik so‘zlar deyiladi. Birdan ortiq (bir necha) ma‘nolarda keladigan so‘zlar ko‘p ma‘noli so‘zlar sanaladi. Ko‘p ma‘noli so‘zlarda bosh (asosiy) va ko‘chma (hosila) ma‘no bo‘ladi. O‘zbek tilidagi

<sup>67</sup> Karimov I. Biz buyuk yurt farzandlarimiz.- Toshkent, 1998.

<sup>68</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabi yili. –Toshkent; “Talqin” 2005, B.155-156 .

<sup>69</sup> Bu haqda: Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Leksikologiya, fonetika, morfologiya -Toshkent. 1957

<sup>70</sup> O‘zbek tiliningi zohli lug‘ati1-7-jildlar O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi-Toshkent; Davlat ilmiy nashriyoti, 2007; B.140.

soʻzlarning aksariyat qismi koʻp maʼnolidir. “Oʻzbek tili grammatikasi” da soʻz maʼnosi haqida shunday deyiladi: “Soʻzning maʼno tomoni va uning oʻzgarishi bilan bogʻlangan hodisalar koʻp (soʻzning umumiy va xususiy maʼnoda ishlatilishi, koʻchgan maʼnoda qoʻllanilishi, polisemiya va omonimiya, bularning oʻzaro munosabati: bir soʻz doirasida qolishi yoki boshqa-boshqa soʻzlarning tugʻilishi, ichki oʻzgarishining - fonetik vosita orqali farqlanish hollari va boshqalar)...”. Maʼlum bir soʻz turli omillarga koʻra bir necha xil maʼno anglatadi.

Koʻp maʼnolilikda leksik maʼnoning taraqqiy etishi muhim oʻrin tutadi. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” kitobida taʼkidlanishicha, “Leksik maʼno taraqqiyotiga olib keluvchi koʻchishlar, asosan, quyidagilar: metafora yoʻli bilan koʻchish, funksional koʻchish, sinekdoxa yoʻli bilan koʻchish. Bu koʻchirish yoʻllari qorishiq holatda (metaforik-funksional, metonimiya-sinekdoxa tarzida) ham uchraydi...”. Koʻp maʼnoli soʻzlarning oʻrtasida maʼlum mazmun munosabatlari mavjud. Ana shu mazmun munosabatlari turli predmetlar, hodisalar oʻrtasidagi maʼno aloqalarini tushunarli boʻlishini taminlaydi. Masalan: *oʻyinchi* - yaxshi raqsga tushuvchi, *oʻyinchi* - raqqos yoki raqqosa, *oʻyinchi* - futbol, shaxmat kabi oʻyinlarda ishtirok etuvchi; *koʻz* - insonning koʻrish aʼzosi, *koʻz* – uzukning koʻzi, *koʻz* – taxtaning koʻzi, *koʻz* – derazaning koʻzi, *koʻz* – buloqning koʻzi, *koʻz* – ishning koʻzi kabi maʼnolar. Koʻp maʼnoli soʻzlar asosan nutq sharoitidagina konkretlashadi. Boshqa hollarda bunday soʻzlar monosemantik xarakterda boʻladi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, leksik maʼno taraqqiyotida maʼnoning kengayishi, maʼnoning torayishi va maʼno koʻchishi asosida koʻp maʼnoli soʻzlar hosil boʻladi. Koʻchma maʼnola nutq tarkibida boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda namoyon boʻladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa toʻgʻri maʼnosi asosiy maʼno boʻlib qoladi. Bir maʼnoli soʻzlar esa tilimizda kam sonlini tashkil qiladi. Koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnosini bilish va undan nutq jarayonida oʻrinli foydalanish nutqning taʼsirchan, ifodali boʻlishiga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov.I. Biz buyuk yurt farzandlarimiz.- Toshkent, 1998.
2. Jamolxonov.H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -Toshkent. Talqin; 2005.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Leksikologiya, fonetika, morfologiya - Toshkent. 1957.
4. Oʻzbek tiliningi zohli lugʻati 1-7-jildlar “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

### **БАДИЙ МАТННИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

**Л.Ибрагимова, ЖДПИ катта ўқитувчи Д.Ачилова талаба**

Адабиётнинг сўз санъати эканлиги ҳақидаги ҳақиқат жуда қадим замонлардан бери такрорланиб келинади. Демакки, адабиётнинг бош унсури сўз, умуман, тилдир. Адабий асарнинг абадий асар даражасига кўтарила билиши унинг лисоний таркиби ва асар муаллифининг бадий ифода балоғатига боғлиқ эканлиги шубҳасиз. Шундай экан, ҳар қандай адабий асарнинг моҳиятини холис баҳоламоқ учун, энг аввало, унинг лисоний таркибининг ўзига хослиги таҳлил этилмоғи лозим.

Тил ва ёзувчи ўртасидаги муносабатни шахмат ва шахматчи ўртасидаги муносабатга қиёслаш мумкин. Шахматда ҳар бир донанинг мавқеи, даражаси, шахмат тахтаси устидаги ҳаракатланиш қоидалари аввалдан белгиланган. Ана шу қоидаларни тугал эгаллаш оқибатида юзага келган юксак маҳорати туфайли шахматчи тамоман янги, кутилмаган юришлар қилади, бетакрор комбинациялар яратадики, бу унга рақибини мағлуб ва мухлисини мафтун қилиш имконини беради. Тилда ҳам ҳар бир унсурнинг ўз вазифаси, маъно доираси, бошқа унсурлар, бирликлар билан боғланиш қонуниятлари мавжуд. Ана шу қонуниятлардан мукаммал бохабар бўлган, бадий диди, сўз сезгиси ва маҳорати юксак ёзувчи бетакрор тасвир, кутилмаган, оҳорли бадий лавҳалар, сўз чақинларини пайдо қила оладики, китобхон адибнинг нафақат ғояси, балки гўзал тилининг асирига айланади. Бунда ёзувчи умумхалқ тилидаги бадий тасвирга фавқулодда мувофиқ бирликларни танлаш, саралаш ва сайқаллаш асосида, лисоний-бадий қонуниятлардан келиб чиққан ҳолда уларга юкланган хилма-хил бадий-эстетик маънолар ҳал қилувчи роль ўйнайди.

Сўз қўллашнинг санъат даражасида ёки санъат даражасида эмас эканлигини баҳолаш учун, энг аввало, сўз, унинг маъноси ва бу маънонинг тузилишини аниқ тасаввур этиш лозим. Албатта, сўзнинг қўлланиши билан боғлиқ ҳолда юзага чиқадиган қўшимча маъно нозикликлари, мазмун ўзгачаликлари турли тасвир усуллари ва воситалари орқали реаллашиши мумкин. Аммо таъкидлаш жоизки, бундай қўшимча маъно нозикликлари аксар ҳолларда, аввало, сўз маъно қурилишининг ўзида имконият сифатида мавжуд бўлади, улар сўзнинг маъно қурилиши таркибида илгаридан қайд этилган бўлади.

Тилдаги номинатив бирликларнинг маъно тузилишини ўрганишда тилшуносликда семантиканинг коннотатив жиҳати тушунчасига алоҳида эътибор қилинади. Бу масалани монографик тарзда тадқиқ этган В.Н.Телия таърифича, «коннотация – тил бирликлари семантикасига узуал ёки оккозионал равишда кирадиган, нутқ субъектининг борлиқни жумлада ифодалашида унинг айни шу борлиққа бўлган ҳиссий – баҳолаш ва стилистик муносабатини ифодалайдиган ҳамда шу ахборотга кўра экспрессив қиммат касб этадиган мазмуний моҳият»<sup>71</sup> Коннотация, таърифидан кўриниб турганидай, сўзловчининг борлиқни ифодалаш воситаларига муносабатига дахлдор бўлган жиҳатдир. Масалан, *юз*, *бет*, *чеҳра*, *рухсор*, *афт*, *башара*, *турқ* каби сўзлар қаторидан тегишли нутқ вазияти ва субъектив нуқтаи назарга мувофиғини танлаш сўзловчининг ўзига берилган имконият эканлиги маълум. В.Н.Телия таъкидлаганидек, бундай сўзлар семантикасида «сўзловчининг ифодаланмишга бўлган муносабати ҳақидаги информация кодлаштириб қўйилган бўлади ва жумла қурилар экан, худди сиқилган пружина қўйиб юборилганидай, бу информация дарҳол ишга тушади», демак, луғат бирликлари фақат номинатив фаолият учунгина эмас, балки прагматик фаолият учун тайёр материал бўлиши мумкин. Тадқиқотчи

71 Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. –М. 1986, с-5

айни шу ўринда ана шу мулоҳазаларга асосланган ҳолда сўзнинг семантик курилишида номинатив жиҳатга кўшимча коннотатив жиҳатнинг бўлиши нутқий тежамкорлик учун ёрдам беришини ҳам таъкидлайди.<sup>72</sup> В.Н.Телия сўзнинг лексик маъносини, камида, уч макроузвнинг комбинацияси сифатида тасаввур этиш мумкинлигини айтади: 1) маънонинг борлиқдаги муайян реалликни ифодаловчи денотатив узви; 2) категориал-грамматик узви; 3) нутқ субъектининг сўз орқали ифодаланган нарсага муносабатини англатадиган эмотив-модал узви.<sup>73</sup> Ана шу учинчи узв экспрессив бўёқ, услубий бўёқ, эмоционал бўёқ, субъектив баҳо каби тушунчаларни умумлаштирувчи коннотатив маънолардир. Бундай узвнинг мазмун-моҳияти ўзбек тилшунослигида ҳам анча кенг очиб берилган. Масалан, «Ўзбек тили лексикологияси» китобида сўз нарса-ҳодисани ифодалашни баробарида кўпинча шу нарса-ҳодисага сўзловчининг субъектив муносабатини ҳам англатиши алоҳида таъкидланган: «...Луғат саставидаги сўзларни кузатиш уларнинг баъзилари бирор нарса, ҳодисаларни атабгина қолмай, айти пайтда сўзловчининг ифодаланаётган тушунчага ўз баҳосини, муносабатини ифодаланишини ҳам кўрсатади. Бу муносабат доирасига ғазаб, эркалаш, қойил қолиш, нафратланиш, жирканиш, киноя каби хилма-хил эмоционал муносабат кўринишлари киради. Хусусан, *азамат, ўктам, қойилмақом, сўлқилдоқ, бопламоқ, олчоқ, малъун, разил, сатанг, санқи, асфаласофиллин, миянқи, қойил, дўндирма, момоқаймоқ* каби сўзлар, маълум тушунча англатишдан ташқари, сўзловчининг шу тушунчага лоқайд қарамаслигини, аксинча, ижобий ва салбий эмоционал муносабатда эканлигини ҳам кўрсатиб туради. Бу баҳо элементи тингловчи томонидан ҳам одатда сўзловчи назарда тутгандагидек идрок этилади. Тилшунослиқда бундай хусусиятга эга бўлган лексика эмоционал - экспрессив лексика, экспрессив - стилистик лексика терминлари остида ўрганилмоқда».<sup>74</sup>

Бадиий матнни лисоний таҳлил қилиш жараёнида ёзувчининг тилдан фойдаланиш маҳоратини намоён этадиган, эмоционал-экспрессив ифода семалари қабарик ҳолда реаллашган лексик бирликларни аниқлаш ва улар адибнинг бадиий-эстетик мақсадига қай даражада хизмат қилгани ҳақида мулоҳаза юритиш талаб қилинади. Бунинг учун бадиий асар тилидаги маънодош, шаклдош, зид маъноли, кўп маъноли, тарихий ва архаик сўзлар, янги ясалмалар, шевага оид сўзлар, чет ва вульгар сўзлар ажратиб олинади ва асарга нима мақсад билан олиб кирилганлиги изоҳланади.

## **“САДДИ ИСКАНДАРИЙ” ДОСТОНИДА ШОҲ ҒОЗИЙ ОБРАЗИ**

### **3. Мамадалиева, ЖДПИ доц в/б.Г Абдуғаффорова, талаба**

Алишер Навоий ва унинг “Садди Искандарий” асари адабиёт тарихида буюк хазинадир. “Хамса”нинг хотималовчи ҳажман энг йирик достони “Садди Искандарий” адолат, афв, тўғрилиқ, қарам ва саховат ғояларини

<sup>72</sup> Телия В.Н. Ўша асар. 7-б.

<sup>73</sup> Телия В.Н. Ўша асар. 16-б.

<sup>74</sup> Ўзбек тили лексикологияси. –Т: «Фан», 1981, 160-б.

тарғиб қилувчи асардир<sup>1</sup>. Гарчи дoston Мағриб-у Машрик подшоҳи бўлган Искандарга бағишланган бўлса-да, дostonда шоҳ Ғозий у жаҳонгирнинг давомчиси сифатида гавдаланади. Савол туғилади? Асар бобларида баён қилинган шоҳ Ғозий афсонавий образми? Ёки тарихий шахс Султон Ҳусайн Бойқароми? Аслида, “Ғозий” сўзининг маъноси – арабча “забт этувчи, истило қилувчи” деган маънони билдиради. Адолатни тараннум этувчи Шоҳ Ғозий образи орқали “Ҳақиқий шоҳ қандай бўлиши керак?” деган саволга жавоб бериб борамиз. Алишер Навоий дostonининг IX боби бевосита шоҳ Ғозийга бағишланганини қуйидагича эътироф этади: “Олиймақом султонлар орасида шоҳ Ғозийнинг ҳам марҳаматли вужудида хол борлиғидан сўз юритмакким, Худо унинг мамлакатини барқарор ва шоҳлиғини абадий қилғай”<sup>2</sup>. Дoston ислом дини ва пайғамбарлар ҳаёти асосида қурилган. Асарда “Гумроҳ одамларнинг адаштирувчи қоронғу кечасини ёритиш учун Тангри уларга элчи сифатида ўз одамларини юбориши, одамлар ўзини қандай тутиши кераклиги ҳақида қонун интизомлар чиқариши, уларга раҳбарлик қилиш учун шоҳлар юборилганини айтадилар. Лекин пайғамбарлар орасида Муҳаммад Мустафо Саллолоҳу Алайҳи Вассалламнинг умматидан чиққан бир шоҳ пайдо бўлдики, бошқа шоҳлар унга хизматкор бўлса арзийди”<sup>3</sup> дейди. Улус томонидан “Абулғозий” – шариат қонунларининг шоҳи деб ном берилиши ва бу улуғ зот Ҳусайн Бойқаро эканлигини ёзади.

“Садди Искандарий” дostonининг IX боб сўнгида Навоий қуйидагича илтижо қилади:

*Мулозимларини Искандарсифат эт,  
Адолат уйин “Садди Искандар” эт.<sup>4</sup>*

Навоий Ҳусайн Бойқаронинг саховатини қуйидагича таърифлайди: “Бу жаҳон халқининг пок зотларидан, яратилишида жавохирсифат бўлмишдир. У ҳозир ўзининг улуғ сифатлари билан жавҳарий зотлигини ҳам, гавҳарий поклигини ҳам исботлаб турибди:

*Ки бўлғоч Масиҳога ул муддао,  
Тазарру бирла айлабон юз дуо.  
Юзидин бириким бўлиб мустажоб,  
Ани халқ жонбахш айлаб хитоб<sup>5</sup>.*

Яна унинг узоқ умр кўришини тилаб адолат бобида Исо Масиҳо даражасига етиши, халқ уни “жонбахш” дея улуғлаши ҳам чиройли далилланган. Тангри унинг отига “Тангри султонлигини ҳам, саховаткорлигини ҳам давомли қилғай” дея тақдир битигига ёзилишида ҳам мўъжазлик бор.

*Бори шоҳлар сарфароз бил,  
Искандарсифат Шоҳи Ғозийни бил<sup>6</sup>.*

LXXXIV бобда Ҳусайн Бойқаро ҳамма шоҳларнинг мумтози, бутун дунё халқининг қўриқчиси сифатида ёритилган. Агар Искандар ойна ясатган бўлса, Бойқаронинг юраги ҳар қандай сир учун ойнадир. Шундай экан Искандарсифат Абулғози Султон Ҳусайн ҳамма шоҳларнинг ҳам мумтози эмасми?

*Ети пушти оламга султон келиб  
Атодин ато хон, бин хон келиб.*<sup>7</sup>

Унинг етти авлоди дунёнинг шоҳи бўлган бутун ота – боболаридан қуввати орқали ғойибдан Низомий Ганжавий ва Хусрав Дехлавий каби устозлар билан кўришади, улардан “панжа” яъни “Хамса”га бўлган таҳсинларини тинглайди.

Низомий “Покларнинг арвоҳи Навоий учун йўл очиб боргани”ни айтади. Ганжавий Навоийнинг камтарлигини алоҳида таъкидлаб “Бу юртда бир шоҳ борлигини айтади, у ўта соҳибкамол бўлгани устига унинг олдида мол-у мулкнинг унча қадри йўқдир. У тарбиятқунандалик билан халқнинг дард-у ғамига чора қилувчи адолатпарвар Шоҳ Ғозий одамларнинг энг фозили ва билимдонидир”, дейди. Навоий миннатдорчилик билдириб “сиз шоҳга сано айтдингиз, энди давлат ва салтанат ҳақида ҳам бир дуо қилинг” дейди. Шунда Ганжавий Дехлавийга юзланиб:

*Деди Мир Хусравга донойи роз.*

*Ки: "Сен шоҳи Ғозийгасен мадҳасоз"*<sup>8</sup>

"Ул зот сенинг шеърларингдан кўпгина байтларини ҳам ёдлаган ва унинг таъсири муборак табиатига ҳам сингиб кетган" дея дуо ва нафасини ҳам унга асар қилишини айтади. Хусрав Дехлавий дуо қилади:

"Ё Раб! То одам бор бўлиб, одам боласи яшар экан, бутун одамлар унинг фуқаросига айлансин". Демак, бу ўринда гап тарихий шахс – Султон Ҳусайн Бойқаро ҳақида кетмоқда, шоҳлик Навоий таъбири билан айтганда:

"Шоҳлик – хўл-у қурук демай беҳаловат кезиб, ҳаммаёкни забт этишдан иборат эмас, балки Тангри берган неъматлардан элни баҳралантиришдир"<sup>9</sup>.

Муаллиф айтиб ўтганидек эл-улус манфаатларини ҳимоя қилувчи одил шоҳ Ҳусайн Бойқарони иккинчи Искандар даражасида кўриб, уни адолат-у ҳиммат бобида Шоҳ Ғозий деб улуғлашича ҳақли эди.

Ҳақиқий шоҳ юртини идора қилишигина эмас, ўзидан олдин ўтган авлодлари номига ҳам лойиқ бўлиши кераклигини айтиб ўтади.

Навоий томонидан шоҳ Ғозийнинг Низомий Ганжавий, Хусрав Дехлавий салафлари томонидан эътироф этилиши орқали Ҳусайн Бойқаро руҳига таъсир кўрсатиб унинг адолатини, ҳимматини, афвини, янада орттиришга қилинган ҳаракат ва журъатдир.

Давлат ва жамоат арбоби олим ва муаллим сифатида Навоийнинг Ҳусайн Бойқаро давлатидаги фаолияти алоҳида аҳамият касб этади.

"Навоий султонларга Аллоҳнинг саҳийлиги, уларга имтиёз бериши салтанат осмонида тахтини баланд қилиб, ҳукмини мамлакат бўйлаб ўтказа олиши ўз қудратини, ўз ҳимматини, ўз ҳикмати билан томчини дарёга айлантира олишидадир" деб тушунтириб ўтган. "Худо ҳукмдорлик ишини Ҳусайн Бойқародек шоҳ ишига лойиқ кўриб топширгани, адолат кўрсатиб бидъат, фисқ-фужур ахилларини мамлакатдан йўқотиб шарият, меҳр-муҳаббат билан бошқариши айнан адолатли шоҳнинг хислатларидандир"<sup>10</sup>

Юқоридаги фикрлардан кўринадики, подшоҳ адолати мисоли бир қуёш ва ҳамма жойга бирдек нур сочгани каби, подшоҳнинг афв-у карами ҳам барчага бирдек бўлмоғи лозим. Зеро, бу ҳақда XI асрда яратилган яна бир дидактик асар Юсуф Хос Ҳожибнинг "Қутадғу билиг" асарида шундай муносабат билдиради: "Агар арслон итларга бошчилик қилса, итлар арслонга айланади, агар итлар арслонга бошчилик қилса, арслонлар итга айланади"<sup>11</sup>.

## **ЛАФФАСИЙ ТАЗКИРАСИНИНГ ТАБИБИЙ ВА ХОДИМ ТАЗКИРАЛАРИ БИЛАН ҚИЁСИ**

### **Сурайё Дўстова, ЖДПИ**

Ўзбек адабиёти тарихида тазкирачилик анъаналари Хива хонлиги даврида ҳам ўзига хос тарзда давом эттирилган. Жумладан, шоир ва ижод аҳли хусусида алоҳида тазкиралардан ташқари Мунис, Огаҳий, Баёний, Комёб кабиларнинг тарихий асарларида замима тарзида қимматли маълумотлар мавжуд. Бунга адабиётшунос Б.Валихўжаев фикрларини мисол қилиш мумкин: "Мунис Хоразмийнинг бу асарида ("Фирдавс ул-иқбол") Хоразм диёридаги тарихий, маданий, адабий муҳит, унинг айрим намояндалари ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган. Худди шу манба туфайли адабиёт тарихи учун Мавлоно Вафо, Паҳлавонкули Равнақ, Музаффархўжа Киromийга ўхшаш қаламкашлар кашф етилди"<sup>75</sup>. Шунингдек, Огаҳийнинг "Риёз уд-давлат", "Гулшани давлат", "Шоҳиди иқбол" ва бошқа тарихий асарларида ҳам ўтмишда яшаган ва ўзига замондош бўлган ижодкорлар тўғрисида муҳим маълумотларни қайд этади. "Гулшани давлат" асарида Хивадаги адабий жараён ва унинг вакиллари Муҳаммад Назар, Паҳлавон Ниёзбой ва Холис ҳақида маълумотлар беради<sup>76</sup>. Булар билан бирга Хива адабий муҳити ижодкорлари хусусидаги алоҳида тазкиралар ҳам бунёдга келган. Жумладан, Аҳмаджон Табибий, Бобожон Тарроҳ Ходим ва Ҳасанмурод Лаффасийнинг тазкиралари шундай асарлар қаторига киради.

Лаффасийнинг "Тазкираи шуаро" сини ўзига ёндош тазкиралар – Табибийнинг "Мажмуа си шуаро Ферузшоҳий", Бобожон Тарроҳ Ходимнинг "Хоразм шоир ва навозандалари" тазкиралари билан солиштириб чиқилганда қуйидаги ўзига хос фарқларни кузатиш мумкин:

1. Тазкиралар шоирларнинг сони жиҳатдан бири-биридан фарқ қилади. Аҳмаджон Табибийнинг "Мажмуа си шуаро Ферузшоҳий" тазкирасида 33 нафар шоир ижодидан намуналар берилган. Феруз шоҳ саройида ўн йил давомида шоирлар назоратчиси бўлган Бобожон Тарроҳ Ходимнинг "Хоразм шоир ва навозандалари" тазкирасида муаллиф 31 нафар шоир юзасидан ўн уч саволга жавоб ёзган. Лаффасий тазкирасида эса XIX аср охири ва XX аср бошларида Хоразм адабий муҳитида яшаган 60 яқин (58та) шоирлар ҳақида маълумот ва шеърларидан намуналар берилган. Лаффасий ўз асарини уч бўлимга ажратишни ният қилган. Биринчи қисм 4<sup>b</sup>-

<sup>75</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. -Тошкент.: Ўзбекистон, 1993-118б.

<sup>76</sup> Огаҳий. Гулшани давлат. ЎзФА Шарқшунослик институти фонди инв. №7572-101-102б.



79<sup>b</sup> варақча бўлиб, унда Хиванинг саройга мансуб шоирлари, иккинчи бўлимда эса 80<sup>b</sup>-106<sup>b</sup> варақларда эса Хива шоир уламо ва диндорларига бағишланган. Учинчи қисмда Лаффасий 107<sup>a</sup> варақдан маълумки, Хива шоира аёлларига бағишламоқчи бўлган. Улардан фақат Хўжаева Кишжонбика тўғрисида маълумот беришни бошлаган жойда асар узилиб қолган. Демак, Лаффасий 1945 йилга келиб, мазкур асарига учинчи бўлимни кўшишни ният қилган, бироқ, уни давом эттира олмаган.

2. Тузилиши жиҳатдан ҳам тазкиралар ўзаро фарқларга эга. Табибий тазкираси маснавий – намуна тарзида тузилган бўлса, Бобожон Тарроҳ Ходим тазкираси фақат маълумотлардан иборат. Лаффасий тазкираси эса маснавий-маълумот, маснавий-намуна тарзида тузилган. Бу жиҳатдан Лаффасий тазкираси Табибийга яқин, ҳар иккала тазкирада маснавийлар бир хил мазмунда, яъни “эрур” сўзи билан тугалланган.

3. Шеърий жанрлар билан боғлиқ фарқликлар ҳам борлигининг гувоҳи бўлди. Табибий тазкираси фақат ғазаллардан иборат бўлса, Хоразм навозандаларида маълумотлар билан чекланилган. Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро”сида ғазал, таърих, мухаммас, мусаддас, қасида ва рубоий каби шеърий жанрлар учрайди.

4. Табибий тазкирасида танқидий фикрлар мавжуд эмас. Бироқ, Ходим ва Лаффасий тазкираси XX аср бошларида яратилганлиги сабабли унда танқидий фикрлар мавжуд.

5. Учала тазкирада ҳам тазкиранавислик хусусида ҳеч бир маълумот учрамайди, бироқ улардаги услубий жиҳатлар, шоирлар ижодига оид маълумотлар тазкиранависларнинг ўзидан олдин яратилган тазкиралар билан таниш эканлигини кўрсатади. “Хоразм шоир ва навозандалари” эсдаликлар шаклида бўлиб, Ходим ундаги факт ва манбаларнинг бевосита гувоҳидир. Асар мазмуни уни тазкира дейишга тўла асос беради, чунки “эсдалик дафтари маъносидаги тазкира адабий- танқидий қарашларни ифода этувчи жанрлардан бири бўлиб, унда адабиёт тарихи ёки конкрет даврнинг шоирлари ҳаёти ва ижоди тўғрисидаги қизиқарли маълумотлар келтирилади”<sup>77</sup>.

Учала тазкира ҳам М. Шайхзода қайд этган тазкира узвларига кўп жиҳатдан муштарак. Ходим тазкираси хотиралар асосида тузилгани ва биографик маълумотлардан иборат бўлгани сабабли унда адабий парчалар келтирилмай, ҳар бир шоирнинг адабий жараёндаги ўрни мухтасар қайд этилган. Муҳим жиҳатлардан бири - шоирлар фаолиятидаги кўп қирраликнинг акс кўринади. Шунингдек, Табибий ва Лаффасий тазкиралари ҳам шоирларнинг шахс ва ижодкор сифатидаги қиёфасини кенгроқ гавдалантирган, улар ҳақидаги мавжуд биографик маълумотларни тўлдириш ҳамда янги фактлар билан бойитишга хизмат қилади.

6. Табибий ва Лаффасий тазкираси шеърий дебоча, асосий қисм, ва хотимадан иборат. Мумтоз адабиёт намуналаридаги сингари ҳамд ва наът

---

<sup>77</sup>Валихўжаев Б. Холматов Ш. Ўзбек адабий танқиди тарихи. 1-қисм. Самарқанд, 1983й. 136.

билан бошланади. Ходим тазкирасида тўғридан-тўғри шоирлар ҳақида маълумот берилган.

7. Табибий тазкирасида намуна шеърлар девон тартиб бериш талаблари бўйича жойлаштирилган. Аввало Худо ҳамдига бағишланган “алиф” билан тугалланувчи пайравлар берилган, сўнг бошқа ғазаллар ҳам араб алифбоси тартибда ўринлаштирилган. Лаффасий тазкирасида ҳам намуна шеърларнинг биринчиси Худо ҳамдига бағишланган ғазаллар, бироқ кейинги ғазаллар Лаффасий томонидан танлаб олинган ғазаллар берилган.

Ҳар бир тазкира далил ва маълумотлар характериға кўра муҳим ва ўзига хос, ҳамда Хоразм адабий муҳитида яшаб ижод этган шоирлар, уларнинг шеърларидан намуналар беришда аҳамиятлидир.

Ҳасанмурод Лаффасий Аҳмаджон Табибий ва Бобожон Тарроҳ Ходимни ўзига устоз деб билган ва тазкираларидан илҳомланган ҳолда ўз асарини битган. Зеро, ”улуғ шоирнинг иккинчи шоирға кўрсатган таъсири у яратган поэзиянинг бошқа шоирда кўринишида эмас, балки унинг бошқа шоирда бўлган, лекин ҳаракатсиз ётган кучни уйғотиши ва ҳаракатға келтиришидадир. Куёш нури ерга тушиши билан куёшдаги кучини ерга ўзи билан бирға олиб келмайди, балки ердаги кучни ҳаракатға келтиради. Улуғ шоирлар таъсири ҳам худди мана шу куёш нури сингари мавжуд, лекин ҳаракатсиз ётган кучларни ишға солиб юборадилар”.<sup>78</sup> “Тазкираи шуаро” асари билан Лаффасий тазкиранавислик анъанасининг иқтидорли давомчиси эканлигини намоён этди.

## **ЁШЛАР ЎРТАСИДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

**Замира Сапарова. ЖДПИ Хасанова Нигора. Арнасой тумани, 12- мактаб**

Бугунги тезкор давр инсондан огоҳликни, изланувчан, ижодкор бўлишни талаб этади. Энг юқори чўққиларни, буюк мақсадларни рўёбға чиқариш ҳам китоб мутолааси туфайли амалға ошади. Тарихда ўтган буюк шахсларнинг ҳеч қайси бири буюкликка осонлик билан эришмаган. Улар шу натижаға эришиш учун қанчадан-қанча машаққатларни бошидан кечирган, кўплаб китоблар ўқиган. Ўзбек халқи тарихиға назар ташлар эканмиз, китоб мутолааси туфайли ўз даврида кадр топган аждодларимиз беҳисоб эканиға гувоҳ бўламиз. Аждодларимиз ҳақида сўз борганда, 70 дан ортиқ тилни билган қомусий алломағиз Абу Наср Фаробийни алоҳида ҳурмат билан тилға оламиз, сабаби кўп тилни билиш учун, бир вақтда бир неча соҳа (тарих, мусиқа, ҳуқуқ) да асарлар яратиш учун ҳам аждодимиз тинимсиз китоб мутолаа қилган эканлар. Бундан кўринадики, китоб инсоннинг энг яқин дўсти, ҳаёт йўлини ёритувчи машғаладир.

Юртимиз келажаги ёшларнинг ҳаётида китоб мутолаасининг аҳамияти ҳақида сўз борар экан, педагог ходимлар зиммасиға юксак маъсулият

---

<sup>78</sup>Белинский В.Г. Собрание сочинений, В.3т.Т.1.М.:Изд-во, АН, 1948.с,164-165.

юкланади. Устоз ўз шогирдини китобга қизиқишини ошира олса, қизиқиш муҳаббатга айланиб китобсевар ўқувчини кутубхона томон чорлайди. Ўқувчиларда китобга муҳаббат уйғотиш, уларнинг китобхонлигини оширишда фан ўқитувчиларининг ҳам, кутубхонанинг ҳам роли катта, деб ўйлайман. Ҳар бир фан ўқитувчиси дарс жараёнида, мавзуга боғлиқ ҳолда турли усуллар ёрдамида ўқувчиларни китобхон бўлишга ундаши зарур. “Китоб ўқи ! Шунда ўзингга яхши бўлади”, деган одатий гаплар билан ўқувчиларни китобхонликка ўргатиш қийин. Чунки бугун одамлар учун китоб ўқишдан кўра осонроқ ва қизиқарлироқ машғулотлар ҳам, ермаклар ҳам кўпайиб кетган.

Ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилишда она тили ва адабиёт дарсларида ўқувчиларни китоб ўқишга қизиқтиришнинг қуйидаги усулларидадан фойдаланиш мумкин:

- От сўз туркуми бўйича мустаҳкамлаш дарсида қўшимча торширик учун бадиий асарлардан фойдаланилади. Масалан: Ғафур Ғулومнинг “Шум бола” асаридаги жой номларини топиш бўйича кичик мусобақа ўтказиш.
- Сифат сўз туркумини ўтаётганда, фаол ўқувчилар учун қўшимча топширик сифатида Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” асаридаги Кумушбиби портретидаги сифатларни топиш торширик қилиб берилади.
- Она тили ва адабиёт тўғрақларида оғзаки нутқни ўстириш учун “Ўзбек халқ мақоллари” китоби асосида машғулотлар ўтказиш.
- Гапларни синтактик таҳлил қилиш учун Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романидан парчалар олиш.
- Адабиёт дарсларида асар таҳлили жараёнида саҳнавий кўринишлар ташкил қилиш. Масалан: Ойбекнинг “Навоий” романи асосида.

Юқоридаги жараёнларнинг барчасини қўллаш ўқувчиларни китобга бўлган қизиқишларини оширишга хизмат қилади.

Шунингдек, китобхонлик маданиятини оширишда ота-она ва фарзанд ўртасида дўстона муҳит яратиш лозим. Ота-оналарга: “Фарзандингизни мутолаага қизиқтириш учун ўзингиз ҳар куни у билан камида ярим соат китоб ўқинг. Бу жараён бола учун худди ўйин ўйнаётганидек мароқли бўлсин”, дейишмоқда психологлар. Зеро, “Қуш уясида кўрганини қилади”- деганларидек, ота-онанинг намуна бўлиши фарзанд камолотида муҳим ўрин тутади.

Шу ўринда, ота-оналарга жаҳон олимлари томонидан аниқланган китоб ўқишнинг фойдалилиги борасидаги тадқиқотлар натижаларини маълумот учун келтириб ўтамиз.

Китоб мутолааси:

- 1.Сўз бойлигини оширади;
- 2.Хотирани мустаҳкамлайди;
- 3.Ҳаётда фаолликка ундайди;
- 4.Қийинчиликни енгишга ёрдам беради;
- 6.Тушкунликка қарши курашади;
- 7.Мия фаолиятини яхшилади;
- 8.Қалбни юмшатади;
- 9.Уйқусизликка ёрдамчи;

10. Асабни юмшатади.

Шунингдек, китоб мутолааси :

1. Ёзувчилик қобилиятини ривожлантиради;
2. Чет тилини ўрганишни осонлаштиради;
3. Тинглаш қобилиятини ривожлантиради;
4. Ижодкорлик қобилиятини ривожлантиради;
5. Касалликлар олдини олади;
6. Ота-она ва боланинг муносабатини яхшилайдди;
7. Молиявий қийинчиликларни бартараф этади;
8. Дарслар яхши ўзлаштирилади;
9. Яхши ҳикоянависга айлантиради;
10. Яхшилик қилишга ундайди.

Бугунги ёшлар нафақат моддий, аввало, маънавий жиҳатдан эркин бўлиши, дўстни душмандан ажратиши, миллий ғоя билан бирга умумбашарий кадриятларни ўзида мужассамлаши, шакллантириши учун уларнинг ақл-заковатини, тафаккурини, маънавиятини мунтазам шакллантириб бориш даркор. Китобхонликни тарғиб қилиш борасида амалга оширилаётган ислохотлар ёшларни маънавиятини юксалтириш, бўш вақтини мазмунли ташкил этишни назарда тутди. Китоб мутолаа қилган инсон ҳар қандай машаққат ва қийинчиликларни ўйланмай енгиб ўта олади. Шунинг учун ҳам ёшларнинг китобхонлик маданиятини оширишга эътибор юрти тараққиёти учун ўзини масъул деб билган ҳар бир инсоннинг олий мақсади бўлиши лозим.

#### **Адабиётлар:**

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.:Маънавият, 2008.
2. Ислом Каримов. Баркамол авлод орзуси. -Т.:Ўзбекистон, 1999.
3. Тил ва адабиёт таълими. //2018-йил, 6-сон.

## **LUG‘AT XUSUSIYATLARI**

### **Z.Jumayeva katta o‘qituvchi Murod Ismoilov talaba**

Lug‘at bizning hayotimizga, o‘quv jarayoniga shunchalik singib ketganki, lug‘atning o‘zi haqida bilmaydigan odamni topish qiyin. Shunday bo‘lsa-da, Ojegov S.I. izohiga e’tibor beramiz: «Lug‘at - so‘zlarning izohi yoki boshqa tilga tarjimasini berilgan alifbo tartibidagi to‘plam». Haqiqatan ham, bu izoh bizning lug‘at haqidagi tasavvurimizga to‘la mos keladi. Hozirgacha lug‘atchiligimiz tajribasida eng to‘g‘ri, eng oqilona, nisbatan qulay yo‘l deb shu usul tan olingan. Lekin bu fikr nisbiy. 200000 dan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at muallifi, buyuk leksikograf V.I.Dal shunday yozadi<sup>79</sup>: «Алфавитный способ расположения слов крайне туп и сух. Самые близкие и сродные речения разносятся далеко врозь и томятся тут и там в одиночестве; всякая живая связь речи разорвана и утрачена..., читать такой словарь нет сил, на десятом

---

<sup>79</sup>V.I.Dalning fikrini o‘z tilida keltirildi.

слове ум притупеет и голова вскружится, потому что ум наш требует во всем какой -нибудь разумной связи, постепенности и последовательности». Хо‘sh, so‘zlar lug‘atda qaysi tamoyil asosida joylashmog‘i lozim? Til - sistema. U ongimizda ham shu tartibda o‘z aksini topgan. Shu yerda mashhur olim N.V.Krushevskiyning so‘zlarini yodga olamiz: «Hech qachon tilning asosiy xarakterini unutmaslik lozim. So‘z - narsaning belgisi. So‘z va narsa haqidagi tasavvur assotsiatsiya haqidagi qonun asosida juftlik hosil qilgan. Shunday ekan, so‘zlar bizning ongimizda ham o‘zi anglatadigan jismlar guruhi kirishi kerak».

So‘zlarning lug‘atda joylashuvi masalasiga qaytamiz. So‘zlarning tabiati (talaffuz va ma’no) 2 xil prinsipni keltirib chiqaradi:

- a) talaffuz yaqinligi asosida;
- b) ma’noviy yaqinlik asosida

Birinchi prinsip alifbo tartibidagi lug‘atlar yaratishga zamin hozirlaydi. Bu lug‘atlarning afzalligi haqidagi to‘xtalishga hojat yo‘q. Lekin alifbo tartibidagi lug‘at so‘zlar va bizning olam haqidagi sistema asosida birlashgan bilimlarimizga to‘g‘ri proporsional emas. Bizningcha, V.I.Dalning ta’nali fikrida jon bor.

Alifbo tartibidagi lug‘atlarga qarama - qarshi tartibli, ya’ni so‘zlarning ma’noviy yaqinligi asosida birlashish prinsipi ideografik lug‘atlar tuzilishiga olib keladi. Ideografik lug‘at nima? Grekcha idea - tushuncha, idea, obraz va grapho yozaman so‘zlaridan kelib chiqqan. Tabiiy savol tug‘iladi: ideografik lug‘at qanday muammolarni yechadi, ilmning qaysi sohalarida u amalda bo‘lishi mumkin? Bu savollarga chet ellik leksikolog va leksikograflar X.Kasares, V.Fon Vartburt, F.Dornzayf, I.A.Gulyanov, I.I.Srednevskiy, L.V.Herba, M.Morkovkinlarning nazariy ishlarida javob topishimiz mumkin.

Ideografik lug‘at muammosi rus tilshunosligida o‘z tarixiga ega. Uning nazariyasini ishlab chiqishda akademik L.V.Herbaning o‘z o‘rni bor.<sup>80</sup> Ideografik lug‘atlarning quyidagi asosiy ko‘rinishlari bor:

1. Ideografik tezaurus. Tezaurus tipidagi ideografik lug‘atlarda so‘zlar qat’iy mantiqiy falsafiy tasnif asosida joylashtiriladi.

2. Analogik lug‘at. Bunday lug‘at mualliflari so‘zlarning falsafiy - mantiqiy tasnifi asosida ish ko‘rmaydilar, balki ma’noviy - alifboviy usulni ma’qul ko‘radilar. Analogik lug‘atlarda so‘zlarning lug‘aviy ma’noviy guruhlar to‘dasi alifbo tartibida joylashtirilgan bo‘ladi.

3. O‘quv tematik lug‘ati. Leksikografiya tarixida ingliz, fransuz, nemis, ispan tillari materiali asosida tuzilgan lug‘atlar talaygina. Bizning ishimiz ana shu tipdagi lug‘atga oid bo‘lgani uchun shu lug‘at xususiyatlari ustida atroflicha to‘xtalamiz.

Namunaviy o‘quv ideografik (tematik) lug‘ati sifatida 1847- yilda tuzilgan K.Plotsning qayta - qayta nashr ettirilgan lug‘atini ko‘rsatish mumkin. Bu lug‘atda barcha so‘zlar 33 mavzuiy guruhlariga bo‘lingan. Har bir guruh o‘z ichida yana kichik guruhchalarga bo‘linadi. Masalan, nisbatan katta «Shahar» guruhi quyidagi kichik guruhchalardan iborat: *umumiy so‘zlar, ko‘cha, ko‘prik, kommunal xizmat, jamoat korxonalar*iyoki «Salomatlik va kasallik» guruhi quyidagi bo‘limchalardan

---

<sup>80</sup> Л.В.Щерба. Опыт общей теории лексикографии. «Известия АН СССР», ОЛЯ, 1940, №3

iborat: *kasalliklar, baxtsiz voqealar, vrach, dori, davolash, tana shikastlanishiva* hokazolar. Ba'zi so'zlarning ishlatilishi haqida illyustrativ misollar keltiriladi.

Rus tilshunosligida ideografik lug'at tuzishga ilk bor bolgar tilshunoslari K.Babov va A.Vorgulevlar qo'l urishdi<sup>81</sup>. Bu mualliflar juda izchil nazariy asosga ega bo'lmasalar-da, 25 ming ruscha so'z va iboralarni 8 katta mavzuiy guruhga birlashtirishdi: «Kishilik jamiyati», «Odamga g'amxo'rlik», «Iqtisod», «Ta'lim va madaniyat», «Jismoniy tarbiya va sport», «Tabiat».

Har bir tilning leksikasi o'sha tilda gapiruvchi uchun aktiv va passiv holatda bo'ladi. Aktiv qavatga kundalik so'zlashuv so'zlari kiradi, nutq jarayonida u so'zlarni miyamizdan axtarib o'tirishga hojat yo'q. Bu so'zni aytishga ehtiyoj tug'ilgan zahotiy oq so'zni talaffuz etamiz. Passiv so'zlar esa biz biladigan, lekin kundalik nutqimizda kam ishlatiladigan so'zlardir.

Bu fikrlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: eshitganimiz va o'qiganimizni tushunishga yordam beruvchi lug'atni (alifbo lug'ati) foydali deb hisoblaymiz. So'zlarni butun mohiyati va sistemasi bilan ko'z oldimizga keltiruvchi lug'at (ideografik lug'at) esa ma'lum bir til imkoniyatlaridan bemalol va oson foydalanish imkoniyatini beradi. Shuning uchun bu zaruriy lug'atlardan biridir. Bu lug'at tilning xazinasidir.

Barcha uni tashkil etuvchi birliklari orasida kuchli semantik munosabat yaqqol ko'rinuvchi lug'atlarni «tezaurus» deb ataymiz, – yozadi Karaulov Y.N.<sup>82</sup>

Roje o'z lug'atining so'zboshisida aytadi: "Bog'li matn tuzayotgan yozuvchi yoki xohlagan kishi nima demoqchiligini yaxshi bila turib, ayni paytda o'rinli ibora yoki so'zni topolmasa, boy, kerakli so'z tez topiladigan, to'g'ri sistemalashtirilgan, guruhlariga bo'lingan bir kitobdan yordam oladi. Bir so'z bilan aytganda, tezaurusga murojaat etadi». Boshqa bir ideografik lug'at muallifi X.Kesares bir akademik haqida eslaydi. Suzib ketayotgan kema ichida tug'ilgan kishi qanday atalishini bilmoqchi bo'lgan akademik odatdagi izohli lug'atdan bu so'zni topish uchun nafaqat 200000 kalit so'zga ko'z tashlab chiqishi, balki u so'zlarning izohini ham o'qib chiqishga majbur. Bu ishga odam jismonan qodir emas.

## **“QORA KITOB” ASARI VA BUGUNGI HAQIQATLAR**

### **Boysinov S, JDPI katta o'qituvchi Xolmo'minova A. JDPI talabasi**

Modernizm - XIX asr oxirlaridan boshlab maydonga chiqqan norealistik oqimning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Ushbu termin fransuzcha "eng yangi, zamonaviy" so'zidan olingan bo'lib, realistik va norealistik yo'nalishlar orasida ziddiyatning muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitida quyushlab keskin namoyon bo'lishi, yangilangan nazariy asoslarga ega bo'lishi va ommalashuvi sifatida qarash mumkin.<sup>83</sup> Jahon adiblaridan F.Nitsshe, J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu kabi yozuvchilar modernizm yo'nalishida samarali ijod qilganlar. O'zbek adiblaridan esa M.M.Do'st, A.A'zam, O.Muxtor, N.Eshonqul, N.Arslon, Faxriyor, Oydinniso

<sup>81</sup> Babov K., V'rgulev A. Tematichен русско - български речник.- София, 1961.

<sup>82</sup> Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. - М.: Прометей, 1990.

<sup>83</sup> U.Hamdamonov. Jahon adabiyoti. Toshkent. 2016. 96-bet.

kabilar modernizm yoʻnalishida oʻz asarlarini taqdim etishadi. Shular orasida Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasiga nazar tashlasak.

Asarda inson atalmish mavjudot shaytonning kirdikorlariga aldanib qolganligi tasvirlangan. Unda “... faylasufona donishmandlik va ruhiy kechinmalar bayoni hamda bosh qahramonning oʻz-oʻzini taftish etishi yetakchilik qiladi. Qissa birinchi shaxs tilidan yozilgan boʻlib qahramon oʻz hayotiga nazar tashlaydi”<sup>84</sup>. Taqdirini “Qora kitob” hal qilishiga izn berganligi uchun oʻz-oʻzidan nafratlanadi.

Nega aynan “QORA KITOB”? Bahodir Karim aytganidek “uni tushunish va tushuntirish oson emas.” Asrlar davomida qora rang yovuzlik va tubanlik ramzi boʻlib kelgan. Asar insonlardagi pastkashlikni, yomonlikni, umumlashtirib aytganda “shayton nomi bilan” qilinadigan yovuzliklarni kitobxonga anglatuvchi manbaadir. Asarni oʻqish chogʻida insonning qoniga gunoh qilish Odam Atodan meros qilib qoldirilganmikan, — deb oʻylab qolamiz. Har bir insonning ichida shayton bor deyishadi. Shayton oʻz istagini amalga oshirish uchun har bir imkoniyatdan foydalanishga urinadi. Faqatgina irodasiz, qatʼiyatsiz insongina shayton istagini amalga oshirishda vosita rolini bajaradi. Voqealar sujetini kuzatayotganingizda beixtiyor xayolingizga “Don Kixot” asari keladi. Asar bosh qahramoni Don Kixotni ritsarlik kitoblari boshqarganidek, “Qora kitob”dagi obrazni ham qora kitob “boshqaradi”. “Qissa matnida “Inson yovuzlikning ijodkori”, “Rost gap faqat falokat keltiradi”, “Umr bu osmonga tupurish soʻng osmondan tushgan tupugini yutishdir”, “Adashayotgan odam yoʻl izlayotgan odamdир”, “Kimning qoʻli qon u adolat peshvosi, kimning yolgʻon, aldov piri — u rostgoʻylik timsoli, kim jaholatparast-u donolik ramzi” kabi haqiqatning achchiq va kinoyali mevalari boʻlgan hikmatlar koʻp uchraydi.”<sup>85</sup>

Asarlarda onaning oʻlimini koʻp uchratamiz-u, ammo onasini hali murgʻak goʻdak yeb bitirishi kutilmagan holat. Balki, qizaloq: — ona ikki iblis tugʻdingiz, endi iblis tugʻish mening navbatim, —deb onasining vafotini xohlagandir. Chunki tomirida iblis qoni oqayotgan insondan har nimani kutish mumkin. “U kechasi uxlab yotgan joyida ham koʻkrakni soʻrib yotar, xotinimni biroz tin olgani qoʻymasdi. Koʻkrak ogʻzida turmasa uxlamas, goʻyo u onasini butkul soʻrib bitirmoqchiday edi”<sup>86</sup>. Yoʻq uni inson deb boʻlmaydi, uning qilmishlari inson nomiga nomunosibdir. Ota esa endi oʻz qizining qotili. Sababi qizning vujudida shayton farzandi ulgʻaymoqda. Ota hatto oʻgʻillarining ham, yoʻq, shu vaqtgacha “oʻgʻlim” deb kelayotgan shaytonvachchalarning ham qotili. Lekin uni qotil deb boʻladimi? Axir u insoniyat olamidani odam koʻrinishidagi shaytonni yoʻq qilishga urindi! Afsus, iblis inson hayotidan yoʻq boʻlmadi.

“Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasini turli nuqtayi nazardan tahlil etish mumkin. Matn shunga imkon beradi. Umuman olganda, rahmoniy kitoblardan chekinib, Choʻqqi soqol eʼtiqod qilgan qora kitobdek iblisona dasturlar vositasida tarbiyalangan avlodning holi xarob boʻladi. Shu maʼnoda “Qora kitob” qissasi ogohlikka daʼvat hamdir”<sup>87</sup>. Asarda aytilganidek, iblis har doim inson bilan

84 B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent. — 2018. 8-bet.

85 B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent. — 2018. 8-bet.

86 N.Eshonqul. Qora kitob. Sharq. — 2008. 209-bet

87 B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. Toshkent. — 2018. 8-bet.

birga. Insonman deb shayton qiliqlarini qilayotganlar uchun Xudo yo‘q. Ularning xudosi, ular sig‘inayotgan yagona zot shaytondir. Ha, ularni hech ikkilanmay shayton farzandi deyishimiz mumkin. Shon-shuhrat ko‘zini ko‘r qilib qo‘ygan insonni boylik, martaba evaziga qalbini shaytonga almashgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kim biladi, shayton bu olamda yana qancha zurriyodini yaratdi ekan?! Yana qancha onalarning farzandlarini shayton o‘z bolasi bilan almashtirib qo‘ydiykan?! Muhimi, qalbizda iymon, Ollohga ishonch, g‘am-g‘ussaga sabr bo‘lsa, ichimizdagi shayton bizni o‘z yo‘rig‘iga yurgiza olmaydi.

#### **Adabiyotlar:**

1. U.Hamdammov. Jahon adabiyoti. –Toshkent,. 2016.
2. N.Eshonqul. Qora kitob. Sharq . – 2008.
3. B.Karimov. Ruhiyat alifbosi. –Toshkent, – 2018.

### **O‘QUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Z.Jumayeva katta o‘qituvchi, Qo‘ziboyev Navro‘z talaba**

“Ta‘lim to‘grisida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan asosiy maqsad yuksak tafakkur sohibini tarbiyalashdir. Yuksak tafakkur sohibigina ijodiy fikrlay oladi hamda fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda ravon ifodalash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Ta‘lim muassasalarida o‘quvchilar til materiallarini shunchaki o‘rganibgina qolmay, balki ularning mohiyatini anglab, til hodisalari orasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini kuzatib, qiyoslab, umumlashtirib o‘z bilimlarini boyitib boradilar. Bunda ona tilini o‘qitish uning grammatik xususiyatlarini farqlash va ona tilida yozma hamda o‘g‘zaki nutqni to‘g‘ri yozish kabi vazifalar belgilanadi. Bu o‘rinda o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirish asosiy vazifalardan biri bo‘lib, o‘quvchilar tafakkurining rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham o‘quvchilarga ona tili darslarida nazariy bilimlar berish bilan birga ularning yozma nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutq esa tafakkur bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishga e‘tibor hamisha o‘qituvchining diqqat markazida turadi. O‘quvchilar yozma nutqini o‘stirishda, ayniqsa, badiiy so‘zning ahamiyati kattadir. Chunki o‘quvchilarning so‘z boyligi yetarli bo‘lishi tabiiy so‘zlarni nutqda qo‘llay olishi, o‘zi va tengdoshlarining yozma nutqini, yozma ishlarini baholay olishi bilimlarni oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

Bizga ma‘lumki, ta‘lim tizimida fanlarning ko‘pchiligi bevosita o‘quvchining tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini o‘stirish, uning bilimini oshirish maqsadiga yonaltirilgan. Bu fanlar orasida adabiyotgina o‘quvchining ko‘hgli, uning ruhiyati va ma‘naviyatini shakllantirishga qaratilgan.

Bugungi kun ta‘lim tizimi oldida o‘quvchilarning ta‘lim jarayonidagi mustaqil va ijodiy faolligini oshirish, ularni bilimlarni mustaqil egallashga, o‘z ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga tayyorlash masalasi turibdi.



Ushbu maqsadni amalga oshirishda, o'quvchilarning dunyoqarashini va yozma nutqini shakllantirishda, til imkoniyatlaridan to'g'ri va unumli foydalanish madaniyatini tarbiyalashda ona tili va adabiyot darslarida olinadigan ijodiy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning asosiy omillaridan biri ularni o'ylashga, fikr bildirishga, mantiqiy xulosa chiqarishga intiltiruvchi zarur bilimlar berishdir. Buning uchun har bir darsni o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishga moslab yo'naltirishga harakat qilish maqsadga muvofiq.

Adabiy til me'yorlari, grammatik bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, ularni amaliyotda qo'llash asosida egallanadi. Bu esa, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri, ravon, aniq va tushunarli ifodalash imkonini beradi. Ona tili va adabiyot fanlarida o'tkaziladigan insholar savodxonlik darajasini tekshirishning sinalgan usullaridan biri sanaladi.

Insho so'zi aslida arabcha so'z bo'lib, "paydo qilish", "ijod", "yuzaga keltirish", "yozuv", "sochma asar", "xat" singari ma'nolarni bildiradi. Insho yozish tartibi ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Inshoning qoralama nusxasini tayyorlash.

2. Uni oqqa ko'chirib yozish.

O'quvchi ushbu bosqichlarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratadi:

a) qaysi mavzuda nimalar haqida yozishni o'ylab ko'radi;

b) mavzuga oid materiallarni, masalan, yozuvchi, uning hayoti va ijodi, yozgan asarlari, insho yozilayotgan asarning yozuvchi ijodida tutgan o'rni, asarning mavzusi va g'oyaviy yo'nalishlari, bosh qahramonlari, asardagi voqealar, asar qahramonlarining xarakteri yuzasidan kerak bo'ladigan holatlarni esga oladi va ularni qog'ozga tushiradi;

v) insho bo'yicha eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yig'ib, mavzuni yoritish uchun o'ziga ma'qul usulni tanlaydi;

g) insho ushuni reja tuzib, uni yozishga kirishadi;

d) inshoni yozayotganda fikrlarning izchilligiga, materiallarning aniq va lo'nda shakllarda berilishiga alohida e'tibor qaratadi;

e) inshoning qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni diqqat bilan o'qib, insho mavzusi etarlicha yoritilganligiga, mazmuniga, ortiqcha so'z va gaplar yo'qligiga e'tibor beradi;

j) uni oqqa ko'chirish jarayonida amaldagi husnixat qoidalariga va insho yozishning o'ziga xos tartiblariga qat'iy rioya qiladi.

Insho yozayotgan o'quvchi o'zining keng mulohazaga, teran fikrga, aniq bir dunyoqarashga egaligini anglatish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan, unga ohangdosh tarzda jaranglovchi hikmatli so'z hamda gaplardan, maqol va matallardan muqaddima so'zi sifatida ustalik bilan foydalanadi. Inshoning asosiy qismida o'quvchining ishning butun mazmunini, g'oyaviy uyg'unliklarini va yo'nalishlarini, dunyoqarashini, fikrlash doirasini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Insho yozish jarayonida o'quvchining bilim va malakasi mustahkamlanadi, sinchkovligi ortadi, o'z fikrini izchil, aniq bayon qilish

ko'nikmasi shakllanadi, har bir ishni aniq reja asosida bajarish ruhida tarbiyalanadi, xushmuomalalik, shirinso'zlik kabi insoniy fazilatlarni shakllanadi.

## **GAZETA TILIDAGI TANQIDIY MATERIALLARDA QO'SHMA GAPLAR STILISTIKASI**

**Xurshid Maxammadiyev Ungarova Dilobar. JDPI talabasi**

Ma'lumki, mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq tilimizni yanada rivojlantirish, ayniqsa, ta'lim tizimining hamma bosqichlarida ona tili va adabiyotini o'qitish sifatini tubdan o'zgartirish, talabalarga nutq madaniyati va uslubiyat, davlat tilida ish yuritish bo'yicha yetarli ma'lumotlar berish, tilimizning amal qilish imkoniyatlarini kengaytirish, buning uchun esa ta'lim tizimi bilan bir qatorda ommaviy axborot vositalari tilini takomillashtirish, zamonaviy talablar darajasidagi zarur darslik va qo'llanmalar yaratish kabi masalalar kun tartibidan o'rin egalladi.

Ilm-fan, texnika keskin sur'atlarda taraqqiy etayotgan bugungi kunda hayotni gazeta-jurnallar, internet, radio va televideniyesiz tasavvur etish qiyin. Chunki inson hayotda bo'layotgan har bir o'zgarish, moddiy va ma'naviy sohalaridagi yangiliklardan dastlab gazeta va jurnallar orqali xabardor bo'ladi. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati bu masalaga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda rivoj topayotgan fan-texnika taraqqiyoti, axborot ma'lumotlari ommaviy axborot vositalarini takomillashtirishni, ularning tili va uslubini yanada yaxshilashni kun tartibiga jiddiy qo'ymoqda. Bu boradagi ishlarni jadallashtirishga da'vat etilmoqda. Shuning uchun nafaqat ravon gapiradigan, balki gazeta va jurnallarda sifatli va savodli maqolalar yoza oladigan, ommaviy axborot vositalari orqali ma'ruzalar qila oladigan turli soha mutaxassislariga ehtiyoj ortmoqda.

Bilamizki, tanqidiy maqolalarda qo'llanilgan qo'shma gaplar ham o'ziga xos o'rin tutadi. Ular jurnalist fikrlarini umumlashtirib, bir tizim asosida bayon qilishiga, shuningdek, fikrlarning o'zaro bog'lanib, biri ikkinchisini to'ldirishiga yordam beradi. Masalan: Kolbasa, umuman, oziq-ovqat mahsulotlarining nohaloli ham bo'lar ekan-da, biz iste'mol qilib turgan boshqa kolbasalar-chi, degan savol tug'iladi (Turkiston, 02.05.2009), "O'zbek tili stilistikasi" kitobda yozilishicha, "Hozirgi o'zbek tili nutq stillarining qariyb hammasida, ayniqsa, badiiy va publitsistik asarlarda komponentlari hatto, faqat, yolg'iz, -gina yuklamalari; ya'ni, masalan, ayniqsa, jumladan, shaxsan kabi kirish so'zlar; deylik, demak, boshqacha aytganda, shunday qilib kabi fe'l-kirishlar, shu bilan birga, kabi birikmalar, emas to'liqsiz fe'li va boshqalar yordamida bog'langan qo'shma gap tiplari ko'p uchraydi. Bu vositalar, asosan, uslubiy vazifa bajaradi: ular orqali shakllangan qo'shma gaplar miqdor-qurilishi jihatidan bog'lovchili qo'shma gapning u yoki bu tipiga (bog'langan yo ergash gapli) o'xshasa ham, mazmun-hukm nuqtai nazaridan o'ziga xos ayrim tomonlari bilan ajralib turadi. Bunday gaplarda ayni bir fikr ikki sodda gap orqali berilib, ikkinchi qism birinchi gapda berilgan fikrga aniqlik kiritadi, izohlaydi; u yoki bu belgini ta'kidlash, kuchaytirish maqsadida u gap

alohida zarb bilan aytiladi; fakt yo hodisalar solishtiriladi; nihoyat, badiiy va publitsistik asarlarda fikr tadrijiy rivojlantiriladi”<sup>88</sup>.

Tanqidiy maqolalarda qo’shma gap qismlarining o‘zaro moslik holatida bo‘lishi gapda ifodalangan mazmunning gazetxonlarga tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Birinchi gapdagi birinchi komponentda ifodalangan mazmun keyingi komponentda to‘ldirilgan, izohlangan bo‘lish hollari ko‘p uchraydi.

Umuman, bog‘lovchisiz qo’shma gaplarda ta’siriy bo‘yoq, tasviriylik, jozibalilik kuchli bo‘ladi; ifoda ravonligi bilan ajralib turadi. Ba’zan buning aksi ham bo‘lishi, ya’ni muallif asosiy e’tiborini qo’shma gapning birinchi qismiga qaratishi mumkin. Bunda ta’kid ma’nosi kuchli bo‘ladi: Tanqidiy maqolalarda shaxs xarakterini yoritishda faktlarni, muallif munosabatini bildiruvchi so‘zlarni keltirish ham asosiy o‘rinni egallaydi. Shu jumladan, viloyat «Issiqlik manbai»ga ham borib, Nodira ismli qizga uchrashgandi, u bir parcha qog‘ozga “608.768 so‘m qarzingiz bor”, deb yozib berdi (Adolat sari, 22.08.2013).

Tanqidiy maqolalarda qo’shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar muhim grammatik va uslubiy vazifa bajaradi. Ular yordamida sodda gaplar birikib, bir butun shaklga kiradi va matn mazmunini ochishga yordam beradi. Quyida bu yaxlitlik ergash gap hamda bosh gapning o‘zaro bog‘lanishida ko‘rinadi: U o‘rtog‘ining taklifi bilan ichkariga kirarkan, hovlidagi talaba yigitlar orasidan “do‘stini uyda yo‘q” degan yigitni topib, uni haqoratlay boshladi (Adolat sari, 22.08.2013).

Qo’shma gaplarning tanqidiy maqolalarda matn mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi uslubiy vositaga aylanishi uning komponentlarini o‘zaro aloqaga kiritishga xizmat qiluvchi lisoniy vositalarga bog‘liq bo‘ladi.

Tanqidiy maqolalarda sodda gaplarni bog‘lashda ishtirok etadigan ta’kid yuklamalari jurnalist fikrlarini ta’kidlashdan tashqari afsus ma’nosini ham ifodalab keladi. Qo’shma gaplar qaysi ko‘rinishda bo‘lmasin, tanqidiy maqolalarda jurnalist maqsadining amalga oshishiga xizmat qiladi. Uslubiy jihatdan turli ma’no nozikliklarini ifodalashda hamda uslub bo‘yoqlarini berishda, qo’shma gap tarkibida ishtirok etgan sodda gaplarni chegaralashda, ularning o‘zaro munosabatini belgilashda, ayniqsa, ergash gapning nima maqsadda qo‘llanganini ko‘rsatishda bog‘lovchilar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Yuqoridagi misollarda bog‘lovchi vositalar muhim ahamiyat kasb etgan.

Umuman olganda, qo’shma gaplar tanqidiy materiallarda tutgan o‘rni va bajaradigan vazifasiga qarab jurnalist kommunikativ maqsadining amalga oshishiga, muallif fikrlarining aniqligi, ifodaliligini ta’minlashga, matn mazmunidan anglashilgan emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qiladi.

## **IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI** **Elmira Hazratqulova Dilnoza Ilhomova JDPI talabasi**

---

<sup>88</sup> Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси.-Тошкент: Ўқитувчи, 1983. 203 бет.

Yangi-yangi kashfiyotlar, har xil texnologiyalarning kirib kelishi insoniyatning hayoti, turmushini o'zgartirgani bilan ular qalbidagi javobsiz so'roqlar, his-tuyg'u va kechinmalar, bir umr qiynaydigan azoblar barqaror turaveradi. Shu ma'noda inson qalbini o'rtayotgan so'ngsiz armonlarga malham bo'lish adabiyotning vazifasidir. Epik tur janri bo'lmish roman bu vazifani bajarishda asosdir. "Har qanday milliy iqtisodiyotning ravnaqi unda og'ir sanoatning rivojlanganlik darajasiga qarab baholanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissasi ham undagi romanchilikning salmog'i bilan belgilanadi."<sup>89</sup> O'zbek romanchiligi taraqqiyotiga tamal toshni qo'yib bergan A.Qodiriy, keyinchalik uning ishlarini davom ettirgan ijodkorlar Oybek, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, T.Murod kabi zabardast yozuvchilar ulkan hissa qo'shganlar.

"Bonu" romani hozirgi globallashuv zamonidagi, texnika asridagi insonlar qiyofasini ochib bergan asardir. Asarda sof insoniylik kuylanadi. Romanning Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asari kabi sentimental-xat yo'nalishida yaratilishi ham g'oya va mazmunning ochib berilishida muhim ahamiyatga ega. Zero, adabiyotshunos Ibrohim G'afurov ta'kidlaganidek, "Inson jozibasi nima ekanligi, mazmun-mohiyati nimada ekanligi biz Bonu bitiklari orqali yurak-ongimiz alam-nomusdan xinadek ezilib, u bilan birga xinadek ezilib, u bilan birga dod-u faryod ko'tarib... kuzatib boramiz"<sup>90</sup>. Shundan kelib chiqqan holda bu roman zamona og'riqlarini, jamiyatdagi badbinliklarni, bunga qarshi inson irodasining kurashini tasvirlab beradi. "...dunyoning yaxlitligi-yu butunligini, mavjudlikning tub mohiyatini anglash romanning bosh muammosi bo'lsa, qahramonning dunyo bilan ziddiyati o'sha muammoni hal qilish vositasidir"<sup>91</sup> — so'zlari fikrimizga yaqqol isbotidir. "Bonu" romanidagi obrazlar hayot haqiqatini buzmaydi, o'z xarakteri, ichki olamiga qarab asarda harakatlanadi. "Murod-maqсадiga yetibdi", — kabi baxtli yakunlarga o'rganib qolgan kitobxon bu asar ta'sirida biroz "dovdirab" qoladi. Buning sababi biz hayotda topolmagan adolatni, qo'rsab yashaydigan mehr-u muhabbatni adabiyotdan izlaymiz. "...adolat va haqiqat tushunchalarini turmush taloto'plari quyuni shu qadar bizdan yiroqlashtirib, osmon-u falakka olib chiqib ketdiki, endi bu mezonlar faqat arshi a'lodagina mavjuddek ko'rinadi"<sup>92</sup>. Bu asar hayotimizga, to'g'rirog'i qalbimizga ko'zgu tutgan asardir. Asar bosh qahramoni Bonu hayotning qo'lida "qo'g'irchoqqa" aylanadi. Yozuvchi mahorati shundaki, bosh qahramonga kitobxonda achinish hissini uyg'otmaydi, uni o'ylab yig'latmaydi, faqatgina o'zimizga aylantirib qo'yadi, xolos. Endi asarni o'qish chog'ida faqat o'zimiz haqida o'ylaymiz. Bonuning hayotiga kirib qolamiz-u, uning bolalarcha soddaligi sichqonlarga "kerakmas, ularga tegmanglar, ular meni do'stlarim"<sup>93</sup> degani kabi bizning qalbimiz isyon ko'taradi. "G'aflat odamzodning baxti"<sup>94</sup> — bunga hech

<sup>89</sup> Q.Yo'ldoshev. Yoniq so'z. T. — 2006. 68-bet.

<sup>90</sup> I.Mirzo.Bonu. "Turon". Toshkent, — 2018. 4-bet

<sup>91</sup> A.Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. — 2018. 136-bet.

<sup>92</sup> I.Mirzo.Bonu. "Turon". Toshkent, — 2018. 5-bet

<sup>93</sup> I.Mirzo.Bonu. "Turon". Toshkent, — 2018. 9-bet

<sup>94</sup> I.Mirzo.Bonu. "Turon". Toshkent, — 2018. 5-bet.

ham ko‘nikolmaymiz. Olmosda, Bonuning sevgilisida bunchalik tubanlik bo‘lishi mumkin emas, — deb o‘ylaymiz-u, ammo hayotimizda bundan “besh batar”lar ham borligini unutamiz. Bu obrazlar orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikrlar yurakka sanchiladi. Ijodkorning mahorati shundaki, hamma qahramonlarda tabiiylik, samimiylilik kuzatiladi. Erkin Vohidov: “Hozir qilib turgan ishimga, To‘g‘ri kelmas hozirgi gapim”<sup>95</sup>— misralarida aytilgan mantiqsizlikni ko‘rmaymiz. Obrazlar tirik odamdek yonimizda harakatlanadi, so‘zlaydi. Romandagi ruhiyat chizgilari beixtiyor insonni o‘ylashga, men bunday vaziyatlarda nima qilardim, men shunday qila olarmidim, — degan savollarni uyg‘otadi. Bonudagi irodaning kuchliligi, undagi hayotsevarlik tuyg‘usi oddiy muammolar oldida dong qoladigan bizlarga ruh bag‘ishlab, tushkunlikka tushmaslikka undaydi. Bonuning kechinmalariga mos ravishda Huvaydo misralari pobasta qilinadi. Bu esa undagi ruhiy holatlarning yaqqol ochilishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Malika Yovmiddinga yetib borayotganday, tez kunlarda bir mo‘jiza ro‘y beradiganday nafaqat bizning, balki jumlayi jahonning hayoti o‘zgarib ketadigandek tuyulardi:

Oh mani dard-u balog‘a muftalo qilgan firoq,  
Taxti baxtimni buzib oxir gado qilgan firoq,  
Men zaif bechorakim, doimo fursat bilan  
Kuydirib xokistarimni zari po qilgan firoq”.<sup>96</sup>

Bonuning boshidan kechirganlarini, azob-uqubatlarini o‘qiy turib, “Boshqalarning qalblaridagi tashvishlarini bilganingda edi, ko‘nglingdagi halovat uchun Allohga hamd-u sanolar aytar eding”<sup>97</sup> so‘zlarini eslaymiz. Aslida firibgar bo‘lgan Olmosning bundayligini bilgandan keyin ham sevishtir, qayg‘urish faqat buyuk qalb egasining qo‘lidan keladi. Shu ma‘noda “Bonu timsoli bu insoniy matonatni yana boshqa bir ulug‘ harakatlantiruvchi kuch — Oriyat favqulodda insoniy hodisaga aylantirib turadi”<sup>98</sup>.

Jahon romanchiligidan suv ichgan “Bonu” romani hayotning asl mohiyatini ochib bera olgan, unda qanday yashash, bu sinovlarga qanday bardosh berish kerak degan masalalarni o‘zida yoritgan. Hayotga yengil-yelpi qaraydigan yoshlarning bu umr ne uchun berilganligini anglashga chorlaydigan vosita. Zero, hayotda qanday yashash, qanday inson bo‘lish o‘zimizga, faqatgina o‘zimizga bog‘liq. “Hayotingni o‘zgartirgay bir odam... o‘shal inson sen o‘zingsan”<sup>99</sup>.

#### **Adabiyotlar:**

1. Iqbol Mirzo. Bonu. T. —2018.
2. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. T. — 2006.
3. A.Ulug‘ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T. —2018.
4. Erkin Vohidov. Inson. T.— 2018.

---

<sup>95</sup> E.Vohidov.Inson. “Tush”. T — 2018. 55-bet

<sup>96</sup> I.Mirzo.Bonu. “Turon”.Toshkent, — 2018. 109-bet

<sup>97</sup> O‘sha kitob. 66-bet

<sup>98</sup> O‘sha kitob 4-bet

<sup>99</sup> O‘sha kitob. 1-bet

**AMIRIY ADABIY MEROSI XUSUSIDA**  
**N.Soatova, JDPI dotsenti, Umarova Shaxlo, JDPI talabasi**

Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Amiriy adabiyotshunoslik sohasida muhim o'rin egallaydi. Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amiriyning ijodi uning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi beqiyosdir. Shuningdek, u o'ziga xos original ijodkordir.

Said Umarbek – Umarxon, adabiy taxallusi Amir, Amiriy bo'lgan hukmdor, shoh va shoir o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin siymolaridan biri sanaladi. U o'zining ancha qisqa, atigi 35 yillik umri davomida madaniyat va adabiyot rivojiga katta havas bilan qarab, o'z poytaxt shahri Qo'qonda kuchli adabiy markaz tashkil etgan. Yuzdan ortiq shoiru adiblar, xofizu xonandalar, kulgi, askiya ustalari, xattotlar uning homiyligida o'z iste'dodlarini namoyon etganlar. Amiriy saltanat shukuhi va dabdabalari bilangina o'ralashib qolmagan. Diyonati, e'tiqodi mustahkam, madaniyati yuksak shaxs sifatida mamlakat hamda el–u yurt tashvishlari bilan yashagan. Ko'p vaqtini mamlakat obodonchiligiga, bunyodkorlikka, adabiyot va san'at ravnaqiga sarf etgan.

Umarbek ayrim manbalarda 1785 yili, ayrimlarida esa, 1787 yili tavallud topgan, deb ko'rsatiladi. Bo'lajak iqtidorli hukmdor va iste'dodli shoir Umarxon puxta ta'lim–tarbiya oladi. U ayniqsa adabiyot va tarix kabi fanlarni zo'r qiziqish bilan o'qiydi, fors, arab tillarini mukammal egallaydi, diniy–islomiy manbalardan ham yaxshi xabardor bo'ladi. Norbo'tabiydan so'ng qonuniy valiahd sifatida Qo'qon taxtiga o'tirgan Olimxon (1798–1810) o'tkir zehqli, harbiy salohiyati kuchli, davlat ishlariga qiziqishi baland ukasini Farg'ona–Marg'ilon hokimi etib tayinlaydi. Olimxonning pochchasi, diniy arboblardan biri sanalmish Mas'umxon to'raning “Muntahab ut–tavorix” asarida keltirilishicha, shu shaxsning vositachiligida, Olimxonning taklifi bilan Umarbek 1808 yili amakisining (Rahmonqulibiyning) qizi Mohlaroyimga uylantiriladi. Amiriy yoshligidanoq husni malohatda, o'dob va axloqda, iste'dodda chinakamiga ismi jismiga monand bo'lgan Komila (Nodira)ning mashhur shoira, davlat arbobi, sifatida hurmat qozonishida ko'magi katta. Nodiraning she'riyatdagi bevosita ustozlari Amiriy bo'lgan.

Amiriy oilaviy hayotda o'ta samimiy, umr yo'ldoshiga g'amxo'r va mehribon bo'lgan. Biroq taassufki, biz sho'rolar hukmronligi yillari Umarxonni Nodiradan ajratgan holda feodal hukmdor, saroy shoiri, shuhratparast shaxs sifatida tushuntirib keldik. Ilmiy asarlarda uning shaxsi, asarlari qora bo'yoqlarda ko'rsatildi. Amalda esa, Umarxon–Amiriy ham saltanat egasi–hukmdor, ham iste'dodli ijodkor sifatida o'z o'tmishdoshlari, Husayn Boyqaro va Mirzo Bobur yo'lidan borib, mamlakat barqarorligi, obodonligi yo'lida, madaniyat va adabiyot rivojiga muhim hissa qo'shgan ulkan bir tarixiy shaxs edi. Umarxonning akasi Olimxon saroy amaldorlari fitnasi tufayli 1810 yili Toshkentdan Qo'qonga qaytishda o'ldirilgach, 22–23 yoshli Saidumarbek xonlik taxtiga lozim ko'riladi. U 1810 yildan 1822 yilgacha hukmdor sifatida ulkan ishlarni amalga oshiradi, xonlik sarhadlarini kengaytiradi, yangi shaharlar, manzilgohlar, obod joylar barpo qildiradi. Uning davrida Qo'qon xonligi madaniy va adabiy hayotida kuchli

yangilanish paydo bo'ldi. U Qo'qon adabiy markazining asoschisi, tashkilotchisi va homiysi bo'ldi. Farg'ona, uning markazi Qo'qon shoiru shuarolar qarorgohiga aylandi. Unda Husayn Boyqaro va Navoiy davri Hirot adabiy muhiti an'analari tiklangandek bo'ldi.

Adabiy merosi Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda "so'z gavharlarining sarroflari" va zafunlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972 yili Toshkentda chop qilingan "Devon"dan 216 g'azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar joy olgan. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda "so'z gavharlarining sarroflari" va zafunlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan.

Amiriy qoldirgan she'riy devon olimi Mahbuba Qodirova tomonidan 1972 yili katta kirish so'zi bilan chop etildi. Biroq o'sha yillari Amiriyga o'xshash shoh va shoirlarga munosabat yaxshi emas edi. Shu sabab uning devonini, undagi asarlarni chuqurroq o'rganish, ommalashtirish ishlari rivoj topmay to'xtab qoldi. To XX asrning 90-yillari, respublikamiz mustaqil bo'lgunga qadar Amiriy-Umarxon xususida so'z yuritilmadi desak ham bo'ladi. Chunki istiqlolgacha mumtoz abadiyotimiz sho'rolar mafkurasi tazyiqi ostida "dunyoviy adabiyot", "feodal-saroy adabiyoti", "diniy-mistik adabiyot" tarzida uch guruhga ajratib yuborilgan edi. Mazkur yo'nalishlardagi adabiyotlardan faqat dunyoviy adabiyot saralanib, u ijobiy hodisa sifatida tan olindi va o'rganildi. Hatto shu dunyoviy adabiyot vakillarining asarlari ham ilohiy-irfoniy g'oyalardan "tozalanib" tahlil va talqin qilindi. "Feodal-saroy (klerikal)" va "diniy-mistik" yo'nalishdagi adabiyot deb hisoblangan asarlar va ularning mualliflariga o'tmishni qoralash uchungina murojaat etib kelindi.

Amiriy merosiga nisbatan ham shunday yo'l tutildi. Shu bois istiqlol shabdalari esa boshlagach, Amiriy va unga o'xshash shoh shoirlar faoliyatiga, merosiga munosabat o'zgardi. Ular ijodiga ham o'zlikni anglashga, milliy g'ururni tarbiyalashga ko'maklashuvchi vositalardan biri sifatida qarash qaror topdi va topmoqda. Saidumarbek – Umarxon – Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning o'z devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi.

Amiriyning adabiy merosi uning o'z davrida tartib berilgan "Devon"ida, bir qismi "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida jamlangan. "Devon"ning o'n bitta qo'lyozma nusxasi O'zFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmalarning bir qanchasi Umarxon hayotligi davrida ko'chirilgan. Amiriy she'riyatiga bo'lgan qiziqish muttassil davom etib borgan. Uning asarlari qo'shni mamlakatlarda ham sevib o'qilgan, kitobat qilingan. 1882 yili Istanbulda, 1905 yili Toshkentda bosma nashrlari yuzaga kelgan. Amiriy devonining eng yaxshi ko'lyozmasi asosida filologiya fanlari doktori Mahbuba Qodirova 1972 yili

she'rlarini "Devon" nomi bilan chop ettirdi, unga ancha tafsiliy kirish so'z yozdi. Bungacha ham uning she'rlaridan namunalar 1945 yili nashr qilingan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" hamda 1959 yili tuzilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasida keltirilgan edi. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlaming yozilish tarixi, tartib berilishi hamda "so'z gavharlarining sarroflari" va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. 1972 yili Toshkentda chop qilingan "Devon"dan 216 g'azal, 6 mustaqil muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, Navoiy, Lutfiy, Jomiy, Fuzuliy, Mirzo Bedil hamda Zaliliy, Kamol, Nobiy g'azallariga bog'langan tazmin muxammaslar joy olgan. Amiriy tomonidan devoniga yozilgan debocha adog'ida unga kiritilgan she'rlaming yozilish tarixi, tartib berilishi hamda "so'z gavharlarining sarroflari" va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan<sup>100</sup>.

Keyingi yillari Amiriy ijodini kengroq o'rganishga qiziqish kuchaydi. A.Hayitmetov, M.Qodirova, H.Muhammadxo'jayev, R.Orzibekovning Amiriy va uning ijodiga bag'ishlangan maqolalari, adabiy portretlari maydonga keldi.

Saidumarbek – Umarxon – Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning o'z devoniga yozgan debochada, tarixchilar tomonidan bitilgan asarlarda, "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida, Amiriy hayoti va ijodiga doir boshqa manbalarda uchraydi. Bu asarlar orqali Amiriy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Ularning har birida Amiriy ijodiga to'xtalib o'tilgan.

Demak mavzuni yoritishda o'rganilish tarixining ahamiyati o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, biz shu o'rganilgan manbalar orqali mavzuga oid yanada kengroq ma'lumotlarga ega bo'lamiz va ushbu asarlardan bugungi kunda Amiriy ijodini o'rganishda qimmatli manba sifatida foydalanamiz mumkin.

### **СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ** **Ш.Р. Абдулахадова ЖДПИ катта ўқитувчиси Бойхўрозова Г талаба**

Фикрнинг воқеликка муносабатини аниқ тасдиқ ва тахмин йўли билан билдирувчи сўзлар модал сўзлар ҳисобланади. Модал сўзлар бир бутун лексик бирлик сифатида қаралади ва уларнинг тузилишидаги айрим морфологик элементлар ажратилмайди, модал сўз гап бўлаги вазифасида келмайди, гап бўлаклари билан синтактик жиҳатидан боғланмайди ва гапда кириш бўлак вазифасида келади.

Гап маълум бир фикрни англатиш билан бирга, бу фикрга сўзловчининг муносабатини ҳам акс эттиради. Сўзловчининг ўз фикрига муносабатини ифодоловчи маънога модал маъно дейилади (лотинча *medus-»ўлчов», «усул»*). Бунда англатилаётган фикрнинг аниқлиги, чинлиги, шартлилиги кабилар объектив воқеликка қиёсан баҳоланади. Шуларга кўра, модаллик сўзловчининг воқеликка субъектив муносабатини ифодалайди.

---

<sup>100</sup> R. Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006. 173-176-betlar.



Масалан: Дарҳақиқат, Зайнаб билан бўлаётган бу муносабатлар аста-секинлик билан яхшиланиб бораётганлиги сезилар эди. (А.Қодирий)

Модал маънолар морфологик, синтактик ва лексик усуллар билан ифодаланади. Бу усуллар ўзаро зич боғланган. Модаллакни морфологик ифодаланиши дейилганда одатда майл категорияси, шунингдек замон категориясининг ички тармоқлиниши назарда тутилади. Бу грамматик категориялар асосан морфологиянинг феъл баҳсида, шунингдек, синтаксиснинг гап баҳсида ўрганилади.

Сўзлашув нутқида гап маълум фикрни ифодалаб, нутқнинг бир қисмини ташкил қилади. Фикр содда ва қўшма гаплар, дарак, сўроқ, буйруқ, ундов, бир бош бўлакли, икки бош бўлакли, тўлиқсиз гаплар орқали ифодаланади. Гап қандай шаклда бўлмасин, унда кишининг номаълум бир мақсади реаллашади.

Содда гапларнинг шаклланишида сўзлашув нутқининг диалогиклиги, эркинлиги, эмоционаллиги, вазиятбоплиги муҳим рол ўйнайди.

Сўзлашув нутқи алоқа - аралашув жараёнини акс эттирар экан, бу жараёнда гаплар қисқа ва ихчам баён этилиши билан характерланади. Сўзлашув нутқида суҳбатдошлар эга ва кесим тузилишига ажратилмайдиган бир сўздан таркиб топган гапларни кўп қўллайдилар.

Сўз-гаплар кўпинча модал сўзлар, ундов сўзлар ва шу кабилар ёрдамида майдонга келади. Улар гап мазмунига, сўзловчи ҳолатига, руҳига боғлиқ ҳолда турли хил оҳанг билан айтилади. Бундай пайтда мазмунан тасдиқ ёки инкорни, сўзловчининг суҳбатдоши томонидан айтилган фикрга розилиги ёки норозилигини, келишимли ёки келиша олмаслигини, айтилган фикрга бўлиб ўтган воқеа-ҳодисага насбатан сўзловчининг муносабатини, экспрессив модал баҳосини ва бошқаларни ифодалайди.

Сўз-гапларни тилдан бир сўз билан ифодаланган-вокатив, номинатив, инфинитив, тўлиқсиз гаплардан фарқлаш лозим бўлади. Чунки, сўз-гаплар бир сўз ва сўз бирикмаси билан ифодаланиб, тасдиқ, инкор, суҳбатдош фикрига қўшилиш, қўшилмаслик, розилик ёки норозилик, сўроқ, буйруқ, ҳис-ҳаяжон, экспрессив-модал маъно оттенкаларини ифодалайди.

Сўз-гаплар тасниф қилиниб, уларни бошқа содда гап турларидан фарқ қилинганда ушбу гап турининг гап бўлақларига бўлинмаслиги, маъноси, айтилиш мақсади, морфологик тузилиши, оҳанги шу каби хусусиятлари назарда тутилади.

Сўз-гаплар нутқда турли маъноларда, нутқнинг жозибадорлигини, ранг-баранглигини, баъдий бўёқдорлигини, сўзловчи, эмоциясини ошириш оттенкаларини ифодалаш учун қўлланилади.

Сўз-гаплар диалогик нутқда сўзловчининг суҳбатдош айтган фикр билан келишиш-келишилмаслиги, уни тасдиқлаши ва инкор этиши, монологик нутқда эса, сўзловчининг ўз фикрини қувватлаши, тасдиқлаши, розилиги ва қувватламаслиги, ўз фикри билан ўзи келиша олмаслигини ифодалайди. Масалан:

-Ийи-ийи, анув кимнинг қовоғи-я?

Девона суюкли ковоғини сўрида кўриб қувона кетди:

-Вой хўварингни... жиннилар, эси йўқ хўварилар! Қовоғини бер, жиннилар!

Юқорида келтирилган мисолдан кўринадик, сўз-гаплар ўзидан олдин ва кейин келувчи гаплар билан бевосита алоқадор, уларга боғлиқдир. Улар гап таркибида, вазиятда ҳаётдир. Уларни контекстан ажратиб юлиб олинса, ўзининг фикр ифодалаш хусусиятини, гаплик хусусиятини йўқотади.

Сўз- гаплар, юқорида қайд қилинганидек, асосан, диалогларда, савол-жавоб пайтида ўзга фикрининг тўхри ёки нотўғрилигини билдириш, уни рад этиш ёки маъқуллаш учун қўланилади. Монологик нутқда сўзловчи ўз нутқини тасдиқлаш, рад этиш ёки бирор бир фикрга ўз муносабатини билдириш мақсадида қўланилади. Маълум бир фикрни хабар шаклида бермоқ учун сўз-гапдан кейин ва у билан узвий боғлиқ ҳолда бошқа бир гап келиши мумкин. Масалан:

- Отангиз қариб қолганми?
- Ўлган.
- Онангиз-чи?
- Ҳа онам бор.
- Акангиз йўқми?
- Йўқ. Битта кичкина ўғил укам бор. (А.Қодирий)

Бундай ҳолларда сўз-гапдан кейин келган гап сўз-гап мазмунини аниқлаштириш, изоҳлаш, такрорлаш, кенгайтириш, фикрнинг характерини белгилаш учун хизмат қилади. Одатда сўз-гаплар ифодалайдиган фикр умумий характерда бўлади. Масалан, Ҳа сўз-гапи умумун тасдиқлаш, йўқ деган сўз-гар эса инкор этиш мазмунини билдиради. Бироқ у тасдиқ ёки инкор аниқ нимага нисбатан –бирор дарак-хабар ёки буйруқ-истакка нисбатанми- аниқ эмас. Бу нарса кўпинча юқорида келтирилган гапдан маълум бўлади. Улар ё ўзидан олдинги, ёки ўзидан кейинги гапга таянган ҳолда рўёбга чиқади. Уларнинг вазифаси ҳам ёндош гаплар орқали реаллашади.

#### **Адабиётлар:**

1. М.Бегматов, М.Рахимов «Ўқувчиларда нутқ маданиятини шакллантириш» -Самарқанд, 2006 йил.
2. Таълим тараққиёти // Тошкент, 1999. № 1.

### **ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI DAVR TALABI**

#### **Z.Jumayeva, katta o'qituvchi Mamatkobilova F. JDPI talabasi**

Zamon bilan hamnafas yashash davr talabidir, shunday ekan zamonaviy ta'lim metodlari haqida so'z yuritimiz. Hozirda amaliyotda qo'llanayotgan ta'lim metodlari xilma-xil, hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va boshqa sifatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu metodlarning har biri muayyan ta'lim tarbiyaviy maqsadlar

uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metodni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Chunki boshqa metod ushbu maqsad uchun mos emasligi ma'lum. Shu sababli ta'lim metodlaridan qaysi biri qanday maqsad uchun foydalanishi ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Lekin bu masala hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Masalan: Hozirgi kunda o'qitishda o'qituvchilar ko'p foydalanadigan "Zanjir" metodi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar ma'lum mavzuga tegishli ma'lumotlarni ketma-ketlikda zanjir usulida aytib boriladi. Ma'lumot aytolmay qolgan o'quvchi sariq kartochka oladi va boshqa ma'lumot aytish imkonini yo'qotadi. O'quvchilar dars oxirida tezkorligiga va qancha ma'lumot aytganligiga qarab baholanadi. Albatta, bu metodning kamchilik va avzallik taraflari bor. Bu metodning avzalligi shundaki, o'quvchilarni tezkor fikrlashga va hozirjavoblikka undaydi. Lekin bu metoddan amaliyotda ko'p foydalanishning salbiy taraflari ham mavjud. Bu metod har bir o'quvchini hozirjavoblikka undasa-da, lekin quyidagi fakti inkor eta olmaymiz. Bu o'quvchilarning har xil xotira tezkorligiga ega ekanligi. Umuman, xotira tezkorligi uch xil shakilga ega.

- Tezkor,
- O'rtacha,
- Passiv.

Tezkor va o'rtacha xotiraga ega o'quvchilarga bu metod samarali ta'sir ko'rsatadi. Ammo yetarlicha bilimga ega bo'lib, passiv xotiraga ega o'quvchilarga bu metodning ijobiy taraflari kam. Ya'ni, tezkor xotiraga ega o'quvchilar orasida passiv xotirali o'quvchilar orqada qolib ketaveradi. Demak, ta'lim jarayonida har bir o'quvchi bilan ishlash imkonini beradigan metodlardan foydalansak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metodlardan biri "O'quvchi-o'qituvchi metodi". Bu metodni qo'llash jarayonida o'quvchi o'qituvchi dars jarayonida bajargan vazifani bajaradi. Bunda o'quvchi darsni o'zi tashkillashtiradi, o'zi o'rganib, izlanib kelib o'quvchilarga dars o'tadi. Bu metod o'quvchi va o'qituvchi birgalikda ishlash metodlariga misol bo'ladi. Bu metodning afzalligi: Sinfdagi har bir o'quvchi dars jarayonida o'qituvchi vazifasida o'zini sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Bundan tashqari og'zaki nutqi yetarli darajada shakllanmagan o'quvchi nutqini o'stirishga, dars ma'sulyatini his qilishga va eng asosiysi o'quvchilarni doskaga chiqqandagi hayajonini yengishga, o'ziga bo'lgan ishonchini o'stirishga yordam beradi. Albatta, bu metodni qo'llash jarayonida o'qituvchi ham bo'sh qolmaydi. O'qituvchi o'qituvchini dars o'tish jarayonini kuzatib turadi. Dars oxirida o'quvchi yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarini va yutug'ini e'lon qiladi. O'quvchining xato-kamchiliklarni bilishi uni o'z ustida ko'proq ishlashga, yutug'ni bilishi esa o'quvchini ruhlantirishga yordam beradi. Demak, bu metoddan amaliyotda foydalansak, zarar qilmaymiz. O'qitishda samarali va zamonaviy metodlardan foydalanish har bir pedagog vazifasi demakdir. Zamonaviy metodlar bevosita o'quvchini ko'proq bilim olishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek:

"Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar".

Shunday ekan, biz pedagoglar zamonaviy ta'lim metodlaridan o'quv jarayonida oqilona foydalanib, har bir o'quvchini darsga jalb qilish va darsga bo'lgan qiziqishini yanada ortirish ustida ish olib borishimiz darkor. O'zbekiston Respublikasi DTS asosida ishlab chiqilgan ta'lim metodlaridan va qo'shimcha samarali chet el ta'lim metodlaridan foydalangan holatda darsni tashkil etishimiz mumkin. Biz pedagogimiz! Shunday ekan, samarali o'qitishda o'zimiz ham tashabbus ko'rsatib, yangidan-yangi zamonaviy metodlar ishlab chiqishimiz mumkin. Albatta, bu o'z qo'limizda! Birgina tarixga nazar tashlasak, O'rta Osiyo olimlardan Farobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sinolar ta'limni, ta'lim metodlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Buyuk bobomiz Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo'llanadigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib, boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Demak, xulosa ma'lum. Biz bo'lg'usi pedagoglar buyuk davlat qurishga munosib hissa qo'shgan holatda, yosh avlodni jamiyatimizga kerakli shaxs bo'lib yetishishiga ko'maklashaylik, izlanaylik, amalga tatbiq etaylik, zero taraqqiyot izlanish, tinimsiz harakat mevasi!

## **UNDALMALAR YORDAMIDA SHAKLLANGAN MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR**

**D.Fayzullayeva Turdiyev Sh. JDPI talaba**

Murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vositalardan yana biri undalmalardir. Undalma – so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifodalaydigan so'z va so'z birikmalaridan tashkil topgan sintaktik birliklardir. Undalmalar bosh kelishikdagi ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib gapning umumiy mazmunini to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanligini ko'rsatib turadi. Gap tarkibida kelgan undalmalar uning bo'laklari bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi. Shu jihati bilan ular sodda gaplarni murakkablashtirishga xizmat qiladi.

Undalmalar asosan, bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalmalar undosh intonasiyasi, pauza bilan ajralib turishi hamda kesim bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi bilan egadan farqlanadi. Undalmalar ko'proq so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi: kechir meni, onajon, ishga ko'milib ketdim (Ya).

Undalmalar gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklari bilan moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ular gapning ayrim bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma'lum gapdagi undalmaning chiqarilishi yoki hatto, o'rnining o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallifning aytmoqchi bo'lgan fikri anglashilmay qoladi.

Nutqda ba'zan jonli va jonsiz predmetlarning nomlari ham undalma vazifasida keladi: Men sizlarga aytsamchi, chiroqlarim, yoshim shunchaga yetib, bunaqa kattaselni ko'rmaganman (H.N.). Qushlar-qushlar, hay qushlar, qanot

qoqib kelinglar (Z.Diyor). Seni unutilmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!

Undalmalar leksik-semantik jihatdan quyidagilar orqali ifoda qilinadi:

1. Konkret ism va familiya orqali: Men ham o'shanda sizni ovora qilgan edim-ku, Roziya! (P.Q.).
2. Kasb-hunarni ifoda qiluvchi: Xo'sh o'rtoq komandir, qanaqa mashg'ulot o'tkazamiz.
3. Mansab-amalni ifoda qiluvchi: To'qay masalasini jiddiy o'ylashimiz kerak, rais! (G'.G').
4. Unvonni ifoda qiluvchi: O'rtoq kapitan, topshiriq muvoffaqiyatli bajarildi (I.R.).
5. Qarindoshlik, yaqinlik, do'stlikni ifoda qiluvchi: Azonda to'qayda nima qilib yurgan edingiz, xola? (S.A.). Xotirjam bo'ling, otajon, maqsadingizga yetasiz (G'.G').
6. Holat, xususiyatni ifoda qiluvchi: Bilamiz, qahramon, sizni hamma hurmat qiladi.
7. Subektiv baho ifoda qiluvchi: Bilasizmi, jonginam, bir kattakon elektrostansiya faqat shu inshoot uchun tok yetkazib beradi.
8. Turli jonli va jonsiz predmetlarni ifoda qiluvchi:  
Kelinglar, go'zal gullar,  
Keling, oshiq bulbullar.  
Shu sevgini kuylaylik,  
Orom olsin ko'ngillar (Sh.R.).
9. Umumshaxsni ifoda qiluvchi: - O'rtoqlar, odamlar, xaloyiq, do'stlar orqali: O'rtoqlar, biz hozir yozning qozonini hosil bilan to'ldirsak, kuzda rohatini ko'ramiz (O.).

Undalmalar o'zbek tilida turli turkum so'zlar orqali ifodalanishi mumkin. Ular quyidagicha turkum so'zlari bilan ifodalanadi:

- 1) ot bilan: Bilasizmi, Ikrom, ko'klam shabodasi yurib qoldi (S.A.).
- 2) otlashgan sifat bilan: Xo'sh, yaxshilar, nima qilmoq darkor? (O.Yo.).
- 3) otlashgan son bilan: Uchinchilar, yakuniy nazoratlarga yaxshi tayyorgarlik ko'ring!
- 4) otlashgan sifatdoshlar bilan: Ey, sportda g'olib chiqqanlar, sizlarga shon-sharoflar bo'lsin!
- 5) undov bilan: Hoy, seni kutib turishibdi.
- 6) frazeologizm bilan: Xayr, o'g'lim, oq yo'l bo'lsin, xayr, ko'zim qorasi
- 7) bir butun holda qo'llanadigan bog'lamalar bilan: Butun dunyo tinchliksevarlari, birlashingiz!

Undalmalar tarkibiy tuzilishi jihatidan farqlanadi. Ularning tarkibi quyidagicha bo'lish mumkin:

1. Yolg'iz bir so'zdan: To'kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan.
2. Undalma undov so'zlar bilan kengayadi: Hoy qizi, vazifani bajardingmi?
3. Undalma o'z izohlovchisi bilan keladi: To'g'ri, o'rtoq Rahimjon aka, mix ham egilsa, to'g'irlab yana qoqiladi (A.Q.).
4. Undalma aniqlovchisi bilan keladi: Yo'ling oydin, olganing oltin bo'lsin, aziz o'g'lim (G'.G').

Bu ko‘rinishdagi gaplarga ba‘zan aniqlovchilar uyushgan va kengaygan holda ham bo‘ladi: Ey vujudi qayg‘u-alamdan iborat bo‘lgan, peshonasiga azaldan sevgi yozib qo‘yilgan yigit, sen bizga ravshanlik keltirding.

5. Undalmalar uyishib kelishi mumkin: Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushiringlar. Surauyo, Muhayyo, Ra‘no, Muqaddas, ko‘zimni yashnatib kiyibsiz atlas!

6. Undalmalar ba‘zan takrorlanib keladi: dada-chi, dada, bugun biz poyezd-poyezd o‘ynadik.

Undalamalar gapning barcha o‘rinlarida kelishi mumkin, ya‘ni boshida, o‘rtasida va oxirida. Bu holat undalmalarning gapdagi o‘rni, uning semantik vazifasi, stilistik xususiyati, gap tuzilishi va xususiyatiga bog‘liq. Shunga ko‘ra, undalmalardagi tinish belgilari ham o‘zgarib turadi.

Agar undalmalar gap boshida kelsa, undan so‘ng vergul yoki undov belgisi qo‘yiladi: Og‘a, ayamga xat yozibsiz-ku? (A.Q.) –Birodarlar! Hayot biz bilan!

Agar undalmalar gapning oxirida kelsa, undalma old tomondan, vergul bilan ajratiladi: Sizni oldinroq siylasak bo‘lar ekan, Ashirali aka (G‘.G‘.).

Agar undalmalar gap ichida kelsa, ular har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi: Bu yerda, Yo‘lchi, kimni so‘radingiz? (O).

Ko‘rinadiki, undalmalar gapning asosiy bo‘laklari bilan sintaktik aloqa kirishmaydi. Shu sababli ham ular yozuvda tinish belgilari bilan, talaffuzda esa ohang bilan ajralib turadi. Mana shu xususiyatlariga ko‘ra undalmalar sodda gaplarni murakkablashtiradi va murakkablashgan sodda gaplarga aylanadi.

### **“Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi” romanida badiiy fantastika va hayot haqiqati**

**J.Lutfullayev, JDPI doktoranti**

Xalq ijodiyoti namunalari bo‘lmish ertak, doston, mif kabi janrlarning o‘ziga xosliklaridan biri bu janrlarda fantastikaning mavjudligi, boy fantaziya orqali yaratilganligidir. O‘zbek xalq ertaklaridagi uchar gilam, oynai jahonnoma, qaynar humcha kabi obrazlar ham xalqning boy fantaziyasi orqali yaratilgan obrazlardir.

Fantastik obrazlar xalqning o‘tmishdagi qiyinchiliklarni yengishda, dushmanlarga qarshi kurashlarda qiyinchiliklarga duch kelish natijasida xayoliy orzu qilish, shu kabilardan oson qutilish haqidagi xayoliy o‘y, xayolot orqali yuzaga kelgan.

“Alpomish” dostonida dushmanlarga qarshi kurash uchun (Qalmoq polvonlariga bas keladigan) asar qahramonining kuch-qudratini tasvirlashda oddiygina uning oyoq kiyimini “to‘qson molning terisidan kovushi” deb tasvirlanishi Alpomishning tengsiz bahodir sifatida ko‘z oldimizda gavdalantiradi.

Yozma adabiyotda ham fantastikadan hayot haqiqatini tasvirlashda keng foydalaniladi.

Fantastika, badiiy xayolot - bu nimaningdir yaratilishiga sabab bo‘luvchi xamirturush, desak xato bo‘lmaydi. A.Navoiy asarlarida tasvirlangan oynai jahon, eskalator, temir odam (robot)lar bir necha asrlardan so‘nggina kashf qilingan. Bu kabi tushunchalar bugungi kun uchun oddiy bir hol bo‘lib tuyulsa-da, o‘sha davr uchun boy xayolot natijasi hisoblanadi.

Ayniqsa, fantastikaga bolalar adabiyotida ko‘proq murojaat qilinadi.

Biz ushbu maqolamizda bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” romanida badiiy fantastika va hayot haqiqati” masalasini yoritishga harakat qilamiz.

Romanni o‘qir ekansiz, asar boshida yozuvchining “Nabiralaringa ochiq xat” nomli so‘zboshisi keltirilgan. Ushbu ochiq xatda asarning yozilishiga turtki bo‘lgan voqea keltirilgan.

O‘zbek xalq ertaklaridan birida g‘alati bir sujet bor. Unda kambag‘al-bechorahol odamning eshagiga yag‘ir toshadi. Tabibga olib borsa, davosi osonligi, bitta yong‘oqni olib yarmini chaynab eshak belidagi yag‘irga bosishi, yarmini yeyishini aytadi. Kambag‘al kishi tabibning aytganini qiladi: ertalab chiqib qarasa, eshakning ustidan bir tup yong‘oq o‘sib chiqqani, shig‘il hosil qilgani, yong‘oqni qoqsa, na yong‘oq, na kesak qaytib tusharmish. Chiqib qarasa, daraxtning ustida ikki paykal yer paydo bo‘lgani, qovun o‘sib yotgani, qovun shunchalik kata emishki, yonidan pichog‘ini olib bittasini chaqmoqlab ko‘rmoqchi bo‘lib, pichog‘I qovunning ichiga tushib ketishi, pichoqni olaman deb o‘zi ham tushib ketishi tasvirlangan.

Ushbu ertak mazmuniga keng to‘xtalganimning boisi shuki, roman aynan ana shu ertak sujetidan tasirlanib yaratilgan.

Bu haqida yozuvchi: “Men bu ertakni bolaligimda eshitgan edim. Undagi xayolot-fantaziyaning kuchliligiga qoyil qolib yurardim. “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”ga sujet axtarganimda undan foydalandim”<sup>101</sup>, deya eslaydi.

Asar qahramoni Akbar Madumarov, “Sariq devni minib” romanida Xoshimjonning do‘sti sifatida “Akbar bo‘ri ushlabdi” bobida bo‘ri bolasini aravachaga qo‘shib sirk tamoshasi ko‘rsatmoqchi bo‘lgan, 6-sinfda Xoshim bilan birga sinfdan sinfga qolib ketgan, biroz uyquchi, xayolparast qilib tasvirlangan bola. “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”da Akbarning burniga Handalak shahrida haykal qo‘yiladi. Chunki asarda tasvirlanishicha, uning burni uzoqdagi qovunning hidiga qarab uning qanaqa qovunligini aytib bera olishi, ming xil hidni farqlay olishi, burni orqali bir qancha jinoyatlarni ochishi tasvirlanadi. Asarda badiiy fantastika shu darajaga yetadiki, qo‘liga olgan qovunning ichida necha dona urug‘i borligini ham bexato ayta olishi tasvirlangan. Bir qarashda, o‘quvchi bunisi endi oshib ketdiyov deyishi mumkin. Yozuvchi shunday tasvirlaydiki, kitobxon beixtiyor unga ishonib, asarning davomiga qiziqadi. “Men qovunni qo‘limga olishim bilan uning ichida necha dona urug‘i borligini bexato ayta olaman. Qovunni kaftimga olishim bilan ko‘z o‘ngimda televizor ekraniga o‘xshash sarg‘ish lagan paydo bo‘ladi-yu, shu lagan sathida urug‘lar dona-dona bo‘lib bir tomonga surilib o‘taveradi” (12-bet). Parchada urug‘lar sonini qanday to‘g‘ri ayta olishi juda chiroyli tasvirlangan.

Asarning beshinchi bobida Akbar pochta bo‘lib ishga joylashgani, hadya qilingan eshakda tuman markazidan gazeta-jurnallarni olib, uyma-uy tarqatishi,

---

<sup>101</sup>X.To‘xtaboyev, “Nabiralaringa ochiq xat”. “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” .T.:Yangi asr avlodi. 2006. 5-bet. Bundan keying misollar ham shu asardan olinib, sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.

borishda eshakka yerga yotgandek oyoq-qo'lini osiltiri Shunday paytlarda shirin xayollarga beriladi: "Ho', jar tubidagi ulkan chinorlarga oqurug' qovunlardan payvand qilsang, har bittasi tandırdek keladigan qovunlar pishsa, oh, mazza bo'lardi-da, yarmini yozda yeb, yarmini qishga qoqi qilib qo'yardim-da" (37-bet).

Akbarning bu xayollari asar yaratilgan davr uchun, bugungi kun uchun xayolot, fantastika bo'lsa-da, ilm-fan tobora rivojlanib borayotganligini hisobga olsak, qachondir oddiy bir hodisa bo'lib qolishi mumkin. Bir paytlar 35-40 kunda tuxumdan chiqqan jo'ja 1-1,5 kg go'sht qiladigan tovuqqa aylanadi deyishsa, kulguga qolgan, lekin bugungi kun uchun ayni haqiqat.

Yuqorida keltirilgan beshinchi bobdagi parchadan keyingi voqealar to asarning so'nggi qirq uchinchi bobigacha Akbarning behush holatida (u eshakda osmonga qarab yotib olib, xayol surib ketayotib, jarlikka yiqilib hushini yo'qotadi, lekin asarda yiqilgani aytilmagan, faqatgina qirq uchinchi bobda hushiga kelgani aytilgan) xayolida yoki tushida yuz bergan voqealardir.

U yiqilib hushini yo'qotgach, ishi biroz chappa ketgani, eshagining ustini yag'ir bosgani, mol doktoriga borganida yuqorida keltirilgan ertak sujetidagidek voqealar ketma-ketligi tasvirlangan. Faqatgina ertakdan farqli ravishda ertakda yong'oqning ustiga chiqqanida tuproqqa qo'shilib chiqqan bir dona urug' unib chiqqani, mevaga kirganini ko'rsa, romanda: "...terlab ketgan ekanman, artinib olay deb cho'ntagimdan ro'molchamni chiqarayotgan edim, bilmadim qachon solib qo'ygan ekanman, ikki dona qovun urug'i ilashib chiqib yerga tushib ketdi. Shu zahotiyoq unib chiqib palak ota boshladi" (38-bet), -deya tasvirlanadi.

Tasavvur qilib ko'ring, urug' yerga tushgandan unib chiqib, palak otib, qovun pishib yetilsa. Bu ham hammasi emas. Qovunni ichiga tushib ketganda "ikki kun uchdimmi, uch kun uchdimmi, ehtimol biro y uchgandirman",- deb aytishiga qaraganda, sandiqdek deb aytilgan qovunning ichi butun bir gallaktika deb o'ylaysiz. U ko'zini ochganida bir shaharning chekkasidagi tashlandiq uy tomida o'ziga keladi. Bu joy Tarvuz shahri deb atalarkan.

Qovunning ichida butun bir shahar joylashganini o'qib shoshib qolasiz. Badiiy fantastikani qarang, avtobuslar, mashinalar, hatto insonlar ham tarvuzga o'xsharmish.

Akbar Tarvuz shahridan qochmoqchi bo'lib yana shunday qovunga duch keladi, yarmarkadagi bu "sehrli qovun" deb yozib qo'yilgan qovunning ichiga tushib, o'z yurtiga qaytmoqchi bo'ladi, lekin bu qovunning ichida Shirin qovunlar mamlakati joylashgan edi.

Yozuvchi asar qahramonini bir marta beixtiyor, ikkinchi marta o'z ixtiyori bilan qovunning ichiga tushirgan.

Asarda Akbar Handalak shahridagi bir oshxonaga kirgani, u yerda stol ustidagi taomlar yozilgan (taomnoma stolning o'ziga yozilgan) taomnomani bezorilaryozib ketgan yozuv deb o'ylab qaychi bilan o'chirmoqchi bo'lishi tasvirlangan. Taomnoma shunday ediki, "kabob" deb yozilgan yozuvni bossa, stol ostidan kabob paydo bo'lardi. Bu asar yaratilgan davr uchun shunchaki badiiy fantastika hisoblansa-da, bugungi kunda aynan shunday bo'lmasa-da, shunga yaqin kashfiyotlarni uchratamiz.



Bu mo'jizani ko'rib Akbar hayratlanadi, mexanizatsiyalashgan taomnomali stolni ishdan chiqarib qo'yishiga sal qoladi. Lekin X.To'xtaboyev qahramonlari o'zini yo'qotib qo'yadiganlar xilidan emas. Quyida keltiradigan parchada buni ko'rishingiz mumkin. "Lekin shunday bo'lsa ham sir boy bergim kelmay:

- Taomni chaynab beradigan apparatlaring yo'qmi?- deb so'radim.
- Yo'q,- dedi semiz ayol.
- Chaynalgan taomni yutishga yordamlashadigan apparat-chi?
- Unisi ham yo'q hali,- dedi oriq ayol.
- Orqada qopsizlar, - deya to'ng'illab qo'ydim" (53-bet).

Bugungi fan-texnika yutuqlarida aynan ovqatni chaynab beradigan apparat bo'lmasa-da, vazifasi shunga o'xshash meva, sabzavot, oziq-ovqatlarni maydalab ezib beruvchi blendr nomli apparat mavjud.

"Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi" asarini o'qishli qilgan omillardan biri asarda fantastikaga keng o'rin berilganligidir. Bu haqida yozuvchi shunday yozadi: "Mening nazarimda, asardagi to'rt holat uni o'qishli bo'lishiga, qo'lma-qo'l bo'lib o'qilishiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

1.Fantastik holatga ko'proq o'rin berilganli. 2. Imkon darajada yumorning kuchaytirilganligi. 3. Qarama-qarshi holatlar – konfliktning asar oxirigacha saqlab qolinganligi. 4. Hayotiy haqiqat, xulqi-axloqdagi illatlar ustidan boplab kulganim"<sup>102</sup>

Asarda badiiy fantastika hayot haqiqati, insonlar xulq-atvoridagi illatlar ustidan kulish, jamiyatda inson yanada baxtli yashashini taminlashga qaratilgani bilan xarakterlidir. Shu bois ham adabiyotshunos olim A.Rasulov asar muhokamasida roman haqida "Xudoga shukur, o'zbek bolalar adabiyotida ham, mana chinakam fantastik asar yaratildi",-deya e'tirof etadi

## **BADIY MATNDA SINEKDOXADAN FOYDALANISH**

### **D.Fayzullayeva,Tursunqulov N. JDPI talaba**

Sinekdoxa so'zi yunoncha synekdcche (birga) so'zidan olingan bo'lib, birga anglamoq degan ma'noni bildiradi. Bunda miqdor jihatdan bir narsa belgilarini boshqasiga ko'chirishga asoslangan ko'chim turi sinekdoxa butun narsani uning qismi nomi bilan va, aksincha, qismni butun narsa nomi bilan atash, ko'plik sondagi so'z o'rniga birlik sondagi so'zni qo'llash yoki aksincha ishlatish, ba'zan jins-tur munosabatidagi so'zlarni biri o'rnida boshqasini ishlatish orqali yuzaga keladi.

---

<sup>102</sup> X.To'xtaboyev. Nabiralarimga ochiq xat. "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi".T.: Yangi asr avlodi. 2006. 4-bet.

Badiiy tilda sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari faol ishtirok etadi: bo‘lak qism orqali yaxlit, butun narsani yoki umum orqali bo‘lakni ifodalovchi sinekdoxalar.

Buyuk fojining guvohi erur –  
Jahon puchmog‘ida har ikki taraf.  
Yo‘l usri senga ham qo‘ngandi Temur,  
Seni mutab yotdi necha yil arab. (A.Oripov)

Amir Temur orqali bir shaxs emas, balki uning butun armiyasi, qo‘shinlari ham nazarda tutilmoqda.

2. Ko‘plik o‘rnida birlik yoxud birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash yo‘li bilan hosil bo‘lgan sinekdoxalar.

Men tortgan g‘amni ham bir-bir sanasam.  
O‘lik fir‘avnlari ketarlar chopib.(A.Oripov)

Bu o‘rinda “men” lirik qahramon shaxsi emas, balki butun o‘zbek xalqi ma’nosida qo‘llanilmoqda.

3. Noaniq son o‘rnida aniq son yo aniq son o‘rnida noaniq son qo‘llash ham sinekdoxa hisoblanadi.

Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o‘zbekim.

Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim.(E.Vohidov)

Sinekdoxaning bu turiga ko‘proq misolni hashorat yo gul nomlaridan topish mumkin. Masalan, “mingoyoq” deyilganda, oyoqlari juda ko‘p bo‘lgan hashorot ko‘z oldimizga keladi. Lekin uning oyoqlari mingta emas. “Qirqog‘ayni” deyilganda, aniq qirqta gul emas, balki qanchadir gullar jamligi tasavvur qilinadi. “Gohida muayyan narsa-hodisalar turi uning biror ko‘rinishi orqali va aksincha biror ko‘rinishining o‘zi mansub bo‘lgan tur vositasida ifodalanadi. G‘afur G‘ulomning “Sog‘inish” she’ridagi:

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,  
Intizor ko‘zlarda halqa-halqa yosh.  
Eng kichik zarradan Yupitergacha  
O‘zing murabbiysan, xabar ber quyosh,-

Singari misralarda “Yupiter” so‘zi orqali barcha sayyoralarni, hatto butun borliqni ilg‘aydi. Keyinroq shoir o‘g‘li jangdan qaytganda bir savat shaftoli bilan kutib olishini aytadi. “Shaftoli” so‘zi o‘rnida unga mansub bo‘lgan “bog‘” tushunchasi ishlatiladi.

Ey o‘g‘lim, jonginang salomat bo‘lsin,  
O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla.  
Shu meros bog‘ingni o‘z qo‘lingga ol,  
Menga topshirilgan merosing haq-la.

Demak, metonimiyadan farqi, sinekdoxada butun bir narsa-hodisa ma’nosi uning bir qismiga ko‘chadi.

O‘zbek tilida aksariyat holatda birlik ko‘plik o‘rnida yoki qism butun o‘rnida keladi.

Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi bir kishiga emas, balki butun o‘zbek xalqiga, o‘zbeklarga qaratilgandir:

O‘zbegin deb keng jahonga  
Ne uchun madh etmayin!  
O‘zligim bilmoqqa davrim  
Berdi imkon, o‘zbegin.  
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,  
Men bashar farzandiman,  
Lekin avval senga bo‘lsam  
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegin.

Saida uning yuziga tik qaradi.

- Shovqin solmang, atrofda odam bor (Abdulla Qahhor. “Sinchalak”).

Askar o‘z yerini sevadi. “Tabarruk” deydilar o‘zbeklar (Oybek. “Quyosh qoraymas”).

Bu misollardagi “odam”, “askar” so‘zlari odamlar, askarlar ma’nosini bergaypti.

Xulosa qilib aytganda, metafora narsa-hodisalar o‘rtasida yo ichki yo tashqi o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishidir. Metonimiya esa aloqadorlikka asoslangan. Demak badiiy asardagi har bir so‘z tasviriy vosita hisoblanishi mumkin, chunki u, albatta, mazkur asar mazmunini ifodalashga xizmat qiladi.

## **“ҲИБАТУЛ ҲАҚОЙИҚ” АСАРИДАГИ АЙРИМ ТЕОНИМЛАР ХУСУСИДА**

**Л.Синдоров, ЖДПИ докторанти**

Европада лотин тили бир вақтлар халқаро тил, илм-фан тили бўлганидек, араб тили ҳам Осиёда уч юз йил давомида шунга ўхшаш мавқеда бўлган. Бунда ўзбек, тожик олимлари, ёзувчиларининг роли жуда каттадир... Агар тожик сўзлари ўзбек халқига сўзлашув тили, адабиёт орқали ва бошқа йўллар билан ўзлашган бўлса, араб сўзлари, биринчидан, китоб, мадраса, дин, иккинчидан, тожик тили воситасида кирган<sup>103</sup>. Араб тилининг ўзбек тилига кириб келиши, айниқса, VII-VIII асрларда кўпроқ юз берган. XIV-XV аср эски ўзбек тилида араб тили лексикаси сезиларли қатламни ташкил этади<sup>104</sup>. Шу боис, Навоий асарлари тилида маълум тарихий сабаблар натижасида араб ва форс-тожик тилларидан олинган сўз ва иборалар ҳар қачонгидан ҳам кўп. Шоир поэтик ва илмий асарлари тилидаги сўз бойлигининг тахминан 30-33 фоизини араб тилидан кирган сўзлар ташкил қилади, форс-тожик лексик унсурлари ҳам 18-20 фоизгача боради<sup>105</sup>.

Араб алифбосида битилган “Ҳибатул ҳақойиқ” обидасида қайд этилган панд-насихатлар диний манбалар боғланган. Адиб кўзи ожизлиги сабабли, Қуръони каримни ёд олиб, Расулуллоҳ (с.а.в.) ҳадисларини ўзлаштиришга жидду жаҳд кўрсатган. Адиб Аҳмад исломий билимларни пухта эгаллаб, ўша даврнинг етук олимларидан бирига, салоҳиятли шоир ва ахлоқ муаллимига айланди. Туркий тилда битилган шеърӣ матн

<sup>103</sup> Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида форс-тожикча ва арабча сўзлар//Навоийга армуғон (тўплам) –Т.: ФАН, 1968. –Б. 123.

<sup>104</sup> Боровков А. О языке узбекской поэзии//Общественные науки в Узбекистане. –Т.: 1961. №10. –С. 42-43.

<sup>105</sup> Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи//Навоий ва адабий таъсир масалалари. –Т.: 1968. –Б. 254.

орасида қатор оятлар, 20 дан ортиқ ҳадисларнинг асл арабий матни келтирилган, улар туркийда шеър воситасида шарҳ этилган. Шу боис дostonда диний атамалар талайгина.

Ёдномада “бутун борлиқ, барча жоли-жонсиз мавжудотлар яратувчиси” семаси туркий **Изи**: *Бу байлық чығайлық **изи** қисматы*; **Уған**: *Йаратты уғаным тунун күндүзүн*; арабча **Байат**: *Байат бәрди эрсә сәңә сән-дә бәр*<sup>106</sup>; **Малик**: *Қазалар йүрүткән йаратқан малик*; **Йаратқан**: *Қазалар йүрүткән йаратқан маликсўзлари билан берилган*. Айни пайтда, асарда **изи** “эга” маъносида келган: *Ҳарислық қарымас изиси қарыб*. Бу теоним дастлаб Култегин битигтошида **иди** шаклида “хўжайин” маъносини ифодалаган: *ötükän yışda yeg idi uoq ermiş* – Ўтикан водийсида яхши хўжайин йўқ экан (ДТС, 203). Ўрни келганда айтиш жоизки, дostonда **саҳиб** истилоҳи қайд этилган сўз билан синонимик қаторни ташкил этган: *Нә йазды ачунга бу саҳиб унар*.

**Байат**, **Уған** сўзлари илк бор “Қутадғу билиг” асарида қайд этилган семада қўлланган: *bayat atı birlä sözüg başladım* – тангри номи билан сўзимни бошладим; *uğan erklig ol* – тангри қудратлидир (ДТС, 79). **Малик** биринчи марта «Қутадғу билиг» дostonида «хукмдор, подшоҳ» маъносида келган: *Maşriq maliki* (ДТС, 339). Термин **malik (un)** шаклига эга; ўзбек тилига чўзиқ тунлисини унлисига алмаштириб қабул қилинган: **malik** → **малик**; **malaka** феълининг “хукмронлик қилди” маъноси асосида ҳосил қилинган I боб масдари бўлиб, ўзбек тилида «подшоҳ» маъносида ишлатилади (ЎТЭЛ, II, 229). Шунингдек, асарда Худонинг сифатларини билдирувчи бошқа терминлар ҳам қўлланилган: **Ҳақ**: *Билик бил усанма бил ол ҳақ расул*; **Халиқ**: *Аны нә халайиқ сөвәр нә халиқ*.

Манбаларда қайд этилишича, агар пайғамбарликка танланган кишига бошқа кишиларнинг ақидасини – дунёқарашини тўғрилаш вазифасини юклатилса ва янги алоҳида шариат (қонун-қоидалар) олиб келса, яъни элчилик қилса, бунда кишилар “расул” деб номланади. Янги шариат олиб келмай, ўзидан аввалги пайғамбарлар шариатига амал қила туриб, инсонларни ёлғиз Аллоҳнинг ўзига ибодат қилишга, унга шак келтирмасликка даъват этганлар эса “набий” дейилади. Демак, расул китоб ва шариат соҳиби, набий эса ўзидан олдин келган расулнинг шариатига халқни даъват этиш билан вазифалантирилган бўлади (3). Асарда пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом арабча **Расул** (элчи), арабча **Ҳабиб** (севиқли, дўст) сифатлари билан тилга олинади: *Билик бил усанма бил ол ҳақ расул*; *Эшит эмди кач байт ҳабиб фазлытын*. **Расул** теоними даставвал “Қутадғу билиг” дostonида учрайди (ДТС, 476). Термин **rasul (un)** шаклига эга; ўзбек тилига **ū** ни у унлисига алмаштириб қабул қилинган: **rasul** → **расул**; кўпмаъноли **rasila** феълининг “юборди” маъноси асосида ҳосил қилинган I боб масдари бўлиб, ўзбек тилида атоқли от сифатида

<sup>106</sup>Мисоллар Қозоқбой Маҳмудовнинг “Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул ҳақойиқ” асари ҳақида” китобида келтирилган матндан олинди (Тошкент: Фан, 1972).

ишлатилади (ЎТЭЛ, II, 354). **Ҳабиб** сўзи биринчи марта “Қутадғу билиг” асарида қўлланган: *habib savčī haqqiüçün sev* – севикли пайғамбар ҳаққи учун сев (ДТС, 198). Ушбу термин “севди, кўнгил берди” маъносини англатувчи **habba** феълидан ясалган (ЎТЭЛ, II, 354).

Достон луғат таркибида Худо томонидан Муҳаммад алайҳиссалом орқали юборилган охирги диний таълимот **ислам** деб аталган: *Ғариб эрди ислам ғариб болды баз*. Даставвал «Ҳибатул-ҳақойиқ» келган бу лексема **islām** → **ислām** асли арабча **salima** феълининг «бўйсунди», «бош эгди» маъносини англатувчи IV боб шакли **islata** феълидан ҳосил қилинган масдар бўлиб, араб тилида «Оллоҳга итоат қилиш», мусулмон бўлиш, **al** артикли билан ишлатилганида эса, «ислом дини» маъносини англатади. Бу сўз ўзбек тилида эркак кишининг исми сифатида ҳам қўлланилади (ЎТЭЛ, II, 175).

Ёзма манбада динда рухсат этилган нарсалар арабча **ҳалал**: *Арамны йёйүрдә ҳалал тәб йёди*; тақиқланган, рад қилинган ишлар арабча **ҳарам**: *Бахил йызды зар сим ҳарамтын өкүш* терминлари ёрдамида берилган. Ушбу атамалар дастлаб “Қутадғу билиг” асарида кузатилади: *halal hat harām* – ҳалол ва ҳаром (ДТС, 198). **Ҳалал** истилоҳи **halāl (un)** шаклига эга; ўзбек тилига **ҳойи ҳутти** ундошини ундошига **ā** унлисини **â** алмаштириб қабул қилинган: **halāl** → **ҳалъл (ҳалол)**; “қоидага риоя қилинди, қонуний бўлди” маъносини ифодаловчи **halla** феълидан ҳосил қилинган I боб аниқ нисбат сифатдоши бўлиб, араб тилида “қоидага риоя қилинган, қонуний”, ўзбек тилида эса “шариат ҳукмига мувофиқ еса, ичса, фойдаланса бўладиган” маъносида ишлатилади (ЎТЭЛ, II, 569). **Ҳарам** сўзи **harām (un)** шаклига эга; ўзбек тилига **ҳойи ҳутти** ундошини **х** ундошига, **ā** унлисини **â** алмаштириб қабул қилинган: **harām** → **ҳалъл (ҳалол)**; **haruma** феълининг “тақиқлади” маъноси билан ҳосил қилинган I боб аниқ нисбат сифатдоши бўлиб, “еб-ичиш, фойдаланиш тақиқланган” маъносини билдиради (ЎТЭЛ, II, 574).

Муаллиф Худога имон келтирган кишини арабча **момин**, **мусулман**, қуллуқ қилиш, сиғиниш, топиниш ва унинг амалини арабча **ибадат**, тоат-ибодатни қанда қилмайдиган, художўй, тақводор инсон **абид**, тарки дунё қилган диндор киши **заҳид**, дунёга бемайл, беҳавас бўлишлик, нафсини тийишлик; тақводорлик **зухд** дея зикр этган: *Әгәр момин эрсәң тавазиъ қылын; Мусулманга мушфиқ болуб мэхрубан; Ибадат рийа болды абид мажаз; Ибадат рийа болды абид мажаз; Амал қойды алим заҳид зухд видаъ*. **Момин**, **мусулман** теонимлари илк марта “Қутадғу билиг” достонида кўрамиз: *қатиғ тотиниғ...* - барча мўминни (ДТС, 347). Айни пайтда, **момин** лексемаси таҳлил қилинаётган ёдномада туркий **-лык/-лик** қўшимчаси билан бирикиб от ясаган: *Моминлық нишаны тавазиъ эрүр*.

**Момин** теоними **mūmin(un)** ўзбек тилига чўзиқ **ū** унлиси ў унлисига алмаштириб, сукукли ҳамзани ташлаб қабул қилинган: **mūmin** → **мўмин**. Мазкур термин “содик бўлди”, “ишончли бўлди” каби

маъноларни англатган **ʿamuna** феълидан ясалган бўлиб, ўзбек тилида “ювош”, “беозор” каби кўчма маъноларни ҳам ифодалайди (ЎТЭЛ, II, 311).

**Мусулмантеоними** аслида арабча **муслим** сўзига тожикча **-он** кўплик кўшимчасини кўшиб ҳосил қилинган; кейинчалик **-он** кўшимчасининг кўплик маъносини ифодалаши уқилмай кетган; **муслимон** сўзининг иккинчи бўғинидаги **и** унлиси талаффуз қилинмай, **сл** товушлари оралиғига у унлиси киритилган: **муслимон** → **мусулмон** (ЎТЭЛ, II, 297).

Арабча **абид ʿābid (un)** шаклига эга; араб тилига чўзиқ фатҳали **айн** товушини **â**га алмаштириб қабул қилинган: **ʿābid** → **âбид (обид)**; **ʿabada** феълининг “сиғинди” маъноси билан ясалган (ЎТЭЛ, II, 335).

**Заҳид** истилоҳи **zāhid (un)** шаклига эга; ўзбек тилига чўзиқ **â** унлисини **â** алмаштириб қабул қилинган: **zāhid** → **zâҳид (зоҳид)**; асли кўпмаъноли **zahada** феълининг “ҳар қандай истакни тарк этди”, “кишилар билан мулоқотни тарк этди” маъноларибилан ҳосил қилинган (ЎТЭЛ, II, 151).

“Ҳибатул ҳақойиқ” асарида арабча **этиқадилк** бор “Худога ишониш, имон” маъносида ишлатилган: *Ким эрсә бу төрт эшкә бад этиқад; раҳматсўзи эса “марҳамат, мурувват” семасида қўлланишда бўлган: Уған раҳмат этсун бу саъат аңа.* Мазкур теоним биринчи марта Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарида келтирилади: *seniñ rahmatinñda bu yaziq az-oq* – сенинг марҳаматинг олдида бу гуноҳ оздир (ДТС, 476).

**Этиқад** истилоҳи **ʿiṭiqāt (un)** шаклига эга; ўзбек тилига касрали ҳамзани э товушига, чўзиқ **ā** унлисини **â** унлисига алмаштириб, сукунли айн ўрнига **ъ** (айириш) белгисини кўйиб қабул қилинган: **ʿiṭiqāt** → **эътиқâд (эътиқод)**. Бу сўз асли “боғлади” маъносини англатувчи **ʿaqaḍa** феълининг VIII боб масдаридан ҳосил қилинган (ЎТЭЛ, II, 515).

**Раҳмат** арабча **rahmat (un)** шаклига эга; ўзбек тилига **ҳойи ҳутти** ундошини **х** ундошига алмаштириб қабул қилинган: **rahmat** → **раҳмат**; “раҳм-шафқат қилди” маъносини англатувчи **rahima** феълининг I боб масдари бўлиб, араб тилида “раҳм-шафқат” маъносини билдиради; ўзбек тилида эса бу сўз асосан “ташаккур” семасида ишлатилади (ЎТЭЛ, II, 357).

**Қул** истилоҳи “Худога итоатли киши” маъносини ифодалаган: Нэчә ма хаталық қул эрсәм сәңә. Обидада эзгу, яхши амаллар арабча **саваб**: *Қалур сабр изиси савабын тутуб*; Адолат ва виждон билан иш тутиш **инсаф**: *Дад инсаф тутар чин ануширванитеонимлари билан берилган.* **Саваб** “Қутадғу билиг” достонида айни маънода қайд этилган: *javab qilsa bermiş söziñä savab* – яхши жавоб берса, сўзига бермиш савоб (ДТС, 492). **Инсаф** сўзи **ʿinṣāf (un)** шаклига эга; ўзбек тилига касрали ҳамзани **и** товушига, **садундошини с** ундошига, **â** унлисини **â** унлисига алмаштириб қабул қилинган: **ʿinṣāf** → **инсâф**; “икки тенг бўлакка бўлди” маъносини англатувчи **naṣāfa** феълининг “долат ва виждон билан иш тутиш” маъносини ифодаловчи IV боб шаклидан ҳосил қилинган

(ЎТЭЛ,II,170). **Саваб** теоними **šavāb (un)**шаклига эга; ўзбек тилига се ундошини с ундошига, чўзиқ ā унлисини â унлисига алмаштириб қабул қилинган: **šavāb** → **савâб;šāba**феълининг “мукофотлади, тақдирлади” маъноси асосида ҳосил қилинган (ЎТЭЛ,II,366-367).

Асарда «сақлаб бериш, вақтинча фойдаланиш ёки бошқа бир кишига элтиб бериш учун топширилган нарса» маъноси **аманат**сўзи ёрдамида ёритилган: *Қаны аҳд аманат қаны эзгүлүк*. Мазкур атамага даставвал «Қутадағу билиг» асарида дуч келамиз: *Āmānat bilä bolsa köñli süzüik* – Омонат билан кўнгли покланса (ДТС,75). **ʾamānat**→**âmānat** сўзи асли «хавф-хатардан холи бўлди» маъносини англлатувчи **ʾamina** феълининг 1 боб масдари бўлиб, араб тилида «ишончилиқ», шу маънодан ўсиб чиққан «сақлаш учун ишониб топширилган нарса» ва бошқа семаларни билдиради (ЎТЭЛ, II,343).

Туркийча **йазуқ**сўзи «гуноҳ» маъносини англлатган: *Йазуғлуқ кишиниң йазуғын кэчүр*. Мисолдан кўринадики, теонимўрганилаётган дostonда-**луқ/-луқ** кўшимчаси билан бирикиб янги сўз ҳосил қилган. Теоним дастлаб моний ёзув ёдгорликларида учрайди: *emti bu on türlüğ yazuq...* - энди бу ўн турли гуноҳ (ДТС,75). **Йазуқ**оти қадимги туркий тилдаги“хато қил-, гуноҳ қил-” маъносини англлатган **йа:з-** феълининг**йаз-** шаклидан **-(у)ққў**шимчаси билан ясалган (ЎТЭЛ,I,163).

“Ҳибатул ҳақойиқ” асарида мусулмонларнинг жам бўлиб, намоз ўқийдиган ибодатхонаси арабча **масжид**: *Хараб болды масжид бузун бэнамаз*;Худога илтижо қилиб, ўзи ёки бошқалар учун эзгу тилак тилаш**дуа**:*Мэңә адйа қылсу дуа тэб сэни*;Худо, пайғамбар ва халифалар, шоҳлар шаънига айтиладиган мақтов**ҳамд**: *Илаҳий өкуш ҳамд айур-мэн сэңә* теонимлари орқали ифода қилинган.

**Масжид** теоними **maçid(un)**шаклига эга; **saçada** феълининг“сиғинди”маъноси билан ясалган (ЎТЭЛ, II, 240).

**Дуа**сўзи**duwāʾ(un)**шаклига эга; ўзбек тилига чўзиқ фатҳали **айнни** âунлисига алмаштириб, сўз охиридаги ҳамзани ташлаб қабул қилинган: **duwāʾ** → **дуа**.Бу кўпмаъноли **daʾwā**феълининг “илтижо қилди” маъноси билан ҳосил қилинган (ЎТЭЛ, II, 112).

**Ҳамд**сўзи **hamd (un)**шаклига эга; ўзбек тилига **хойи хутти** ундошини ҳундошига қабул қилинган: **hamd** → **ҳамд**;**hamada**феълининг “мақтади” маъноси билан ҳосил қилинган (ЎТЭЛ, II, 571).

Ўрганилаётган манбада “Бирор ҳолат ёки ҳодисани бардош билан кутиш, қаноат қилиш”маъноси арабча **сабр**,”узр биланёлвориш, ялиниш” семаси арабча **тазарру**, “тақдир, қисмат” маъноси арабча **қазатеонимлари** орқали очиб берилган:*Бала кэлсә сабр эт фарраҳқа кутүб*; *Қозуб тилгә йүкнүб тазарру*; *Қаза бирлә санчлур азаққа тикән*.

**Сабр**сўзи **šabr (un)**шаклига эга; ўзбек тилига **сад** ундошини с ундошига алмаштириб қабул қилинган: **šabr** → **сабр**;кўпмаъноли**šabara**феълининг“тоқатли бўлди” маъносини билан ҳосил қилинган. Бу сўз билан ўзбек тилида **сабрли**, **сабрсиз** сифатлари,

**сабрсизлик** отиясалган, **сабрсизлан-** феъли, **сабр-бардош**, **сабр-тоқат**, **сабр-қаноат** жуфт сўзлари тузилган; тожикча **-и** кўшимчаси билан **сабри** сўзи ҳосил қилинган бўлиб, аёл кишининг исми, антропоним сифатида ишлатилади(ЎТЭЛ,II,170).

**Тазарру** терминит **taḍarruʿ(un)** шаклига эга; ўзбек тилига **дзад** ундошини **з** ундошига, чўзиқ **ī** унлисини **и** унлисига алмаштириб қабул қилинган: **taḍarruʿ** → **тазарру**; “муте бўлиб илтижо қилди” маъносини билдирувчи **daruʿa** феълидан ясалган. Бу сўз ўзбек тилида мустақил ишлатилмайди, **тавба-тазарру** жуфт сўзида қатнашади(ЎТЭЛ,II,407).

**Қаза** истилоҳи **qāḍāʿ(un)** шаклига эга; ўзбек тилига **дзад** ундошини **з** ундошига, чўзиқ **ā** унлисини **а** унлисига алмаштириб, сўз охиридаги **айн** ни ташлаб қабул қилинган: **qāḍāʿ** → **қазâ** (казо); кўпмаъноли **qāḍāʿ** феълининг “тугатди, йўқ қилди” маъносини билан ҳосил қилинган(ЎТЭЛ,II,522).

Демак, маълум бўладики, муаллиф шеърий матнларда келтирилган оятларва ҳадисларнинг мазмун-моҳиятини тушунарлироқ қилиб ёритиш учун нафақат туркий теонимлар, шунингдек, арабчалекемалардан ҳам ўз ўрнида фойдаланган. Айтиш керакки, дostonда қўлланган теонимларнинг аксариятини арабча истилоҳлар ташкил этади ва уларнинг айримлари дастлаб ўрганилаётган манбада кўзга ташланса, кўпчилиги илк марта Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асарида қўллана бошлаган. Бу эса, ўз навбатида, қорахонийлар даврида ислом динининг кенг қулоч ёйгани, асарда синонимик қаторлар вужудга келганидан далолатдир.

## **АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИ ТИЛИДА МЕВАСИЗ ДАРАХТ НОМЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ** Усмонова М.С, катта ўқитувчи,

Мевасиз дарахтнинг терминологик номларида икки маъно мавжуд бўлади: «дарахт» маъноси, унинг «танаси (ёғочи)» маъноси (ўз-ўзидан, «мева» маъноси қатнашмайди). Аммо мевасиз дарахт номларининг умумистеъмол (кўчма маънолари) турли-туман бўлиши мумкин. Навой асарларида мевасиз дарахтларнинг кўриниши, ранг-туси, ҳиди ва бошқа белгилари асосида маъно кўчириш, бу асосда уларни ўхшатиш, сифатлаш ва бошқа тасвирий воситаларга айлантириш кучли бўлганлиги кўринади. Ҳозирги ўзбек тилида ҳам ўсимлик номлари лексемалари «*Кўчма маъноларда метафорик бадий тасвирнинг муҳим воситаси бўлиб хизмат қилади*».<sup>1</sup>

Биз қуйида Алишер Навой асарларида учрайдиган мевасиз дарахт номларининг ўз (предмет) маъноси ва шу сўз ифодаладиган предмет белгиларига кўра ҳосил қилиниб, бадий тасвирга хизмат қилдирилган кўчма маъноларини ҳам тавсифлашга ҳаракат қиламиз.

<sup>1</sup> Неъматова Г. Ўқ ўша автореферат, 16-б.



1. **Айман**<sup>2</sup> «қизил шуълали бир дарахт» маъносида:
2. **Бақам** «танаси қизил дарахт» маъносида:
3. **Бед** «тол дарахти» маъносида:
4. **Мушкбид** «гули хушбўй қора тол» маъносида:

Бу сўз таркибидаги **мушк** эски ўзбек тилида «қора тусли хушбўй модда», **бед** эса «тол» маъносида қўлланган сўздир. Ҳозирги ўзбек тилида **мушк** «хушбўй қорамтир модда» маъносини, **мушку анбар** «хушбўй модда» маъносини билдиради.<sup>3</sup> Демак, **мушбиднинг** АНАТИЛдаги «гули хушбўй тол» изоҳига **қора** аниқловчисини қўшиб, «гули хушбўй қора тол» деб шарҳлаш тўғри бўлади.

5. **Муғилон** «тиканли бир дарахт», «акация» маъносида:
6. **Норван** «серсоя, чиройли ва яхши ҳидли дарахт» маъносида:
7. **Обнус** «қора тусли қаттиқ ва хушбўй дарахт» маъносида:
8. **Сандарус** «сарик тусли дарахт ва унинг сарик елими» маъносида:
9. **Сарв** «сарв, тик ўсадиган хушқомат дарахт» маъносида:

Бу сўз «қадди-қомати келишган гўзал маъшуқа» маъносида ҳам қўлланган:

Оразин гул дер эди, қаддини **сарв**,  
Ҳайъатин товусу рафторин тазарв.

10. **Тол** — «тол дарахти»:
11. **Сурхбед** «қизил рангли тол»:
12. **Терак** «терак дарахти»:
13. **Сапидор** — «оқ терак дарахти»:
14. **Тубо//тўби** — «жаннат дарахти»:

Бу сўз «келишган қомат» маъносида ҳам қўлланган:

Сипехр олинда андоқким овуч хок,  
Ва ёхуд **тўби** атрофида хошок. (Ш, 250)

15. **Чинор** «пўсти кўкиш, панжасимон шапалоқ баргли, узоқ умрли, серсоя катта дарахт»<sup>1</sup>:

16. **Шамшод** — «хушқомат ва кўриниши чиройли дарахт»:
17. **Санавбар** — «хушқомат дарахт»:
18. **Ножу** — «санавбар дарахти»:

19. **Хайзарон** — «тропик ва субтропик мамлакатларида ўсадиган, танаси қамишга ўхшаш қавак, баланд бўйли ўсимлик»<sup>1</sup>:

20. **Сўксўк** — «саксовул», «чўлларда ўсадиган баргсиз дарахт»:

Юқоридаги мисоллардан маълум бўладикки, Алишер Навоий асарларида қўлланган мевасиз дарахт номлари ва уларга алоқадор сўзларнинг бир

<sup>2</sup> «Навоий асарлари луғати» (Тошкент, 1972)да Айман «Арабистондаги жой номи» деб изоҳланган (37-бет). АНАТИЛ (I, 65)да берилган байтдаги **нори айманни** «қизил рангли дарахт» деб ҳам, **Айман анори** деб ҳам тушуниш мумкин.

<sup>3</sup> «Навоий асарлари луғати» (Тошкент, 1972)да Айман «Арабистондаги жой номи» деб изоҳланган (37-бет). АНАТИЛ (I, 65)да берилган байтдаги **нори айманни** «қизил рангли дарахт» деб ҳам, **Айман анори** деб ҳам тушуниш мумкин.

<sup>1</sup> Ўша луғат, II том, 370-б.

<sup>1</sup> Қаранг: Ўзбек тилининг изоҳли луғати: I том. — М., 1981, 77-б.

нечасигина (**сарв, тол, терак, чинор, шамшод, сарвқомат, сарвқоматлик**) ҳозирги ўзбек тилигача етиб келган, лекин уларнинг кўпчилиги (**айман, хайзарон, бақам, бед, мушкбид, муғилон, норван, обнус, сандарус, сарвбун, сарвбўйлук, сарвсифат, сарвқад, сарвқадлик, сарвистон, сурхбед, сапидор, ножу, тубо//тўби, санавбар**) истеъмолдан тушган.

Бир хил мевасиз дарахтни икки ном билан аташ **тол** — **бед** мисолида кўринади, лекин «тол» маъносида яна икки сўз қўлланган: **сурхбед** толни ранг-туси қоралигига кўра фарқлаб атаган номдир, **мушкбидда** ҳам толнинг қоралигига ишора бор, лекин унда «гули хўшбўй» маъноси ҳам ифодаланади. Худди шунингдек, теракнинг оқ тусли тури **сапидор** номи билан юритилган, **ножу** ва **санавбар** сўзлари бир хил дарахт номини ифодалаган.

**Тол (бед), сурхбед, мушкбид** сўзларини бир хил ўсимликнинг номини турли маъно кирралари билан ифодалаётгани учун маънодош (синоним) сўзлар деб баҳолаш керак. Аммо маънодошлик ҳодисаси ўсимлик номлари умумий қурилишига хос эмас (яъни **тол** билан **терак** бир-бирига синоним бўла олмайди). «*Синонимик ва градуонимик муносабатлар бу тизимдаги ҳар бир сўз учун алоҳидаликда хос бўлиб, тизимнинг умумий қурилишига алоқадор эмас*».<sup>1</sup>

Мевасиз дарахт номлари ичида сермаънолилиги жиҳатдан **сарв** сўзи алоҳида ажралиб туради: бу номнинг якка ўзи ва у асосда ясалган содда ясама ва кўшма сўзлар йигирмадан ортиқ умумистеъмол (кўчма) маъноларда қўлланган.

## HUSAYN BOYQARO ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA

I.M.Parmonov F.I.Majidov(JDPI)Talaba

Husayn binni Umarshayx binni Temur 1438 yilda Hirotida dunyoga kelgan. 1469-1506 yillarda Huroson hukumdori bo'lgan.U Alisher Navoiyning maktabdosh do'sti, o'zbek adabiyotida ma'lum iz qoldirgan lirik shoir, adabiyotshunos hamdir.

Zaxriddin Muhammad Boburning yozishicha “Sulton Husayin Mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Huroson, batxisis Hirot shahri momly edi. Har kishining kim bir ishga mashg'ulligi bor erdi, himmati va g'arazi ul erdikim, ul ishni kamolga teg'urgay”.

Husayn Boyqaro turk tili va adabiyotida katta faoliyat ko'rsatdi. U o'z g'azallarini ham o'zbek tilida yozib, devon tuzadi. Bu davrda o'zbek tili xukumron doiralar tomonidan kamsitilgan, bu tilda ijod qilish qoralangan edi. Ana shunday bir davrda Husayn Boyqaro maxsus farmon chiqarib, barcha qalam ahllarini turk tilida ijod qilishga undaydi. Qalam ahllariga e'tibor bilan qaraydi. Bu haqda Alisher Navoiy o'zining “Muhokamatul lug'atayn ” asarida yozgan edi: “Kalom ahliga tarbiya va ibtixojlar va qalam hayliga ravnaq va rivoj dast berdi. Va har ilmda mufid ta'liflar va har onda fanda muntij tasniflar qildilar va g'arib rasoyili ma'naviy zuxur qildi va ajib davoyin va g'azal va kasoyid va masnaviy yozildi.

Sulton Husayn Boyqaro g'oyatda bilimdonlik bilan saltanatni boshqargan. U jasur va epchil bo'lgan. Uning shakl va shamoyili haqida Zaxriddin Muhammad Bobur shunday yozadi: “Kiyik kuzluk, sher andom buyluk kishi edi. Bovyjudkim, ulug' yosh yashab, oq soqollik bo'lib edi, xushrang qizil, yashil abrishimni kiyar edi, yo qalpoq, axyonan iydlarda kichik sepech dastori yap-yassi yamon chimon chirmab, karkara utagasi sanchib, namozga borur edi.

Avval taxt olganda xayoli bor ekandurkim, duvozdax imomni xutbada o'qitgay. Alisherek va ba'zilar man qilibdurlar. So'ngralar xud jami ish kuchi sunnat va jamoat mazxabi bila

<sup>1</sup> Неъматова Г. Х. Кўрсатилган автореферат, 13-б.

muvoftiq edi. Mafosil zaxmati jixtidan namoz qila olmas edi, ro'za ham tutmas edi. Xarrof va xushxulk kishi edi. Xulqi bir nima guzarroq voqe bo'lib edi. Ba'zi muammalotga sha'nri bisyor rioyat qilur edi. Bir kalta bir o'g'li bir kishini ultirgan uchun qopliklariga topshirub, dorulqozaga yubordi.

Shujo' va mardona kishi edi. Borlar o'zi qilich tegurubdur. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim Sulton Husayn mirzocha qilich chomish bo'lgay. Tab'i nazmi bor edi. Devon nam tartib qilur edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi "Husayniy"edi, Ba'zi baytlari yomon emastur, vale mirzoning devoni tamom bir vazndadu, .bovujudkim, ham yosh va saltanat bila ulug' podshox edi, kichiklardek quchqor sahlab, kabutar o'ynar edi, tovuq ham urushga solur edi?

Keyingi vaqtlarda halqimiz orasida Sulton Husayn Boyqaroning o'limi va dafn qilinishiga oid g'ayri tabiiy va munozarali fikrlar mavjud. Tarixiy manbalardan ma'lumki Sulton Husayn Boyqaro Muhammad Shayboniyxonga qarshi yurish qilayotib, yo'lda Babo Iloxiyda tasodifan vafot etadi. Turg'un Fayziyevning "Temuriylar shajarasi" kitobida yozilishicha "arkoni davlat va Shag'zodalar shaxonshoxning o'limi haqidagi xabar atrofga tarqalib, Muxammad Shayboniyxonga yetib borgunga qadar, shoshilinch ravishda shaxonshohni dafn etib, qo'shin salohiyatini tuzatib, jang taraddudini ko'rishga jazm qiladilar. Ammo qandaydir sabablarga ko'ra shaxonshohning jasadini madrasa ichidan oddiy qabr qazdirib omonat dafn qiladilar. (balki shaxonshoh uchun jihozlanishi lozim bo'lgan maqbara yoki qabr bitmagandir). Shundan so'ng bir necha muddat o'tgach, shaxonshoh jasadini xaqiqiy qabrga olib qo'yish maqsadida avvalgi qabrini ochadilar. Qaysi ko'z bilan ko'rsinlarki, lahad ichida shaxonshoh to'ntarilib yotar, ustidan kafanlari tushib ketgan, lahadning devorlari qo'l bilan timdalangan holda edi. Gap shundaki, Sulton Husayn Boyqaro sakta kasali bilan vafot etgan. Bemorning tomirlari bir necha muddat bexol urushi natijasida hayot uchquni sezilmay qolgan. Tabiiyki, kasallikning bunday pinxoniy sirlaridan voqib bo'lolmagan tabiblar va shaxonshohning yaqinlari uni olamdan o'tdi deb hisoblab, dafn etganlar. Biroq sovuq lahadda birmuncha muddat yotgach, bemorning tomirlari yana o'z me'yorida harakatga kelgan bo'lishi mumkin.

Biobarin, bemor qorong'u lahad ichra o'ziga kelib, lahadan chiqishga harakat qilgan. Ammo barcha harakat zoye ketgan.

Sulton Husayn Boyqaroning qabri ustiga o'rnatilgan qora marmar toshni "Sangi xaft qalam" deb atashadi. Mazkur mo'jizaviy naqshinkor nafis qora toshni XV asrda Kamoliddin Bexzod tarxi asosida uning Hirotdagi shogirdlaridan biri ishlagan "Sangi xaft qalam" deyilishining sababi shundaki, bu toshga yetti qator shaklni yetti xil uslubda o'yib bitilgan. Shuningdek, yetti qatoridagi yetti xil shakl bo'lib, mutlaqo bir-biriga o'xshamaydi.

Bu xaqda shunday rivoyat ham tarqalgan:

Kunlardan bir kun Sulton Husayn Boyqaro o'z zamonasining mashhur va mohir san'atkorlaridan birini huzuriga chorlab, o'zi uchun qabr toshi yasab berishni buyuribdi. Sangtarosh usta yetti yil muttasil mehnat qilib, mazkur "So'ngi haft qalam" ni tayyorlashga muvaffaq bo'libdi. Ammo hali qabr toshi tugal bitmay shaxonshohning sevikli o'g'li Shoxg'arib Mirzo vafot qiladi.

Shaxonshoh sangtarosh ustani chorlab, o'zi uchun ishlayotgan qabr toshiga o'g'lining nomini yozishga o'ziga esa boshqasini yasab berishni buyuribdi. Sangtarosh usta shaxonshohga qarab, -Shohim, men qarib qolgan kishiman, bitta toshga yetti yil umr sarf bo'ldi. Yana ikkinchi tosh uchun umrim kifoya qilarmikan?-dedi. Shunda shaxonshoh ustaning nozik zamzamasining ma'nosiga tushunib, hazil-mutoyiba aralash amrona tarzda "men ham hali beri yorug' dunyodan ko'z yumishni istayotganim yo'q. Boring zudlik bilan ishga kirishing",-degan ekan.

"Sangi haft qalam" haqidagi rivoyatni isbotlovchi ayrim yozma ma'lumotlar ham mavjuddir. Chunonchi Afg'onistonlik olimlardan Rizo Moyil Xiraviy mashhur Abdulla Avloniyning tug'ilganiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan qo'lyozma asarlar asosida yozgan "Piri Hirot" asarida "Sangi xaft qalam" haqida quyidagilarni yozadi "Sangi xaft qalam" jahondagi hattotlik san'atining bebaho durdonalaridan bo'lib, Sulton Husayn Boyqaro tarafidan shaxsan o'z qabriga atab buyurtirgan qabr toshi edi. Ammo taqdir taqozasi bilan 1496 (902) yil

o'g'li Husayn Shoxg'arib Mirzo vafot etadi. Mazkur qabrtosh esa shaxzodaning qabriga qo'yiladi.

Sulton Husayn Boyqaroning qabriga esa yuqorida zikr qilinganidek, o'sha mohir sangtarosh usta tomonidan ikkinchi "So'ngi haft qalam" yasaladi. Mazkur toshlarning biri gozurgohning o'ng tomonidagi hujralardan biriga dafn etilgan shaxzoda Shoxg'arib Mirzoning qabri ustiga, ikkinchi qabrtosh esa Sulton Husayn Boyqaro qabri ustiga qo'yilgan.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ADABIYOTGA MEHR UYG'OTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**G.Hamidova, JDPI katta o'qituvchi**

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish, kitobxonlikka mehr uyg'otish bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa bolalarga atalmish vaqtni matbuot, bolalar kitobi, kitobxonlikka mehr uyg'otish ta'lim – tarbiya berishda juda katta ahamiyat va o'rinni egallaydi.

Bolalarni tarbiyalash davlat, ahamiyatiga ega bo'lgan jarayondir, chunki unda jamiyatning barcha a'zolari ishtirok etadilar. Shuning uchun ham respublikamizda ushbu jarayonga katta ahamiyat berilmoqda.

Zero yoshlar bizning kelajagimiz, biz ularga qanchalik ko'p bilim va tarbiya bersak kelajagimiz shunchalik farovon, mamlakatimiz tinch va osoyishta bo'ladi. Bolalar xarakterida shakllanayotgan ilk tushuncha va hissiyotlarni o'z vaqtida ilg'ab olib ularning keyingi amaliy faoliyatiga yordam berish har bir tarbiyachi va tarbiya muassasalarining birinchi navbatdagi vazifasidir.

Mamlakatimizda bola tarbiyasi bilan quyidagi ijtimoiy institutar: oila, davlat tizimidagi ta'lim va tarbiya beruvchi muassasalar, madaniy – ma'rifiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor, kino) ularni o'rab turgan tashqi muhit, o'rtoqlari shug'ullanadi. Ayniqsa bolalarga atalgan vaqtli matbuot, bolalar va o'smirlar kitobi ularga ta'lim va tarbiya berishda juda katta o'rinni egallaydi, busiz haqiqiy insonni tarbiya beruvchi shaxs misolidir.

Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. O'zbek folklorining barcha janrlari ya'ni miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, tarixiy qo'shiqlar, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, marosim folklori va bolalar folklorining barcha janrlari, xilma-xil qo'shiqlar, og'zaki drama, askiya va boshqalar katta tarbiyaviy imkoniyatlarga egadirlar. Xalq folklorida ta'lim va tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Har tomonlama yetuk, yuqori axloqli shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasiga xos bo'lgan va tarbiya ishida qo'llash mumkin bo'lgan pedegogik ma'lumotlar o'zbek folklorining sanab o'tilgan barcha janrlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, xalq og'zaki ijodining boshqa namunalaridagi singari, xalq maqollarti va ertaklarida halollik, to'G'rilik, yaxshilik, botirlik, sahiylik, go'zallik, kamtarlik kabi axloqiy sifatlar yuksak baholanadi. Va aksincha, tekinxo'rlik, egrilik, yomonlik, qo'rqqoqlik, baxillik, xunuklik, manmanlik singari salbiy xususiyatlar qoralanadi. Misol tariqasida

bilimdonlik va ilmsizlikka oid ushbu maqollarni keltiramiz: «Bilgan o‘qir, bilmagan to‘qir», «Bildirish uchun bilish kerak», «Bilimsiz kishiga ish yo‘q, ilmsiz kishiga osh yo‘q. Yoki «Farhod va Shirin», «Uch o‘G‘il», «Aql va oltin» ertaklarida ilm-hunar ulug‘lansa, «Etti ahmoq» «Kuygan chol», «Soqi mumsik bilan Boqi mumsik» kabi ertaklarda savodsizlik, ahmoqlik, fahmsizlik kabi illatlar kulgi ostiga olingan.

Tarbiyachi kitobxon bilan kitob almashtirayotganda davra suhbatini bilan quyidagi foidalarga amal qiladi.

1. Suhbat kitobxon qiziqishga manoli bo‘lish kerak, agar shunday bo‘lmasa, kitob tavsiyasi va tarbiyachining maslahati zo‘rma- zo‘raki g‘amxo‘rligi keraksiz bo‘lib qoladi.

2. Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan, bo‘lib kitobxonning qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim.

Bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishiga moyillik uyg‘otish kerak.

3. Tavsiya etilayotgan materialning to‘liq mazmunini aytib bermaslik lozim, unda kitobxonning materialga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi.

4. Tavsiya etilayotgan materialning qisqa ifodalik, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

5. Kitob haqida suhbatlashayotganda kitobni ko‘rsatish, uning muallifi, rasmlari ba‘zi joylarida o‘qib berish ham mumkin bu esa suhbatini jonli o‘tishga yordam beradi.

Ko‘pgina maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli kitoblar berishini so‘raydilar. Tarbiyachi haqiqiy qirg‘in narsalar haqida u bilan birgalikda eslaydi, shundan so‘ng qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi.

## **ADABIYOT- BEBAHO MA’NAVIY BOYLIK**

**U.Qosimov dots, Oripova Nigora, talaba**

Mustaqil respublikamizning kelajagi hozirgi yosh avlod qanchalik barkamol va ma’naviy yetuk shaxslar bo‘lib ulg‘ayishiga bog‘liq. Bu ezgu maqsadlarimiz esa ta’lim-tarbiya tizimi va mazmunini tubdan isloh qilmasdan turib erishib bo‘lmasligi ayon. Xususan, **“Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”** va **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** talablari asosida yangi darslik va majmualar yaratishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan o‘rta maktab o‘quvchilari uchun so‘nggi yillarda nashr etilgan Adabiyot darsliklarimiz yuzasidan ba‘zi kuzatishlarimni bayon etmoqchimiz. Taassufki, sobiq sho‘ro davrida boy tariximiz va adabiyotimizni xolisona o‘rganishga deyarli imkoniyat berilmagan va bunday harakatlar “o‘tmishni ideallashtirish”, “millatchilik” deya taqiqlab kelingan. Masalan, Navoiy ijodi va shaxsiga alohida mehr va e’tiqod qo‘ygan va buyuk shoirga bag‘ishlab, qator she’r-doston va roman yaratgan Oybekning boshiga qanchalar ko‘p nohaqliklar tushganligini va oqibatda xastalanib qolganligini hozirgi yosh larimiz bilmasligi mumkin. Darhaqiqat, sobiq sho‘ro davrida hukmron sotsialistik mafkuraning tazyiqi o‘laroq, O‘zbek tilimiz va

mumtoz adabiyotimiz tarixiga, hatto Navoiydek daho san'atkorlar ijodi va dunyoqarashiga nisbatan ham o'ta biryoqlama qarashlar ustuvor bo'lgan. "Adabiyot" bo'yicha dastur yoki qo'llanmalar yaratishdan oldin bugungi maktab, kollej va akademik litseylarimiz o'quvchilarining ruhiyati va ma'n aviy-estetik ehtiyojlarini, salohiyati va did-saviyasini yetarli darajada o'rganyapmiz, deb ayta olmaymiz. Darslik- majmuallarimizning har jihatdan takomillashuvi bir qator sabab-omillarga bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda bir guruh adabiyotshunos olimlarning sa'y-harakatlari bilan umumta'lim maktablari uchun tayyorlangan "O'zbek adabiyoti" darslik-majmualari sobiq sho'ro davridagi darslik xrestomatiyalardan keskin farq qiladi. Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan va mustabid tuzum mafkurasi tazyiqidan batamom qutulgan bu darslik majmuala rimiz bir qator ijobiy fazilatlarga ega. Jumladan, badiiy adabiyot namunalariga ilgarigid ek sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan emas, balki ularga eng avvalo san'at asari sifatida yondashish va badiiylik mezonlari asosida o'rganish bu darslik majmualarimizning asosiy xususiyatidir. Ammo oliy hakam bo'lgan vaqt, jo'shqin hayot va amaliyot ularni ham jiddiy sinovdan o'tkazmoqda.

Majud darslik-majmuallarning ayrimlari jiddiy tuzilishi va mazmun-mundariyasi yaxlit tarzda puxta o'ylanmagan va umumiy tahrirdan o'tkazilmagan ko'rinadi. Ehtimol, shuning oqibati bo'lsa kerak, o'zgarilishi va qisqartirilishi zarur bo'lgan ortiqcha o'rinlar , bahsli mavzu va matnlar ko'plab uchraydi. Ular nafaqat mazkur darsliklarning umumiy saviyasiga, balki "Adabiyot" fanining o'qitilish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. . Chunonchi, 5-11 sinflar uchun chiqarilgan darslik-majmuallarida ko'pgina mavzu va adabiy asarlar yoki ulardan olingan matn parchalari takrorlangan. Masalan, qadimiy yozma yodgorliklarimizdan biri- Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan olingan qator namunalar 5,7 va 9- sinflarning darslik -majmualariga deyarli o'zgarishsiz qayta-qayta kiritilgan. Yoxud Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy va Rabg'uziy kabi mumtoz adabiyotimiz vakillari asarlaridan olingan aksariyat paralari ham sinfdan-sinfga deyarli bir xil qolipda takrorlanib keladi. Tabiyki, bu hol darsliklarning g'oyaviy-badiiy mundarijasini boyitish va ularning ilmiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qilmaydi. Shunday asossiz qaytariqlarni XX asr adabiyotimiz namoyandalari hayoti va ijodi misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, H.H Niyoziyning ba'zi noaniqlardan holi bo'lmagan tarjimai holi va "Yig'la, Turkiston", "Dardiga darmon istamas" kabi she'rlari ham bir necha sinf darslik-majmuallaridan o'rin olgan. Bu esa o'quvchida haqli e'tiroz uyg' otadi. Bizningcha, darslik-majmuallarimizni mukammalashtirish va o'quvchilari mizni insonshunoslik deb atalmish o'zbek tili-adabiyoti olamiga bo'lgan mehr va ishtiyoqini kuchaytirish uchun mana shunday o'rinsiz takror va qaytariqlarni bartaraf etish joiz. Ikkinchidan esa, "To'maris" va "Shiroq" kabi eposlarimizning muhim tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatini hech kim rad etmaydi. Lekin ularni ham ma'lum bir sinfdan o'tishni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda, yana bemavrid qaytariqlarga yo'l qo'yiladi va eng tashvishlisi, darslari o'quvchilarni zeriktiruvchi bir mashg'ulotga aylanib qolish xavfi tug'iladi.

Shuningdek, eng qadimgi nodir Toshbitiklar va “Irq bitig” (Ta’birnoma) kabi tarixiy-adabiy matnlar to‘g‘risida ham o‘quvchilarimizga muayyan tasavvurtushunchalar berilishi foydali, ammo bu kabi ilk yozma manbalar “Tarix” darslarida ham o‘rganiladi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 12.01.2017 yil jamiyatimizda **Kitobning** o‘rni va ahamiyatini oshirish bo‘yicha gabul qilgan farmoyishi ham bu sohada yanada mas’uliyat bilan ishlashimizni talab qiladi. Ushbu Farmonda belgilangan muhim hayotiy vazifalar adabiyjt darsliklari va o‘qituvchilariga ham to‘la taluqlidir.

Albatta, darsliklarning saviyasi, g‘oyaviy-badiiy mazmuni hqaida qayg‘urishimiz, jiddiy bahslashimiz samarasiz qolmasligiga umid bog‘lash mumkin. Biroq asosiy gap-o‘qituvchilarimizning kasb mahoratida ularning ijodiy Izlanuvchanligida, adabiyotni nechog‘lik chuqur bilishi va e‘zozlashidadir. Eng muhimi, shu yuksak bilim, e‘zoz va mehri o‘quvchilarga “yuqtira olish”da. Yirik alloma Ozod Sharafiddinov ta’kidlagan idek, o‘quvchining qalbi adabiy asar beradigan barcha ma’naviy boylik va go‘zalliklarni ardoqlay oladigan kuchga ega bo‘lsin. U haqiqat, adolat, vijdon, to‘g‘rilik degan muqad das tushunchalarni aqlangina eas, qalban his qilsin. Adabiyot uning hayotida shunday o‘rin olib qolsinki, maktab quchog‘idan chiqib ketganidan keyin ham u biror qunini badiiy asarsiz tasavvur qilolmasin.Kitob uning uchun suv va havodek zarur bo‘lib qolsin.

2010 yilda “Istiqlol davri adabiyoti” nomli yangi darslik nashr etilgan. Bu darslik ham ko‘pgina ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi. Lekin mazkur darslikda ham ayrim bahsli o‘rinlar borki, ular o‘quvchilarda haqli e‘tiroz uyg‘otadi deb o‘ylaymiz. YA’ni bu darslikda Mustaqilligimiz uchun kurashgan va o‘z ijodida milliy ozodlik va vatanparvarlik g‘oyalarini kuylagan va kerak bo‘lsa Vatan ozodligi va erki yo‘lida aziz jonlaridan kechgan fidoiy adiblarimiz, ya’ni Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va Usmon Nosir kabi yorqin talant sohiblarining xizmatlari va boy ijodi umuman tilga olinmagan. Holbuki, bu adaiblar butun hayoti va iste’dodi bilan Istiqlolimiz uchun kurashgan va bugungi yangi adabiyotning ta’mal toshlarini qo‘yib ketgan edilar. Qolaversa, Istiqlolga osonlik bilan erishmaganimizni va bu yo‘lda qancha buyuk iste’dod sohiblari qurbon bo‘lganligi va ularning betakror ijodi Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilishning va yuksak badiiy mahoratning ham yorqin namunasi ekanligini unutmashimiz lozim. SHuningdek, bu ustozlarning ijodiy an’analarini muvaffaqiyatli davom ettirgan O‘lmas Umarbekov va O‘tkir Hoshimov kabi talantli adiblarimizning etuk asarlari ham o‘zbek tilimiz va adabiyotimiz rivojida munosib o‘rin tutadi. Afsuski, bu adiblarimiz ijodi ham etarli darajada o‘rganilgan deb ayta olmaymiz. Biz yoshlar ham bu xayrli ishga o‘z hissamizni qo‘sha olsak, o‘quvchilarda ona tilimiz va adabiyotimizga, ya’ni KITOB deb atalmish bebaho ma’naviy olamga mehrini oshirgan bo‘lamiz.

## ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA OKSIMARON

Musayev A, dotsent.. Bobonazarova M, talaba

Insoniyatning eng yuksak boyligi bo'lgan tilimizda va undagi so'zlar, so'zlar bilan bog'liq ko'plab mantiqiy fikrlarni uchratishimiz mumkin. O'zbek nutq madaniyati, masalalari hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan sanaladi. O'z fikrini to'g'ri bayonlashni o'rganish orqali nutq madaniyati va notiqlik san'ati sirlarini egallaydi. XV asrda Alisher Navoiy turkiy tilni forsiy tildan ustun qo'yib, ushbu tilni davlat va she'riyat tiliga aylantirdi. V asr davomida ushbu tilda minglab ash'orlar yartildi, go'zal asarlar bitildi. Tilimizning naqadar serqirra ekanligini, undagi ba'zi hodisalar haligacha to'liq o'rganilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, oksimoron hodisasi ham.<sup>107</sup> Oksimoron aslida nima degan savolga to'xtalib o'tsak. Oksimaron grekcha so'z bo'lib, oxymoron "o'tkir-u lekin be'mani". Mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchani (mazmunan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki so'zlar) o'zaro qo'shishdan iborat stilistik figuradir.

Bu hodisaning she'riyatda uchraydigan tazod san'atidan farqi tazodda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki so'z qo'llaniladi.<sup>108</sup> Masalan, Erkin Vohidovning "Yo'qni qanday bor etay" she'rida tazod san'atining namunasini ko'rishimiz mumkin:

To'g'ri so'z tuqqanga yoqmas,  
Haq ekan, e voh netay,  
Do'stni dushman qildim endi,  
Dushmanimni yor etay.

Bu she'rda to'g'ri so'zni aytib do'stlarimni dushmanga aylantirdim deb ta'kidlaydi. Keyingi misralarda esa bu maskanlardan bosh olib ketay deb she'rini yakunlaydi.

XX asr o'zbek she'riyatining zabardast vakili, O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov she'rlarida ham oksimoron hodisasini ko'plab uchratishimiz mumkin.<sup>109</sup>

"Oyning o'n beshi qorong'u" she'rida quyidagi misralar bor.

Barcha zahmat menga bo'lsin,  
Mayli doim men yashay,  
Bu ajib totli azob-u,  
Bu shirin qayg'u bilan.

Bu she'rda shoir o'zbek xalq maqollariga murojaat qilgan. Mazkur she'rda lirik qahramon qayg'u va azob, totli va shirin so'zlariga nisbatan oksimoron hodisasini yuzaga keltirmoqda. Azob salbiy ma'nodagi so'z bo'lib, qiynalishni, og'riqni ifodalaydi. U esa totli bo'lishi mumkin emas. Lekin shoir bu yerda yor uchun tortgan azobi totli ekanligini ta'kidlab o'tmoqda. Ikkinchi jumlada

<sup>107</sup>Hojiyev A "O'zbek tilining lingvistik lug'ati" Toshkent 1985. 128-bet

<sup>108</sup>Vohidov E "Devon" Toshkent 2015. 75-bet

<sup>109</sup>Vohidov E. "Yoshlik" devoni. Toshkent, 1969. 69-bet



ham qayg‘u so‘zi o‘ziga mos bo‘lmagan shirin so‘zi bilan sifatlangandir. Odatda qayg‘u alamli yoki azobli bo‘lishi mumkin. Ammo shoir E. Vohidov bu so‘zlarni birgalikda qo‘llab, yuksak she‘riyat namunasini yarata olgan. Adibning yana ko‘pgina she‘rlarida bu hodisani kuzatishimiz mumkin. Uning yana bir go‘zal she‘rlaridan biri <sup>110</sup> “Shirin”dagi quyidagi satrlarda ham bu hodisani ko‘rishimiz mumkin.

Ishqu yor bo‘lsa firoq,  
Chekkanda hatto g‘am shirin.

Yor vasliga yetishishdan har qanday qiyinchilik unga huzur bag‘ishlashi, bu misradagi “shirin” so‘zi “g‘am” so‘zi bilan birgalikda qo‘llanilib, she‘rning jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

“Yaxshidir achchiq haqiqat” she‘ri ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Yaxshidir achchiq haqiqat,  
Lek shirin yolg‘on yomon.  
Ul shirin yolg‘onga,  
Meningdek aldanib qolg‘on yomon.

Shoirning mazkur she‘rida haqiqatning naqadar achchiq bo‘lishi, yolg‘onning esa shirinligi oksimoron tarzida, shirin yolg‘onning insonga qanchalik ta‘sir etishi, insonni ishonishga majbur eta olishi yorqin ko‘rsatib berilgan.

Oksimoron hodisasini birgina E. Vohidov ijodida emas, balki ko‘plab ijodkor shoirlarimiz ijodida ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, Mirtemir, Rauf Parfi, M. Yusufklar ham o‘z ijodlarida oksimoron hodisasiga murojaat qilishgan. Bunday hodisalar tilimizning cheksiz imkoniyatlarini ochib beradi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Shularni hisobga olib, nutq madaniyati muammosining ilmiy asosda ijodiy yoritish, ko‘pgina masalalarda yangi fikrlar berilishi ishning qimmatini oshiradi.

## **“ERTAKLAR MAKTABGACHA TA’LIM YOSHDAGI BOLALARDA SABR – QANOAT TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA**

**Hasanova G, JDPI magistranti**

Maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni ma‘naviy – axloqiy sifatlarini shakllantirishda bolalarni yoshi va psixologik hissiyotlari, ularni aqlan va jismonan chiniqtirishga e‘tibor berish maqsadni amalga oshiruvchi birdan – bir yo‘ldir.

Maktabgachata‘lim yoshidagi bolalarda sabr – qanoat tushunchalarini shakllantirishda va tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni belgiladik:

1. Sabr – qanoat tushunchalarini shakllantirish bola tarbiyasi uchun muhim bo‘lganligi sababli, ular mazmunidagi sodda ko‘rinishlarini ta‘lim tarbiya jarayonida sinov tarzida qo‘llashni rejalashtirish;

---

<sup>110</sup>Vohidov E. “Saylanma” Toshkent, 2001.1-jild 28-bet

2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni hayotiy tajribasi har bir hatti – harakatlarini yuzaki bajarilishi holatini va sababini aniqlovchi diagnostik ishlarni o'tkazish;

3. Bolalarda sabr – qanoatni mohiyatini tushunishiga imkon beruvchi vositalarni belgilash.

Yuqorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi vositalardan foydalanildi:

- Xalq og'zaki ijodida turli janrlardan foydalanish, ya'ni maqol, naql, she'r va hikmat, rivoyat va hikoyat, qissa va dostonlar, ertaklar va o'yinlar.

- Xalq yaratgan pandnomalar, ya'ni “Odobnoma”, “SHohnoma”, “Qobusnoma”, “Temur tuzuklari” va boshqalar.

- Vatan va uning ravnaqi uchun jonini fido etgan qahramonlarning jasorati va sabr – qanoati, ya'ni Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, A.Fitrat, A.Qodiriy va boshqalarning g'am – alam va qayg'ularni yengillatuvchi nasihatlar, xalq kuylari va aytishuvlar.

Yuqoridagi vositalardan foydalanishda quyidagi usullar yaxshi samara berishi mumkin:

- Sabr – qanoat tushunchalari mohiyatini mashg'ulotlar va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bolalarning ongiga singdirish;

- Har bir mashg'ulotlarda bolalar ishtirokida sabr – qanoatga oid kichik – kichik lavhalar tayyorlash va uni o'tkazish;

- “Zumrad va Qimmat”, “SHoshqaloq bola” nomli qo'g'irchoq teatri ko'rinishini bolalarga namoyish qilib berish va hokazolar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni sabrli, o'ylab ish tutishi, har bir ishni oqibatini bilishga o'rgatish tarbiya jarayonida muhim omil hisoblanadi. Xalq qissalaridan “Xotamnoma” asaridagi besh g'oya Xotamni saxiy, sabr – qanoatli qilib tasvirlagan. Mazkur asarda ikki ilon (oq ilon va qora ilon) o'rtasidagi sho'aro janjal tasvirlangan bo'lib uning mazmuni quyidagilardan iborat: Xotam ulardan so'radi - Ey hayvonlar! Sizlarning o'rtangizda nima xusumat bordirki, bunday janjal qilyapsizlar.

Oq ilon aytdi: bu meni otamni o'ldirgan.

Qora ilon aytdiki: meni qornim och, uni yeyman.

Xotam aytadi: ey ilon, agar qorning och bo'lsa, men o'z badanimdan kesib beray, agar sen otangni xunini olmoqchi bo'lsang, meni o'ldir.

Qora ilon dedi: menga go'sht va'da qilding, qani ber? Xotam aytdi: badanimni qaysi joyidan kesib beray? Ilon dedi: yuzingdan kesib ber! Xotam xanjarini g'ilofidan chiqarib yuzini kesmoqchi ediki, qora ilon baqirdi: Ey Xotam, men seni sinamoqchi edim. Seni saxiyligingga va sabr – qanoatingga ofarin.

Biz mazkur ishda kuzatish va tadqiqot darajasida maktabgacha ta'lim tizimida davlat tayanch dasturini muammo yuzasidan tahlil qilish, dasturni ta'lim – tarbiyaning asosiy yo'nalishlari bo'lishida bolalarning ma'naviy – axloqiy tarbiyalashni amalga oshirishda, bolalarni nutq va tafakkurini rivojlantirishda bolalarni tabiat va jamiyatdagi hodisalar bilan so'zlashuv madaniyatiga ega qilish, yomonni yaxshidan ajratishga, xalq o'yinlari orqali xushmuomalalik, sabr –

qanoatli bo'lishga e'tibor qaratishga harakat qildik. Ayniqsa, bolalarni o'sishida va rivojlanishida o'yinlarning ahamiyati juda katta. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim, ya'ni o'yinda shoshqaloqlik qilmaslik, xafa bo'lib, bir – biriga jahl qilmaslikka o'rgatish kerak.

Qadim zamonda yolg'iz yashaydigan, so'qqabosh bir odam bo'lgan ekan. U bolalarni juda ham yaxshi ko'rar ekan. Shuningdek, u savodxon, bilimdonligi ustiga san'atni, ashulalarni yaxshi ko'rgan. Qabiladagilar orasida qadrini topgan va eng aqlli, hurmatli kishilardan bo'lgan ekan. Jamoada erkaklar ov bilan, ayollar esa don –dun yig'ishtirish, chorva mollarini boqish bilan shug'ullanishgan. O'sha davrda bir qabila bilan ikkinchi qabila o'rtasida janjal – nizolar chiqib turar, turli kelishmovchiliklar ayovsiz urushlarga aylanib ketar ekan. Shunday sharoitda bolalarni xavfsizligini ta'minlash kerak bo'lar va qabila a'zolari bir yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan bolalarni qoqboshga topshirganlar. U esa bolalarni hozirgi bog'cha va yaslidagi kabi ikki guruhga ajratib, ovqatlantirgan, ularni yoshlariga qarab turli o'yinlar o'rgatgan. Ertak, latifa, termalar aytib bergan, ayni chog'da qo'shiqlar ham aytirgan. O'zi to'qigan ov qo'shig'i, ajdodlar qo'shig'i singari masallarini o'rgatgan.

O'z – o'zidan ayonki, ana shunday tarbiyaviy ishlar bolalarning xotirasini rivojlantirgan, ularning hozirjavob, zehnli, sabrli bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Qoqbosh o'zining ana shunday ishlaribilan qadimgi birinchi o'rgatuvchi sifatida shuxrat topgan. U ayniqsa, turli o'yinlar, ertaklar orqali bolalarni sabr – qanoatli qilib tarbiyalashning muhim quroli deb bilgan va ulardan unumli foydalangan.

### **ЖЕК ЛОНДОННИНГ “МАРТИН ИДЕН” РОМАНИ ХУСУСИДА Ферузахон Зафаржонова, ЎзДЖТУ талабаси**

Машхур реалист ёзувчи Жек Лондоннинг асарларида ижтимоий ноҳақлик, нотенглик ва инсонларнинг пасткашлигига қаршилиги намоён этилган. Шу ўринда, алоҳида эътироф этиш керакки, адибнинг “Мартин Иден” романи ўзгача тарихий, дунё катта ўзгаришлар тўлкини арафасида турган пайтда яратилган асар бўлиб, характериға кўра антибуржуаз асар. Асарда муаллиф буржуа жамиятини ўрганиш асосидаги фикрларига нуқта кўяди ва буржуа жамиятини ўша даврдаги барча камчиликларға айбдор қилади. Улкан маҳорат билан, романда Америка буржуазиясининг нуқсонли томонлари, реакцион кучлари, бетартиб сиёсати ҳамда талантларни топтаб, поймол қилиши, инсондаги энг нозик ва соф туйғуларни яқсон қилиши, ҳамма нарсани, хаттоки, ҳис–туйғуларни ҳам пул билан ўлчаши яққол кўрсатилган. Романда, бойлар, буржуазиянинг ёрқин мисоли асарда – Морзлар оиласи. Мистер Морз – шуҳрат қозонган корчалон, ишбилармон, юридик фирманинг раҳбари–ўзини жуда ақлли ва билимли киши, деб ҳисоблайди. Бироқ аслида у элементар фан қонуниятларини билмайди. Мистер Морз ўзига ҳаддан ташқари қаттиқ ишонган, ўзининг ҳаммага кераклигини кўз–кўз қилиб юрадиган киши, Мистер Морз камбағалларға жирканч мавжудотлар сифатида қарайди. Унинг наздида улар ҳеч қачон ўзидек кўп пул топиш қобилиятиға эға эмас.

Мартин Иден Морзлар учун жирканч бир денгизчи, заҳарланган ўй хаёлларга берилган бир “социалист”. У ҳеч ҳам бўлажак куёви олдига кўядиган талабларга жавоб бермайди, шунинг учун ҳам Морз Мартин Иденни уларнинг уйларига меҳмонга келишини тўхтатади ва унинг Руф билан унаштиришини бекор қилади. Морзнинг рафиқаси ҳам худди ўзидек – доимо пул кўзига кўринадиган айёр аёл. Руф онасига Мартинга бўлган бўлган севгиси ҳақида айтганда Миссис Морз Мартин уларга мос эмаслигини айтади. Миссис Морз Руфга унинг танловига таъсир кўрсатишни асло хоҳламаслигини, лекин нима бўлган тақдирда ҳам Руф уларнинг қизи эканлигини ва улар Руфнинг Мартинга турмушга чиқишига йўл қўймаслигини ва шундай қараб туролмаслигини айтади. Миссис Морз Мартинни кўполлиги ва тарбиясизлиги Руфнинг нозиклиги ва дилбарлиги олдида жуда хунук кўринишини айтади. Мартин Руф учун яхши ҳаётни таъминлаб ҳам беролмайди, деб ҳисоблайди Миссис Морз. Унинг фикрича улар бойлик ортидан қувмайдилар, аммо эр деган хотинига қулайлик ва тўкин–сочинликни таъминлаб бериши керак, деб таъкидлайди Миссис Морз. Руф уларнинг якка–ю ягона қизи ва у албатта ўзига тўқ кишига турмушга чиқиши керак, деб ҳисоблайди. Мартин эса зоти–зурриёди номаълум, каллоб, кўйбоқар, кир ювувчи, матросга турмушга чиқиши асло мумкин эмас, дейди у. Морзлар оиласи билан судя Блоунт, корчалон Батлер, Чарлз Хенгуд ва бошқа ўзларига ўхшаган буржуалар яқин муносабатда. Улар учун ҳаётда фақат бир мақсад бор – пул, бойлик тўплаш эди. Мартин бойигандан сўнг, булар ҳаммасининг унга нисбатан муносабати кескин ўзгаради. Морзлар оиласи, Блоунт ва бошқалар ёппасига унинг атрофида гирдикапалак бўлишади. Мана шу “тарбия кодекси” асосида Руф ҳам улғайган. Муаллиф шундай дейди: “Табиатига кўра Руф ҳам консерватив тарбия топган эди. Тарбия эса уни яшаган, улғайган муҳитига хос равишда фикрлашга ундар эди”<sup>111</sup>. Руф романда катта ўрин эгаллайди ва унинг образи тўлалигича очиб берилган. Руф Мартинда қандайдир ғайритабиийлик, ёввойилик ва кучни кўрарди. Унга Мартиннинг кучи, энергияга тўлалиги ёқарди, лекин унинг кўлланининг қадоқлиги сескантирар, муомаласи кўполлиги кўрқитар эди. Бошида уни севиб қолишига ҳечам ишона олмасди, бироқ кейинчалик ўзи билмаган ҳолда унга меҳр уйғонди. Руф Мартиннинг таланти ва бошқаларга ўхшамаслигини баҳолашга қодир эмас эди. Унинг фикрлари Руфга бутунлай ёт эди, гарчи у санъат фанлари бакалаври бўлса ҳам...Агар Иден Руфга кўнглини очса, юрагининг туб–тубидаги тилақларини, хоҳишларини айтса, Руф ўзини бошқача тутарди. У Мартиндан ўз фикрларини яширарди, ўзини гўлдек тутарди ва муғомбирлик қиларди. Руфнинг мақсади Мартинни ўзига идеал деб билган отаси ва Мистер Бетлерга ўхшаш одамга айлантириш эди. Руф Мартиннинг адабий талантига ва унинг ёзувчи бўла олишига мутлақо ишонмасди. Иденни тушунмай, унинг сиёсий дунёқарашларини англамай, у

---

<sup>111</sup>Лондон Ж. Мартин Иден.–Т.:Ғ.Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, (Кодир Мирмухаммедов таржимаси) 1968. – 432 б.

хам отаси, Мистер Морз каби Мартинни радикал деб ҳисобларди ва унинг фикрлари унга шубҳали туюларди.

Руф Мартинга салбий таъсир ўтказди. У Мартинга ўзининг тор фикрли, буржуа ғояларини сингдиришга уринади ва унинг ҳар қандай фикрини қоралайди. Руфнинг ўзининг оиласига хос анъаналарга қараб тутиши Мартинни газеталарда “социалист” деб қоралашганда яққол намоён бўлади. Ана шу нуқтада Руф Мартин билан муносабатларини тўхтатади. Ўзини худбинларча тутиб, ундан воз кечади. Оила аъзоларининг ундашлари муҳаббатдан устун келади. Уни дарбадар ва нопок ҳаёт кечирганликда айблаб, унинг ота–онаси ҳақ бўлганлигини ва улар бир–бирларига асло тўғри келмаслигини айтади. Иденни у учун ўғир бир пайтда ташлаб кетади ва у машҳур ва бой бўлгандан сўнг унинг ёнига қайтади. Мартин уйига кузатиб қўяди ва йўлда унинг акаси Норманни учратишади, Норман Мартинга беписандлик билан қарайди. Руф асарда оиласининг таъсирига берилган, уларнинг “чизган чизигидан чиқмайдиган”, юзсиз, бойликка ўч кишилар тимсоли ҳисобланади. Бойликка ўч кишилар романда нафақат юқори табақа вакиллари – Морзлар, Блоунт, Бетлер ва бошқалар томонидан очиб берилган, балким улардан анча қуйи поғонада турувчи шахслар орқали ҳам ифодаланган.

Демак, романдаги воқеалар ўзаро боғлиқ равишда такомиллашиб боради. Мартиннинг Руфга бўлган севгиси, уларнинг шахсий муносабатлари, Мартиннинг билим олиш учун тинимсиз шуғулланиши, унинг зодагонлар жамиятида ўз ўрнини топиши, бу жамият унинг ёзувчилик қобилиятини тан олиши учун кураши–асарнинг асл моҳиятини ташкил этади.

## **LEKSIKOLOGIYANING O‘RGANISH PREDMETI VA LUG‘AT TARKIBI**

### **Pardayev Siroj JDPI talaba**

Leksikologiya (ot. grek. *lexikos* so‘zga oid va *logos* - ta‘limot) tilning lug‘at tarkibini, leksikasini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir. Leksikologiyaning o‘rganish manbai til bo‘lsa, uning o‘rganish predmeti til lug‘at tarkibining quyidagi aspektlaridir:

- a) tilning asosiy birligi sifatidagi so‘z muammosi, leksik birliklar tiplari:
- b) til lug‘at tarkibi strukturasi:
- v) lug‘aviy birliklarning qo‘llanilishi:
- g) lug‘at tarkibining boyishi va taraqqiyoti:
- d)leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o‘zaro munosabati:

So‘z umumlingvistik muammo bo‘lib, shu boisdan umumiy so‘z nazariyasi doirasida ham o‘rganiladi. Leksik birliklar doirasiga nafaqat alohida so‘zlar (tugal shakllangan birliklar), balki so‘zga teng barqaror birliklar, murakkab, tarkibli so‘zlar ham kiritiladi. Lekin so‘zlar asosiy lug‘aviy birliklar sanaladi.

Shakl va mazmun birligidan iborat so‘zlar lisoniy birlik sifatida uch yo‘nalishida o‘rganiladi:

- a)struktur jihatdan (so‘zning qurilish xususiyatlari);
- b)semantik jihatdan (so‘zning lug‘aviy ma‘nosi);
- v)funktional jihatdan (so‘zning lison va nutq strukturasi tutgan o‘rni).

Struktur yondashuvda soʻz leksikologik nazariyasining asosiy vazifasi uning alohidaligi va oʻziga xosligi mezonlarini tiklashdir. Birinchi holatda soʻz soʻz birikmasi bilan qiyoslanib, uning tugal shakllanganlik va alohidalik belgilari ochiladi. Soʻz nutqdagi analitik shaklining lisoniy asoslari yoritiladi. Ikkinchi holatda soʻzning turli grammatik shakllaridan hosil qilingan lisoniy invariantini tiklash xususida soʻz boradi. Shu munosabat bilan grammatik shakl olgan leksema - soʻzshakl tushunchasi muayyanlashtiriladi. Shuningdek, leksemaning turli nutqiy variantlari - fonetik, morfologik, leksik-semantik variantlari tadqiq qilinadi.

Lugʻaviy birliklarning semantik tahlilida, ular (lugʻaviy birliklar) leksik semantika - semasiologiya tadqiq manbaiga aylanadi. Bunda soʻzning tushuncha (signifikat) va borliqdagi atalmish (denotot)ga munosabati oʻrganiladi. Semasiologiya soʻzlarning semantik tiplarini bir maʼnolilik va koʻp maʼnolilik, umumiy va xususiy, mavhum va muayyan, keng va tor (giperonim va giponim), bosh va hosila, toʻgʻri va koʻchma maʼnolari tadqiq qilinadi. Bunda asosiy eʼtibor koʻp maʼnoli soʻzlarning semantik strukturasi, soʻz maʼnolari tiplari va ularni ajratish mezonlariga, soʻz maʼnolarining oʻzgarishi va taraqqiyoti, soʻzning maʼnosini yoʻqotishi va grammatik formantga aylanishi-desemantizatsiya hodisasiga qaratiladi.

Funksional yondashuvda soʻz lisonning nutqda reallashuvi jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sathlar birliklari voqelanishiga, ular umumiy maʼnolarining parchalanishiga qoʻshgan «hissasi» tekshiriladi. Masalan, odamcha soʻzshaklida odam leksemasi -cha qoʻshimchasining «kichraytirish-kamsitish» maʼnosini qizcha soʻzidagi «kichraytirish-erkalash» maʼnosidan farqlagan, morfologik sath birligi boʻlgan -ga morfemasining «kichraytirish» UGMsini parchalab, uning bir parchasini ikkinchi parchasidan ajratgan.

Leksikologiya leksikani til tizimidagi ichki tizim (sistema) sifatida qaraydi. Shuningdek, oʻzaro maʼnoviy umumiylikka ega boʻlgan lugʻaviy birliklar yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qaraladi. SHu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pogʻonali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabatlari ochiladi. Masalan, olma oʻrik, nok kabi hoʻl meva nomlari bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomlari boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi - kichik tizimchalardan tashkil topgan «meva-sabzavot nomlari» tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab, boʻlish quyiga qarab davom etaveradi. Uni chizmada quyidagicha berish mumkin: Buni A.Tsalkalamanidze oʻz tadqiqotida quyidagicha umumlashtirgan. (89-betdagi chizma)

Soʻzlarning guruhlari (tizimi) hajm koʻlam jihatidan farqlanishi mumkin. Eng kichik lugʻaviy guruhlar soʻzlarning shakliga (omonim), mazmuniy zidligicha (antonimlar), teng maʼnolilikka (sinonimlar) asoslanadi.

Leksikologiya nisbatan yirikroq tizim boʻlgan leksik-semantik maydonlarni ham oʻrganadi. Masalan, «shaxs» leksik-semantik maydoni shaxsni atovchi barcha lugʻaviy birliklarni qamrab oladi.

Tilning lugʻaviy tarkibi bir xil emas. Soʻzlar turli asoslarga koʻra koʻplab kategoriyalarga ajratiladi. Masalan, qoʻllanish darajasiga koʻra umumiy isteʼmol va chegaralangan (yoki xususiy) leksika, qoʻllanish davriga koʻra eskirgan soʻzlar,

zamonaviy soʻzlar va neologizmlar, qoʻllanish doirasiga koʻra dialektizmlar, professionalizmlar, jargonlar kabi turlarga boʻlinadi.

Leksikologiya til lugʻat tarkibining boyishini oʻrganganda uning 3 tipini ajratadi. Bulardan 2 tasi (yangi soʻz yasash, soʻzni yangi maʼnoda qoʻllash) ichki boyish imkoniyati boʻlsa, bittasi tashqi (soʻz oʻzlashtirish) imkoniyatdir.

Lugʻaviy birliklarning borliqqa munosabatini oʻrganish leksikologiyaning muhim aspektlaridan biri sanaladi. Bunda ularning kishilar hayotiga, amal qilayotgan davrga munosabati ochiladi. Masalan, Sobiq shoʻro tuzumi davrida savdogar soʻzida salbiy ottenka boʻlgan boʻlsa, bugungi kunda ijobiy boʻyoqli soʻz sifatida keng isteʼmollidir.

Leksikologiyaning umumiy, xususiy, tarixiy, qiyosiy, nazariy, amaliy leksikologiya kabi turlari ajratiladi.

Umumiy leksikologiya leksikaning qurilish, amal qilish va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini ochsa, xususiy leksikologiya maʼlum bir tilning lugʻat tarkibini oʻrganadi.

### **ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Qarshi. 2004.
2. Mirtojyev. M. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.
3. Shoabdurahmonov va boshqalar. “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”. Toshkent 1980 -yil.

### **HUQUQSHUNOSLARNING NUTQ MADANIYATI**

**Eshonqulova Nargis. JDPI talabasi**

Soʻz - inson koʻrki. Soʻzni mahorat bilan ishlatish orqali kishilar yechimi yoʻqdek koʻringan muammolarni yechishi, shirin soʻzi bilan kishilar koʻngliga yoʻl topishi mumkin. Ayni damda har bir soha vakillarining oʻz nutq madaniyati mavjud. Jumladan, huquqshunoslarning nutq madaniyati, oʻqituvchilarning nutq madaniyati, tarbiyachilarning nutq madaniyati, oʻquvchilarning nutq madaniyati va h.k. Oʻqituvchi oʻz nutqidan keng foydalanadi. Oʻquvchilarga voqea, hodisalar, shaxslar haqida maʼlumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. Oʻqituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bogʻliq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega boʻlgan oʻqituvchi oʻz oʻquvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham taʼsir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun oʻqituvchi oʻz ovoz kuchini, yoqimlilikini bilishi hamda oʻz ustida ishlashi zarur.

Huquqshunoslarning nutq madaniyati esa, avvalo, ravon va mazmunli, oddiy va tushunarli fikrlash madaniyatidir. Yusuf Xos Hojib nutq madaniyati haqida fikr yuritar ekan, uni qonun ijrosi, qonun ustuvorligi, adolat, odil hukm kabi tushunchalar bilan mushtarak deb biladi. Bundan tashqari Abu Ali ibn Sino oʻzining nazmiy asarlarida ham notiqlik, soʻzga chechanlik kishi tafakkurining oynasi til ekanligini taʼkidlaydi.

Inson notiqligi, saodat tildan

Nazokat tildandir, nafosat tildan.

Hayot saboqlari koʻrsatur shuni

Do‘zax tildan erur va jannat tildan.

So‘zni nutqda noo‘rin qo‘llash nutq jozibasini buzadi va mazmunga putur yetkazadi. Natijada, fikrning mazmuni tinglovchilarga tushunarsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun so‘zlarni tanlash va uni nutqda o‘rinli qo‘llash kishidan katta mahorat talab etadi. Masalan: inson, kishi, odam, bashar, shaxs so‘zlari sinonimdir. Lekin mazkur sinonimik qatordagi so‘zlarning o‘rnini har doim ham almashtirib bo‘lmaydi. Qiyoslaylik: Inson va qonun birikmasi o‘rnida odam va qonun, bashar va qonun birikmalarini ishlatib bo‘lmaydi yoki javobgar shaxs, yuridik shaxs birikmalari tarkibida qo‘llangan shaxs so‘zi o‘rnida ularning sinonimlarini qo‘llash ham uslubiy xatolikni keltirib chiqaradi. Nutq madaniyati so‘z va so‘z birikmalarini o‘z o‘rnida ishlatish, fikrni aniq, lo‘nda, ixcham shaklda ifoda etishni talab qiladi. Nutqda tushunchani ifodalash uchun so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llay olmaslik nutq aniqligiga putur yetkazadi. Qonun tilida notog‘ri qo‘llanilgan birgina tovush, qo‘shimcha va so‘z, hatto birgina tinish belgisi qo‘pol mazmuniy va uslubiy xatolarni, nuqsonlarni, g‘alizliklarni keltirib chiqaradi. Masalan :

1.O‘lim yo‘q, shafqat.

2.O‘lim, yo‘q shafqat.

Ko‘rinib turibdiki, birgina vergulning o‘rnini almashtirish, nafaqat uslubiy xato hisoblanadi, balki jinoyatni yuridik baholashda ham kechirib bo‘lmaydigan xatolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham huquqshunoslarimiz tergov hujjatlarini yozishda, qonun loyihalarini tayyorlashda, sud hukmi matnlarini tuzishda o‘ta ziyrak va zukko, bilimdon va ehtiyotkor bo‘lmoqlari lozim. Chunki tergov, sud jarayoni bilan bog‘liq hujjatlar yoxud qonunlar moddalarining har birida inson taqdiri yotadi.

Yuridik tilning birlamchi belgisi uning rasmiy bo‘yoqqa egaligidir. Shuning bilan birgalikda u tushunilishi qiyin bo‘lgan ifodalar, shevaga oid so‘zlar, jargonlar, ko‘chma ma‘noli so‘zlardan holi bo‘lishi shart. Qonun tilining asosiy belgilari aniqlik, qisqalik, xolislik, rasmiy bo‘yoqdorlik, barqarorlikdir. Huquqshunoslar yuridik tilning barcha me‘yorlari va mezonlarini zarur darajada o‘zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. Ular yuridik terminlar mohiyatini to‘g‘ri anglab yetishlari va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashga rioya qilishlari zarur. Zero, hozirgi zamon huquqshunoslari nutqning ma‘muriy, buyruqbozlik usuli, do‘q-po‘pisaga asoslangan “muomala madaniyatidan” emas, balki til madaniyatining milliy istiqloq g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan shakllaridan foydalanmoqlari zarur.

Adabiyotlar :

1.Yuristning nutq madaniyati. Sobir Usmonov. –Toshkent,2007.

2.M.Baratov. Ibn Sino etikasi. –Toshkent,1969.

## **TALABALARDA MUSIQIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN KOMPYUTYER DASTURLARIDAN FOYDALANISH**

**Maxammatov A., SanakulovaD - JDPI**

Musiq va tyexnika intyegratsiyasi bu zamon talabi musiq darslarida kompyutyerni qo‘llanilishi, shu fanga bo‘lgan qiziqishni orttiradi va musiq eshtitish qobiliyatini shakllantiradi.



Kompyuter yordamida musiqani ijro etish bilimlarini shakllanitirish ba'zi bir qiyinchiliklarni tug'diradi.

Bu muammoni yechimini topish uchun o'qituvchidan ijro etish uslubi, tyembr, ritm davomiyligi va boshqalarga e'tibor qaratishni talab etadi. Shu bilan birga musiqa jismoniy va tovush xususiyatlari nazariyasini rivojlantirish va uni kompyuter yordamida ijro etish uchun ham katta axamiyatga ega.

Ilm-fan taraqqiyoti bizga tabiat hodisalari va jamiyatni rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga imkon beradi, buning natijasida inson tabiat bilan faol munosabatga kirishib, o'z hayotiy sharoitini yaxshilaydi.

Musiqa va tyexning bir - biri bilan bog'liqligi tyexnika va musiqa oldida yangi vazifalarni qo'yadi.

Kompyuterda o'quvchilarning hohlagan musiqalarini tinglashlari ular qobiliyatlarini, fikrlash doirasini rivojlantiradi.

O'qituvchi, imkon qadar, kompyuter yordamida musiqiy asarlarni tizimlashtirish lozim. Buning uchun turli notalar davomiyligini aks ettiruvchi algoritm ishlab chiqildi. U quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

I. bosqich: raqam orqali musiqa notalarini davomiyligini aks ettirish.

II. bosqich: turli tizim va harflar orqali notalar nomini aks ettirish.

III. bosqich: raqamlar orqali musiqa tyezligini aks ettirish.

IV. bosqich: harflar sistyemasi orqali musiqada uchraydigan altyeratsion byelgilarni aks etilishi.

V. bosqich: tyez sur'atda ijro etiladigan 16 notalarni raqamlar orqali aks ettirilishi.

VI. bosqich: musiqada uchraydigan oktavani raqamlar orqali aks etirish.

VII. bosqich: musiqiy asar qushig'i (ryepriza) uchun algoritmlar ishlab chiqish.

VIII. bosqich: kompyuter sistemasini asoslash.

IX. bosqich: kompyuter sistemasini joriy etish uchun ishchi dasturlarni ishlab chiqish.

X. bosqich: kompyuter sistemasini yordamida musiqa ijro etish.

XI. bosqich: kompyuterda musiqa ijro etish darajasini tahlili.

Boshlangich sinf musiqa o'qituvchilarini tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida, ishlab chiqilgan kompyuter sistemasini o'z ichiga quyidagi kuy-larni oladi:

- F.Nazarovni "Paxtaoy", "Tyeplovoz" musiqalari;
- N.Nasimovni "Tinchlik bogi", "Bizdan sizga kim kyerak" musiqalari;
- S.Abramovni "Paravoz", "Ari" qo'shigi, "Onajon", "Soatim" musiqalari.
- U.Tojibyekovni "Oqshomda" musiqasi.
- G.Kodirovni "Baxor" qo'shigi, "Binafsha", "May" musiqalari.
- O'zbyek xalk kuyi "Yallama yorim".
- O'zbyek xalk kuyi "Do' lana".
- O'zbyek xalk kuyi "Qashqarcha".
- Il.Akbarovni "Paxtakor kuyi", "Baxtiyorlar" kushigi musikalari.
- M.Muxammadjonovni "Ertalab" musiqasi.

- O‘zbek xalq raqsi “Andijon polka” va boshkalar (2-rasimga karang).

Yuqorida aytib o‘tilgan musiqa va kuylar uchun tuzilgan ishchi dasturlar kompyutyerni “Musika” nomli yaxlit dasturga birlashtirilgan.

Umumta'lim maktablarda musiqani kompyuter yordamida o‘rgatish, o‘quvchi shaxsi rivojlanishini shakllantiruvchi ajralmas qism sanaladi. O‘z navbatida, kompyuterda musiqa va sinxron ijroni amalga oshirish ma'lum bir qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘z navbatida, tovush qatorida notalarni joylashish tartibini, ular orasidagi farqni, o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun konkryet bilimlarni talab etadi. Ma'lumki, yetti tovush orasidagi masofa (intyerval) oktava dyeyiladi.

Musiqa va ashulalarni kompyuter yordamida ijro etilganda oktavalarni quyidagicha aniqlanadi.

**Kichik oktavadagi tovush intyervali:**

Sol -255 sol diyez -240, lya - 228 lya diyez -214, si – 204

**birinchi oktavadagi tovush qatori:**

do -192 do –diyez -184, rye- 171 rye diyez – 184, mi-152, fa-144 fa diyez – 136,

sol-128 sol diyez -120, si -102 lya diyez – 180

**ikkinchi oktavadagi tovush qatori:**

do -96 do diyez -92, rye -85 rye diyez -80, mi -76, fa -76 fa diyez -65, sol -64 sol

diyez -60, lya -57 lya diyez -54

**uchinchi oktavadagi tovush qatori:**

do – 48 do diyez -45, rye -42 rye diyez -40, mi -36, fa -35 fa diyez -34, sol 32 sol

diyez -30, lya -28 lya diyez -26, do -24 (do tovushi to‘rtinchi oktavada)

Ularning raqamlar orqali ifodalanish kompyuter yordamida musiqa yozishni osonlashtiradi. Tovushning katta raqam bilan byelgilanishi, uning tyembrini kuchaytirishga olib kyeladi, kichik raqam bilan byelgilanishi esa-tovushni past tyembrini anglatadi.

Musiqa o‘qituvchisi Kompyuter dasturni musiqa va ashulani ijrosini joylashtirishiga e’tibor byerishi zarur. Kuy va qo‘shiqnlarni kompyuter yordamida ijro etish nafaqat oktavaga, balki tovush davomiyligi, uning tyezligi va har xilligiga ham bog‘liqdir.

Tovush davomiyligini aniqlashda ularni algoritm orqali kyesib olish maqsadga muvofiqdir. Notalar tovushning turli xil davomiyligidan tashkil topgan va bir - biridan raqamlar bilan farqlanadilar. Raqamlar bilan ular qo‘yidagicha.

Musiqiy asarni ijro etishning ma'lum bir uslubini aniqlash uchun uning tezliligini aniqlash zarur (t).Quyidagi raqamlarga ishora qilib, ijro tyezligi uslubini ya'ni syekin, o‘rta, tyez ijroni aniqlaymiz; 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,12,13,14,15 yoki 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, va h.k.

Musiqa va ashulani kompyuter yordamida tinglash va o‘rganish jarayoni o‘quvchilar ongining rivojlanishiga yordam beradi. Bu o‘quv jarayonida yangi imkoniyatlarni ochishga texnik imkon berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda musiqa darslar uchun haftada 1 soat ajratiladi. Shuni inobatga olib, musiqiy asar bilan tanishish maqsadida musiqa darsida kompyuter yordamida ta'lim dasturi ishlab chiqildi. Musiqa darsida kompyutyerni qo'llash o'quvchilarda eshitish qobiliyatini shakllantirib, nota bilan ishlash samaradorligini oshiradi. Biz buni F.Nazarovning "Paxtaoy" musiqasini kompyuter yordamida o'rganish misolida qarab chiqamiz. Musiqani ijro etishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni musiqa muallifi bilan tanishtiradi.

Bundan tashqari ashula so'zlari muallifi, oktavalari, tyezliklar, altyeratsiya, tovush davomiyligi, ularni katta-kichikligi, haqida tushuncha byerib, so'ngra musiqa kompyuterda tinglash bosqichiga o'tiladi. Musiqani kompyuter yordamida ijro etishni qo'yidagi kyetma-kyetlikda bajarilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. F.Nazarovni "Paxtaoy" musiqasida uchraydigan turli tovushlarni raqamlar yordamida aks ettirish;

- turli notalar va tovushlarni harflar tizimi yordamida aks ettirishi;

- fa diyez altyernatsion byelgisini harflar bilan byelgilanishi.

- aks ettirilgan tovushlarni olingi ma'lumotlar bilan taqqoslash va ularni tahlil qilish;

- ijro uchun algoritmlarni ishlab chiqish;

Musiqa o'qituvchisi darsda kompyuterda oldindan quyidagi so'zlarni yozib qo'yishi zarur.

-bastakor F.I.Sh.

-so'z muallifi F.I.Sh.

-nota chizig'idagi tovushlar, va ularni davomiyligi.

-altyeratsiya byelgilari, ularni hajmi.

-qo'shiq so'zlari.

Savol – javobdan so'ng kyerakli ma'lumotlarga ega bo'lgach, o'qituvchi kompyuterda musiqa tinglashni taklif etadi. Bunda musiqani takrorlanishiga, tovush tyembriga (ohangiga) e'tibor byerishni tavsiya etamiz.

Musiqa darsida F.Nazarovni "Paxtaoy" musiqasini kompyuter yordamida tinglash, o'quvchilarni eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va musiqa o'rganishga yangi ijodiy yondashuv hisoblanadi.

M.Nasimovning "Tinchlik bog'i" kuyini kompyuterda ijro etishni qarab chiqamiz. Ushbu musiqani tinglash uchun II sinfdan 1 soat ajratilgan. Musiqasining kompyuter yordamida o'rganish darsini ryejasi qo'yidagicha.

**Mavzu: M.Nasimovni "Tinchlik bog'i" kuyini kompyuterda ijro etish.**

**Darsning maqsadi:** o'quvchilarda qo'shiqni ijrosi eshitish uchun qobiliyatlarini shakllantirish, tabiatga muxabbat uyg'otish.

**Uslub: darsni kompyuter yordamida tashkil etish.**

**Darsning borishi.**

I. Kompyuter yordamida o'tgan mavzu M.Nasimovni "Tinchlik bog'i" kuyini takrorlash. (10 daqiqa). (Bu mavzu oldindan EHM xotirasida tayyorlab qo'yilishi zarur).

II. Yangi mavzu bo'yicha mashg'ulot (20 daqiqa)

A) Mavzuni tushuntirish.

B) “Tinchlik”, “Tabiat dunyosi” mavzulari bo‘yicha suhbatni ko‘rgazmali qurollar yordamida o‘tkazish.

V) O‘quvchilarning javoblari (dunyo va tabiat haqidagi kuy va qo‘shiqlar asosida)

G) “Tinchlik bog‘i” ashulasini sinfda kompyuter yordamida xor bo‘lib ijro etish.

D) Kompyuter yordamida qo‘shiqni tinglash orqali o‘quvchilarni eshitish qobiliyatlarini shakllantirish.

III. Kompyuterda “Tinchlik bog‘i” kuyini tinglash (5-6 daqiqa). O‘quvchilar bilan ijro etish va darsni mustahkamlash.

IV. Darsning xulosa qismi (4-daqiqa ) (savol-javob) tariqasida o‘tkazilib, o‘quvchilarni bilim darajasi aniqlanadi.

V. Baholarni e‘lon qilish.

Har bir o‘qituvchini yonida dars konspyekti bo‘lishi zarur.

Kuyni kompyuter yordamida tinglash, dars samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning eshitish, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, ularda musiqaga qiziqish tug‘diradi va o‘quvchilarni estyetik tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VA O‘QUVCHILARNI KITOB USTIDA ISHLASH METODIKASI BO‘YICHA AYRIM TAVSIYALAR**

**Sunnatova G., Mamirov JDPI**

Hozirgi davr zamonaviy ta‘limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun esa o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasiga doir ko‘plab nazariy maslahatlar ishlab chiqilgan, lekin o‘qituvchiga bugungi kunda o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil ishlarini qanday tashkil etish kerakligi to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar kerak.

O‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil ishlar muhim o‘rinni egallaydi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda amaliy mazmunli masalalarni yechish uch bosqichda olib boriladi:

1. Formallashtirish bosqichi. Bu bosqichda berilgan masalaning matematik modeli quriladi, ya‘ni qaralayotgan holatning muhim tomonlari ajratilib, ularni ifodalovchi matematik belgilashlar va munosabatlar aniqlanadi va berilgan amaliy mazmunli masalani o‘zida aks ettiruvchi matematik masala tuziladi.

2. Masalani model ichida yechish bosqichi. Bu bosqichda matematik masala u qanday mazmunli masalani anglatishini hisobga olmagan holda yechiladi.

3. Interpretatsiyalash bosqichi. Bu bosqichda matematik masalaning yechimi berilgan amaliy mazmunli masala nuqtai nazaridan tekshirib chiqiladi.

Mana shunday mustaqil ishlarni bajarish jarayonida ayrim pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish mumkin. Quyida pedagogik texnologiya ba'zilar bilan tanishib o'tamiz.

O'quvchilarni o'qitishda qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biri kitob ustida ishlashdir. Bu metodni afzalligi shundaki, u kitobxonga o'quv axborotini uning o'ziga xos suratda va qulay vaqtda olishini ta'minlaydi. O'quv adabiyotlari bilan ishlash metodlariga xos funksiyalarini barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishlashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki paragraflarni sinchiklab o'qish, berilgan matriyalni o'rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu metodni qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modifikatsiyalarda qo'llash mumkin.

Kitob ustida ishlash o'quvchi uchun murakkab va qiyin metod sanaladi. Juda ko'p o'quvchi o'qishni bilganlari holda kitob bilan ishlashni yetarli darajada bilmay yoki, o'qiganlarini ma'nosiga to'liq yetmagan holda bitiradilar. Bunga sabab nima?

Nima sababdan o'quvchilar ham o'quv adabiyotlari bilan ishlashni qiyin ko'rishadi?

Bir guruh metodestlar tadqiqot o'kazib, buning ikki asosiy sababini aniqladi:

Birinchi, darsliklar ko'pincha noaniq, mujmal yozilgan bo'ladi, hech bo'lmaganda matnni tushunish uchun zarur bo'lgan barcha axborotni kamdan kam qamrab oladi.

Ikkinchi, kitobxon noaniq yozilgan matnga duch kelgach, holatda o'zini passiv tutadi.

Shuning uchun amerikalik pedagoglar tomonida "muallifdan so'rang" metodi ishlab chiqilgan. Darsni boshlashdan oldin o'qituvchi buyuk faylasuflardan Suqrotning yozma nutqi haqidagi shikoyatini boshqacha tarzda ifodalab, yozilgan matn doimo tushunarli bo'lavermaydi. Uni tushunmagan o'quvchi ayibdor emas. Odatda, gapirayotgan kishining nutqida tushinilmagan gapni, so'zni so'zlovchiga savol berib, uning kengroq tushuntirib berishini so'raymiz. Yozma matn, ya'ni kitob ma'nosi tushunarli bo'lmasa, uni tushuntirib berilishini so'rash mumkin emas. Faqat bunda uni kursdoshlari tushuntirib berishi yoki o'zi harakat qilishi mumkin, deya tushuntiradi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchidan matnda nima yozilganini tushinishini yana shu metod yordamida o'rganishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu bo'yicha o'quv adabiyotidan paragraf yoki biror misol yoki masalani yechishni taklif etadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchilarga:

Aytinglarchi muallif bu yerda nima haqida gapirayapti degan savolni beradi. O'quvchilar javob bergach, o'qituvchi gap nima haqida borayotganligini aytib yakun yasaydi. Yanada aniqroq tushunarli bo'lish uchun paragrafdagi teorema ta'riflarni qayta eslatib, misol va masalalarni yechish yo'lini muhokama qilib yechimi tekshiriladi.

Bu metodni boshqacha variantda, dars o'tishni uch bosqichga bo'lib quydagicha qo'llash mumkin:

Dastlab o'qituvchi o'quvchilarga kitobni o'qib chiqib tushunmagan jumla, fikrlarni alohida ajratib daftarga yozishni topshiradi.

So'ngra, ikkinchi bosqichda muallif nima haqda fikr yuritayotganini, u nima demoqchi ekanini muhokama qiladi, uchinchi bosqichda, o'qituvchi o'quvchilardan o'zlari muallif sifatida bu fikrni yozma ravishda qanday ifodalagan bo'lar edingiz yozib bering deb topshiriq beradi.

To'rtinchi bosqichda, o'quvchilar yozgan javoblari, ishlagan misollari o'zaro tekshiriladi va muhokama qilinadi. Muhokama yakka tartib yoki kichik guruhlar bo'yicha olib borishi mumkin. Asosiy maqsad, yozilgan fikr tanqid qilingan muallifnikiga qaraganda tushunarliroqmi yoki aksinchaligini aniqlash.

O'quvchilar o'z fikrlarini bildirgach ularni solishtirib o'qituvchi o'zi yakun yasaydi. Ana shu mavzuni tushunish uchun avvaldan nimalarni o'qigan bo'lishi nimalarni bilishi kerak? va hokazo. Topshiriqni bajarishiga qarab o'quvchilarga baho qo'yiladi.

Bunday usulni qo'llash o'quvchilarni o'qishni faol o'rganishga undaydi. Undan tashqari o'quvchilarni o'z fikrlarini asoslashga, materialni taqdim qilishga o'rgatadi.

Ushbu usulni modifikatsiyasi darsda bir nechta o'quv adabiyotida berilgan shu mavzu bo'yicha matnni o'qib chiqib, solishtirish ham mumkinki, u o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga, mustaqil fikr yuritishga, va bilimni mustahkamlashga katta yordam beradi.

**Tanqidiy nazar.** Bu oddiy, samarali usul bo'lib, matnning mazmunini tadqiq qilish, imkonini beradi, uni shaxsiy tajriba bilan bog'laydi va o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Undan tashqari o'z fikrini yozma ravishda bayon qilishni o'rgatadi va o'quvchilarning mustaqilligini oshiradi.

Bunda simenar, amaliyat daftari sahifasi vertikal chizma bilan ikki qismga ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilarga chap va o'ng tomonga nimalar yozilishini tushuniradi. Chap tomonga o'quvchiga mavzuni o'qish jarayonida o'ziga yoqqan, unda chuqur taasurot yoki tushunmovchilik tug'dirgan fikr, g'oya, malumotlarni iqtibos tarzida yozib borishi lozimligi uqtiriladi

O'ng tomonda esa o'quvchi sitataga yoki muallifning fikriga o'z munosabatini bildiradi, aynan qanday sabab ana shu fikrni alohida ajratib ko'rsatishga undaganini sharxlab beradi. Ana shu iqtibos uni nimalar haqida o'ylashga majbur qildi? O'z fikrini yozadi.

O'qituvchi avvaldan o'quvchilarga har bir o'qilgan betdan bitta iqtibos yoki 10 ta betlab 4 ta iqtibos va hokazo tarzida keltirib unga izoh berishlari zarurligini aytadi, yoki bir matematik kategoriyaga turli kitoblarda turlicha tarif berilgan. O'quvchilarga ularni solishtirish asosida eng to'g'ri deb yozilganini ko'rsatib o'z fikrini asoslab berishni topshirish mumkin.

1. Darsni yakka tarzda har bir o'quvchidan tanlagan mavzu va unga berilgan izohni o'qishi bilan barcha o'quvchilar fikrini eshitish shaklida tashkil qilish mumkin.

So'ngra o'quvchilar o'zlari eng yaxshi iqtibos va izohni kim tayyorlaganini ko'rsatib, sinf bo'yicha 1-3 o'rinlarni kimga berishni aniqlash mumkin. Bunday usul o'quvchilarni faollashtiradi.

2. Juftliklarda ishlash ikki talaba birgalikda iqtibos tanlab, izohlarni ham birgalikda yozib, yozgan fikrlarni bayon qilishlari mumkin. Bunda o'quvchilar o'rtasida eng "hozirjavob" juftliklar tanlanadi.

3. Kichik guruhlarda ishlash. Bunda har bir kichik guruh o'quvchilar sonini nechta bo'lsa, shuncha iqtibos va uning izohini keltirishadi. Sinfdan esa guruh vakili taqdim qilgan sitatalardan eng yaxshi deb topiganini izohi bilan o'qib beradi. Nima sababdan guruh aynan ana shu iqtibos va izohni eng yaxshi deb topgani sababini bayon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida berilgan javoblarga ko'ring'oliblar aniqlanadi.

**"Bilaman, bilmoqchiman, bildim B/B/B"**. Bu metod o'quvchilarni kitob ilmiy maqolalarni o'qishga, bilmaganlarini o'rganishga harakat qilishlariga yordam beradi. Barcha o'quvchilarni darsga faol qatnashishini ta'minlaydi

Bu metodni qo'llashda o'qituvchi avvaldan qaysi mavzu yoki savolni shu metod yordamida o'rganishni aniqlaydi. O'rganilgan mavzu bo'yicha savollar va ularning javoblarni o'qiladigan maqola, darslikdagi paragraf yoki ma'ruza matni, yangi mavzu bo'yicha bilishi lozim bo'lgan savollar va javoblarni tayyorlaydi.

O'quvchilarning nimalarni bilishi, yangi mavzu bo'yicha nimani bilishi zarurligi va dars davomida nimalarni o'quvchilar bilganini ko'rsatish uchun jadval tuziladi. Jadval quydagicha bo'ladi.

#### **B/B/B jadvali**

Biz taxminan nimalarni bilamiz?	Biz nimalarni bilishni ho'xlaymiz	Biz nimalarni bildik
1		
2		
Va hokazo		

Uni har bir o'quvchi o'z daftariga chizib oladi. Dorskaga yoki, qog'oz plakatga butun guruh uchun chizamiz. Bunda savol qo'yilib, guruhda juftlik yoki kichik guruhlar, yoki individual tarzda muhokama qilish mumkin.

Bunda "aqliy hujum" ni qo'llash yaxshi natija beradi.

O'qituvchi "aqliy hujum" natijasi asosida so'rov o'kazib, "nimalarni bilishimiz kerak" ustunini to'ldirilishini ta'minlaydi. Bunda o'quvchilar o'z daftarlariga mustaqil yozishlari yoki doskada ham biron o'quvchi yozib birgalikda to'ldirish mumkin.

### **КИМГАКИ, ЁР ЭРСА ИЛМ ВА ХУНАР ЎЗИ ЖИМ ТУРСАДА ИЛМИ ГАПИРАР**

#### **Бозорова Райхона СамВМИ**

Мана мен эсимни танибманки, Оптоқ дадажонимнинг қимматли фикрлари, насиҳатлари ва олтинга тенг бўлган ҳикматли сўзлари билан улғайдим. Бу мен учун жуда шарафлидир.

Мен Оппоқ дадажонимни ҳали-хануз ҳозиргидек хотирлайман ва соғинаман. Уларнинг бўйбастлари, ҳаммадан ажралиб турадиган нигоҳлари, такрорланмас сўзлари, жуда чиройли, маъноли нутқ сўзлашлари, айтиб берган ҳикоя ва эртаклари эътиборни тортмай қўймас эди.

Мени мактабдан келишимни кутиб, менинг севимли ширинлигим “Чококрем” олиб келишни унутмас ва жуда севинтирар эдилар.

Ҳозирда мен лицей талабасиман. Лицейда таҳсил бераётган устозларим Оппоқ дадажонимни улкан хизматлари, ижобий фазилатларини гапирганларида, шундай инсоннинг набираси эканлигимдан Оллоҳга шукурона айтиб фахрланиб кетаман. Шу пайт тенгдошларим олдида қадимни баланд кўтариб, мақтангандай бир-бир ўртоқларимга қараб қўйишни ҳам қанда қилмайман. Юрагимдан менинг ҳам фарзандларим, набираларим менинг ортимдан шундай фахрланишларини чин дилдан хоҳлайман. Бундай даражаларга етишнинг тагида оғир меҳнат, машаққатли хизмат борлиги ҳақида ўйлаб қоламан. Эрталаб уйқудан турганда ҳам, кечга соат 10 ларда ухлашга ётаётганда ҳам Оппоқ дадажонимнинг кутубхонасининг чироғи ёниқ, у киши нималарни ёзиш билан банд бўлардилар. Доим нимадир ёзардилар, китоб ўқирдилар. Қачон ухлаб, қачон турганларини билмас эдик. Ана шу машаққатнинг мағзи биз невараларига ҳам етаётганидек, назаримда.

Мен ҳам чуқур билим олишим, ота-онам томонидан кўрсатилаётган хизматлардан тўғри фойдаланишим кераклиги, келажақда авлодимизга хос ном қолдириш зарурдир.

Бизнинг оилада Оппоқ дадажонимнинг ўрни жуда аҳамиятли эди. Уларнинг ҳаётий қонун-қоидалари менга ҳам мерос бўлиб қолган. Яъни, оила аъзоларимиз билан кечки овқатланиш пайтида бир вақтда йиғилишимиз, ота-онадан олдин дастурхонга қўл узатмаслигимиз, овқат таннавул қилаётган пайт гаплашмаслигимиз, ҳурпиратиб чой ичмаслигимиз ва ҳоказо. Оппоқдадажоним таомлардан паловни жуда севиб истеъмол қилар эдилар. Айниқса аяжоним тайёрлаган ошни. Ош таннавул қилиб бўлганларидан сўнг “Бу ош профессор ейдиган ош бўлибди, дея мактаб қўяр эдилар”. Оппоқ дадажоним жуда меҳмондўст инсон эдилар. Ҳар якшанба куни барча қариндошларимизни йиғиб ошхўрлик қилар эдик. “Меҳмонхонанг тор бўлса ҳам, кўнгил уйинг кенг бўлсин” дер эдилар.

Оппоқ дадажоним табиат қўйнида дам олишни жуда яхши кўрар эдилар. “Яхши ишлаган инсон яхши дам олишни ҳам билиш керак” дердилар. Биз набираларни табиат қўйнига олиб чиқар бизни қувончимиздан ўзлари ҳам қувонардилар.

Мен ана шундай улуғ инсоннинг набираси эканлигимдан ғурурланаман! Илоҳим ОППОҚДАДАЖОНИМНИНГ жойлари жаннат, охиратлари обод бўлсин.



## МУРАККАБЛАШГАН СОДДА ГАПЛИ МАТНЛАРДА АКСИОЛОГИК МОДАЛЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАРЗДА ИФОДАЛАНИШИ

Бойматова Дилноза. ЖДПИ

Ўзбек тилшунослигида янги изланишлар олиб борилаётган прагмалингвистика соҳасида нутқ иштирокчилари ва нутқий вазият каби тушунчалар асосий ўринни эгаллайди. Маълумки, нутқ иштирокчилари – сўзловчи (адресант) ва тингловчи (адресат), нутқий вазият эса улар ўртасидаги вербал ҳамда новербал воситалар орқали ўзаро алоқа-аралашув муносабатидир. “Сўзловчи ўз мақсадини ифода этиш учун оламда мавжуд бўлган нарса, предмет, ҳодисаларнинг номини билиши ҳамда маълум грамматик қонун-қоидалар билан таниш бўлишининг ўзи кифоя қилмайди. Сўзловчи булардан ташқари нутқий вазият тушунчаси моҳиятини ҳам билиши керакки, бу, албатта, сўзловчи баён қилмоқчи бўлган коммуникатив ниятни тўғри ифодаланишида муҳим амалий қиймат касб этади”<sup>112</sup>.

Муаллиф ёки сўзловчи ўз фикрини ифода этишда “нутқнинг коммуникация мақсади ва шароитига қараб лексик ва грамматик воситалардан мувофиғини сайлаб ишлатиши”<sup>113</sup> билан бирга тингловчининг ёши, характер-хусусияти, ижтимоий менталитети ва касбини ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозим. Буларнинг барчасини инобатга олиб, энг муҳим, энг қийматли жиҳатлар акс этган фикрларни билдириши- муаллифнинг билим даражаси ва тилдан фойдаланиш маҳорати юксаклигидан далолат беради. Тилшунос олимлар таъкидлаганидек, “Агарда бирор нарсани аниқ ифодалай олмас эканмиз, бунда тилимиздан эмас, балки уқувсиз маҳоратимиздан гина қилишимиз керак”<sup>114</sup>.

Юқорида келтирилган фикрни бадий матн яратувчиси- ижодкорга ҳам тааллуқли десак, янглишмаймиз. Зеро, бадий асарни ҳаётий, таъсирчан, китобхон кўлида тушмайдиган қилиб яратиш – ижодкордан улкан билим, тажриба, ўзгача услуб ва жумлаларни маромида ишлатишни талаб этади. Буларнинг барчаси образлар йиғиндиси- образлиликда ўзини яққол намоён этади. Образлилик санъатнинг ўзак хусусияти бўлиб, у йўқ жойда бадийлик ҳам мавжуд эмас.

Бадий матнда образлиликнинг таъминланишида модаллик категориясининг ҳам ўрни алоҳидадир. Модаллик тил тизимининг барча сатҳларида –фонетик, лексик, фразеологик, морфологик ва матнларда намоён бўлади. Бу эса модалликнинг кенг имкониятли ҳодиса эканлигидан дарак беради.

Матнда субъектив модаллик феълли иборалар, эргаш гаплар, морфологик, синтактик қурилмалар, сўроқ ва ундов гаплар, эпитет, ўхшатишлар ва шу каби лисоний воситалар орқали ифодаланади. Биз ушбу

<sup>112</sup> Ўринбоев Б. Синтактик муносабатлар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2005.- Б. 15.

<sup>113</sup> Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўқитувчи. 1985.- Б. 61.

<sup>114</sup> Абдурахмонов Ғ., Мамажонов А. Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент: Ўзбекистон. 1995. – Б. 86.

кичик кузатишимизда субъектив модалликнинг бир кўриниши- аксиологик модалликнинг мураккаблашган содда гапли матнларда воқеланишини кўриб ўтамиз.

Содда гапнинг таркибида уюшиқ бўлақлар, ундалмалар, кириш ва киритма қурилмалар, ажратилган бўлақлар, илова қурилмалари, сифатдош, равишдош ўрамлар, ҳаракат номили тизимлар қатнашиб, содда гапни ҳам шаклий, ҳам мазмуний жиҳатдан мураккаблаштиради ва бундай гаплар мураккаблашган содда гаплар деб аталиши маълум ҳодисадир : - *Она, нега қиз бола турмушга чиқиб кетганидан сўнг, уйга қайтиши номус ҳисобланади? Она, нега ажрашмаслик, одамлар орасида гап-сўз бўлмаслик, ота-онаси юзини ерга қаратмаслик учун инсон бутун умр ўзи севмайдиган ёки истамаган одам билан яшаши керак .(Саломат Вафо “ Оворанинг кўрган-кечирганлари ”)* Келтирилган матн парчасида ундалма ва уюшиқ бўлақлар орқали мураккаблашган содда гаплар ифодаланган. Парчада тушкун кайфиятга йўғрилган аёл персонажнинг ички ҳис- туйғулари онасига мурожаати шаклида ифодаланмоқда. Бу бежиз эмас. Негаки, она- фарзанд учун энг буюк, мўътабар ва азиз инсондир. Аксиологик баҳо ҳам айнан “ предмет-ҳодисаларнинг қадр- қиммати, муҳимлиги, аҳамиятига нисбатан берилади ”.<sup>115</sup>

Мураккаблашган содда гапларда қадрият-тушунчаларнинг ўзига хос ва бетакрор талқинини кўришимиз мумкин: - *Болам, чиндан мазанг йўққа ўхшайди?!. Нега рангинг бунча оқариб кетибди? Ҳансираб нафас олишингни қара, эй болам-а, мен ҳам тетикман сендан. (Саломат Вафо “ Оворанинг кўрган-кечирганлари ”)*

Ҳар бир халқнинг миллийлиги акс этган урф-одати, маросимлари, қадриятлари бор. Аксиологик баҳо ана шундай ўзига хос такрорланмас қадрият ва тушунчаларда ҳам акс этади. Юқоридаги матнда келтирилган “ Болам” лексемаси онанинг фарзандга эмас, балки етти ёт бегонанинг асар персонажи ( Салтанат Маҳмудова )га нисбатан ғамхўрлик билан муносабатда бўлишининг ёрқин ифодасидир. Биз бу каби мурожаат шакллари кундалик ҳаётда ҳам учратамиз. Бегона кишиларга нисбатан “ қизим”, “амаки”, “хола”, “тоға” каби қариндошликни билдирувчи лексемалар билан мурожаат этиш - инсонларни бир- бирига маънан яқинлаштиради, мураккаб вазиятларни енгиллаштиришга ёрдам беради: - *Кеннойи, мендан қайтмаса Худодан қайтсин. Яқинларим қилмаган яхшиликларни қилдингиз.*

-*Ёру биродарнинг бошига иш тушса, ёрдам бериши керак. Бу Оллоҳ олдида барчанинг фарзи, Салтанатхон. Қизлар эртага бир тоғора бўғирсоқ пишириб қўшниларга, мачитларга тарқатишсин. (Саломат Вафо “Оворанинг кўрган-кечирганлари ”)* Куйидаги матнда ҳам шу каби ҳолатни кўришимиз мумкин: *Негаки, нотаниши ҳижобли аёл синчковлик билан тикилиб турарди.*

---

<sup>115</sup> Боймирзаева С. Матн модаллиги. -Тошкент: Фан, 2010.- Б. 78.

- *Ҳа, қизим, борадиган жойингиз йўқми?.. – Агар, қизим, кўнглингизга ёмон гап келмаса, юринг мен билан. Жой топгунча яшаб турасиз . (Саломат Вафо “Оворанинг кўрган-кечирганлари”)*

Мураккаблашган содда гапларда аксиологик баҳо мулоқот иштирокчиларининг нутқий фаолият жараёнида акс этади. Нутқий фаолият иштирокчилари, хусусан, тингловчи ахборот ва хабарни оддий қабул қилувчи бўлиб қолмасдан, узатилаётган ахборотни таҳлил қилувчи, ўз муносабатини билдирувчи интерпретаторга айланади:

-*Қачонгача бундай юрасан, болам? Укаларинг бош кўтариб юролмайдиган бўлди.*

- *Нега бош кўтаролмайди? Эрдан ажрашганлар не қилсин? Ўлсинми? Эрдан ажрашиши иснодми? (Саломат Вафо “Оворанинг кўрган-кечирганлари”)*

Бадий матнни ўқиш ва таҳлил қилиш асносида унинг ошқора ёки яширин жиҳатларини ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозим. Баъзи ифодаларга шундай кўз тушиши билан ундаги ахборот мазмунини илғаб олиш қийин бўлмайди. Бошқа бир ифодаларда эса гарчи уларнинг шаклий тузилиши содда бўлишига қарамай, сўзловчи назарда тутган ахборот мазмунини англаш қийин:<sup>116</sup> - *Салтанат, энди кетсангиз, Аббос ака айтса-да, қабул қилмайман. (Саломат Вафо “Оворанинг кўрган-кечирганлари”)* Юқоридаги матнда ходима ишдан сўроқсиз кетганлиги ва буни мансаби юқорироқ киши томонидан айттирилганлигини *Аббос ака айтса-да, қабул қилмайман* гапи орқали билиб оламиз. Бунда ифодаланаётган мазмун тағмаёно орқали юзага чиқмоқда.

Баъзида мураккаблашган содда гаплар қатнашган матндаги тағмаёно кўринишларида сўзловчи ўз ички мақсади билан боғлиқ референциал белгилар хусусида сўз юритади. Масалан:

- *Ношукур экансиз, опа,- деди,- поччамдан нолишингиз яхши эмас, сизнинг ҳам бошингизга мени кунимни солса, нима қилар эдингиз?*

- *Мен ҳам Зайнаб бўлсам, албатта, солар эди .( А. Қодирий “Ўткан кунлар”)*

Бу матнда “Зайнабнинг бўшашганлиги” хусусидаги воқелик акти иккинчи персонаж томонидан аниқ айтилмай, референциал тағмаёно орқали ошқор этилмоқда.

Хуллас, мураккаблашган содда гапларда аксиологик модаллик муаллифнинг персонаж ва воқеликка нисбатан хусусий эмоционал муносабати билан биргаликда миллий ўзига хосликда ҳам акс этади.

#### **Адабиётлар:**

1. Абдурахмонов Ғ., Мамажонов А. Ўзбек тили ва адабиёти: Олий ўқув юрти талабалари ва ўқитувчилар учун қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон 1995. – 260 б.
2. Боймирзаева С. Матн модаллиги. -Тошкент: Фан, 2010. -150 б.

---

<sup>116</sup> М. Ҳақимов. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. -Тошкент: Академнашр, 2013. Б. 93.

3. Ўринбоев Б. Синтактик муносабатлар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2005.- 143 б.
4. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Академнашр, 2013. – 172 б.
5. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1985.- 144 б.

## **ГАП БЎЛАКЛАРИНИ ЎТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ**

**Х. Ибрагимов., Н. Қодирова ЖДПИ талабалари**

Таълим методлари муайян педагогик жараёндан кўзда тутилган мақсадларга эришиш учун бажариш лозим бўлган вазифаларни амалга оширишда қўлланиладиган турли-туман иш усуллари ва шакллари ўз ичига олади.

Бу ишларни амалга оширишнинг шаклланган ва амалиётда қўлланилаётган ҳар турли усуллари ва шакллари асосида кўплаб таълим методлари ҳосил бўлган ва бу жараён давом этмоқда. Шундай методлардан айримларини куйида амалда қўллаб кўрамиз.

**1-босқич. Ўқувчиларнинг бошланғич ва умумий билимларини аниқлаш ҳамда мавзуга олиб кириш мақсадида “Ақлий ҳужум” методидан фойдаланамиз**

“Ақлий ҳужум” методи - бирор муаммо бўйича таълим олувчилар томонидан билдирилган эркин фикр ва мулоҳазаларни тўплаб, улар орқали маълум бир ечимга келинадиган методдир. “Ақлий ҳужум” методининг ёзма ва оғзаки шакллари мавжуд. Оғзаки шаклида таълим берувчи томонидан берилган саволга таълим олувчиларнинг ҳар бири ўз фикрини оғзаки билдиради. Таълим олувчилар ўз жавобларини аниқ ва қисқа тарзда баён этадилар. Ёзма шаклида эса берилган саволга таълим олувчилар ўз жавобларини қоғоз карточкаларга қисқа ва барчага кўринарли тарзда ёзадилар.

**Саволлар (муаммо):**

1. Гап бўлақларини қандай белгиларига кўра қай усулларда ажратамиз?
2. Гап бўлақларини қандай турларга ажратамиз?
3. Нима учун гап бўлақларини бош ва иккинчи даражали бўлақларга ажратамиз?
4. Гап ҳосил қилишда эга ва кесимнинг иштироки ва уларнинг қайси бири муҳим аҳамиятга эга?

**2- босқич.** Бу босқичда юқоридаги саволларнинг ҳар бирини алоҳида интерфаол усуллар орқали кўриб чиқамиз.

**1-савол юзасидан Т-чизма график органайзерини қўллаймиз.**

**Т-чизма** мунозара вақтида қўшалок жавоблар (ҳа/йўқ, тарафдор/қарши) ёки таққослаш зид жавобларни ёзиш учун универсал график органайзер

хисобланади. Масалан “**Гап бўлакларини белгилаш**” мавзусини “тарафдор ва қарши” тамойилига асосланиб, бир жуфт ўқувчи қуйида келтирилганидек Т-чизмани тузиши ва беш минутдан кейин, чизманинг чап томонида **Гап бўлакларини белгилаш усуллари**ни беш минут ичида қанча ўйлаб топиш мумкин бўлган шунча усулни ёзиши мумкин. Сўнгра беш минут мобайнида улар бу фикрга қарши иложи борича кўп сабабни келтиришлари керак. Ана шу вақт охирида улар яна беш минут мобайнида ўз Т-чизмаларини бошқа жуфтлик чизмалари билан таққослашлари мумкин.

Гап бўлакларини белгилаш мумкин бўлган усуллар	Гап бўлакларини белгилаш мумкин бўлмаган усуллар
<p>Сўроқ бериш усули орқали аниқлаш мумкин. <b>Масалан:</b> Ким, нима, қаер сўроқларидан бирига жавоб бўлган гап бўлаги эга дейилади.</p> <p><b>2.</b> Синтактик алоқа асосида боғланган сўзларнинг биридан иккинчисига сўроқ бериш усули орқали аниқлаш мумкин. <b>Масалан:</b> У келди</p> <p><b>3.</b> Сўз туркумларига қараб аниқлаш мумкин. <b>Масалан:</b> Эга кўпинча от билан, кесим эса феъл билан ифодаланади.</p> <p><b>4.</b> Гап бўлакларини уларнинг грамматиш шаклланишига қараб аниқлаш мумкин. <b>Масалан:</b> қаратқич келишигидаги сўз аниқловчи, тушум келишигидаги сўз тўлдирувчи васифасида келади.</p>	<p><b>1.</b> Сўроқ бериш усули орқали аниқлаш мумкин эмас. <b>Масалан:</b> Биз кетдик, хола.</p> <p><b>2.</b> Синтактик алоқага киришган ҳар қандай икки сўзга сўроқ буриш орқали аниқлаб бўлмайди. <b>Масалан:</b> Соғлигим - бойлигим.</p> <p><b>3.</b> Сўз туркумларига қараб аниқлаш мумкин эмас, чунки эга ва кесим от билан ҳам феъл билан ҳам ифодаланиши мумкин.</p> <p><b>4.</b> Гап бўлакларини уларнинг грамматиш шаклланишига қараб аниқлаш мумкин эмас. <b>Масалан:</b> Пахтани завқ билан тердим. Ҳол Пахтани машина билан тердим. Тўл.</p>

## 2-саволимизга Кластер методи орқали аниқлик киритиб оламиз.

“Кластер” лотинча сўз бўлиб, “ғунча, боғлам” маъносини англатади. Кластер методи бирор объект, предмет, тушунча билан боғлиқ бўлган атамалар, сўзлар, ибораларни жамлаш ва ўзаро боғлиқликда кўргазмали шаклда ифода этишдан иборат. Шунга кўра бу методни ахборотларни ёйиш методи деб ҳам аташ мумкин. Мазкур метод турли хил тушунчалар, ғоялар ўртасидаги боғлиқликларни муайян тизимли график шаклда тасвирлаш орқали улар туғрисида бирмунча яққол фикрлаш имкониятини беради.

## 3-саволга аниқлик киритиш мақсадида қуйидаги методлардан фойдаланамиз.

**Концептуал жадвал.** Учта ва ундан кўп жиҳатлар ёки саволларни таққослаш тақозо этилганида ушбу усул айниқса фойдали бўлади. Жадвал қуйидагича тузилади: вертикал бўйича таққосланадиган нарсалар, горизонтал бўйича эса – ушбу таққослаш бажариладиган хусусият ва хоссалар жойлаштирилади.

Масалан концептуал жадвал орқали Гап бўлаklarини таққослаб кўрсатиш мумкин.

Гап бўлаklари	Сўроғи	Қайси бўлаklарга тобеланиб келади	Ифодаланиши
Эга	Ким, нима, қаер	Кесим	Барча сўз туркумлари, синтактик ва фразеологик бирликлар билан.
Кесим	Нима қилдим, нима қилдинг, нима қилди... в.х.к.	-	Мустақил сўз туркумлари ва алоҳида олинган сўз туркумлари ҳамда синтактик ва фразеологик бирликлар билан.
Тўлдирувчи	Кимни, нимани, ким билан, нима билан, кимга, нимага...в.х.к	Кесим	Барча мустақил сўз туркумлари ва отлашган сўзлар ҳамда синтактик ва фразеологик бирликлар билан.
Аниқловчи	Қандай, қанақа, қайси, қанча, нечта, кимнинг, ниманинг... в.х.к.	Барча гап бўлаklари	Тақлид ва мустақил сўз туркумлари билан ҳамда синтактик ва фразеологик бирликлар билан.
Ҳол	Нима учун, нима сабабдан, қай ҳолда, қай тарзда, қачон...в.х.к.	Кесим	Тақлид ва мустақил сўз туркумлари билан

#### “ФСМУ” методи

Технологияни амалга ошириш тартиби:

- қатнашчиларга мавзуга оид бўлган якуний хулоса ёки гоё тақлиф этилади; - ҳар бир иштирокчига ФСМУ технологиясининг босқичлари ёзилган қоғозларни тарқатилади: (Ф)- фикрингизни баён этинг. (С) - фикрингизнинг баёнига бирон сабаб ко‘рсатинг. (М) - ко‘рсатилган сабабни тушунтирувчи (исботловчи) мисол келтиринг. (У) - фикрингизни умумлаштиринг. Масалан: Ф–Эга ва кесим гапнинг бош бўлаklари ҳисобланади. С – Чунки бу бўлаklар гапнинг грамматик марказини ташкил этади, уларсиз гап тузиб бўлмайди. М – Масалан: Мен ҳозирда марказ тингловчисиман. Гапини олиб қарайдиган бўлсак, бу гапдан эга ва кесимни чиқариб ташласак маъно умуман ёқолади. У – Демак, эга билан кесим гапни ташкил этишда муҳим аҳамиятга эга. Улар гапнинг асосий ядроси ҳисобланади, гап учун зарур бўлган предикация бош бўлаklар ёрдамида ифодаланади.

Юкоридагилардан кўришиб турибдики, фанни ўқитиш жараёнида таълим олувчига билим бериш, билимни ишлата билишни, ундан амалда фойдалана билишни ва пировардида, янги билим яратиш механизмини ўргатишда таълим методларини самарали қўллаш муҳим аҳамиятга эгадир.

### ДИДАКТИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ ЭТО СРЕДСТВА ПОЗНАНИЕ УРОКА М.Якубжанова РЦШКРНО

В настоящее время у нас в стране придается большое значение изучению и преподаванию иностранных языков. И это, конечно, неспроста. Сегодня для нашей страны, стремящейся занять достойное место в мировом

сообществе, трудно переоценить значение совершенного знания иностранных языков нашими людьми, ведь народ наш видит свое великое будущее в согласии, сотрудничестве с иностранными партнерами. Данные факторы обуславливают повышение внимания к проблемам обучения языкам, поскольку язык является важнейшей составляющей структуры личности человека. Это средство укрепления единства общества, активизации открытого общения и понимания. Образование на родном языке и многоязыковое образование, включающее в себя и межкультурное сотрудничество, - мощные средства социальной интеграции.

В процессе преподавания русского языка в национальной школе очень важно уделять внимание воспитанию у молодёжи интереса и любви к русскому языку. В условиях сельской школы, где чаще всего отсутствует русская языковая среда, особенно важно на каждом уроке при изучении любой темы уметь вовлечь учащихся в активный речевой процесс.

Каждый урок следует строить таким образом, чтобы красота и величие русской речи открывались детям в его новом проявлении. А чтобы урок был эффективным, чтобы налицо были результаты, нужно постараться разнообразить урок привлечением различного дополнительного материала для активизации учащихся. Дополнительными раздаточными дидактическими материалами с заданиями, новыми текстами, кроссвордами, загадками и пословицами, объединенных одной общей темой, естественно, рождают разнообразные диалоги и связные монологические высказывания детей, вызывают особый интерес к урокам русского языка.

Дидактический материал, различные виды заданий для урока надо подбирать в соответствии с возрастными, психологическими, индивидуальными качествами учащихся. Особое внимание при подготовке и проведении личностно-ориентированного урока русского языка уделяется работа по развитию речи учащихся. Формы такой работы многообразны, значимость ее велика, т.к. саморазвитие, самораскрытие, самообразование личности, на которые и направлен личностно-ориентированный подход. Невозможны без систематической, целенаправленной работы по обогащению словарного запаса учащихся, по формированию умения свободно, логически, правильно, ярко, выразительно излагать собственные мысли устно и письменно, строя высказывания любого типа и стиля речи. В статье предлагаем дидактические материалы к разным темам.

**Дидактический материал к теме: Число имени существительного.**

**Карточка №1.** Назовите предметы, изображенные на картинках. Запишите существительные в единственном и множественном числах.



**Назовите мультфильмы. Вспомните песни из них.**

**Карточка №2.** Прочитайте хором: дороги, улица, берега, пассажир, берёзы, горизонт.

- По какому признаку можно разделить данные слова на 2 группы?
- Разделите данные слова на 2 группы.
- Запишите в первый столбик имена существительные единственного числа, во 2-й столбик – множественного.
- У всех ли этих слов можно определить род? А почему?

*Проверка.*

- Прочитайте слова, которые вы записали в 1-й столбик.
- Почему эти имена существительные единственного числа?
- Прочитайте слова 2-го столбика.
- Как же изменяются имена существительные?

**Карточка №3.** Поработаем со словами, которые лежат у вас в конвертах. Достаньте карточки со словами. Нужно распределить имена существительные в две группы по числам: в 1-й столбик имена существительные множественного числа, во 2-й столбик – имена существительные единственного числа. А сейчас осуществим проверку имён существительных множественного числа.

– Я зачитаю имена существительные множественного числа, а вы найдите их на карточках и отложите в сторону.

**Дидактический материал к теме: Отсутствие лица, предмета**

**Карточка №1.** *Допишите ответы при помощи рисунков.*



В холодильнике нет	
У друга нет	
У Саши не было	
В зоопарке не было	

Болевая точка любого урока – поиск таких форм взаимодействия учителя и ученика на уроке, когда субъективная позиция ученика реализуется максимально. Ученикам интересно действовать, активно участвовать в ходе урока, ошибаться и искать причины ошибок, формулировать вопросы, а не только на них отвечать, т.е. им хочется на уроке занимать активную коммуникативную позицию. Задача учителя - помочь ученику увидеть его роль в уроке, перевести учебную деятельность школьника в плоскость творческой. Думаю, нет смысла доказывать, что применение новых педагогических технологий, дидактических материалов на разных этапах урока, способствует формированию компетенций у учащихся, помогает сделать урок эффективным, результативным, а процесс получения знаний для учащихся – интересным и продуктивным.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI "ONA TILI" DARSLIKLARI  
HAQIDA MULOHAZALAR  
Abdiyeva. I.B. G`allaorol tumani 70-maktab**

Ma`lumki, hozigi paytda jahon andozalariga har jihatdan mos keladigan, milliy mustaqillik g'oyasini o'zida aks ettiradigan mukammal darsliklar yaratish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Shu bois «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»,

«Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv-adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontsepsiyasi» talablari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yangi mazmundagi darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bu borada xalq ta'limi tizimida amaliy ishlar olib borilyapti. Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'lari hisobidan «Umumta'lim maktablari uchun darslik va o'quv adabiyotlarini nashr qilish tizimini takomillashtirish» loyihasi doirasida yangi avlod darsliklarini tanlov asosida yaratish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Bu borada ma'lum natijalarga erishildi.

Umumta'lim maktablarining 5-sinf "Ona tili" darsligi o'quvchilarga murojaat bilan boshlanadi. U dasturga muvofiq tarzda ona tili haqidagi boshlang'ich umumiy tushunchalarni shakllantirish uchun mo'ljallangan ixcham nazariy lavha bilan boshlangan. Dastlab tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ixcham kirish suhbat berilgan.

Darslik bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, adabiy tayyorgarlik darajalarini e'tiborga olgan holda bir necha ruknlarga bo'lingan. Ular quyidagicha nomlanadi:

1. Kirish.
2. Takrorlash.
3. Sintaksis va punktuatsiya.
4. Morfologiya.
5. Fonetika. Grafika
6. Leksikologiya.
7. O'quv yili oxirida takrorlash.

Har bir rukn ichida rang-barang topshiriqlar berilgan. Ularni bajarish uchun turli uslub va janrlardagi matnlar tavsiya etilgan.

Masalan, «Kirish»da dastlab ikkita topshiriq berilgan. Ulardan keyin tilning ijtimoiy xususiyatini yoritib berishga oid matn namunasi beriladi. So'ng «bilib oling» degan alohida bandeda ixchamgina xulosa chiqarilgan. Navbatdagi qism o'quvchilarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan mashqlarga aloqador. 1-mashq «Quyidagi so'zlarning o'zbek tilida paydo bo'lish sabablarini aniqlang» deyiladi. Ular kollej, litsey, tadbirkor, fermer, tuman, viloyat so'zlaridan iborat.

Keyingi mashq til haqidagi matnni o'qib, o'z fikrini aytib berishni talab qilishga mo'ljallangan. So'ng maqollarni ko'chirish va yodlash vazifasi berilgan. Uning izidan topishmoqlarning javobini topish talab etiladi. 1-dars oxiridagi bir nechta savollar berilgan. Kitobda rasimga qarab hikoya tuzish, turli matn namunalarini yaratish singari topshiriqlar o'quvchilardagi mustaqil, ijodiy fikrlashga rag'bat uyg'otadi, ularning bu sohadagi ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiradi.

Darslikdagi har bir mavzu tegishli savol va topshiriqlar bilan ta'minlangan. Ular mavzuning xarakteri, materialning hajmi, ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan aloqador holda tuzilgan. Birinchi mavzusi uchun 6 ta, ikkinchi mavzu uchun 3ta, uchinchi mavzu uchun 4 ta savol va topshiriqlar tuzilgan. Demak, savol va topshiriqlar o'rganilishi lozim bo'lgan materialning hajmi, xarakteri va undan

ko'zda tutilgan maqsad bilan bog'liq holda tuziladi. Ularning mazmuni ham rang-barang. Ayrim savollar muayyan til hodisasi haqidagi yangi ma'lumotlarni bilishga qaratilgan. Ayrim savollarda boshqa o'quv predmetlari, san'at turlari bilan aloqadorlik nazarga olingan. Yana bir turkum savollar esa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini takomillashtirishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi ularga ijodiy tarzda yondashishi mumkin. Tajribali o'qituvchilar matn mazmunidan kelib chiqib, savol va topshiriqlarni o'zlari tuzishlari mumkin. Bunda o'quvchilarning faollik darajasi keskin ortadi. Ularning matn mazmunini o'zlashtirishlari uchun yanada qulay sharoit yaratiladi, eng muhimi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi jonli bir holat, qulay vaziyat maydonga keladi.

Ba'zi savollar voqealarning izchilligi, mantiqiyiligini («Matnni o'qib bo'limlarga ajrating va har bir bo'limga sarlavha qo'ying») kuzatishga undasa, yana ba'zilari ularni ijodiy fikrlashga da'vat etadi («Qarisi bor uyning parisi bor» mavzusida matn tuzing). Amaliy-ijodiy faoliyatni talab etadigan («Rasm asosida hikoya tuzing») savollar ham darslikda anchagina.

Topshiriqlarda ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqartirib hikoya qilish singari ko'rinishlar mavjud. Ular o'quvchilarning og'zaki nutq malaklarning ortishiga omil bo'ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo'naltirilgan topshiriqlar ham bor. 5-sinf darsligida nazariy tushunchalar elementar tarzda taqdim etilgan.

Ona tilini uning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. 5-sinf darsligi bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o'zbekcha so'z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab etishlari uchun dastlabki qadamlar qo'yiladi. Ammo har bir matnning o'ziga xos tarzdagi yondashuvlarni taqozo etishini ham unutmashlik kerak.

Darsliklar bilan birgalikda o'qituvchi uchun metodik qo'llanma yaratilmoqda. Metodik qo'llanmada har bir darsning o'qitish metodikasi, darslikdagi mavzularga qo'shimcha ma'lumotlar, mashg'ulotlar, topshiriqlar o'rin olayapti, bu esa o'qituvchiga har bir darsni mazmunli qilib o'tishiga imkon tug'diradi. Tanganing ikkinchi tomoni sifatida ba'zi jihatlariga e'tiborliroq bo'lishimiz ham lozimdir. 5-sinf "Ona tili" darsligida tilshunoslikning Fonetika, Morfologiya, Sintaksis, Grafika, Leksikologiya, Punktuatsiya kabi bo'limlariga e'tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, biz ta'lim mazmunini yangilash, integratsiya qilish jarayonini hozirgi kunda maktab darsliklaridan o'rin olgan til hodisalari va ularning atamalariga bag'ishlangan jarayonlarni chiqarib tashlashni, ularni qandaydir batamom yangilari bilan almashtirishni nazarda tutish emas, balki mana shu til birliklarini qanday maqsadda o'rganish va qo'llashni tushunib olgan holda o'quvchilarga yetkazish lozim bo'ladi. Bu esa hozirgi ta'lim jarayonida o'ta muhimligi bilan dolzarblik kasb etadi.

## “ҲАМ” ВА УНИНГ СИНОНИМ МАЪНОЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Абдувалиев А

Бугунги кунда таълим-тарбия тизимини тубдан такомиллаштиришни амалга ошириш учун ислоҳотлар олиб борилмоқда: шу билан бирга инсон ва ҳозирги ёшларни онг-тафаккурини тубдан ўзгартириш масаласида Президент Фармон ва Қарорлари амалга оширилди. Бунда ҳозирги таълим соҳасидаги муаммо ва камчиликларни бартараф этиш, асосий масала қилиб қўйилмоқда. Ҳозирги кунда ўзбек тили ва адабиёти фани соҳасида, катта чоп этилган луғат ва дарсликларда ҳам айрим камчиликлар мавжуд. Биз ушбу ишда “ҳам” сўзининг форс-тожик, ҳамда ўзбек тилида қўлланган ўзбекча эквивалентлари ҳақида маълумот бермоқдамиз. Дарслик ва луғатларда ҳам, “ҳам” сўзи ҳақида айрим маълумотлар берилган. Масалан: “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳам сўзи ҳақида қуйидаги маълумот берилган:

“Ҳам-бирга, бир-бири билан; бирга бажарувчи тенг, бир хил; отларга қўшилиб, асосдан англашилган тушунчага алоқадорлик, унинг биргаликда бажариш каби маъноларни ифодаловчи отлар ясаиди: ҳамкасб, ҳамфикр. Кўп ҳолларда бу қўшимча-дош қўшимчаси билан синоним бўла олади”<sup>1</sup>. Ушбу луғатда ҳам –дош қўшимчаси “ҳам” сўзи билан маънодош эканлиги ҳақида маълумот берилган, лекин бу қўшимча форсча ёки ўзбекчага тааллуқли эканлига маълумот берилган. 1981 йилда чоп этилган “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да –дош қўшимчасини форс тилига тегишли эканлиги ҳақида маълумот берилган.

Масалан: жондош (форсча тожикча)-бутун ҳаёлий манфаатлари, фикри-зикири бир бўлган: якдил, ҳамнафас “Бу баҳор байрам, гуллар байрами, ...бу гандош ва жондош эллар байрами”! Шухрат<sup>2</sup>.

Ушбу луғатда жондор, жондош сўзларини форсча тожикча деб маълумот берган. Лекин “жондош” деган сўз форсча луғатларда умуман қўлланмайди. Лекин жондор сўз ўзбекча ҳамда форсча луғатларда ҳам мавжуд. Бу сўз форс тилида қўшма сўз бўлиб жондоштан (эга бўлмоқ, бор бўлмоқ) сўзининг ҳозирги замон негизи сифатида қўлланган. Лекин “жондош” сўзидаги “-дош” қўшимчаси форсча дoston тилига тегишли эмаслигини мени кўришимиз мумкин. Маълумки ўзбек ва форс тилида “ҳам” сўзи асосан бир вазифани бажариши мумкин. Лекин маъно жиҳатдан айрим ҳолда ўзбекча сўзлардан айрим жиҳатдан фарқ қилади. “Ҳам” ва дош қўшимчалари асосан арабча “форсча ва ўзбекча сўзларга олд ва ўзга қўшимча сифатида қўшилиб, асосан биргалик маъносида қўлланган.

“Ҳам” сўзи ўзлашма сўзларга қўшилиб ёки айрим ҳолда қўшилмаслиги ҳам мумкин. Масалан: Ўзбек тилида қўлланган форсча ва арабча сўзларга қўшилиши мумкин. б+а (ҳамсуҳбат, ҳамфикр, ҳамсабоқ, ҳам мактаб ва бошқалар); ф+ф (ҳамхона, ҳамсая, ҳамроҳ, ҳамсанг, ҳамроз кабилар) форсча ўзбекча (ҳамқишлоқ, ҳамюрт).

<sup>1</sup> Ўзбек тили изоҳли луғати. 5-том. 591-бет.

<sup>2</sup> О.Т.И.Ж. Москва “Рус тили наشريёти” 1981 йил, 1-т. 288-бет.

ЎТИДнинг янги чоп этилганида ҳам+ўзбекча сўзлар билан ясалган куйидаги сўзлар берилган: ҳамёстик (ёстикдош), ҳамёбок (ётоқдош), ҳамюрт (бир юртда туғилиб ўсган), ҳамқишлоқ, ҳамкур, ҳамтовоқ кабилар. Бу сўзларнинг барчаси ўзбеклар –дош қўшимчасини олиши мумкин. Арабча сўзлар билан қўлланган сўзларнинг аксарияти форсча ҳам сўзи ўрнида ўзбекча –дош қўшимчасини олиб, бир хил маънода қўлланиши мумкин. shuni ҳам таъкидлаш лозимки айрим арабча сўзлар ҳам ўзбекча –дош қўшимчасини қабул қилиб, форсча ҳам сўзини қабул қилмаслиги мумкин. Масалан, ўзбек тилининг изоҳли луғатида гамдош (434-б, 4 том) сўзи қўлланган ўзбек тилида гамдош – қайғудош деб ёзилиши мумкин, эркин луғатларда, ўзбекча ва форсча луғатларда “ҳамғаш” деган форсча сўз қўлланмаган – худди шундай ҳам+форсча сўзлар қўлланганда ҳам жуда кўп сўзлар ўзбекча дош қўшимчасини қабул қилмайди ва аксинча ушбу форсча сўзлар билан биргаликда бир хил маънони англатувчи ўзбекча эквивалентлари, яъни ўриндошлари қўлланади. Масалан: ҳамшира –кўкалдош, (hamsoya-ko'lankadosh yoki qo'shni, hamroh-yo'ldosh, hamkor-birga ishlovchi va boshqalar.

Ayrim o'zbekcha so'zlar –dosh yoki ham so'zi yordamida yozilmaydi. Bunday holda bu so'zlarning forscha o'rindoshlari qo'shimchalarni qabul qilishi mumkin. Uy, kuy kabi so'zlarning o'rnida xona, ohang so'zlari ham –dosh yoki ham so'zini qabul qilishi mumkin xonadosh-hamxona, ohangdosh-hamohang. O'zbek mumtoz she'riyatida, ya'ni Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida ham so'zi faqat forscha, arabcha so'zlar bilan birgalikda qo'llangan. O'TI 1 dagi o'zbekcha so'zlar bilan qo'llangan so'zlar asarda ishlatilmagan. Fors mumtoz adabiyotida -dosh affiksi -tosh tarzida qo'llanganini ko'ramiz. –tosh ham –dosh ham ma'nodosh fors tilida –tosh shaklida qo'llangan. Masalan:

Chu xesh guft Baktosh bo xayltosh

Chu dushman xaroshidi, emin meboh

Sa'diy Sheroziy.

(Farhangi zaboni tojiki Moskva 1969 2-tom 456-b.)

Baytdagi xayltosh so'zi hamxayl (guruhdosh, toifadosh, qavmdosh), hamqator (safdosh), hamqabila (qabiladosh) tarzida ma'nodosh ekanligini ko'ramiz. O'zbekcha lug'atlarda, ya'ni o'zbek tilining izohli lug'atida ham –tosh qo'shimchasini –dosh, yoki forscha ham qo'shimchasini ekvivalenti ekanligi haqida ma'lumot berilmagan. Ma'lumki, fors tilida qo'shimchalar asosan so'zlarning oldiga qo'shilganligi uchun –tosh qo'shimchasi old qo'shimcha sifatida, toshxo'ja, toshmomo, Toshmat, Toshmuhammad abi so'zlarda tosh so'zi forscha ham so'zi ma'nosida qo'llanganini, ya'ni Xo'janing nomi, Muhammadning hamnomi ma'nolarida qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa shuki, o'zbek va fors tilida qo'llangan o'zlashma so'zlarning ma'nolariga ko'proq e'tibor berilsa, yanada chuqurroq o'rgansa tilshunoslik sohasida yaxshiroq bo'lardi. Bu maqolada bir so'zning fors va o'zbek tilida qo'llanishi va –dosh, -tosh qo'shimchalarining o'zbek tiliga xosligi va uning

o'rindoshi bo'lgan ham esa ham fors tilida, ham o'zbek tilida ma'nodosh qo'shimcha sifatda qo'llangani haqida ma'lumot berishga harakat qildik.

## **BADIIY MATNDA TASVIRIY VOSITALARNING O'RNI**

### **X.Ibragimov (JDPI)**

Badiiy matnda qo'llaniladigan barcha so'zlar tasviriy vositalar sanaladi. Matnni hosil qiluvchi so'zlar emotsionallikni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. (ekspressiya- lot. expressio – ifoda, ifodalilik. Nutqning ta'sirchanlik xususiyati. Bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi, emotsiya-fransuzcha emotion, lotincha emovere-hayojonga keltirmoq, to'qinlantirmoq, mavj urdirmoq, hayojonlantirmoq).

Eksperssivlik polisemantik so'zlar, stilistik chegaralangan leksika, sinonimlar troplar vositasida ifodalanadi. So'zlar asosiy ma'nosi bilan neytral (betaraf), yana bir ma'nosi bilan esa emenressiv-hissiy fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu ma'nolar matn ichida reallashadi. Yuz-betaraf: chehra, siymo-ijobiy ekspressiya, bashara, turq-salbiy ekspressiya.

Ifodalilikni vujudga keltiruvchi leksik-semantik vositalardan biri troplardir. (gr. tropis-aylanish, yo'nalish ko'chim so'z yoki so'z birimasining ko'chma ma'noda qo'llanilishi. Metafora, metonomiyalar tropning ko'rinishlari sanaladi).

Chog'ishtirish va o'xshatish troplarga asos qilib olinadi. Bunda so'zlarning yasama ma'nolariga asoslanadi. So'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni, hatto o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'nolarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, radio xabariga ko'ra kecha kuchli yomg'ir bo'lishi kerak edi. Bo'ldi yomg'ir, bo'ldi yomg'ir. Havo 35<sup>0</sup> isib ketdi (yomg'ir yog'madi ma'nosi).

Badiiy ifodalashning asliy vositasi bo'lgan troplarda so'z ma'nosining yasalishi predmetlardagi turli belgilarga qarab farqlanadi: predmetlardagi o'xshashlik, hodisalarning bir-biriga aloqasi (yaqinligi), zidlik belgilariga qarab bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan troplarni ikkiga ajratish mumkin:

1. So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar: giperbola, meyozis.

2. So'z ma'nosining sifatliy ko'chishiga asoslangan troplar: metafora, metanomiya.

Badiiy matnda troplarning vazifasi xilma-xildir. Tasviriy vositalar tahlilida ularning vazifasini oydinlashtirish kerak.

Giperbola. (grekcha, hyperbole – mubolag'a. Narsa-hodisa belgilarini o'ta orttirib ko'rsatish). – mahovat qilish, orttirib ko'rsatish ma'nolarini ifodalab, qahramonlarning sifatini orttirib, kuchaytirib tasvirlash uchun xizmat qiladi.

Masalan,

Oh ursa olamni buzar tovushi,

To'qson molning terisidan kovushi.

Meyozis. (grekcha, meiosis-kichraytirish, qisqartirish, kamaytirish) – nutq obektiga tegishli belgini kamaytirib ko'rsatish.

Daryo xuddi zilol oyna,  
Tasviri bir qiz bo'lgan edi:  
Butun olam bir oppoq siyna,  
Ikki qora ko'z bo'lgan edi (H.O)

Metafora – (grekcha, metaphora - ko'chirish) bir predmet nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish hodisasi. U orqali so'zlarning yangi ma'nolari paydo bo'ladi. Masalan, - kechir, arslonim, hozir uyingga bormoqchi edim, dedi hadicha xola quvonib.(Oybek). Arslonga O'ktam o'xshatilmoqda. Badiiy matnlarda metaforaning epitet, simvol, jonlantirish, apastrofa xarakteridagi ko'rinishlari mavjud.

Metanomiya – (grekcha, metonymia – qayta nomlash). Bir predmet, belgi, harakatning nomini o'zaro ichki yoki tashqi bog'liqlik asosida boshqa predmet, belgi yoki harakatga nisbatan qo'llagan metonomiya sanaladi.

Masalan:

Bitsin endi eski turmush,  
Ul kulohu jandalar... kuloh – xuroftochi,  
janda – darvesh –qalandar.

Majlisga butun qishloq keldi. O'rin-joy odamlar ma'nosida qo'llanilmoqda.

Badiiy tekstning lingvistik tahlilida lug'at ustida ishlanadi. Lug'at ustida ishlash o'quvchining so'z boyligini og'zaki va yozma nutqini o'stirishning eng muhim omillaridan biridir. Lug'at ustida ishlash jarayonida faqat so'zlarning tub ma'nosini emas, yasama ma'nolarini, har bir so'zning qaysi til elementi ekanligi, etimologiyasi, grammatik shakli bilan ham tanishadilar.

Darhaqiqat, notanish uchragan so'zning ma'nosi aniqlanmasa, yoki bir so'z o'quvchi va yozuvchi tomonidan turlicha tushunilsa, anglashilmovchilik kelib chiqadi. "So'zlarning ma'nolarini tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz" (Dekrat).

Matnda uchraydigan ayrim so'z va iboralar o'quvchilar uchun tushunarsiz bo'lsa, albatta, lug'atlarga murojat qilinadi. Masalan:

Olamni sundi nigorim ol dedi,  
Olma birma bu ko'ngulni ol dedi.  
So'ragan erdim olmasining rangini,  
Ne so'rursen olma rangi ol dedi.

Alisher Navoiyga mansub bo'lgan ushbu tuyuqdagi ol so'zining ma'nolari hozirgi til nuqtai nazaridan to'liq tushunarli emas. Bu o'rinda omonim so'zlar lug'atiga murojaat qilinadi.

Badiiy matnda eskirgan (arxaik, tarixiy) so'zlar uchrashi mumkin: qushbegi, chog'ir ichimlik, xaram xos joy, avrat, dodxoh, munshi, sarmunshi kabi. Bunday so'zlar uchun ham lug'atlar yordamga keladi. Bu holat o'zbek mumtoz adabiyotining namunalarida ko'plab uchraydi. Ko'pgina eskirgan so'zlar hozirgi paytda qo'llaniladigan maqol, matal, turg'un iboralar tarkibida qo'llanadi: mijja qoqmoq, almisoqdan qolgan, chippakka chiqmoq, eshigini turumini buzmoq, tillini

tilli desang terak bo‘yi o‘sadi kabilarni anglash uchun ham lug‘atlarga murojaat qilinadi.

Darhaqiqat, lug‘at so‘z xazinasigina bo‘lib qolmay, balki chashmasi hamdir. Shuning uchun ham A.Frans lug‘atlarni “kitoblarning kitobi” deb ataydi.

Biror matn tilshunoslik fani nuqati nazaridan tekshirilsa, diqqat til yaruslariga qaratiladi – leksik, fonetik, grammatik birliklardan qay darajada foydalanganliklari nazarda tutiladi.

Adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan esa, matnning janr xususiyatlari, shakl va mazmun, syujet va kompozitsiya, uslub va uslubiy vositalardan qanday foydalanganligi tahlil qilinadi. Turli tip matnlardagi til ifoda vositalarining tanlanishi va qo‘llanilishidagi potensial (kuch-qudrat, imkoniyat) hamda amaliy imkoniyatlarni kuzatib, tekshirib, chiqish tahlilning maqsad va vazifalarini belgilaydi.



Мундарижа:

1.	<b>Сўз боши</b>	3
2.	<b>Каримов С.</b> Профессор Бозор Ўринбоев ва Самарқанд тилшунослик мактаби.	5
3.	<b>Улуқов Н.</b> Ўзбек топонимик лексикографияси етакчиларидан бири	7
4.	<b>Санақулов У.</b> Мазмунли ҳаёт соҳиби	11
5.	<b>Алмаматов Т.</b> Устозни хотирлаб	18
6.	<b>Қосимов У., Аҳматова У.</b> Қодирийнинг сўз санъати ва тасвирлаш маҳорати.	19
7.	<b>Комилов Х.</b> Мехр ва маъсулиятга тўла инсон	22
8.	<b>Abdiyev M.</b> Ona tilidan mustaqil ishlarini tashkil etish tamoyillari	23
9.	<b>Пардаев А.Б.,</b> Шогирдларнинг юрагида яшайди	25
10.	<b>Ўринбаева Д.</b> Лингвостатистик таҳлиллар лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвопоэтик тадқиқотлар асоси сифатида	27
11.	<b>Пардаева З.Ж.</b> Роман бадий матни стилистикаси таҳлили	29
12.	<b>Раҳмонов С.</b> Самарқанд тумани туркман қишлоғи ўғузлари тарихи ҳақида	32
13.	<b>Abdiyev M., Mansurova D.</b> Yozma ishlarni tashkil etishning metodik talablari	34
14.	<b>Алмаматов Т.</b> Тасвирий воситалар-ўқувчилар нутқини ривожлантирувчи сифатида	36
15.	<b>Мусаев А., Умрзоқова Г.</b> Кўчирма гапли қўшма гапларда тартиб	39
16.	<b>Soyirov S.</b> “Ravzat ush-shuhado” asarida she’riy san’atlarning qo’llanishi.	42
17.	<b>Жўраев Ж.</b> Жиззахлик шоир тўраҳон маҳдум-афсус.	45
18.	<b>Юсупова О.</b> Олмошларда ижобий баҳо оттенкаси	47
19.	<b>Холмухамедов Б.</b> Сўз ясалишига хизмат қилувчи ҳодиса	50
20.	<b>Турсунпўлатов М., Қўшназаров Ф.</b> Бадий услуб тушунчаси	52
21.	<b>Хайдаров Д., Камолова Ф.</b> Ўзбек тилида спорт терминологиясининг янги босқичи	54
22.	<b>Usmonov A.N.</b> Globallashuv davrida fonema	56
23.	<b>Садикова Б.</b> Стилистические особенности разговорной речи перевода романа никколо амманити «я не боюсь»	58
24.	<b>Ходжиметова Д.</b> О синонимичных фразеологических гнездах русского и узбекского языков	60
25.	<b>Туробов А.</b> Қўшма сўзлар кичик синтаксис объекти сифатида..62	62
26.	<b>Мусаев А., Ражабова Д.</b> Бадий асарларда туб сўзларнинг қўлланиши	64
27.	<b>Сулаймонов И.</b> Вильям Рашбрукнинг “Ўн олтинчи аср бунёдкори” асарида бобур шахсияти тасвири.	67
28.	<b>Рашидова У., Хотамова Г.</b> Ўзбек тилидаги соматик фразеологизмларни ижодий-семантик ўзгартириш усулларига доир	71
29.	<b>Пирназаров У.П., Каримова Г.Х.</b> Этимологический и словообразовательный анализы в ономастических исследованиях.	75
30.	<b>Хасанова Д.</b> Социолингвистикада шахс тушунчалари.	77
31.	<b>Alibekova Z., Khushiyeva N.</b> Modern methods in teaching foreign languages	79
32.	<b>Qo’shmonova Yu.</b> Xurshid Do’stmuhammad publisitikasida iboralarning qo’llanish xususiyatlari.	82
33.	<b>Мухаммадалиева М.</b> Ўзбек тили касб-хунар номларининг ясалишида форс-тожик тилининг таъсири.	84
34.	<b>Raximova M.</b> Frazelogizmlar matbuot tilida muhim vosita.	87
35.	<b>Солихўжаева Х.</b> Мехржон геартонимининг лингвокультурологик хусусиятлари	89
36.	<b>Хојамуратова Г.</b> О‘zbek tili va o‘zlashmalar	91
37.	<b>Raxmatullaeva L.</b> Umumiy tilshunoslik va tilshunoslikda modellashtirish metodidan foydalanish	94
38.	<b>Сойинов С., Имомова Г.</b> “Бобурнома” асари тилида форсча келишик вазифасини бажарувчи сўзларнинг қўлланиши.	96
39.	<b>Usmonov A.</b> Bog‘lovchilarning pragmatik xususiyatlari doir.	100
40.	<b>Ibragimova L.</b> Undovlarning sotsial tiplarga xoslanishi.	102
41.	<b>Жумаева Ф., Жумаева Б.</b> Ассоциатив тажриба материаллари асосида ассоциатив муносабатни аниқлаш	104
42.	<b>Сувонова Р.</b> Ойбек шеърисида ўхшатишлар	107
43.	<b>Умирова С.</b> Поэтик индивидуаллик ва аллитерация	109
44.	<b>Мирзохидова Л., Аҳмад Яссавий</b> шеърисида мажозий тасвирларнинг исломий талқини	112
45.	<b>Турсунқулов А.</b> “ Ёдгор” – ишқий қахрамонлик достони	114
46.	<b>Қўшмонова Ю.</b> Хуршид Дўстмухаммад публицистикасининг айрим тил хусусиятлари	117
47.	<b>Юлдашева С.</b> Қиссанинг ифода услуби ва бадий маҳорат.	121
48.	<b>Маматқулов Ф.</b> Оила маънавиятининг миллий тарбия тизимидаги ўрни ва аҳамияти.	123

49.	<b>Эшмуродова З.Р.</b> Шарк ва ғарб халқ қахрамонлик эпосларига бир назар.	124
50.	<b>Дилором А.</b> Сиз эдингиз ойгулгинам, мен бахтиёр.	127
51.	<b>М Абдйев Рахматова М</b> <b>Jumabozor qishloq shevasining assimillatsiya hodisasi</b>	129
52.	Хамроева Ш.,Л.Бозорова Корпус менежери қидирув тизими сифатида	131
53.	<b>Хамроева Ш. Л.Бозорова</b> Корпус менежери қидирув тизими сифатида	134
54.	<b>Soatov B.</b> Bolalarning ravon nutqini tarbiyalashda tarbiyachining vazifalari.	136
55.	<b>Махамматов А., Jonzoqova R.</b> Musiqa darslarining jismoniy tarbiya darslari bilan aloqadorligi.	138
56.	<b>Qo'shoqova F.</b> Mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish usulla	142
57.	<b>Xamroyeva A.</b> Go'zal xotiralar jilvasi	144
58.	<b>Ergasheva S., Isroilova F.</b> Kitob mutolaasi – bugunning masalasi	145
59.	Ахмедов С. Антропонимларнинг семантик хусусиятлари (Жиззах вилояти топонимлари мисолида)	147
60.	<b>Jo'rayev M.</b> Lirikada she'riy san'atlarning o'rni	149
61.	<b>Tulishova G.</b> Abdulla Oripov ijodida Ibn Sino obrazi	151
62.	<b>Musayev A., Akramova D.</b> O'zbek tilining sofligini saqlashda purizm so'zlar	153
63.	<b>Файзуллаев Б., Мамасова Ф.</b> Синтактик диалектизмлар ва уларнинг бадий матндаги ўрни	155
64.	<b>Musayev A., Shukurova D.</b> Muhammad Yusufning stilistik figuralardan foydalanish mahorati	157
65.	<b>Файзуллаев Б., Абдуғаниева М.</b> Бадий матнда ажралмайдиган гаплар	159
66.	<b>Abduvaliyeva Z., Luqmonova G.</b> “Boburnoma”da hozirgi zamon fe'lining qo'llanilishi va ma'nolari	162
67.	<b>Файзуллаев Б., Исломов Д.</b> Диалектализмларнинг луғат таркибидagi ўрни	164
68.	<b>Musayev A., Abdullayeva N.</b> Cho'lpon she'riyatida ko'chimlar	167
69.	<b>Almatova Sh., Abdurahmonova N.</b> Uyushiq bo'laklar va ularning o'rganilishi.	169
70.	<b>Tursunqulov A., Tuqulova S.</b> Учрашув олқишларининг тарбиявий аҳамияти	171
71.	<b>Abduvaliyeva Z. Usmonova Z.</b> Alisher Navoiyning “Farxod va Shirin” dostonida so'z birikmalarining qo'llanilishi	173
72.	<b>Каримова Ю., Раҳимзода С.</b> “Ҳевоқ афсонаси”да тангри тараҳхуми	175
73.	<b>Almatova Sh., Samadova M.</b> Rang-tus, maza-ta'm va hid bildiruvchi sifatlarni o'tish.	177
74.	<b>Адилова С.А, Маматова М.О.</b> Разеологизмы как элементы занимательности на занятиях русского языка	179
75.	<b>Almatova Sh., Sattorov Sh.</b> Bir necha ergash gapli qo'shma gaplarning birgalik ergashish usuli	181
76.	<b>Шербоева Н., Розимова Д.</b> Фафур Фулом шеърятда тасвирий воситалар	183
77.	Salimova D., Teshayeva N. So'zlarning ko'p ma'nolilik va bir ma'nolilikka xos tabiati.	185
78.	Ибрагимовал., Ачилова Д. Бадий матннинг лексик - семантик хусусиятлари.	187
79.	Мамадалиева З., Абдуғафорова Г. “Садди Искандарий” достонида шоҳ ғозий образи	189
80.	<b>Дўстова С.</b> Лаффасий тазкирасининг табибий ва ходим тазкиралари билан қиёси.	192
81.	<b>Сапарова З., Хасанова Н.</b> Ёшлар ўртасида китобхонлик маданиятини шакллантириш.	194
82.	<b>Jumayeva Z., Ismoilov M.</b> Lug'at xususiyatlari.	196
83.	<b>Boysinov S., Xolmo'minova A.</b> “Qora kitob” asari va bugungi haqiqatlar	199
84.	<b>Jumayeva Z., Qo'ziboyev N.</b> O'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish	200
85.	<b>Махаммადйев Х., Ungarova D.</b> Gazeta tilidagi tanqidiy materiallarda qo'shma gaplar stilistikasi	202
86.	<b>Hazratqulova E., Ilhomova D.</b> Iqbol mirzoning “Bonu” romanida obraz yaratish mahorati	204
87.	<b>Soatova N., Umarova Sh.</b> Amiriy adabiy merosi xususida	206
88.	<b>Абдулахадова Ш.Р., Бойхўрозова Г.</b> Сўзлашув нутқининг ўзига хос хусусиятлари.	209
89.	<b>Jumayeva. Z., Mamatkobilova F</b> Zamonaviy ta'lim metodlari davr talabi	211
90.	<b>Fayzullayeva D., Turdiyev Sh.</b> Undalmalar yordamida shakllangan murakkablashgan sodda gaplar	212
91.	<b>Lutfullayev. J.</b> “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehergarlar jangi” romanida badiiy fantastika va hayot haqiqati.	214
92.	<b>Fayzullayeva, D., Tursunqulov N.</b> Badiiy matnda sinekdoxadan foydalanish	218
93.	<b>Синдоров Л.</b> “Ҳибатул Ҳақойик” асаридаги айрим теонимлар хусусида.	219
94.	<b>Усмонова М.</b> Алишер Навоий асарлари тилида мевасиз дарахт номларининг қўлланиши	224
95.	<b>Parmonov I., Majidov F</b> Husayn Boyqaro zamondoshlari xotirasida	226
96.	<b>Hamidova G.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otishning o'ziga xos xususiyatlari	228
97.	<b>Qosimov U., Oripova N.</b> Adabiyot- bebaho ma'naviy boylik	229
98.	<b>Musayev A., Bobonazarova M</b> Erkin Vohidov lirikasida oksimaron	232
99.	<b>Hasanova G,</b> “Ertaklar maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda sabr – qanoat tushunchalarini shakllantiruvchi vosita	234
100.	<b>Зафаржонова Ф.</b> Жек Лондоннинг “мартин иден” романи хусусида	235

101.	<b>Pardayev Siroj.</b> Leksikologiyaning o‘rganish predmeti va lug‘at tarkibi	237
102.	<b>Абдувалиев А</b> “Хам” ва унинг синоним маънолари ҳақида айрим мулоҳазалар	239
103.	<b>Махамматов А., Sanakulova D</b> Talabalarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompyuter dasturlaridan foydalanish	241
104.	<b>Sunnatova G.,Mamirov O</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar va o‘quvchilarni kitob ustida ishlash metodikasi bo‘yicha ayrim tavsiyalar	244
105.	<b>Бозорова Р</b> Кимгаки, ёр эрса илм ва хунар ўзи жим турсада илми гапирар	247
106.	<b>Бойматова Д.</b> Мураккаблашган содда гапли матнлардааксиологик модалликнинг ўзига хос тарзда ифодаланиши	249
107.	<b>Ибрагимов Х., Қодирова Н.</b> Гап бўлакларини ўтишда интерфаол усуллардан фойдалани	252
108.	<b>Якубжанова М.</b> Дидактические материалы это средства познание урока	254
109.	<b>Abdiyeva. I.B.</b> Umumta’lim maktablari “ona tili” darsliklari haqida mulohazalar	257
110.	Ibragimov X. <b>Badiiy matnda tasviriy vositalarning o‘rni</b>	260
111.	<b>Eshonqulova N.</b> Huquqshunoslarning nutq madaniyati	262